


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

S. AHMEDOV, B. QOSIMOV,  
R. QO'CHQOROV, SH. RIZAYEV

# ADABIYOT

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING  
5-SINFI UCHUN DARSLIK

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT-2007



*Aziz o'quvchi!*

Siz bu yildan boshlab «Adabiyot» darsini alohida o'qiy boshlayapsiz. Endi Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi nomlari butun jahonga yoyilgan buyuk bobolarimizning hayot yo'llari bilan kengroq tanishasiz. Asarlaridan bahramand bo'lasiz. Erk va mustaqillik yo'lida jonlarini fido etgan Qodiriy, Hamza va Usmon Nosirlarning Vatan va millat haqidagi o'tli satrlari qalbingizga cho'g' tashlashiga ishonamiz. Bugungi kunning ardoqli shoirlari Abdulla Oripov va Erkin Vohidovlarning xalqimiz shonli tarixidan hikoya qilib, porloq kelajakdan bashorat etuvchi go'zal qasidalari, o'yaymizki, Sizning qalbingizga ham zavq va surur bag'ishlaydi.

Qo'lingizdagи «Adabiyot» kitobi shu bilan cheklanmaydi. Unda yurtimiz tarixi bilan bog'liq olis afsona va ertaklar, bobolar hikmatidan, xalqimizning o'z shoiridek bo'lib ketgan Sa'diy Sheroyi, noyob asarlari bilan dunyo adabiyotida yangi sahifa ochgan Ezop, H. K. Andersen, S. Ekzyuperi kabi adiblar ijodi bilan ham tanishasiz.

Sizga ular zavq-u ilhomgina emas, nur va hikmat ham beradi. Go'zallik va donishmandlik olamiga kirasiz.

Bu yo'lda bosgan qadamingiz qutlug' bo'lsin!

**Taqrizchilar:**

N. G'ULOMOVA. Respublika Ta'lif markazi «Filologiya fanlari» bo'limining bosh metodisti;  
 F. UMAROVA. Toshkent viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti «Til va adabiyot ta'limi» kafedrasи mudiri, p.f.n., dotsent;  
 G. XUDOYOROVA. Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 2-umumiy o'rta maktab o'qituvchisi.


***Respublika maqsadli kitob jamg'armasi hisobidan ijara uchun chop etildi.***

**Adabiyot.** Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 5-sinfi uchun darslik / S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov. Sh. Rizayev. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. — T.: «Sharq», 2007. — 352 b.

I. Ahmedov S. va boshq.

BBK 83.3(5U)ya72

10 33645  
342



© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi, 2007.



Qimmatli farzand, o‘zingizning uch-to‘rt yasharlik paytingizni eslaysizmi? Yodingizda bo‘lsa, u paytlar televizorda beriladigan turli-tuman ko‘rsatuvlar Sizni unchalik qiziqtirmasdi. Agar buni eslolmasangiz, ukalaringizni kuzating. Ular televizor tomosha qilishdan ko‘ra ertak eshitishni ko‘proq yaxshi ko‘radi.

Shunday ham bo‘ladiki, buva va buvilar, ota va onalar har kuni aytaverib, ertaklari ham tugaydi. Eng qiziq ertaklar o‘nlab marotaba qayta aytilsa ham bolajonlar jon qulog‘i bilan eshitaveradi. Ularga ertak voqealari yod bo‘lib ketadi. Lekin, baribir, bolalar ko‘zlarini kattakatta ochgancha, bir nuqtaga tikilib ertak eshitishdan zerikmaydi.

Nega shunday? Nega oddiy gaplar emas, balki ertak va she‘rlar odamni bu qadar o‘ziga tortadi, deb o‘ylab ko‘rganmisiz?

Keling, shu savolga birgalikda javob topaylik.

To‘rt yildan buyon mакtabga qatnab bilib oldingizki, odam bolasi boshqa mavjudotlardan o‘zining fikrlay olishi bilan farq qiladi. U nafaqat o‘playdi, fikrlaydi, balki bu fikr-o‘ylarini so‘zlar orqali boshqalarga ham bildira oladi.

Odamlar fikrlar ekan, bir narsani boshqasiga solishtiradi. Bunda ular nafaqat oqni qoradan, yaxshini esa yomondan ajratadi, balki narsalar orasidagi o‘xhash, bir-birini takrorlovchi jihatlarni ilg‘aydi. Mana shu solishtirish jarayonida obrazli (timsolli) fikrlash hodisasi yuzaga keladi.

«Obrazli fikrlash» degan ibora Sizga sal og‘irlik qilayotgan bo‘lsa, buni bir sodda misol bilan tushuntiramiz.

Jajji ukalaringizning tiliga, xatti-harakatlariga e’tibor bering. Ular osmondagи bulutlarga qarab Sizga goh chopib borayotgan otni, goh ulkan odam qiyofasini ko‘rsatadilar. Bir sinchkov bola barg ustida sudralayotgan ipak qurtini har kuni qishlog‘ining chekkasidan o‘tadigan poyezdga o‘xshatsa, boshqa bola bahorda lolaqizg‘aldoq bilan qoplangan

dalalarni qip-qizil gilamga qiyoslaydi. Bolajonlar loydan kulcha, qumdan uy, plastilindan qushcha yasar ekan, yodiga o'sha narsalarning surati — timsolini keltiradi. Qo'lidagini xayolidagiga o'xshatib yasashga urinadi.

Ertaklarda esa mana shunday obrazli fikrlashning rang-barang ko'rinishlari aks etadi. Ertak qahramonlari so'z va obrazli ifodalar yordamida ko'z oldingizda jonlanadi, turli sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Voqealar shunday qiziqarli hikoya qilinadiki, o'zingizni xuddi ularning ishtirokchisidek his qilasiz.

Demak, odamlarning tabiatida bir narsani ikkinchi bir narsaga qiyoslash, hamma narsani so'z yordamida jonlantirishga moyillik, so'z san'atiga — adabiyotga qiziqish azaldan bor ekan, degan xulosaga kelsak bo'ladimi? Albatta, bo'ladi!

Ana endi ertak, she'r, hikoya ko'rinishida namoyon bo'ladigan adabiyot — so'z san'atining o'zi nima, u qanday ehtiyojdan paydo bo'ladi, degan savolga javob izlab ko'raylik.

Suhbatimiz boshida «odam boshqa mayjudotlardan o'zining fikrlay olishi bilan farq qiladi» dedik. Fikrlaydigan insonga esa xayolga berilish, orzu qilish, agar maqsadlariga erisha olmasa, armon chekish singari juda ko'p xususiyatlar ham xosdir.

Tarix to'g'risidagi hikoyalardan bir narsani bilib oldingiz. Ya'ni ibtidoiy odamlar o'zini o'rab turgan tabiat hodisalari qarshisida ancha ojiz edilar. Boshqa mayjudotlarning tabiiy imkoniyatlari odamlarning havasini keltirardi. Inson baliqdek suv ostida suzishni, qushlardek osmonda uchishni orzu qilmasdi, deb o'ylaysizmi? Albatta, orzu qilardi.

Yoki bo'limasa, yo'lsizlikdan qiynalgan odamlar ko'z ochib yumguncha o'zları intilgan manzillarga borib qolishni juda-juda istardi. Sovuq o'lkalarda yashaydigan odamlar quyoshning tansiq nurlariga qancha talpinishsa, sahroda hayot kechiradiganlar bag'rida sharqirab suvlari oqib yotadigan yashil vodiylarni ko'rgilari kelardi.

Biroq, orzu-xayol bor edi-yu, uni ro'yobga chiqarish oson emas edi. Odamlar bu orzulariga hayotda yetisha olmasa ham xayolda yetishishga, ular to'g'risida turli hikoyalar to'qib, o'zlarini yupatishga kuchli ehtiyoj sezardi. Bu orzu-istiklarga to'la hikoyalar keyinchalik ertak, afsona, rivoyat degan nomlar oldi.

Tabiatи va tarixi turli xil o'lkalardan xalqlarining ertak va afsonalari ham bir-biridan yaqqol farq qilishini sezasiz. Masalan, ko'p bora ocharchilikni

boshidan kechirgan o'lkalarda tarqalgan ertak va afsonalarda nonga yetishish eng katta baxt sanalsa, turli bosqinchilar zulmidan bezgan xalqlar dovyurak, yengilmas, mardona farzandlarni qo'msab dostonlar yaratgan.

Demak, adabiyot insonning orzu-xayoli, umid va armonlari, odam va olam to'g'risidagi tushunchalarini badiiy so'z yordamida ifoda etishi ekan. Adabiyotning asosiy ifoda vositasi esa badiiy so'z hisoblanarkan.

Adabiy asarlar bilan Siz ham albatta do'st tutinishingizga ishonamiz. Chunki adabiyot Sizning didingizni o'stiradi, fikrlash qobiliyatingizni kuchaytiradi, odob-axloqingizni yanada chiroyliroq bo'lishiga ko'maklashadi.

Adabiy asarlarni o'qigach, har kungi ko'rayotganingiz olamning naqadar rang-barang ekaniga e'tibor bera boshlaysiz. Jonsiz narsalarga jon kirgandek, bir joyda qimirlamay turgan narsalar «oyoq chiqarib yurayotgandek» bo'ladi. Demak, Siz dunyo nafosat bilan yaratilganiga, undagi har bir narsaga go'zallik qidirib boqish lozimligiga iqror bo'lasiz. Estetik (nafosatli) didingiz rivojlanadi.

Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning qo'-shiqqa aylanib ketgan «Vatanim» nomli she'ridagi quyidagi misralarni eslash kifoyadir:

Shodon kunim gul otgan sen,  
Chechak otgan izimga,  
Nolon kunim yupatgan sen,  
Yuzing bosib yuzimga.  
Singlim deymi,  
Onam deymi,  
Hamdard-u hamxonam deymi,  
Ostobdan ham o'zing mehri  
Ilig'imsan, Vatanim.

Vatanni onaga qiyoslashlarini, uni «ona Vatan» deb atashlarini ko'p eshitgansiz. Shoир o'z she'rida mana shu tushunchaga go'yo jon baxsh etadi, Vatan suratini farzandiga mehri cheksiz ona siymosida chizadi.

Kimdir ko'nglingizni og'ritganida, ko'zlariningizga yosh to'lib ko'chadan kirganingizda onangiz Sizni qanday yupatishini eslang. Shoир uchun Vatan ham xuddi shunday – dunyo tashvishlari uni «nolon»

holga solganida – qalbini tirmaganida Vatan yuzlarini uning yuziga bosadi, yupanch beradi. Bu yupanch:

qudratli xalq bag‘ridan oladigan iliqlik;

yurt quchog‘ida emin-erkin yashash quvonchi;

shoir farzandini ardoqlashga tayyor el ishonchi bo‘lib, unga tasallি beradi.

Bunday misralar bag‘riga jo bo‘lgan badiiy go‘zallik Sizning ham ko‘nglingizga ko‘chishi tabiiydir. Go‘zallikdan bahra olarkansiz, Vatanga bo‘lgan mehringiz yanada ortadi, unga munosib farzand bo‘lish istagingiz qat‘iylashadi.

Adabiyot o‘zining nafisligi bilan Sizni dag‘allik, befarqlik, yovuzlik singari yomon odatlarga o‘rganib qolishdan asraydi. U ruhingiz va yuragингизning pok bo‘lishiga, ezgu niyatlarga oshno bo‘lishingizga ko‘maklashadi.

Adabiy asarlar faqat badiiy didingizni o‘stiribgina qolmay, bilim-laringizni kengayishiga, boyishiga ham beminnat xizmat qiladi.

Masalan, tarixiy mavzuda yozilgan asarlarni o‘qib, avvalo o‘zbek xalqi, qolaversa, boshqa millatlar o‘tmishini ham yaqqol ko‘z oldingizga keltirasiz. Bundan ming yillar ilgari yashagan ajdodlarning turish-turmushi, orzu-o‘ylari, hayotiy mashaqqatlarini his qilasiz.

Yoki ilmiy-fantastik yo‘nalishdagi asarlarni olaylik. Ularda insoniyat o‘z hayotini osonlashtirish, yashash uchun qulay shart-sharoitlarga ega bo‘lish uchun qanday izlanishlar olib borgani, bu yo‘lda ne-ne to‘siqlarga duch kelgani tasvirlanadi. Bularning bari bilimingizni ko‘paytiradi, Sizni narsalar, voqealar, eng muhimi, odamlar to‘g‘risida chuqurroq o‘lashga, hamma narsaning mohiyatini anglab olishga chorlaydi.

Bir narsani yoddan chiqarmangki, odamzod yaralganidan buyon adabiyot unga hamrohlik qiladi. Ijodkor adabiy asar bag‘riga o‘zining fikr-o‘ylari, orzu-armonlarini to‘kib solsa, boshqa bir odam ularni eshitib yoki o‘qib behad ta’sirlanadi. U ham ijodkor dardiga oshno bo‘ladi, o‘zgalar tuyg‘ularini his etishni o‘rganadi.

Badiiy asarlar insonning ma‘naviy kamol topishida beqiyos ahamiyatga egadir. Odam onadan tug‘ilib oq ma‘naviyatli, ma‘rifatli bo‘lib qolmasligini yaxshi tushunasiz. Kishi bu fazilatlarga tinimsiz o‘qib-o‘rganish, ustozlar ta‘limini olish, hayotni chuqur kuzatib, ibratli tajribalar to‘plash orqaligina ega bo‘ladi. Mana shu jarayonda adabiyotga murojaat qilish nihoyatda katta samara berishi shubhasizdir.

Poytaxtimiz Toshkentning markazida joylashgan O'zbekiston Milliy bog'iga ulug' mutafakkir Alisher Navoiy haykali o'rnatilgan. Uni o'rab turgan moviy gumbaz ostiga shoirning quyidagi misralari bitilgan:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',  
Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.

Shoir tomonidan bu misralar yozilganiga besh yuz yildan ortiqroq vaqt o'tdi. Bugun televizorni qo'ysangiz, dunyoning hali u, hali bu chekkasida bombalar portlayotganiga, yuzlab, minglab kishilar bir-birlarini ayovsiz o'ldirayotganiga guvoh bo'lasiz. O'sha janglar oqibatida qurban bo'layotgan begunoh odamlar ham xuddi Sizdek tirik jon ekanini o'ylarkansiz, Navoiy bobomiz naqadar haq ekanini ich-ichdan his qilasiz. Toki dunyoda kishilarning bir-birlariga dushmanlik qilishlari to'xtamas ekan, shoirning bu o'tli da'vati o'z ahamiyatini saqlab qolishiga amin bo'lasiz.

Adabiy asarga bir qiziqib qolgan kishini undan ayirib olish nihoyatda qiyin. Shaharlik bolalar avtobus yoki metroda o'qishga ketayotganida, qishloqlik o'quvchilar esa anhor bo'yłari yoki dala-dashtlarda boshini kitobdan ko'tarmay o'tirgan aka-opalarini ko'p uchratgan bo'lsalar kerak. Qiziqib ko'ring-a, ular qanday kitob o'qishayotgan ekan. Ishonavering, ularning aksariyati badiiy kitoblar bo'ladi!

Xo'sh, nega badiiy asarlar kishilarni bunchalik qiziqtiradi?

Gap shundaki, bu kitoblarda xuddi Sizdek, aka-ukalaringiz, opasingillaringiz, ota-onangizdek odamlarning taqdiri hikoya qilinadi. Dunyoda esa insonning taqdiridan qiziqroq narsaning o'zi yo'q.

E'tibor bering: o'zingiz yo ukangiz eshitayotgan ertakdag'i qushlar-u hayvonlar ham xuddi odamdek gapirgani, bir-birlari bilan muomala qilgani, nimalarnidir talashib-tortishgani-yu nimadandir ayrılib jazo-langani uchungina Sizga qiziqarlidir.

Masalan, tabiatdag'i tulki aslida ayyor bo'lmasiligi mumkin, biroq u ertakda o'ta ayyor-hiylakor kishilarning timsoliga aylanadi. Xuddi shunday gapni yalqov, temsa-tebranmas ayiq to'g'risida ham, dovyurak, chapdast yo'lbars haqida ham aytsa bo'ladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, go'yo hayvonlar to'g'risidagidek bo'lib ko'ringan ertaklar, masallar ham aslida odamlar haqida ekan. Shu tufayli ham o'quvchilarni o'ziga jalb qilar ekan.

Adabiy asarlar turli-tuman shaklda, uslubda yaratiladi.

Katta-kichik she'rlar, she'riy masallar, ballada va dostonlar bir bo'lib adabiyotning *she'riyat* degan turini hosil qiladi. Ularning barchasi ohangdor she'riy usulda, shoirlar tomonidan yaratiladi.

Ertaklar, hikoya va ocherklar, qissa va romanlar birlashib, so'z san'atining *nasr* deb atalgan turini tashkil etadi. Nasriy asarlarni nosirlar, ya'ni yozuvchilar ijod qiladi. Nasriy asarlar she'riy yo'l bilan emas, balki oddiy hikoya usulida yoziladi.

Adabiyotning yana bir turi – *dramaturgiya* deb nomlanadi. Bu turga kichik sahna asarlari bo'l mish intermediyalardan tortib yirik drama, komediya, tragediya singari sahna tomoshalari kiradi. Muallif – dramaturgning ixtiyoriga ko'ra bu asarlar she'riy yo'l bilan ham, nasriy yo'l bilan ham yozilishi mumkin.

Haqiqiy adabiyot vaqtida ham, hududda ham chegara bilmaydi. Ya'ni qachon va qaysi tilda yaratilgan bo'lmasin, ezzulikni, so'lmas go'zaliliklarni tarannum etgan asarlar barcha avlod va xalqlarga birdek qadrli bo'lib qolaveradi. Deylik, «Alpomish» yoki «Odissey» (qadimgi yunon adibi Homer asari) dostonlari yaratilganidan beri oradan ming yillar o'tgan bo'lsa-da, hali hamon o'quvchilarni hayajonga solaveradi. Nemis shoiri Gyote asarlarini o'zbeklar qanchalik qiziqish bilan mutolaa qilsalar, Bobur Mirzoning «Boburnoma» kitobini nemislar shunchalik diggat bilan o'qib-o'rganadilar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, adabiy asarda faqat go'zal tashbehlari o'rinni olibgina qolmay, balki juda boy ma'naviy-ma'rifiy, hatto ilmiy ma'lumotlar ham istagancha topiladi. Shu ma'noda har qanday xalq to'g'risidagi eng to'g'ri va ta'sirchan ma'lumotni o'sha xalqning badiiy adabiyotidan olsa bo'ladi. Demak, adabiyotni, hech ikkilanmasdan, millatning tarjimayi holi deb e'zozlasak ham arzir ekan.

Siz, muhtaram o'quvchi, bugundan boshlab mana shunday muhim va mo'tabar san'at turining mo'jizakor olamiga sayohatga chiqasiz. Yozuvchi-shoirlar hayoti hamda ularning asarlari bilan tanishish orqali o'zbek va boshqa qator xalqlarning taqdiri, ko'hna va yaqin tarixi, madaniyati, urf-odatlarini yaqindan bilish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Hozirgacha Sizga tanish bo'lмаган yuzlab qahramonlar juda yaqin kishingizga, do'stingizga aylanishi mumkin. Ishonamizki, Siz bunday noyob imkoniyatdan albatta foydalanasiz va adabiyot atalmish so'z san'atini o'zingizga doimiy hamroh qilib olasiz.

## *Savol va topshiriglar*



1. Hozirga qadar o‘qigan adabiy asarlardan qaysi biri Sizga eng kuchli ta’sir qilgan? Bu ta’sirning sababi nimada, deb o’ylaysiz?
2. Ko‘chalar, metro bekatlari, teatrlar, shahar va qishloqlar, turli davlat mukofotlarining ko‘pchiligi shoir-yozuvchilar nomiga qo‘yilishining sababi nimada ekan?
3. Adabiy asar bilan muallim darsi o‘rtasida qanday o‘xshash va farqli tomonlar bor? Fikringizni aniq misollar bilan tushuntirishga harakat qiling.
4. Adabiy asarlar kishining didi, axloqi, bilimlari boyishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini biror asar misolida isbotlashga urining.
5. Adabiyot daftaringizga ulug‘ kishilarning so‘z, adabiyot va kitob o‘qishning ahamiyati to‘g‘risida aytgan hikmatlaridan beshtasini topib yozib kelng va sinfdoshlaringizga o‘qib bering.



## MAQOLLAR

Maqol deb eshitgansiz, albatta. Kishilar uni ko'pincha, o'zaro suhbatda, bir-birlari bilan gaplashganlarida ishlatadilar. O'zingiz ham uni necha martalab ishlatgansiz, faqat e'tibor qilmagansiz.

Maqol ibratl so'zdir. Shunday so'zki, so'zga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta'sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo'ladi. Kimki uni ko'p ishlatsa, o'shaning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar. Shu sababli, maqollar badiiy adabiyotda, ya'ni she'r va dostonlarimizda, hikoya va romanlarimizda ham ko'p ishlatiladi. Hatto, boshidan oxirigacha maqol bilan yozilgan asarlarimiz ham bor. Masalan, Gulxaniy degan shoir butun bir asarini «Zarbulmasal» deb nomlagan. Unda Yapaloqqush va Boyo'g'lining quda-andachilik mojarolari tasvirlangan bo'lib, ular tilidan 400 dan ortiq maqol keltiriladi. Ko'ryapsizki, magolda gap ko'p.

«Maqol», aslida arabcha, «so'z» degan ma'noni bildiradi. Uni «otalar so'zi» ham deydilar. Bunday nomlash maqolni tushunishni osonlashtiradi. Haqiqatan ham, u ota-bobolarimizning qadim-qadimlardan ishlatib kelgan so'zları. Shu paytgacha eskirmay kelgan, unutilmagan so'zlar.

Zamon o'tishi bilan ko'p so'zlar eskiradi. O'rniga yangisi keladi. Vaqt kelib, o'sha yangisi ham o'zgaradi, o'miga boshqasi keladi. Masalan, «qo'l»ni bir vaqtlar «al» deyishgan. Hozir buni yoshlар emas, kattalar ham tushunmaydilar. Til-adabiyot bilan shug'ullanuvchilargina biladilar. «Dunyo»ni «ochun», «kitob»ni «bitik» der edilar. Ko'ryapsizki, hamma narsa o'zgarishda ekan. Maqollar ham o'zgaradi, lekin juda sekin o'zgaradi. So'zları o'zgarganda ham maqsadi, mazmun-mohiyati o'zgarmaydi.

Xo'sh, shunday qilib, maqol degani nima ekan?

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rganchirganlari, tajribalari asosida kelgan xulosa so'zlaridir. Masalan,

«Ona yurting omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas», deymiz. Bu so'zlar zamirida vatanidan ayrilib, musofirlikning achchiq alamlarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notanish odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro'yi somon bo'lgan kishining achchiq iztiroblari yotibdi. Yo bo'lmasa, «O'zgalar yurtida sulton bo'lguncha, o'z elingda cho'pon bo'l» degan maqolni oling. Bu so'zlar tagida ham achchiq tajribalar, boshdan kechirishlar yotibdi. Beixiyor shoh va shoir bobomiz Bobur yodga tushadi. Hindistonday katta mamlakatga podshohlik qilgan kishi yurtdoshlari Andijondan qovun olib borganlarida yig'lagan edi. Haqiqatan ham, Vatan mehridan kuchli narsa dunyoda yo'q.

Maqol yana qanday belgi-xususiyatlarga ega bo'ladi?

Maqolda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo'nda bo'lishi lozim. Va, albatta, ibratli fikr aytilishi talab etiladi, bu ibratli fikr hukm shaklida bo'lishi kerak. Bularning hammasini yuqoridagi misollarda ko'rish mumkin.

Ko'plab maqollarda ichki qofiya bo'ladi. Masalan, yuqoridagi ikki misolning birinchisida «omon» bilan «somon», ikkinchisida «sulton» bilan «cho'pon» o'zaro ohangdosh, ya'ni qofiyadoshdir. Shu jihatdan ular topishmoqlarga o'xshab ketadilar. Masalan, «Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor», desak, bu yerda ham «bo'yi» va «to'ni» so'zları qofiyadosh. Shunga qaramay, u maqol emas. Chunki unda xulosa yo'q. Hukm yo'q. Unda sirlilik bor. Unda hamma so'zlar bir narsani bekitishga qaratilgan. U narsaning belgilari berilyapti, xolos. Maqolda esa, aksincha, xulosa beriladi.

Maqol she'riy shaklda ham bo'lishi mumkin.

Masalan:

Oltovlon ola bo'lsa,  
Og'zidagini oldirar.  
To'rtovlon tugal bo'lsa,  
Tepadagini endirar.

Maqol birlik, o'zaro ittifoqlik haqida. Bir kishining olti o'g'li bo'lsayu, ular bir-birlari bilan ahil bo'lmasalar, og'zilaridagini oldiradilar. Ularni istagan odam xafa qilaverishi mumkin. To'rt aka-uka bo'lsayu, ahil bo'lsalar, ular ko'p ish qila oladilar. Ya'ni: ahillik bo'lsa, oz odam bilan ham katta ishlar qilish mumkin. Ahillik bo'lmasa, ko'p kishi bilan ham hech ish qila olmaysan. Bu — ma'nosi.

Ifodaga kelsak, «oltovlon» ko‘pchilikni, «to‘rtovlon» ozchilikni anglatyapti. «Ola bo‘lmoq» noahillikni, «tugal bo‘lmoq» ahillikni bildirmoqda. «Og‘zidagini oldirmoq» bor narsalarini boy berib qo‘ymoq, «tepadagini endirmoq» qiyin, murakkab ishlarni ham osongina hal qilmoq ma’nolarini anglatyapti.

Maqolda o‘scha xalqning tarixi, urf-udumi, turmush tarzi, fe'l-atvori, ruhiyati, qo‘yingki, butun borlig‘i aks etadi. Shunga ko‘ra, maqollar xilma-xil mavzularda bo‘lishi mumkin. Masalan, do’stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlilik, saxovat,adolat va hokazo.

Maqollarda ko‘pincha so‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘ladi. Ularni o‘z ma’nosida tushunsak, kutilgan ma’no chiqmaydi. Masalan, «Dehqon bo‘lsang, kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda» maqolidagi so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llangan. Lekin «Qazisan, qartasan — axir aslingga tortasan», «Olma olmadan uzoq tushmaydi», «Qarg‘a qarg‘anining ko‘zini cho‘qimaydi» kabi ma’no jihatidan bir-biriga juda yaqin bo‘lgan maqollarda so‘zlar o‘z asl ma’nosida emas. Ularda gap aslida «qazi-qarta», «olma», «qarg‘a» haqida emas, odam va uning fe'l-atvori haqida. Shuning uchun ham ular ko‘chma ma’noda ishlatilmoqda deymiz.

Aziz farzand, xalq maqollari — boyligimiz. Ota-bobolarimizning siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan. Ularni izlab toping, sevib o‘rganing. Kerak o‘rinlarda foydalanishni odat qiling. Shunda ular butun umringiz davomida hamrohingiz bo‘ladi. Har bir gapirgan gapingizning salmog‘i oshadi. Sermazmun, ta’sirchan, keskir bo‘ladi. El orasida obro‘yingiz yuksaladi.

## MAQOLLARDAN NAMUNALAR

Bilim baxt keltirar.

Ilmsiz — bir yashar,

Ilqli — ming yashar.

Ona yurting — oltin beshiging.

Izzat tilasang, ko‘p dema,  
Sihat tilasang, ko‘p yema.

Do’st bo‘lsang, do’stingning  
aybini tuzat.

Duo bilan el ko‘karar,  
Yomg‘ir bilan yer ko‘karar.

Kishi yurtida shoh bo‘lguncha,  
O‘z yurtingda gado bo‘l.

Yeridan ayrilgan yetti yil yig‘lar,  
Elidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar.

Tilni bilish — dilni bilishga yo‘l ochar.

Qunt bilan o'rgan hunar,  
Hunardan rizqing unar.  
Aql — yoshdan, odob — boshdan.  
Bulbul chamanni sevar,  
Odam — Vatanni.  
Daraxtni yer ko'kartiradi,  
Odamni el ko'kartiradi.  
Ona yurting omon bo'lsa,  
Rangi ro'ying somon bo'lmas.  
Xalqqa xizmat — oliv himmat.  
El qo'risang, o'zarsan,  
Qo'rimasang, to'zarsan.  
Vataning tinch — sen tinch!  
Er yigit — elda aziz.  
Birni sochsang yerga,  
Mingni berar elga.  
Bugungi ishni ertaga qo'yma!  
Vaqtning ketdi — baxting ketdi.  
Yer — to'ydirar, o't — kuydirar.  
Mehnat, mehnatning tagi rohat.  
Oltin o'tda bilinar,  
Odam — mehnatda.  
Eksang, o'rasan.  
Yurgan — daryo, o'tirgan →  
bo'yra.  
Qimirlagan qir oshar.  
Qolgan ishga qor yog'ar.  
Ko'kka boqma, ko'pga boq!  
Ko'pdan ayrilganni bo'ri yer.

Ko'pdan quyon qochib qutulmas.  
Aybsiz do'st axtargan dostsiz qolar.  
Arg'amchiga qil quvvat.  
Birlashgan o'zar,  
Birlashmagan to'zar.  
Bo'linganni bo'ri yer,  
Ayrilganni ayiq yer.  
Do'st achitib gapirar,  
Dushman — kuldirib.  
Do'st do'stni kulfatda sinar,  
Odam odamni mehnatda sinar.  
Yolg'iz otning changi chiqmas,  
Changi chiqsa ham, dong'i chiqmas.  
Oltovlon ola bo'lsa,  
Og'zidagin oldirar.  
To'rtovlon tugal bo'lsa,  
Tepadagini endirar.  
Bilagi zo'r birni yiqar,  
Bilimi zo'r mingni yiqar.  
Kitob — bilim manbayi.  
Olim bo'lsang, olam seniki!  
Tikansiz gul bo'lmas,  
Mashaqqatsiz — hunar.  
Chumchuq so'ysa ham,  
qassob so'ysin.  
Hunarli kishi och qolmas. ↗  
Avval o'yla, keyin so'yla!  
Aql bozorda sotilmas.  
Otalar so'zi — aqlning ko'zi.

O'ylamay qilingan ish,  
Boshga keltirar tashvish.

Aytiglan so'z — otilgan o'q.

Arslon izidan qaytmas,  
Yigit — so'zidan.

Ko'ngli ochiqning qo'li ochiq,  
Qo'li ochiqning yo'li ochiq.

Er yigitni nomus o'ldiradi.

Do'sting ming bo'lsa ham — oz,  
Dushmaning bir bo'lsa ham — ko'p.

Ko'za kunda sinmaydi,  
Kunida sinadi.

Sinamagan otning sirtidan o'tma!

To'qayga o't tushsa,  
Ho'l-u quruq baravar yonadi.

O'zingga ehtiyot bo'l,  
Qo'shningni o'g'ri tutma!

Bir kun urush bo'lgan uydan  
Qirq kun baraka ketar.

Ota rozi — Xudo rozi.

Sulton suyagini xo'rلamas.

O'g'li borning o'rni bor,  
Qizi borning qadri bor.

Qatorda noring bo'lsa,  
Yuking yerda qolmaydi.

Qush uyasida ko'rganini qiladi.

Bir kun tuz ichgan joyingga  
Qirq kun salom qil!

Kattaga hurmatda bo'l,

Kichikka izzatda bo'l!

O'ynab gapirsang ham,  
o'ylab gapir!

Zar qadrini zargar biladi.

Uying tor bo'lsa ham,  
Ko'ngling keng bo'lsin!

Bilgan topib gapirar,  
Bilmagan — qopib.

Tilga ixtiyorsiz —  
Elga e'tiborsiz.

Chin so'z — mo'tabar,  
Yaxshi so'z — muxtasar.

Yaxshi bilan yursang,  
Yetarsan murodga.  
Yomon bilan yursang,  
Qolarsan uyatga.

Yaxshi odam oshini yer,  
Yomon odam boshini yer.

Betga aytganning zahri yo'q.

Boshingga qilich kelsa ham  
to'g'ri so'zla!

Yetti o'lchab, bir kes.

Qalovini topsang, qor yonar.

Qoqilsang, toshdan o'pkalama!

Har ishning o'z vaqtি bor.

Yotib yeishga tog' ham chida-  
maydi.

Non ham non, uvog'i ham non.

Toma-toma ko'l bo'lur,  
Hech tommasa cho'l bo'lur.  
  
Bir azobning bir rohati bor.  
  
Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa,  
O'n beshi yorug' bo'ladi.  
  
Maqtanma g'oz, hunaring oz!  
  
Nonni katta tishlasang ham,  
Gapni katta gapirma!  
  
Bekordan xudo bezor.  
  
Bemaza qovunning urug'i ko'p.  
  
O'roqda yo'q, mashoqda yo'q,  
Xirmonda hozir.  
  
Baxilning bog'i ko'karmas.  
Nafsi yomon hayitda o'lar.

Afting qiyshiq bo'lsa,  
Oynadan o'pkalama!  
  
Burgaga achchiq qilib,  
Ko'rpangni kuydirma!  
  
Asal aynimas, sariyog' sasimas.  
  
Birni ko'rib, fikr qil,  
Birni ko'rib, shukur qil.  
  
Birovga choh qazigan,  
o'zi yiqilar.  
  
Nimani qilsang xor,  
Shunga bo'lsan zor.  
  
O'zingga ravo ko'rmaganni  
O'zgaga ham ravo ko'rma!  
  
O'zingni er bilsang,  
O'zgani sher bil!

### *Nazariy ma'lumot*

#### **XALQ OG'ZAKI IJODI TUSHUNCHASI**

Xalq og'zaki ijodi – mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir.

Xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari, geografik sharoiti va tabiatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, insoniy fazilatlar, yovuzlik, zu'lum, adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg'ularini ko'ramiz.

Og'zaki so'z san'ati «folklor» yoki «xalq og'zaki poetik ijodi» atamalari bilan ifodalanadi. «Folklor» atamasi ilk bor XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llangan bo'lib. «folk» – xalq va «lor» – bilim, donolik, donishmandlik, ya'ni «xalq bilimi», «xalq

donoligi», «xalq donishmandligi demakdir. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganuvchi fan folklorshunoslik deb ataladi.

Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og‘zaki usulda amalga oshadi. Ya’ni bunday asarlar og‘zaki ravishda ijro etilishi sababli ularning mazmuni va shakli o‘zgarishi, unga yangi qismlar qo‘shilishi yoki biron-bir qismi tushib qolishi mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi eng qadimiy san’atlardan biri bo‘lib, u jahon xalqlari poetik ijodi taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. O‘zbek folklorida turlar va janrlar quyidagicha tashkil topgan.

**Epik tur** – mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, terma, doston va boshqalar.

**Lirik tur** – marosim folklorining deyarli barcha ko‘rinishlari, bolalar folklorining ko‘pgina turlari, qo‘shiqning hamma xillari, ashula va shu kabilalar.

**Dramatik tur** – og‘zaki drama, qo‘g‘irchoq o‘yin, askiya, xalq teatrлari va shu kabilalar.

**Maxsus tur** – maqol, matal, topishmoq kabilalar.

Xalq og‘zaki ijodi asrlar davomida misqollab to‘plangan, ne-ne sinovlardan o‘tgan, insonlarga hamisha madad bo‘lib kelgan noyob xazinadir. Bizning vazifamiz ana shu xazinani ko‘z qorachig‘idek asrash va yanada boyitish hisoblanadi.

## TOPISHMOQLAR

Barcha xalqlar og‘zaki ijodining eng sevimli, qiziqarli va o‘ziga xos turi topishmoqlar hisoblanadi. Topishmoqlarni ba’zan «topmacha», «jumboq», «matal» deb atashgan. Mumtoz adabiyotda ular «chiston» ham deyiladi. Topishmoq hammabop ommaviy janrdir. Ularda xalq hayotining barcha qirralari – turmush madaniyati, urf-odatlari va boshqa jihatlari, inson va uni o‘rab olgan olam o‘xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanadi. Topishmoqda yashirin ma’no ko‘pincha majoziy shaklda keltiriladi, aniqrog‘i, narsa nomi biron-bir qush, hayvon, buyum, o‘simlikka qiyoslangan holda beriladi. Topishmoqni yechmoqchi bo‘lgan kishi unda keltirilgan ko‘chma belgilarini xayolida mantigan solishtiradi va uni hayotdagi belgilarga to‘g‘ri kelishiga qarab javobni topadi. Topishmoq, avvalo, aqlni chiniqtiradigan, ayniqsa, bolalarni yoshlikdan

mantiqiy fikrlashga undaydigan tarbiya vositasi bo'lsa, ayni paytda ko'ngilochar o'yin ham hisoblanadi. Topishmoqni aytilgan vaqtida yecha olmagan kishi «jazolanadi». Topishmoqning javobi uchun «shahar» yoki «qishloq» beradi.

Topishmoqlar kishining tasavvuri va tafakkurini o'stiradi, ayniqsa, bolalarni topag'on bo'lishga, hozirjavoblikka o'rgatadi.


Topishmoqlar nasriy va she'riy shaklda ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda to'qiladi. Ular o'zida yashiringan predmetlar miqdoriga qarab bir va bir necha misrali bo'lishi mumkin. Topishmoqlarda narsalarning sifati, belgilari, o'xshashligi, mayda unsurlari batafsil ta'rif qilinadigan bo'lsa, ular ikki, uch, to'rt va undan ko'p misralarda ifodalanadi. Bulardan tashqari qochiriqlar, ramziy obrazlar, mubolag'ali so'zlar ko'paygan sari topishmoqlar hajmi oshib boradi. Topishmoqlarda o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, kichraytirish, metafora, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositaari va usullaridan keng foydalaniadi.

Topishmoqlar tuzilishiga ko'ra bir yoki bir necha predmetli bo'lishi mumkin. Masalan, «Qoziq ustida qor turmas» (tuxum). Ushbu topishmoqda bir predmet – tuxum o'zining rangiga ko'ra qorga, shakli jihatidan o'tkir uchli narsa «qoziq» ustida turolmaydigan suyri (ellips)ga o'xshatilyapti. «O'zi bir qarich, soqoli qirq qarich» (igna) topishmog'i ham bir predmetli bo'lib, ignani anglatadi. Undan o'tkazilgan uzun ip soqolga o'xshatilyapti. Topishmoqlarning bir necha predmet yashiringan turlari ham bo'ladi. Masalan, «Bir daraxtda o'n ikki shox, har shoxda o'ttiz yaproq – bir yog'i qora, bir yog'i oq» topishmog'ining javobi yil (daraxt), o'n ikki oy (shox), o'ttiz kun (o'ttiz yaproq), o'ttiz kecha va kunduz (bir yog'i qora, bir yog'i oq).

Topishmoq shunday ajoyib janrki, unda g'ayritabiyy tuyulgan narsa aslida siz bilan biz kundalik hayotda ko'rib-bilib turgan narsa bo'lib chiqadi. «Teg desa tegmaydi, tegma desa tegadi» (lab) yoki

«Chin qushim, chinni qushim,  
Chin tepaga qo'ndi qushim,  
Tumshug'ini yerga berib,  
Xalqqa salom berdi qushim».

(Choynak)



Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari, jumladan, doston va ertaklar ichida ham uchraydi. Ular doston va ertaklar mazmunini boyitib, ularning qiziqlarliligini, o'qishliligini

Agar esingizda bo'lsa, doston yoki ertak qahramonlari bir-birlarining aqli va farosatini topishmoqlar orqali sinaydilar. Bu hodisa ko'proq ertaklarda uchraydi. Topishmoq qatnashadigan ertaklar ikki xilda bo'ladi: Birinchisi, topishmoqli ertak bo'lib, bunda topishmoq ertak ichida keladi. Ikkinchisi, ertak-topishmoq hisoblanib, undagi asar voqealari topishmoq asosida qurilgan bo'ladi.

Topishmoqlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, ular olam va odam bilan bog'liq barcha narsa va hodisalarni qamrab oladi. Masalan, tabiat hodisalari, yil fasli va mavsumlar, hayvonot dunyosi, odam, uning a'zolari va xislatlari, mehnat va o'quv qurollari, cholg'u asboblari, turar joy, uy-xo'jalik asboblari, qurol-yarog'lar haqida bo'lishi mumkin. Bundan tashqari topishmoqlar o'zining yaratilish davriga ko'ra an'anaviy topishmoqlar va yangi, zamonaviy topishmoqlar sifatida bir-biridan farqlanadi. An'anaviy topishmoqlar zamirida xalqimizning tarixi, qadriyatları aks etgan bo'lsa, zamonaviy topishmoqlarda kundalik turmushimizdagı o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlari o'z ifodasini topgan.

Qadrlı bolalar, biz topishmoqlar haqidagi suhbatimizning avvalida «chiston» tushunchasiga ham to'xtalgan edik. Chiston asli forscha so'z bo'lib, topishmoq, jumboq ma'nosini anglatadi. Chiston mumtoz adabiyotning kichik lirik janri hisoblanib, savol-javob shaklida paydo bo'lган. Undagi narsa-hodisalar majoziy tarzda tasvirlanib, fard, bayt, qit'a, ruboiy va g'azal shaklida yoziladi. Chiston ko'proq ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo'ladi. Adabiyotimiz tarixida ushbu janrning go'zal namunalarini Alisher Navoiy, Uvaysiy kabi shoirlarimiz ijodida uchratishimiz mumkin. Siz mumtoz adabiyotimizdagı chiston janrini yuqori sinflarda o'rganasiz.

## TOPISSHMOQLARDAN NAMUNALAR

Bir parcha patir,  
Olamga tatir.

(Oy)

Onasi bitta,  
Bolasi mingta.

(Oy va yulduzlar)

Bir otasi, bir onasi,  
Necha yuz ming bolasi.

(Quyosh, oy, yulduzlar)

Zar gilam, zar-zar gilam,  
Ko'taray desam, og'ir gilam.

(Yer)

Teg desam, tegmaydi,  
Tegma desam, tegadi.

Kel, kel desam, kelmaydi.  
Kelma desam, keladi.

(Lab)

Boshi taroq,  
Dumi o'roq.  
(Xo'roz)

Otasi uzun xo'ja,  
Onasi yoyma xotin,  
Bolasi shirin-shakar.  
(Tok, bargi, uzumi)

Kichkina dekcha,  
Ichi to'la mixcha.  
(Anor)

Qo'shnimning arqoni devor-  
dan oshib tushdi.

(Oshqovoq)

Yer tagida oltin qoziq.

(Sabzi)

Chin qushim, chinni qushim,  
Chin tepaga qo'ndi qushim.  
Tumshug'ini yerga berib,  
Xalqqa salom berdi qushim.  
(Choynak)

Otdan baland,  
Itdan past.

(Egar)

\* \* \*

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir podsho bo'lgan ekan. Uning Sohibjamol degan bir qizi bor ekan. Uning bir she'riy topishmog'i bor bo'lib, kimki topishmog'imning mazmunini aytib bersa o'shangang tegaman, kimki topolmasa, jallodga kallasini oldiraman, der ekan. Har tomondan shahzodalar, bekzodalar, boyvachchalar kelib uning topishmog'ini topolmay kallalaridan judo bo'laveribdilar.

O'sha mamlakat kunchiqar tomonidan bir xaroba kulbada bitta yigit qari onasi bilan yashar ekan. U bu xabarni eshitib:

— O'sha qizning topishmog'iga men javob beraman, — debdi.

Onasi qo'rqb, uni yuborishga unamabdi. — Qanchadan qancha shahzodalar, bekvachchalar va boyvachchalar topolmaganini sen toparmiding, — deb qarg'ab beribdi. Yigit oxiri onasini unatibdi. Onasi o'g'liga ko'moch<sup>1</sup> qilib beribdi. Shundan keyin u podshoning saroyi tomon boribdi. Yigit podshoning taxti tagiga horib uch kun yotibdi. Shunda malikaning kanizaklaridan biri uni ko'rib qolib, so'rabdi:

<sup>1</sup> Ko'moch — issiq kulga ko'mib pishiriladigan non.

— Sen bu yerda nega yotibsan? Senga bu yerdan boshqa yotadigan joy yo‘qmi?

Shunda yigit:

— Men malikaning topishmog‘ini topgani keldim, — debdi.

Kanizak malikaga uning gapini aytibdi.

Malika: «Olib kelinglar!» — debdi. Yigitni uning huzuriga olib kiribdilar.

Malika unga topishmoqni aytibdi:

Uzoq yerda o‘t ko‘yur-o,

Ani toping, Axlantoz.

Sassiq soyda it hurar-o,

Ani toping, Axlantoz.

Chorbog‘imda juft chinor-o,

Ani toping, Axlantoz.

Eshigimda qo‘s sh munguz-o,

Ani toping, Axlantoz.

Qora tolim butoqsiz-o,

Ani toping, Axlantoz.

Shunda yigit malikaning she ‘riy topishmog‘iga shu javobni aytibdi:

Uzoq yerda o‘t ko‘yur-o,

Bo‘ri ko‘zi, oyimqiz.

Sassiq soyda it hurar-o,

Qurbaqalar, oyimqiz.

Chorbog‘ingda juft chinor-o,

Ota-onang, oyimqiz.

Eshigingda qo‘s sh munguz-o,

Ini-og‘ang, oyimqiz,

Qora toling butoqsiz-o,

Qora soching, oyimqiz.

Shunda malika, shu yigit topishmog‘imning javobini topdi, deb kanizaklarga aytibdi. Kanizaklar darrov choparlarga xabar qilibdi. Choparlar tezda podshoga xabar qilibdilar. Podsho choparlarga suyunchi beribdi. Podsho qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilib, malikani yigitga beribdi va uni o‘ziga o‘ng qo‘l vazir qilib olibdi. Topqir yigit malika bilan murod-u maqsadiga yetibdi.

\* \* \*

Bir to'da g'oz uchib borar ekan. Bir g'oz kelib: «Ey yuz g'oz, salomat bormisiz?» debdi. Shunda ulardan biri aytibdi: «Biz yuz g'oz emasmiz, yana biz miqdori g'oz bo'lsa va yana bizning yarmimiz miqdori va yarmimizning yarmi bo'lsa, u vaqtida sen qo'shilsang yuz g'oz bo'lamiz», debdi. Osmondag'i g'ozlar qancha ekan?

(Javobi: 36 ta. Ya'ni –  $36+36+18+9+1=100$ )

### ZAMONAVIY TOPISHMOQLARDAN NAMUNALAR

Qizdirsang ishlar,  
Kiyim tekislar.

Hunari ko'p ishlasa,  
Agar tokni tishlasa,  
Tekislanar har g'ijim,  
Chiziqli bo'ladi shim.

(Dazmol)

Bir ajoyib ishxona,  
Ichi doim qishxona.

(Muzlatkich)

Po'lat qushim uchdi-ketdi,  
Bir zum o'tmay Qo'qon yetdi.

(Samolyot)

U bor senda va menda,  
Qo'y-chi, har bir insonda,  
Eng yaxshisi asal-qand,  
Yomoni-chi, berar pand.

(Til)

Og'zi yo'g'-u tishi bor,  
Boshimizda ishi bor.

(Taroq)

**Hazil va o'yin so'roqlar**

Nima soqoli bilan tug'iladi?

(Echki)

Nima hamma tilda ham gapiradi?

(Aks sado)

Nima doim o'z o'mnida turadi?

(Soat)

Nimaning mo'ylovi oyog'idan  
uzun?

(Suvarak)

Nimaning besh barmog'i bor-u,  
Lekin birorta ham tirmog'i yo'q?

(Qo'lqop)

Nimaga odam orqaga o'girilib  
qaraydi?

(Orqasida ko'zi yo'q)

Odamzodda nima ko'p?

(Umid, reja)

Dunyoda nima chaqqon?

(Fikr)

Yumuq ko'z bilan nimani ko'-  
rish mumkin?

(*Tush*)

Qirg'oq bilan suv o'tasida  
nima bor?

(*Bilan*)

Qaysi joyda daryolar suvsiz,  
Shaharlar uysiz bo'ladi?

(*Xaritada*)

Qaysi so'roqqa hech qachon  
«ha», deb to'g'ri javob berish  
mumkin emas?

(«*Uxlayapsanmi?*» degan  
so'roqqa)

Sovuqda bir xil kiyingan kishi

va bola turibdi, bularning qaysi biri  
tezroq sovuq yeydi?

(*Ikkovi ham*)

Dengiz ostida qanday tosh  
bo'lmaydi?

(*Quruq tosh*)

Qanday soat bir sutkada  
vaqtini ikki bora to'g'ri ko'rsatadi?

(*To'xtagan soat*)

Yomg'ir yog'ib turganda,  
qarg'a qanday daraxtga qo'nadi?

(*Ho'l daraxtga qo'nadi*)

Sen-u, men-u, u-yu, biz,  
Nechta bo'ldik hammamiz?

(*Uchta*)

## *Nazariy ma'lumot*

### **MAQOL VA TOPISHMOQ TUSHUNCHALARI**

Qadrlı bolalar, Siz avvalgi darslardan maqol va topishmoq nimaligi haqida muayyan tasavvur olgansiz. Bu ikki tushuncha inson tafakkurining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Maqollar insonni axloq-odobga o'rgatsa, topishmoqlar uni mantiqiy fikrlashga, topqirlilikka, hozir-javoblikka undaydi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizda «So'z ko'rki maqol», deb bejiz aytilmagan), uning ta'sir kuchini oshiradi. Biror-bir fikrni uqtirishda ishlataligan maqol uni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. Maqollar pand-nasihatlar, tarbiyaviy suhbatlarda o'git sifatida ham keladi. Uni, biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, «Otalar so'zi» ham deyishadi. Buning boisi, har bir maqol ota-bobolarimiz tomonidan yaratilib, bir necha mingylliklar davomida sayqal topib kelayotgani, yaxshilik, ezgu ishlarga undaydigan bebahो ma'naviy boyligimiz ekanidir.

Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli

fikr aytildi. Bu fikr rad etib bo‘lmaydigan hukm shaklida keltiriladi. Masalan, «Ona yurting – oltin beshiging», «Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l» kabi maqollarni hech bir e’tirozsiz qabul qilamiz.

Avval ta’kidlaganimizdek, ko‘plab maqollardagi yana bir xususiyat ularda so‘zlarning qofiyadosh bo‘lib kelishidir. Masalan, «Yuz ko‘rki soqol, so‘z ko‘rki maql», «Aql – boshdan, odob – yoshdan». Shu xislati bilan maqollar topishmoqlarga o‘xshab ketadi. «Bir parcha patir, olamga tatir» (oy) topishmog‘idagi «patir» va «tatir» so‘zlaridek, maqoldagi «boshdan» va «yoshdan» so‘zları bir-biriga qofiyadoshdir. Biroq bu o‘xhashlik tashqi shaklda ko‘rinadi. Mazmunan ular o‘zida boshqa-boshqa ma’nolarni tashiydi. Biri ibratlari fikrni anglatsa, ikkinchisi, kishini jumboqda yashirilgan ma’noni topishga undaydi, idrokini sinaydi.

Maql va topishmoqlar, o‘zlarining o‘xhash va farqli jihatlaridan qat’i nazar, inson tarbiyasiga xizmat qiladi, uni ziyraklik va zukkolikka undaydi.

### *Savol va topshiriqlar*

- 1. Maqollarning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
- 2. Maqollarning tuzilishi haqida so‘zlab bering.
- 3. Maqollarning xalq hayoti, turmushi bilan bog‘liq jihatlari haqida gapirib bering.
- 4. Xalq og‘zaki ijodining qaysi janrini topishmoq deb ataymiz?
- 5. Topishmoqlarni yana qanday nomlar bilan atashadi?
- 6. Topishmoqda yashiringan ma’no qanday shaklda ifodalanadi?
- 7. Bir predmetli va bir necha predmetli topishmoqlarga misol keltiring.
- 8. Topishmoqlarni aytish va uni yechish jarayoni qanday kechadi? Topishmoqlarni yechishda «jazolash», «shahar» yoki «qishloq» berish nimalarni anglatadi?
- 9. Nasriy va she’riy topishmoqlarga misol keltiring.
- 10. Ertak-topishmoq nima? Tushuntirib bering.
- 11. Mumtoz adabiyotimizdagi chiston nima? Undagi narsa va hodisalar qanday tarzda tasvirlanadi?
- 12. Topishmoq va maql o‘rtasidagi o‘xhash va farqli jihatlarini tushuntirib bering.
- 13. Kitobingizda keltirilgan topishmoqlardan o‘ntasini yod oling.
- 14. Uyingizda mustaqil ravishda uch-to‘rtta topishmoq tuzib keling.

## *Imom al-Buxoriy* (810–870)

✓ Imom al-Buxoriy islom dunyosining eng mashhur kishilaridan. U kishini «muhaddislar imomi» deydilar. Muhaddis — «hadis biluvchi», «hadis aytuvchi» degani. Hadis esa payg‘ambarimiz so‘zidir. Bundan chiqadiki, u kishi payg‘ambarimiz so‘zlarini yig‘gan, o‘rgangan, aytgan allomadir. Namoz jamoa bo‘lib o‘qilganda, oldindagi boshlab boruvchi imom bo‘ladi. Demak, Buxoriy barcha muhaddislarning eng oldingi qatorida turgan, hammalari tomonidan tan olingan ustozidir.

✓ Islomda islomiy yashash va o‘zaro muomala qilishning bosh kitobi Qur’oni karimdir. Qur’oni karim payg‘ambarimizga vahiy qilib yuborilgan. «Vahiy» degani Olloh taoloning o‘z sevgan bandasi diliiga o‘z so‘zlarini, ya’ni ilohiy so‘zlarini solishidir. Shuning uchun ham Qur’oni karimning yana bir nomi Kalomi Ollohdır, ya’ni Olloh so‘zlaridir. Uni xalq orasida «Kalomulloh» deydilar.

✓ Hadislar Qur’oni karimdagи oyatlarni tushuntiradi, sharoitga tatbiq etadi. Shunga ko‘ra, ular o‘z ahamiyati jihatidan Qur’oni karimdan keyingi eng muhim qo‘llanmadirlar.

Hadislarni yig‘ish payg‘ambarimiz davrlaridan boshlangan. Lekin vaqt o‘tishi bilan ularni saralash, ishonchlilarini ishonchsizlaridan ajratib olish qiyinlashib borgan. Islomni obro‘sizlantirish, muslimonlarni chalg‘itish uchun uning dushmanlari soxta hadislar to‘qib tarqatganlar. Shuning uchun bu hadislarning kim tomonidan aytilganligiga va ularning shaxsiga alohida e’tibor berilgan. Hadisshunoslik degan fan hadislarning «sahih» (ishonchli)larini «nosahih» (ishonchsiz)laridan ajratish bilan shug‘ullangan.

Payg‘ambarimiz so‘zları — hadislar roviylardan yig‘ilgan. «Roviy»

ma'lumot beruvchi, aytuvchidir. Roviyalar asosan ikki xil bo'lgan: sahobalar, tobeinlar. Sahoba deb payg'ambarimizni ko'rgan va u kishi bilan suhbatda bo'lganlarga aytilgan. Tobeinlar esa, payg'ambarimizni emas, sahobalarni ko'rib, ulardan eshitganlarini aytuvchilardir. Hadis ikki qismdan – sanad va matndan tashkil topgan. Sanad payg'ambarimiz so'zlarining qachon, qanday sharoitda, kimlar huzurida aytilganligi hujjati bo'lsa, matn uning mazmunidir. Imom al-Buxoriy mana shunday hadis ilmining Buxorodan yetishib chiqqan va butun dunyoga shuhrat taratgan allomasi edi.

U kishining hayot yo'llari ham ibratlidir.

Imom al-Buxoriyning ismi – Muhammad, otasining oti – Ismoil bo'lib, 810-yilning 21-iyunida Buxoro shahrida tug'ildi. Otasi Ismoil Buxoriy ham muhaddis edi, goho tijorat bilan shug'ullanardi. Lekin juda halol, xudojo'y odam edi. Zamondoshlari, uning xonadoniga mehnatsiz topilgan biror dirham ham pul kirgan emas edi, deb yozadilar.

Onasi ham diyonatli, qalbi Ollohdha, qo'li duoda yuruvchi pokiza ayol bo'lgan. Aytishlaricha, Muhammadning ko'zi yoshligida jarohatlanib, ojizlanib qoladi. Tabiblarga qaratadilar, foyda bermaydi. Bir kuni ona tush ko'radi. Ibrohim alayhissalom unga qarata: «Ey volida, duolaring sharofatidan Olloh o'g'lingga ko'rish ne'matini qaytardi!» – deb xitob qilayotganmish. Cho'chib uyg'onib, o'g'lidan xabar olibdi. Muhammadning ko'z-qaroqlarida nur o'ynardi.

Imom al-Buxoriy mana shunday oilada o'sdi. Otasi erta vafot etganidan, tarbiyasida onasining xizmati katta bo'ldi. Kichkinligidan hadis ilmiga ko'ngil qo'ydi. O'n yoshlaridan o'z zehni va yod olish quvvati bilan ustozlarini shoshirib qo'ya boshladi. O'n olti yoshida minglab hadislarni yod bilar, ularning «sahih» – «nosahih»ligini birma-bir isbot qilib bera olar edi. U bular bilan cheklanmadni. Kesh bilan Marvdan Makka-yu Madinagacha, Balx bilan Hirotdan Bag'dod-u Basragacha, Nishopurdan Misr va Shomgacha yurtma-yurt, shaharma-shahar kezib, ilm o'rgandi, o'zi aytganidek, «mingdan ortiq ishonchli ulamodan hadis yozib oldi». Qanchadan qancha mashhur muhaddislar bilan uchrashdi, sahobalar va tobeinlarning hayot sanalarini birma-bir tekshirib, ularning har bir hadisini Qur'oni karim oyatlariga va payg'ambarimiz hayotlariga solishtirib chiqdi.

Bularning samarası sifatida bizga yigirmadan ko'proq asar qoldirdi. Buyuk alloma mehnatining naqadar kattaligini tasavvur qilish uchun birgina ma'lumotni keltirish bilan cheklanamiz. U yolg'iz «Al-jome' as-sahih» (Ishonchli to'plam) kitobi ustida 16 yil ishlagan. Unga kiritilgan 7397 hadis 600 ming hadisning ichidan saralanib olingan.

O'z aql-u zakovati va finimsiz mehnati bilan olis yurtlarda beqiyos shuhrat topgan, «muhammadlar imomi», «muhammadlar sultoni» unvonlarini olgan al-Buxoriy nihoyat, ona yurtiga, Buxoroga qaytadi. Biroq ona Buxoroda u, afsuski, o'ziga munosib qadr topmaydi. Bir voqeа yuz beradi-yu, u kindik qoni to'kilgan shahrini tark etadi. Bu voqeа shunday edi:

Shu yillari Buxoro amiri bo'lib turgan Xolid ibn Ahmad al-Buxoriy huzuriga ilm olish maqsadi bilan dunyoning turli tomonidan kelayotgan odamlar oqimini ko'rgach, u ham bolalarini o'qitmoqchi bo'ladi va olimga chopar yuborib, saroyiga kelib, ularga dars berishini buyuradi. Imom al-Buxoriy amir chopariga «Men ilmni xor qilmayman, uni hukmdorlar eshigiga olib bormayman», — deb javob beradi. Amir yana chopar yuboradi, u holda bolalari uchun maxsus vaqt ajratib, boshqalarsiz alohida saboq berishini talab qiladi. Buyuk olim yana rad etadi. Ilm olmoqlik Rasululloh sunnati ekanligini, shunga ko'ra, hamma tengligini, ilm kerak bo'lsa amir va uning bolalari uning uyiga yoki masjidga borishlari mumkinligini aytadi. Xullas, ora buziladi. Imom al-Buxoriyning Buxoroda turishi qiyin bo'lib qoladi.

Imom al-Buxoriy hayotining so'nggi yillari Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida kechdi. U 870-yilning 31-avgustida vafot etdi. Qabri o'sha yerda, hozirgi Samarqand viloyati Payariq tumani Xartang qishlog'idadir.

Buyuk bobomiz to'plab, saralab bergen minglab hadislar mana, necha asrdirki, avlodlar uchun qo'llanma va yo'llanma bo'lib keladi. Mumtoz adabiyotimizning juda ko'p namunalari, minglab she'rlar, yuzlab dostonlar payg'ambarimiz so'zлari va amallaridan ilhom va oziq olib maydonga kelgandir. Hadislar sharhiga bag'ishlangan asarlarning esa sanog'iga yetib bo'lmaydi.

Quyida Imom al-Buxoriy kitoblaridan olingan ayrim hadislar bilan tanishasiz. Ular hayotning xilma-xil masalalariga doir ko'rsatmalardir. Masalan, dastlabki hadisda salom bermoqlikning g'oyat muhim xislat

ekanligi uqtirilmoqda. Ahamiyatiga ko'ra ochga taom bergen bilan teng qo'yilmoqda. Ovqat ochni o'limdan asraydi. Salom-chi? Salom o'sha odamga tinchlik, omonlik tilamoqdir. Bu esa xayrixohlik – boshqalarga yaxshilik istamoq bo'ladi. Atrofdagilarga yaxshilik istamoq odamgarchilikning, musulmonlikning belgisidir. Demak, bir kishi ikkinchi kishiga salom bergenida, u o'zida odamgarchilikni asragan bo'ladi. Bunday ibratlar keltirilgan hadislarning har birida bor.

## HADISLAR

(«*Al-jome' as-sahih» dan)*

### SALOM BERISH ISLOM AMALLARIDANDIR

Sahoba Ammor<sup>1</sup> aytganlar: «Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lg'aydir:

- insofli va adolatli bo'lmuoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq».

Rasululloh<sup>2</sup> sollallohu alayhi vasallam<sup>3</sup>dan bir kishi so'radi: «Islomda eng yaxshi xislatlar qaysidir?» Dedilar: «Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimaganga salom bermoqlik».

### MUNOFIQ'LIKNING ALOMATLARI

Janob Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Munofiqlikning uchta alomati bor: so'zlasa yolg'on so'zlar; va'da qilsa, bajarmas; omonatga xiyonat qilur», – deganlar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: «Quyidagi to'rtta xislat kimda bo'lsa, aniq munofiq bo'lgaydir, kimdaki ulardan bittasi bo'lsa, uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir xislati bor ekan, deyiladir:

- omonatga xiyonat qilgaydir;
- so'zlasa, yolg'on so'zlagaydir;
- shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;
- urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qilgaydir».

<sup>1</sup> Ammor ibn Yosir (564–657) – Hazrat Alining yordamchilaridan, sahoba.

<sup>2</sup> Rasululloh – Olloh elchisi, payg'ambar.

<sup>3</sup> Sollallohu alayhi vasallam – payg'ambarimizning haqlariga aytilgan duo.

<sup>4</sup> Munofiq – ikkiyuzlamachi.

## **DIN TUFAYLI GUNOHLARDAN FORIG' BO'LMOQLIKNING FAZILATI**

Rasululloh bunday deganlar: «Halol bilan harom bor narsadir. Ammo ikkalasini bir-biridan farqlashda noaniqliklar mavjud. Odamlarning ko'pi ularni bilmaslar (halol yo harom ekanini). Shuning uchun kimki shubhali narsalardan o'zini tiyyaydir, dinini kamchiliklardan, obro'yini ta'nadan saqlag'aydir va kimki shubhali narsalardan tiyilmaydir, u birovning ekini chekkasida qo'y boqayotgan cho'ponga o'xshaydir. Uning qo'y-larni ekinga tushirish ehtimoli bordir. Ogoh bo'lingizkim, har bir pod-shohning o'z chegarasi bordur. Ollohning yerdagi chegarasi harom qilingan narsalardir. Kishi badanida bir parcha go'sht bor, agar u tuzalsa, a'zolarning barchasi tuzalgaydir, agar u buzilsa, a'zolarning barchasi buzilgaydir. U qalbdir!»

### **ILM FAZILATI TO'G'RISIDA**

✓ Olloh taolo oyati karimasida: «Olloh taolo sizlarning orangizdag'iymon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug' qilg'aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Olloh taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir», — deyilgan. Yana boshqa oyati karimada esa: «Yo Rabbiy, ilmimni ziyoda qilg'aysen, deb ayt!» — deyilgan.

### **OLLOHNING ILM TO'G'RISIDA NOZIL QILGAN KALOMI**

✓ Olloh taolo oyati karimasida: «Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilg'aysen, deb so'ra!» — deydi.

### **ILM O'RGANMOQ VA ILM O'RGATMOQNING FAZILATI**

✓ Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: «Olloh taolo menga yuborgan hidoyat (Olloh taolo bandalariga ko'rsatgan to'g'ri yo'l, yo'llanma) singari ilm ham ko'p yog'gan yomg'irga o'xshaydi. Ba'zi yer sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradir-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradir va ba'zan yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'zida to'playdir, undan Olloh taolo bandalarini foydalantirgaydir. Odamlar suvdan ichgayirlar, hayvonlarini va ekinlarini sug'orgaydirlar. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir. Bularni quyidagicha muqoyosa qilish

mumkindir: Bir kishi Olloh ilmini (islomni) teran o'rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadir va Olloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinchisi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmaydir. Uchinchisi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir. Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir».

### YAXSHI MUOMALA QILINMOG'IGA KIM HAQLIROQ?

Abu Hurayra<sup>1</sup> rivoyat qiladilar: «Bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: «Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroqdir?» — deb so'radi. Janob Rasululloh: «Onang!» — deb aytdilar. U: «Yana kim?» — deb so'radi. Janob Rasululloh: «Onang!» — dedilar. U: «Yana kim?» — dedi. Janob Rasululloh: «Onang!» — dedilar. U: «Yana kim?» — deb so'radi. Janob Rasululloh (bu safar): «Otang!» — deb javob qildilar».

### ODAM OTA-ONASINI HAQORAT QILMAYDI!

Abdulloh ibn Amr<sup>2</sup> rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Odam qiladirgan gunohi azimlardan biri — ota-onasini haqorat qilmoqdir!» — dedilar. Shunda: «Yo Rasululloh, odam o'z ota-onasini qanday qilib haqorat qilmog'i mumkin?!» — deyishdi. Janob Rasululloh: «Birovning ota-onasini so'kkan odam o'z ota-onasini haqorat qilgan bo'lur», — deb javob qildilar».

### QARINDOSHLARIKA MEHR-OQIBATLI ODAMNING RIZQI ULUG' BO'LMOG'I HAQIDA

Abu Hurayra raziyallohu anhu<sup>3</sup>: «Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning «Kimki rizqim ulug', umrim uzoq bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin!» deganlarini eshitganmen», — deydilar.

Anas ibn Molik<sup>4</sup> rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kimki rizqim ulug', umrim uzun bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin!» — deganlar».

<sup>1</sup> Abu Hurayra — sahoba, 676-yilda vafot etgan.

<sup>2</sup> Abdulloh ibn Amr — sahobalardan.

<sup>3</sup> Raziyallohu anhu — mazkur haqqiga aytildigani duo.

<sup>4</sup> Anas ibn Molik — sahobalardan.

## BARCHA ISHDA XUSHMUOMALALIK DARKORLIGI HAQIDA

Nabiy sollallohu alayhi vasallamning jufti halollari — Oysha raziyallohu anho Urva ibn az-Zubayrga bunday deb aytib bergen ekanlar: «Bir to'da yahudiylar Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kirib: «As-somu alaykum!» (ya'ni, «Sizga o'lim!») — dedi. Men ularning gapini anglab: «Va alaykumu-s-somu va-l-la'na!» (ya'ni, «Sizga ham o'lim va la'nat!») — dedim. Janob Rasululloh: «Yo Oysha, shoshmay turg'il! Olloh taolo barcha ishda xushmuomalalikni yoqtirg'aydir», — dedilar. Men: «Yo Rasululloh, ularning nima deganini eshitmay (anglamay) qoldingiz!» — dedim. Janob Rasululloh: «Sizlarga ham, dedim-ku, axir!» — dedilar».

### KIBR HAQIDA

Horisa ibn Vahb al-Huzo'iy rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Ahli jannat kimlar ekanligin aytaymi?» — dedilar da, odamlardan javob kutmay: «Har bir zaif va bechorahol odamdir, u gar Ollohn ni o'rtaga qo'yib qasam ichg'aydir, so'zsiz ustidan chiqg'aydir», — dedilar, so'ng: «Ahli do'zax kimlar ekanligin (ham) aytaymi? Har bir qo'pol, quruq gerdaygan, beqanoat va dimog'dor odam ahli do'zaxdir», — dedilar».

## BOLAGA RAHMADILLIK QILMOQ, UNI O'PIB QUCHOQLAMOQLIK HAQIDA

Sobit Anasdan naql qiladilar: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam Ibrohimni qo'llariga olib o'pdilar, hidladilar».

Nabiy sollallohu alayhi vasallamning jufti halollari bo'lmish Oysha onamiz Urva ibn az-Zubayrga bunday deb aytgan erkanlar: «Bir ayol ikki qizalog'ini yetaklagan holda huzurimga tilanchilik qilib keldi. U yoq-bu yoqni qarab bir dona xurmodan bo'lak hech narsa topolmadim. O'sha xurmoni unga berib erdim, o'zi yemay ikki qizalog'iga bo'lib berdi. So'ng, o'midan turib chiqib ketdi. Shu asnoda Nabiy sollallohu alayhi vasallam kirib kelgan erdilar, bo'lgan voqeani aytib berdim. Janob Rasululloh: «Kimki ana shunday qizaloqlarga muruvvat qo'lini cho'zg'aydir, ular uni do'zax otashidan parda bo'lib to'sib turg'aydir-lar», — dedilar»...

Umar ibn al-Xattob raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga bir qancha asirlarni olib keldilar. Ularning ichida bir ayol ham bo‘lib, o‘z oralaridan biror go‘dakni topib olsa, darhol uni bag‘riga bosib emizar erdi. Janob Rasululloh (buni ko‘rib) bizga: «Nima deysizlar, anavi ayol o‘z bolasini o‘tga tashlay olg‘aymi?» — dedilar. Biz: «Yo‘q, aslo, tashlay olmas!» — dedik. Shunda janob Rasululloh: «Olloh taolo o‘z bandalariga bolasiga mehribonchilik qilayotgan manavi ayoldan ham mehribonroqdir!» — dedilar. («Insonki, o‘z bolasini o‘tga tashlay olmas erkan, Olloh taologa ham o‘z bandasini do‘zax o‘tiga tashlamog‘ligi g‘oyat og‘irdir»)».

### ZAKOT BERMAYDIGAN (ODAM)NING GUNOHI

Olloh taolo bu xususda bunday deydir:

«Xazina-xazina tilla va kumushlar jamlab, Olloh yo‘lida sarf qilmaydirganchilarni qiyomat kuni beriladirgan qattiq azobdan ogoh qilingizlar! O‘shal kuni butun jamlagan xazinalari jahannam o‘tida qizdirilib, u birlan xazina sohibining peshonasi, ikki biqini va orqasi dazmol qiling‘aydir. Jamlagan mol-dunyongizning sizga ko‘rsatadirgan oqibati mana shul bo‘lur. Jamlagan xazinalaringizning mazasini qiyomat kuni bir tatib ko‘ringiz-chi!»

### QARINDOSHLARIGA ZAKOT BERMOQ HAQIDA

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Qarindoshlariga zakot bergen odamga ikkita savob tekkaydir — biri qarindoshlariga oqibat qilgani uchun, ikkinchisi — zakot bergani uchun», — dedilar...

### BADGUMONLIK<sup>1</sup> GUNOHLIGI HAQIDA

Abu Hurayra rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Badgumon bo‘lmanglar, badgumonlik — eng yolg‘on so‘zdir. Gap poylamanglar, tirnoq ostidan kir qidirmanglar, bir-biringiz bilan bahslashmanglar, bir-biringizga hasad qilmanglar, bir-biringizni yomon ko‘rmanglar, arazlashmanglar. Aka-uka tutinib, Ollohning (solih) bandalari bo‘linglar», — dedilar».

<sup>1</sup> Badgumonlik — yomon fikrga borish.

## MEHMONNING MEZBONGA: «SEN YEMAGUNINGCHA MEN HAM YEMAYMAN», DEB AYTMOG'I HAQIDA

Abdurahmon ibn Abu Bakr raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «(Otam) Abu Bakr bir mehmonni (yokim mehmonlarni) uyga olib keldilar. O'zлari ersa janob Rasulullohning huzurlariga ketib, o'sha yerda ancha vaqt ushlanib qoldilar. Qaytib kelganlaridan so'ng, onam: «Bu kecha mehmoningizni (yoki mehmonlaringizni) intizor qilib qo'ydingiz-ku!» — dedilar. Otam: «Ularni ovqatlantirmadingmi?» — deb so'radilar. Onam: «Ularning oldiga ovqat qo'yib erdik, yeyishmadи», — deb javob berdilar. (Otam) Abu Bakr g'azablanib so'kindilar va ta'blari tirriq bo'lib: «Men ovqat yemayman!» — deb qasam ichdilar. Shunda men bir joyga berkinib olgan erdim, otam: «Ey nodon, qayerdasan?» — deb chaqirdilar. Onam: «Siz ovqat yemasangiz, men ham yemayman!» — dedilar. Mehmon (yoki mehmonlar) ham otam ovqat yemagunlaricha ovqat yemasligini (yemasliklarini) bildirib, qasam ichdi. Shundan so'ng otam: «Bizni shayton vasvasa qilayotgan ko'rinaradir», — dedilar-da, ovqatni olib kelishni buyurdilar. O'zлari ham ovqat yedilar, mehmonlar ham yeyishdi. Shunda, idishdagи ovqat, ular qancha yeyishmasin, kamayish o'rniga tobora ko'payib borardi. Buni ko'rib otam: «Ey Baniy Firosning singlisi, nechun bunday bo'layotir?» — dedilar. Onam: «Ko'zlarimga ishongim kelmaydir, yemasimizdan ilgari bunchalik ermas erdi, juda ko'payib ketibdir!» — dedilar. Hamma ovqatdan to'yguncha yedi, undan janob Rasulullohga ham yuborishdi. Aytishlaricha, payg'ambarimiz ham o'sha ovqatdan tanovul qilibdilar».

## RIYO<sup>1</sup> VA SHUHRATPARASTLIK HAQIDA

Jundub<sup>2</sup> raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kimda-kim xayrli ishlarini shuhrat topmoq niyatida ovoza qilg'aydir, Olloh taolo ham qiyomatda uni sharmanda qilib, ovoza qilg'aydir, kimda-kim xayrli ishlarini odamlar meni ko'rib qo'yinlar deb ko'z-ko'z qilg'aydir, Olloh taolo ham qiyomatda uni barcha bandalari o'rtasida izza qilg'aydir», — dedilar».

<sup>1</sup> Riyo — ikkiyuzlamlilik.

<sup>2</sup> Jundub ibn Abdulloh — sahobalardan.

## ZOLIM KIMDIR?

Oolloh taolo: «Oolloh taolo nozil qilgan yo'l-yo'riqlarga muvofiq hukm qilmaydirganlar — zolimdurlar!» — deydi.

## OLLOH QAVLI<sup>1</sup>

Oolloh taoloning qavli: «Aytgil! Agar Rabbimning so'zlarini yozmoq uchun dengiz siyoh bo'lsa ham, Rabbimning so'zлari tugamog'idan avval dengiz tugab qolgaydur va basharti bizlar shul kabi boshqa dengizlarni ham madadga chaqirsag-u, yer yuzidagi barcha daraxtlarni qalam qilsak ham, yetti dengizdan madad olib turgan dengiz Oolloh taoloning so'zlarini bitmoqqa yetmagaydur. Rabbingiz bo'lmish Oolloh taolo olti kunda osmonlar birlan yerni yaratib, so'ng Arshga o'lirdi. Tun kunni tezda quvib yetib qamrab olgaydur va quyosh, oy va yulduzlar Oolloh taoloning amriga itoat etib harakat qilgaylor, zero yaratmoq va amr qilmoq uning o'zigagina xosduri...»

### Savol va topshiriqlar

1. «Hadis» nima? «Muhaddis»-chi? Ular haqida nimalar deya olasiz? «Muhaddislar imomi» deganda nimani tushunasiz? Bunday yuksak unvonga kim sazovor bo'lgan?
2. Hadislarni yozish va yig'ish qachondan boshlangan? «Sahih»-«nosahih» hadislarni tushuntirib bera olasizmi?
3. Imom al-Buxoriyning vatani, o'qish yillari haqida gapirib bering. Mashhur muhaddisning ota-onasi to'g'risida qanday ma'lumotga egasiz?
4. Imom al-Buxoriy hayotining so'nggi yillari haqida so'zlab bering. Nega u Samarqand yaqinida dafn qilingan?
5. «Al-jome' as-sahih» kitobi haqida ma'lumot bering.
6. «Salom berish islom amallaridandir» hadisini o'qib chiqing va payg'ambarimizning eng yaxshi xislatlar haqidagi fikrlarini tushuntirib bering.
7. «Ilm o'rganmoq va o'rgatmoqning fazilati» hadisidagi ilmnинг yomg'irga o'xshatilishini tushuntirib bera olasizmi?
8. Yuqoridagi hadislardan ilm haqidagilarini ajratib oling va ular haqida gapirib bering.

<sup>1</sup> Qavli — so'z.

## HADIS HAQIDA TUSHUNCHА

**Hadis** – islom dinida Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati, uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Muhammad payg'ambar biror gap aytgan, biror ish qilib ko'rsatgan yoki boshqalar qilgan biron-bir ishni ko'rib turib, uni man etmagan bo'lsa, ana shu uch holat sunnat hisoblanadi. Ana shunday xatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar **hadis** deb yuritiladi. Hadislarda islom dinining qonun-qoidalari bilan birgalikda insoniy fazilatlar ham keng tashviq qilinadi, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan yomon sifatlar qoralanadi. Ya'ni, hadislarda o'zaro do'stona munosabatlar, qarindosh, ota-onva farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik,adolat, insof-tavfiqli bo'lish targ'ib qilingan. Razolat, kibr-u havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, fitna-fasod, zu'l kabi illatlarga nafrat tuyg'ulari ifodalangan.

Vaqt o'tishi bilan turli ijtimoiy ziddiyatlar, dindagi ichki g'oyaviy kurashlar natijasida soxta hadislар ham paydo bo'la boshlagan. Natijada hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar – **muhaddislar** hadislarni ishonchli manbalar asosida qayta ko'rib chiqishga, ularning haqiqiyalarini soxtalaridan ajratishga kirishganlar. Shunday qilib, islom olamining turli yerlarida hadis ilmining yirik targ'ibotchilarini va mualliflari paydo bo'la boshladi.

Hadis ilmining rivojlanishiga, ayniqsa, bizning yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar ulkan hissa qo'shishgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termizi, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiyy as-Samqandiyy o'z umrlarini hadis toplash va ularni o'rganishdek muqaddas ishga bag'ishlaganlar.

Mashhur muhaddislar orasida Imom Buxoriy eng oldingi o'rinda turadi. Uning yozgan kitoblari ichida eng mashhuri «Al-jome' as-sahih» (bu asar «Sahih al-Buxoriy» nomi bilan ham mashhur) asaridir. Imom Buxoriygacha o'tgan muhaddislar hadis kitoblariga barcha eshitgan hadislarni kiritar edilar. Hadislarni barcha shartlari bilan tekshirib, ularni sahih (ishonchli) yoki g'ayrisahih (ishonarsiz)

qismlarga ajratmas edilar. Birinchi bo'lib bu uslubni Imom Buxoriy joriy etgan.

Hadislar tuzilishiga ko'ra, yuqorida ta'kidlanganidek, ikki qism-dan – hadisning mazmuni (matni) va uning sanadidan iborat. Hadislarni bir-biridan eshitib, rivoyat qilib, avloddan avlodga qoldirib kelgan roviylar ro'yxati hadisning **musnadi** deyiladi. Muhammad payg'ambardan so'ng biron-bir hadis yozib olingunga qadar o'tgan vaqt ichida ushbu hadisni bir-biriga naql qilib kelgan roviylar tartibida (**musnadda**) uzilish bo'lmasa, bunday hadislar ishonchli hisoblangan.





## EZOP

(*Miloddan avvalgi VI asr*)



Muhtaram o'quvchi! Siz kundalik hayotingizda katta yoshdagi yaqinlaringiz yoki muallimlaringiz bilan muloqot va suhbatlaringizda ularning o'z fikrlari yoki o'git-nasihatlarining ta'sirliroq chiqishi uchun har xil maqol va masallarga, ya'ni hikmatli so'zlar yoxud kichik-kichik iibratli voqealarga murojaat etishlariga e'tibor qilgan bo'lsangiz kerak. Avvalgi darslardan bilib borayotganingizdek, maqol yoki masal orqali ifodalangan fikr oddiy xabar yo axborot tarzida bildirilgan mazmundan ko'ra albatta ta'sirliroq bo'lib, xotirangizda uzoq vaqt saqlanib qoladi. Odatda, bilimlari chuqur, hayotiy tajribalari boy bo'lgan kishilar shunday so'zlashadi. Ana shunday so'zlash usulini yevropaliklar «Ezop tilida so'zlash» yoki «Ezopona til» deb yuritishadi.

Xo'sh, nega bunday ibora paydo bo'lgan, Ezop degani kim, qabilida savol tug'ilishi tabiiy. Bu savollarga javob topish uchun qadimiy Yunonistonga, ya'ni hozirgi dunyo xaritalariga Gretsya, Makedoniya nomi ostida kiritilgan mamlakatlar va o'sha atroflardagi ko'hna davlatlar, shaharlar tarixiga murojaat qilishimiz kerak.

Rivoyatlarga ko'ra, miloddan avvalgi VI asrlarda Yunonistonda quldorlik tuzumi hukm surgan paytda qullar orasidan yetishib chiqqan nihoyatda aqli, ammo o'ta badbashara, xunuk bir donishmand bo'lib, uni Ezop deb atashgan ekan. Uning asli kelib chiqishi o'sha davrlardagi Frigiya mamlakatidan bo'lib, urushlar natijasida qul qilib olinib, Yunonistonga kelib qolgan. Aql-u farosati, topqirligi bilan o'z xo'jayinlarining mushkullarini oson qilib, hurmat va e'tibor qozongan. Hatto shaharlarni bosqinlardan asrab, podshohlarni qirg'in-barot

urushlardan to'xtatib qolgan. Oxir-oqibat o'zini qullikdan xalos etib, Lidiya shohi Krez saroyida xizmat qilgan, so'ng Vavilon shohi Likurg sultanatida xazinabon darajasiga ko'tarilgan. Keyinroq, haqgo'yligi, adolatparastligi, kinoyali achchiq tili uchun ko'rolmagan, hasadgo'y dushmanlari uni Delfa shahrida tog' qoyasidan otib yuborib, o'ldirganlar.

Ezop hayoti haqidagi ma'lumotlar o'sha davrdagi va undan keyingi asrlardagi solnomachilar tomonidan yozib qoldirilgan rivoyatlar, ibratli hikoyatlar orqali yetib kelgan. Uning 500 ga yaqin masallari qadim davrlardayoq jamlanib, «Ezop masallari» nomi ostida kitob qilingan va donishmandlik o'gitlari sifatida butun dunyoga tarqalgan.

«Ulug' masalchi»ning o'zi haqida rivoyatlar ham juda ibratomuz. Masalan, ularning birida hikoya qilinishicha, Ezopning xo'jayini safarga otlanar ekan, o'z qullariga yuklarni bo'lib olib, ko'tarib ketishlari lozimligini buyuradi. Ezop ularning oldiga kelib, o'ziga yengilroq yuk berishlarini iltimos qilganida, qullar uning o'zi tanlab olishiga ruxsat beradilar. Ezop borib, to'rt kishi zo'rg'a ko'taradigan non solingan qutini tanlaydi. Atrofidagilar barchasi undan kulib, yengil narsa so'rabb, eng og'ir yukni tanlagani uchun ahmoq deya masxara qiladilar.

Xo'jayini uning og'ir yukka o'zini urganini ko'rib, Ezopni maqtab qo'yadi. Aslida Ezop olis safarga ketayotganlarini sezib, uzoqni ko'zlab ish tutgan edi.

Anchagina yo'lni bosib, kun peshinga yetganda, barcha to'xtab, ovqatlanishga o'tiradilar. Shunda Ezop ko'tarib kelgan qutidan barchaga non ulashib, yukini ikki barobar yengillashtiradi. Kechga borib, yana yo'lda ovqatga unnaganlarida, qutining ichidagi qolgan nonlarni ham ulashib, yukidan tamomila xoli bo'lib oladi-yu boshqa qullar manzilgacha olgan yukini qiynalib ko'tarishda davom etsa, Ezop qup-quruq qutini yelkalab, oldinda o'ynoqlab, chopib boradi.

Yoki rivoyat aytuvchilar yana shunday ibratli voqeani hikoya qiladilar:

Ezopning xo'jayini, Samos oroliga yetib kelishgach, uni shu yerlik mashhur faylasuf Ksanfga sotadi. Ezop Ksanfni eng og'ir vaziyatlarda qutqarib, hech kim yecholmaydigan jumboqlarni yechib, xo'jasiga sadoqat ko'rsatadi. Ammo Ksanf o'ta yengiltak, kaltafahm odam edi. Kunlarning birida u o'z og'aynilari bilan maishat qilib o'tirib, mast holatda inson hamma narsaga qodir deb da'vo qilib qoladi. Shunda

og‘aynilaridan biri Ksanfni mot qilish uchun «Inson dengizni ichib yuborishi mumkinmi?» deb so‘raydi. «Nega mumkin emas, mana men ham dengizni ichib yuborishim mumkin» deya Ksanf katta ketadi. U o‘zini bilmaydigan darajada mast edi. Shunda og‘aynisi u bilan garov o‘ynab, kim yutqazsa, o‘zida bor barcha mol-mulkini g‘olib bo‘lganga beradi, deb kelishadilar. Ertasi kuni Ksanfning uyiga garov bog‘-lashgan og‘aynisi shaharning obro‘li odamlarini guvohlikka chaqirib, birga boshlab keladi. Ksanf Ezopning oyoqlariga yiqilib, qutqarib qolishini so‘raydi. Shunda Ezop xo‘jayiniga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib aytadiki, «Sen o‘z so‘zlariningdan qaytma. Dengiz bo‘yiga borib, barcha guvohlarning oldida senga bir kosa dengiz suvidan olib berishlarini buyur va og‘ayningdan garov shartlarini yana bir bor so‘rab ol. Shundan keyin ularga ayt, dengizga juda ko‘p daryo va irmoqlarning suvlari quyladi. Men faqat dengiz suvini ichishga garov bog‘lashganman. Shuning uchun og‘aynim avval o‘sha daryo va irmoqlar suvini ajratib bersin, ana undan keyin men dengizni ichaman». Shunday qilib, Ksanf faylasuf Ezopning yordami bilan garovda yutib chiqadi. Biroq xavfdan qutulgach, unga yordam bergani uchun o‘zini qullikdan xalos etishini so‘ragan Ezopni arzimas bahona topib, kaltaklashga buyuradi.

Bu hikoyadan ko‘rinadiki, quldorlik zamonida qullar har qancha aqlii, topqir, sadoqatli bo‘lmasin, ularning qismati juda ayanchli edi. Xo‘jasini eng og‘ir damda qutqarib qolganiga qaramay, undan minnatdor bo‘lish o‘rniga, o‘zining kaltabin va ahmoqligini tan olishdan orlanib, qulni jazolashga buyuradi. Ayni paytda Ezop hayotidan olingan bu hikoyatlar uning naqadar donishmand va olajanob bo‘lganini, har qanday sharoitda bilim va mulohaza bilan ish ko‘ra olishini anglatadi. Bular Ezopning hayot ibratlari, uning kechmishlari va insoniy xususiyatlari borasidagi rivoyatlardir. Shu bilan birga Ezop tomonidan yaratilgan masallar bilan ham yaqindan tanishsangiz, hayot yo‘lingizda hamisha kerak bo‘ladigan yana ko‘p o‘git va pandlarni o‘qib, o‘zlashtirib olasiz, nihoyatda zarur xulosalar chiqarasiz.

## **EZOP MASALLARI VA ULARNING IBRATLARI HAQIDA**

### **YOVVOYI ECHKILAR BILAN CHO'PON**

Cho'pon echkilarni yaylovgaga qo'yib yubordi. Bir payt qarasa, echkilari yovvoyi echkilarni bilan o'tlashib yuribdi: xursand bo'ldi-yu kech kirkach, hammasini o'zining g'origa qamadi. Ertasiga havo buzuqligi tufayli echkilarni odatdagidek yaylovgaga olib chiqolmadidi: g'ordayoq boqishiga to'g'ri keldi. Cho'pon o'zining echkilalariga nomigagina — o'lmagunday yem solgani holda, qo'lga o'rgatib olish niyatida yovvoyi echkilarga mo'l-ko'l qilib to'kdi. Ertasi, havo yurishib ketgach, echkilarni tog'ga qarab ura qochdilar. Cho'pon ularni yaxshilikni bilmaydigan nonko'rlar, deya kojishga tushdi: «Axir men sizlarni o'zingning echkilardan-da yaxshiroq boqmadimmi?» Yovvoyi echkilarni aytdilar: «Shuning uchun ham sendan nariroq yurishimiz ma'qul ko'rindi-da. Bizlar kechagina senga yo'liqqandik, sen esa bizni o'zingning eski echkilaringdan-da yaxshiroq boqding. Demak, ertaga yana yangilar kelib qo'shilsa, unda ularni bizlardan afzalroq ko'rarkansan-da?!»

Alqissa, yangi do'stlarni eskilardan afzal tutuvchilar bilan do'stlashishga shoshilmang, zero yana yangi do'stlar orttirganda siz ham eskilardan bo'lib qolasiz.

Aziz bolajonlar, qissadan hissani anglagan bo'lsangiz kerak-a?! Siz ham o'z do'stlaringiz, yaqinlaringiz haqida o'ylab ko'ring. Shu bilan birga o'zingizni do'stlarga munosabatingizni yaxshi tushunib oling. Do'stlik degan so'z bilan sadoqat, do'stga sodiqlik tushunchasi doimo yonma-yon kelmog'i lozim. Inson hayoti davomida juda ko'p qaltis vaziyatlarga tushishi, turli sinovlarga duch kelishi mumkin. Ana shunday sharoitda faqat o'z manfaatini o'ylab, Sizni yolg'iz tashlab ketadigan yoki boshqa odamlarni do'st tutib ketadiganlardan nariroq bo'lgan ma'qul.

Ezop insonlar tabiatidagi tuban illatlarni, yaramas xususiyatlarni juda aniq anglab, lo'ndagina majoziy voqealarni uning mohiyatini ko'rsatib beradi. Quruq safsata yoki pand-nasihat bilan emas, aynan bo'lishi, uchrashi mumkin bo'lgan hayotiy hodisani shartli — ramziy

hikoyat vositasida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bir shaklda ifoda etadi. Ezop masallarini insonlardagi barcha yuksak va chirkin xususiyatlarni mujassam etgan ibratnama deb atash mumkin.

## KIYIK BILAN TOKZOR

Ovchilar ta'qibidan qochgan kiyik tokzorga yashirindi. Ovchilar payqamay o'tib ketishgach, endi xavfdan qutuldim, deb xayolladi-yu tok barglarini mo'tab<sup>1</sup> yeyishga tutindi. Ittifoqo shu payt ortiga o'girilgan ovchi kiyikni payqab qoldi: darhol o'q uzib, jonivorni yarador qildi. O'limi yaqinlashganini sezgan kiyik afsus-nadomatda ingrandi: «Qilmish qidirmish: tok meni qutqargandi, men esa uni nobud qilishga qasdlandim».

Alqissa, kimki o'ziga yaxshilik qilganlarga yomonlik sog'insa, u albatta Xudoning qahriga yo'liqqay.

Ushbu hayotiy lavha yaxshilikka hamisha yaxshilik bilan javob qaytarishga undaydi. E'tibor qiling-a, tokzor kiyikni o'limdan asrab qoldi. Kiyik buning uchun bir umr minnatdor bo'lib, imkonи yetganicha tokzorni asrashi, uni har kim payhon qilmasligi uchun jon kuydirishi lozim edi. Ammo, u aksincha ish tutib, xavfdan qutuldim, ya'ni jonim omon qoldi, endi qornimni o'ylashim kerak, deb hozirgina uni yashirgan tok barglarini mo'tashga tushadi. Bu na Xudoga va na bandasiga xush keladigan illat. Shu bois ham kiyik o'sha zahotiyog jazolanadi. Bu bilan Ezop yaxshilikka yomonlik qilish muqarrar jazo bilan yakunlanadi, deyish bilan bir qatorda, insonlarni nafs balosidan ham asranishga, hamma narsaga bir paytning o'zida erishaman deb, ochko'zlik qilmaslikka da'vat etadi. Bunday tushuncha Sharqda ham keng tarqalgan. Jumladan, bizning zaminimizdan yetishib chiqqan ko'plab allomalar, adib va shoirlarimizning asarlarida shunday g'oya ilgari suriladi. Chunki insoniy fazilat yoki illatlarning millati, hududiy chegarasi yo'q. Inson zoti yaralibdiki, yaxshilik, ezunglik bilan birga yomonlik, tubanlik yashab keladi. Har bir inson, avvalo yaxshilik nima-yu, yomonlik nima — farqiga borishi, o'z ongi, aql-u farosati bilan anglab olishi kerak.

<sup>1</sup> Mo'tamoq — kemirmoq, g'ajimoq.

## BO'RI BILAN LAYLAK

Bo'rining bo'g'ziga suyak tiqilib qoldi-yu joni ko'ziga ko'riniib, yordam istab yugurgilab qoldi. Baxtini qarangki, laylakka duch keldi: suyakni chiqarib tashlasang, mukofotlayman, deya va'dalar berib yordam so'radi. Laylak tumshug'i-yu boshini bo'rining bo'g'zigacha tiqib, arang suyakni chiqarib oldi-da, va'da qilingan mukofotni talab qildi. Bo'ri bunga javoban dedi: «Ha, azizim, bo'rining og'zidan boshing omon chiqqani kammi, yana mukofot deysan-a?!»

Alqissa, ayrim badfe'l kishilar yomonlik qilmaganlarining o'ziniyoq yaxshilik qilganga yo'yadilar.

Bu masalni qay bir ma'noda avvalgisining davomi ham deyish mumkin. Chunki yaxshilik qilib, suyakni olib tashlagan laylak mukofot olish o'rniga, bo'rining changalida qolib ketmaganiga shukur qilishi lozimligi hikoya qilinar ekan, yaxshilikni ham uning qadriga yetgan odamga qilish kerak, degan fikr ilgari suriladi. Yomon fe'lllik, baxil odam, unga har qancha yaxshilik qilmang, og'irini yengil qilaman, yordam beraman, deb o'ylamang, baribir u Sizning yaxshilicingizni bilmaydi. Bil'aks, o'zining yomonlik qilmaganini yaxshilikka yo'yadi. Bu bilan o'z tubanligini yana bir marta namoyish etadi.

Ezop masallaridan insonning turli vaziyatlarda o'zini qanday tutishi lozimligi haqidagi maslahatlarni anglash mumkin. Hayotda har xil sinovlar ko'p bo'ladi. Inson doim ham muvaffaqiyat qozonib, shod-u xurramlik bilan kun kechiravermaydi. Shodlik, g'alabalar bilan bir qatorda inson turli g'am-tashvishlarga, omadsizlik va yo'qchiliklarga tayyor bo'lib yurishi, har bir hodisaga hushyor nigoh bilan qarashi lozim. Sabr-u bardoshli bo'lish, qiyinchilikka chidam, yo'qchilikka qanoat qila olgan odam hech qachon kam bo'lmaydi. Aksincha, arzimagan tashvishdan xavotirga tushib, o'zini o'tgacho'g'ga urgan kishilar yo biror kasallikka chalinadilar yoki yechib bo'lmas chigalliliklarga duch keladilar. O'zgalar oldida obro'-e'tiborlarini yo'qotadilar. Ezopning quyidagi masali ana shunday odamlar haqida.

## ESHAK BILAN BAQALAR

Ustiga o'tin ortilgan eshak botqoqdan o'tayotgandi, toyib ketib yiqildi. Eshak o'midan turishga harchand urinmasin – bo'lindi: oh-voh qilib faryod cheka boshladi. Botqoqda yashovchi baqalar uning holini ko'rib dedilar: «Birodar, botqoqqa endigina yiqilganing holda shunchalar nola chekasan, bizga o'xshab umring shu yerda o'tganida nima qilarding?!»

Alqissa, ayrim kishilar kichkinagina qiyinchilik oldida ham esankirab, ruhan cho'kib qoladilar, holbuki, boshqalar bundan o'n chandon og'ir mashaqqatlarni-da sabr-la yengadilar.

Xalqimizda «Birni ko'rib shukur qil, birni ko'rib fikr qil» degan maqol bor. Nogahon toyib ketib, yiqilgan eshak, biroz tin olib, kuch to'plab, yana oyoqqa turishi va yo'lida davom etishi mumkin edi. Ammo u mutlaqo chorasiz qolgan kabi ayyuhannos solib, faryod chekadi. Vaholanki, undan ko'ra yuz chandon yomonroq ahvolda, bir umr botqoqda yashayotgan baqalarni ko'rib, o'z holatiga shukur qilishi, ahvolini yaxshilash chorasini ko'rishi lozim edi. U esa sarosimaga tushib nola qiladi. Hayotda bunday holatlar uchrab turadi. Sovuqqonlik bilan muammolar haqida o'ylab ko'rilsa, hammasiga biror tadbir topish mumkin. Muhimi, aqlini ishlatish, qiyinchiliklarga sabrli bo'lishdadir.

Ezopning bu masali zamirida yana qanday ma'nolar borligini sinfdoshlaringiz bilan birga muhokama qilsangiz, tushunchangiz yanada boyirdi.

Gohida qiyinchilikni yengib o'tishdan ko'ra uni aylanib o'tishga yoki hiyla-nayrang ishlatib, o'z maqsadiga erishishga harakat qiluvchi kimsalar bo'ladi. Ular balki ba'zida niyatlariga yetarlar ham. Biroq bu uzoq davom etmaydi. Albatta, biror ishkjal bo'lib, barcha harakatlar chippakka chiqadi. Ana shunday toifali odamlarga qarata quyidagi masal aytilgan.

## USTIGA TUZ YUKLANGAN ESHAK

Ustiga tuz ortilgan eshak daryo kechuvidan o'tayotib toyib ketdi – suvgaga yiqildi: tuz suvda erib ketib, yuk ancha yengillashdi, eshak benihoya sevindi. Keyingi gal o'sha joydan o'tayotib, eshak: «Suvga yiqilsam yukim

yengillaydi, keyin turib ketaveraman», deb o‘yladi-da, atayin yiqildi. Ittifoqo, bu gal eshakka yuvg‘ich ortilgan edi: yuvg‘ich suvni shimbib olib, yuki og‘irlashib ketgan eshak eplanolmay qoldi-yu suvga cho‘kib ketdi.

Alqissa, ayrimlar ishlatgan hiyla-nayrang ularning o‘z boshiga yetarkan.

«Og‘irning ostidan, yengilning ustidan o‘tma», deydi dono xalqimiz. Har qanday qiyinchilikni bardosh bilan yengib o‘tishga harakat qilgan odam, albatta, maqsadiga yetadi. Kurashlar bilan amalga oshgan ish qadrli va mustahkam bo‘ladi. Ayrim ishyoqmas, havoyi kishilar maqsadlariga tez va oson yetishish uchun turli nayranglar o‘ylab topadilar-u, ammo kutilmaganda pand yeb qoladilar. Yengil yo‘l bilan qo‘lga kirgan narsa barakali ham bo‘lmaydi. Hatto masaldagi voqeaga o‘xshab, nojoiz makkorlik o‘sha odamni halokatga olib kelishi mumkin. «Behuda chiranish belni chiqaradi» degan hikmat ham shunday holatlarni nazarda tutib aytilgan. Bu fikrning yanada yaqqolroq misoli quyidagi masalda tasvirlab berilgan.

### BURGUT, ZAG‘CHA VA CHO‘PON

Yuksak qoyadan shiddat bilan qo‘zg‘algan burgut suruvdagagi qo‘zichoqni ildi-yu ketdi. Zag‘cha buni kuzatib turgandi, hasaddan ichi kuyib, o‘zining ham shunday qilgisi kelib qoldi. Zag‘cha jon-jahdi bilan chinqirganicha borib qo‘chqorga tashlandi: panjalari qalin junga o‘ralashib qoldi-yu, uchishga ham, qochishga ham imkonni bo‘lmay qoldi. Uning jon xalfida pitirlayotganini ko‘rgan cho‘pon gap nimadaligini fahmladi-da, darhol tutib oldi: qanotlarini qirqib, o‘zini ermak uchun bolalariga eltdi. Bolalari chuvillashib: «Bu qanday qush?» — deya so‘raganlarida, cho‘pon aytdi: «Men-ku buning zag‘chaligini bilaman-a, biroq uning o‘zi o‘zini burgut hisoblaydi-da?!»

Alqissa, o‘zingdan zo‘rroqlar bilan bellashaman, deb chiranganing bilan hech ish chiqarolmaysan, kulgi bo‘lganining qoladi, xolos.

Har qanday inson hayotda o‘z o‘rnini bilishi lozim. Kerak-nokerak narsalarga o‘zini uraverish yaxshilikka olib kelmaydi. Agar zag‘cha burgutdan bir necha barobar kichik ekanini, har qancha chiranganda

ham burgut shiddatiga ega bo'lolmasligini fikr qilganida, o'zini abgor qilib, kulgili holatga tushmas edi. Ana shunday toifa odamlarga nisbatan donolar «Ko'rpangga qarab oyoq uzatgin» deya tanbeh beradilar. Darhaqiqat, yoshi ulug' yoki martabasi baland kishilar oldida maqtanchoqlik qilish, o'z imkoniyatlari to'g'ri baho bera olmaslik, ularga noo'rin xatti-harakatlari bilan o'zini ko'rsatmoqchi bo'lish oxir-oqibat shu kimsani beobro' qiladi, e'tiborsiz narsadek chetga chiqib qolishiga sabab bo'ladi.

Ko'rindik, Ezop masallari hayotiyligi bilan, odamlarning fazilat-u nuqsonlari, qusur-kamchiliklari, noto'g'ri xatti-harakatlarini aniq ko'rsatib bera olgani, ma'naviy ibrati bilan hozir ham o'z ahamiyatini to'la saqlab kelmoqda. Bundan bir necha ming yillar avval yaratilgan bu majoziy hikoyatlar dunyodagi barcha tillarga tarjima qilinib, shu yo'lda ijod qiluvchi davomchilari yetishib chiqishiga omil bo'ldi. Fransuzlarda J. Lafonten, rus adabiyotida I. Krilov kabi masalchi adiblar Ezop masallarini qayta ishlab, ijodiy boyitib, o'z davri xususiyatlari ko'ra to'ldirib, rivojlantirdilar. O'zлari ham ulardan ilhomlanib, yangi masallar yaratdilar.

### *Nazariy ma'lumot*

#### MASAL HAQIDA TUSHUNCHА

Masal – majoziy xarakterdagи qisqa hikoyacha bo'lib, nasriy yoki she'riy shaklda yoziladi. Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iboratdir. Bular ramziy-majoziy ma'noda qo'llanilib, insonlar fe'l-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihatи shuki, u to'liq ma'noda tarbiyaviy maqsadga yo'naltiriladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan Ezop masallari bunga yorqin misoldir. Agar Ezop birinchi masalchi hisoblansa, undan so'ng eramizning birinchi va ikkinchi asrlarida yashab o'tgan grek masalchilari Fedr, Babriy tom ma'noda uning davomchilari hisoblanadi. Hatto Fedrning masalchilik rivojidagi asosiy xizmati shunda ediki, u Ezop masallarini she'riy yo'l bilan lotin tiliga tarjima qiladi. Ana shu tarjimalarga suyanib va ilhomlanib XVII asrda Fransiyada Lafonten, XVIII asrda Germaniyada Lessing, Gellert va XVIII–XIX asrlarda Rossiyada I. A. Krilov masal janrida barakali ijod qildilar.

Ko‘hna Sharq adabiyotida ham majoziy shaklda, ya’ni turli hayvonlar tilidan tarbiyaviy ahamiyatga molik hikoyachalar keltirish tajribasi qadim hind adabiyotining nodir namunalari bo‘lgan «Panchatantra», «Kalila ya Dimna» kabi asarlar tarkibida uchraydi. Bu asarlar ham dunyoning ko‘pgina tillariga tarjima qilinib, shunday yo‘nalishdagi yangi asarlarning yaratilishiga turtki bergen.

Masalchilikning eng yaxshi namunalari o‘zbek adabiyotida ham mavjud. Avvalo, aytish o‘rinliki, Ezop masallaridagi hikoyat va hikmatlarga o‘xshagan ibratli maqol va matallar o‘zbek xalqi hayotida, uning kundalik turmushida, so‘zlashuv nutqida doimiy uchraydigan hodisadir. E’tibor qilgan bo‘lsangiz, yuqorida Ezop masallaridan kelib chiqadigan xulosalar aks etgan qator maqollar va hikmatli iboralar ota-bobolarimiz tomonidan azal-azaldan aytib kelinganini anglatuvchi namunalar ham yonma-yon keltirildi. Buning sababi, ta’kidlaganimizdek, ko‘tarilgan masala va mavzularning insonlarga birdek xos bo‘lgan xususiyatlar ekanligidadir. Shuning uchun ham Sharq, jumladan, o‘zbek mutafakkir shoir-u adiblari maxsus «Pandnoma», «Odob-noma»lar yaratib, bu asarlar maktab-madrasalarimizda alohida o‘quv qo‘llanmasi sifatida xizmat qilgan.

Shu o‘rinda majoziy shakldagi ibratli hikoyatlarning eng sara namunalari ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiy hazratlarining «Xamsa» asaridagi birinchi doston «Hayrat ul-abror» (Yaxshi odamlarning hayratlanishi) da va maxsus shu yo‘nalishda yaratilgan «Lison ut-tayr» (Qushlar tili) dostonida uchrashini alohida aytib o‘tish lozim. Shu bilan birga XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yashab o‘tgan Muhammad Sharif Gulxaniy ham «Zarbulmasal» nomli asari bilan o‘zbek adabiyotida masalchilik rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Ulardan tashqari XX asrga kelib Abdulla Ayloni, Hamza Hakimzoda Nivoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, Muxtor Xudoyqulov kabi shoirlar ijodida masal janrinining yaxshi namunalari uchraydi.

### *Savol va topshiriqlar*



1. Nima uchun bobolarimiz, katta yoshdagи kishilar o‘z nutqlarida maqol va masallardan foydalanishadi?
2. «Ezop tilida so‘zlashish» deganda nimani tushunasiz?

3. Ezop haqidagi rivoyatlarda uning donishmandligi nimalarda ko'rinadi?
4. Do'stlik, sadoqat degan tushunchalarni qanday tushunasiz?
5. «Kiyik va tokzor» masalida Ezop qanday insoniy fazilatlar haqida so'z yuritadi?
6. «Bo'ri bilan laylak» masalida Bo'ri qanday insonlarning majoziy obrazi?
7. Sabr-bardosh, qanoat degan tushunchalarning mazmunini izohlang («Eshak bilan baqalar» masali misolida).
8. Ezop masallarining bugungi kundagi ahamiyati nimada?
9. O'zbek masalnavis shoirlaridan kimlarni bilasiz?



## «TO'MARIS» RIVOYATI

Jannatmisol yurtimiz qadim zamonlardoq do'stlarda havas, dushmanlarda hasad uyg'otib kelgan. Bir tomonda osmono'par tog'lar, shaffof buloqlar. Bir tomonda yam-yashil vodiy, uchi-qirg'og'i ko'rinnas o'tloqlar... Suruv-suruv qo'y-qo'zilar, yilqi uyurlari. Bir tomonda obod qishloqlar, mevazor bog'lar, yuz hunarlik ko'rakm shaharlar... va ahil, mehnatkash xalq.

Bunday o'lkani qo'lga kiritishni istagan istilochilar ko'p bo'lgan, albatta. Bunga tarix guvoh. Lekin mard va jasur bobolarimiz Vatanni dushman qo'liga osonlikcha bergen emaslar. Har bir qarich yer uchun jang qilganlar, jon olib jon bergenlar, qahramonlik namunalarini ko'rsatganlar. Bu shiddatli voqealar mana necha asrlardirki, tildan tilga, avloddan avlodga o'tib yashab keladi. Biz ularni qahramonlik afsonalari deymiz. Afsona devilishiga sabab shuki, ular tildan tilga o'tar ekan, sayqallahшиб, lekin asl voqealardan uzoqlashшиб, sirli tus olib borgan. To'maris, Shiroq, Alp Er To'nga, Siyovush va Rustamning jasoratlari haqidagi afsonalar mana shu siraga kiradi. Ular qadim ajdodlarimiz hayotidan hikoya qiladi.

Masalan, To'maris, Shiroq afsonalari qadim Eron va Turon o'tasida kechgan olis jang-u jadallarning ikki hayajonli lavhasini bizga yetkazadi.

Bundan 2700 yil oldin buyuk bobolarimiz Saqalar davlatini qurdilar. Saqalar Rusiyada «skiflar», G'arbiy Yevropada «skitlar» nomi bilan tanilgan. Saklar yoki shaklar ham deviladi. Bu davlat Xitoydan Dunay daryosigacha cho'zilgan bo'lib, turkiy xalqlarning birinchi davlat uvvushmasi edi. Kaspiy dengizining sharqidagi tekisliklarda massagetlar qabilasi yashar, ularni mard va oqila ayol To'maris boshqarar edi.

Miloddan oldingi 546-yilda Eron shohi, ahamoniylar sulolasasi asoschisi Kir Saqalar davlatiga yurish qiladi. Hozirgi O'ratega shahrigacha bo'l-gan yerlarni bosib oladi. O'rategaga Kirashata deb o'z nomini beradi. Nihoyat, 529-vilda Amudaryo bo'yida massagetlar hukmdori To'maris bilan bo'lgan jangda o'ldiriladi. Yurt ozod bo'ladi.

Ushbu voqeа qisqa vaqtда butun dunyoga tarqaladi. U haqda xalq orasida turli-tuman afsonalar paydo bo'ladi. Shundaylardan birini «tarix otasi» deb nom olgan mashhur yunon olimi Herodot o'zining «Tarix» kitobiga kiritgan edi. Undagi eng muhim gap shuki, To'maris jangda o'lган Kirning boshini kestiradi, «qonga to'ymas qonxo'r qonga to'ysin uchun» Kirning boshini qon bilan to'ldirilgan meshga tiqishni buyuradi.

Herodot bu voqeadan yuz yil keyin yashagan. Lekin bu voqeа juda mashhur bo'lgan bo'lsa kerakki, tarixchi uni batafsil keltirgan va buyuk momomizning ibrati tarixga kirib qolgan. Tarix kitoblarida bu nom «To'maris», «Tomris», «Tamiris» va «Tamirida» shakllarida uchraydi. «Is» yunonlar qo'shgan qo'shimcha. So'zning asli, o'zagi «temir»dan, deydilar ayrim olimlar. Bu gapda ham jon bor. Bobolarimiz bundan 4000 yil oldin temir qazib olib ishlatganlar. Iloq – hozirgi Ohangaron dunyoning eng qadim konlaridan. Xitoyliklar saqalarni «temirchi millat» degan ekanlar. Hindlarning «Maxabxarata» dostonida temirning shimoldan, ya'ni bizning yurtdan borganligi aytildi.

Xullas, tarixni kavlasangiz, gap ko'p.

To'marisning jasoratga to'la ibrati haqida XX asrda adabiyotimizda ayrim asarlar paydo bo'ldi. Shulardan biri yozuvchi Mirkarim Osimning «To'maris» hikoyasidir. Ona Vatanimizda bundan 2500 yil oldin yuz bergen qonli voqealar va dushmanqa hech qachon bo'yin egmagan ajdodlarimiz hayoti hikoya qiziqarli voqealar, ta'sirli manzaralar orqali tasvirlab berilgan.

Mirkarim Osimning devarli hamma asarlari tarixda vashab o'tgan buyuk shaxslar, yuz bergen muhim voqealar haqida. Masalan, «Aljabrning tug'ilishi» hikoyasi algebra faniga asos solgan buyuk bobomiz Al-Xorazmiyning 1200 villigiga bag'ishlangan edi. «Jayhun ustida bulutlar» qissasi Amerika qit'asini bashorat qilgan, zamonasining barcha fanlarini egallagan Beruniy hayotidan hikoya qilardi. Shuningdek u Abu Ali ibn Sino («Ibn Sino qissasi»), Alisher Navoiy («Zulmat ichra nur») kabi

o‘lmas siymolarimiz obrazini yaratdi. Boborahim Mashrabning murakkab va fojiali taqdirini hikoya qiluvchi «Singan setor» nomli qissa yozdi.

Adibning bir qator asarlarida xalqimiz tarixining muhim qismi hisoblangan chet el bosqinchilariga qarshi kurashi vodealari tasvirlangan edi. Jumladan, «O’tror», «Temur Malik» qissalarida 1219–1221-villarda mo‘g‘ul istilochilarining Vatanimizga hostirib kirishi va xalq farzandlarining ularga qarshi olib borgan mardonavor kurashlari hikova qilinadi.

«To‘maris» va «Shiroq» hikoyalari esa miloddan oldingi olis tarihimizdan, qadim bobolarimizning Eron bosqinchilariga qarshi kurasidan so‘z ochar edi.

Mirkarim Osim Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan. Eski mактабда o‘qigan. Arab, fors tillarini o‘rgangan. 1918–1921-yillarda Langar mahallasidagi «Shamsul irfon» maktabida, so‘ng esa Alisher Navoiy nomidagi pedagogika bilim yurtida o‘qiydi. 1926–1930-yillarda Moskvadagi pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida tahsil oladi. Tarix va badиy ijodga qiziqishida dastlab mashhur taraqqiyatparvar Munavvarqorining, so‘ngroq Oybekning ta’siri katta bo‘lgan.

Quyida siz adibning «To‘maris» va «Shiroq» hikoyalari bilan tanishasiz.

### «TO‘MARIS» HIKOYASIDAN

*To‘maris o‘g‘li Sparangizni shak urug‘idan bo‘lgan Zarinaga uylantirmoqchi. O‘scha davr udumiga ko‘ra bo‘lajak kelin va kuyov birlari bilan kurashga tushadilar. Kurash shiddatli bo‘ladi. Goh yigitning, goh qizning qo‘li baland keladi.*

Nihoyat, Sparangiz g‘olib keladi (agar qiz yiqilsa, eriga itoatkor bo‘lishi lozim edi). To‘maris o‘g‘li va unga munosib kelindan xursand. To‘y tantanalari o‘tadi. Biroq quvonch uzoqqa cho‘zilmaydi. Eron shohi Kayxisravning elchisi paydo bo‘ladi. Elchi Eron shohi uning qo‘lini so‘rayotganini aytadi. Massagetlar malikasining eri sal ilgariroq vafot etgan edi. To‘maris Eron shohining nayrangini darrov fahmlaydi. Shohga malika emas, uning jannat yurti kerakligini elchining birinchi gapidanoq sezib oladi va unga keskin rad javobini beradi. Elchi takabburlik bilan To‘marisga tanbeh bermoqchi, bu xatti-harakati Eron shohiga nomunosib, demoqchi bo‘ladi. Malika esa uning xalqi erkinlikni qullikka almashtimasligini bildiradi. Urush bo‘lishi aniq edi. Urush harakatlari

*boshlanadi. Sparangiz mardlik qilib, dushmanning Amudaryodan o'tishiga yo'l qo'yib beradi. Kayxisrav esa uning sodda va to'g'riliqidan foydalanib, qo'lga tushirish rejasini tuzadi.*

*Sparangiz va uning do'stlarini ichkilik yordamida asir oladilar. Sparangizdan boshqa barcha yigitlarni qilichdan o'tkazib, uning yordamida massagetlar yurtini zabit etmoqchi bo'ladi. Sparangiz bu sharmandalikka chiday olmaydi va o'zini halok etadi. Voqealardan xabardor bo'lgan To'maris g'azabga minadi.*

Oftob nuri To'marisning yelkasiga tushib turar, go'yo Mihra nurli qo'llari bilan uni siypab, olqishlayotgandek bo'lar edi.

— El-yurt ayol kishining fotihasini oldi, g'alaba bizga yor bo'lgay, — dedi soqoli ko'ksiga tushgan bir chol.

Shu payt tip-tiniq osmonda bir burgut qanotlarini keng yoyib, ular ustida aylana boshladi. Qurolli yigit-qizlar boshlarini ko'tarib, uning parvozini tomosha qildilar. Hamma ko'zlar chaqnab, yuzlar yorishib ketdi, chunki ularning e'tiqodida bu yaxshilik alomati edi...

To'maris tish-tirnog'igacha qurollangan va hali charchamagan Eron qo'shini bilan hozir jang qilsa, oqibati xunuk bo'lishini yaxshi bilardi. Eng oldin dushmanni cho'llarda sarson qilib, uning tinkasini quritish va qulay joy topib, jang qilish kerak edi.

Yengil g'alabadan havolangan Eron qo'shini To'marisning chekinayotganini eshitib, zudlik bilan uni ta'qib eta boshladi. Kayxisrav osongina zafar qozonib, o'lja olishga shoshilayotgan qo'shinini to'xtatib qolishdan ojiz edi. Massagetlar esa bir tepalik ustida o'zлari uchun qulay joy ishg'ol qilib, saf tortib turdilar. Birinchi safda o'q-yoy bilan qurollangan yengil aslahали merganlar, ular orqasida og'ir qurolli askarlar turar edi. Kayxisrav askarlari sekin-asta yaqinlashib kelaverdilar. Massaget merganlari to'satdan ularni o'qqa tutdilar. Sadoqlar bo'shab qolgach, uzun dastali mis boltalar, kalta nayzalarni ishga soldilar. Qo'shining ikki yoni va orqa tomonini himoya qilib turgan otliqlar suvlig'ini chaynab, tilla o'mildiriqlarini oftobda yarqiratib turgan sabrsiz arg'umoqlarning boshini qo'yib yubordilar. Saflar bir-birlariga aralashib ketdi. Qilich va nayzalarning bir-biriga taraqlab tegishi, jangchilarning suroni, otlarning kishnashi, yaradorlarning ingrashi birga qo'shilib, qiyomat-qoyim bo'lib ketdi. Odamlar g'uj bo'lib olib, bir-birlariga nayza sanchar, bolta bilan boshiga tushirar, qilich bilan chopar edi. Jang shu zaylda kechgacha

davom etdi. O‘z yerlarini yovdan tozalash va o‘ch olish ishtiyogi bilan yongan massagetlar jonbozlik ko‘rsatib yov bilan mardlarcha olishishdi, nihoyat, zafar ularga yor bo‘lib, dushmanni orqaga sura boshlashdi. Zarina boshchiligidagi otliq qo‘sish dushmanning chap qanotini sindirib, orqaga o‘tib oldi. Bir tepalik ustida jangni kuzatib turgan Kayxisrav qilich yalang‘ochlab, o‘z navkarları bilan jangga shoshildi, biroq u birinchi to‘qnashishdayoq halok bo‘ldi. Kayxisravning o‘lganini bilib, eroniylarning ruhi tushib, yuraklaridagi o‘t so‘na boshladidi. Dushmanning bir qismi chekinib, yaqin o‘rtadagi to‘qaylarga yashirinmoqchi bo‘ldi. Biroq To‘maris boshchiligidagi erkak va ayol suvoriyalar ularning oldini to‘sib chiqib, qilichdan o‘tkaza boshladilar. Massagetlar eroniylar ustidan to‘la g‘alaba qozonib, bir talay asir olishdi.

— Kayxisravning kallasini kesib olib kelinglar! — deb buyurdi hali ham nafasini rostlab ololmagan To‘maris. Uning yonida turgan dushman bilan olishgan kelini uch-to‘rt ayol jangchi bilan shahanshoh askarlarining jasadiga to‘lgan maydonga ot surdi. Ko‘p o‘tmay, Zarina Kayxisravning jasadini topdi va uning kallasini kesib olib, To‘marisga keltirib berdi.

— Endi bir meshga qon to‘ldirib kelinglar!

Jangchilar darhol malikaning buyrug‘ini bajo keltirdilar.

To‘maris soch va soqoliga qon yopishib qotib qolgan, ko‘zлari yumuq, dahshatli kallani qo‘liga olib, unga qaradi-da:

— Ey, Kayxisrav, umr bo‘yi jang qilib odam qoniga to‘ymading, mana endi to‘yguningcha ich! — deb uni mesh ichiga soldi-da, mesh og‘zini chilvir bilan mahkam bog‘lab qo‘ydi.

#### •TO‘MARIS• HIKOYASI HAQIDA

Mirkarim Osim o‘z hikoyasini To‘maris afsonasi asosida yaratgan. To‘maris afsonasi esa, yuqorida aytganimizdek, Herodotning «Tarix» kitobida keltirilgan edi. Shu jumladan, To‘marisning Kir boshini qon to‘ldirilgan meshga botirgani tarixiy haqiqatdir. Xotin-qizlarning erkaklar bilan yonma-yon jang qilishlari, kelin bilan kuyovni to‘y oldidan kurashtirib ko‘rishlari saqlalar hayotiga doir xalq og‘zaki ijodi namunalarida saqlanib qolgan.

Yozuvchi bu ma‘lumotlarni sinchiklab o‘rganib chiqqan va ularga suyanib, qadim tarixiy voqealarni ko‘z oldimizda jonlantirgan.

Hikoyaning markazida o‘z qavmi va xalqini jonidan ortiq sevgan mard, aqlli va tadbirkor ayol To‘maris turadi. U qirq yoshlardan oshgan, eri bir yil oldin vafot etgan. Yolg‘iz o‘g‘li bor, oti — Sparangiz. Eron shohi Kayxisrav (Kirning nomlaridan biri) To‘marisga uylanish baho-nasida uning yurtiga egalik qilmoqchi. Massagetlar malikasi dushmanning bu nayrangini yaxshi payqaydi. Shu sababli sovchi bo‘lib kelgan elchiga qat’iy rad javobini beradi.

Urush boshlanadi. Sodda Sparangiz va uning do‘satlari dushman mak-rini payqamay qoladilar va halok bo‘ladilar. To‘maris tadbirkorlik bilan ish tutadi. Dushmanni sahroning ichkarisiga boshlab, hammasini qirib tashlaydi.

Hikoyada shiddatli voqealar yuz bergan sahro manzaralari uzoq payt esda saqlanib qoladi. Sparangiz bilan Zarinaning to‘y kuni kurashga tushish voqealari qadim-qadimlardan kelayotgan urf-odatlarimizni anglashga yordam beradi. Hiyla bilan asirga olingan Sparangizning nomusga chiday olmay o‘zini halok etishi qalbimizda g‘urur va mehr tuyg‘ularini uyg‘otadi. Nihoyat, dushmanning yengilib, adolatning qaror topishidan quvonib ketamiz. Beixtiyor jasorat va qahramonliklarga to‘la xalqimiz tarixining yunon, arab, mo‘g‘ul, rus istilochilariga qarshi kurash sahi-falari esimizga tushadi.

### *Savol va topshiriqlar*



1. Hikoyaga qaysi davr voqealari asos qilib olingan?
2. Bu afsona bizga qanday yetib kelgan? Herodot kim? Saqa (sak)lar, massagetlar kimlar?
3. Sparangiz va Zarina to‘ylari munosabati bilan qadim urf-odatlarimiz haqida so‘zlab bera olasizmi?
4. To‘maris nega Kayxisrav taklifini rad etdi?
5. Sparangiz va uning do‘satlari nega Kayxisrav qo‘shtinining Amu-daryodan o‘tishiga yo‘l qo‘yib berdilar?
6. Sparangiz nega o‘zini halok qildi? U o‘zini o‘ldirib to‘g‘ri ish qildimi?
7. To‘maris nega Kayxisrav boshini qon to‘la meshga botirdi?
8. Mirkarim Osimning yana qanday asarlari bor?
9. «To‘maris — massagetlar malikasi» mavzusida uy inshosi tayyorlang.

## «SHIROQ» RIVOYATI

Yoz boshlanib, Yaksart bo'yidagi cho'llarda o'tlar qovjiray boshladi. Bu yerlarda yashovchi shak qabilalari sero't yaylovlarga ko'chish taraddu-diga tushishdi. Yangi yerlarga ko'chish chorvachilar uchun bir bayram-dek edi. Ular bahor mavsumida yashab o'rganib qolgan yerlarini tashlab ketish oldidan bir-birlarinkiga qo'noq bo'lib borar, dorivor o'tlarni yeb semirgan biyalarning sutidan tayyorlangan o'tkir qimizlarni ichib mast bo'lgan yigitlar qizlar bilan lapar aytishar, vaqtichog'lik qilishardi.

Biroq bu safar odamlarning ko'ngliga qil sig'mas, o'tovlardan na qo'shiq tovushi, na qizlarning xushchaqchaq kulgisi eshitilardi.

Baland bir yerga qurilgan katta oq o'tovni egnilariga yarg'oq teridan kamzul, boshlariga uchi ingichka, uzun qalpoq kiygan qurolli soqchilar qo'riqlab turardilar.

O'tov ichida esa shak qabilalarining oqsoqollarini kengash qurib o'tirardilar. To'rga solingan ayiq terisi ustida chordana qurgan Rustak oqsoqollariga vaziyatni tushuntirardi:

— Eron shohi Darayavush O'kuzdan kechib, So'g'diyani bosib oldi. Eroniylar el-yurtni talab, erkaklarni qul, xotinlarni yesir qilib olib ketayotirlar. Endi navbat bizga keldi. Darakchilarimiz shohning biz tomonga Ronosbat boshchiligidagi katta bir qo'shinni yubormoqchi bo'lganligidan darak berayotirlar...

Rustak — soch-soqoli oqargan, biroz munkayib, cho'kib qolgan suyakdor chol edi. U bir vaqtlar keng yag'rinli, baland bo'yli pahlavon edi. Yakkama-yakka janglarda shak urug'ining dushmanlardidan ko'p bahodirlarni yer tishlatgan, uning nomi So'g'diyada ham, Eronda ham mashhur edi.

Hozir u shaklar va so'g'diyaliklarning ashaddiy dushmani bo'lgan Eron shohi va uning qora niyatları to'g'risida gapirar ekan, g'azabdan nafasi tiqilar, ko'zlari o't sochar edi. U gapini tugatib, dushmanni daf etmoq uchun qanday choralar ko'rish kerakligi to'g'risida o'z fikrlarini aytishni urug' oqsoqollaridan so'radi.

— Qo'lidan ish kelmaydigan chollar, kampirlar, bolalik xotinlarni qo'y va yilqilar bilan uzoq cho'llarga yuborib, qolgan er va ayollarning barini qurollantirsak va dushman bilan bir tomchi qonimiz qolguncha urushsak, — deb gap boshladi urug' oqsoqollaridan Saksfar. U oltmisiga

borib qolgan bo'lsa-da, yoshlardek ikki beti qip-qizil, serg'ayrat va tavakkalchi odam edi. — Urush kulfati benomuslik mashaqqatidan yaxshiroq. Zolim Eron shohiga qul bo'lgandan ko'ra jang maydonida o'lgan afzal...

Rustak uning uzundan uzoq gapini sabr bilan tinglab, boshini quyi solgancha o'ylanib qoldi.

— Jangda mardlarcha o'lmoq oson gap, lekin dushmanni yanchib tashlab, undan qasos olmoq qiyin. Biz mardlik ko'rsatib nomimizni qoldirish to'g'risida emas, balki el-yurtimizning erkini qanday saqlab qolish to'g'risida o'yamog'imiz kerak, — dedi u qiziqqon Saksfarga qarab.

Oqsoqollar mum tishlaganday miq etmay o'tirar edilar. Ko'p mammalakatni bosib olib, jang maydonlarida ko'p tajriba orttirgan, yaxshi qurollangan Eron qo'shini bilan urushmoq juda mahol ekanligi ularga ayon edi.

Boshliqlar bu mushkul muammoni yechish uchun bosh qotirib o'tirganlarida, o'tov eshigi oldida turgan qurolli yigit Shiroq degan bir cho'ponning kirishga ijozat so'rayotganini bildirdi.

— Shiroq! — deb qoshini chimirdi Rustak. — Kim u?

— Shiroq bizning urug'dan. Butun umri cho'ponlik bilan o'tgan, — dedi Saksfar. — O'zi juda farosatli, dono, dostonchi chol. Eski chaldevorlardan chayon ushlab o'zini chaqtiradi. Og'riq sezmaydi. Aytishlaricha, yoshligida ilon uni chaqib olganda allaqanday giyohlarni surtib tuzalib ketgan emish. O'shandan beri ilon-chayondan qo'rqlaydi.

— Andog' bo'lsa, chaqir bu yoqqa o'sha cholni.

Eshikdan yoshi oltmishdan oshgan, tetikkina, barvasta bir chol kirib, ta'zim qildi.

— Ijozat bersangizlar, men ham qatoringizga o'tirib, o'z fikrimni aytsam. Nima to'g'risida gaplashayotganingizni bilaman.

— O'tir, o'tir, gapingga quloq solamiz, — dedi Rustak.

— Eron shohining askarlari Sirdaryo ostidagi qum donalaridan ham ko'p, ularni jangga chorlab, yengish mahol. Shunday bir hiyla topmoq kerakki, dushmanning oyog'i toyib, halokat jariga qulab tushsin.

— Qani ayt, qanday hiyla o'ylab topding? — deb so'radi Rustak.

— Buni faqat senga aytaman. Oqsoqollar o'tovingni tark etsinlar.

Rustak bu gapni eshitib aftlari burishib ketgan oqsoqollarga bir qarab oldi-da:



- Nima, sen shu ulug' zotlarga ishonmaysanmi? — deb so'radi.
- Ishonaman, ular el g'amini yeydigan halol odamlar, o'lsalar ham dushmanga sir bermaydurlar. Ammo ularning yaqin do'stlari, inilari, o'g'illari, xotinlari bor. Men aytgan gaplarni beixtiyor ularga aytib qo'yishlari mumkin. U yog'i ma'lum, el og'ziga elak tutib bo'lmaydur. Oqsoqollar meni kechirsinlar...

Urug' boshliqlari birin-ketin o'rinalardan turib chiqib keta boshladilar.

Oq o'tovdan nariroqda o'tirgan oddiy ko'chmanchilar Shiroqni yaxshi tanir, uning qo'biz chalib aytgan dostonlarini ko'p marotaba tinglagan, o'zi ham dostonlarda madh etilgan sheryurak odamlardan biri ekanligini bilar edilar.

Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin Shiroq o'tovdan chiqdi. Uni ko'rgach, ko'chmanchilar dahshatga tushib o'rinalidan sakrab turib ketdilar. Keksa cho'pon kesilgan ikki qulog'i va burniga kuydirilgan namat bosib, sizib oqayotgan qonni to'xtatishga harakat qilardi. Kutilmagan bu fojiadan g'azablangan odamlar uning atrofini o'rab oldilar va ustmaust savol yog'dira boshladilar:

- Quloq-burningni nega kesdilar?
- Sen sho'rlik nima gunoh qilib eding?

Rangi murdadek oqarib ketgan Shiroq tishini tishiga qo'yib, o'zini bardam tutishga urinar, urug'doshlarining savollariga javob bermasdi. Uni bir joyga o'tqizib, kuydirilgan namat bilan qonni to'xtatdilar. Cholning sahro shamoli va cho'l quyoshidan qoraygan yuzida g'azab alomati yo'q edi. U o'ziga kelgach, o'midan turdi-da, kun botish tomonga qarab ketdi. Hang-mang bo'lgan kishilar uning orqasidan qaraganlaricha qotib qoldilar.

Dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi so'g'd xalqini itoatga keltirgan Eron shohi Yaksartning so'l qirg'og'idagi ko'chmanchilar ustiga yurish oldidan dam olmoqda. U yetti paxsa devor bilan o'ralgan bog' o'rtasidagi baland shiyponda o'z a'yonlari bilan may ichib, shakarguftorlik qilib o'tirardi.

Mulozimlaridan biri shiypon yoniga kelib ta'zim qildi-da, quloqburni yo'q g'alati bir chol shoh huzuriga kirishga izn so'rayotganini bildirdi. Doro surishtirib, kelgan odamning shak qabilasidan ekanligini bilgach:

- Mayli, kirsin, — dedi.

Ikki qurolli mulozim boshlab kelgan Shiroq shohdan o'n besh qadamcha berida to'xtadi-da, yer o'pdi va o'midan turib, ta'zim qilganicha qotib qoldi.

Doro baland bo'yli, qushburun, chiroyli odam edi. Uning ponaga o'xshagan soqoli ko'kragiga tushgan va mayin taralgan. Ustidagi to'q qizil zarrin to'ni yiltirar, qo'lidagi uzun aso dastasiga qadalgan qimmatbahो toshlar qorong'i kechadagi yulduzlardek charaqlar edi. Tosh qo'g'irchoqqa o'xshagan ikki mulozim uni sekin-sekin yelpib turardi.

Doro kamon qoshlarini chimirib, baland ovoz bilan:

— Hoy odam, o'zing kimsan, oting nima va qaysi urug'dansan? — deb so'radi.

— Otim Shiroq, o'zim shak urug'idanman, — javob qildi chol.

— Kelib mening istirohatimni buzmoqdan maqsading nadir?

— Maqsadim mulozamat kamarini belga bog'lab, umrimni siz shahanshoh xizmatida o'tkazmoqdir. Janoblariga xayrixoh bo'lganim tufayli qabiladoshlarimdan qattiq sitam ko'rdim. Alarga men: «Shohi Eron bilan urushaman, deb chiramang, sizlarni bir hamlada zer-u zabar qilg'ay, yaxshisi, itoat kamarin bog'lab, ul zoti bobarakotning etaklaridan o'ping», dedim. Bu gapdan xabar topgan hukmdorimiz Rustak g'azabga mindi va mening quloq-burnimni kestirdi. Men endi sizning yordamingiz bilan undan o'chimni olmoqchiman. Agar ijozati oliv bo'lsa, yengilmas qo'shiningizni yolg'iz podachilar biladigan so'q-moqlar bilan shak lashkarlarining orqasidan olib chiqar edim, keyin ularni qilich damidan o'tkazmoq qiyin emas...

Shiroqning gapini eshitib, Doro o'yga toldi. Agar jangovar shak qabilalari shu yo'sinda yakson qilinsa, O'kuz bilan Yaksart o'rtasi-dagi serunum yerlarni bosib olgan Eron lashkarlarining bexatarligi ta'min etilgan bo'ladi. Ammo bu keksa cho'ponni bir sinab ko'rmoq kerak.

Shiroq shohning ishonchsizlik ko'zi bilan qarayotganini fahmlab, o'z so'zining to'g'riliгини isbot qilishga kirishdi:

— Axir quloq-burnimning yaqindagina kesilgani ko'rinish turibdi-ku! Biznikilar bekorga o'z urug'lariga bunday sitam yetkazmaydurlar.

U o'y lab qo'ygan dalillarini keltirib, uzundan uzoq gapirdi va o'zining Eron shohiga sodiqligini, shaklarga dushman ekanligini isbot qilishga tirishdi, so'zining oxirida Quyosh tangrisini shafe keltirib ont ichdi.

Doro sarkardalari bilan maslahatlashib, shaklar ustiga qo'shin yuborishga, Shiroqni esa yo'l boshlovchi qilib olishga qaror berdi.

Eron askarlari yo'l boshlovchining maslahati bilan yetti kunlik suv, oziq-ovqat, yem-xashak olib yo'lga chiqdilar va daryoning chap qirg'og'idagi qum sahrolaridan borib shaklarga orqa tomondan hujum qilmoqchi bo'ldilar.

Dastlabki kunlar yo'l uncha mashaqqatli bo'lmadi. Cho'l o'tlari endi

qovjirab kelayotgan bo'lsa ham onda-sonda buloqlar atrofida ko'm-ko'k o'tloqlar uchrab turardi. Bora-bora cho'l sahroga aylandi, odamlar va otlarning suvgaga ehtiyoji osha bordi. Afsonaviy otlarning taqalariga o'x-shab uyulib qolgan qumtepalardan oshib yoki chetlab o'tish oson emas edi. Qora terga tushib hansiragan otlar oyoqlarini qumdan arang tortib olib, boshlarini quyi solganlaricha bitta-bitta qadam tashlab borardi. Sahroning berahm quyoshi yomon niyatda kelayotgan bu qurolli odamlarning boshidan olov selini quyar, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustida jimirlab turgan qaynoq havo o'pkalarini yondirardi.

Lashkarboshilarning toqatlari toq bo'lib, shaklar lashkargohiga qancha masofa qolganini Shiroqdan surishtira boshladilar. U esa manzilga yaqinlashib qolganliklarini va yana ikki kun yurish kerakligini aytib, boshliqlarni yupatardi. Biroq sermashaqqat safarning yettinchi kuni ham shaklardan darak topmadilar. Hamma yoq dasht-biyobon, odam yursa oyog'i, qush uchsa qanoti kuyadi. Suv, oziq-ovqat, yem-xashak tamom bo'lgan, oriqlab ketgan otlar yer iskab suv qidiradi, qovjiragan lablari shishib ketgan odamlar bir qultum suv uchun bir yillik umrlaridan kechishga tayyor!

Shiroqni o'rta ga olib: «Bizni qayerga boshlab kelding, ablah!» – deb qisti-bastiga oldilar. Askarboshilardan biri uning yoqasidan ushlab siltadi va haqorat qila boshladi. Shiroq yoqasini uning qo'lidan qutqarib, namat qalpog'ini boshidan oldi-da, serajin va keng peshanasining terini artdi. Uning qovjiragan lablari istehzoli tabassumdan yorishib, qiyiq ko'zlarida o't chaqnab ketdi. Atrofini qurshab olgan g'azabli chehralarga mag'rur qarab turib, qalpog'ini yerga bir urdi-da, qahqahlab kulib yubordi:

– Men yengdim, Doro qo'shinini bir o'zim yengdim! – dedi u qichqirib. – Sizlarni aldar sahroning qoq o'rtasiga olib keldim, – qo'li bilan kunchiqish va kunbotish tomonni ko'rsatdi. – Bu yog'i ham yetti kunlik yo'l, bu yog'i ham. Istagan tomoningizga boravering! Menning go'rim shu yerda, – deb oyog'i ostini ko'rsatdi.

U o'z murodiga yetgani uchun muqaddas otash va suv xudosiga shukur qilib, allaqanday bir duoni o'qidi. Darhaqiqat, u o'z elini qullikdan qutqarib qolish uchun jonidan kechgan, yovuz dushmanni hiyla tuzog'iga ilintirish uchun ming turli azob-uqubatni bo'yniga olgan

edi. Mana endi u niyatiga yetdi, dushman askarini halokat jari yoqasiga boshlab keldi. Endi dushman nima qilsa qilaversin!

U Rustakning huzuriga kirganida shunday degan edi:

— Agar mening bola-chaqam va nevaralarimni unutmasang, o‘z shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim. Dushmanni daf qilmoq uchun bir hiyla o‘ylab topdim. Umrim oxirlab qoldi, axir bu dunyodan ketmoq kerak. Men el-yurt uchun o‘limning shirin sharbatini ichmoqqa qaror qildim... Gapimga quloq sol...

Hukmdor uning gapini oxirigacha tinglab, fikrini ma’qullagan edi. Shunda u yonidan o’tkir pichog‘ini olib, o‘z quloq-burnini kesgan va go‘yo o‘z eliga xiyonat qilgan bo‘lib, dushman orasiga kirgan edi...

G‘azabdan ko‘zları olayib, ast-basharasi bujmayib, xunuk bo‘lib ketgan Eron sarkardalari Shiroqni o‘rab olib, uni ura boshladilar. Sarkarda Ronosbat dabdalasi chiqqan Shiroqni ular qo‘lidan qutqarib, bir chetga olib chiqdi-da, suv ichirdi, so‘ngra chodiriga olib kirib, uni yaxshilikcha yo‘lga solmoqchi bo‘ldi. Endi Eron sarkarsi shaklar ustiga yurish qilib, ularni tor-mor etishni xayolidan chiqarib tashlagan, u faqat qo‘shinini halokatdan qutqarib qolishni o‘ylardi.

— Agar sen sahro quduqlari va chashmalarini bizga ko‘rsatsang, gunohingdan kechib, So‘g‘diyada istagan qishloqlardan birini senga in’om etardik.

— O‘z elimning dushmanlariga yordam uchun cho‘zadigan qo‘limni kesib tashlaganim ma’qul, — dedi u gapni qisqa qilib. Halokat yoqasida qolgan eroniylar achchiqlariga chiday olmay, fidokor cho‘ponni chopib, qiyma-qiyma qilib tashladilar.

### «SHIROQ» HIKOYASI HAQIDA

«Shiroq» hikoyasi xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi kurashidagi fidoyilik va jasorat namunasidir.

Hikoyada hiyla va tadbirkorlik ham bor. Chunki dushman bilan kurashta birgina kuchning o‘zi kifoya qilmaydi. Aql bilan ish ko‘rish, hiyla, tadbirkorlik lozim bo‘ladi. Bobolarimiz Vatanni saqlab qolish uchun kuch ham, aql ham topa olganlar.

Shiroq voqeasi shunday bo‘lgan edi: 519-yilda Eron shohlaridan Birinchi Doro yurtimizga bostirib keldi. Ular malika To‘marisning bosqinchi Kayxisravni boplab adabini bergenliklarini tez unutgan edilar.

Kuchlar teng kela olmas edi. Eron qo'shini sonsiz-sanoqsiz edi. Shunday qaltis paytda oddiy bir cho'pon yordamga keldi. Eroniylarga yon bosgani uchun qabiladoshlaridan zulm ko'rgan kishidek qulqoq-burnini kesib Doro huzuriga bordi va hiyla bilan qo'shinni suvsiz sahroga boshlab, hammasini halok qildi. O'z jonini qurban qilib, Vatan va xalq ozodligini saqlab qoldi.

Ushbu voqeа ham To'maris afsonasi kabi yunon tarixchilari asarlari orqali yetib kelgan. Jumladan, u miloddan oldingi II asrda yashagan yunon olimi Polienning «Harbiy hiylalar» kitobiga kiritilgan.

Yozuvchi Mirkarim Osim «Shiroq» hikoyasini mana shu yunon tarixchisi bizga yetkazgan afsonaga tayanib yozgan.

Hikoyada Shiroq mehr-muhabbat bilan tasvirlangan. U sahroyi, cho'pon bo'lishiga qaramay, so'z va sozni sevadigan, ko'plab dostonlarni yod bilgan, nozikqalb inson. U ham hayotni sevadi. Yashashni sevadi. Lekin Vatanini hamma narsadan ustun qo'yadi. Shuning uchun ham oqsoqollar kengashiga taklif bilan o'zi kirib keladi. Uning o'lim oldidagi qahqahasi g'alaba belgisi edi.

### *Savol va topshiriqlar*

- ?
- 1. Shiroq afsonasi asosida yozilgan ushbu hikoyani sinchiklab o'qing va mazmunini so'zlab bering.
- 2. Shiroq afsonasi qaysi davr voqealarini aks ettiradi? Kayxisrav, Doro haqida nima bilasiz?
- 3. Shiroq afsonasi bizga qanday yetib kelgan?
- 4. Yaksart, O'kuz daryolarining hozirgi nomlari nima?
- 5. Shiroq afsonasi asosida yozilgan M. Osim hikoyasi qanday voqeа tasviri bilan boshlanadi?
- 6. Rustak Saksfarming taklifini nega qabul qilmadi?
- 7. Shiroq nega o'z taklifini oqsoqollar kengashida aytib, muhokamaga qo'ymadi?
- 8. Shiroqning Doro bilan uchrashuvi sizda qanday taassurot qoldirdi? Nega Doro Shiroqqa bu qadar tez ishondi?
- 9. Yetti kunlik safar tasviri hikoyada qanday berilgan? Nega Ronosbat Shiroqni askarlar kaltagidan saqlab, qolgan so'nggi suvlarini ichirdi?

## RIVOYAT VA AFSONA TUSHUNCHALARI

Rivoyat va afsona o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy janrlaridandir.

**Rivoyat** hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod turidir. Rivoyatlarda tarixiy hodisalar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan voqealar hikoya qilinadi. Rivoyatlar u yoki bu voqealarni haqida xabar berish va uni tasdiqlash vazifasini o'taydi. Rivoyatlarda lutf va nazokat, aql va tadbir, ilm-ma'rifat, ezbilik kabi insoniy fazilatlar dag'allik, manmanlik, nodonlik, jaholat, adolatsizlik va yovuzlikka qarama-qarshi qo'yiladi.

Rivoyatlar mavzusiga ko'ra tarixiy va joy nomlari bilan bog'liq (toponimik) rivoyatlarga bo'linadi.

**Tarixiy rivoyatlar** biror shaxs faoliyati yoki xalq qahramonlari bilan bog'liq bo'lgan voqealarni aks ettirib, axloq va odobning go'zal ko'rinishlarini ulug'laydi. To'maris, Shiroq, Amir Temur, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Mashrab kabi tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir.

**Toponimik rivoyatlar.** Bunday rivoyatlarda joy nomlarining kelib chiqishi bilan bog'liq hikoyalari ifodalananadi. Masalan, Samarqand nomining kelib chiqishi haqida rivoyat, Olmaliq shahrining, Nurota ziyoratgohining kelib chiqishi bilan bog'liq rivoyatlar. Rivoyatlar xalq tarixi, uning estetik qarashlarini o'rganishda zarur bo'lgan og'zaki ijod janridir.

Afsona forscha so'zdan olingan bo'lib, fantastika, sehr-jodu hamda hayotiy uydirmalarga asos bo'lgan nasriy hikovalarni bildiradi.

Osmon, yer, suv parilarining ishlari, ruhlar, yovuzlik va ezbilik ilohlari, devlar, yer yuzida odamning paydo bo'lishi, olamning tuzilishi va hokazolar afsonalarning asosiy mavzusidir. Afsonalar mavzusiga ko'ra shartli ravishda so'f mifologik afsonalar hamda tarixiy voqealarni aks ettiradigan afsonalarga bo'linadi.

Sof mifologik afsonalar tuzilishiga ko'ra oddiy bayon shaklida bo'lib, ertaklarga xos ayrim belgilarga ega. Bunga «Qayumars», «Odami Od», «Erxubbi», «Anbar ona», «Hazrati Xizr» kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Xizr — mifologik timsol. U bilan bog'liq afsonalarda Xizr

cho'l piri, hosildorlik homiysi shaklida namoyon bo'ladi. U xalqning orzu-umidlarini ifoda etuvchi, uning manfaatlarini himoya qiluvchi qahramon tarzida tasvirlanadi.

Tarixiy voqeа va hodisalar haqidagi afsonalar guruhiga «Devqal'a», «Shirin qiz», «Kalta minor», «Illoн buzgan» kabi afsonalarni kiritish mumkin.

Afsonalar muayyan xalqning kelib chiqishi, u yoki bu narsaning paydo bo'lishi, shuningdek, jamiyat va tabiatdagi voqeа-hodisalarни o'rganishda nodir manbadir. Chunki afsonalarda ijtimoiy hayot, kishilarning dunyoqarashi, urf-odatlari, fantaziysi va tarixiy hodisalar haqidagi ixcham axborot o'z aksini topgandir.

## «UCH OG'A-INI BOTIRLAR» ERTAGI HAQIDA

Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turlaridan biridir. Ertakning paydo bo'lishida qadimiy urf-odat, marosimlar, tabiat hodisalari, jonivorlar muhim o'rinn tutgan.

Ertak atamasi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida uchraydi va bitor voqeani og'zaki hikoya qilish ma nosini bildiradi.

Hayot haqiqat bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalari ertak deyiladi. Ertakning ba'zi bir viloyatlarda boshqacha atamasi ham uchraydi. Masalan, Surxondaryo, Samargand, Farg'onada — matal, Buxoro atrofidagi ba'zi qishloqlarda — ushuk, Xorazmda — varsaki, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak atamasi ham ishlataladi.

Ertaklarda xayoliy uydirmalar asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'ziga xos qurilishi bilan ham ajralib turadi. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Ba'zi ertaklar «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podshoh (yoki cho'pon) bo'lган ekan», «Sizga bog' bo'lsin, bizga hayot» kabi qisqagina boshlamalar bilan boshlansa, ba'zi boshlamalar ancha uzun bo'ladi. Masalan, mana bu boshlamaga e'tibor bering: «Ertagiyo ertagi, echkilarning bo'rtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, ko'k muzga mingan ekan, muruti singan ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan,

bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor. Bir bor ekan, bir yo'q ekan...»

Ertaklar «Qirq kecha-yu qirq kunduz to'y berib, oshlarini oshab, yosolarini yashab, murod-maqsadlariga yetdilar», «Shu bilan Ayoz podsho bo'lib, o'zining donoligidan xalqni odillik bilan so'rab, mamlakatda adolat o'rnatgan ekan» kabi tugallanmalar bilan yakunlanadi.

Siz o'tgan darslardan ertaklarning bir necha turlarga bo'linishini bilib olgan edingiz. «Uch og'a-ini botirlar» turiga ko'ra maishiy ertaklarga kiradi. Ertakning voqealari juda qiziqarli bo'lib, tarbiyaviy ahamiyati ham kattadir. Qadim zamonda o'rtahol bir kishi bo'ladi. Uning uch o'g'li bo'ladi. O'g'illarini safarga kuzatib qo'yishdan oldin ularga shunday pand-nasihatlar qiladiki, biz bu pand-nasihatlardan ushbu kishining qanday odamligini osongina bilib olamiz. «O'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar deb, sizlarni o'qitdim», — deydi u. Haqiqatan ham o'qigan odam dunyoni taniydi, oq-qoraning farqiga boradi. Ilmli va hunarli odam hech qachon xor bo'lmaydi.

Bu kishi o'g'illarini tarbiyalashda uch narsaga amal qiladi. Birinchidan, sog'lom qilib tarbiyalaydi, natijada o'g'illari baquvvat bo'lib o'sadi. Ikkinchidan, qurol-yarog' bilan tanishtiradi, natijada o'g'illari yarog' ishlatalishga usta bo'lishadi. Uchinchidan, qo'rqtymay o'stiradi, natijada o'g'illari botir, dovyurak bo'lib voyaga yetishadi. Endi bularning ustiga ilmli ekanligini ham qo'shsak, ular naqadar barkamol yigitlar ekanligining guvohi bo'lamiz. Biroq ularning otasi bu bilan kifoyalaniq qolmaydi. U o'g'illarini yanada mukammal bo'lishlarini istaydi. Shu sababli ularga yana uch narsani uqtiradi: «To'g'ri bo'ling — bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang — baxtsiz bo'lmaysiz». O'g'illari otalarining bu o'gitlariga amal qilganlari uchun ham barcha xatarlardan omon chiqdilar. Hatto podshoh o'zining uch qizini ularga berib, og'a-inilarni o'ziga kuyov qilib oldi. Endi ular saroyda qolib, aysh-ishrat qilib yotsalar ham bo'lardi. Podshohning o'zi ularga shuni taklif qiladi. Biroq og'a-inilar bunga rozi bo'lmaydilar. Nega? Ertakni o'qib chiqsangiz, buni o'zingiz bilib olasiz.

## UCH OG‘A-INI BOTIRLAR

(*Ertak*)

Bor ekan, yo‘q ekan, bir zamonda bir kishi bo‘lgan ekan. Boy ham, kambag‘al ham emas ekan. Uning uchta o‘g‘li bor ekan, uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar. To‘ng‘ichi yigirma bir yoshda, o‘rtanchasi o‘n sakkiz yoshda, kenjası o‘n olti yoshda ekan.

Otasi bir kuni ularni oldiga chaqirib, har birining peshanasini silab:

— O‘g‘illarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsa umid qilib o‘tirmanglar, o‘zimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar deb, sizlarni o‘qitdim. Yaxshi ot qo‘ydim. To‘y qildim, voyaga yetkazdim. Buning ustiga sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim — quvvatli bo‘ldingiz. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim — yarog‘ ishlatalishga usta bo‘ldingiz. Uchinchidan, qo‘rqtmay o‘stirdim — qo‘rqoq bo‘lmay botir bo‘ldingiz, yana uchta narsani aytaman, qulqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling — bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang — xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang — baxtsiz bo‘lmaysiz. Bundan boshqasini o‘zingiz biling. Qora toyni, saman toyni, ko‘k toyni asbob-anjomlari bilan tayyorlab qo‘ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to‘lg‘izdim. Baxtingiz yo‘lda, topib olmoq uchun dunyonи ko‘rgani yo‘lga chiqing, dunyonи tanimay dunyo kishisi bo‘lmaysiz. Baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqing. Xayr o‘g‘illarim, — deb turib ketdi...

*Uch og‘a-ini safarga otlandilar. Yo‘lda ular kechasi navbatma-navbat poyloqchilik qilib chiqishga kelishadilar. Birinchi kecha To‘ng‘ich botir o‘zlariga hujum qilmoqchi bo‘lgan sherni o‘ldiradi. Ikkinci kecha O‘rtancha botir ajdarni yengadi. Uchinchi kecha Kenja botir podshoh xazinasiga tushmoqchi bo‘lgan o‘g‘rilarni qirib tashlaydi. Ertasi kuni botirlar shaharga kirib, bir joyga qo‘nadilar.*

Joy egasi bu botirlarni o‘rdaga borishga taklif qildi. Bular piyoda astasekin o‘rdaga bordilar. Podshoh bularning musofir ekanligini bilib, alohida bir ziynatlangan uyg‘a kirgizib qo‘ydi. Boshqa musofir bo‘limganidan, ularga juda diqqat-e’tibor bilan qarab, sir olmoqni bir vazirga topshirdi. Vazir aytdi: «Bulardan to‘g‘ridan to‘g‘ri so‘rasak,

ehtimol aytmaslar, o‘z hollariga qo‘yib, tashqaridan qulq solib turamiz, nima desalar so‘zlaridan sirini topamiz», dedi. Bu xonada bulardan boshqa hech kim yo‘q edi. Bir vaqt dasturxon yozildi, xilma-xil noz-ne’matlar keltirib qo‘yildi. Ikkinci bir xonaning teshigidan podshoh bilan vazir qulq solib jim o‘tirdilar. Birozdan keyin uch og‘a-ini botirlar o‘zaro suhbat qila boshladilar. To‘ng‘ich botir dasturxondagи ovqatni ko‘rsatib:

— Shu go‘sht qo‘zi go‘shti ekan, biroq shu qo‘zi it emib katta bo‘lgan ekan, — dedi.

O‘rtancha botir aytdi:

— To‘g‘ri aytasiz, podshoh degani it go‘shtidan ham qaytmaydi. Saralab yemoq faqirning ishi, qo‘yni boqib qo‘yibdimi? Men ham bir narsaga hayron bo‘lib turibman, mana shu shinnidan ham odam isi keladi.

Kenja botir aytdi:

— To‘g‘ri, podshohlik — qonxo‘rlik demakdir. Qon qo‘shilgan bo‘lsa, ehtimoldan uzoqmasdir. Lekin yomonning qoni bo‘lsa-ku, mayli, begunohning qoni qo‘shilgan bo‘lmasin. Men ham bir narsaga hayron bo‘ldim. Shu nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekan, taxlovchi novvoyning o‘g‘li ekan.

— To‘g‘ri bo‘lsa kerak, — debdi To‘ng‘ich botir. — Podshoh bizni bu yerga o‘nda voqeasi bilan chaqirgan. Albatta bizdan savol so‘rar, nima deymiz?

— Albatta yolg‘on so‘zlamaymiz, — debdi O‘rtancha botir, — bu voqeaga aralashgan bo‘lsak, aytmoq lozimdir.

Kenja botir:

— Uch kunlik yo‘lda qanday voqealarni ko‘rgan bo‘lsak, o‘rtaga tashlaydigan vaqt keldi, — dedi.

To‘ng‘ich botir birinchi kechada sher bilan olishganini aytib, belidagi tasmasini o‘rtaga olib qo‘ydi. O‘rtancha botir ikkinchi kechadagi voqeani aytib, nishona uchun tasmani o‘rtaga tashladi. Kenja botir uchinchi kechadagi voqeani aytib, olgan narsalarini o‘rtaga tashladi.

Podshoh bilan vazir sirdan xabardor bo‘ldilar. Faqat go‘sht, shinni, non to‘g‘risidagi gaplarni tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ldilar. Birinchi qo‘ychivonni chaqirtirishdi. Podshoh qo‘ychivondan so‘radi:

— To‘g‘risini ayt, kecha so‘yilgan qo‘zining onasi itmidi?

— Podshohim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman.

— O'tdim, to'g'risini so'yla!

— Qishning o'rtasida bir qo'y tug'ib, o'zi o'lib qoldi, shu vaqtida bir katta itim ham tug'gan edi. Qo'zichoqqa rahmim keldi. Yetim qo'zini och qoldirgim kelmadi. Nochor o'sha itga emizzdirib, katta qilgan edim. Boshqa qo'zi qolmagani uchun o'shani yuborgandim, — dedi.

Podshoh bog'bonni chaqirib:

— To'g'risini ayt, shinniga odam qoni qo'shilganmi? — dedi.

— Podshohim, bir qoshiq qonimdan o'tsangiz, bir voqeа bo'lgan edi, aytardim, — dedi.

— Ayt, o'tdim, — dedi. Bog'bon:

— O'tgan yozda, bog'dagi uzumzorga har kecha bir odam o'g'irlilikka tushib, sizga olib qo'ygan eng yaxshi uzumdan o'g'irlab olib keta boshladi. Bir kuni agar qo'limga tushsa, o'ldirib, shu tokning tagiga ko'mib qo'yay, deb qasd qildim. Bir kecha poylab yotdim. Yana keldi. Shashvar to'qmoq bilan boshiga urdim. Boshi pachoq-pachoq bo'lib ketdi. Hech kim bilgani yo'q. Shu tok tagiga chuqur kavlab ko'mib qo'ydim, kelasi yili tok kuchlanib, chunon hosil qildiki, bargidan ham uzumi ko'p edi. Lekin mazasida ozgina o'zgarish paydo bo'ldi. Men uzumdan sizga yubormay, butunicha shinni qilgan edim, — dedi.

Nonni podshoh o'zi taxlagan edi. Bu shohning otasi novvoy edi.

Podshoh haqiqatlar bilinganidan keyin, bularning zakovatiga «ofarin» deb, botirlarning oldiga kirdi. Salom berib ko'rishdi. Hech bir narsa so'ramay:

— Sizlarning hamma aytganlaringiz to'g'ri bo'lib chiqdi, mening sizlarga muhabbatim ortdi. Botir mehmonlar, ijozat bersangiz, bir arzim bor edi, agar qabul qilsangiz aytar edim, — dedi.

To'ng'ich botir:

— Aytganlaringiz to'g'ri kelsa qabul qilarmiz, aytingiz! — dedi.

Podshoh:

— Mening uchta qizim bor, o'g'lim yo'qdir. Men ertaga butun shaharni to'yga chaqirib, qirq kun osh berib, qizlarimni sizlarga nikohlاب bersam, mening o'g'illarim bo'lib, bunda qolsangiz, — dedi.

To'ng'ich botir:

— Xo'p yaxshi aytasiz, lekin bizning ham shartimiz bor. Bizlar podshoh bolasi emasmiz. Otamiz boy ham emas. Sizning davlatingiz podshohlik bilan topilgan, biz qo'l kuchi bilan tarbiyat topganmiz. Elimiz bir bo'lsa ham, tarbiyamiz boshqa. Qanday bo'lar ekan? — dedi.

**Podshoh:**

— Men bir iqlimning podshohimani, sizni otangiz qo'l kuchi bilan tarbiya qilib, sizday botirlarning otasi bo'lgan ekan, mendan nima kamligi bor? Haqiqatda mendan ortiqdir. Tarbiyangiz orqasida jahon podshohlari yig'lab oshiq bo'lib yurgan qizlarning otasi sizga o'z qizlarini yig'lab tutadi, — dedi.

Bular qabul qildilar. Shaharda qirq kun to'y-tomosha bo'lib, botirlar podshoh qizlariga uylandilar. Qizlar yo'qotgan tillalariga gavhar qo'shib oldilar. Yaxshi tarbiya orqasida yigitlar baxt qushini qo'lga kirgizdilar. Qizlar bilan botirlar ipakdek eshildilar.

Podshoh hamma kuyovidan ham Kenja botirni ko'proq yaxshi ko'rardi. Kunlardan bir kun podshoh bir salqin joyda uxbab yotgan edi, yonidagi ariqdan bir ilon chiqib, podshohga zahar solmoqchi bo'lib turganda, to'satdan kelib qolgan Kenja botir uni ko'rib, belidan qilichini sug'urib, chopib, ikki bo'lib tashladi. Yana qilichini qiniga solib turganida podshoh uyg'onib qoldi. Dilida: «Qizimni berganimga qanoat qilmay, meni o'ldirib, podshoh bo'lmoq xayoli bor ekan», deb shubha qildi. Vazirga chiqib voqeani aytdi. Vazirning botirlarga hasad-adovati bo'lib, qulay paytni kutib yurgan ekan, yaxshi bahona bo'ldi.

**Vazir podshohga:**

— Shunday bebabho qizlaringizni, mendan bir maslahat so'ramay, yaxshi tarbiya ko'rgan deb, musofirlarga berib qo'ydingiz, endi mana bir uchini sizga ko'rsatdi. Eng yaxshi deb sevgan kuyovingiz sizni o'ldirmoqchi bo'lgan ekan, yana bir kuni boshqacharoq hiyla bilan sizni o'ldirib qo'yarsi, — dedi.

**Podshoh vazirning so'ziga ishonib:**

— Zindonga solinsin! — deb buyurdi.

Kenja botirni zindonga soldilar. Kenja botirning qallig'i juda xafa bo'ldi. U botirni nihoyatda yaxshi ko'rardi. Yig'lab-yig'lab, kelinchakning yuzlari so'liy boshladи.

Bir kuni qiz otasining oyog'iga boshini qo'yib, yig'lab, qallig'ini afv etishni so'radi. Podshoh qizining yuzidan o'tolmay, Kenja botirni zindondan oldirib keldi. Qallig'i juda sog'inganidan kuyovini quchoqlab, yuzlaridan o'pib, qo'lini yelkasiga tashlab yig'lab turar ekan, podshoh Kenja botirga qarab:

— Botir, siz shunday vafosizmisiz? Ko'rmayapsizmi, mening qizim

sizga qanday mehribon. Shu qizimni ham riosa qilmay, qay ko'ngil bilan meni o'lrimoqchi bo'ldingiz? — dedi. Kenja botir podshohga qarab bir hikoya aytди.

## HIKOYA

Bir zamonda bir poshdo bor ekan, uning yaxshi ko'rgan bir to'tisi bor ekan. Podshoh to'tisini shunday yaxshi ko'rар ekanki, bir soat ko'rmasa turolmas ekan. To'ti ham podshohga juda mehribon bo'lib, har turli shirin so'zlar aytib, xursand qilar ekan. Bir kuni to'ti podshohdan so'rabdi:

— Mening Hindiston degan yurtda ota-onam, aka-ukam, opasingillarim bor, falakning gardishi bilan sizning dargohingizga kelib qolgan edim. Shukurlar bo'lsin, aql-idrokim, yaxshi xulqim, shirin so'zim orqasida sizday podshohga hamsuhbat bo'ldim. Endi, iltimosim shuki, meni qafasdan bo'shatib, yigirma kunga javob bersangiz, olti kun borishim, olti kun kelishimga ketsa, bir hafta — ota-onam, aka-ukalarimni ko'rib diydoriga to'ymog'im uchun yetar.

Podshoh:

— Yo'q, senga javob bersam, yana kelmay qolsang, men sog'inaman, juda xafa bo'laman, — debdi.

To'ti:

— Yo'q, podshohim, sizning menga ko'rsatgan iltifotingiz yomon yo'lga boshlamaydi, qanday bo'lsayam va'da — ulug', muqaddas narsa, uni buzish yaramaydi. Va'dani buzmoq og'ir gunoh. So'z beraman — so'zimda turaman, — debdi.

— Xo'p bo'lmasa, agar tezda kelsang ikki haftaga ruxsat beraman, — debdi podshoh.

— Xayr, endi qanday bo'lsa ham chiqay, — deb to'ti o'n besh kunga ruxsat olibdi. Devorga qo'nib turib, xayrlashibdi. Janub tomonga qarab uchib ketibdi. Podshoh orqasidan qarab qolibdi. Podshoh to'tining qaytib kelishiga ishonmas ekan.

To'ti olti kun deganda Hindiston degan mamlakatga borib, ota-onalarining oldiga yetibdi. Bechora to'ti juda xursand bo'lib, tog'dan tog'ga, bog'dan bog'ga, shoxdan shoxga sakrab, uchib, o'ynab-kulib, ota-onasining diydoriga to'ydi, qarindosh-urug'iga mehmon bo'lib, uch kunni qanday o'tkazganini bilmay qoldi. Ertasi yana qafas tomonga,

tutqunlikka uchmog‘i kerak ekan. Ota-onasi, aka-ukalaridan ajralmoq juda og‘ir bo‘libdi. Bir tarafda va’da bor, va’daga vasosizlik xavfi turadi. Bechora to‘tining quvonchi tugabdi. Shodligi g‘amga almashibdi. Qanotlari so‘libdi. Ikkinci qaytib kelish yo bor, yo yo‘q. Qarindosh-urug‘lar bir joyga to‘planishibdi. Hammasing ko‘zi g‘amli to‘tida ekan. Qanday bo‘lsa ham qaytmaslikni maslahat berishibdi.

To‘ti aytibdi:

— Yo‘q, yana qaytmoq uchun va’da bergenman, va’daga vafo qilmasa bo‘ladimi?

Bir to‘ti aytibdi:

— Va’da bergen podshohingda insof bo‘lsa, seni uch yil qamoqda saqlab, faqat ikki haftaga javob berarmidi? Seni sevar ekan, seviklisini qafasda tutmoq yarashadimi? Dunyoga qafasda turmoq uchun keldingmi? Bir kishining xushvaqtligi uchun erkinlikni qo‘ldan berma! Podshoh deganning marhamatidan qahri ortiqdir, podshoh bilan sherga yaqin bo‘lmoq hikmatdan emasdир.

Podshohning to‘tisi aytibdi:

— Menga bir yo‘l ko‘rsating, men ham erkinlikka chiqay, ham va’da yolg‘on bo‘lmasin.

Ona to‘ti aytibdi:

— Shunday bo‘lsa men ham bir maslahat beraman. Bizning joyda bir daraxtning mevasi bor, har kim bir donasini yesa, qari chol bo‘lsa yigitlik holiga qaytur. Kampir yesa qiz kabi yoshlik holiga kelur. Podshohga shundan uch donasini olib borgin, bu bebaho mevani berib, o‘zingning butunlay ozod etilishingni so‘ra, shoyad insofga kelib, butunlay ozod etsa, — debdi.

Bu gap ma‘qul tushibdi. Shu chog‘da uch dona meva olib kelibdilar. To‘ti uni changalida mahkam ushlab, xayrlashib shimol tomonga qarab uchibdi. Qarindoshlari zo‘r umid bilan orqasidan qarab qolishibdi.

To‘ti olti kun deganda podshohning saroyiga yetib kelibdi. Podshoh bilan ko‘rishib, olib kelgan tortiqni unga beribdi, xosiyatlarini bir-bir aytibdi. Podshoh juda xursand bo‘libdi. Ozod qilmoqqa va’da beribdi. Bir donasini xotiniga berib, ikki donasini vazirga ko‘rsatmoq uchun bir piyolaga solib qo‘yibdi. Ertasiga vazirga ko‘rsatib, xosiyatlarini aytibdi. Vazirning bunga hasadi kelibdi. Ichida xafa bo‘libdi. Ishni boshqacha yo‘lga burmoqni ixtiyor qilibdi:

— Siz bu parrandaning olib kelgan narsasini yemay turing, oldin bir tajriba qilib ko'raylik, durust bo'lsa yemoq qochmaydi, — debdi.

Bu gap podshohga ma'qul tushibdi. Vazir vaqtini topib, piyoladagi ikki dona yoshartiruv mevasiga zahar aralashtirib qo'yibdi. Bir kundan keyin vazir aytibdi:

— Endi yoshartiruv mevasini bir tajriba qilaylik.

Buning uchun qamoqxonadan ikki nafar odamni olib chiqib yediribdilar. Ikkalasi shu chog'dayoq o'libdi.

Vazir aytibdi:

— Agar siz yesangiz nima bo'lardingiz?

— Men ham o'lardim, — debdi podshoh.

Bechora to'tini qafasdan sudrab olib chiqib, kallasini tanasidan uzib tashlabdilar.

Bir kuni podshoh bir odamni g'azab bilan o'ldirmoqchi bo'libdi. Bu kishi keksa ekan. Qolgan bir dona mevani yemoqqa buyuribdi. Haligi odam mevani yegan ekan, oqargan sochlari tushib ketibdi, tishlari butun bo'lib, ko'zlarining nuri ortib, yigirma yashar yigit holiga kelib qolibdi. Podshoh vazirdan shubhalanib, piyolani olib kelib qaragan ekan, zahar qo'shilganligini bilibdi. Podshoh vazirni ham o'ldirib yuboribdi. Bechora to'tining begunoh o'lganiga qayg'uribdi, lekin ish o'tgan ekan. To'ti podshohga yaqin bo'lganining «mukofoti»nigina ko'ribdi.

— Endi men o'zimning qilgan yaxshiligidagi aytay, — debdi Kenja botir va ariqdan chiqqan ilon voqeasini aytibdi. O'sha joyda ikki bo'linib yotgan ilon tanasini olib kelib ko'rsatibdi. Podshoh qilgan ishiga pushaymon bo'libdi. Kenja botirdan uzr so'rabdi.

Kenja botir aytadi:

— Taqsir, endi ruxsat bersangiz, bizlar o'z yurtimizga qaytsak.

Podshoh yalinib-yolvorib, qolishlarini so'radi. Qabul qilmadilar.

— Biz saroy kishisi bo'lolmaymiz. Biz mehnat bilan, kasb-hunar bilan yashaymiz, — dedilar.

Podshoh:

— Bo'limasa qizlarim qolsinlar, — degan edi, qizlari rozi bo'lishmadidi.

Ular:

— Biz kuyovlarimizdan ajralmaymiz, ruxsat bersangiz, biz ham kuyovlarimiz bilan birga ketsak, sizni ko'rgani har yili kelib turamiz, — deyishibdi.

Podshoh hayron bo'lib, nochor ruxsat berdi. Butun narsalarini yig'ishtirib, safarga chiqdilar. Botir yigitlar o'z xotinlari bilan ikki yil deganda, otalarining oldiga olti kishi bo'lib keldilar. Botirlar otalari bilan quchoqlashib ko'rishib, xotinlarini tanishtirdilar. Otasi ham, bularning kelishini eshitib, uch bo'lak hovlibog' tayyorlab qo'ygan edi. Har birlari tayinlangan joyga ko'chib kirdilar. Qizlar kuyovlari bilan rohat-farog'atda yashab, murod-maqsadlariga yetdilar.

### *Savol va topshiriqlar*

- 1. «Uch og'a-ini botirlar» ertagi qanday ertaklar sirasiga kiradi?
- 2. Ota va o'g'illarning safar oldidan suhbatni mazmunini gapirib bering.
- 3. Otaning gapi bo'yicha hayotda bexavotir, xijolat tortmay baxtli yashash uchun nimalarga amal qilish kerak?
- 4. Uch og'a-ini xatti-harakatini tasvirlang. O'zidan ko'ra boshqalarning halovatini o'ylash, fidoyilik ulardan qaysisisiga ko'proq xos?
- 5. Kenja botir hikoyasidagi To'ti va Podshoh o'rtasidagi kelishuv nima haqida edi?
- 6. Xiyonatkor vazir nima maqsadda Podshohni To'ti olib kelgan mevalarni yemay turishga ko'ndirdi?
- 7. Uch og'a-inining podshoh ziyofatidagi suhbatini rollarga bo'lib o'qing.

### **«SUSAMBIL» ERTAGI HAQIDA**

Qadrli bolalar, avvalgi darslarimizda «Uch og'a-ini botirlar» ertagi bilan tanishgan, uning betakror badiiy olami, uch og'a-ini, ularning qahramonliklari, go'zal xulqi, odobi, aql-farosat egasi ekanliklaridan zavq olgan edik. Ushbu ertak mazmunidan talay kerakli xulosalar chiqardik, ertaklar shunchaki ko'ngil ochish, ovunish uchun aytimasligi va to'qilmasligiga ishonch hosil qildik, ularning mavzu jihatidan hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklar kabi turlari borligini ham bilib oldik. Bu ertaklar orasida hayvonlar haqidagi ertaklar ham o'z o'rniga ega.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqib tinglaydigan va o'qiydigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy tarzda

tasvirlanadi, asar qahramonlari hayvonlar bo'lsa-da, voqealar odamlar turmushi kabi kechadi. Hayvonlar haqidagi ertak personajlari – bo'ri, tulki, sher, turli parranda va hasharotlar xuddi odamlarday harakat qiladilar, gapiradilar. Bunday ertaklarda Tulki – ayyorlik va munofiqlik, Ayiq – go'l, laqmalik, Bo'ri – qonxo'lik, Chumchuq – chaqimchilik ramzi sifatida xayolimizda muhrlanib qolgan. Agar e'tibor bersangiz, bunday xislatlar hayvonlarda deyarli yo'q. Bo'ri, tulki yoki boshqa bir hayvon o'z o'ljasini qo'lga kiritish uchun epchil, chapdast, ziyrak bo'lishi mumkin, biroq ayyorlik, tilyog'lamalik, chaqimchilik qila olmaydi. Bu ko'proq hayvonlar vositasida majoziy mazmun – insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatish uchun o'ziga xos uslub. Xalqimizda birovning salbiy qilig'i, muomalasi hamisha ham yuziga aytilmaydi, aniqrog'i, birovning aybini ko'rsatib tanbeh berishdan ko'ra, uni yomon odatlardan ogoh etish, qaytarish millatimizga xos xususiyatdir. Bema'nii xulqli odamni yaxshi yo'lga boshlash, tarbiyaga muhtoj insonni ezgu ishlarga undashda xuddi shu hayvonlar haqidagi ertaklar, ulardagi majoziy qahramonlar (bo'ri, tulki, eshak, xo'roz kabi) qo'l keladi. «Susambil» ertagi o'z mazmuni bilan ana shunday asarlardan biridir.

Bu ertak o'zbek xalq ertaklari orasida o'zining tili, tasvir jozibasi, mavzusining muhimligi bilan ajralib turadigan asar. Avvalo, ertakda xalqimizningadolat va farovonlik hukm suradigan zamonlar haqidagi orzulari aks etgan. Susambil ertakda Adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurt timsoli sifatida tasvirlanadi. E'tibor bersangiz, Eshakvoy yo'lda yo'ldosh bo'layotgan har bir jonivorning «Susambil qanday joy?» degan savoliga «Susambil – o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i, unda azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasan», deb javob beradi.

Ikkinchidan, jonivorlarning ko'zlagan maqsadlariga erishishlarida ularning sabr-toqatli bo'lganliklari, mashaqqatlarga chidashgani muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mashaqqatlarga bardosh bergen jonivorlar jannatmakon go'sha – Susambilga yetib keladilar, shu joyda rohatfarog'atda umr kechiradilar.

Uchinchidan, jonivorlarning o'zaro ahilliklari, birdamligi ularning tashqi dushman – bo'rilar galasi hujumidan qutqaradi. Bo'rilar podshohi Susambilni tashlab yetti tog'ning narigi tomoniga qochib ketadi.

Mazkur ertak nihoyatda ravon, xalqchil, shirali tilda berilgan. Ertak

boshlanishidayoq kishini o'ziga jalb etadi. Asar boshlanmasidagi an'anaviy kirish so'z («Bor ekan-u, yo'q ekan, och ekan-u, to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, o'rdak surnaychi ekan, g'oz karnaychi ekan») ni olamizmi, tabiat tasviriga bag'ishlangan o'tinlarni olamizmi yoki personajlar — Eshak, Ho'kiz, Xo'roz, kalamushlar, bo'rilarining suhabatidagi dialoglarni olamizmi, barchasida jozibali tasvir, xalqona mutoyibaga boy nutq kishi diqqatini tortadi, o'quvchi o'zini voqealar ichida yurgandek his etadi. Yaxshisi, ertakni diqqat bilan o'qib chiqing. Undan o'zingiz uchun foydali xulosalar chiqara olishingizga ishonamiz.

## SUSAMBIL

(*Ertak*)

Bor ekan-u yo'q ekan, och ekan-u to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, o'rdak surnaychi ekan, g'oz karnaychi ekan.

O'tgan zamonda bir boy bor ekan. Uning eshagi va bir ho'kizi bor ekan. Uning yeri ko'p ekan, qarol-qo'shchilariga ekin ektirib kun o'tkazar ekan. Xo'jayinning o'g'illari ko'pincha eshakni minib yurar ekanlar. Xo'jayin eshakka yarasha egar-to'qim qildirib bergen ekan. To'qimi gajimli, juda ham kelishgan ekan. Shunday qilib, bu eshakni xo'jayin ham, xo'jayinning bolalari ham yaxshi ko'rib, suv o'rniga sharbat, o't o'rniga qora mayiz berib boqisharkan. Xayr, eshak suv o'rniga sharbat, o't o'rniga qora mayiz yeb maza qilaversin, endi gapni ho'kizdan eshititing.

Xo'jayin ho'kizni ertadan kechgacha qo'shga qo'shar ekan. Ho'kiz kechqurun qorni ochib, charchab qaytib kelsa, uning oldiga bir bog' quruq poyani tashlab qo'yar ekan. Ho'kiz bechora har kuni bir bog' quruq poyaga yo'liqib, qorni ochib, qoni qochib, rangi to'zib, ko'p abgor bo'libdi. Bir kun ishdan kelib, poyani yegisi kelmay atrofga qarasa, boyagi eshak suv o'rniga sharbat, o't o'rniga qora mayiz yeb, maza qilib yotibdi. Shunda ho'kiz uning ovqatidan yegisi kelib, eshakdan:

— Hoy o'rtoq, men ko'p och qoldim, rahming kelmaydimi? Kel, menga ham ovqatingdan ber, — debdi.

Shunda eshakning rahmi kelib, ovqatidan beribdi. Eshakning oldida

har doim ovqat ortib yotar ekan. Xo'jayin erta bilan chiqib ko'rsaki, eshakning oldida ovqati qolmabdi. «E, eshagimning ishtahasi endi ochilibdi», — deb ko'p-ko'p ovqat soladigan bo'libdi.

Bir kuni xo'jayin chiqib qarasa, eshakning ovqatini hadeb ho'kiz kelib yeayotgan emish.

— Iye, hali sening qorning to'yib, dimog'ing ko'tarilib qolibdi-ku, — deb ertasi kuni ho'kizni eshakning o'rniga qo'yib, eshakni oborib ho'kizning o'rniga qo'shga qo'shibdi.

Eshak sho'rlik umrida qo'shga qo'shilmagan ekan, omochni tortishga ko'p qiynalibdi. Oxiri taqdirga tan berib, qo'shda yurishga ham ko'nikib qolibdi. Kechgacha qo'shda yurib charchab, qorni ochib uya borsa, avvalgi ovqatlar yo'q, sharbat o'rniga bir paqir suv, mayiz o'rniga bir bog' poya. Eshak bechora nochor yeishiga tushibdi.

Xayr, shunday qilib, xo'jayin eshakni kuzgacha toza ham qo'shga qo'shibdi. Kuz bo'lganda esa unga yuk ortib, uzoq-uzoq yerlarga boradigan bo'libdi.

Bir kuni xo'jayin eshakni minib bozorga boribdi. Bozordan bir qop tuz sotib olibdi. Tuzni eshakka ortib, ustiga o'zi minib, yo'lida ketayotsa, birdan havo aynib, yomg'ir yog'a boshlabdi. Hash-pash deguncha darrov yo'llar loy bo'lib ketibdi. Eshak bechora ustida tuz, uning ustiga xo'jayin mingan, boz ustiga yuklar yomg'irda ivib vazminlashgan, yomg'irdan junlari ivib, yo'lida arang yurib kelar ekan. Noinsof xo'jayin loaqal eshakning oyog'idagi taqasini ham yangilatib qo'ymagan ekan. Taqasi siyqalanib qolgani uchun eshak loyda toyilib, turtinib borar ekan. Ustidagi og'ir yuki bosib, darmoni qurib, buning ustiga xo'jayin:

— Tez-tez yurmaysanmi? — deb qo'lidagi xalachon'i bilan bo'yniga niqtabdi, «xix-xix» deb, ikki oyog'i bilan qorniga tepibdi. Eshak shu azob bilan borayotib yo'lida bir buzuq ko'prikk kelib qolibdi. Bechora eshak toyilib-toyilib ko'priknig ustiga chiqqanida oyog'i toyib, ko'priknig teshigiga kirib qolibdi, ustidan xo'jayin chalqanchasiga ag'anab ketibdi. Shunda xo'jayinning qahri kelib, chayonday zahri kelib, ko'priknig tagidan bir so'yilni tortib olib, o'lganning ustiga tegpan deganday: «Meni ag'anatadigan senmisan», —deb bechora eshakni toza uribdi. Eshakning oyog'ini qisgan, o'zini yuk bosgan, buning ustiga kaltakning achchig'i. Eshak bo'ynini yerga solib, boshini loyga qo'yib, ko'zidan yoshini oqizib yotib qolibdi. Shunda uch-to'rt yo'lovchi yetib kelibdi.

Eshakning ahvolini ko'rib, yo'lovchilarning rahmi kelibdi. Bitta yo'lovchi:

— Hoy, noinsof! Eshakning ahvoliga qarasang-chi, uni urib nima qilasan? Ustidagi yukini ol, bo'lmasa o'lib qoladi, — debdi.

Keyin yo'lovchilar kelib, biri yukning ustidagi arg'amchini qirqibdi, biri tuzni ag'anatibdi, biri eshakning belidan ko'tarib, yana biri dumidan ushlab, ko'prikan chiqarib olibdi. Shundan keyin xo'jayin tuzni ortib yana yo'lga tushibdi. Eshak bechora shuncha azob bilan qorni ochib uyga zo'rg'a yetib boribdi. Borgandan keyin uydagilar: «Xo'jayin yomg'irda ivib kelibdilar, ko'p azoblanibdilar», — deb uni qo'llab-quvvatlab, issiq uyga olib kirib ketishibdi. Eshakni esa ochiq havoga bog'lab qo'yishibdi. Xo'jayin o'choqqa qo'llarini toblab, isinib, yog'li palovni yeb maza qilibdi. Eshakka bo'lsa, «boyagi-boyagi, boyxo'janing tayog'i» deganday bir bog' quruq poyani tashlashibdi.

Eshakning juda xo'rligi kelib, shu ahvolda yuraverishga rozi bo'lgsi kelmabdi. «Endi nima qilsam bo'lar ekan? — deb o'yabdi. — Men shu xo'jayinning qo'lida tokay ezilaman, axir, xo'jayinnikidan chiqib ketsam, ochdan o'lamanmi? Kel-e, shu yerdan boshimni olib ketayin!» — debdi.

«Endi qayoqqa borsam ekan?» — deb o'yabdi.

Eshak yoshlida onasidan: «Susambil degan mamlakat bor ekan, u joyda o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i mo'l ekan. Unda birov bilan birovning ishi ham yo'q, azob-uqubat ham yo'q, ovqat mo'l, qorning doim to'yib yuradi», — degan gapni eshitgan ekan. Onasi bechora ko'p orzu qilsa ham, Susambilga borolmay o'lib ketgan ekan. Eshak o'yab-o'yab shu Susambilni topmoqchi bo'libdi. O'rnidan turib, chiranib tortib, boshvog'ini uzib, osmonga qarab bir hangrab olibdi. Keyin xo'jayinning tashqi hovlisi bilan xayrashib, yo'lga tushibdi.

Bir odamning bir kam qirqta tovug'i, bitta xo'rozi bor ekan. Makiyonlar har kuni bir kam qirqta tuxum qilib berar ekanlar. Biroq egasi juda xasis odam ekan. Tovuqlarga loaqal uch kunda bir marta ham don sochib qo'ymas ekan. Tovuqlar hovlida xashaklarni va go'nglarni titib, shundan ovqat topib, qorin to'yg'azar ekanlar.

Bir kuni tovuqlar qo'shnisining hovlisida donlab yurganda uning xotini uy obrezida oqshoq yuvib, qozonga solibdi. Obrezning chetida to'rt-beshta oqshoq to'kilib qolibdi. Buni xo'roz ko'rgan ekan, sekin kirib, haligi donlarni yeya boshlabdi. Shunda qo'shnisining xotini ko'rib,



«kisht-kisht, qirilgurlar, kisht», deb otashkurakni otib yuboribdi. Otashkurak xo'rozga tegib, uni bir necha marotaba yumalatib yuboribdi. Otashkurakning zarbidan xo'roz ko'p alam tortib, bir chekkaga borib yig'labdi. Xo'rligi kelib: «Xo'jayin har kuni bir kam qirqta tuxum olsa, loaqal, bitta tuxumning puliga don olib sochmasa; uning eshigi yoniga borsak, o'zi ham, xotini ham «kisht-kisht» deb haydasa, boz ustiga qo'shnilaridan ham kaltak yesang! Menga nima azob! Kel, shu yerda yurgandan ko'ra dalalarga chiqib ketib, o'sha yerda o'zimcha tirikchilik qilsam, nima bo'ladi?» — debdi. O'rnidan turibdi va «qu-qu-qu» deb qichqiribdi. Keyin «pir» etib devorga qo'nibdi, undan uchib ko'chaga tushibdi-yu, dalaga qarab ketaveribdi.

Xo'roz dala yo'lida borayotgan ekan, uch ko'chaning boshiga borib qolibdi. Uch ko'chaning biridan boyagi eshak, ikkinchisidan xo'roz chiqib kelibdi. Xo'roz eshakka qarab:

— Assalomu alaykum, eshakovoy! — debdi.

Eshak:

— Vaalaykum assalom, xo'rozvoy, — debdi.

Xo'roz:

— Sizga yo'l bo'lsin? — deb eshakdan so'rabdi.

Eshak:

— Susambilga,— debdi.

Xo'roz:

— Susambil qanday joy? — debdi.

Eshak:

— Susambil — o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i, unda azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasan, — debdi.

Xo'roz:

— Men ham borsam bo'ladimi? — deb so'rabdi.

Eshak:

— Xayr, bitta edim, sen bilan ikkita bo'lamiz, yuraver! — debdi. Ikkovi boshidan o'tganlarini bir-biriga gapirib ketaveribdi.

Endi boyagi ho'kizga kelaylik. Xo'jayini uni ho'kizlar bilan urishtirib yurar ekan. Ho'kiz juda urishqoq bo'lib, hamma joyda dong'i ketgan ekan. Bir kuni ho'kiz urishtirish bo'lib qolibdi. Shunda bu ho'kiz yetti-sakkiz ho'kizni ochiribdi. Endi bitta juda urishqoq ho'kiz qolibdi. Xo'jayin ho'kizini bu ho'kiz bilan ertasiga urishtirmoqchi bo'libdi. Tongda xo'jayin:

— Endi ho'kizni urishtirishga boraman. Shoxini yog'lab qo'yay! — deb molxonaga chiqsa, ho'kizning ikki ko'zi yumuq, hadeb u xlabelapti. Tushida katta bir yig'in emish. Ho'kizni xo'jayini yig'inga olib kirsa, haligi ho'kiz buni yig'indan quvib chiqarish uchun hamla qilib, yugurib qolibdi. Shunda buning achchig'i chiqib, kelayotgan ho'kizga hujum qilib uni bir suzibdi. Shunda ho'kiz shoxini yog'layotgan xo'jayinni suzib yuboribdi. Xo'jayinning yog' kosasi bir tarafga, o'zi ikkinchi tarafga uchib tushibdi.

Xo'jayin hushidan ketibdi, hushiga kelgandan so'ng:

— Hali meni suzadigan senmisan?! — deb ho'kizni chunon uribdiki, qavarib chiqmagan joyi qolmabdi. Shunda ho'kiz yotib yig'labdi, xo'rлиgi kelibdi: «Men xo'jayinga shuncha ishlarni qilib, qancha ho'kizlar bilan urishib, ularni yengib, pul yutib bersam, u esa shugina hazilimni ko'tarmay meni o'larcha ursa, bu menga qanday xo'rlik?!» — debdi va: «Kel-e, men tokay xo'rlik tortaman, shu xo'jayinnikidan ketsam, nima bo'lar edi, ketaman!» — deb o'rnidan turibdi, bir chiraniq boshvoqni uzib, yo'lga tushibdi, yurib-yurib bir joyga borsa, boyagi eshak ko'rinishibdi. Shunda ho'kiz eshakni chaqirib, orqasidan yuguribdi. Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti.

Eshak to'xtab turibdi, ho'kiz yetib kelibdi. Qarasa, o'zining sherigi ekan.

Eshak:

— Ha, ho'kizvoy, nima qilib yuribsan? — debdi.

Ho'kiz aytibdi:

— Sendan keyin xo'jain meni ham toza azobladi. Men ham «bor-e» deb kelaverdim. Sen qayoqqa ketyapsan?

Eshak:

— Men Susambilga ketyapman, — debdi.

Ho'kiz:

— Susambil qanday joy? — debdi.

Eshak aytibdi:

— Susambil o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i, unda azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasan!

Ho'kiz:

— Bo'lmasa men ham borsam bo'ladimi? — debdi.

Eshak:

— Kelganing yaxshi bo'libdi. Ikkita edik, uchta bo'ldik. Yuraver! — debdi.

Ho'kiz, eshak, xo'roz uchovi boshidan o'tganlarini bir-biriga gapirishib, hasratlashib ketaverishibdi. Necha kun yo'l yurib, cho'l-u biyobonga yetishibdi.

Cho'lda hech kim yo'q ekan. Bir joyda ikkita kalamush turar ekan. Cho'lda oziq-ovqat kamligidan, ozgina ovqat topish uchun ko'p joylarga borib, ko'p yerlarni qazir ekanlar. Shunda qorin to'yar-to'ymas ozgina ovqat topishar ekan. Bora-bora cho'lda ovqat topilmay qolibdi. Bir kuni ikkala kalamush yeydigan ovqati yo'q, qorni ochiqib, endi nima qilamiz deb, uyasining og'ziga chiqib shumshayib o'tirishganda, uzoqdan haligi eshak, ho'kiz va xo'rozlar ko'rinishibdi.

Biri aytibdi:

— Shu ko'ringanlar yo'lovchi bo'ladi. Yur, ulardan ovqat olaylik. Zora rahmi kelib, biror narsa tashlab ketishsa, — debdi.

Ikkalasi yo'lning ustiga chiqib turibdi. Ko'ringan hayvonlar ham yetib kelishibdi. Shunda kalamush ulardan ovqat tilabdi.

Eshak turib:

— Ey birodarlar, biz ham sizlarga o'xhash och qolganlardanmiz. Agar ovqat kerak bo'lsa, biz bilan birga yuraveringlar, — debdi.

Kalamush eshakdan:

— Qayerga ketyapsizlar? — deb so'rabdi.

Eshak:

— Biz Susambilga ketyapmiz, — debdi.

— Susambil qanday joy? — deb so'rabdi kalamush.

— Susambilni aslo so'rama! Susambil o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i, unda azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasan! — debdi eshak.

— Bo'lmasa biz ham boraylik, — deyishibdi kalamushlar.

— Uchta edik, beshta bo'ldik, yuraveringlar, — debdi eshak.

Mana endi bular beshovi boshlaridan o'tgan sarguzashtlarini bir-biriga gapirishib, Susambilga ketaveribdilar.

O'sha cho'lda bir gala ari bor ekan. Ular ham ovqat yo'qligidan och qolib, nima qilarini bilmay, osmonda g'o'ng'illab uchib ketayotgan ekanlar, birdan haligi Susambilga ketayotgan besh jonivorga yo'liqibdilar.

Arilar bularni ko'rib: «Uh, mana ovqatning konidan chiqdik, keragini olib qol!» — deb chaqqani kirishibdi.

Shunda eshak aytibdiki:

— Ey ukalar, sizlar ham bizga o'xshab och qolib qiyngalganga o'xshaysizlar. Bizning tanamizda shira qolgani yo'q. So'rganlaring bilan hech narsa chiqmaydi. Shiramizni xo'jayinlarimiz so'rib olgan. Agar ovqat kerak bo'lsa, biz bilan yuraveringlar! — debdi.

Shunda arilar bularning ahvolini ko'rib, bular ham bizga o'xshagan och qolganlardan ekan, deb qayoqqa ketishayotganini so'rabdi.

— Biz Susambilga ketyapmiz, — deyishibdi.  
— Susambil qanday joy? — deb so'rabdi arilar.  
— Susambil o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i, unda azob-uqubat yo'q, maza qilib yurasiz,— deyishibdi.

— Bo'lmasa biz ham boraylik, — debdi arilar.  
— Mayli, beshta edik, ko'p bo'ldik, — debdilar.

Shunda bular hammasi: «Susambil, qaydasan?» deb boshidan o'tganlarini gaplashib, hasratlashib ketaveribdilar. Yo'lda ketayotib: «Qachon Susambilga yetamiz?» deb, yuraklari jig'illab, goho-goho eshakdan: «Yana bir gapirib bering. Susambil qanday joy o'zi?!» deb so'rashar ekan. Eshak ham Susambilni maqtab, ularning ko'nglini ko'tarar ekan.

Bular:

— Susambilga borsak unday qilamiz, bunday qilamiz! — deb o'zlaricha shirin-shirin xayollar surib borishar ekan.

Bular yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Oxiri dimog'lariga Susambilning xushbo'y shabadasi urilibdi. Susambilga ham yetib kelishibdi.

Susambil juda ham keng, bepoyon bir joy ekan. Havosi juda toza, narigi yoqda ulkan tog' bo'lib, uning shabadasi doim g'irillab kelib turar ekan. Yerda ko'm-ko'k maysalar, bedalar yashnab yotibdi. Bir yoqda bug'doy, arpalar; bir yoqda qovun-tarvuzlar, bir taraf keta-ketguncha bog': unda uzum, anjir, o'rik, shaftoli va turli-tuman mevalar g'arq pishgan. Ariqlarda oppoq sutday suvlar sharqiraydi. Borgarlarning bag'riga shamol tegibdi.

Shunda bu bechoralar juda ham xursand bo'lib ketishibdi. Xursandlikdan ba'zilari yig'lab olishibdi. Ular ko'p och qolishgan ekan. Har qaysisi istagan ovqatini yeb, qornini to'yg'azib, vaqtlarini xushlashib, so'ngra salqin bir joyga kelib dam olishibdi. Yo'l azobi —

go'r azobi, deganday, ko'p charchab qolishgan ekan, shu salqin joyda yetib uzoqqina uxlashibdi.

Uyqudan turib qo'l-betlarini yuvib, yana xohlagan ovqatlarini yebdilar. Shu bilan bular Susambilga kelib ko'p rohatlanib qolishibdi.

Susambilning bir tomoni baland tog' bo'lib, unda kiyik deysizmi, ishqilib ko'p jonivorlar yashar ekan. Tog'ning bir joyida esa bir to'da bo'ri turar ekan. Bir kuni bo'rilarning podshosi ularni to'plab, bazm qilib, ichkilik ichib, kabob qilib yeb o'tirgan ekan. Shunda bo'rilarning podshosi uzoqdan haligi eshak bilan ho'kizni ko'rib qolibdi:

— Uh, bizga barra kabob topildi, huv ana, o'tlab yuribdi. Uch-to'rtta bo'lib borib shularni olib kelinglar, kabob qilib yeymiz, — debdi.

Bo'rilarning ichida bitta hovliqmasi bor ekan, u turib aytibdi:

— Shugina narsaga uch-to'rt kishining nima keragi bor? Bitta o'zim borib olib kelaman! — debdi.

Bo'rilarning ichida yana bitta hovliqmasi bor ekan. Haligi bo'rining gapini eshitib, shartta o'rnidan turib:

— Hov, nima deyapsan o'zing? Men turganda sen qayoqqa borasan? O'tir joyingda! Men o'zim borib olib kelaman! — debdi.

Bunga u bo'rining achchig'i kelibdi:

— Meni pisand qilmayapsan, sendan nima kamligim bor?! — deb bir-ikki daf qilibdi. Shu yerda ikkovi olishib ketibdi.

Shunda bo'rilarning podshosi turib:

— Hoy muttahamlar, urishmanglar! Bor, ikkoving borib olib kel! — debdi. Shu bilan ikkovi chopqillashib ketishibdi. Bular ketayotganlarida bizning susambilliklarimiz o'tlab yurishgan ekan. Bir vaqt ho'kiz yerdagi ko'katni yeb, og'zini to'ldirib, boshini ko'tarib, o'tni chaynab, tog' tomonga qarab, uzoqdan chopib kelayotgan ikkita bo'riga ko'zi tushibdi. Shunda ho'kizning yuragi shuvullab ketibdi. U qo'rqib og'zidagi o'tini yerga tashlab, sheriklarini chaqiribdi. Sheriklari ham bo'rilarni ko'rishiibdi. «Endi nima qilamiz? Qochamizmi, turamizmi?» deb maslahatlashibdilar.

Eshak:

— Qochsak, quvib yetib oladi, yaxshisi qochmaymiz, — debdi.

Ho'kiz aytibdi:

— Basharti oldimizga kelsa, nima qilamiz?

Shunda xo'roz:

— Men daraxtning tepasiga uchib chiqib ketaman, — debdi.

Kalamushlar:

— Biz yerni kavlab, kirib ketamiz, — debdilar.

Eshak:

— Hangrab turaveraman, — debdi.

Arilar:

— Biz ro'para kelganini chaqib, hamma yog'ini shishirib tashlaymiz! — debdilar. Ho'kizga arilarning gapi juda ham yoqib tushibdi:

— Bo'lmasa sizlar jon boricha chaqinglar. Qolganlarini menga qo'yib beringlar! — debdi.

Bular maslahatni bir qilib turaverishibdi.

Bir zumda bo'rilar yetib kelibdilar. Bo'rining haligi hovliqmasi sherigiga:

— Huv anavini sen ko'tar! Mana buni men ko'taraman, — deb ho'kizga qarab yuguribdi.

Shunda ho'kiz orqasiga qaytib turib, bo'rige qarab yugurib borib bir suzganda, bo'ri «dod» deb yetti dumalab tushibdi. Buni ko'rib sherigi yugurib kelgan ekan, ho'kiz uni ham qattiq suzib tashlabdi. Kalamushlar qo'rqqanlardan yerni kavlab kirib ketishga urinibdi. Yer toshloq, qattiq ekan, ular kavlab kirolmabdilar, bir zumda allaqancha joyni o'yib yuboribdilar.

Xo'roz bo'lsa daraxtga chiqib olib, hadeb «qu-qu-qu» deb qichqiraveribdi.

Arilar har ikkala bo'rige yopishib chaqaverishibdi-chaqaverishibdi, bir zumda do'mbira qilib shishirib tashlashibdi. Bo'rilar shunda ham qochmay, jonholatda kelib, ho'kizga yopishibdilar. Ho'kiz ularni suzaverib, a'zoyi badanini yara qilib tashlabdi. Eshak bo'lsa nariroqda bor ovozi bilan hangrab, nari borib-beri kelib turaveribdi.

Bir vaqt bo'rilar olishib-olishib charchashibdi. Qarasa, ho'kiz bilan arilar o'ldirib qo'yadigan. Shunda dastlab haligi hovliqma bo'ri qochishga tushibdi, orqasidan bunisi ergashibdi. Bular shu qochganicha podshoning oldiga yetib borishibdi. Bu bo'rilarning hamma yog'i yorilgan, qonlari oqqan, ari chaqqan yuzlari shishib, ko'zлari ko'rinxaydigan bir ahvolda ekan. Podsho va sheriklari bularning ahvolini ko'rib, rangi o'chib, qoni qochib, iyaklari qaltirab, ko'zлari yaltirab qolibdi.

Podsho:

— Sizlarga nima bo'ldi? — deb so'rabdi.

— Ey taqsir, bular barra kabob emas, boshga kelgan balo ekan! — deyishibdi.

— Ha, nima bo'ldi? — desa, bo'rining biri:

— Bular bizning jonimizga qasd qilib kelgan ekan. Bularning ichida munkarmakiri, uning bir just go'rkovi ham bor ekan. Munkarmakir gurzisi bilan bir urganda, agar sher bo'lsa ham, necha dumalab ketadi, — debdi.

Bo'rining yana biri:

— Ey mahmadona! Sen tek tur! O'zim gapiraman. Bularning ichida azroil ham bor ekan. Jonni olish uchun nayzasini suqsa, a'zoyi badaning achishib, shishib ketar ekan, — debdi.

Endi bunisi:

— He, sen bilmaysan! Bular go'rkovi bilan kelgan ekan. Hali biz o'lmay turib, har birimizga yettitadan go'r qazib qo'yishibdi, — debdi.

Unisi aytibdi:

— Sen ko'rmabsan! Bular so'fisi bilan kelgan ekan. Hali biz o'lmay turib, daraxtning tepasiga chiqib, hadeb odamlarni janozaga chaqiryapti.

Unisi:

— Lekin bularning ichida bir kattasi bor ekan. Unisi eshonni bo'lsa kerak. Bizga yaqinlashmadni, lekin nariroqda turib ish o'rgatib, bularga baqirib turdi. Agar unisi ham kelganda, biz mutlaqo o'lar edik, — debdi.

Bo'rilar bularning aft-angorini ko'rib, gaplarini eshitib, qo'rqib vasvasaga tushibdilar.

Podsho:

— Endi nima qilamiz? — debdi. Haligilar:

— Ey taqsir, agar baloga duchor bo'laylik, kunimiz bitibdi, o'laylik desangiz, turaveramiz. Bo'lmasa qochamiz. Bular bizning orqamizdan quvsqa, hali zamon yetib keladi, — debdi.

Buni eshitib bo'rilarning podshosi yana qo'rqiбdi.

— Bo'lmasa turinglar, jo'naymiz, — debdi.

Shunda hamma bo'rilar, bu joyga kelmay, har yodda tirqirab yurganlarini ham topib kelib, Susambil tog'ini tashlab qochib, yetti tog'ning narigi yog'iga o'tib ketishibdi.

Susambiliklar endi tamom erkinlikka chiqib, og'zi oshga tegib, sal kunda semirib ketibdilar. Ular goho xo'jayinlarinikida ko'rgan kunlari esga tushsa, o'kinib, bu yerdagi rohatlarni ko'rib sevinib, Susambilning ovini ovlab, dovini dovlab, maza qilib yurishaveribdi. Shu bilan murod-maqsadlariga yetishibdi.

## *Savol va topshiriqlar*

1. «Susambil» ertagi qaysi ertaklar turkumiga kiradi?
2. Eshak, Xo'roz, Ho'kizni xo'jayinlari uyini tashlab ketishga nima majbur etdi?
3. Susambil qanday yurt? Jonivorlar nima ucnun unga intildilar?
4. «Susambil» ertagidagi hazil-mutoyiba, qochiriq ma'nosidagi so'zлarni topib adabiyot daftaringizga ko'chirib oling (Masalan, Ho'kizning xo'jayini haqidagi, bo'rilarning hayvonlarni qo'lga olish haqidagi balandparvoz gaplari kabi).
5. Ertakdagi jonivorlarning ahilligini nimalarda ko'rdingiz?
6. Ertakni rollarga bo'lib o'qing.
7. «Mening sevimli ertagim» mavzusida insho yozing.

## *Nazariy ma'lumot*

### **ERTAK HAQIDA TUSHUNCHА**

Qadrli bolalar, shu kungacha maqollar, ibratlri hikoyatlar, hadislar, sharqona hikmatlar bilan oshno bo'ldingiz. Maqol-u hadislar, hikmatlarning kishi hayotidagi tutgan o'rni benihoya muhimligini angladiningiz. Xalq og'zaki ijodida yana shunday ajoyib janr mavjudki, u ertak deb ataladi.

Ertak aytuvchilarni qadimda «ertakchi», «matalchi» deb atashgan. Ertaklarning xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantaziyaga keng o'rin beriladi, mubolag'a, giperbola kabi tasviriy vositalardan foydalaniladi. E'tibor bersangiz, ertaklarda ijobiy qahramon albatta yovuzlik, adolatsizlik, zulm ustidan g'alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi. Chunki ertak qahramonlari xalq orzu-umidlarini, manfaatini ifoda laydilar.

Ertaklar azaldan xalqni, ayniqsa, yosh avlodni insonparvarlik, vatanga muhabbat, rostgo'ylik va halollik, mehnatsevarlik, xushmuomalilik va kamtarlik ruhida tarbiyalab kelgan.

Ertaklar turli mavzularda bo'lishi mumkin. Ular shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklarga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqadigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy, ya'ni ko'chma ma'noga ega. Masalan, ayyorlik va munofiqlik tulki, qonxo'rlik, laqmalik bo'ri orqali

ifoda etiladi. «Bo'ri bilan tulki», «Echkining o'ch olishi», «Ochko'z bo'ri», «Ayiqpolvon» kabi ertaklar ana shunday asarlardir.

Sehrlı ertaklar ham Siz sevib va qiziqib o'qiydigan fantastik hikoyalardir. Ularda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan, asar qahramonlari har narsa qo'lidan keladigan mo'jizakor kimsalar («Yalmog'iz», «Devbachcha») yoki jonlantirilgan narsa yoxud hayvonlar («Ur to'qmoq», «Ochil dasturxon», «Semurg», «Susambil» ertaklari)dan iborat. Bu ertaklarning maqsadi ham turli g'ayriinsoniy illatlar: yolg'onchilik, johillik, ikkiyuzlamachilikni la'natlash, aql-farosatlilik, tadbirkorlik, jasurlik, rahmdillik, ahillik kabi chin insoniy xislatlarni targ'ib qilishdir.

Xalqimiz yaratgan xayoliy hikoyalar orasida shunday turkum ertaklar borki, ularni biz hayotiy-maishiy ertaklar deb ataymiz. Bunday ertaklardagi voqealarning aksariyati hayotga yaqin, hayotdan olingen. «Zumrad va Qimmat», «Oygul bilan Baxtiyor», «Ziyod botir», «Tohir va Zuhra», «Ozodachehra», «Farhod va Shirin», «Malikayi Husnobod», «Uch og'a-ini botirlar» ana shunday ertaklar sirasidandir. Biz yuqorida tilga olgan hayotiy-maishiy ertaklar kishida jiddiy fikr-mulohazalar uyg'otadigan, muayyan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lgan asarlardir. Siz ular bilan tanishgach, botirlik, yurtga fidoyilik, odamgarchilik, vafodorlik, himmat va saxovat haqida aniq tasavvurga ega bo'lasiz, o'zingizda ham ertaklar qahramonlарidagi yaxshi fazilatlarni bo'lishini xohlab qolasiz, shunga intilasiz.

Ertaklarni ham tinglaymiz, ham o'qiymiz dedik. Tinglaydigan ertaklarimiz professional ertak aytuvchilar, ya'ni ertakchilar tomonidan qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Ertakchilar shunchaki hikoya qilmaydilar. Har bir ertakchi u yoki bu ertakni qayta yaratadi desak, xato bo'lmaydi. Chunki ularning har biri o'zining hikoya qilish uslubi, didi, dunyoqara-shiga ko'ra ajralib turadi. Bundan tashqari, ertakchi tinglovchilarning saviyasi va talabiga ko'ra ertakni o'zgartirishi mumkin. O'zbek xalq og'zaki ijodi tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko'tarilishi va bugungi kungacha saqlanib qolishida Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Haydar Baychi o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, Husanboy Rasul o'g'li kabi ertakchi, matalchilarimiz katta xizmat qilganlar. Ular og'zidan yozib olingen o'zbek xalq ertaklarining bebaho namunalarini bizga hanuzgacha ma'naviy zavq berib kelyapti. O'zbek adabiyotida xalq ertaklari asosida yaratilgan she'riy, nasriy asarlar teatr va kinoda ham o'z aksini

topgan. Qiziqarli ertaklar sujeti asosida sahna asarlari, kinofilmlar, multfilmlarni sevib tomosha qilmoqdasi.

Bolalar, ertaklarning yaratilishiga ko'ra yana bir turi — yozma ertaklar ham mavjudki, u jahon adabiyoti, xususan, o'zbek yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Keyingi ikki-uch yuz yillikda fransuz ertakchisi Sharl Perro (1628—1703), nemis ertaknavislari Ernst Teodor Amadey Gofman (1776—1822), aka-uka Yakob Grimm (1785—1863) va Velgelm-Karl Grimm (1786—1859)lar, Vilgelm Gauf (1802—1877), daniyalik Hans Kristian Andersen (1805—1875), angliyalik Oskar Uayld (1854—1900), rus ertakchilari A. S. Pushkin (1799—1837) ijodining roppa-rosa o'n yilini faqat bolalar uchun hikmatli hikoyalar va ertaklar yaratishga bag'ishlagan L. N. Tolstoy (1828—1910), K. D. Ushinskiy (1824—1870) yozma ertakchilikni rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. O'zbek yozma ertakchiligi ham katta tarixga ega. Jadid bobolarimiz Mahmudxo'ja Behbudi, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Siddiqiy-Ajziy o'zлari tuzgan mакtab darsliklari uchun ko'plab ibratli ertaklar yaratdilar. O'tgan asr o'rtalarida Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg», Sulton Jo'raning «Zangori gilam», Shukur Sa'dullaning «Ayyor chumchuq», «No'xat polvon», «Laqma it» she'riy ertaklari, «Yoriltosh», «Afsona yaratgan qiz» ertak-pyesalari, «Kachal polvon» ertak-qissasi mashhur bo'ldi. Adiblarimizning ertakchilik sohasidagi an'analarini keyinchalik X. To'xtaboyev, A. Obidjon, T. Adashboyev, O'. Imonberdiyev kabi ertaknavis mualliflarimiz davom ettirdilar.

«Ertaklar — yaxshilikka yetaklar» degan naql bor xalqimizda. Ular shunchaki ko'ngil ochish vositasi, ermak emas, balki ajoyib suhabatdosh, bizni faqat ezgulikka undovchi, zavq-shavq bag'ishlovchi ma'naviy manbadir.

### Savol va topshiriqlar



1. Qanday asarlarni ertak deb ataymiz?
2. Ertaklar qanday turlarga bo'linadi?
3. Sehrli ertaklar haqida gapirib bering.
4. Qaysi ertaklarni majoziy ertaklar deymiz?
5. Ertakchi, matalchilar kimlar? Ulardan mashhurlari nomlarini aytинг.
6. Ertaknavis adiblar haqida gapirib bering: jahon va o'zbek adiblari misoldida.

# *Hamid*

## **OLIMJON**

(1909–1944)



XX asr o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri Hamid Olimjon bor-yo'g'i 34 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, o'zidan juda boy adabiy meros qoldirib ulgurgan. Shoир tomonidan yaratilgan asarlar o'n jild (yirik kitob)ni tashkil qilishi ham uning naqadar sermahsul ijodkor bo'lganidan darak beradi. Hamid Olimjon qobiliyatli rahbar va olim ham bo'lgan edi. U o'ttiz yoshga yetar-yetmas O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasini boshqardi, o'ttiz uch yoshida akademik unvonini oldi.

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug'ildi. Jizzax ham yurtimizning Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalari singari ko'plab xalq baxshilarining vatani hisoblanadi. Bu yerdagi xalq sayillari, to'ylar, turli yig'inlar hozir ham baxshilar ishtirokisiz o'tmaydi. O'tgan asrning boshlarida, odamlarning uyida radio-televizor tugul oddiyagina elektr chirog'i bo'lman zamonalarda kishilar sham va qora chiroq yorug'ida kun kechirardilar. Ayniqsa, uzoq qish kechalari xalq kitoblari, turli dostonlar o'qilar, bir uy bolalar ham bu ma'rifat nuridan bahramand bo'lib o'sardilar.

Hamid Olimjonning onasi Komila aya juda ko'p doston va ertaklarni yod bilardi, ularni eshitgan yosh Hamid tasavvurida qadimgi asarlar qahramonlari qayta jonlanardi. Dostonlarning shirali tili, birbiridan qiziq voqealari uning butun xayolini egallab olardi. Hamid Olimjon bu zavqli tunlarni bir umr yodda saqlab qoldi va o'zi yozgan dostonlardan biri «Oygul bilan Baxtiyor»da bu sehrli tunlarni shunday esga oldi:

Bolalik kunlarimda,  
Uyqusiz tunlarimda  
Ko‘p ertak eshitgandim,  
So‘ylab berardi buvim.  
Esimda o‘scha damlar:  
O‘zi uchar gilamlar,

Tohir-Zuhra, Yoriltosh,  
Oyni uyaltirgan qosh...  
Buvimning har qissasi,  
Har bir qilgan hissasi  
Fikrimni tortar edi,  
Havasim ortar edi.

Hamid Olimjondagi tug‘ma iste’dodning ko‘z ochishida, uning keyinchalik mashhur shoir bo‘lib yetishuvida mana shu ezgu havas, albatta, katta rol o‘ynagan.

Hamid Olimjon Jizzaxdagi Narimonov nomli boshlang‘ich maktabni tugallab, o‘scha davrda (1932-yilga qadar) O‘zbekistonning poytaxti bo‘lgan Samarqand shahriga bordi. U yerda avval pedagogika bilim yurtida (1923–1926), keyin Pedagogika akademiyasida (1926–1931) tahsil oldi. Ko‘plab ijodkor yoshlari to‘plangan bu o‘quv dargohlarida Abdulhamid yozgan she’rlar do‘stlari tomonidan qizg‘in kutib olinardi. Ilk mashqlaridanoq tug‘ma iste’dodi yarq etib ko‘ringan talaba shoirning dastlabki she’rlari Samarqandda chop etiladigan «Zarafshon» gazetasida 1926-yildanoq chiqa boshlagan bo‘lsa, «Ko‘klam» nomli birinchi she’rlar to‘plami 1929-yilda o‘z o‘quvchilarini topdi. Shu tariqa o‘zbek adabiyotida yana bir umidli ijodkor dunyoga keldi.

Hamid Olimjon ham zamonaviy, ham tarixiy mavzularda birdek samarali ijod qilardi. Uning «Muqanna» nomli tarixiy, «Jinoyat» deb nomlangan zamonaviy mavzudagi she’riy dramalari, nozirgi kunda xalqimizning sevimli qo‘shiqlariga aylangan g‘azallari, ko‘plab tarjima asarlari mashhurdir. Ayniqsa, ona yurti – O‘zbekiston tabiatи, uning zahmatkash xalqi mehnatini sharaflab yozgan she’rlari o‘zining samimiyligi, ohangdorligi, o‘quvchining eng nozik tuyg‘ularini qo‘zg‘ata olishi bilan zamonlar sinovidan o‘tib kelmoqda.

Hamid Olimjon onasidan eshitgan dostonlari hamda xalq tarixini o‘rganish jarayonida orttirgan hayotiy tajribalarini umumlashtirib, 1937-yilda «Oygul bilan Baxtiyor» nomli mashhur dostonini yaratadi.

## OYGUL BILAN BAXTIYOR

(*Ertak-doston*)

Doston, hikoyamiz boshida aytganimizdek, shoirning bolalik davri esdaliklari bilan boshlanadi. Uzun tunlar jim yotib onasidan tinglagan ertaklarni eslar ekan, shoir ularning kuchini o'zida sezganini aytadi.

Aziz bolalar, shu o'rinda bir muhim masalaga e'tiboringizni tortmoqchimiz.

Dunyoda kattalardan ertag-u doston eshitmagan bola bo'lmasa kerak, to'g'rimi? Lekin nima uchun barcha bolalar katta bo'lishgach shoir yoki yozuvchi bo'lmaydi? Nima uchun minglab tengdoshlari orasidan faqat Hamid Olimjongina mashhur ijodkor bo'lib yetishdi?

Gap shundaki, dunyodagi barcha insonlarda qandaydir iste'dod, qobiliyat yashiringan bo'ladi. Kimdir yerni yaxshi ko'rsa, boshqa bolani osmondagi yulduzlar qiziqtiradi. Bir bola eshitgan qo'shig'ini darrov yod olib, borayotgan yo'lida xirgoyi qilib yursa, yana bir bola o'yinchoq kubiklardan chiroyli imoratlarni yasab zerikmaydi. Hamma gap o'sha qobiliyatni tinimsiz rivojlantirib borishdadir. Buning uchun esa har bir odam, birinchi navbatda, o'zi harakat qilmog'i, qiziqqan narsasini oxiriga qadar bilib olmaguncha tinib-tinchimasligi kerak. Agar shunday qilinmasa, qobiliyat so'nishi yoki o'smay qolishi mumkin.

Demak, yosh Abdulhamidda tug'ma shoirlik iste'dodi bo'lgan, u o'zidagi iste'dodga jiddiy qarab, uni doimiy rivojlantirishdan char-chamagan ekan-da. Onasining ertaklari, maktab va o'quv yurtlarida mutolaa qilgan kitoblari esa bu iste'dodning yanada charxlanib, o'tkirlashib borishiga zamin yaratgan. Shuning uchun, garchi shoir «Oygul bilan Baxtiyor» ertagini onasidan eshitganini aytsa-da, bugun Siz o'qiyotgan ertak-dostonning chuqur mazmun-mohiyati, go'zal satrlari uni badiiy qayta ishlagan shoir mahoratining mevasi ekanini unutmasligimiz kerak.

Endi yana dostonning o'ziga qaytamiz.

Juda qadim zamonda, Jambil degan yurtda nihoyatda og'ir ahvolga tushgan xalq o'zini qul qilgan xon zulmiga qarshi bosh ko'taradi. Bunday qo'zg'alolnlar dunyo xalqlari tarixida ham, bizning yurtimiz o'tmishida ham ko'p marotaba bo'lgan. Agar Siz 2000-yilda chop etilgan «Bolalar ensiklopediyasi» kitobining 469-sahifasini ochsangiz, unda miloddan



avvalgi 329–328-yillarda qadimgi So'g'diyonada makedon bosqinchilariga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'alonining rahbari jasur bobomiz Spitamen to'g'risidagi ma'lumotga duch kelasiz. Demak, ozodlikka, hur va erkin yashashga bo'lgan intilish bizning xalqimiz ruhini hech qachon tark etgan emas.

Jambilagi qo'zg'alonga esa keksa qul Darxon va uning mardona qizi Oygul boshchilik qilardi. Kuchlar teng bo'limgani tufayli qo'zg'a-lonchilar mag'lubiyatga uchrab, Darxon, qizining ko'z o'ngida, zolim xon tomonidan qatl etiladi.

Saroyda xizmat qiladigan, xondan juda ko'p jabr-u jafo ko'rgan Tarlon ismli keksa qul zindonda yotgan Oygulni qutqarishga jazm etadi. Qizni sandiqqa solib daryoga oqizib yuboradi. Sandiqqa Oygul uchun yetadigan non ham solib qo'ygan edi.

Bolalar, bundan oldingi darslarda Siz ertaklarning sehrli olamiga sayohat uyuştirgan edingiz. Hamid Olimjon ham onasi aytib bergen ertaklar ichida «Tohir va Zuhro»ni eslaydi. Yodingizda bo'lsa, o'sha ertakda ham bosh qahramonlardan biri Tohir Amudaryoda sandiqda oqib ketadi. Bundan ko'rinaradiki, ertaklar orasida o'xhash manzaralar tez-tez uchrab turar ekan.

Daryoda uzoq oqqan sandiq nihoyat Jarjon degan yurt qirg'oqlariga kelib qoladi. Daryo qirg'og'iga o'tin tergani kelgan bir kambag'al chol sandiqni tutib, suvdan olib chiqadi. O'rog'i yordamida sandiqning bir chetini zo'rg'a ochgach, uning ichidan odam tovushi kelayotganidan cho'chib ketgan sodda chol, odamlar orasida ochay deb, sandiqni bozorga olib boradi va boshi baloga qoladi. Odamlar uni o'g'ri gumon qilib ushlashadi va podsho saroyiga olib kelishadi. Oddiy odamlar taqdiriga befarq, bag'ritosh podsho esa sandiq ichidagi narsa nima ekanini oxirigacha surishtirmay, sho'rlik cholning tanini boshidan judo qiladi. Oygul endi bir zolimdan qutulib, ikkinchisining qo'liga tushadi...

Shu o'rinda, bolalar, biz xuddi o'tinchi cholga nisbatan ishlatganimizdek, Oygulga nisbatan ham «sho'rlik», «bechora» degan so'zlarni ishlatsak bo'lar edimi?

Bizningcha, bo'lmas edi.

Gap shundaki, agar Oygul o'z hurligi yo'lida eng qaltis chorallardan ham cho'chimay, qiz bola boshi bilan maqsad sari dadil va ongli intilsa,

o‘tinchi chol xarakterida boshqalarga mutelik, o‘z haq-huquqini himoya qila olmaslik qusurlari uchraydi. U o‘zining «peshonasi sho‘r»ligiga ko‘ngan, o‘z hayatini yaxshi tomonga o‘zgartirish imkoniyati tug‘ilgan paytda ham undan foydalana olmaydigan kishilar sirasidandir.

Qari podshohning xotini bo‘lib, ko‘ngli yo‘q odam bilan bir umr zarga ko‘milib yashashdan o‘z ozodligini afzal bilgan bizning Oygul saroyning qirq kanizagi bilan cho‘milish bahona daryoga boradi va ko‘zini chirt yumib o‘zini suvga otadi. Daryodagi bahaybat Jayhun baliq esa Oygulni bir hamla bilan yutib yuboradi...

Ana endi dostonning davomini Hamid Olimjonning o‘zidan eshitamiz:

## XI

Go‘zal yurt Susambilda  
Bir podachi bor edi.  
U mashhur edi elda,  
Nomi Baxtiyor edi.  
Go‘zal edi va chinor  
Qomatiga edi zor.  
Ko‘kraklari butun bir  
Oftobni yashirardi.  
Tanlarida bir umr  
O‘t lovullab turardi.  
Qilichday o‘tkir edi,  
Rustam kabi zo‘r edi.  
Ammo elda xor edi,  
Kambag‘al, nochor edi...  
Har tomonga qararkan,  
Baliq ovlab daryoda  
Yurganlarga yo‘liqdi.  
Shu choqda uning sodda  
Ko‘ngli juda toliqdi:  
«Jinday non bormi?» dedi.  
Baliqchi tanti edi:  
«Yo‘qdir berar nonimiz,  
Lekin kuyar jonimiz.  
Mayli shu safar to‘rga

Chiqqanin ol o‘zingga.

Uzun umring bor bo‘lsin,  
Bola, baxting yor bo‘lsin».  
Rozi bo‘ldi Baxtiyor  
Va toleyiga shu bor  
Jayhun ilinib qoldi,  
Ulkan baliqn ni oldi.  
Ikki ho‘kizga ortib,  
Oldindan o‘zi tortib,  
Uyga tomon yo‘l soldi,  
Baliqchi kulib qoldi.  
Hovliqib tolib keldi,  
Uyiga olib keldi.

## XII

«Ota», dedi u, darhol –  
Hozir bo‘ldi qari chol  
Va ota-bola ikkov  
Baliqqa soldilar dov.  
Otasi pichoq soldi,  
O‘g‘li oybolta soldi.  
Baliq qornin yorganda,  
Pichoq belga borganda,  
Chol birdan cho‘chib qochdi,  
Baxtiyor g‘azab sochdi.

Baliq qornida shu on  
Tebranib u yon-bu yon,  
Oygul ko'zini ochdi  
Va Baxtiyorni ko'rди.  
Boshiga qon yugurdi.  
Qora ko'zları yonib,  
Bir muhabbat uyg'onib,  
Qalbi jizillab qoldi,  
Qizardi, begap qoldi.  
Cholga gapi ko'p edi:  
«Ota, qabul qilsangiz,  
O'g'lingizga tegayin,  
Siz har narsa desangiz,  
Men bo'ynimni egayin».  
Chol dovdirab hang-u mang,  
Javobiga qoldi tang:  
«Qizim, bizda hech pul yo'q,  
Mol-u dunyo butkul yo'q.  
Qandayin to'y qilamiz?  
Seni nima bilamiz?»  
«Men dunyo so'ramayman,  
Boy odamga bormayman.  
Siz xohlasangiz agar,  
Boshingizga to'kay zar...»

#### XIV

... Oygul daryoda baliq  
Qornida yotganida,  
Ikki katta halqalik  
Gavhar topuvdi unda.  
Qadrini bilgan edi,  
Ehtiyot qilgan edi.  
Tongda u yo'qlab cholni,  
Arz etdi ushbu holni.  
Chol o'zini unutdi,  
«Mana buning birini

Bozorga sotib keling.  
Bilib uning sirini,  
Oltinga botib keling».  
U bozorga jo'nadi,  
Yursa yo'li unadi.  
Chol ushlagancha gavhar  
Bozorda yurar ekan,  
Xaridor so'rар ekan,  
Bitta katta savdogar  
Xabardor bo'lib qoldi,  
Cholga yopishib oldi,  
Gavharga changal soldi.  
Bir sandiq oltin berib,  
Cholni jo'natib qoldi...

#### XV

Oltinni otga ortib,  
O'zi kuchanib tortib,  
Susambilga boshladi,  
Devday qadam tashladi.  
Oltinlarning barini  
To'plab yosh-u qarini  
Chaqirib go'zal Oygul,  
Yashnab misoli bir gul,  
Baxtiyori yonida,  
Otash yonib qonida  
Kattakon kengash ochdi,  
Lablaridan dur sochdi...  
Ertasi to'da-to'da,  
Guras-guras bo'lib el,  
Kela berdi bog'lab bel.  
Xotinlar, yosh bolalar,  
Barcha amma-xolalar  
Kela berdilar ishga.  
Oygul yangi turmushga  
Boshlab, osh-u non berdi,  
Jonsizlarga jon berdi...

Yori Baxtiyor bilan Susambilni jannatmisol yurtga aylantirgan Oygulning yodidan o‘z eli Jambil, uning ezilib yotgan xalqi, nohaq o‘ldirilgan otasining xotirasi ketmas edi. Xalqini xon zulmidan xalos qilish niyatida u katta qo‘sish bilan Jambilga hujum qiladi va g‘alabaga erishadi. Qonxo‘r xondan qutulgan elga Tarlon otani rahbar etib tayinlaydi, o‘zi esa kelin bo‘lib borgani Susambilga — suygan yori Baxtiyor yurtiga qaytadi:

Qul Tarlon shodligidan  
To‘xtolmadi yig‘idan,  
Barcha hayron edilar.  
Ular kelib Oygulga:  
«Bizlarni Susambilga  
Olib ketgin, — dedilar. —  
Bu xonlardan kuydik ko‘p,  
Beklardan o‘rtandik xo‘p,  
Biz Jambilda turmaymiz,  
Bu yerlarda yurmaymiz.  
Bizni qo‘sish o‘z elingga,  
El bo‘lamiz biz senga...»  
Oygulga alamini,  
Barcha chekkan g‘amini  
El aytib yig‘lar edi.  
Oygul nazar tashladi,  
Shunday bir so‘z boshladi:  
«Zolim xon quchdi o‘lim,  
Endi sizga yo‘q zulm.  
El, osoyish yasharsiz,  
Va bekoyish yasharsiz.  
Susambilni qo‘yinglar  
Va Jambilni suyinglar,  
Siznikidir tuprog‘i,

Sizniki tosh-u tog‘i,  
Xon bo‘lmasa Jambilda,  
Qayg‘u ham bo‘lmas dilda.  
Mana bu ota Tarlon  
Hammangizga bosh bo‘lur,  
Sizlar uchun berar jon,  
Har yerda yo‘ldosh bo‘lur».  
Oyguldan jahon-jahon  
El barcha rozi bo‘ldi,  
Qalbi shodlikka to‘ldi.  
Qirq kecha-yu qirq kunduz,  
Barcha erkak, xotin-qiz  
O‘ynab bayram etdilar;  
Zolim xonni yo‘qotib,  
Qayg‘ularini otib,  
Murodiga yetdilar.  
Shundan so‘ng bizning Oygul,  
Yashnab misoli bir gul,  
O‘z Baxtiyori sari,  
O‘z sevgan yori sari  
Susambilga yo‘l oldi.  
El karnay-surnay chalib,  
Zambaraklar bo‘shatib,  
Uni uzatib qoldi.

Ko‘ryapsizki, aksariyat ertaklarda bo‘lgani singari bu asarda ham razolat ustidan ezgulik, zulm va nohaqlik ustidan esa adolat g‘alaba qildi. Biroq bu g‘alaba boshqa ertak-afsonalardagi singari osonlikcha, afsonaviy sehrgarning sirli tayoqchasi yordamida qo‘lga kiritilgani yo‘q. Balki tinimsiz qilingan harakat, qullik va xo‘rlikka bo‘y bermaslik

kabi xalqimiz ruhiyatiga xos bo'lgan mardona kurash oxir-oqibat Oygul va uning yurtdoshlarini ozodlikka olib chiqdi. E'tibor bersangiz, garchi asarning bosh qahramonlari Oygul bilan Baxtiyor hisoblansa-da, tadbirkor, erksevar Oygulning oqilona harakatlarigina voqealarning aynan shu tarzda xotimalanishiga zamin yaratadi. Siz avvalgi darslarda jasur momomiz To'maris haqidagi tarixiy afsonani o'rgangan edingiz. Ko'ryapsizki, To'maris bilan Oygul tabiatida o'zbek qizjuvonlariga xos mardononalik, tantilik, tadbirkorlik fazilatlari bo'rtib ko'rinadi. Ularning har ikkisidagi bu sifatlar ba'zi erkaklarga ham ibrat bo'lishi mumkin. Shu ma'noda bu qahramonlar ruhiyati, yurt ozodligi yo'lida olib borgan kurashi o'rtasidagi o'xhashlikka jiddiy ahamiyat bering.

«Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostoni, agar e'tibor bergen bo'lsangiz, juda ravon, qiyinchiliksiz o'qiladi. Buning sababi, asar 7 bo'g'inli she'r yo'lida yozilgani bilangina izohlanmaydi, albatta. Hamma gap – Hamid Olimjon qalami kuchi bilan qayta yaratilgan badiiy tilning xalq tiliga juda yaqinligi, bu til o'xshatish, jonlantirish, qiyoslash va yana boshqa juda ko'plab she'riy san'atlar ila mohirona bezalgani, boyitilganidadir.

Masalan, misralar oxirida keladigan ohangdosh so'zlar – qofiyallardagi bir tovush o'zgarishi orqali mazmun rang-barangligiga erishishni qator misollarda yaqqol ko'ramiz. Jambil elining qonxo'r xoni zulmga qarshi bosh ko'targan xalqqa rahbarlik qilgan keksa Darxonning boshini tanasidan judo qilib, uning go'zaq qizi Oygulga tikilishi:

Qizning oldida bu *xirs*  
Ko'rsatib yovvoyi *hirs*, –

deya tasvirlanadi. «Xirs» fors-tojik tilida «ayiq» degani bo'lsa, «hirs» – insонning qo'pol nafsi ifodalaydigan tushunchadir. Demak, xon o'zining jism-u joni bilan qo'pol, hissiz, yirtqich maxluqqa qiyos qilinsa, uning bokira Oygulga qarashida shunday tabiatli kimsalarga xos bo'lgan pastkash nazar mujassam etiladi.

Shu o'rinda bir muhim narsaga diqqat qilishingiz foydalidir. H. Olimjon yuqoridaq usuldan faqat misraning jozibadorligi, she'r bezagi uchungina foydalanmaydi. Balki asardagi har bir tashbeh ostida kuchli mantiq yotadi. Shoир o'z qahramonlari xarakteriga mos sifatlarni,

tasvirlanayotgan manzara yoki holatga uyg'un o'xshatishlarni topadi. Jumladan, yovuz xonning insoniy qiyofani yo'qotib, hayvonsifat kimsaga aylanib borishi butun asar davomida ko'z oldimizda yaqqol gavdalanadi. Muallif bu qarashni boyita borib, xonning qo'lga olinishini ham aynan hayvon saqlanadigan joyda «amalga oshiradi»:

Soqchilar zolim xonni,  
Bu ajoyib hayvonni  
Og'ilda ushladilar,  
O'luguay mushtladilar...

Dostondagi shunga o'xhash yana bir badiiy topilmaga e'tibor bering. Oygulning baliq qornidan topib olgan gavharini sotish uchun bozorga tushgan Baxtiyorning otasini ustomon savdogar «Cholni qo'ymay **holiga**, Olib chiqib **xoliga**» gaplashadi...

Hamid Olimjon xalq iboralari, maqollarini asari bag'riga tabiiy singdirib yuborgan. Masalan:

«Faryod chekkan jonini Qo'ymoqqa topmadi joy»,  
«Men ham qulman, qanotim Senikiday qirqilgan»,  
«Oy deganda yuzi bor, Kun deganda ko'zi bor»,  
«Yuzi gul, sochi sumbul – Bizning qayg'uli Oygul» va boshqalar.

Shoir bosh qahramonlar qiyofasini chizishda ham xalq og'zaki ijodi an'analariga sodiq qoladi, ularni yana-da sayqallaydi.

Mana, birgina misol. Siz bilan bizga doston voqealariga endi kirib kelayotgan cho'pon yigit Baxtiyor «tanimtirilmoqda».

Shoir avval boshdan yigitni «go'zal edi» deb ta'riflaydi. Lekin, bilasizki, «go'zal» sifati ko'proq qizlarga nisbatan ishlatalib, uni yigitlar ta'rifa qo'llash g'alatiroq tuyuladi. Xo'sh, unda Baxtiyorning «go'-zalligi» nimada edi? Shoir, o'z qahramonini bejiz bunday atamaganini o'sha misraning o'zidan boshlaboq asoslaydi. Baxtiyorning go'zalligi – uning metinday tanasiga chinorlar ham havas qilishida, bu yigit alpday tik turganida quyoshni ham o'zining zabardast gavdasi bilan to'sib qo'ya olishida, butun vujudida kuch va g'ayrat olovday lovullab turishida, so'zi va qarashlarida, qilayotgan mehnatida keskir qilichday irodaning kuchi yaqqol sezilib turishida. Shoir o'z qahramoniga bergen barcha ta'riflarini jamlab, uni Sharqning buyuk afsonaviy qahramoni

«Rustam kabi zo'r edi» deydi. Mana, Baxtiyorning chin go'zalligi nimada!

Biroq shunday pahlavon yigit zamonasi zayli bilan «xor edi, kambag'al, nochor edi». Mana shuadolatsizlik, hayotning shu «teskariligi» tufayli ham uni o'zgartirish, Baxtiyordek aslida baxt uchun tug'ilgan yigitlar va Oyguldek oy qizlarni chinakam baxtiyor yashashiga to'sqinlik qiladigan yovuz kuchlarga qarshi kurashish lozim edi. Qahramonlarimiz Oygul bilan Baxtiyor nafaqat o'zlarining, balki butun xalqning ozodlik va hurlik sari harakat qilishida rahnamolik ko'rsatadilar hamda shu yorug' niyatlariga yetishadilar.

Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostonini yaratish jarayonida orttirgan tajribalari uning keyinchalik bitgan «Zaynab va Omon», «Semurg», «Roksananing ko'z yoshlari» singari doston va balladalarida juda qo'l keldi. Shoир bu asarlarida ham bir-biriga o'xshamaydigan, turli xarakter va taqdir egalari bo'lgan inson qiyofalarini jonlantirdiki, ular bilan yuqori sinf adabiyot darslarida, albatta, tanishhasiz.

Iste'dodli ijodkor Hamid Olimjon, afsuski, juda disqa umr ko'rdi.  
U 1944-yil 3-iyul kuni Toshkent vilovatining Do'rmon qishlog'ida  
joylashgan «Yozuvchilar bog'i»dan shaharga qaytayotganda avtomobil  
halokatiga uchrab, yafot etdi. Shoirdan uning o'lmas she'r-u dostonlari,  
drama va ilmiy maqolalari bizga meros bo'lib qoldi.

### Savol va topshiriqlar

1. Hamid Olimjon shoир bo'lib yetishuvining eng muhim sabablarini kengroq izohlashga harakat qiling.
2. Hamid Olimjonga zamondosh yana qaysi ijodkorlarni bilasiz? Ularning ijodi va taqdiri to'g'risida eshitganmisiz?
3. Siz o'qigan ertak va afsonalarda bir-biriga o'xshash voqealar uch-raydimi? Bu o'xhashliklarning sababi nimada, deb o'ylaysiz?
4. Maktabingiz kutubxonasidan Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostonini topib, to'liq o'qib chiqing.
5. Xalqimizda «Uzukka ko'z qo'ygandek» degan ibora bor. Shu iborani Oygul bilan Baxtiyorga nisbatan ishlatsa bo'ladimi?
6. Oygul zolim podshoh qo'lidan qutulish uchun o'zini tashlagan daryo qaysi daryo bo'lishi mumkin?

7. Baliq qornidan tirik chiqqan Oygulning o'zi Baxtiyorning otasiga unga kelin bo'lmoq niyatida ekanini aytadi. Shu holatni qanday izohlaysiz?
8. Dostonning ravon o'qilishi nimalar hisobiga erishilganini misollar bilan ko'rsatishga harakat qiling.
9. Asarning qaysi qahramoni o'z ozodligi, baxt-u saodati yo'lida ko'proq harakat qiladi? Buning sababi nimada, deb o'ylaysiz?
10. Ertak-dostondan o'zingizga eng ma'qul bo'lgan lavhani yod oling. Uni sinfda o'qib berar ekansiz, Sizga yoqqan satrlarini izohlashga harakat qiling.

## *Nazariy ma'lumot*

### **ERTAK-DOSTON HAQIDA TUSHUNCHА**

Biz avvalgi darslardan ertaklarning nima ekanligi, ularning qanday turlari borligini bilib olgan edik. Siz «doston» degan so'zni eshitgan, ularni o'qigan ham bo'lsangiz kerak, albatta. Voqealarni ma'lum bir sujet asosida bayon qilib beruvchi yirik she'riy asarlar doston deb ataladi. Dostonlar yaratilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: xalq dostonlari va adabiy dostonlar. Xalq dostonlarining muallifi aniq bo'lmaydi. U baxshilar tomonidan kuyylanadi va og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tganda ba'zi bir o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Adabiy ertaklarning muallifi aniq bo'ladi, ya'ni ular shoirlar tomonidan ijod qilinadi.

Badiiy adabiyotda, xususan bolalar adabiyotida ertak-doston degan janrga ham duch kelamiz. Xo'sh, ertak-doston nima?

Nomidan ham ko'rinish turibdiki, ertak-doston o'zida ham ertaklarning, ham dostonlarning xususiyatlarini mujassam etadi. Ertak-dostonlar asosan shoirlar tomonidan yaratiladi. U mazmunan ertakka, shaklan esa dostoniga yaqin turadi. Ya'ni voqealar xuddi ertakdag'i kabi boshlama, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Ammo bu voqealar nasriy usulda emas, balki she'riy usulda bayon etiladi.

Ertak-dostonlar qanday ehtiyojdan kelib chiqib yaratiladi? Shoirlar har qanday ertakni ham she'rga solavermaydilar. Avvalo, bu ertakning sujeti juda qiziqarli, voqealar rivoji tarang bo'lishi kerak. Shoir uni o'z iste'dodi, dunyoqarashidan kelib chiqib, o'z davrining muammolariga moslashtiradi. Shuningdek, ijodkor ertak-doston yaratar ekan, unga asos bo'lgan ertak voqealarini she'riy usulda aynan bayon etib bermaydi.

Ertakdag'i voqeaga o'zidan nimadir qo'shishi, nimanidir o'zgartirishi, nimanidir tushirib qoldirishi mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, barcha ertak-dostonlar ham xalq ertak va afsonalari asosida yaratilavermaydi. Bu voqealarni shoirning o'zi o'ylab topishi, ya'ni hali xalq og'zaki ijodi yoki yozma adabiyotda ma'lum bo'limgan mutlaqo yangi asar yaratishi ham mumkin. Ertak-dostonlar ba'zan she'riy ertaklar deb ham ataladi.

Jahon adabiyotida Ubayd Zokoni, Aleksandr Sergeyevich Pushkin, Korney Chukovskiy, Samuil Marshak ertak-dostonlarning ajoyib namunalarini yaratganlar. O'zbek adabiyotida Abdulla Avloniy, Qudrat Hikmat, Zafar Diyor, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min kabi ijodkorlar ertak-doston janrining rivojiga munosib hissa qo'shdilar. Bugungi kunda ham ijodkorlar tomonidan diqqatga sazovor ertak-dostonlar yaratilmoqda.





# *Maqsud* SHAYXZODA

(1908–1967)



O'zbek adabiyotining XX asrdagi ulkan vakillaridan biri Maqsud Mas'um o'g'li Shayxzodadir. U 1908-yili Ozarbayjonning Agdash (Oqtosh) shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Otasining kasbi shifokorlik bo'lib, she'riyatni nihoyatda sevgan, farzandlariga ham adabiyotga muhabbat tuyg'usini singdirgan inson edi. Shayxzoda tug'ilgan shahrida maktab ta'limini olgach, Ozarbayjon poytaxti Bokudagi Oliy pedago-gika institutiga sirdan o'qishga kiradi. 1925-yildan muallimlik qila boshlaydi. 1928-yili u hurfikrliligi, ya'ni Ozarbayjoni mustaqil davlatga aylantirish haqidagi erkin fikrlari uchun ayblanib, Toshkentga badarg'a qilinadi. Ayni shu davrdan boshlab to'umrining so'ngiga qadar Shayxzodaning butun hayoti O'zbekiston bilan bog'lanadi. U avval turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida muharrir, 1935–1938-yillarda O'zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan hayoti so'ngigacha Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi bo'lib ishladi.

Shayxzodaning dastlabki ijod namunalari 1929-yildan e'lon qilina boshlandi. 30-yillarda shoirning «O'n she'r», «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Jumhuriyat» nomli to'plamlari dunyo yuzini ko'radi. Ana shu to'plamlari bilan Shayxzoda o'zbek adabiyotida o'ziga xos shoir sifatida tanildi va tan olindi.

Uning ijodi 40-yillarda, Ikkinci jahon urushi davrlarida ayniqsa avj pardalarga ko'tarildi. Butun insoniyatga tahdid solayotgan fashizmni yo'q qilish, hayotni, tiriklikni, shon-u sharafni saqlash, xalqni ruhan yengilmaslikka, matonatga da'vat etish shoirning o'sha yillari chop etilgan «Ku-

rash nechun», «Jang va qo'shiq», «Kapitan Gastello», «Ko'ngil deydiki» kabi to'plamlarining bosh mavzusi bo'ldi. Shu yillarda Shayxzoda ijodining yana bir mumtoz namunasi «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy dramasi yaratildi.

Siz tariximiz to'g'risidagi hikoyalardan yaxshi bilasizki, o'lkamizni XIII asrlarda Chingizxon qo'shinlari bosib olmoqchi bo'lganida, xalqimizning mard o'g'lonlaridan Jaloliddin Manguberdi dushmaniga qarshi qattiq kurash olib boradi. O'z vatani mustaqilligini saqlash uchun mardonavor turib jang qiladi. Mana shu tarixiy shaxs siymosi va shonli o'tmish sahfalarini badiiy haqqoniylig bilan tasvirlash «Jaloliddin Manguberdi» dramasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pyesa Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatrida (hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri) sahnalaشتiriladi. Botir lashkarboshi Jaloliddin siymosini sahnaga buyuk aktyor Shukur Burhonov olib chiqadi.

Shayxzoda urushdan keyingi yillar tinch hayot va yaratuvchilik zavqini tarannum etgan she'rlardan iborat «O'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak asr devoni» kabi to'plamlarini nashr ettiradi. 1957-yili qadim poytaxtimiz Toshkent haqida teran falsafiy va nihoyatda ehtirosli tuyg'ularga boy «Toshkentnomá» dostonini yozadi. Tarixiy mavzulardagi izlanishlarini davom ettirib, 1960-yilda «Mirzo Ulug'bek» tragediyasini varatadi. Bu asar o'zbek dramaturgiyasi rivojida juda katta o'rinn tutadigan pyesadir. Buyuk bobokalonimiz, dunyo falakshunos olimlari ichida e'tirof topgan, ulug' Amir Temurdan so'ng temuriylar nasabini olamga tanitgan Mirzo Ulug'bek siymosi asarda muhabbat va ulug'verlik bilan tasvir etiladi. Uning inson va shoh, shoh va olim, ota sifatidagi siymosi falsafiy teranlikda, badiiy baquvvat she'riy satrlarda ochib beriladi. Bu obrazni ham Shukur Burhonov katta mahorat bilan ijro etgan.

Mazkur asarlar yaratilishidan avvalroq, 50-yillarning boshlarida Maqsud Shayxzoda ham «qatag'on» siyosatining qurbanini bo'lib, «xalq dushmani» degan tuhmatlar bilan qamaladi. 50-yillarning o'rtalarida qatag'onchilik qoralanib, ko'p halol insonlar qatori Shayxzoda ham ozod etilgach, u irodasini bukmay, qizg'in ijod bilan mashg'ul bo'ldi. She'rlar, doston va dramatik asarlar bilan birga Shekspir, Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, Nozim Hikmat kabi jahon adabiyoti namoyandalari ijodidan tarjimalar qildi. Olim sifatida Alisher Navoiy she'riyati haqida chuqur ilmiy tadqiqotlar yaratdi.

Shoir 1967-yilning 19-fevralida xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan so'ng olti jildlik «Asarlar»i nashr etiladi. Mustaqillik yillarda marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topib, 2001-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi.

### **«ISKANDAR ZULQARNAYN» ERTAK-DOSTONI HAQIDA**

O'zbek adabiyotida she'riy ertak-dostonlar yaratish tajribasi boy tarixga ega. Folklor asarlarini, ya'ni xalq orasida og'izdan og'izga o'tib, keng tarqalgan ijod namunalarini shoirlarimiz tomonidan o'z dunyoqarashi va zamonasiga mos ravishda qayta ishlab, she'riy shaklga solish an'anasi Furqat, Abdulla Avloniy, Elbek, Qudrat Hikmat, Zafar Diyor kabi shoirlar ijodida uchraydi. Bu adabiy janrda, ayniqsa, Hamid Olimjon yuksak mohorat ko'rsatgan. Uning 30-yillarda yaratilgan «Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg» yoki Parizod va Bunyod» kabi ertak-dostonlari yosh kitobxonlar o'rtaida juda mashhurdir. O'z do'sti kabi Maqsud Shayxzoda ham xalqimiz o'rtaida keng yoyilgan «Iskandar Zulqarnayn» ertagini adabiy jihatdan qayta ishlab, uning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirib, she'riy shaklga soladi.

Milodgacha, ya'ni yangi kalendar bo'yicha hisoblangan hozirgi ikki ming yillik tarixga qadar bo'lgan davrlarda qadim Yunonistonda Aleksandr Makedonskiy nomli buyuk bir shoh-fotih o'tgan. U juda ko'p mamlakatlarni bosib olib, u yerdagi barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni talagan, odamlarni qul qilgan. U uzoq janglar qilib, hozirgi O'rta Osiyo yerlarini ham o'ziga bo'ysundirgan.

Uni, Yunonistondan bo'lgani uchun, O'rta Osiyo xalqlari Iskandar Rumiy deb ham ataganlar. Bu jahongir haqida turli rivoyat va ertaklar to'qiganlar. O'sha ertak va rivoyatlar Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' Sharq shoirlari ijodiga ham o'ziga xos ta'sir ko'rsatganki, u haqda og'zaki afsonalar qatori mazkur adiblarning teran falsafiy dostonlari ham yaratilgan.

Maqsud Shayxzoda aynan xalq tomonidan berilgan sifat – «Iskandar Zulqarnayn», ya'ni shoxli Iskandar haqidagi rivoyatni o'rganib, uni g'oyaviy va badiiy jihatdan boyitib she'riy doston yaratadi.

Unga ko'ra Iskandarning boshida shoxi bor ekan. Uni hech kim bilmas ekan. Qaysi sartarosh sochini olsa, ertasiga gumdon qilinlar ekan. Oxiri ish shungacha boribdiki, mamlakatda sartarosh qolmabdi. Oxirisini olib kelibdilar...

Iskandar unga debdi:  
— «Ustarangni tayyorla,  
Sochlaramni qirq — tashla,  
Ehtirot bo'l ham jiddiy!»  
So'ngra ochsa qalpoqni  
Sartarosh nima ko'rdi:  
Yorilib ketdi o'ti —  
Boshda ko'rdi qo'sh shoxni.  
Iskandar unga dedi:  
— «O'ldirmayman seni man,  
Yolg'iz qolding yurtda san,  
(Rostakam u toq edi),  
Biroq tiling tiymasang,  
Ayta ko'rsang sirimni,  
Go'rda ko'rigin yeringni,  
Tez juvonmarg bo'lasan!  
Nima qilsin bechora,  
Qo'lida bormi chora?  
Ko'nib qoldi noiloj...  
Har kun, har kun kelardi,  
Shu edi uning ishi,  
Dunyoda ikki kishi  
Mudhish sirni bilardi.  
Sartaroshning dilida  
Bu — bir dard, bu — yuk edi,  
Tog'lardan buyuk edi —  
Rostni ko'msang yurakka,  
Parchalab chiqar yana,  
Topib bir kun bahona,  
Qovushajak u erkka.  
Bir tun sho'rlik sartarosh  
Bir dalaga chiqipti,  
Har tomonga boqipti.  
Xilvat ekan tog'-u tosh,  
Bor edi bunda bir choh,  
Qadim chog'dan yodgor,

O't mish, keksa asrlar  
Karvonlarga qo'nimgoh.  
Atroflarin o't tutgan,  
Tubi suvsiz va quruq,  
Shunday qadim bir quduq —  
Ki, ajal ham unutgan.  
Usta o'zin shodlanib  
Choh labiga yiqtipi.  
Boshin chohga suqipti,  
Dilida hasrat yonib —  
Chohga bir so'z aytipi:  
— «Voydod, dunyolar shohi  
Iskandarning bor shoxi!»  
So'ngra tinchib qaytipti.  
Qo'rg'on qarab chopipti,  
Asta qochgan nomard deb,  
O'chdi dildan bu dard deb,  
Ko'ngli orom topipti.  
O'tib ketmish u chog'dan  
Ming yilliklar qush kabi,  
O'smir ko'rgan tush kabi.  
Chohni bosib tuproq-qum  
Bunda o'sgan g'arovzor,  
Qamishlar qator-qator  
Go'yoki lashkari Rum...  
Bir kun oshiq bir cho'pon  
Poda haydab yo'l bosib  
(Shu ekan taqdir-nasib!)  
Qamishlarga qiziqqan.  
Bir nozik va sarvqomat  
Qamishni yoqtiripti,  
Pichoq bilan qiripti,  
Nay qilay deb nihoyat,  
Uni kuyaq moslapti,  
Xullas, xo'p nay sozlapti.  
Nayni labga olipti,

Endi chalay deb g'azal,  
 Eshitsin dildor go'zal,  
 Hayhot, garang qolipti:  
 Bosilganda panjası  
 Naydagı pardalarga,  
 Zo'r berib o'pkalarga  
 Chiqmapti natijasi.  
 Faqat naydan bir ovoz:  
 «Voydod, dunyolar shohi  
 Iskandarning bor shoxi!»  
 Hadeb qilibdi parvoz...

Cho'pon hayron qolipti:  
 Iskandar emas ho'kiz,  
 Negadir boshda mo'giz?!  
 Gap har yon tarqalipti.  
 Shunday xizmat qilib nay  
 Ochilipti shoh siri,  
 Laqabning yana biri  
 To'qilipti ko'p o'tmay.  
 Iskandarni — «Zulqarnayn»  
 O'sha chog'dan hamma der,  
 Ya'niki — qo'sh shoxli er.

Asar muallifi mashhur rivoyatni she'riy shaklga solarkan, dunyoda hech bir yomonlik jazosiz qolmaydi, tuban ishlarni qanchalik yashirmang, u baribir bir kuni oshkor bo'ladi, degan ibratli g'oyani ilgari suradi. Bu fikrni biz ertakda sirni oshkor etgan nay misolida, uning mohiyatidagi ramziy ma'nodan anglaymiz. Nafaqat bu g'oya, yana o'z haddini bilmay, nafs balosiga berilgan, zulm, zo'rlik bilan ezgulikni mahv etib, o'z maqsadiga erishmoqchi bo'lgan yovuz kishilar pirovardida xalq la'natiga uchrab, avloddan avlodlarga yomon nom bilan o'tadi, har xil xunuk laqab orttirib mazax bo'ladi, degan fikr ham ertak-dostonning ibratli xulosasidir.

### *Savol va topshiriqlar*



1. Maqsud Shayxzodaning tarjimayı holini gapirib bering.
2. Shoirlarning qanday doston va she'riy to'plamlarini bilasiz?
3. Maqsud Shayxzodaning dramatik asarlaridagi tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar haqida so'zlab bering.
4. O'zbek adiblaridan yana kimlarning she'riy ertak-dostonlari Sizga tanish?
5. Sharq mumtoz adabiyotida Iskandar siymosiga qaysi shoirlar murojaat qilishgan?
6. Nega Iskandar Rumiyni Iskandar Zulqarnayn deb atashadi?
7. Asardan qanday ibratli xulosalar chiqardingiz?

# SHUKRULLO

(1921-yilda tug'ilgan)



## «UMR HAQIDA ERTAK» SHE'RI

So'nggi 10–15 yil oralig'ida e'lon qilingan «Javohirlar sandig'i», «Kafansiz ko'milganlar», «Tirik ruhlar» kabi nasriy asarlari bilan Sizga ham nomi tanish bo'lgan shoir va yozuvchi Shukrullo (Shukrullo Yusupov) 1921-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning otasi adabiyot va san'atga ixlosmand, jumladan, buyuk o'zbek shoiri G'afur G'ulom bilan yaqin tanish, suhbatdosh bo'lgan o'qimishli, ziyoli kishi edi. Asli kasbi emchilik bo'lib, umr bo'yi xalq tabobati bilan shug'ulangan.

Shukrullo maktab ta'limidan so'ng pedagogika bilim yurtida, Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirgi pedagogika universiteti) da tahsil oladi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, badiiy adabiyot nashriyotida ishlaydi. Uning «Baxt qonuni» deb nomlangan birinchi she'ri 1939-yilda e'lon qilingan. 40-yillarda shoirning ketma-ket «Birinchi daftar», «Qalb qo'shiqlari» to'plamlari, «Chollar» dostoni chop etiladi. Keyinroq «Hayot ilhomlari», «Umrim boricha», «Inson va yaxshilik», «Inson – inson uchun», «Ikki qoya», «Otash va gul», «26-tongotari» kabi yigirmadan ortiq she'rlar va dostonlar to'plamlari nashr etiladi.

Vatanni kuylash, uning bunyodkor, fidoyi farzandlarini ulug'lash, xalqlar do'stligi g'oyalari o'sha to'plamlarning asosiy mazmunini belgilagan. Agar bu xususiyatlar shoirning dastlabki she'rлarida juda bo'rtib ko'ringan bo'lsa, keyinroq, ayniqsa, 70–80-yillarga kelib «Zarralar», «Suyanchiq», «Yashagim keladi», «Sening baxting» kabi to'plamlarida

inson va xotira, odamiylik kabi teran ma'noli tushunchalar o'z she'riy aksini topdi. Misol sifatida quyidagi satrlarga e'tibor beraylik:

Shukr qil, nolima, tashvishim ko'p deb,  
Bilasanmi, tashvish tugaydi qachon?  
Tashvishing mo'l bo'lsa, orzularing ko'p,  
Orzusiz yashamas hech tirik inson.  
Harakatim ko'p deb zorlanma hech vaqt,  
Yer ham hech tinmaydi, tinsami... hayhot!..  
Intilish, izlanish, doim harakat,  
Shundan iboratdir tiriklik, hayot!

Shoir Siz – bolalar uchun ham «Bahor sovg'asi», «Yulduzlar» nomli kitoblar chop ettirgan. Uning «Xatarli yo'l», «To'ydan keyin tomosha», «Tabassum o'g'rilar», «O'g'rini qaroqchi urdi», «Janjal», «Unsiz faryod» kabi qator sahna asarlari O'zbekiston teatrlarida sahnalashtirilgan. Gyote, K. Gotsi, A. Blok, T. Shevchenko, A. Tvardovskiy, Q. Quliyev, Mustay Karim kabi jahon adabiyotining ko'plab vakillari ijodidan qilgan tarjimalari o'zbek o'quvchilari tomonidan iliq kutib olingan.

80-yillarda shoir «Asr bahsi» deb nomlangan dostonini e'lon qiladi. Bu asarda shoir Yer kurrasiga, butun insoniyatning taqdiriga xavf solayotgan urushni, atom, vodorod bombalarini, ya'ni butun tirik mavjudotni yo'q qilib yuboradigan qirg'in qurollarini yaratuvchi kishilarni qoralaydi. Buyuk ilmiy-texnik kashfiyotlar tinchlikka, buniyodkorlikka, hayotimizni farovon va obod etishga xizmat qilmog'i kerak degan fikrni badiiy obraslarda ifoda etadi.

Shu davrlarga qadar faqat she'r va dostonlar, she'riy pyesalar yozish bilan shug'ullangan shoir Shukrullo 80–90-yillarda badiiy(proza)sohasida tajribalar qilib ko'radi. Ustozlari va turli donishmandlar tilidan hikoya qiluvchi «Javohirlar sandig'i» asarini e'lon qiladi. Bu asar tezda shuhrat topib, turli tillarga tarjima etiladi. Birinchi tajribadan so'ng Shukrullo «Kafansiz ko'milganlar» deb nomlangan xotira qissasini yaratdi.

Qiziquvchan va zukko o'quvchilar televizor, kinoekranlarda, gazeta va jurnallarda «qatag'on» yoki «qatag'on qurban» degan so'zlarni ko'p bor eshitgan va o'qigan bo'lsalar kerak.

O'zbekistonimiz oq va qizil imperiyaning mustamlaka o'lkasiga

aylantirilgan bir yuz-u o'ttiz yil davomida xalqimizning o'z erki va ozodligi uchun kurashgan minglab asl o'g'lonlari – ma'rifatli, ziyoli zotlarni, turli sohalarda faoliyat ko'rsatgan halol insonlarni vaqtiga vaqt bilan yo'q qilib, qatag'on etish odad tusiga kirgan edi. Ularni otib, qamab, Sibir kabi uzoq sovuq o'ikalarga surgun etilib, qirg'in qilinardi. 50-yillarda ana shunday qatag'on qurbanlaridan biri bo'lgan Shukrullo Sibir lagerlarida o'zi ko'rgan dahshatli voqealarni qalamga oladi. Tuhmat va haqsizlik tufayli qamalib, qiyinchiliklarga chidolmay vafot etgan vatandoshlarini janozasiz, kafansiz chuqur xandaqlarga ko'mib yuborilganiga, xo'rliklarga guvoh bo'lgan adib, bor kechmishlarini badiiy haqqoniylig bilan tasvirlab beradi. Erksizlik vaadolatsizlikni qoralaydi. Kishilarni tarix saboqlaridan xulosa chiqarib olishga chaqiradi.

Xuddi shunday g'oyalar ilgari surilgan «Tirik ruhlar» romani Shukrulloning so'nggi yillarda e'lon qilgan asaridir. Unda XX asr boshlarida mamlakatimizda yuz bergen hodisalar, xalqimizni savodli, ma'rifatli qilib, o'zligini, o'z haq-huquqlarini tanib, siyosiy ozodlikka erishishi uchun kurashgan fidoyi ajdodlarimiz, xususan, birinchi o'zbek yuristi Ubaydulla Xo'jayev hayoti va faoliyati hikoya qilinadi. Bu mard insonning kurashlari tarixi va 30-yillarga kelib qatag'onga uchragan fojiali taqdiri tarixiy dalillar, hujjatlar va yozuvchining badiiy mushohadalari asosida yoritib beriladi.

Qadrli o'quvchi! Shoир va adib Shukrulloning hayoti, ijodi bilan qisqacha tanishganingizdan so'ng, endi mazkur muallifning aynan Sizlarga mo'ljallab yozilgan «Umr haqida ertak» asari ustida to'xtalmoqchimiz.

Bolalik – yoshligimda,  
Bobom aytardi ertak.  
Eshitardim zerikmay,  
O'yinlarni etib tark.  
Afsus bilan bobomning  
(Xotiramdan chiqmaydi),  
Umr haqida aytgan  
Ertagi u shundaydi:  
Bor ekan-da, yo'q ekan,  
Bir sayyoh bo'lgan ekan.

Ot-ulovsiz yursa ham,  
Ko'p yurtni ko'rgan ekan.  
Baliqday suzg'ich ekan  
Daryolardan o'tishda.  
Yamoq ham tikar ekan,  
Mohir ekan har ishda.  
Qancha yurtlarni kezib,  
Ozod xalqni ko'rmabdi.  
O'z baxtini so'zlagan  
Bir odam ham bo'lmabdi.

Umrini o'tkazibdi  
 Qutulmay oh-u zordan.  
 Nogoh chiqib qolibdi  
 Bir qabriston — mozordan.  
 Taajjubda qolibdi  
 O'qib qabr toshini.  
 Uchdan oshiq ko'rmabdi  
 O'lganlarning yoshini.  
 Birida der: bu dehqon  
 Umr ko'rgan yil yarim.  
 Bu odam bir oy yashab,  
 O'zi bo'lgan zo'r olim.  
 Har bir qabr toshida  
 Yoshini qilgan izhor,  
 Ammo sayyoh bu sirni  
 Tushunolmabdi zinhor.  
 Mozor shayxin chaqirib,  
 So'rabdi sababini.  
 Shayx boshin quyi solib,  
 Bayon etmish sirini:  
 Olti oylik dehqonning  
 Asl yoshi oltmishda.

Lekin har yil, har kuni  
 O'tgan g'am-u tashvishda.  
 Bu olim qirqda o'lib,  
 Umri o'tgan alamda.  
 Bir oygina erkinlik  
 Ko'ribdi shu olamda.  
 Erkinlikda o'tgan kun  
 Umr hisobdir, xolos.  
 Uch yoshdan ortiq umr  
 Ko'rgan odam yo'qdir, rost!  
 Shunda bechora sayyoh  
 Iltimos qilmish darrov.  
 Vasiyatimni aytay,  
 Agar bo'lsa bemalol.  
 Yetib baloyi qazo  
 O'lar bo'lsam men agar,  
 Qabr toshimga faqat  
 Shuni yozing, birodar:  
 Bu odam sayyoh bo'lib  
 Izlagan erkinlik, baxt.  
 Maqsadiga yetolmay,  
 Tug'ilib o'lgan bevaqt.

Bu mungli rivoyatdan anglashiladiki, inson yorug' dunyoda ko'p yillar sog'-omon yashashi mumkin, biroq bu umr faqat g'am-u tashvishda, qullik, xo'rlikda o'tsa, uni insoniy hayot deb bo'ladimi? Odamlar ozod, erkin vatanda yashasa, halol mehnat qilib bunyodkorlik bilan farovon hayotga erishsalar, shundagina yashadim deyishga haqlidirlar demoqchi bo'ladi shoir.

Shoir bobosining ertagi go'yo shu yerda yakun topganday tuyuladi. Biroq sayyoh o'z qismatidan alam chekib, yana hassasini qo'lga oladiyu, jahongashtalikda davom etadi. Uning taqdiri nima bo'lganini ertak-dostonning ikkinchi qismida bilib olamiz.

Yillar o'tib, bobo bilan nabira katta shaharni ko'rgani yo'lga tushadilar, tasodifan beli bukchaygan, qo'lda hassasi bilan bazo'r sudralib ketayotgan bir cholga duch keladilar. Yo'lda hamroh bo'lib, uning yoshi,

nima tashvishda yurganini so‘raganlarida, qariya birdan yig‘lab yuboradi. Ko‘p yillar dunyo kezib, necha kasb-u hunarlar bilan shug‘ullanib, baxt topolmaganligini, umri behuda o‘tganini hikoya qiladi. Shunda nabira bobosi aytib bergen ertakni eslab, o‘scha sayyoh chol qarshisida turganini anglaydi. Uni o‘z uyiga olib kelib, yuvib-taraydi va ozod, erkin hayot qurayotgan yurti bilan tanishtiradi. Sayyoh umri davomi izlagan jannatmakon yurt shu ekanini, erk-u ozodlik mana shu mamlakatda qaror topganini ko‘radi. Shu yerda yashab qoladi.

Shoir o‘z ertagini shunday quvonchli yakun bilan nihoyalar ekan, ozod yurtning baxtiyor odamlari uzoq yashaydi, shuning uchun hurlik va istiqlolning qadriga yetmoq, uni asrab, o‘z mehnatimiz, yaxshi ishlarimiz bilan uni mustahkamlamog‘imiz kerak degan xulosaga keladi. Inson o‘z umrini behuda, keraksiz narsalarga emas, aksincha, ezgu ishlarga, bunyodkorlikka, ulug‘ maqsadlarni amalga oshirishga sarflamog‘i lozimligini ta‘kidlaydi. Umr haqidagi ertakning ibratli sabog‘i mana shunda deb biladi.

### *Savol va topshiriqlar*

- 1. Shoir Shukrulloning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
- 2. «Umr haqida ertak» asarining mazmunini so‘zlab bering.
- 3. Ertak necha qismdan iborat va u qanday maqsadga ko‘ra qismlarga ajratilgan?
- 4. Sayyoh chol nima maqsadda dunyo kezadi? U o‘z izlagan narsasini topadimi?
- 5. Qabr toshlariga vafot etgan kishilarning aniq yoshlari yozilmaganini izohlang.
- 6. Ozodlik, erkin hayot, istiqlol degan so‘zlarni Siz qanday tushunasiz?





## Hans Kristian ANDERSEN

(1805–1875)



Bolalar, darsligingizning ertaklarga bag‘ishlangan qismida muallifi aniq ertaklar, ularni yaratgan adiblar haqida so‘z yuritgan edik. Darhaqiqat, jahon adabiyotidagi ertaknavis adiblar ijodi adabiyotning, ayniqsa, bolalar adabiyotining oltin xazinasi hisoblanadi. Hozirda asarlari bolalar va kattalar orasida qo‘lma-qo‘l bo‘lib kelayotgan Sharl Perro, Ernst Teodor Amadey Gofman, aka-uka Grimmilar, Vilgelm Gauf, Hans Kristian Andersen, Oskar Uayld, Aleksandr Pushkin, shuningdek, sevikli shoir va adiblarimiz Hamid Olimjon, Sulton Jo‘ra, Shukur Sa‘dullalar ana shunday ertaknavis ijodkorlardir. G‘arb adabiyotidagi ertakchi adiblar orasida daniyalik buyuk ertaknavis Hans Kristian Andersen alohida o‘rin tutadi.

Andersen 1805-yil 2-aprelda Daniyaning Odens shahrida kambag‘al etikdo‘z oilasiда dunyoga keldi. Andersen oilasi muhtojlikda kun kechiradi. Bo‘lajak ertakchining bolaligi muhtojlik va yupunlikda o‘tadi. Biroq yupun va nochor ahvoliga qaramay yosh Andersen ko‘proq o‘qish, o‘rganish payidan bo‘ldi. Otasi vafot etgach, o‘n to‘rt yoshli Andersen Daniya poytaxti Kopengagenga keladi. Bu yerda ham o‘qish, izlanishda bo‘ladi. Dastlab u teatrga qiziqadi. Bu sohada jiddiy shug‘ullanishga ahd qiladi. Aktyor bo‘lish rejasi amalga oshmagach, o‘zicha kichik-kichik sahna asarlari yozadi, ularni shahar teatrlariga taklif qilib ko‘radi. Kopengagen teatrlaridan birining direktoriga uning yozganlari ma‘qul bo‘ladi shekilli, u pyesalarni sahnalashtirmasa-da, qaysidir mulohaza bilan yosh muallifni qo‘llab-quvvatlashga qaror qiladi. Andersen uning tavsiysi

bilan teatrda stipendiya oladi va unga Lotin maktabida bepul tahsil olish huquqi beriladi. So'ngroq Andersen Konpengagen universitetida o'qiydi.

O'qish-o'rganishda suyagi qotgan yosh Andersen uzoq-uzoqlarga sayohat qiladi. U Yevropa, Osiyo, Afrikaning qator mamlakatlarida bo'ladi. O'zi uchun qiziq tuyulgan har bir narsani ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab ko'rmaguncha ko'ngli joyiga tushmasdi. Bundan tashqari, sayohatlari davomida zamonasining mashhur shoir va adiblari, san'atkorlari bilan uchrashdi. Gyugo, Balzak, Dyuma, Dikkens, Geyne, Rossini, Vagner, List kabi buyuk ijodkorlar bilan muloqotda bo'ldi.

1835-yilda adib o'zining birinchi virik asari — «Improvizator» romanini e'lon qiladi. Roman o'quvchilar orasida mashhur bo'lib ketadi. Biroq bu mashhurlik shundan keyingi muvaffaqiyatlar oldida hech narsa bo'lmay qoladi. Gap shundaki, adibning o'sha yili bosib tarqatilgan dastlabki ertaklar to'plami kutilmaganda unga katta shuhrat keltiradi. Boshda ertaklarini o'quvchilar yoqtirishiga o'zi ham ishonmagan yosh ertaknavis adib bu to'plamdan so'ng bolalar va kattalar birday qiziqib o'qiydigan ertaklar yaratishga qodir ekanligiga amin bo'ladi va bundan keyingi umrini ijodning shu sohasiga bag'ishlaydi. Unga yaratgan ertaklari olamshumul shuhrat keltirdi. «Bolalarga aytilgan ertaklar», «Yangi ertaklar», «Tarixlar», «Yangi ertaklar va tarixlar» to'plamlari Andersen nomini dunyoga mashhur qilib yubordi.

Jahon adabiyotida munosib iz qoldirgan ertakchi adiblar ko'p. Andersen o'shalarning biridir. Xo'sh, uning bolalar va kattalar uchun e'zozli ertaknavis ekanligining sababi nimada? Bu savolga javobni uning maftunkor ertaklaridan izlash kerak. Andersen ertaklari shunchaki xayoliy voqealar tasviri emas, aksincha, jonli hayot bilan bog'liq real hikoyalardir. Ularda real buyum va hodisalarga fantastik tus beriladi, jonlantiriladi, harakatga keltiriladi. Masalan, «Dyumchaxon», «Suv parisi», «Qor malikasi», «Bulbul» ertaklaridagi talqin jonli inson muhitiga yaqinlikda berilsa, «Bronza to'ng'iz», «Kumush tangacha» ertaklarida jonsiz ashyolar harakatga kelib, odamlarday so'zlaydilar, bu esa kishida qiziqish uyg'otadi. Va muhim, o'quvchi ertaklardan behisob zavq olishdan tashqari o'zi uchun kerakli xulosalar — qissadan

hissa chiqaradi, tarbiyalanadi. Ham zavq beradigan, ham o'nga toldiradigan chinakam hayotiy ertaklar yaratish an'anasi aynan Andersen ijodi bilan boshlandi, desak mubolag'a bo'lmas. Bu ertaklarda g'alamislik, ikkiyuzlamachilik, loqaydlik, kibr-havo, dangasalik va landavurlik, johillik kabi salbiy sifatlar tanqid qilinadi, rahmdillik, aqlilik, fidoyilik, sobitqadamlik, oqibatlilik singari ijobjiy fazilatlar ulug'lanadi.

Hans Kristian Andersen o'zining ajoyib ertaklari bilan hozirgi kungacha butun dunyoni lol qoldirib kelyapti. U yaratgan o'lmas qahramonlar adibga katta shuhrat keltirdi. Siz uning ertaklari sujeti asosida ishlangan kinofilmlar, sahna asarlarini ko'p ko'rgansiz. Dymchaxon, Irkit o'rdakcha, Bulbul, Kay, Gerda, Suv parisi kabi obrazlar so'insoniy orzular bilan xalq ertaklariga xos xayoliy sarguzashtlarning uyg'unlashib ketganligi tufayli barchamizning sevimli qahramonlarimizga aylangan. Eng yaxshi bolalar yozuvchilar uchun Andersen nomidagi Xalqaro oltin medalning ta'sis etilishi ham jahon jamoatchiligining buyuk ertakchiga hurmatining belgisidir. Bugun hassos ertakchining «Qor malikasi» va «Bulbul» ertaklari to'g'risida fikr yuritsak. Avvalo «Qor malikasi» haqida.

«Qor malikasi» Andersennen eng mashhur ertaklaridan biridir. Ertak bir jodugarning g'alati ko'zgu yasagani, bu ko'zguda barcha yaxshi, go'zal narsalar yomon, xunuk bo'lib ko'rinishi, barcha yaramas, xunuk narsalar esa aksincha, chiroqli, go'zal bo'lib ko'rinishi haqidagi voqeа bilan boshlanadi. Jodugarning shogirdlari bu ko'zguni butun dunyo bo'ylab olib yuradilar. Juda katta kashfiyat qilindi, endi dunyo butunlay yangicha ko'rindigan bo'ladi, deb jar soladilar. Bu bilan Andersen bir bema'ni, qabih narsa paydo bo'lsa va uning oldi olinmasa, u butun dunyoga, barcha odamlarga salbiy ta'sirini ko'r-satishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Darhaqiqat, jodugarning shogirdlari bu ko'zguni osmonga ham olib chiqmoqchi, ya'ni uni ilohiyglashtirmoqchi bo'ladilar. Biroq yovuzlikning umri uzoqqa cho'zilmaydi. Ko'zgu ham qancha yuksakka ko'tarilsa, shuncha qiyshayib boradi va oqibatda sinib, million-million bo'laklarga parchalanib ketadi. «Bir chimdim tuz bir xum asalni buzar» degan naql bor xalqimizda. Ana shu ko'zguning kichik bir zarrasi kimning ko'zi-yu yuragiga tushsa, shu kishi loqayd, sovuqqon, atrofdagilarga

befarq bo'lib qoladi. Uning ko'ziga barcha go'zal, yaxshi narsalar xunuk, yomon ko'rina boshlaydi.

Ertak qahramonlaridan biri Kayning ham yuragi va ko'ziga ana shu ko'zgu parchasi tushib qoladi. Natijada u buvisini masxaralaydigan, qo'ni-qo'shnilar ustidan kuladigan, chiroyli gullarni toptaydigan bolaga aylanib qoladi. Hatto hamisha o'zi birga o'ynaydigan do'sti — Gerda ismli qizchaga ham qo'polik qiladi. Kayning bu qiliqlarini ma'qul ko'rib, Qor malikasi uni shimoldagi o'z saroyiga olib ketadi.

Andersen bu yovuz, tuban, sovuqqon kuchlarga mehr-muhabbat, tirishqoqlik, ezgu maqsad yo'lida har qanday mashaqqatlarga dosh berish kabi yuksak tuyg'ularni qarama-qarshi qo'yadi. Gerda — ana shunday olajanob fazilatlarga ega bo'lgan qiz. U Kayni izlab borar ekan, yo'lida kishilar xotirasini zaiflashtirib qo'yadigan sehrgar bog'iga, hamma narsa to'kin-sochin bo'lgan shahzoda va malika saroyiga, har qanday yovuzlikdan qaytmaydigan qaroqchilar to'dasiga duch keladi. Lekin uning Kayga bo'lgan mehri, uni izlab topishga bo'lgan intilishi shu qadar kuchliki, sehr-jodu ham, to'kin-sochin hayot ham, o'lim dahshati ham uni o'z maqsadidan qaytara olmaydi. U dadillik bilan Qor malikasi saroyiga yetib boradi. Yo'lida unga qudratli qor lashkarlari qarshi chiqadi. Lekin qizcha o'z shijoati bilan tabiatning bu yovuz kuchlari ustidan ham g'olib chiqadi va Kayni topadi. Gerdaning muhabbat shu qadar haroratliki, uning ko'z yoshlari Kayning ko'ksiga tushib, uning yuragidagi ko'zgu parchasini eritib yuboradi, Kay yana o'z asl holiga qaytadi.

Ular o'z uylariga qaytishida hech qanday xavf-xatarga duch kelmaydilar. Chunki Kay ham, Gerda ham barcha mashaqqatlarni yengib o'tgan, jamiki yomonliklar ustidan g'alaba qilgan edilar. Endi ularning baxtli bo'lishga haqlari bor edi.

Andersenning ko'pgina ertaklarida tabiat manzaralari juda jonli, qahramonlar ruhiy holatiga mos tasvirlanadi. Masalan, Gerda Kayni izlab daryoda suzib borayotganida asov to'lqinlar uning hayotiga qanchalik xavf-xatar solsa, qirg'oqdagi dov-daraxtlar, qushchalar qizga shunchalik taskin-tasalli berib, uni jasoratga chorlagandek tuyuladi. Sehrgar ayoning bog'idagi gullab yotgan giloslar, quyoshning bu daraxtlar ortiga asta-sekin botib ketishi, bog'da anvoyi gullarning ochilib yotishini kuzatar ekanmiz, bunday maftunkor joyda har qanday kishi

ham Gerda kabi hamma narsani unutib yuborishiga ishonamiz. Qop-qora o'rmon, qaroqchilarning vahimali qarorgohi bizni ham dahshatga soladi. Ertak oxirida Kay va Gerdaning yana o'z bog'chalarida, atirgullar ostida qo'l ushlashib o'tirishlari, butun atrofda to'kin-sochin yozning hukmronlik qilayotgani juda chiroyli tasvirlangan. Har ikki qahramon qishning qor-quyunlarini, izg'irin-sovuqlarini yengib o'tib, tinch-osuda yoz fasliga yetib kelgan edilar.

Andersen ertaklarida hamisha hayotga muhabbat, har bir voqeahodisadan yaxshilik, go'zallik izlash ruhi ustun turadi. Masalan, Gerda borib qolgan bog'dagi sehrgar ayol unga yomonlik qilishni istamaydi, faqat shunday bir qizchani orzu qilgani uchun uni o'zi bilan olib qolmoqchi bo'ladi. Hatto Qor malikasi ham Kayni o'zining qandaydir jozibasi bilan maftun etadi, unga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Agar Kay muz bo'laklaridan «mangulik» degan so'zni yoza olsa, uni ozod qilishga, butun olamni unga baxsh etishga va'da beradi. Nega? Chunki barcha ezgu, oliyanob, go'zal narsalar mangudir. Aksincha, hamma yovuzliklar, qabihlik va razolatlar o'tkinchidir. Agar Kay ana shu yovuzlik va qabohatlarni yengib o'tib, ezgulik, go'zallikka erisha olsa, u mangulikka erishgan bo'ladi.

H. K. Andersen ijodidagi «Bulbul» ertagi ham buyuk ertakchi yaratgan go'zal asarlardan biridir. Bu ertakni go'zallik va ezgulikni ulug'lovchi, soxtalik va qabihlikni qoralovchi, uning inqirozi muqarrarligi haqidagi asar, desak yanglishmaymiz. Ertakning qisqacha mazmuni quyidagicha: Xitoy imperatorining qaramog'idagi bepoyon bog'ning to'rida bir sayroqi bulbul yashaydi. Bu mamlakatga kelgan xorijlik elchilar va sayyoohlар imperatorning g'aroyib chinni saroyi, jannatsimon bog'lari va undagi bulbul xonishidan zavqlanadilar, ayniqsa, imperator bog'idagi bulbulning kishini sel qilib sayrashi ularni hayratda qoldiradi. Kuylovchi qushchaning dong'i butun olamga mashhur bo'lib ketadi. U haqida qasidalar, kitoblar yoziladi. Faqat mamlakat hukmdori imperatorning o'z bog'ida shunday mo'jizakor qushcha borligini bilmas edi. U ham bulbul haqida xorijdan unga yuborilgan kitoblarni o'qib biladi, bundan avval ajablanadi, keyin esa g'azablanadi. O'z amaldorlariga bulbulni yetagidan bo'lsa ham topishni, aks holda barchalarini qattiq jazolashini aytib, farmon beradi. Bulbulni saroya taklif etadilar, uning sharafiga katta ziyofat beriladi va uning bemalol sayrashi uchun olindan qo'ndoq

yasaladi. Ziyofatga barcha to'plangach, imperator jajji qushga hurmat ko'rsatib sayrab berishini taklif qiladi. Bulbul shunday dilbar bir navo qiladiki, imperatorning ko'zlaridan duv-duv yosh kelib, yonoqlariga oqa boshlaydi. Qushning qo'shig'i yuraklarga jiz etib tegadi. Imperator xursand bo'lganidan o'zining oltin tuflisini mukofot qilib, bulbulning bo'yniga osib qo'yishga qaror qiladi. Bulbul mukofotni rad etadi. Jamoaga qarab: «Qo'shig'imni eshitganingizni o'zi men uchun mukofot. Imperatorning ko'zlaridan yosh oqqanini ko'rdim, menga bundan ortiq mukofot kerak emas», — deydi.

Kunlardan bir kun imperatorga paket olib kelishadi. O'ramning ustiga «Bulbul» deb yozilgandi. Imperator: «Bizning mashhur qushimiz to'g'risida yana yangi kitob chiqarishibdi-da», — degan o'nda qog'ozga o'rog'liq narsani ochsa, u kitob emas, g'aroyib bir quticha bo'lib chiqadi. Qutichaning ichida xuddi rostakam bulbulga o'xhash, biroq patlari-yu qanotlariga dur-u gavharlar qadalgan sun'iy bulbul bor edi. Bu qushning murvati burab qo'yilsa, rostakam bulbulning qo'shiqlaridan kuylab, oltin bilan kumushday tovlanayotgan dumini likillatib qo'yadi. Endi saroy ahli har ikkala bulbul qo'shig'ini tinglay boshlashadi. Ammo ish yurishmaydi. Chunki jonli bulbul har gal o'zicha yurakdan kuylar, sun'iy bulbul esa xuddi qo'g'irchoq sharmankaday faqat bir yo'sinda qo'shiq aytar edi. Saroy amaldorlariga faqat bir yo'sindagi qo'shiqni qayta-qayta takrorlaydigan sun'iy bulbul yoqa boshlaydi. Biroq imperator tirik bulbulni ham qo'shiq ayttiraylik degan istak bildiradi. Tirik bulbulni qidirib qoladilar. Ammo u g'oyib bo'lgani, yam-yashil o'rmon sari uchib ketganini hech kim payqamay qolgan edi. Imperator bulbulni ko'rnamaklikda ayblaydi, amaldorlar esa uni pastkash maxluq deya atashadi. Chunki ular jonli qushning ko'zdan g'oyib bo'lganidan ich-ichlaridan xursand edilar. Negaki, ular uchun tirik bulbulning qachon qanday kuylashini bilolmay xunob bo'lgandan ko'ra, sun'iy bulbulning oldindan nima haqida kuylashini bilib turishi bexavotirroq edi. Sun'iy bulbulning qo'shig'i mamlakatning barcha aholisiga eshittiriladi va u barcha uchun yod bo'lib qoladi. Hamma bir xil kuylay boshlaydi. Faqatgina kambag'al baliqchilargina bu qo'shiqda nimadir yetishmayotganini e'tirof etishadi.

Kunlardan bir kun sun'iy bulbulning ovozi o'chib qoladi. Uni bir amallab tuzatishadi va endi o'yinchoq qushga faqat yiliga bir marta qo'shiq ayttiradigan bo'lishadi.

Oradan besh yil o'tgach, imperator qattiq kasal bo'lib qoladi. Amaldorlar to'shakka mixlanib qolgan imperatordan xabar olish, unga g'amxo'rlik qilish o'mniga hukmdorning qazosini poylab, uni o'lida chiqarishadi. Biroq hali imperator tirik, u o'lim bilan olishib yotar, ko'kragida Azroyil o'tirib olgan edi. Unga na sun'iy qushcha, na saroy a'yonlari yordamga kelishga oshiqmas edi. Shu payt deraza ortidan ajoyib bir kuy yangray boshlaydi. Chinakam bulbul imperatorning og'ir kasal bo'lib, o'lim bilan olishib yotganini eshitib, unga dalda berish uchun uchib kelgan edi. Bulbul sayray boshlashi bilan imperator atrofidiagi ins-jinslar xiralashib ortiga chekinadi. Hukmdorning tomirlarida qon yurisha boshlaydi. Azroyil imperatorning toji, oltin qilichi va qimmat-baho davlat bayrog'ini qaytib berib, saroyni tark etadi. Imperator sog'ayib oyoqqa turadi va bulbulni yana taqdirlamoqchi bo'ladi. Biroq bulbul mukofotni tag'in rad etadi. Kuyching ko'nglini ko'taradigan oliv mukofot imperatorning hayajonli ko'z yoshlari ekanligi, u hukmdorni boshidagi toji uchun emas, qalbi uchun sevishini aytib, uchib ketadi.

Ertakning asosiy mazmuni shu. Mazkur ertak bilan to'liq tanishib, uning zamirida qanchalar chuqr ma'no yotganini yana ham teranroq anglaymiz.

E'tibor bersangiz, H. K. Andersen «Bulbul» ertagida ham, «Qor malikasi»da bo'lgani kabi, chinakam insoniy tuyg'ularni, yurakdan aytilgan so'zlarning mo'tabar ekanligini ta'kidlayapti. Soxtalikni, tilyog'lamalikni, sun'iylikni qoralayapti. Buyuk ertakchi insonning xatti-harakatidagi tabiiylik, fidoyilik, oqibatlilik har qanday to'siqni yengib o'tishi, mo'jizalar yaratishga qodirligini «Bulbul» ertagi voqealarini orqali isbotlay olgan. Ertak voqealarini sinchiklab kuzatadigan bo'lsak, bulbul chinakam san'atni tushuna olgan, undan ta'sirlanganini uchun imperatordan minnatdor bo'ladi. Hukmdorga sodiq do'st bo'lib qoladi. Ertakda ta'kidlanganidek, unga boshidagi toji uchun emas, insoniy dardni tushuna olgan qalbi uchun xayrixoh bo'ladi. Eng og'ir damda yordamga kelib, o'limdan qutqazadi.

«Bulbul» ertagi kishini qalbakilikdan, ikkiyuzlamachilikdan, yolg'onchilikdan qaytaradi. Inson qalbini tushunib yashashga, har bir narsadan go'zallik topa olishga undaydi.

## BULBUL

(*Ertak*)

Aziz o'quvchim, senga kunday ravshanki, Chin-mochin degan mamlakatning imperatori – shahanshoji ham, fuqarolari ham xitoylardan. Bu voqeа qadim zamonlarda bo'lib o'tgan, shunga qaramay, u butunlay unutilib ketmasdan turib, bilib olsang, albatta yaxshi bo'ladi! Shahanshohning saroyi dunyodagi eng yaxshi saroy ekan; chiroylikka chiroyli-yu, ammo juda nozikligidan biror yeriga qo'l tegizib bo'lmas ekan. Shahanshohning bog'ida eng anvoyi gullar o'sarkan, gullarning eng yaxshilariga kumush qo'ng'iroqchalar osilgan bo'lib, ular shabboda esganda jaranglab, sayr etuvchilarining e'tiborini tortib, bahri dilini ocharkan. Ana shunday ajoyib bog' ekan bu! Bog' uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketganidan oxiri qayerdaligini hatto bog'bonning o'zi ham bilmas ekan. Bog'ning bir tomoni qalin o'rmonga tutashib ketgan bo'lib, ichkarisida chuqur ko'llar bor ekan va o'rmon moviy dengiz yoqasigacha cho'zilgan ekan. Kattakon daraxtlarning suv uzra osilib turgan shoxlari ostidan kemalar o'tarkan. Ana shu daraxtlarning qalin shoxlari orasida bir bulbul yasharkan. Bulbul shu qadar go'zal sayrar ekanki, uning qo'shig'ini eshitib o'tirgan kambag'al baliqchi o'zining qayg'u-tashvishlarini va suvg'a solgan to'rini ham unutib yuborarkan. U kutilmaganda: «Yo Parvardigor, hayot naqadar yaxshi!» — deb uzun so'lish olar ekan. So'ng yana tirikchiligi esiga tushib, baliq tutish bilan mashg'ul bo'larkan. Ertasiga kechqurun baliqchi bulbul sayrog'ini eshitib yana: «Yo Parvardigor, hayot naqadar yaxshi!» — deb yuborarkan.

...Xitoy shahanshoji saroyiga yetti iqlimdan sayyoohlar kelib, hammasi g'aroyib chinni saroyni, jannatsimon bog'ni maqtashar ekan. Bulbul xonishini eshitishganida esa, sayyoohlar: «Bu yurtning eng yaxshi g'aroyiboti mana shu!» — deyisharkan.

Sayyoohlar o'z yurtlariga qaytib borishganida ko'rgan-kechirganlarini odamlarga gapirib berisharkan. Olimlar Chin mamlakati podshohining saroyini va bog'ini ta'riflay turib, albatta, bulbulni ham tilga olib o'tishar, hatto u diyorning eng yaxshi g'aroyiboti shu deyisharkan; shoirlar moviy dengiz bo'yida, o'rmonda yashovchi qanotli kuychini madh etib, ajoyib qasidalar yozisharkan.

Olim-u shoirlarning kitoblari jahon bo'ylab tarqalibdi va ba'zilari

Chin podshosigacha yetib boribdi. Chin podshosi o'zining oltin taxtida savlat to'kib, kitoblarni o'qib o'tirar, har daqiqa mammunlik bilan bosh chayqab qo'yardi, o'zining poytaxtini, saroyini, bog'ini maqtashgani unga yoqar edi-da. «Ammo hammasidan ham g'aroyib bulbul!» — degan gap bor edi kitoblarda.

— Nima, nima? — ajablandi podshoh. — Bulbul? Nega men uni bilmayman? Bu qanaqasi? Axir mening bog'imda shunday bir qush yashasa-yu nima uchun men bundan bexabarman? O'zimning bog'imdag'i qushni birovlarining kitoblaridan bilsam-a?

Shunday deb podsho o'zining xos a'yonlaridan birini huzuriga chaqirtirdi. Bu amaldor shunchalar o'ziga bino qo'yardiki, agar biror odam u bilan gaplashishga va biron narsani so'rashga jur'at qilsa, faqat «uf-f» deb javob berardi. Bu esa hech qanday ma'noni anglatmas edi.

— Aytishlaricha, bizning mamlakatimizda bir ajoyib qush bor ekan, uning oti bulbul ekan, — dedi podsho. — Ana shu bulbulni mening buyuk mamlakatimning eng yaxshi g'aroyiboti deb hisoblasharkan! Nima uchun bu qushning borligini biror marta menga aytmagansizlar?

— Xudo haqqi, men bu to'g'rida eshitganim yo'q! — dedi bosh vazir. — Hech qachon bunday qushni saroy a'yonlariga tanishtirmaganlar!

— Amrimiz shuki, bulbulni shu bugun kechqurunoq saroyimga keltiringlar! — dedi imperator, — u kuylab, bizni xushnud etsin! Menda qanday ajoyibot borligini butun dunyo bilsa-yu men o'zim bilmasam!

— Shunday qush borligini hatto eshitmagandim, — takrorladi bosh vazir. — Ammo endi uni albatta qidirib topaman!

Qidirib toparmish! Juda oson ekan-da?!

Imperatorning bosh vaziri zinalardan balandga chiqib, pastga tushib, xonama-xona, dahlizma-dahliz yugurib-yelib, uchragan har kimsadan bulbulni so'rab-surishtirdi, lekin hech uning daragini bilmadi. Birinchi amaldor imperator oldiga qaytib kelib: «Bulbul deganlari yo'q narsa, uni kitob yozuvchilar to'qib chiqarishgan», — dedi.

— Janob oliylari, kitobda nimaiki yozilsa, hammasiga ishonaver mang, boshqacha aytganda, bu ko'zbo'yamachilikdan boshqa narsa emas!..

— Lekin bu kitobni menga eng qudratli Yaponiston imperatori sovg'a qilib yuborgan, unda yolg'on gap bo'lishi mumkin emas! — e'tiroz bildirdi Chin imperatori. — Men bulbul navosini tinglashni xohlayman!

U shu bugun kechqurunoq huzurimda bo‘lishi kerak! Men unga oliv darajada xayrixohligimni bildirmoqchiman! Agar aytilgan fursatda bulbul shu yerga keltirilmas ekan, kaltak bilan hamma saroy a’yonlarining qorniga urdirajakman!

— Uf-fl! — dedi bosh vazir va yana zinalardan balandga chiqib, pastga tushib, xonama-xona, dahlizma-dahliz yugura boshladi; saroy amaldorining ko‘pchiligi uning orqasidan ergashib, yugura boshlashdi — axir hech kim qorniga kaltak yeyishni xohlamas edi-da! Hammaning tili uchida bir savol: butun dunyo biladigan, lekin saroyda biror jon zoti bilmaydigan qanaqa qush ekan u?

Nihoyat, oshxonada ishlaydigan bir qizaloqdan qushning daragini eshitib qolishdi:

— Yo, xudoyim. Bulbulni bilmaysizlarmi? Uning sayrashini eshit-maganmisiz? Men, bechora kasalmand oyijonimga tushlik ovqatdan qolgan-qutganlarni eltid berishga ruxsat olganman. Oyijonim shundoqqina dengiz yoqasida yashaydi. Men u yerdan qaytayotib, charchab qolsam, o‘rmonda maysalar ustida o‘tirib, maza qilib bulbul xoni-shini eshitaman! Shunday paytda ko‘zlarimdan duv-duv yosh oqadi, onajonim bag‘rida orom olayotganday, sevinib, ichimga sig‘may ketaman!..

— Oshpaz qizalog‘im! — dedi bosh vazir. — Agar bizga bulbul qayer-daligini ko‘rsatib bersang, seni saroy oshxonasiagi yaxshigina mansablardan biriga o‘mashtirib qo‘yaman. Imperatorning qanday taom yeyishini tomosha qilish uchun ham ruxsat olib beraman! Bulbul shu bugun oqshom saroyga taklif etilgan!

Shunday qilib, mansabdorlar oshpaz qiz yetakchiligidida o‘rmonga yo‘l olishdi. Saroyning deyarli barcha mansabdorlari bulbulni izlashga tushdi. Ancha yo‘l yurishganida dalada o‘tlab yurgan sigirning mo‘-mo‘lashini eshitib qolishdi.

— O! Bulbul degani shu ekan-da! — deyishdi yosh amaldorlar. — Shunday kichik jonivorning ovozi shu qadar kuchliligini qaranglar! Lekin biz bu qushning ovozini ilgariyam eshitgandaymiz!

— Sizlar sigirning mo‘-mo‘lashini eshitdinglar, — dedi qizaloq. — Hali bulbulning oshiyoniga yetganimiz yo‘q!

Yo‘lda hovuzdagagi qurbaqanining vaqillashini eshitib qolishdi.

— Naqadar ajoyib! — dedi saroy mansabdori. — Nihoyat, bulbul



ovozini eshitdim! Xuddi ibodatxonamizdag'i qo'ng'iroqlarning tovushiga o'xshaydi-ya!

— Yo'q, bular qurbaqalar! — dedi qizaloq. — Lekin endi bulbulning oshiyoniga yetay deb qoldik!

Nihoyat, bulbul sayrashi eshitila boshladi.

— Mana endi bulbul sayrayapti, — dedi qizaloq. — Eshitinglar, eshitinglar! Ana, bulbulning o'zi! Shunday deya qizaloq daraxt shoxida o'tirgan mittigina, jimitgina qushchani ko'rsatdi.

— Nahotki shu bulbul bo'sha! — dedi imperatorning bosh vaziri. — Uni chiroyliroq bir narsa deb o'yabman! Aft-angori juda oddiy ekan-ku! Chamasi, bir yo'la shuncha dongdor amaldorlarni ko'rganidan rangi o'chib ketdi shekilli boyoqishning!

— Bulbuljon! — deb qichqirdi qizaloq. — Oliyimmat imperatorimiz qo'shig'ingni eshitgilari kelib qolibdi!

— Juda yaxshi, — dedi bulbul va shunday ajoyib kuyladiki, eshit-ganlarni sel qilib yubordi.

— Xuddi chinni qo'ng'iroqlarning jarangiga o'xshaydi! — dedi bosh vazir. — Shunday jajji tomoqchaning titrashidan chiqqan tovushni qarang-a! Ajabo, uning qo'shig'ini ilgari eshitmagan ekanmiz-a! Bu qush saroyda juda katta obro' topadi!

— Imperatorga yana bir marta sayrab beraymi? — so'radi bulbul. U imperatorni shu yerda deb o'yagan edi.

— Ajoyib-g'aroyib bulbuljon, — dedi imperatorning bosh vaziri, — shu bugungi oqshomda saroyda o'tkaziladigan bayramga sizni lutfan taklif etish vazifasi zimmamga yuklanganidan o'zimni baxtiyor hisoblayman! Shak-shubha yo'qli, Siz g'aroyib qo'shig'ingiz bilan hazrati oliylarini maftun etgaysiz!

— Mening qo'shig'imni yam-yashil o'rmonda eshitish maroqli-roq, — dedi bulbul, lekin imperator uni qasrga taklif etganini bilib, jon dili bilan borishga rozi bo'ldi.

Imperator saroyida bayramga katta tayyorgarlik ko'rيلayotgan edi. Chinni devorlarda va oyoq ostida son-sanoqsiz oltin fonuslarning shu'lalari jimiraldi; uzun dahilzlarda shoxchalariga qo'ng'iroqchalar ilingan anvoysi gullar qator qilib qo'yilgandi. Xizmatchilarining yugur-yuguridan, taraqturuqidan va g'irillab esgan yelvizakdan jaranglayotgan qo'ng'iroqchalarining tovushi odamlarning ovozini bosib ketardi. Kattakon

zalning to‘rida, imperator taxtida o‘tirgan joyga oltin qo‘ndoq o‘rnatalgandi. Amaldorlarning hammasi jam bo‘lgan; oshpaz qiz ham eshik oldida turardi; endi unga saroy oshpazi degan unvon berilgandi. Bezakli liboslar kiyib, yasan-tusan qilib olgan hamma odamlar jajji, qoramtil qushdan ko‘zlarini uzmashi. Imperator ana shu jajji qushga hurmat ko‘rsatib, bosh irg‘ab qo‘yardi.

Bulbul shunday dilbar bir navo qildiki, imperatorning ko‘zidan duv-duv yosh kelib, yonoqlariga oqa boshladи; qushning qo‘shig‘i yuraklarga jiz etib borardi. Imperator xursand bo‘lganidan o‘zining oltin tuflisini mukofot qilib, bulbulning bo‘yniga osib qo‘yishga qaror qildi. Bulbul qo‘shig‘imni eshitganingizning o‘zi men uchun mukofot, deb oltin tuflidan bosh tortdi.

— Imperatorning ko‘zlaridan yosh oqqanini ko‘rdim — bundan ortiq mukofot bo‘lmaydi, — dedi bulbul. — Imperatorning ko‘z yoshida katta qudrat bor. Xudo shohid — menga bundan ortiq mukofot kerakmas!

Kunlardan birida imperatorga paket olib kelib berishdi. O‘ramning ustiga «Bulbul» deb yozilgandi.

— Bizning mashhur qushimiz to‘g‘risida yana bitta yangi kitob chiqarishibdi, — dedi u.

Lekin qog‘ozga o‘rog‘liq narsa kitob emas, g‘aroyib bir quticha ekan. Qutichaning ichida xuddi rostakam bulbulga o‘xshash, lekin patlari-yu qanotlariga dur-u gavharlar, marvaridlari-boshqa javohirlar qadalgan sun‘iy bulbul bor edi. Bu qushning murvati burab qo‘yilsa, rostakam bulbulning qo‘shiqlaridan birini kuylab, oltin bilan kumushday tovlanayotgan dumini likillatib qo‘yardi. Qushning bo‘yniga bog‘langan lentada «Xitoy imperatorining bulbuli oldida Yaponiya imperatorining bulbuli ip esholmaydi» degan yozuv bor edi.

— Naqadar ajoyib qush! — deyishdi bir og‘izdan barcha amaldorlar va shu zahoti Yaponiya imperatorining elchisini «Imperatorning favqulodda bulbullar yetkazib beruvchi vakili» degan unvon bilan mukofotlashdi.

— Endi ikkala bulbul birga kuylashsin, ajoyib duet bo‘ladi, — deyishdi amaldorlar.

Ammo ish yurishmadi. Jonli bulbul har gal o‘zicha kuylar, sun‘iy bulbul esa burama qo‘g‘irchoq sharmankaday faqat bir yo‘sinda qo‘sish aytar edi.

— Sun’iy bulbul aybdor emas, — dedi saroy kapelmeysteri<sup>1</sup>. — U sira adashmay bir xil pardada va men tuzgan usulda kuylaydi.

Sun’iy bulbulning o’ziga qo’shiq aytira boshlashdi, u rostakam bulbuldan ham ko’proq yodqi amaldorlarga, buning ustiga u juda chiroqli, la’l-u javohirlari tovlanib turardi!

Sun’iy bulbul bir qo’shiqni o’ttiz uch marta aytса ham charchamadi. Davradagilar shu qo’shiqni o’ttiz to’rtinchi marta ham maza qilib eshitishmoqchi edi, ammo imperator tirik bulbulni ham aytiraylik, degan istak bildirib qoldi. Lekin u g’oyib bo’lgan edi.

Tirik bulbul ochiq derazadan yam-yashil o’rmon sari uchib ketganini hech kim payqamay qolgan edi.

— Bu nimasi? Qanday ko’rnamatlik! — xafa bo’ldi imperator, shu zahoti barcha amaldorlar bulbulni ko’rnamat, pastkash maxluq, deb atashdi.

— Lekin, baribir, qushning sarasi bizda qoldi-ku! — deyishdi ular va sun’iy bulbulga boyagi qo’shig’ini o’ttiz to’rtinchi marta ham aytishga to’g’ri keldi.

Biroq sun’iy qush qo’shig’ining ohangini hech kim yodlay olmaydi, chunki yodda qoladigan ohang emas edi. Kapelmeyster sun’iy qushni ko’kka ko’tarib maqtar, uning yaltiroq libosi va dur-u javohirlaridan tashqari ichki tuzilishi ham ajoyib ekanligini hammaga uqtirar edi.

— Tirik bulbulga kelsak, hazrati oliylari va siz, muhtaram janoblar, — dedi u imperatorga hamda uning amaldorlariga qarab, — qachon qanday qo’shiq aytishini oldindan bilib bo’lmaydi. Sun’iy bulbulning esa qanday qo’shiq aytishini oldindan bilamiz! Hatto uning san’ati sirlarini ham bilish mumkin, bo’laklarga ajratib, ichki a’zolarining tuzilishini — g’ildiraklari va parraklari qanday joylashganligini, qanday ishlashini bilib olishimiz mumkin.

— Biz ham shu fikrdamiz! — deyishdi saroya yig’ilganlar. Kapelmeyster kelayotgan dam olish kuni sun’iy bulbulni xalq oldida namoyish qilishga ruxsat oldi.

— Bulbulimizni xalq ham eshitsin! — dedi imperator.

Xalq sun’iy bulbulning qo’shig’ini eshitib, ko’ngli to’ldi. Xalq to’yib choy ichganida ham shunday qoniqish hosil qiladi. Hamma hayratlanib,

<sup>1</sup> Kapelmeyster — xor va orkestr rahbari.

bir og‘izdan «O!» deyishdi va ko‘rsatkich barmoqlarini yuqori ko‘tarib, boshlarini liqillatib qo‘yishdi. Lekin chinakam bulbul sayrashini eshitgan kambag‘al baliqchilar sun’iy bulbuldan hayratlanishmadi:

— Umuman durust, hatto rostakam qo‘sinqqa ham o‘xshaydi, ammo nimasidir yaxshi emas. Uning qo‘sing‘ida nimadir yetishmaydi, nima ekanligini o‘zimiz ham bilmaymiz.

Tirik bulbulni esa davlatimiz chegaralaridan badarg‘a qilingan, deb e’lon etishdi.

Sun’iy qush imperator maxfili oldidagi ipak yostiqdan o‘rin oldi. Atrofiga esa temir bulbulga hadya qilingan barcha qimmatbaho narsalarni terib qo‘yishdi. Endi uni: «Imperatorning tungi dasturxonni paytidagi birinchi chapqo‘l kuychisi», degan sharaflı unvon bilan atay boshladilar. Negaki, imperatorning ham yuragi chap tomonda bo‘lgani uchun shu tomonni muhim hisobladi. Kapelmeyster sun’iy bulbul to‘g‘risida yigirma besh jildli kitob yozdi, bu kitoblarda Chin mamlakatiga xos olimona, eng murakkab tushuniksiz so‘zlar to‘lib-toshib ketdi.

Lekin saroy a‘yonlari, «bu kitoblarning hammasini o‘qidik va tu-shundik», der edilar, chunki shunday deyishmasa ularni ahmoqqa chiqarib qo‘yishlari va qorinlariga kaltak bilan urishlari turgan gap edi-da.

Shunday qilib, bir yil o‘tdi: imperatorning o‘zi, saroyning barcha a‘yonlari, hatto butun xalq sun’iy bulbul ashulasining har bir parchasini yodlab olishdi. Ularga qo‘sinq yoqib qolganidan, endi sun’iy qushga jo‘r bo‘lib kuylay boshlashdi. Ko‘chadagi o‘g‘il bolalar: «Vit, vit, vit! Vilik, vilik, vilik!» — deb kuylashardi. Imperator ham xuddi shunday kuylardi. Naqadar soz!

Ammo bir kuni kechqurun imperator to‘sakda yonboshlab yotib, sun’iy bulbulning qo‘sing‘ini eshitayotganida o‘yinchoqning ichida shirillagan, chiyillagan tovushlar paydo bo‘lib, parraklari pirillab aylanib ketdi va bulbulning uni o‘chib qoldi.

Imperator o‘rnidan sapchib turib ketdi va saroy tabibini chaqirib kelishga odam yubordi. Lekin bu asnoda tabibning qo‘lidan nima kelardi. Keyin soatsozni chaqirib kelishdi. Soatsoz usta o‘yinchoq bulbulning u yoq-bu yog‘ini sinchiklab ko‘rib, ko‘p urinishlardan so‘ng tuzatdi va «endi bunga juda ehtiyot bo‘linglar: parraklarining tishlari yeyilibdi, yangisini o‘rnatgan bilan avvalgiday qo‘sinq aytolmaydi», deb ketdi.

Falokatni ko'ring! Endi o'yinchoq qushga faqat yiliga bir marta qo'shiq ayttiradigan bo'lishdi. Bu qayg'uli hol bo'lsa ham kapelmeyster konsert oldidan qisqa, lekin murakkab ma'noli nutq so'zlab, «bulbulimiz avvalgidan ham yaxshi qo'shiq aytyapti», deb ishontirishga urinardi.

Ehtimol, shundaydir.

Oradan yana besh yil o'tdi, butun mamlakat g'am-tashvishda qoldi: «Xalqning sevimli imperatori o'lim oldida» degan xunuk xabar tarqaldi. Allaqachon, kim yangi imperator bo'lishini gapira boshlashdi. Ammo xalq ko'chalarda to'planib olib, birinchi amaldordan: «Qadrdon avvalgi hukmdorimizning sog'lig'i qanday?» — deya so'rab-surishtira boshlashdi.

— Uf-fl — deb javob berardi amaldor va faqat bosh chayqardi.

Imperator o'zining hashamatli maxfilida rangi ro'yi oqarib, qo'l-oyoqlari muzlab yotardi; saroyning barcha amaldorlari uni o'ldiga chiqarib, yangi imperatorga ta'zimga borishga oshiqardi. Qarollar u yoq-bu yoqqa yugurib, gap sotishar, cho'rilar bo'sh vaqtlarida maroq bilan choyxo'rlik qilishardi. Barcha zallar va dahlizlarga qalin gilamlar to'shalgan, odamlar tovush chiqarmaslik uchun oyoq uchida yurishardi. Oraga sovuq sukunat cho'kkandi. Lekin imperator hali tirik edi, u oyoqlari — ustunchalari oltindan yasalgan barqut pardalar yopilgan hashamatli maxfilida o'lim bilan olishib yotardi. Ochiq derazadan oy mo'ralab, imperatorga va o'yinchoq bulbulga qarardi.

Boyoqish imperatorning nafas olishga ham majoli qolmagan edi, nazarida kimdir ko'kragini bosib o'tirganday edi. U ko'zlarini ochib chindan ham ko'kragida Azroil o'tirib olganini ko'rdi. Azroyil boshiga tojini kiyib olgan, bir qo'lida hukmdorning oltin qilichi, bir qo'lida qimmatbaho davlat bayrog'i bor edi. Barqut pardalarning g'ijimplari orasida kimlarningdir g'alati aft-angorlari ko'rinaridi: bir xillari irkit va razil, boshqalari muloyim va chiroyli edi. Azroyil ko'kragiga chiqib olgan paytda imperatorning yaxshi va yomon ishlari ana shunday qiyofalarga kirib, uni yo'qlab kelishgandi.

— Mana bu ishing esingdami? — deb shivirlashardi ular galma-galdan va imperatorning umrida qilgan son-sanoqsiz yaxshi, yomon ishlarini yashirmay gapirib berishardiki, hukmdorning manglayidan sovuq ter chiqib ketar edi.

— Men bunday bo'lishini bilmas edim! — derdi imperator va sharpalarni quvishga urinardi. — Musiqachilarni chaqiring, musiqa



chalinglar! Kattakon xitoycha nog'oralarni olib kelinglar! Mana bularning gaplarini eshitishga toqatim yo'q!

Lekin arvoхlar o'z gaplaridan qolmas, Azroyil esa ularning gaplarini ma'qullab, xitoychasiga boshini liqillatib o'tirardi.

— Musiqachilarni chaqiring! Musiqa chalinglar! — deb qichqirardi imperator. — Aqalli sen qo'shig'ingni ayt, aziz, ajoyib tilla qushcha! Axir senga oltin, kumushlar, dur-u gavharlar hadya qildim, bo'yningga tilla kavushimni osib qo'ydim, kuylab ber, kuylasang-chi!

Lekin o'yinchoq qush jim turardi, uni kuylatish uchun murvatini burashga ham biror odam qolmagan edi. Azroyil imperatorga hamon ko'zi o'rnidagi katta-katta chuqurchalari bilan qarab o'tirardi. Xona suv sepganday jimjit edi.

Shu payt birdan deraza orqasida ajoyib bir kuy yangradi. Chinakam bulbul imperatorning og'ir kasal bo'lib, o'lim bilan olishib yotganligini eshitib, uni ovutish, dalda berish uchun uchib kelgandi. Bulbul sayrar, arvoхlar tobora xiralashar, imperatorning yuragida tez-tez qon yurishar edi. Hatto Azroyilning o'zi bulbulning nolasiga mahliyo bo'lib: «Kuyla, bulbuljon, kuyla!» — deb yalina boshladi.

— Kuylasam, oltin qilichni qaytarib berasanmi? Qimmatbaho bayroqni-chi? Hukmdorning tojini-chi? — so'rardи bulbul.

Azroyil qo'shiq sehri bilan boyagi qimmatli narsalarni birma-bir qaytarib bera boshladi. Bulbul esa hamon kuylardi. Nihoyat, u oq atirgullar va gulxayrilar muattar bo'y taratayotgan, yangi nish urib chiqqan maysalarni, tiriklarning o'lganlar uchun to'kkan ko'z yoshlari bilan sug'orilgan sokin, farahbaxsh qabriston haqida kuylay ketdi. Azroyil bu qo'shiqni tinglab, o'zining so'lim bog'iga mehri shunday tovlanib ketdiki, shu zahoti oppoq va sovuq tumanga aylanib, oynadan uchib chiqib ketganini arang sezib qolishdi.

— Rahmat senga, aziz qushcha! — dedi imperator. — Sen unutilmaydigan ish qilding! Seni davlatimdan badarg'a qilib, haydab yuborgan edim, sen esa menga hamla qilgan dahshatli arvochlarni, hatto Ajalning o'zini ham huzurimdan haydab yubording. Bu yaxshiliklaringni qanday qaytarsam ekan?

— Sen allaqachon qarzingni uzgansan! — dedi bulbul. — Huzuringda sayraganimda birinchi marta ko'z yoshlaringni ko'rdim — buni hech qachon unutmayman. Kuychining ko'nglini ko'taradigan oliv mukofot — hayajonli ko'z yoshlari! Lekin endi sog'aytiradigan, tetiklashtiradigan uyquga ketib, orom ol! Men bo'lsam seni qo'shiq aytib allalayman!

Bulbul yana sayrashga tushdi, imperator esa sog'lom, huzurbaxsh uyquga ketdi.

Imperator uyg'onganida, derazadan quyosh nurlari tushib turardi. Xizmatkorlaridan birortasi xabar olmas, hamma uni o'ldiga chiqargan edi. Faqat bulbulgina deraza raxiga qo'nib, hamon sayrardi.

— Bulbuljon, endi seni yonimdan sira ketkazmayman! — dedi imperator. — Endi o'zing istagan paytingda sayraysan, o'yinchoq bulbulni esa sindirib, parcha-parcha qilib tashlayman!

— Unday qilma! — dedi bulbul. — U ham qo'lidan kelganicha xizmat qildi. Mayli, o'yinchoq bulbul avvalgiday yoningda bo'lsin! Men saroyda yashay olmayman, axir! Faqat o'zim xohlagan vaqtimda huzuringga kelib turishga ruxsat bersang bo'ldi. O'shanda oqshomlari derazangga qo'nib qo'shiqlar aytib beraman. Qo'shiqlarim seni ham sevintiradi, ham o'ylantiradi. Men senga atrofingda yurgan baxtli va baxtsiz odamlar haqida, yaxshilik va yomonlik haqida qo'shiqlar aytaman. Jaijigina sayroqi qush har yerda uchib yuradi, sendan uzoqlarda yashaydigan kambag'al baliqchi va dehqonlarning kulbalariga ham uchib kiradi. Men seni boshingdag'i tojing uchun emas, qalbing uchun sevaman. Lekin, baribir hukmdorlik toji qandaydir muqaddaslik nuriga

yo‘g‘rilgan! Uni pok saqla! Demak, huzuringga keyin ham kelib turaman! Faqat bir narsaga va‘da ber!..

— Aytganing bo‘lsin! — dedi imperator o‘zining bor savlatini namoyish qilib. Bu orada u o‘zining imperatorlik liboslarini kiyib, og‘ir oltin qilichini ko‘ksiga bosib turardi.

— Faqat bir narsani iltimos qilaman! — dedi yana bulbul. — Fuqarolaring ahvoli to‘g‘risida bor xabarlarni aytib turuvchi jajji qushchang borligini hech kim bilmasin. Shunday bo‘lgani yaxshi!

Bulbul shularni aytib, uchib ketdi.

Xizmatkorlar imperatorning o‘ligini ko‘ramiz, degan o‘yda saroyga kirishar ekan, ostonada to‘xtab, hang-u mang bo‘lib qolishdi.

Imperator esa ularga:

— Salom! — deya peshvoz chiqdi...

### *Savol va topshiriqlar*



1. Hans Kristian Andersen hayoti va faoliyati haqida nimalar bilasiz?
2. Andersen qalamiga mansub ertaklar o‘zining qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
3. Andersengacha va uning davrida yashagan qaysi ertaknavis adiblarni bilasiz?
4. Andersen nomida qanday mukofot ta’sis etilgan?
5. O‘zbek adabiyotida ertaknavis sifatida tanilgan adib va shoirlarni bilasizmi?
6. «Bulbul» ertagini qisqacha mazmunini bayon qiling. Undagi qahramonlarni tavsiflang.
7. «Bulbul» ertagida sun’iy bulbul va chinakam bulbul obrazlari orqali adib nima demoqchi bo‘lgan?
8. Chinakam bulbul nega imperator mukofotidan bosh tortdi?
9. Saroy amaldorlari xatti-harakatlarida qanday salbiy tomonlarni ko‘rdingiz?
10. Imperator o‘lim to‘sagida yotganda chinakam bulbul qaytib kelib o‘z qo‘sиг‘и bilan unga jon bag‘ishlaydi. Bulbul o‘zining bu yaxshiligini qanday izohlaydi?
11. «Bulbul» va «Qor malikasi» ertaklarini qiyoslab o‘qing.
12. «Bulbul» ertagi asosida yozma ish tayyorlang.

## Abdulla QODIRIY (1894–1938)



### Aziz o'quvchi!

Siz bu nomni ko'p eshitgansiz. Balki buvilaringiz yoki ota-onangiz muqovasiga «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» deb yozilgan kitoblarni Sizga ko'rsatishgandir, ularning ayrim voqealarini hikoya qilib berishgandir.

Televizor ekranlarida, gazeta va jurnallar sahifalarida Abdulla Qodiriy asarlari asosida ishlangan badiiy va videofilmlarni, adibning o'zi haqidagi hujjatli filmlarni tomosha qilgansiz, maqola va xotira hikoyalarni o'qigansiz. Uyingiz va mакtab kutubxonasining kitob javonlarida eng ko'rimli joyda o'sha kitoblar terib qo'yilganini, ma'naviyat xonalari, adabiyot sinflarida yozuvchining katta-kichik suratlaridan iborat plakatlar osig'liq turganini ko'rgansiz. Juda bo'limganda, o'zingizning ismingiz yoki do'stlaringiz ismlari Otobek, Kumush, Anvar yoki Ra'no bo'lishi mumkin. Shuning o'ziyoq Sizni ulug' o'zbek adibi Abdulla Qodiriyga daxldor ekanligingizni, uning kenja avlodlaridan ekanligingizni anglatadi.

Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrining Samarqand darboza mavzeyida «bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada...» tug'ilgan. U dastlab eski usul maktabda, so'ng yangicha xatsavod chiqaradigan rus-tuzem maktabida o'qiydi. 12 yoshlarida bir boy savdogarga xizmatga yollanib, yozuv-chizuv ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Shu davrlarda Rossianing turli shaharlaridan keladigan va bevosita Toshkentning o'zida ham milliy ziyyolilar tomonidan nashr etiladigan gazeta va jurnallar bilan tanisha boshlaydi. Mana shu o'qib, o'rganganlari

ta'sirida o'zi ham ma'rifatparvarlik g'oyalarni tashuvchi, qoloq tur-mushni, bid'at va xurofotni tanqid qilib, ilm olishga, taraqqiyotga chorlovchi she'rlar, hikoyalar yoza boshlaydi. Uning «Ahvolimiz», «To'y», «Millatimga bir qaror!», «Fikr avlagil» she'rlari, «Baxtsiz kuyov» pyesasi, «Juvonboz», «Uloqda» hikoyalari 1913–1916-yillar oralig'ida yozilgan va e'lon qilingan ilk asarlardir. Bu asarlarning aksariyati Julqunboy taxallusi bilan chop qilingan.

Abdulla Qodiriy 1918-yillardan boshlab turli idoralarda ishlaydi, gazeta va jurnallar tahririylarida xizmat qiladi. 1924-yili Moskvaga borib, jurnalistlar tayyorlaydigan institutda tahsil oladi.

20-yillar yozuvchining eng ko'p ijod qilgan davridir. 1922-yilda uning «O'tkan kunlar» romani e'lon qilina boshlaydi va 1925–1926-yillarda har bir bo'limi uchta alohida kitob holida nashr etiladi. Shu yillar yana «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat ta-jang nima deydi?» hajviy asarlari, 1928-yili «Mehrobdan chayon» tarixiy romani va o'nlab kichik hikoya va ocherklari e'lon qilinadi. 30-yil-jarda zamonaviy mavzudagi «Obid ketmon» qissasi yaratiladi, yana ko'plab hikoya, ocherk, publisistik maqolalar yozadi. Gogol, Chexov kabi rus va g'arb adabiyotining turli namoyandalari asarlardan tarjimalar qiladi. «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o'g'ri» nomli romanlar yozish uchun ijodiy tayyorgarlik ko'radi. Biroq 1937-yillarga kelib yana avj olgan qatag'on siyosati milliy ziyyolilarni – xalqning o'zligini tanitishga xizmat qiluvchi adib, shoир, olim va muallimlarni, boshqa ko'plab soha kishilarini qurbon qila boshlaydi. Ana shu to'lqinda Abdulla Qodiriy ham «xalq dushmani» degan tuhmat bilan qamoqqa olinib, uzoq qyinoq va so'roqlardan so'ng 1938-vil 4-oktabrda otib o'ldiriladi.

XX asrning 50-yillari oxiri – 60-yillarida Abdulla Qodiriy nomi oqlanib, asarlari nashr etila boshlaydi, filmlar suratga olinadi. Lekin adib asarlardagi hurfikrlilik, o'z yurtini mustaqil ko'rish orzulari, Rossiya istibdodini qoralash g'oyalari qaychilanib, qisqartirib tashlanadi. Faqt-gina yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng bu asarlar asl holida to'liq nashr etildi, adib haqidagi tarixiy haqiqatni ochiq-oshkora bayon etgan kitoblar, maqolalar bosildi, filmlar yaratildi. Abdulla Qodiriy birlinchi bo'lib Mustaqillik ordeniga munosib ko'rildi. Alisher Navoiv nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Nomi abadiylashtirilib, haykallari barpo etildi. Bu o'zbek xalqining o'z buyuk farzandi xotirasiga hurmati bo'ldi.

## ULOQDA

(*Hikoya*)

### I

Kecha dadamdan so'rag'anim uchun bu kun akam ham: «Kerak emas, borma!» degan so'zini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonag'a yugurdim. Orqamdan: «Oyog'ing olti, qo'ling yetti bo'lub qoldi-a!» deb dadam bilan oyim kulishub qolishdilar. Qashlog'ichni oldimda, qora qashqamni qashlay boshladim. Jonvor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydir, yer tepinadir, dum silkitadir. Shuning ila manim ko'nglimga: «Xudo xohlasa, kelar yilga biror uloqlar chopayki, hamma mani «Turg'un chavandoz» deb yurutsunlar, degan tilaklar tushadir.

Endi toycham juda ham gijinglar, xudda to'ralarnikidak bo'lib ketkan edi. U yoq-bu yog'ini tozalab, ustunga qantarib qo'ydim. Endi qoldi: oq jujuncha kamzulni, o'ruscha shimni, amirkon etukni, duxoba to'ppini kiyish... Ana shundan keyin otqa minsak, chin to'racha bo'lamiz.

Xizmatchidan otni olub mindim. To'nimning etaklarini yig'ishtirub, bir-iki berib edim, qashqacham shatoloq otub ketdi. Xizmatchining: «Xab barakalla, chavandoz!» degan so'zini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, qashqacham tushkur ko'tarib ketayozdi.

Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotib edim, bir to'da uloqchi chavandozlar kelib qo'shildilar. Ularning ba'zisi akamning oshnalari bo'lg'ani uchun man bilan so'rashdilar. Ulardan biri akamni so'rab edi, men:

- Ertalab uloqg'a ketdi, — dedim.
- Ul kulub oshnalarig'a:
- Bizning Mahkamboy uloqg'a juda ham ishqiboz-da! — dedi. Yana biravi mandan:
  - Yo'l bo'lsun, boyvachcha? — deb so'rag'an edi, men uyolinqirab:
  - Uloqg'a! — dedim.
  - Besh-oltisi birdan: «Barakalla, chavandoz, barakalla, Turg'un chavandoz!» dedilar. Ularning «chavandoz» degan so'zлari menim juda xushimga kelib, ichimdan «Otangg'a rahmat», deb qo'ydim.

Biz, bir durkum otliq, boramiz. Ular o'tkan-ketkandan so'zlashib boradilar. So'z urunib, yana Mahkam akam to'g'risig'a taqaldi.

— Shu choqg'acha ko'b uloqchi ko'rdum, lekin Mahkamdan uloqg'a serzavqini ko'rmadim.

Sobir tegirmonchining o'g'li To'g'onboy:

— Mahkam boyvachchaning ota-bobosi uloqchi bo'lub kelgan-da! (Meni ko'rsatib.) Axir, o'n ikki yashar ukasini ko'rmaysizmi, halitdan uloq chopmoqchi! — dedi.

Bu so'zga manim butun tanam jimirlashib ketdi va kulayozdim.

Yana bir mo'ylabi shopdak yigit:

— Dadam Mahkamning bobosining uloq chopishini gapura bersa, kishi hayron qoladir: yuz-ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg'uz uloqni ajratub chiqar ekan!

Yana birisi:

— Ul vaqtning odamini uloqning piri desangiz-chi! — dedi.

Man bo'lsam, bobom maqtovini eshitib, g'ururlanub boraman. Orqadan ot shatolog'ini eshitib, ortg'a qayrilub edik, oldig'a bir ola echkini o'ngargan, ko'kragi ochiq, yaxtakchan, saman otliq bir yigitni ko'rduk. Ul bizga yetib, to'xtadi. To'g'on aka kulumtsirab:

— Bu hafta ko'maklashasiz-da, karvon, — degan edi, u:

— Sizdek og'aynilarga ko'maklashmasdan bo'ladimi! Qani, to'x-tamanglar, — dedi.

Yurub ketdik. Bir oz yo'l borg'ach, haligi yigit tuzimsizlana boshlab otig'a qamchi berdi. «Man tezroq boray», deb otini choptira ketdi. Endi so'z haligi oldig'a uloq o'ngarganning oti to'g'risida boshlandi. Boybachchalardan birisi:

— Valadning oti juda ham chopqur-de, uloqchi bo'lg'aningga yarasha shundaqangi oting bo'lsa! — dedi.

Boyagi mo'ylabi shopdakning:

— Bodirarafdeklar uchadir, — deyishi hamon birdan boshqalar kulushub yubordilar.

Kulgiga uning o'zi ham birgalashdi.

### III

Akamga M... guzarida uchrashdik.

Anchagina yo'l borg'andan so'g'un u chopilaturg'an yerga yetdik; huvv... to'rt tomoni ko'z ilg'amayturg'an darajada ulug' bir qir ekan. Munda uloqchi otliqlar ila tomoshachi yayovlarning had-hisobi yo'q edi.

Katta sadaqayrag'ochning tegida ikki zo'r samovorg'a o't qalab qaynatadirlar. Undan nariroqda bir-ikki kishi uch-to'rt qop bodringni bir-biriga suyab, «Mirzaqiron bodring, kasir-kasir bodring!» deb maqtashadirlar. Akamlar sadaning ostig'a—choyxonag'a otdan qo'nishdilar. Kun qizig'ida turish qiyin bo'lg'ani uchun man toy-chamdan tushmasam-da, sadaqayrag'ochlarning bir bag'rig'a borub turdim.

Yonimdag'i kishilar to'zimsizlanib, uloqning boshlanishini kutadirlar. Birisi: «Bu kun uloq qizimaydir», desa, ikkinchisi: «Yo'q, bu kun uloq juda ham qiziyidir. Salim chavandoz bilan Murod ham kelar emish!» — deydir. Yana oradan birov:

— Ha-ha! Agar ular kelsa, uloq qizimay qolmas. Salimning oti qozoqi ot, qamchi ko'tarmaydir, «hayt» desa, bas!

— Ular uch kishi edi, ikki yildan beri biri ko'rni Miy boshladи, ana shunisiga to'g'ri kelmas edi!

— Ha-ha, man ham ko'bdan beri ko'rmayman: girdig' umdan kelgan qora to'ruq yigit edi-a?

— Bali-bali, otangg'a rahmat! Ana, o'sha yigit, shuncha so'roqlasamda, anig'ini bilmadim!

— Shu yigiting, to'g'risi, anchagina janjalg'a-da sabab bo'ldi. Birovi: «O'lub ketkan!» — desa, ikkinchisi: «Tirik!» — deb, qichqiradir, munga kimdir birisi qarshi tushub: «Ot boskan, do'xturxonada o'lgan!» — deydir. So'firog'i: «Birovga yomon nafas qilmanglar!» — desa, allakim: «O'lسا-o'lгандир, бунга нима janjal?!» — deydir. Tag'i birov: «Bekor ham o'lturubbiz-da!» deb kuladir.

Tag'i: «Sirasi-sirasi!» Tag'i shovqun-suron, tag'i: «Ha-ha!» «Yo'q-yo'q!» Bir kishining: «Ana, uloq keldi!» — deb yuborishi bilan hamma tib-tinch bo'lub, xalq uloqg'a qariy boshladи. Tag'i birozdan keyin: «Ulog'i 10 yosh ekan!», «Shunisi tuzuk, shunisi!» — degan so'zlar boshlang'an ham edi, maydonga ikki chavandozning ot o'ynatib kirishi oradag'i tovishlarni o'chirdi. Sekin-sekin: «Salim bilan Murod chavandoz», — degan shivirlashuvlar maning ham diqqatimni shu ikki otliqg'a jalb etdi. Ularning birisi ko'k, ikkinchisi ola otqa mingan chapan yigitlar edi. Endi tomoshachilar uloqni to'zimsizlanib kuta boshladilar. Xalq ichidan allakim:

— Ana endi chin uloq ko'rasan! — deydir.

↑ Bizning mahalladagi uloqchilar ham kelishdilar. O'rtoqlarimdan Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqlar ham bor edi. Ular mening yonimga kelishdilar.

Nurxon dadasidan ola yo'rg'ani so'rag'anda, qilg'on bahonasini aytub kuladir. Haydar soqov saman otining yo'lida Shokir mishiqlining baytaliga kishnaganini aytib, Shokirni masxara qiladir. Kulishamiz. Shokir mishiqli burnini torta-torta: «Uyalib ketdim. Mundan so'g'un biya minmayman», deb qizarib-bo'zaradir.

Otimning umildirug'iga ularning havaslari kelub, bahosini so'rashadirlar, man: «O'n besh tanga», deb kumush qamchini ham ko'rsunlar uchun o'ynagansumol egarning qoshig'a taq-taq urib qo'yaman. Ular: «Qani-qani, deb qo'limdan olub ko'radirlar. Man sekingina boshimni qimirlatub, o'zimda allanima sezinaman. Ularning otlarig'a — o'zimnikiga, kiyimlariga — kiyimimga qarab, o'zimni ulardan allaqancha yuqorida ko'raman. Haydar soqov tutila-tutila: «Kelinglar, bir choptirayluk», — dedi. Nurxon ko'nmasa ham yuganidan tortub olub ketdi. Chidab turib bo'lmas ekan: ularning ketidan qora qashqamg'a bir-ikki achchig' qamchi berub yuborishim bormi, jonvor o'n odumida ularni yo'lida qoldirib ketdi. Anchag'ina uzoqlab, ortimdag'i xalqg'a qarab edim, ko'zlari manda ekan, yana qattig'roq haydadim. Qirning bir chekkasiga borib, otni to'xtatdim. Bir talay vaqtdan keyin ular otlarini lo'killatishib manga yetdilar. Bu yerda otlarimizning chopqurlig'i to'g'risida so'zlashdik. Nurxon otining chopmaslig'ig'a akasining issiq holda suv bergenini sabab ko'rsatadir. Haydar soqov bo'lsa, Eson ko'knorining o'g'lini so'ka-so'ka:

— Bozorg'a un uchun borayotqanimda, bexos tom boshidan guvala tashlab yubordi. Otim shundan beri qamchi birla yuz ming ursang ham, qulog'ini chimirib, hurkub turadir! — deb so'kinadir.

Manim otim to'g'risida Haydar aytadi: «Saning, — deydi, otingg'a hech ot bolasi yetmaydi...», — deydi. Nurxon aytadi: «Otdan saning baxting bor ekan», — deydi. Shu yerda uzoqqina so'zlashib turg'an dan so'ng yana otni keying'a qarab qo'ydiq. Tag'i ulardan o'zib ketdim. Xalqg'a yaqinlashg'ach, «Mani ham tanib qo'ysinlar-chi», — deb toyimni qitnab yuborishim bormi, shomol-de, shomol... Endi xalq bir o'zimga, bir qora qashqamg'a tikila boshladi. «Mana, endi taniysan», — deb toyimning yolini qamchi sofi bilan tarab tura berdim.

Juvir-juvir boshlandi. O'rtoqlar bilan biz to'zimsizlanib, uloq boshlanishini kutamiz.

Chavandozlarning qaysisi to'nini chechmakda, qaysisi otining ayilini mahkamlamakda va qay biri uloqg'a soliq bermaqda edi. Akam ham shohi sallasi bilan beqasam to'nini manga berib, o'zi o'rtaga ot o'ynatib ketdi. Endi uloqchilar ma'rakaga jurm bo'la boshlag'an bo'lsalar ham, lekin hamon uloq boshlanmag'an edi. Butun tomoshachilar sabrsizlanib, «Uloqni so'yib bo'lmadimi, yaxlab qoldimi?» — deyishadirlar.

Huv, oradan talay vaqt o'tkandan so'g'un bo'g'uzlang'an uloqni oldig'a o'ngarib, Orif sarkor va uning ketidan boyagi mashhur chavandozlar ham qalpoqni chakkag'a qiya qo'yub, egarga qiyshuv o'lturub, o'rtaga kirdilar. Tomoshachilar uloqni ko'rgan on: «Xah, jonvor, bormisan?» — deyishdilar. O'rtadagilardan allakim:

- Uloqning qoni yaxshi yuvildimi? — deb so'ragan edi, Orif sarkor:
- Xotirjam! — deb uloqni shalq etib yerga tashladi. O'zi bizga yoqinroq kelib:
- O'rtoqlar, bola-chaqalarni chetka chiqaringlar, ot oyog'ida qolmasunlar, o'zlarining ham ehtiyyotroq joyda turinglar! — deb vag'iz qildi.

Orif sarkor fotihani olub, otini yogurtirib, to'daga ketdi. Tomoshachilar o'rtadagi bilish-tanishlariga: «Bugun g'ayratiqlarni ko'ramizda!..» — deb baqirishdilar.

Endi uloq boshlandi. Birisi oladir, ikkinchi birisi tortadir... Ikkinchingining yonig'a uchunchi, to'rtinchisi tushib, birdan hamma uloqchilar o'rtaga olub tortishadirlar... Har kim o'ziga olish harakatida... Biri uloqning dumidan tutsa, ikkinchi, uchunchilar oyog'idan, yolidan tortadirlar. Shu ravishda yarim soat tortishuv — echkini yoq-yoqdan buydashuv borg'andan so'ng qaysi bir xudo yarlaqag'ani, o'rtadan uloqni olub chiqsa, ketidan uloqchilar chug'urchuqdek yopirilub, tag'i tortish boshlanadir. Tomoshachilardan: «Taqimga bos, taqimga!», «Boshini qo'y, chovig'a qamchini shig'ob ber!», «Bo'sh kelma, mahkam tut!», «Yuganni bo'shat, qamchini tishlab tut; yoningg'a alaqisma!», «Tutting-tutting, berma, chapka burul, chapka!»... degan tovishlar halidan hali eshitilib turadir. Uloq yerga tushib-netib qolsa, tomoshachilardan qaysi biri yugurib borub, uloqni yerdan oladur. Ukasimi,

o'rtog'imi, kim bo'lsa ham o'z yaqinig'a tutquzmoqchi bo'ladir. Lekin boshqa uloqchilar undan olmoqchi bo'lub ustiga yig'iladirlar. Ul bermaydir. Boshqalar o'rtaqa siqadirlar...

Anchadan keyin bechora oqsoqlanub yoki qo'lini silab o'rtadan chiqadir. Tortg'an azobini so'zliy-so'zliy bir chekkaga ketadir.

Ota bolani, aka ukani tanimaydir, chang-to'zon, terlangan-pishilgan; har kim uloqni taqimga bosmoq qayg'usida... Bosh yorilub, ko'z chiqg'an bilan, otdan yiqilub, qo'l singan bilan ish yo'q; ishqilub uloqni taqimga bosilsa bo'lg'ani!.. Taqimga bosish o'zi nash'alik-da!

Taqimga bosmoq har kimga ham tuyassar bo'lmaydir. Taqimga ko'broq bosg'uvchilar haligi chavandozlar: azoblanub bo'lsa ham taqimga bosg'ach, otqa qamchi berib, elliq-ołtmish gaz nariga qochub, boshqalar tarafidan yana tutiladirlar. Yana tortish...

Uloq boshlang'anig'a biror soat vaqt o'tkan edi. Birdan uloqchilar suv quyg'andek tinchib, tortish o'rnida to'planishib qoldilar. Biz otliq, yayov tomoshachilar hammamiz ham o'rtag'a yugurishdik; man keyinroq borg'anim uchun otliq, yayov xalq o'rtani sirib olg'anlar va man bir chekada qolq'an edim. O'rtag'a kirishning ebi bo'limg'ach, kishilarning so'ziga qulq solub turdum. Lekin uloqchilar orasidagi gap barchaga ham noma'lum bo'lub, har kimning yuzida taajjub va og'zida yonidag'idan «Nima gap-a?» degan savol edi.

Bir qanchadan keyin o'rtadan «Qimirlatmang-qimirlatmang!» — degan tovish eshitilub, xalq yana to'zimsizlanib ketdi.

— Nari, bo'linglar-o-o-ov! — deb o'rtadan birov baqirdi.

Xalq bir chetlik bo'lub, yo'l ochdi.

— Nima gap? Nima gap?!

— Hech narsa emas, Esonboyni ot bosibdir!

— Qo'runch emasmi?

— Yo'q.

— Sag'al...

Kishilar bir-birovlarig'a: «falakat-falakat», — deyishdilar.

«Nari tur, beri tur» bilan besh-olti kishi otqa bosiruq bo'lg'anni o'rtadan olub chiqdilar va sadaning tegiga keltirub, yotquzdilar.

Darrov bir kishi aravaga yuborildi. Bittasi: «O'ziga kelarmikin?» — deb, ot bosqan Esonboyning yuziga suv sepub ko'rgan edi, qimir etmadni.

- Besh-olti otning tegida qoldi-da, bechora!
- O'nta otning tegida qolsa ham hech narsa emas-a: qaltisroq yeridan bosqanga o'xshaydir...
- Umri boqiy bo'lsa, hech gap emas... Bechora bultur, hayitda manga yarim so'm hayitlik bergen edi. Shuning uchun, ilohi, yaxshi bo'lsun, deb ko'ngildan o'tquzdim.

Arava keldi. Esonboy akani aravaga olub yotquzdilar. Akam uch-to'rtta o'rtoqlari bilan arava yonida Esonboyni kuzatib, shaharga jo'nadi.

- Sho'r paxta qilsun, kepak qizitub bossun! — deb dori buyurishib qoldilar.

Ular jo'nag'andan keyin uloq tag'in boshlanib ketdi. Man uloq tugaguncha tomosha qilub turdim. Lekin, yaxshiki, endi hech kimni ot bosmadi...

Kecha mani ot qoqqan ekan. Chunki o'rnimga kirib yotishim bilan tarrakdek qotub uxbabman. Ertalab oyim: «Tur-tur tezrak, dadang kelsa, urushadir», — deb ustimdan ko'rpani tortub tashladi. Man uyquliq ko'zim bilan: «Dadam bozor ketmadimi?» — deb so'ragan edim:

- Esonboyni janozasida! — deb javob berdi.

Manim uyqum o'chdi...

#### «ULOQDA» HIKOYASI HAQIDA

Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasi yangi o'zbek adabiyotida yaratilgan dastlabki hikoyalardandir.

Sizga ma'lumki, o'zbek yozma adabiyoti XX asrga qadar, asosan, she'riy shaklda (aruz vaznida) yaratilgan g'azal, ruboiy, qasida, doston, hikoyat, noma kabi asarlardan iborat edi. Bunday asarlarning ko'plab namunalari bilan Siz ulug' bobomiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarimiz ijodi orqali tanishsiz va kelgusida yanada kengroq tanishib borasiz.

XX asrning boshlariga kelib O'rta Osiyoda juda kuchli ma'rifatparvarlik harakati boshlanib, maktab-maorif sohalari qatori, badiiy ijoddha ham yangicha usulda, hayotga yanada yaqinroq yondashuvchi, sodda jonli tilda hikoya qiluvchi adabiyot maydonga kela boshladi. Bu adabiyotning asoschilari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda, Hoji Muin, Abdulhamid Cho'lpon va Abdulla Qodiriylar edi. Ular Turkiston o'lkasining so'nggi

asrlarda ilmsizlik va jaholat tufayli asoratga, qoloqlikka yuz tutganidan qattiq qayg'urar va bu chirkin hayotni yaxshilash choralarini izlar edilar. Shu maqsadda qisqa muddatda xat-savod chiqaradigan maktablar ochib, unda yosh bolalarni o'qitar, ularga zamonaviy bilimlar berib, o'lkamizni rivojlangan, madaniy bir mustaqil davlatga aylantirish uchun mehnat qiladigan yigit-qizlarni tarbiyalashni orzu qilur edilar. Maktab-maorif bilan bir qatorda matbuot, teatr va badiiy adabiyot sohalarini ham yangi davr talablari asosida barpo etish, shakllantirish va isloh etish maqsadini ilgari surgan edilar. Mana shunday oljanob niyat — millatimizning nurli istiqbolini orzulab Abdulla Qodiriy ham yangicha badiiy asarlar yaratish yo'lida tinimsiz izlandi va ijod qildi. Siz o'qib chiqqan «Uloqda» hikoyasi yozuvchi bobomizning ana shunday izlanishlari mahsuli, ayni chog'da zamonaviy o'zbek adabiyotining birinchi namunalaridandir. Hikoya 1915-yilda yozilib, 1916-yilda Toshkentda alohida kitobcha sifatida nashr etilgan.

Hikoya Turg'un ismli Sizlarga tengqur yigitchaning tilidan aytib beriladi. Otasidan uloq tomoshasiga borishga ruxsat olgan Turg'un astoydil tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Qashqa toychog'ini yuvib-tarab, o'zi ham hayit bayramlarda kiyinadigandek yasanib, tomoshaga otlanadi. Yozuvchi mana shu jarayonni yosh qahramonining tilidan shunchaki aytib bera qolmaydi, balki tasvirlaydi. Agar aytib bersa, bu asarning badiiylik qimmatini anchagina pasaytirar, demakki, o'quvchiga ta'sirini ham susaytirar edi. Bola otini qashlab, yuvintirib, egarlashidan tortib, to o'zining onasi uncha-muncha joylarga kiyishiga ruxsat bera-vermaydigan ohorli kiyimlarini kiyishigacha hikoya qilarkan, bu bilan yozuvchi qiziqarli tomoshaga borish Sizning uzoq o'tmish teng-doshlaringiz uchun qanchalik hayajonli va ardoqli hodisa bo'lganini, har bir narsa-hodisaga munosabatda bo'lganda mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'rish kerakligini uqtirib o'tadi. Ana shu jiddiy tayyorgarligi uchun bola kattalardan ham, tengqur do'stlaridan ham «Turg'un chavandoz» degan maqtov eshitgisi keladi, hurmati oshishini istaydi. O'rni bilan maqsadiga erishadi ham — akasining do'stlari uning ot minib ketishini ko'rib, «barakalla, Turg'un chavandoz» deb olqishlaydi. O'rtoqlari bilan o'zini qiyoslar ekan, ularning otlariga o'zining otini, kiyimlariga o'zining kiyimlarini solishtiradi va o'zida «allanima sezadi». Shundan keyin o'rtoqlari bilan kim o'zarga ot choptirib, yana ularni

dog'da qoldiradi. Bularning barchasi Turg'unning uloq tomoshasiga astoydil tayyorlangani natijasi edi. Yozuvchi shu holatlar tasviri orqali Turg'undagi o'z qiziqqan ishiga mas'uliyat va jonkuyarlikni ibrat qilib ko'rsatadi. Biroq bularning barchasi ro'y beradigan hodisa oldida arzimas bir narsa edi.

Uloq boshlanib, unga hakamlik qilguvchi Orif sarkor fotiha bergach, bir soatlar o'tib, «ota bolani, aka ukani tanimaydigan chang-to'zon», baqiriq-qiyqiriq avjiga minganda, «bosh yorilib, ko'z chiqqan bilan, otdan yiqilib, qo'l singan bilan» birovning ishi yo'q paytda birdan uloqchilar tinchib qoladi. Uloqchilardan biri – Esonboyni besh-olti ot bosib, ezib tashlagani ma'lum bo'ladi. Chalajon holda davradan olib chiqilgan chavandozning ko'p o'tmay joni uzilib, erta tongda janozasi o'qiladi.

Tabiiy bir savol tug'iladi – nega Turg'unboy tilidan uloqqa tayyorgarlik, katta-kichik barchanining tomoshaga qiziqib borishi, uning boshlanishini ishtiyoq bilan kutishi, uloq jarayoni shunday quvnoq yorug' ranglar bilan tasvirlanadi-yu, pirovardida fofija ro'y beradi? Yozuvchi bundan qanday maqsadni ko'zlagan?

Badiiy asarlarda bir-biriga zid bo'lgan narsa va hodisalar, masalan, yorug' va qorong'i, quvonch va g'amginlik, kulgi va fojalarni tabiiy yonma-yonlikda tasvirlab, kayfiyat paydo etish usuli mavjud bo'lib, uni mutaxassislar kontrast deb ataydilar. Badiiy mahorati kuchli bo'lgan yozuvchilar ana shunday kontrast usulida mohirona foydalanib, asarlarining ta'sir quvvatini favqulodda kuchaytirib yuborishga erishadilar.

Abdulla Qodiriy ijodining ilk davrlaridayoq shunday mahorat ko'rsata olgan usta san'atkor yozuvchi edi.

«Uloqda» hikoyasida adib quvonch bilan o'limni yonma-yon tasvirlab, insonni hamisha aql-u idrok bilan ish tutishga undaydi, behuda narsalarga umrni sarflamay, ma'rifatga, ma'naviy yuksalish va madaniy turmushga intilib yashash g'oyasini ilgari suradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Abdulla Qodiriy hayoti va faoliyatining ilk davrida o'z safdoshlari bilan birga ma'rifat uchun, xalqimizni qoloqlik, xurofot va yomon odat hamda bid'atlardan xalos etish uchun kurashdi. Uning bu davrdagi ijodi to'liq ana shu maqsadga yo'naltirilgan edi. «Uloqda» hikoyasi yozuvchining ilg'or g'oyalarni badiiy tasvirlashda

mahorat kasb eta boshlaganini ko'rsatuvchi hamda o'quvchining didi va saviyasini o'stirishda o'ziga xos ahamiyatga molik asarlaridan biri sifatida o'zbek adabiyoti xazinasidan mustahkam joy oldi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida nimalarни bilasiz?
2. Yozuvchining ilk ijodiga mansub bo'lgan asarlarni bilasizmi?
3. Abdulla Qodiriyning qanday romanlari bor?
4. Adibning nomi bilan ataluvchi qanday joy nomlarini bilasiz?
5. Abdulla Qodiriy nima uchun qatag'on qilindi?
6. «Uloqda» hikoyasida asosiy hikoyachi kim?
7. «Tomoshaga tayyorgarlik» mavzusida suhbatlashing.
8. Hikoyachining «Turg'un chavandoz» nomini olishga qiziqishining sabablari nimada deb o'ylaysiz?
9. «Mas'uliyat» tushunchasini qanday izohlaysiz?
10. «Uloqda» hikoyasidan yozuvchi ko'zlagan bosh g'oya nima?
11. Jahon va o'zbek adabiyotidagi hikoyanavis yozuvchilardan kimlarni bilasiz?

### **Nazariy ma'lumot**

#### **HIKOYA HAQIDA TUSHUNCHA**

Siz hayotingizda «falonchi voqeani hikoya qilib berish» qabilidagi so'zlarni ko'p eshitgansiz. Lekin biz ta'rif berib, izohlamoqchi bo'layotgan hikoya aytib berish yoki gapirish ma'nosida emas. Badiiy adabiyotda «hikoya» deb ataluvchi alohida adabiy janr mavjud. Uning ta'rifi quyidagicha:


Hikoya – yozuvchi tomonidan kuzatilgan, idrok etilgan ibratlari voqeа va hodisalarni ixcham shaklda badiiy ifoda etuvchi nasriy asar. Unda bir yoki bir necha qahramonlar ishtirok etib, hayotiy yoki xayoliy hodisalarining muhim bir jihatи tasvirlab beriladi.

Hikoyaning jahon adabiyotida juda xilma-xil turlari mavjud bo'lib, bu janrga ko'plab buyuk yozuvchilar murojaat etishgan. Prosper Merime, Gi de Mopassan, O. Genri, A. P. Chexov, Jek London, I. Bunin, S. Sveyg, D. Djoys, A. Morua kabi adiblar hikoyachilikda katta shuhrat topganlar.

O'zbek adabiyotida Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil Yoqubov,

Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Erkin A'zamov kabi yozuvchilar hikoya janrinining ustalari sifatida e'tirof topganlar.

Ayniqsa, Abdulla Qahhorning «O'g'ri», «Bemor», «Anor», «Boshsiz odam» kabi qator hikoyalari o'zbek adabiyotidagi hikoya janrinining mumtoz namunalari hisoblanadi. Bularda yozuvchi ko'rgan, kuzatgan yoki eshitgan voqealarini teran idrok etib, insonlar hayotining o'ziga xos jihatlaridan birini, turmushning alohida olingan biror lavhasini tasvirlaydi. Shu orqali kitobxonga ta'sir ko'rsatib, uni fikrlashga, o'yulohazaga undaydi, badiiy zavq va hayajon bag'ishlaydi, ibratli xulosalar chiqarishga da'vat etadi.





## OYBEK


(1905–1968)



Taniqli o'zbek adibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil 10-yanvar kuni Toshkent shahrida bo'zchi oиласида tug'ilgan. Avval mактабда, keyin pedagogika texnikumida o'qigan. 1925–1930-yillarda O'rta Oсиyo davlat dorilfununi (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning ijtimoiy fanlar fakultetida ta'lим олган Oybek o'qishni bitirib, shu dorilfununda muallimlik qilgan.

She'rlar yozish bilan ijodini boshlagan Oybekning dastlabki to'plami «Tuyg'ular» nomi bilan 1926-yilda chop etildi. Shundan so'ng shoир yirik she'riy janr hisoblangan dostonchilikka qo'l uradi. Birin-ketin «Dilbar – davr qizi» (1931), «O'ch» (1932), «Baxtigul va Sog'indiq» (1933) singari turli mavzudagi o'nlab dostonlari e'lon qilinadi.

Bilasizki, eng katta daryolar ham dastavval tog'lardan pildirab tushuvchi arg'amchidek ingichka jilg'alardan boshlanadi. Daryoning Siz ko'рган qudratli oqimida o'sha jilg'alarining har birini o'ziga yarasha ulushi bo'ladi. Xuddi shunga o'xshab Oybekning keyinchalik yozgan yirik nasriy asarlari – «Qutlug' qon» (1940), «Navoiy» (1944), «Quyosh qoraymas» (1958) singari romanlarining «examirturushi» ham kichik-kichik hikoyalalar bo'lgandi. Ular sirasiga «Fanorchi ota», «Musicha», «Singan umid», «Tillatopar», «Gulnor opa» kabi hikoyalarni kiritish mumkin. Shunisi muhimki, bu asarlarning aksariyat qahramonlari keyin ham yozuvchi o'y va fikrida yashashni davom ettirdi, ijodiy o'sib bordi. Ma'lum vaqt o'tib esa, yuqorida sanaganimiz yirik romanlarda to'laqonli qahramonlar bo'lib maydonga chiqishdi.



Shunday hikoyalardan biri o'tgan asrning 30-yillarida yozilgan «Fanorchi ota» hikoyasidir.

Keling, avval bu hikoyani birlashib o'qib chiqaylik.

## FANORCHI OTA

(*Hikoya*)

Tor, qiyshiq ko'chaning o'ksiz oqshomini Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga o'tqizilgan bir fanorning titrak nurlarigina yoritar edi. Uni har kuni kechqurun past bo'yli, burushiq yuzli bir chol kelib, yoqib ketar edi. Biz uni «Fanorchi ota» der edik. U juda yuvvosh, indamas kishiydi; kichkina narvonchasini chaqqon qo'yib, allaqanday ustalik bilan chiqar, qo'lting'idan kir ro'molchasini olib, avaylab fanor oynalarini artardi. Fanorni yoqqach, yerga tushib, obkashdek bukilgan yelkasiga narvonchasini qo'yib birpasda ko'zdan yo'qolar edi.

Fanor qurilgan vaqtarda butun mahalla quvonib, unga allaqanday mehr ila qaragan bo'lsalar-da, faqat bu mehr uzoqqa cho'zilmagandi. Keyincha har kim unga parvosiz bo'la boshladi.

Ayniqsa, mahalla bolalari ila fanor orasida anglashilmas dushmanlik uyg'ondi. To'planishib, avvalo bir-birimizning do'ppimizni otishar, fanorga do'ppi kiygizgan o'rtoq merganligi ila kerilar edi. Keyincha bu ham bizni zeriktira boshladi, chunki piston qadalgan yoki har turli ipaklar bilan bezalgan do'ppini kiyib olib, fanor chiroyli bir tus olar, bizni xafa qilgandek bo'lar edi. Shuning uchun ham qo'limizga tosh, kesak olib, fanorga hujum qilishni o'rgandik. Bunda u juda kuchsiz edi: kichkina bir kesak yoki tosh parchasi bechora fanorning oyna ko'zlarini o'pirib tushirardi. Keyin-keyin Fanorchi ota haftada uch-to'rt marta unga «yangi ko'zoynak» taqib ketishga majbur bo'lardi. U ketdi, darrov biz yangi «ko'z»ni o'yib olardik. Shunday bo'lsa-da, Fanorchi ota «lom» deb og'iz ochmasdi. Uning bu qilig'i bizga sira yoqmas, tutib olish uchun poylasa, hatto birontamizni tutib ursa ekan, der edik. Ammo shu tilaklardan bittasi ham yuzaga chiqmasdi.

Bir kun, namozshom vaqtি, ko'chada bolalar ko'p edi. Ichimizda eng ko'p qo'rqlaydigan, eng battol Qosim cho'loq: «Bolalar!» — dedi. Changga botgan yuzlarimiz yangi bir narsa kutib, uning ko'zlariga tikildik.

— Fanorchi ota keladigan vaqt yaqin. Sindiramiz. Nima qilar ekan? — dedi-da, qo'liga ilinadigan bir narsa qidira boshladi.

Qo'llarimizdan g'izillab uchgan tosh-kesaklar fanorning hamma ko'zlarini teshib o'tgan edi. Uzoqdan Fanorchi otaning bukilgan kichkina qomati yaqinlasha boshladi. Narvoncha yelkadan tushib, ta'zim ila devorga suyandi. Fanorchi ota uning ustiga chiqdi-da, «chirt» etib gugurtni yoqdi: fanor to'rt tarafdan qulagan uy kabi ajava tusda, yana bir tomonga qiyshayib turar edi. Biz hammamiz kerilib turar edik. Ba'zilar «piq-piq» kulishdi. Chol kasal odamga o'xshab, sekin-sekin pastga tushdi. O'siq qoshlari tagida qisilib yotgan ko'zları ila hammamizga yalingansimon qaradi-da, mayin bir tovush bilan:

— Tentak bolalarim, bu qanday gap? Fanorga tegmasanglar, bir narsa bo'ladimi? U yuqorida, sizlar pastda o'ynay beringlar-da.

Bolalar jim bo'lgan edi.

— Sizlar hali yosh, ko'zlarингiz o'tkir. Qorong'i ham, yorug' ham baravar. Xufton bo'lmasdan onalaringizning quchog'ida pish-pish uxbab qolasiz hammangiz. Bizga o'xshash qari-qartanglar uchun chiroq judayam kerak, — dedi.

Bolalarning ko'zi cholda edi.

— Tunov kuni kechasi qattiq yomg'ir yog'ib turgan edi. Bu yoqqa kelsam, ko'cha qop-qorong'i. Fanorning teshik oynasidan shamol kirib o'chirib qo'ygan. Ana u ariqning bo'yiga borganimda bir nima suvni chapillatardi. Yopiray, nima ekan, deb fanorchamni ariqqa tutsam, mendan ham qari bir kishi ariqdan chiqolmay yotgan ekan. Darrov qo'lidan tortdim, bir amallab chetga chiqardim, hamma yog'i loy, jiqliq suv.

Bolalardan biri:

— Voy, boyoqish, soqoliyam, yuziyam loymi?  
— Hamma yog'i loy bo'lgan... keyin yetaklab uyiga eltib qo'ydim, — dedi chol.

Mening ko'zimga Fanorchi otaning degani shunday ko'rinish kelgandi, Qosim cho'loq:

— Yolg'on- yolg'on! — deb baqirdi.

Bolalar birdan:

— Rost! — deb javob qaytarishdi.

— Kim endi sindirsса, shuni tutib beramiz otamga, — dedi Ahmad.

Fanorchi ota:

- Ha, barakalla, endi sindirmaysizlarmi? — dedi.
- Yo‘q-yo‘q, — javob berdik shu zamon.

Kichkina narvonni yana yelkasiga ilib, chol qorong‘ilikka kirib yo‘qoldi.

Shundan beri, haqiqatan, fanorga hech shikast yetmadi. Hozir shu fanorning o‘rnida sim to‘r bilan o‘ralgan tuxumdan kattaroq elektr lampochkasi yonib turadi. Uning uchun na yoquvchi, na gugurt, na moy kerak. Hech bir bola tegajaklik qilib tosh ham otmaydi. Uning yorug‘ida yurganda yoshligimning bir parchasi va Fanorchi otanigina xotirlayman.

\* \* \*

Oybekning «Fanorchi ota» hikoyasida tasvirlangan hodisalar, aslida, Sizning yoshingizdagи bolalar tez-tez guvoh bo‘ladigan voqealar sirasiga kiradi. Axir, ko‘chada futbol o‘ynayotganingizda qo‘ni-qo‘shnilarning derazalari necha marotaba sinib tushmaganmi? Yoki qo‘shni mahallada joylashgan, gir atrofi paxsa devor bilan o‘ralgan bog‘da meva g‘arq pishgan payti sodir bo‘lgan bir-biridan qiziq sarguzashtlarni eslang.

XX asr boshlariда esa hali uy va ko‘chalarni elektr chiroqlari yoritmas, xonadonlarda shamchiroq, qora chiroqlardan foydalanilardi. Ko‘chalarga fanorlar ilinar, ular elektr toki bilan emas, kerosin bilan yondirilardi. Fanorlarning moyini, shisha ko‘zlarini almashtirish uchun maxsus xizmatchilar biriktirib qo‘yilardi.

Oybek hikoyasining asosiy voqealari mana shunday fanorlardan biri tevaragida kechadi. Tursunqul aka degan kishining darvozasi ustiga ilingan chiroqqa shu atrofda yashaydigan bolalar dastidan tinchlik yo‘q. Ayniqsa, battol Qosim cho‘loq har kuni bir zararkunandalikni o‘ylab topadi. Sheriklarini fanor ko‘zlarini sindirishga, shu yo‘l bilan keksa Fanorchi otaning g‘ashiga tegishga da‘vat etadi. Fanorchi ota esa «unga yangi ko‘zoynak» taqib ketishdan zerikmaydi. Bolalarga cholning bu yuvoshligi, indamasligi sira yoqmasdi. Ularga qolsa, voqeа yana davom etgani yaxshi. Ya’ni, chol bolalarni «tutib olish uchun poylasa, hatto birortamizni tutib ursa ekan» deb «orzu» qilishadi. Biroq Fanorchi ota, xuddi atay qilgandek, biror marta ularga «tish qayramaydi»...

Albatta, bolalar orasida sho‘x-shaddodlari, «yerga ursa, ko‘kka sapchiydiganlari» bo‘ladi. Bundaylar Sizning sinfigizda ham topilsa, ajab emas. Lekin sho‘xlikdan *beboshlikning* farqi bor, shunday emasmi?

Tan olaylikki, hikoyadagi bolalar harakatini oddiygina sho'xlik deb bo'lmaydi. Ularning o'ylamay-netmay qilayotgan ishlari boshqalarga ozor yetkazmoqda. Ayniqsa, keksa odamlarning qiyonalishiga, qorong'ida ariqqa toyib ketib, loylarga bulanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Endi o'ylab ko'ring: buni beozor sho'xlik desak bo'ladimi? Axir Fanorchi otaning bu bolalarni tergab urushmagani ularning qilmishini ma'qullagani emas-ku. Balki ota bolalarning o'zi insofga kelishini, yaxshi-yomonning farqiga borishini kutgandir.

Balki, uning bolalarga shafqati va sabri ortida hech kimga ayta olmaydigan biror tarix bordir. Balki Fanorchi ota uchun bolalarning bu beboshliklari ham bir tansiq ne'matdir.

Biroq, nima bo'lganda ham, boshqalar mehnatini hurmat qilish, o'zgalar ko'nglini og'ritmaslik insonning oddiy burchlari hisoblanishini unutmaslik lozim. Demoqchimizki, odam bolasi biror ish qilishdan avval o'zining bu ishi atrofdagilarga malol kelmasligini, demak, oqibatini obdan o'ylab ko'rmog'i talab etiladi.

«Fanorchi ota» hikoyasi muallif – katta yoshli odamning bolalik xotiralari shaklida yozilgan bo'lsa-da, yozuvchi uning bayonida voqealarни bola tili bilan tasvirlashga harakat qiladi. Bu gaplarning qisqa va sodda tuzilishi, matnda bolalar tiliga xos bo'lgan so'zlardan keng foydalanishda yaqqol ko'rindi. Hikoyadan olingan quyidagi parchalarga e'tibor bering:

«...Qo'limizga tosh, kesak olib, fanorga hujum qilishni o'rgandik. Bunda u juda kuchsiz edi: kichkina bir kesak yoki tosh parchasi bechora fanorning oyna ko'zlarini o'pirib tushirardi»;

«Ichimizda eng ko'p qo'rqlaydigan, eng battol Qosim cho'loq...»

Ishonamizki, Siz ham bugun xuddi shunday tilda – sodda, barchaga oson tushuniladigan so'zlar bilan gaplashasiz.

Asardagi alohida diqqat talab qiladigan inson obrazi Fanorchi ota ekanini sezib turibsiz. Xo'sh, bu keksa kishi bizning yodimizda qanday sifatlari bilan saqlanib qoladi?

Avvalo, Fanorchi otaning tashqi ko'rinishi – portretiga e'tibor qarataylik. Ota «past bo'yli, burushiq yuzli bir chol». «U juda yuvvosh, indamas kishi». Chol «Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga» o'rnatilgan fanor yoniga «kichkina narvonchasini chaqqon qo'yib, allaqanday ustalik bilan chiqishi», «fanorni yoqqach, yerga tushib,

*obkashdek bukilgan yelkasiga narvonchasini qo'yib birpasda ko'zdan» g'oyib bo'lishi cholning keksa ekaniga qaramay, anchagina harakatchan va epchilligini ko'rsatadi. Fanorchi otaning o'z ishiga sidqidildan yondashishini esa biz uning «*qo'ltig' idan kir ro'molchasini olib, avaylab fanor oynalarini*» artishidan sezib olamiz.*

Hikoya davomida Fanorchi ota kayfiyati va ruhiyatida yuz bergen bir o'zgarishni sezgan bo'lsangiz kerak. Bolalar battol Qosim cho'-loqning qutqusi bilan yana bir marta fanor ko'zini o'yib olishgani cholning doimiy harakatlarida o'zgarish yasaydi. Bu safar «*Chol kasal odamga o'xshab, sekin-sekin pastga tushdi. O'siq qoshlari tagida qisilib yotgan ko'zlari ila hammamizga yalingansimon qaradi...*» deydi hikoyachi.

Endi bu o'zgarish sababini bir mulohaza qilib ko'raylik.

Fanorchi otani, nihoyat, bu bebosh bolalarga ikki og'iz so'z aytishga majbur qilgan narsa «*Tunov kuni kechasi qattiq yomg'ir yog'ib turgan*» paytda duch kelgani, o'zi singari keksa kishining qorong'ida ariqqa toyilib ketib, loyga burkanib qolgani edi!

Demak, Fanorchi ota fanorga, o'ziga yetkazilgan zararga, ovora-garchilikka, ozorga chidashi mumkin ekan. Axir mahalla bolalari u yondirib ketgan fanorni qayta-qayta sindirishlariga biror marta «lom» deb og'iz ochmadi-ku («lom-mim» demadi) iborasining boshqacha ko'rinishi, bu ibora arab alifbosidagi ikki ketma-ket harfning o'qilishidan olingan). Biroq bu «yuvvosh, indamas» chol boshqalar boshiga tushgan azobga, qiyinchilikka, xorlikka chiday olmaskan! Ayniqsa, u o'zi singari keksa, o'zgalar yordamiga muhtoj bo'lib qolgan inson bo'lsa!

Shundan bilamizki, Fanorchi otaning qalbi shafqatga, mehrga, bir so'z bilan aytganda, insoniy hislarga limmo-lim to'ladir. Uning uzoq vaqt bolalarning bema'ni qiliqlariga chidab kelgani ham aynan shu fazilati bilan izohlanadi.

Xayriyatki, bu hislar hozirgina beboshlik qilib, keksa kishining urinishlaridan kekkayib turgan, hatto uning ustidan «piq-piq» kulayotgan bolalar ko'ngliga ham ko'chadi, ularni insof, shafqat ko'chasiga yetaklaydi.

Endi battol Qosim cho'loqning gapini «cho'rt» kesib tashlaydigan, faqat fanor emas, Fanorchi ota himoyasiga ham dadil chiqa oladigan,

«Kim endi sindirsa, shuni tutib beramiz otamga» deya oladigan Ahmad singari mardona bolalar ham paydo bo'ladi...

Agar Oybekning bu hikoyasini, biz yuqorida namunasini keltir-ganimizdek, sinchiklab, hafsala bilan tahlil qilishga urinsangiz, undan yana ko'p-ko'p ma'no-mazmunlar topishingiz tayin.

Ishonamizki, bu mustaqil ijodiy mashg'ulot Sizga kelajakda Oybekning yirik asarlari — qissa va romanlarini tushunish, ularning mohiyatini to'laroq anglashda, albatta, asqatadi. Zero, Oybek adabiyotimiz xazinasini o'zining juda ko'p go'zal asarlari bilan boyitgan benazir yozuvchi hisoblanadi. Yozuvchining ijodiy merosi 20 tommi tashkil etishi ham buning yorqin dalilidir.

Oybek o'z ijodi davomida bolalik mavzusiga qayta-qayta murojaat etishdan charchamaydi. «Fanorchi ota»dan tashqari uning avvalgi darslarda eslatganimiz «Gulnor opa», «Musicha», «Tillatopar», «Singan umid» singari kichik hikoyalari ham aynan bolalik xotiralari asosida dunyoga kelgan. Agar 1944-yilda yozilgan «Navoiy» romanida buyuk mutafakkirning ziddiyatlarga to'la hayoti tasvirlangan bo'lsa, «Alisherning bolaligi» qissasi to'laligicha bo'lg'usi shoirning yoshlik pallalaridan hikoya qiladi.

Yozuvchi hayotining so'nggi yillarigacha bolalik kunlarini o'zgacha sog'inch bilan xotirlashni kanda qilmaydi. Bu esdaliklar «Bolalik» nomli hajman yirik qissaning dunyoga kelishiga zamin bo'ladi.

Sizning hozirgi vazifangiz bu qissani to'liq o'qib-o'zlashtirish emas. Yuqori sinflarga o'tganiningizda bu ishga navbat keladi, albatta. Bugun «Bolalik» asaridan bir parchani mutolaa qilamiz-da, xuddi bir hovuch suvda dengiz tabiatini his qilgandek, mazkur qissaga xos bo'lgan muhim jihatlarni sezishga intilamiz.

### *Savol va topshiriqlar*



1. Yozuvchi bolaligida guvoh bo'lgan voqealar adabiy asarga aylanishi uchun muallifdan nimalar talab qilinadi?
2. «Fanorchi ota» hikoyasida tasvirlangandek hodisa Sizning hayotingizda ham bo'lganmi? Agar bo'lgan bo'lsa, u Sizda qanday taassurot qoldirganini ifodalab bering.
3. «Tor, qiyshiq ko'chaning o'ksiz oqshomini Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga o'tqizilgan bir fanorning titrak nurlarigina yoritar

- edi*. Shu tasvir bilan yozuvchi o'sha davr hayoti, kishilar ahvoli to'g'risida qanday ma'lumotlarni bermoqchi bo'lgan, deb o'ylaysiz?
4. Hikoyadagi «*mahalla bolalari ila fanor orasida anglashilmashushmanlik uyg'ondi*» degan gapni izohlashga harakat qiling. Bu «dushmanlik»ning sababi nima bo'lishi mumkin?
  5. Nima deb o'ylaysiz: Qosim cho'loqning xarakteri bilan uning ayni shunday laqab olishi o'rtasida biror bog'liqlik yo'qmikin?
  6. Mahallangizda, qarindosh-urug'laringiz orasida Fanorchi otaga o'xshash mo'ysafidlar bormi? Sinfdoshlaringizga ular to'g'risida gapirib bering.
  7. «Fanorchi ota» hikoyasini yozma tahlil qilishga harakat qiling.

## BOLANING KO'NGLI PODSHO

(«*Bolalik» qissasidan»)*

... Ko'cha bugun jonlangan. Bo'zchilar tanda<sup>1</sup> yoyib, ipni ko'k bo'yoqqa bo'yaydilar, bir tomoni dag'al, qilli, g'o'laday og'ir asbobni tanda ustidan yuritib, ipni silliqplaydilar. Bo'zchilarning ko'pi qani-qartang odamlar. Sal sho'xlik qilsang: «G'avillama oyoq ostida!» deb jerkishadi ular.

Men ariq labidan bir parcha loy olib «poq-poq» o'ynab o'tirsam, uyidan o'rtog'im A'zam otilib chiqadi. Ko'zлari allanechuk besaranjom. Qarasam, qo'lida bir tilim handalak. Men unga «Shirinmi?» deb tikilaman. U havasim kelganini biladi shekilli, qo'lini orqasiga oladi-da, boshini liqillatib maqtanadi:

— Dadamlar olib keldilar, yana bor. Ah, shirin...

Men loyni otaman. Yugurib Mirahmad otaning uyiga kiraman. Supuriqsiz, qarovsiz qolgan keng hovlida juda baland, beo'xshov eski paxsa devorli xonaning kichkina, shaloq darchasi oldida bobom o'rtog'i bilan gaplashib o'tiribdi. Men pinjiga tiqilaman:

— Buva, handalak...

Chol quloq solgisi kelmaydi, hassasining uchi bilan yerni urib, gapiradi:

— Bilaman, bilaman, Musulmonqulning odami edi u, shaytonga dars berardi...

— Balli, esingizda ekan... — eski do'ppili boshini og'ir chayqab,

<sup>1</sup> Tanda — mato to'qish uchun uzunasiga tortilgan ip, o'rish.

so'zini davom ettiradi Mirahmad ota: — Ana shu oqpadarga qamti kelib qolsam bo'ladimi! U otda, men yayov. Qo'limda shashpar<sup>1</sup>... O'ziyam devday baquvvat, zug'umli yigit edi-da...

Men chollarning gapiga beixtiyor berilaman. Dam bobomga, dam uning o'rtoq'iga tikilaman. Ular allaqanday xonlar, beklar, qo'reg'onlar, urushlar to'g'risida so'zlashadi. Allakimlar qandaydir katta darvozalarni berkitib qo'ygan, kimlardir shaharga suv bermagan, bog'dorlar qaylargadir qochib ketgani uchun bog'larda mevalar pishib, sasib-chirib ketgan. Bu gaplar menga ertakdan ham qiziq tuyuladi. Nihoyat chollar jim bo'lishadi, go'yo yoshliklarini sog'inganday, boshlarini quyi solishadi.

Men bobomning qo'lidan tortaman:

- Handalak...
- Tek tur, huvari. Hali pishgani yo'q... — deydi bobom.

Men yana qistayman. Qo'lidan astoydil tortaman. Mirahmad ota meni aldamoq uchun gavronday hassasini qo'lidan qo'lga chaqqon olib, xirillagan ovoz bilan qandaydir qiziq ashula aytib beradi. Yo'q, menga kor qilmaydi. Axiri, bobom o'rtoq'iga deydi:

- Nima qilamiz? Bola. Bolaning ko'ngli poshsho...

Bu gapning ma'nosiga tushunaman. Chunki men o'z tilagimni unga qabul qildirsam, u har vaqt atrofdagilarga yoki o'z-o'ziga shunday deb qo'yardi.

Bizning uydan tor ko'cha bo'ylab yuz qadamcha yurilsa, tosh terilgan katta ko'chaga — «Oqmachit» mahallasiga chiqiladi. Bu yerda uchta do'kon bor: biri qassoblik, ikkisi baqqollik. Musa baqqolning do'konni ko'zimga har vaqt quruq ko'rindi. U faqat sabzi, piyoz, un, kerosin sotadi. Ammo muloyim, shirin so'z, sersoqol keksa Sobir baqqolda esa pashshalardan qoraygan shoda-shoda teshikkulcha, «ot non»lardan, qurtlagan jiyda va turshaklardan tortib, to toshko'mir, quruq beda, «makka sano»<sup>2</sup> gacha har narsa topiladi.

Biz shu do'konga boramiz. Sobir baqqol ohangdor mayin ovoz bilan: «Barakalla, azamatcha, buvalari to'ylarini ko'rsin», deb meni erkalab qo'yadi.

<sup>1</sup> **Shashpar** — uchiga yumaloq, g'adir-budur temir o'rnatilgan, uzun dastali gurzi, cho'qmor.

<sup>2</sup> **Makka sano** — makkaisan — tropik va subtropik o'lkalarda o'sadigan ko'p yillik buta va daraxtlarning umumiy nomi, ularning surgi dori sifatida qo'llaniladigan bargi.

Bobom qalashib yotgan handalaklardan bitta kichkinasini oladi-da, hidlab qo'llimga tutqazadi, keyin bahosini so'raydi. Baqqol bir nima deydi. Bobom o'siq qoshlarini chimirib, bir qaraydi-da, uzun, keng oq surp ko'ylagining cho'ntagidan bir necha chaqa chiqaradi, har birini ko'ziga yaqin tutib, obdan tikilib, baqqolning oldiga tashlaydi. Sobir baqqol boshini chayqaydi.

- Bo'lmaydi, otajon, picha qo'shing, — deydi.
- Bas. Bahosi yaxshi bo'ldi, — deydi bobom jerkib, uyga buriladi.

Sobir baqqol orqadan yana astoydil qichqiradi:

- Dadaqo'zi ota, bir nima qo'shmasangiz bo'lmaydi!

Bobom unga qiyo boqmaydi. Tor ko'chaga kirkach, o'z-o'zicha gapirib ketadi: «Insot bilan sot-da. Og'zingga siqqanicha aytaverasanmi!» Keyin mendan ham ranjiydi: «Tentak, sabrni bilmaysan. Bozordan kattasini olib kelardim».

Men handalakni qo'litiqlaganimcha shamolday yuguraman. Ayvonda do'ppimi, jiyakmi tikib o'tirgan onamdan pichoq so'rayman. Akam ham, bir chekkada nimanidir o'zicha chatib-tikib o'tirgan opam ham sevinishadi. Mana, chol ham asta kirib keladi.

— Qimmatga oldim. Bozorga tushardim-u, lekin ko'njadi o'g'ling, — deydi u onamga. — Bolaning ko'ngli tilla... Omon bo'lsin, orqamda qolsin. Bu tentakni juda yaxshi ko'raman.

Shundan keyin chol har ikki-uch kunda eshikdan terlab-pishib kiradi, qo'ynidan kattaligi piyoladay «yo'l-yo'l» handalakni chiqarib beradi, keyin onamgami, buvimgami bozorning g'ovur-g'uvuridan shikoyat qiladi...

\* \* \*

Qissadan olingen kichkinagina lavhadayoq biz o'zimizni birdaniga yozuvchi bolaligi kechgan davrga tushib qolgandek his qilamiz. Ko'z oldimizda XX asrning boshlaridagi ko'hna Toshkentning g'ala-g'ovur ko'chalari namoyon bo'ladi. Qissaning bayon tarzida jurnalistlar qo'l-laydigan reportaj usulidan foydalilanligani ham o'quvchining diqqatini bevosita narsa va hodisaga qaratilishini ta'minlaydi.

Bo'zchilarining o'z ishlarini ko'chaga olib chiqqanlaridan bilamizki, ularning hovlilari unchalik katta emas. Qolaversa, qorong'i qishda tor hovlida dimiqqan, zerikkan keksa hunarmandlar bahor quyoshidan

bahra olgilari keladi. Axir issig'i handalakni pishirishga yetib qolgan quyoshning tafti kimning taniga yoqmaydi deysiz..

Yosh Musoning «*ariq labidan bir parcha loy olib «poq-poq» o'ynab»* o'tirishidan ham kunlarning ancha isib qolgani bilinadi.

Endi Musoning o'rtog'i A'zamga e'tibor beraylik. Garchi uning qo'lida sheringining og'zidan suvini oqizgan bir tilim handalak bo'lsa-da, hozirgi holati juda unchalik yaxshi emasligi aniq. Biz buni A'zamning «*uyidan otilib chiqqan»*, «*ko'zлari allanechuk besaranjom*» ekanidan sezamiz. Demak, bu bir tilim handalak unga osonlikcha tekkan emas. Yo handalak talashib uni holi joniga qo'yagan ukasidan qochib yuribdi yoki bu tansiq ne'matni uydagilarga bildirmay olib chiqqan.

Shu o'rinda A'zam ham xuddi Muso singari bola, bolaning esa, Dadaqo'zi ota aytganidek, «*ko'ngli poshsho*» ekanini nazardan qochirmaylik. Qarang, qo'lidagi narsaga o'rtog'inining havasi kelayotganini bilgan A'zam darrov o'z holini unutadi-da, «*boshini liqillatib maqtanishga*» ham kuch topadi! «*Nima qilamiz? Bola. Bolaning ko'ngli poshsho....*»

Oybek bolalar xarakterini shu darajada yaxshi biladiki, yozuvchi tasvirida ular juda tabiiy gavdalanadi. A'zamning oxirgi maqtovi – «Ah, shirin...» degani Musoning barcha sabr-u bardoshiga nuqta qo'yadi. Uning ko'ziga o'zi suygan mashg'ulot – «*poq-poq*» o'ynash ham birdan ko'rinnmay qoladi:

*«Men loyni otaman. Yugurib Mirahmad otaning uyiga kiraman...»*

Mirahmad otaning hovlisi keng bo'lsa-da, uning supuriqsiz, qarovsiz qolganidan bu uydagi yosh-yalang boshiga biror ko'rgilik tushgani seziladi..

Shu hovlida ikki qariya xuddi suvdek oqib o'tib ketgan yoshlik davrlarini eslab o'tirishibdi. Bola guvoh bo'lган suhbatidan anglashiladiki, ularning ayni kuchga to'lган paytlari Musulmonqullar, ya'ni Qo'qon xonligi davriga to'g'ri kelgan. (Siz keksalarning «*allaqanday xonlar, beklar, qo'rg'onlar, urushlar to'g'risidagi so'zlari*», «*allakimlar qandaydir katta darvozalarni berkitib*» qo'ygani, «*kimlardir shaharga suv bermagani*» haqidagi suhbatining asl ma'nosini yuqori sinflarda, albatta, bilib olasiz. Jumladan, Abdulla Qodiriyning «*O'tkan kunlar*» romanı ayni shu hodisalar haqida hikoya qiladi.)

Biroq dimog'i handalak bo'yini olib qolgan, og'zidan suvi qochgan bola uchun bu hikoyalarni uzoq tinglab o'tirish qiyin. Unga bobosining

handalakdan ham shirin bir gapi kerak. Uning uchun boboni shu gapga keltira olgani katta yutuq: «Bolaning ko'ngli poshsho...»

«Oqmachit» mahallasidagi uchta baqqolga berilgan ta'riflarga ham e'tibor bilan qarang. Bu ham aynan bolaning – to'rt yoshlardagi Musoning nuqtayi nazari. Sobir baqqol do'konidagi narsalarning boshqacha mehr bilan sanalayotgani bejiz emas. Chunki bolaga yoqadigan narsalar ko'proq shu do'kondan topiladi.

Sobir baqqoldan handalakning narxini eshitgan boboning unga «o'siq qoshlarini chimirib» qarashi ham bejiz emas. Demak, bozordagi narx-navodan yaxshi xabardor bo'lган cholga baqqol aytgan narx ancha ko'plik qildi. Qolaversa, «Bolalik» qissasini to'liq o'qisangiz bilasizki, boboning ro'zg'or tebratishi oson emas. Uning o'g'li, Musoning otasi Toshmuhammad bir boyning shahardan tashqaridagi yerida yil davomida mehnat qiladi. Mana shu zahmat ortidan topilgan har bir chaqa naqadar qimmatli ekanini bobodan yaxshiroq kim bilsin?..

Dadaqo'zi ota handalak uchun baqqol aytganidan ancha kam haq berib ketayotgani aniq. Shu tufayli ham baqqol bir emas, ikki marta uning ortidan «picha qo'shish»ni so'rab qoladi. Biroq boshqa xaridorlardan farq qilib, Dadaqo'zi otaning xaridini qaytarib olib qo'ymaydi. Shundan ham bilamizki, boboning mahalladagi yosh-u qari orasidagi obro'si, hurmati baland.

Bobo, garchi kelini – bolaning onasini «sen»lab gapirsa-da, uning «sabrni bilmaydigan» o'g'lidan shikoyat qilsa-da, har ikkisiga shafqat-la asrab-avaylab munosabatda bo'lishi sezilib turibdi. Bularning bari bo'lг'usi adib Oybekning bobosiga xos bo'lган ezgu insoniy fazilatlar bo'lib, bu sifatlar yozuvchi shaxsining shakllanishiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Agar «Bolalik» qissasini topib to'liq mutolaa qilsangiz, juda qiziq, ta'sirchan voqealarga boy bu asar Sizning Oybek bolaligi, o'smirligi to'g'risidagi tasavvurlaringizni kengaytirishi aniq.

Oybek faqat iste'dodli shoir va mashhur romannavisgina bo'lib qolmay, yirik olim, publitsist va tarjimon ham edi. U rus adabiyotining quyoshi sanalgan Pushkining «Yevgeniy Onegin» she'riy romanini, Lermontovning «Maskarad» asarini, arman xalq eposi «Sosunli Dovud» dostonini va boshqa o'nlab asarlarni ona tilimizga mahorat bilan o'girgan. U 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib

saylangan, O'zbekiston xalq yozuvchisi degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan edi.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1968-yilning 1-iyulida 63 yoshida og'ir xastalik tufayli hayotdan ko'z yumdi. Yozuvchi ona xalqiga ulkan adabiy-ilmiy meros qoldirdiki, bu meros kelajakda ham ne-ne avlodlar ma'naviyati yuksalishiga beminnat xizmat qilajak.

### **Savol va topshiriqlar**



1. Oybekning bolalik mavzusida yozgan asarlarini birma-bir sanab, ularning biri to'g'risida kengroq ma'lumot berishga urining.
2. «Bolaning ko'ngli podsho» hikoyasi adibning qaysi qissasidan olingan? Siz bu asarni to'liq o'qiganmisiz? Agar bilsangiz, uning mazmunini qisqacha qilib sinfdoshlaringizga so'zlab bering.
3. Hikoyadagi bolaning qiliqlarini (bobosini handalak olib berishga ko'ndirganini) «erkalik, tantiqlik» deb baholash mumkinmi? Fikringizni isbotlab berishga harakat qiling.
4. Chollardan biri – Mirahmad otaning «...Ana shu oqpadarga qamti kelib qolsam bo'ladimi! U otda, men yayov. Qo'limda shashpar... O'ziyam devday baquvvat, zug'umli yigit edi-da...» deya boshlagan hikoyasi nima bilan tugagan bo'lishi mumkin?
5. Boboning Sobir baqqol do'konida «qalashib yotgan handalaklardan bitta kichkinasini» tanlashi bilan hikoya oxiridagi gap o'rtaida qanday bog'liqlik bor?
6. Bobo bir joyda «Bolaning ko'ngli poshsho» desa, boshqa joyda «Bolaning ko'ngli tilla» deydi. Har ikki ibora mazmunini izohlashga urinib ko'ring.
7. Oybekning bolalik davri mavzusiga qayta-qayta murojaat qilishining sababi nimada ekan? Shu haqda o'ylab ko'ring-chi.



# G'afur G'ULOM

(1903–1966)



XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasasi G'afur G'ulom 1903-yilning 10-may kuni Toshkentning Qo'rg'ontegi mahallasida tug'ildi. U endigina 9 yoshga kirganda otasi G'ulom Mirza Orif o'g'li vafot etadi. Oradan olti yil o'tar-o'tmas bir etak bola mehribon onadan ham ayrıladilar. Ukalari va singillari bilan yolg'iz qolgan G'afurning «qilmagan xizmati, tutinmagan ishi» qolmaydi. U oilani boqish uchun kosiblik, mixkorlik, aravakashlik qiladi, bosmaxonalarda harf teruvchi bo'lib ishlaydi. Biroq G'afur G'ulom hayotning bu sinovlari qarshisida domdirab qolmadidi. U o'zidagi iqtidorni faqat ma'rifat orqali ro'yobga chiqarish mumkin ekanligini juda erta anglatdi. Avval boshlang'ich maktabda, keyin o'sha paytda urch bo'la boshlagan rus-tuzem maktabida o'qidi. Muallimlar tayyorlaydigan maktabni ham bitirgach, avval o'qituvchilik, so'ng jurnalistlik qildi.

1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi xalqning shundoq ham og'ir hayotini butunlay izdan chiqardi. Garchi bu urush bizning yurtimizdan uzoqda — Yevropa maydonlarida kechgan bo'lsa-da, Rossiya mustamlakachilari urush ortidagi turli qora ishlarni bajarish uchun bizning o'lkamizdan ham erkaklarni majburan mardikorlikka olardi. Boquvchisiz qolgan xonadonlar, ayollar va bolalar tirikchilik o'tkazishga nihoyatda qiynalar, o'lkada yetishtiriladigan aksariyat noz-ne'matlarni chor hukumati turli bahonalar, aldrovlar bilan tashib ketardi. Shaharlarda ishsizlik, qimmatchilik va qahatchilik avj olgandi. Ko'chalarda daydib yurgan tilanchilar va gadoylar safiga urush bo'layotgan o'lkalardan non qidirib qochib kelgan yuz minglab och aholi qo'shilgandi. Bag'ri keng

o'zbek xalqi ularga boshpana, o'z bolalari rizqidan qiyib bo'lsa-da, osh-non berardi. Rejissor Shuhrat Abbosovning «Toshkent – non shahri» filmini tomosha qilsangiz, bu voqealar ko'lami va dahshatini yanada yaqindan his qilasiz.

Ushbu og'ir kuniarning barchasini yosh G'afur o'z ko'zlari bilan ko'rgani, yuragidan o'tkazgani tufayli ham uning qalbida insonparvarlik, yetimparvarlik hislari juda erta uyg'ondi. Shoiring o'zi aytishicha, uning dastlabki she'riy mashqlari ham aynan yetim bolalarga bag'ishlab yozilgan edi.

G'afur G'ulom she'rlar bilan birga o'nlab hikoyalar, «Netay», «Yodgor», «Tirilgan murda» singari qissalar ham yozdi. Ikkinci jahon urushi paytida esa adibni dunyoga tanitgan mumtoz she'riy asarlari – «Kuzatish», «Sen yetim emassan», «Vaqt», «Sog'inish», «Onalar» singari she'rlari yaratildi.

Uning yana bir mashhur asari – «Shum bola» qissasi 1936-yilda yozilgan bo'lsa-da, 60-yillarda adib uni qaytadan ishladi, yanada sayqalladi.

G'afur G'ulom Sharq mumtoz adabiyotining, zamонавиј о'zbek she'riyatining katta bilimdoni edi. Shu sababli ham u Oybек va Hamid Olimjon bilan birga 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylangandi.

Adib 1966-yilning 10-iyunida og'ir xastalik tufayli vafot etgan.

G'afur G'ulom o'zbek adabiyoti, fani va madaniyatining rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun 1999-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Farmoni bilan «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi. 2003-yilning may oyida esa G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi. Shoiring o'zi «Vaqt» she'ridda bashorat qilgan ezgu istaklari aynan mustaqillik yilla-rida ro'yobga chiqdi:

Hayot sharobidan bir qultum yutay,  
Damlar g'animatdir, umruzoq soqiy.  
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,  
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

## MENING O'G'RIGINA BOLAM

(*Vaqeyi hikoya*)

Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil – o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo'lib qoldik. Biz to'rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Roqiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab «qora buvi» deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvunto<sup>1</sup>da ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina O'ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.

Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tigilib, bir-birimizni isitib uyquga ketganmiz. Qatorda eng so'nggi bo'lib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar.

Bu oqshom uch xo'roz o'tgandan keyin<sup>2</sup>, yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovoz bilan suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz, ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo'lib, to'rtburchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Lekin ular yozda bog'ga ko'chib ketardilar. Hozir ular tomon bo'sh.

Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda? Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da: «Bizning uyga o'g'ri keldi». G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikan?

O'g'ri o'sha amakivachchalarning tomidan sekin yura kelib, bувимming to'g'rilariga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim esa yostiqni ko'kraklariga qo'yib, til tagidagi nos bilan o'ylab yotar ekanlar. Buvim «tuf» deb nosni tuflab, tomga qarab:

– O'g'rigina bolam, hoy o'g'rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko'yida tomga chiqqan ko'rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi, — debdilar.

<sup>1</sup> Uvunto'da – eski, titilib ketgan.

<sup>2</sup> Uch xo'roz o'tgandan keyin – kechasi xo'roz uch marta qichqirganidan keyin.

O'g'ri tomdan turib:

— Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo'lmaydimi, bizning tirikchiligidizning yo'lini to'saverasizmi? — debdi.

Men gap shu yerlarga kelganda uyg'onib ketgan bo'lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman.

— Hoy, aylanay, o'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi? Mana: olti oy bo'ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo'q. Kunduz kunlar garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o'tib mizg'iganday qush uyqusil qilaman. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

— Nimalarni xayol surasiz, buvijon? — bu gapdan keyin ustidagi to'nini turmuchtlab<sup>2</sup> bo'g'otning ustiga yostiq qilib qo'yib, o'g'ri ham yonboshlab oldi.

— Nimalarning xayolini surardim. Shu to'rtta yetimning ertasini o'ylayman-da, bolam. Zamonni o'zing ko'rib turibsan, tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig<sup>3</sup>. Hali bularning qo'lidan ish kelmaydi. So'qqaboshgina aravakash tog'alarining topgani o'zining ro'zg'oridan ortib, bularga qut-loyamut<sup>4</sup> bo'lishi qiyin. Ro'zg'orda bo'lsa, ko'z ko'rib, qo'l tutguday arzigulik buyum qolgani yo'q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. «Turib yeganga turumtug' chidamas», deganlar. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg'ayadi-yu, qachon o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi! Chor-nochor xayol surasan, kishi. Tag'in bu yetimlarning bittaginasi o'g'il, uchtasi qiz. Endi o'n to'rtdan o'n beshga o'tdi. Qizlari qurg'ur qachon bir yerga elashib ketadi-yu. O'zi o'rab, o'zi chirmab oladigan joy chiqmasa, bularga kimning ham ko'zi uchib turibdi deysan. Zamon qattiq, o'g'rigina bolam, zamon qattiq!

— To'g'ri aytasiz, buvijon, — dedi o'g'ri, — mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. To'rtta chavati non<sup>5</sup>

<sup>1</sup> **Qush uyqusi** — kuzatgan bo'lsangiz, qushlar charchaganida ko'zlarini yumib ozginagina uxbab olishadi.

<sup>2</sup> **Turmuchtlab** — buklab.

<sup>3</sup> **Anqoga shapig'** — nihoyatda tansiq, kam.

<sup>4</sup> **Lut-loyamut** — yetarli ovqat.

<sup>5</sup> **Chavati non** — oshirilmagan xamirdan qilinadigan yupqa non.



topish uchun o'zimni o'tga, cho'g'ga, Alining qilichiga<sup>1</sup> uraman. Bo'l-masa, ishlay desam bilagimda quvvat bor, aql-u hushim joyida. Menga hozir shu qilib turgan o'g'rilik kasbi yoqadi, deysizmi. Tappa-tuzuk ayolmand<sup>2</sup> kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho<sup>3</sup> bo'lgandan keyin urush to'xtaydi, degan edilar. Hali-beri to'xtaydigan ko'rinxaydi. Hali ham zamon-zamon o'sha iligi to'qlarniki.

— Biror boshqa kasb qilsang bo'lmaydimi, bolam, — dedi kampir.

— Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod. Ota kasbim kavushdo'zlikni qilaymi? Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach<sup>4</sup>, na mix, na lok. Masallig'inining o'zi bitib chiqqan kavushdan uch baravar qimmat. Hammollik<sup>5</sup> qilay desam, avvalgidek qoplab g'alla, qoplab sabzi-sholg'om oladigan badavlatning tuxumi qurigan. Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo'zlaridan Buvamat ota butun qolip-u shon-u so'zan, bigizlarini<sup>6</sup> ulgurjisiga ikki pud jo'xori unga movoza qildi. Yaxshi qildi. Uning etigini kiyadigan o'zbek, qozoq, qirg'iz dehqonlari qayoqda deysiz, qolgan emas. Faqt ularning yetimlarigina shahrimizni to'ldirib yuribdi. Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o'n beshta yetim yuvuqsiz qo'lini cho'zib: «Amaki, non be-ring», deydi. Non-a, o'zimnikiga topolmayman-u! Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa. Pichoqchilar ham, bo'zchilar ham, ko'nchilar ham, boringki, maktab domlalari ham, mullavachchalarining ham rangi pano<sup>7</sup>. Bir qoshiq obi yovg'onga zor. Sanqib yuribdi.

— Huv, xudoyo urushi boshiga yetsin, qiyomat-qoyim degani shudir-da, a, o'g'rigina bolam-a. Ha, mayli, shu yetimlarning ham peshanasiga yozgani bordir. Xo'sh, endi o'zingdan so'ray. Axir, noilojlikdan-ku, shu harom yo'lga qadam bosibsan, o'ziga to'qroq, badavlatroq

<sup>1</sup> **Alining qilichi** — Payg'ambarimizning sahabalaridan biri hazrati Ali qilichining dami ikki tig'li bo'lgan.

<sup>2</sup> **Ayolmand** — ko'p bolali.

<sup>3</sup> **Kerinska poshsho** — Rossiyada 1917-yilning fevralidan oktabr oyiga qadar hukm surgan muvaqqat (vaqtinchalik) hukumat boshlig'i.

<sup>4</sup> **Sirach** — kosiblar ishlataidan yelim.

<sup>5</sup> **Hammol** — yuk tashuvchi mardikor.

<sup>6</sup> **Qolip-u shon-u so'zan, bigizlari** — etikdo'z-kosiblarning ish qurollari.

<sup>7</sup> **Rangi pano** — rangi o'chgan, qonsiz.

odamlarnikiga borsang bo‘lmaydimi? Mana shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor, Odilxo‘jaboy degan pudratchi bor. Matyoqub-boy degan ko‘nchi bor. Bularning davlati-ku mil-mil<sup>1</sup>. Beshikdagি bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi. Shularning tomini teshsang bo‘lmaydimi?

— Ey, buvim tushmagur, soddasiz-da, sodda, — dedi o‘g‘ri. — Boylarning uyiga tushib bo‘ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo‘rasida eshakday-eshakday ikkita, uch-tadan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o‘tsa, bir hafta vovullaydi. Odilxo‘jaboyning g‘ulomgardishida-chi<sup>2</sup>, miltiq ushlagan gorodovoy<sup>3</sup> turadi. Jonimdan kechibmanmi, o‘ldirmaganda ham sibir qilib yuboradi<sup>4</sup>.

— Bu gaping ham to‘g‘ri, o‘g‘rigina bolam. Ammo-lekin ehtiyot bo‘l. El-yurtning oldida tag‘in badnom bo‘lib qolmagin, — dedi bizning kampir.

— Gapingiz to‘g‘ri, buvi, tunov kuni Orif sassiqning otxonasidan to‘rtta tovuq, bitta xo‘roz o‘margan edim.

— Tovuq, xo‘roz dedingmi? Ha, bu maxluqlari qurg‘ur qaqaqlab seni sharmanda qilmadimi?

— Hamma ishning ham o‘z maromi<sup>5</sup> bo‘lar ekan, buvi, tovuq olgani borganda cho‘ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo‘ndoqning tagiga borib, og‘zimni suvgaga to‘ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuqday ahmoq jonivor olamda yo‘q. Yomg‘ir yog‘yapti, shekilli, deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib, hap yotaveradi<sup>6</sup>, keyin bitta-bitta hiqildog‘idan tutib xaltaga solaman.

— Shunaqa degin, voy tavba-ey. Hamma hunarning ham o‘zining murt gardoni<sup>7</sup> bo‘lar ekan-da.

— Shunday qilib desangiz, buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz

<sup>1</sup> Davlati mil-mil — boyligi to‘lib-toshib yotibdi ma‘nosida.

<sup>2</sup> G‘ulomgardish — hovli darvozasi yonida qullar yashaydigan kulba; bu yerda «yo‘lak» ma‘nosida ishlatalgan.

<sup>3</sup> Gorodovoy — bu yerda «rus soqchisi» ma‘nosida ishlatalgan.

<sup>4</sup> Sibir qilib yuboradi — Rossiya hukumati jazoga mahkum odamlarni sovuq Sibir o‘lkasiga surgun qilardi.

<sup>5</sup> O‘z maromi — o‘z yo‘li, hiylasi.

<sup>6</sup> Hap yotaveradi — indamay, ovozini chiqarmay.

<sup>7</sup> Murt gardoni — hisob-kitobi, javobi.

qoldi. Yo'q, ellikboshimiz Rahmonxo'jaga xo'rozni olib borib bergan edim, ishni bosdi-bosdi qilib yubordi. Rahmonxo'ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib, sakson uch so'm pul jamg'arib: «Topganimiz shu, ellikboshi ota», deb pora bergen edim, rabochiyga ketishdan<sup>1</sup> olib qoldi.

— Ha, ishqilib, bola-chaqasining egiligin<sup>2</sup> ko'rsin. Endi bu yoqqa qara, o'g'ri bolam, hademay tong ham yorishib qolar. Ana, yorug' yulduz ham tikkaga kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg'alib pastga tush, o'tinimiz yo'q. Oshxonada bir zamonlar bog'dan kelgan bir-ikkita yong'oq to'nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg'on qo'yaman. Kecha tog'ang berib ketgan zog'oradan ikkitasini olib qo'yanman, bиргалашив чой ichamiz.

— Yo'g'-e, buvi, — dedi o'g'ri, — to'nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo'q, andisham bor, uyalaman.

— Voy o'lay, qutlug' uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. To'xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqe, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko'p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g'ashiga tegdik shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to'rttagina yetim qolib turibdi. Eh-ha, bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o'g'rigina bolam.

— Yo'q, yo'g'-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo'lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo'ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O'sha yetimlarning o'ziga buyursin. To'ylarida o'ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi, buvi, men ketaman, tog' tomon ham yorishib qoldi.

— Xayr, o'g'rigina bolam, kelib tur.

— Xo'p, ona, xo'p...

Men o'sha o'g'ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.

<sup>1</sup> Rabochiyga ketish — urush ortidagi ishlarga (mardikorlikka) olib ketish.

<sup>2</sup> Egiligin — «rohatini», «orzu-havasini» ma'nosida.

## «MENING O'G'RIGINA BOLAM» HIKOYASI HAQIDA

Biz G'afur G'ulom hayoti to'g'risida gapirganimizda uning otanonadan yosh yetim qolgani, hayotning juda ko'p og'irliliklarini boshidan kechirganini aytdik. Tushunasizki, ijodkor odam xotirasi uchun bu kunlar izsiz ketishi mumkin emas edi. Uning qator asarlari, jumladan, «Sen yetim emassan» she'ri, «Shum bola» va «Netay» qissalarida ayni o'sha kunlar asorati yaqqol sezilib turadi. Siz bu asarlar bilan yuqori sinflarda bat afsil tanishasiz.

«Mening o'g'rígina bolam» hikoyasiga kelsak, u bejizga «voqeiy hikoya» deb nomlanmagan. Chunki hikoyaga yozuvchi bolaligida guvoh bo'lgan hayotiy hodisa asos qilib olingen bo'lib, u avtobiografik xarakterga ega.

Aslida biror odamning uyiga o'g'ri tushishi favqulodda hodisa hisoblanadi. Lekin, guvoysi bo'lganiningizdek, bu hikoyada yetimlar hovlisiga o'g'ri oralashi sokin tarzda, kundalik voqeadek bayon qilnadi. Nega shunday, degan savol o'z-o'zidan tug'iladi, to'g'rimi? Bu savolga javobni esa asar hodisalari yuz bergan zamon tabiatidan izlash kerak.

Xo'sh, o'sha paytda – 1917-yilning sentabr oylarida yurtni kimlar boshqarayotgandi, odamlarning taqdiri kimlarning qo'lida edi? Nega bu boshqaruvchilar xalqni bu qadar og'ir hayotga giriftor qildilar?

1865-yilda Qo'qon xonligining taslim bo'lishi bilan Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylanib qoldi. O'lkani Rossiyadan kelgan, «general-gubernator» deb ataluvchi harbiy kimsalar idora qilar, ular o'zlariga qulq soladigan odamlarni mingboshi, ellikboshi sifatida joylarga boshliq etib tayinlardilar. Turkistonni faqat xomashyo o'lkasi sifatida ushlab turishni mo'ljalagan imperiya rahbariyati bu yerda sanoat rivojlanishini, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlanadigan korxonalar qurilishini mutlaqo xohlamas edi. Ilm-fan, ta'lif o'choqlari zamondan orqada qolgan, ularni rivojlantirish uchun jon kuydirib harakat qilinmasdi. G'afur G'ulomning o'zi o'qigan rus-tuzem maktablari ham, aslida, mustamlakachilar chizgan chiziqdan chiqmaydigan ish yurituvchilarni tayyorlash maqsadida ochilgan edi. Tug'ilish darajasi katta bo'lgan Turkiston o'lkasida ishsizlik kuchayib borar, xalqning peshana teri evaziga yaratilgan boyliklar huzurini esa boshqalar ko'rardi.

Agar «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasiga shu sharoitdan kelib chiqib yondoshsak, bilamizki, o‘g‘irlik bu o‘lkada oddiy hodisaga aylanib ulgurgan edi. Yurt tepasida turganlarning har kuni qilayotgan o‘g‘riliqi oldida, bir kambag‘al oilaga boshqa bir nochorming o‘g‘ri sifatida tushishi favqulodda hodisa bo‘lmay qolgandi.

Mana shunday og‘ir sharoit yetmagandek, 1914-yilda Birinchi jahon urushi boshlangan. Unda har jihatdan ojiz Rossiyaning ham ishtirok etishi – «o‘lganning ustiga chiqib tepgan bo‘ldi» desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bilasizki, hech qanday urush oson kechmaydi. Ayniqsa, jahon miqyosidagi urushlarda millionlab odamlar qurban bo‘ladi, ularning bundan-da ko‘proq farzandlari yetim qoladi. Urush tufayli qanchadan qancha shahar va qishloqlar, go‘zal go‘shalar vayronaga aylanadi. Urush bo‘lar ekan, u moddiy boyliklarni tinimsiz talab qiladi. Birinchi jahon urushining boshlanishiga ham o‘sha paytdagi Rossiya singari mustamlakachi mamlakatlar sababchi bo‘lgandi.

Bu urush ko‘plab boshqa millatlar qatori bizning xalqimiz boshiga ham cheksiz kulfatlar soldi. «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasi qahramonlari, aslida, mana shu urushning tirik qurbanlaridir.

E’tibor bersangiz, bu yerda gap faqat hikoyada bevosita ishtirok etayotgan «qora buvi» va «o‘g‘rigina bola»dagina emas. Ularning suhbati ortida norasida bolalar, ayollar va keksalar taqdiri ham turibdi. Zero, ayni shular urush asoratlarini, qiyinchiliklarini ko‘proq his qiladilar. Aynan shular alohida himoyaga, e’tiborga muhtoj bo‘ladilar.

E’tibor dedik. Millatga yot odamlar unga rahbarlik qilayotgan sharoitda xalqqa e’tibor to‘g‘risida gapirishning o‘zi ortiqchadir. Shu tufayli ham muallif hikoyachi bola tilidan «*Buni qarang-a, bizning uyimizga o‘g‘ri kepti. Bizni ham odam deb yo‘qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda...*» deya kinoya qiladi. Demak, bunday oilalarni faqat o‘g‘rilar yo‘qlashi mumkin. O‘g‘rining ishini qiladigan hukmdorlar esa oilaning o‘ziga kirmay ham maqsadini amalga oshira oladi.

(Yozuvchi shu joyning o‘zida hikoyachi bola xarakteriga xos bo‘lgan quvnoqlik, biroz quvlikni ham qistirib ketadi:

«*Ertaga o‘rtoqlarimga toza maqtanadigan bo‘ldim-da: «Bizning uyga o‘g‘ri keldi». G‘urur bilan aytilsa bo‘ladi. Lekin ishonisharmikan?»*»

Lekin, bu «o‘g‘rigina bolam»ning haqiqiy o‘g‘rilardan farqi katta.

Avvalo, uni bu «harom yo'lga qadam bosish»ga hayotning o'zi, to'g'rirog'i, biz yuqorida aytgan haqiqiy o'g'rilar qilmishi majbur etdi. Yo'qchilik, uyda och o'tirgan oila tirikchiligini bir amallab o'tkazish tashvishi uni shu yo'lga boshlagan.

Yozuvchi hayoti to'g'risidagi hikoyamizdan bilib oldingizki, XX asr boshida o'lkamizda hayot kechirgan xalqlarning iqtisodiy va madaniy ahvoli nihoyatda xarob ko'rinishda edi. Siz 8-sinfda Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasi, jumladan, uning «Zaharli hayot yoxud Ishq qurbanlari» asari bilan batatsil tanishasiz. Hozir esa G'afur G'ulom hikoyasi tahlili munosabati bilan bu ikki asar qahramonlari taqdirdagini bir mushtaraklik (o'xshashlik)ni eslamoqchimiz.

Hamza dramasidagi voqealar ham «Mening o'g'rigina bolam»da tasvirlangan davrda yuz beradi. Bu sahna asarining markaziy qahramonlaridan biri Maryamxonning otasi ham «kambag'al kosib» edi. Bu narsa qizning o'z suyganiga erisha olmay, fojiali halok bo'lishiga olib keladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Hamza singari ma'rifatparvar adiblarning o'sha yillari yozgan ko'plab maqolalarida mavjud tarixiy holat manzaralari aniq misollarda aks etgan edi. Ya'ni, o'lkadagi iqtisodiy tanglik tufayli minglab hunarmandlar, jumladan, kosiblar ishi chappasiga ketgan. Ularning katta qismi bir parcha non umidida mardikorlikka kirgan, qolganlari turli qora ishlar bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan. Qo'li gul hunarmandlar orasida gadoylik, o'g'irlik ko'chasiga kirib ketganlari qancha edi.

Endi bu ma'lumotlarni «o'g'rigina bola»ning kampinga aytgan gaplariga solishtiring. Qolaversa, G'afur G'ulom hikoyasidagi fojialar 1917-yilning sentabrida, ya'ni Rusiya bu urushda borgan sari kattaroq talafotlar ko'rayotgan paytda yuz bermoqda. Urush talafotlari esa, tushunasizki, urush ortidagi hayotni beshbattar qiyinlashtirgan edi.

«O'g'rigina bola»ning gap-so'zлari, harakatlaridan sezamizki, uning bu yo'lga kirganiga ko'p ham bo'lmagan. Eng muhim u, o'zi aytganidek, «juda ham yuzini sidirib tashlagan» odamlardan emas. Bu yigitda andisha bor, uyat bor. Majburan qilib yurgan ishi o'ziga ham hech yoqmaydi. Buni biz o'g'rining kampir bilan dardlashgach, chinakam insoniy qiyofasiga qaytganidan sezamiz. U yetimlar haqiga qo'lini ham tekkizmaydi. O'g'rining mana shu fazilatlarini go'yo

oldindan sezgandek, kampir uni «o'g'rigina bolam» deya erkalab chaqiradi. Aslida bu murojaat kampirning tilidan emas, yozuvchi qalbidan sizib chiqayotgandek. Zero, xalqi boshiga tushgan ko'rgiliklarni o'z hayoti misolida ham totib ko'rgan, yurtdoshlari dardiga sherik bo'lган G'afur G'ulom «o'g'rigina bola»ga achinmasligi, uning taqdiriga besarq qarashi mumkin emas edi.

Hurmatli o'quvchilar, ko'pchililingiz amerikaliklarning o'tmish hayotidan hikoya qiluvchi «Ishbilarmon kishilar» nomli uch qismidan iborat badiiy filmni tomosha qilgansiz. (Yosh bolalarni o'g'irlab, ularning ota-onasidan katta pul talab qilishga o'rganib qolgan ikki «ishbilarmon»ning ta'zirini berib, oxirida Kanada davlatiga qochib o'tib ketishga majbur qilgan jingalasoch seckilli bola sarguzashtlari yodingizdam?) Bu filmlar mashhur yozuvchi O. Genri hikoyalari asosida suratga olingandir. Mazkur kinoqissalarining ikkinchisi «Darddoshlar» deb nomlanadi.

Bod kasali bilan og'riyotgan keksa va yolg'iz kishi xonadoniga kuz tunlarining birida o'g'ri tushadi. Qorong'i xonada paypaslanib, bir narsaga tegib ketadi-yu, shundoq ham bedor yotgan qariya bilan yuzma-yuz kelib qoladi. O'g'rining to'pponcha o'qtalib, qo'lini ko'tarish haqida bergen buyrug'iga javoban qariya bod kasali borligi, shu tufayli ham bir qo'lini ko'tara olmasligini ma'lum qiladi...

Harqalay, bu filmni endi aniq eslagan bo'lsangiz kerak. Uning davomini ham yaxshi bilasiz. Nimanidir ilinjida notanish uyga bostirib kirgan, o'zi ham ayni shu kasallikni boshdan kechirayotgan o'g'ri bilan chol o'rtasida nihoyatda samimiy, dilkash suhabat bo'lib o'tadi. Bedavo dard bilan og'rib, uning shifosi uchun qilmagan ishi, ko'rmagan chorasi qolmagan bu ikki insonning bir-birlariga aytadigan hasratlari tun uzog'i tugamaydi...

G'afur G'ulom va O. Genri hikoyalari o'rtasida muayyan o'xshashlik, umumiyliklar borligini ko'rib turibsiz. «Mening o'g'rigina bolam»dagi voqealarga aralashmaydigan hikoyachi bolani aytmasa, har ikki asarda ikki nafar bosh qahramon ishtirot etadi. Ikkisida ham qahramonlarning biri keksa, qo'lidan deyarli biror ish kelmaydigan kishi bo'lsa, ikkinchisi «insolfi o'g'ri lardir. «Darddoshlar»da ham, «Mening o'g'rigina bolam»da ham aslida bir-biriga qarama-qarshi manfaat kishilari oxir-pirovardida bir-birining darddoshiga aylanadi. Samimiy suhabat asnosida ular

ko'ngillaridagi noxush tuyg'ularni to'kib soladilar, oz bo'lsa-da, yengillik his qiladilar.

Biroq, Siz bilan biz bu ikki asarni o'zaro aynan o'xhash hikoyalar, deb xulosa qiladigan bo'lsak, jiddiy xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz.

Nima uchun?

Gap shundaki, amerika yozuvchisi qahramonlarining dardi faqat jismoniy og'riq, shunga davo – shifo topish tashvishi bilan cheklanadi. Boshqacha qilib aytganda, «Darddoshlar» hikoyasi ostida katta ijtimoiy g'oya, muhim hayotiy muammolar yotmaydi. Shu ma'noda bu asar o'quvchida faqat yengil kayfiyat uyg'otishi, turmushda uchrab turadigan tasodiflar tufayli yuzaga kelgan vaziyatning qiziqlarliligi bilangina e'tiborni tortadi, xolos.

Xolis tan olaylikki, G'afur G'ulom hikoyasining «yuki», bu mo'jaz hikoya matniga singdirilgan xalq dardining zalvori nihoyatda katta va jiddiydir.

«O'g'rigina bolam»ni bu harom, insonni «badnom qiladigan» ishga majburlagan sabablar to'g'risida gapirar ekanmiz, «ona chumchuqday» bir etak yetimni o'z qaramog'iga olgan «qora buvi»ning uyqusini qochiradigan, yarim yildan buyon unga azob berayotgan dardlar ham unikidan kam emasligini his qilamiz. Har kungi yeb-ichadigan narsangiz tayin, yilning har faslida tanlab kiyadigan ohorli ust-boshingiz sarishta bo'lgani uchun Siz «qora buvi» va uning nabiralari holini to'la tasavvur qila olmasligingiz mumkin. Adabiyot Sizga shuning uchun ham o'qitiladiki, toki uning yordamida o'zgalar dardini, his-tuyg'ularini yaqindan sezishga, idrok etishga o'rganing. Toki, boshqa sharoitda, o'zgacha muhitda yashagan odamlar, ayniqsa, millatdoshlarining muammolari, orzu va intilishlariga qalbingiz doimo ochiq bo'lsin. Ana shundagina Siz bilan biz xalq atalmish ulkan dengizning ajralmas qismiga, uning chinakam farzandiga aylanamiz.

Mana shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, saksondan oshgan, o'zini zo'rg'a eplaydigan Roqiyabibining har kuni yeyman-ichaman deb turgan to'rt yetimni boqishi, ustini butlashi qanchalar azob ekanini anglaymiz. O'shandagina shu mushtipar ona timsolida o'zbek onasining quyoshdan issiq mehri, oqibati, insoniyligi, shafqati butun bo'y-basti bilan ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Siz o'zbekning o'zidek tanti adibi G'afur G'ulom to'g'risida avval

eshitgan bo'lsangiz ham, u yozgan asarlar bilan endigina jiddiy tanisha boshladitingiz. Ko'ryapsizki, u nihoyatda shirali tilda, ravon va xalq ruhiga mos usulda hikoya qiladi. Siz «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidagi voqealar muhitiga juda tez tushib qolasiz, sentabrning salqin havosi etingizni junjiktiradi ham. Bugungi yoshlarga biroz tushunarsiz bo'lgan so'z va iboralar izohidan ham ko'rdingizki, yozuvchi o'sha davrdagi odamlarning so'z boyligidan asarida unumli foydalangan. «Qora buvi» hamda «o'g'rigina bola»ning gaplarida ularning yoshi, kasbi, tajribasi manaman deb o'zini ko'rsatib turadi. Eng muhimi esa, biz aytgan — G'afur G'ulomga xos bo'lgan xalqqa dardkashlik hislari bu ikki qahramonga ko'chib o'tadi, ularning bir-biriga qilgan muomalasi qatlariga singdirib yuboriladi. Kampirning «o'g'rigina bola»ga achinishi, uni ehtiyot bo'lishga da'vat etishiga e'tibor bering. Axir bechora kampirning qo'lidan boshqa nima ham kelardi? U hech bo'lmasa pand-nasihatni, zo'raki o'g'rining taqdiriga achinishi bilan unga hamdard bo'lmoqlikn xohlaydi. Balki shu mehrni, shu insoniy munosabatni sezgani tufayli ham «o'g'rigina bola» xayrlashayotib kampirni «ona» deb ataydi, gaplariga jon qulog'ini tutib «xo'p» deydi.

Hikoyani o'qib tugatgach, o'quvchi ko'nglida bu ikki insonga nisbatan iliqlik, achinish bilan birga qandaydir mung ham qoladi. Bu mung o'z xalqi o'tmishini idrok etgan G'afur G'ulomning qalbida tug'ilgan insoniy hislar bilan hamohangdir.

Bir millat boshqasidan o'zining tili, qiyofasi, urf-odatlari, tafakkur tarzi va yana o'nlab xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hatto, muhabbat va nafrat, shodlik va qayg'u singari tuyg'ular umuminsoniyatga xos bo'lsada, ularning namoyon bo'lishi bir millat kishilarida boshqasinikidan farq qiladi. Deylik, rus millatiga mansub ayollar o'zlarining shodliklarini baralla, hammaning oldida birdek tortinmay namoyish qila olishi tabiiy hisoblansa, o'zbek ayollar har qancha shodlikka to'lmasinlar, yuksak andisha tufayli, o'z quvonchlarini boshqacharoq tarzda bildirishni ma'qul ko'radilar. Milliy o'ziga xoslik inson jismiga ajdodlari orqali o'tsa, ruhiyatiga u tinglab o'sgan alla, ertag-u afsonalar yordamida singadi. Yozuvchi va shoir o'z millatiga xos bo'lgan xususiyatlarni hammadan ko'ra tezroq va to'laroq ilg'aydi, o'z asarlarida ularni yorqin bo'yoqlarda ifodalaydi.

Chinakam milliylik bilan yo'g'rilgan badiiy asarlarda muayyan millatga xos bo'lgan turmush tarzi, urf-odat va ko'nikmalar asar mantiqi va

maqsadidan kelib chiqib aks ettiriladi. Shuningdek, qahramonlar xarakterida, ularning dunyoqarashi, harakati va gap-so'zlarida ayni millatga xos jihatlarning ishonarli namoyon bo'lishi asar milliyigini oshiradi. G'afur G'uromning hajman kichik hikoyasida biz mana shu fazilatlarning yorqin ifodasini ko'ramiz.



### **Savol va topshiriqlar**

1. G'afur G'uromga «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berilishining asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?
2. Adib asarlari asosida yaratilgan qanday film yoki spektaklni tomosha qilgansiz?
3. Nima uchun «qora buvi» o'g'ridan qo'rqlmaydi?
4. «Qora buvi» va «o'g'rigina bola»ni bir-biriga sirdosh qilgan sabablar to'g'risida o'ylab ko'ring.
5. «Qora buvi»ning o'g'ri bolaga qarata mahalladagi puldor odamlarmikiga tushmay, ularnikiga o'g'irlikka kirgani chakki bo'lgani to'g'risidagi gaplarini izohlashga harakat qiling-chi.
6. «Qora buvi»ning chinakam o'zbek onalariga xos bo'lgan fazilatlari qaysi gaplarida namoyon bo'ladi?
7. Hikoyachi bola «Men o'sha o'g'ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman» deydi. Bolaning bu gapi uning qanday odam ekanidan dalolat beradi?
8. «O'g'rigina bola»ning haqiqiy o'g'rilardan farqi nimada?
9. Sizningcha, hayotda o'g'rilar kamayishi uchun nimalar talab etiladi?
10. O'qituvchingiz yordamida sinfda mo'jaz sahna uyushtirib, hikoyani kichik tomoshaga aylantirishga harakat qiling.





## Usmon NOSIR

(1912–1944)



Dunyo adabiyoti tarixida shunday shoirlar o'tganki, ularning umri va ijodi xuddi qorong'i osmonni birdan yoritib yuborgan chaqmoqqa o'xshaydi. Bilsangiz, bir lahzada chaqnab o'tib ketadigan chaqmoq ko'plab elektrostansiyalar yillar davomida ishlab chiqaradigan quvvatni o'zida mujassam etadi. Rus shoiri M. Y. Lermontov, tatar ijodkori Abdulla To'qay, o'zbek adabiyotining favqulodda iste'dodli namoyandası Usmon Nosir mana shunday yorqin siymolardandir. Garchi juda kam umri ko'rgan bo'lsalar-da, ular yozib qoldirgan asarlarning ahamiyati asrlarga tatifulikdir.

Usmon Nosir bor-yo'g'i 32 yil yashagan bo'lsa, shuning 6–7 yilidagina erkin ijod qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bo'lg'usi shoir 1912-yilning 13-noyabrida Namangan shahrida dunyoga keldi. Uning hunarmandchilik bilan ro'zg'or tebratadigan otasi bu paytda og'ir xasta yotgan bo'lib, bola go'dakligidayoq olamdan o'tadi. Usmon o'z otasi mehrini, uning erkalashlarini ko'rmay o'sdi. To'rt yasharligida onasi Xolambibi shu yerlik Nosirhoji degan kishiga turmushga chiqadi va oila Qo'qonga ko'chib keladi. Usmonjon shahardagi internatda o'qiydi, tarbiyalanadi.

1931-yilda Usmon Nosir Samarqanddagi O'zbekiston dorilfununi (hozirgi Samarqand davlat universiteti)ga o'qishga kiradi. U tengdoshlari orasida o'zining izlochan fikri, fanlarni tez o'zlashtira olishi, shoirlik iste'dodi va sho'x-sha'n tabiatini bilan yaqqol ajralib turardi. Usmon Nosir nafaqat adabiyotni, balki dunyo tarixi, falsafasi, san'atini ham chanqoqlik bilan o'zlashtirishga, buyuklarga ergashib ijod qilishga



oshiqardi. Bu intilishlar shoirning dastlabki asarlaridayoq o‘zini ko‘rsatar, yoshgina yigit bitiklarida katta g‘oyalar, badiiy tafakkurning erkin parvozlari, fikrning o‘tkir yolqinlari yaqqol aks etardi. Mana, uning Samarqanddan onasiga yozgan she’riy maktubi – «Oq yuvib, oq tarab» she’ridan ayrim lavhalar. Unda shoir bolaligida ko‘rgan sargardonliklarini tabiat manzaralariga uyg‘un holda qayta jonlantiradi, o‘quvchini o‘z xotiralariga oshno etadi:

Esingdami, g‘arib ona,  
U qishlarning zahri?  
Yuzni momataloq qilgan  
U yillarning qahri?  
Mehribonim, yodga tushdi,  
Bir kuni kuz nahori,

Sarg‘ayib yerga tushgani  
Bir ko‘m-ko‘k yaproqning.  
Qon, yoshlar-la to‘lganda  
U ko‘zlarining seni,  
Tuproqqa yuz tutganda  
Umring bahori...

Usmon Nosir uchun tabiat manzaralari she’riy asarni qo‘srimcha tashbehlar bilan bezash, go‘zallashtirish vositasi emas edi. U tabiatni go‘yo ona anglab, o‘zini esa shu ona bag‘riga doimiy talpinuvchi farzand hisoblardi. Uning she’rlarida har bir fasl, yer, osmon, quyosh, yulduz va oy, daraxtlar va chechaklar, qushlar va hayvonlar badiiy umumlashma, obraz darajasiga o‘sib chiqadi.

Bu jihatdan uning to‘rt misradan iborat quyidagi she’ri e’tiborga loyiqidir.

### BOLALIGIMGA

Kapalakning gul emganin ko‘rdim,  
Eslab ketdim seni, malagim...  
Sen berdingmi, shuncha shirin she’rni,  
Ey, barglari ko‘m-ko‘k palagim?

Badiiy obrazlarga to‘la bu mo‘jaz she’rda bolalik yashnoq «gul»ga, «barglari ko‘m-ko‘k palak»ka, go‘zal «malak»ka o‘xshatilsa, shoir o‘zini gul hidini emuvchi, dilbar malak boshi uzra parvona bo‘luvchi kapalakka mengzaydi. (Bir narsaga albatta e’tibor bering: shoir o‘zini gul nektari – shirasini yig‘uvchi asalariga emas, balki aynan gul hidiga oshiq, shundan mast bo‘lguvchi kapalakka o‘xshatadi!)

Shoir tarjimayi holi to‘g‘risida gapirganimizda, uning bolalik davri

ancha qiyinchilikda o'tganini aytgandik. Shunisi qiziqliki, har qancha og'ir, musibatli bo'lmasin, inson o'zining beg'ubor bolaligini bosh-qacha entikish bilan xotirlaydi. Chunki bolalikning ozorlari, tashvishlari ham vaqt o'tgan sayin kishiga qadrli bo'lib, tansiq bo'lib boradi.

Usmon Nosir talqinidagi lirik qahramon tabiat bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotga kirishadi, uni erkelaydi, unga erkalanadi, undan arazlaydi, undan kechirim so'raydi.

Mana qarang, Siz har kecha ko'radigan oy va uning nurlari, bahor chog'i gullagan bodomning oydin kechadagi suratini shoir oddiy so'zlar bilan qanday chizadi:

Oyдин kecha –	Taqib suv oqar,
Sutdek oppoq	Jimirlab
Har yer	Oy aksi yotar.
Har bir joy,	Oy nurini
Doirayi kamondan	Ko'zga solib
Boqar kumush oy.	Ko'rdim yalangdan –
Oy nurini	Bodom gullab qolibdi
Deraza	Och pushti rangda...

Endi bu tasvirning o'zidanoq usta musavvir qanday surat yaratishi mumkin ekanini o'ylab ko'ring. Shoir esa Siz bilan bizga oddiy tuyuladigan so'zlar rangini, ularning ohangini ilg'aydi, bo'yoq bilan emas, so'z bilan go'zal kartina chizadi.

Modomiki, suhbatimiz shoir tasvirida qayta jonlangan oy to'g'risida borar ekan, keling, uning shu mavzudagi bir she'rini o'qiylik.

### YURGANMISIZ BIRGA OY BILAN

Yurganmisiz birga oy bilan  
Oqshom payti ko'm-ko'k o'rmonda?  
Maysalarga shabnam qo'nganda  
Shunday yaxshi, tinch bo'lar ekan!

Shitir-shitir o'ynar shabada,  
Barglar musiqasi bir shirin...  
Havo go'yo tiniq, sof boda,  
Ko'ngil sezar hayotning sirin.

Men mast bo'lib qoldim bir kecha,  
Sil o'pkamni ancha yayratdim.  
Uxlamasdan to tong otguncha,  
Dilginamni rosa sayratdim.

She'rning birinchi misrasidanoq ko'kda go'yo jim turgandek tuyuladigan oy harakatga tushadi. U shoirga hamroh tutinib, ko'm-ko'k o'mon oralab birga kezinadi. Bu holat shoirga hozirga qadar izlab yurgani tanqis muhitni – sokinlik, tinchlikni hadya etadi.

Xo'sh, nega shoir ko'ngli tinchlikni bu qadar qo'msaydi, undan najot izlaydi?

Gap shundaki, ushbu she'r 1935-yilda, Usmon Nosir davolanish uchun shimolga – Boltiq va Oq dengiz bo'ylariga safar qilgan davrda yozilgan. Bu paytda sobiq sho'ro davlatida mafkuraviy talvasalar tobora kuchayib, xalq orasidan yetishib chiqqan ko'plab ziyolilarni ta'qib etish kampaniyasi avj ola boshlagandi. Gazeta va jurnallar, tez-tez chaqirib turiladigan majlislarda, ayniqlsa, shoir-yozuvchilar haqida ko'pdan ko'p tuhmat gaplar aytildi. Usmon Nosir o'ziga ustoz deb bilgan Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy singari ijodkorlarga tinimsiz hujumlar uyuştirilar edi. Yurtidan uzoqda bo'lsa-da, shoirning navqiron ko'ngli bularning baridan ozor chekmasligi mumkin emas edi. Shu tufayli ham shoir o'zining ayni kunlardagi kayfiyatini ifodalab:

Men mast bo'lib qoldim bir kecha,  
Sil o'pkamni ancha yayratdim.  
Uxlamasdan to tong otguncha,  
Dilginamni rosa sayratdim, –

deydi. Bu yerda shoir «sil o'pkam» deya faqat o'zining jismoniy xastaligi to'g'risida gapirmayapti. Balki, yuqorida aytib o'tganimiz – biqiq, tuhmat-u razolatga to'la muhitda siqilgan ko'nglini – ruhini nazarda tutadi. Bunday muhitda esa dilning sayrashi – emin-erkin ijod qilish to'g'risida gapirmsa ham bo'ladi. Zamondosh shoirimiz Xurshid Davron bir she'rida «Eng dahshatli sukunat – shoir jim yursa!» deydi. Shundan kelib chiqilsa, Usmon Nosirning o'ziga oy hamrohlik qilgan, yalang oyoqlarini shabnamlar chaygan kimsasiz kechada dilginasini rosa sayratganini – to tong otguncha uxlamay erkin qo'shiqlar kuylaganini tushunsa bo'ladi!

Ko'ryapsizki, Usmon Nosir o'zidagi kuchli ijtimoiy dardlarni ham tabiat lirkasi qatlariga singdira oladi, qalb sirlarini shu orqali o'quvchisiga yetkaza biladi.

Shoirning xuddi shu yili yozilgan boshqa bir she'rida asl hayot va yosh ko'ngilning undan olgan taassurotlari o'zaro muqoyasa qilinadi. Bu she'rda go'yo hali bolalik zavqidan voz kechishni istamagan shoir ko'ngli bilan real hayotning achchiq-chuchugini totib, sergak torta boshlagan shoir aqli o'zaro muloqotga kirishadi.

### **YUR, TOG'LARGA CHIQAYLIK...**

Yur, tog'larga chiqaylik,  
Mayli, yur!  
Eh... qandayin chiroylik  
Oppoq nur...  
Olmos kabi oppoq qor  
Yaltirar.  
Nega mucha dil oqar,  
Qaltirar?

Bilasanmi, yoshlik bu –  
To'yagan!  
Tinim bilmas, go'yo suv –  
O'ynagan...  
Shuncha a'lo, chiroylik  
Ko'rinar...  
Yur, tog'larga chiqaylik.  
Mayli, yur!

Avvalo, she'rda aks etgan tog'larning ulug'vorligi, ular bag'rini qoplagan olmos yanglig' oppoq qor nuri har qanday o'quvchi diliiga yorug'lik olib kiradi. Butun olam oqlikka burkanganini ko'rgan yoshlар yuragida hozirga qadar bo'limgan g'alati toshiqish, hayajon bosh ko'taradi. Bu hayajon navqiron yuraklarga sig'may to'lib-toshadi, dilni qaltiratib yuboradi. Zero, bolalik, yoshlikning o'zi ham doimiy harakatga talpinuvchi, bir joyda tinim bilmaydigan sharqiroq suvday toshqin fasldir. Uning ko'ziga dunyodagi barcha narsa mo'jiza bo'lib ko'rinishi, u har bir hodisadan kashfiyot izlashi ham tabiiyidir. Tog'lar sari ko'tarilarkan, bu mo'jaz qalb go'yo qanot chiqarib uchadi, tog'larning ulug'vorligini o'zida ham his etishni juda-juda xohlaydi. Oppoq nur yoshlikning ko'zini qamashtiradi, hayotni jozibador, faqat go'zallikdan iboratdek qilib ko'rsatadi...

Biroq hayotda nur bor ekan, albatta soya ham, zulmat ham bo'ladi. Usmon Nosirni, o'zining samimiyligi she'rlari bilan buyuk hayotni kuylagan shoirni ham, afsuski, bu zulmat tez-tez o'z domiga tortadi. Hayotning shafqatsizligi, inson bolalarining mukammal emasligidan keladigan

og'riqlar shoir qalbini dardlarga to'ldiradi. Albatta, ijodkor bu dardlarning sabab va oqibatini aytib, ular to'g'risida batafsil gapirib o'tirmaydi. Shoir bu ishga majbur ham emas. Qolaversa, ijodkor odam dunyoda faqat o'z tashvishlari bilan yashamaydi. Uning qalbi o'zi mansub bo'lgan xalq tashvish-o'ylariga doimo ochiqdir. Yuqorida eslatganimizdek, o'tgan asrning 30-yillarida sho'rolar davlatida avj olgan qatag'on yosh Usmon Nosir ko'nglini ham chuqur dardlarga to'ldirmasligi mumkin emas edi. Mana shu dariddoshlik tuyg'ulari shoirning ko'plab she'rlarida o'z izini qoldiradi. Jumladan, yuzaki qaraganda, yosh yigitning hayot bo'ronlariga ko'ksini olib yashash ishtiyoqi tasvirlangandek tuyuladigan «Yo'lchi» she'ri ham bu fikrni tasdiqlaydi. Mo'jaz bu she'rni to'lig'icha o'qiyimiz:

### YO'LCHI

Yo'lichiman, manzilik dengizdan nari,  
Lojuvard usfqning tubiga yaqin.  
Ko'nglimda dardlarim daryodek oqin,  
Chayqalar ko'zlarim tikilgan sari.

O, yo'llar!

Chu, qora toychog'im! Chu, qora yo'rg'am!  
Murodga qasd qilib yugurgan yetur.  
Bo'ronni sevmasa, dil nechun tepur?  
Tiriklik ne kerak bemehnat, beg'am?!

Chu, qora yo'rg'am!

Mazkur she'rni turli yo'sinda tushunish va talqin etish mumkin. Uni, yuqorida aytilganidek, yashashga tashna o'spirinning orzularga to'la hayot dengizi osha yorug' manzillarga talpinishi tarzida talqin etish ham xato bo'lmaydi. Zero, shoir bu she'rni yozganida endigina 23 yoshga kirgan, demak, hayotga shunday yondashishga u to'la haqli ham edi. Biroq, she'rning uchinchi misrasi «Ko'nglimda **orzular** daryodek oqin» shaklida emas, balki aynan «Ko'nglimda **dardlarim** daryodek oqin» tarzida bayon etilgani bizni o'ylantirmasligi mumkin emas. Shu yoshdag'i shoirning ko'ngli ne dardlarga to'lganki, bu dardlar daryodek oqsa? U ne manzillarni ko'zlaganki, tikilganda ko'zlar chayqalsa? Nega u borar manzil usfqning tubida, demakki, ko'z ilg'amas uzoqlarda?

«Yo‘ichi» she’rini o‘qirkan, chinakam muxlis ko‘ngli bir narsani aniq ilg‘aydi. U ham bo‘lsa, lirik qahramon – shoir ko‘pchilik oddiy odamlar singari yetishish mumkin bo‘lgan orzular ko‘yida yurgan odam emas. Uning talpingan manzili «murodga qasd qilib yugurish»ni talab qiladi. Bu manzillarga yetmoq hali ne-ne mehnat va g‘amni, qanchalar shiddatli bo‘ronlarni uning boshiga solajak.

Bu qahramonning bizga ibrati shundaki, u o‘zi tanlagan taqdirning olis yo‘lida duch kelishi muqarrar bo‘lgan qiyinchiliklarga tik boqa oladi. Nafaqat tik boqadi, balki qora yo‘rg‘asini mashaqqatlar sari yanada tezlaydi.

Shu o‘rinda bir masalani ham muhokama qilib ketaylik. Nima uchun lirik qahramonni mashaqqatli yo‘llardan olib o‘tib, manzillarga eltar do‘sti «qora toychoq», «qora yo‘rg‘a»?

Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin.

Siz 8-sinfga borganingizda Usmon Nosir mavzusiga yana qaytib, uning tarixiy mavzuda yozgan «Nil va Rim» nomli yirik she’riy asari bilan tanishasiz. Shunda bir narsaga amin bo‘lasizki, Usmon Nosir nafaqat qadimiy dunyo yoxud Sharq tarixini, balki, G‘arb adabiyotini ham chuqur bilgan ijodkor edi. Agar Siz ritsarlar to‘g‘risidagi afsonalar, multiplikatsion va badiiy filmlarga e‘tibor bersangiz, aksariyat qahramonlarning jang va sinovlarda qora ot minib qatnashganiga guvoh bo‘lasiz. Bunday misollarni qadimgi Sharq og‘zaki ijodida ham ko‘plab uchratish mumkin. Qahramonlar faqat bir holatdagina oq otga minadilar – g‘alaba, zafar quchgan kezlari!

Afsuski, javonmard shoir Usmon Nosirga o‘zi ko‘zlagan nurli manzillarga yetib borish nasib etmadı. 1937-yilda ustozlari Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy va vana ko‘plab ijodkorlar qatori Usmon Nosir ham «xalq dushmani» degan tuhmat bilan ayblandi. U sovuq Sibir o‘lkalariiga surgun qilindi. Bu paytda shoir bor-yo‘g‘i 24 yoshga kirkган edi.

Qamoqlarda tortgan cheksiz azob-uqubatlari, yurtini sog‘inib chekkan fig‘onlari oxir-oqibat shoirning navqiron jismini yemirdi. Usmon Nosir 1944-yilning mart oyida Rossiyaning Kemerovo viloyatidagi mahbuslar lagerida vafot etdi.

Shoir o‘zining mashhur «Nil va Rim» nomli tarixiy asarida «Tun qancha qora bo‘lsa, oy shuncha yorug‘» degan misralarni bitgandi. Darhaqiqat, sho‘ro tuzumi har qancha qora, uning qilmishlari har qancha yovuz bo‘lmasisin, adabiyotimiz osmoni oysiz va yulduzsiz qolmadı.

Usmon Nosir o‘zining qisqa umri va ijodi davomida yozib ulgurgan beshta she’rlar to‘plami, qator dostonlar, to‘rt drama, jahon adabiyoti namoyandalaridan qilgan noyob tarjimalari (A. S. Pushkarning «Boq-chasaroy fontani», M. Y. Lermontovning «Iblis», N. A. Dobrolyubovning «Haqiqiy kun qachon keladi?» singari yirik asarlari, Geyne, Gyote, Bayron she’rlari) shoir umrining chin davomi bo‘ldi.

Usmon Nosir to‘g‘risidagi darsimizni shoir hayoti va ijodini chaqmoqqa qiyoslash bilan boshlagan edik. Qarangki, shoirning o‘zi «Yurak» nomli she’rida:

Itoat et!  
Agar sendan  
Vatan rozi emas bo‘lsa,  
Yoril! Chaqmoqqa aylan sen,  
Yoril! Mayli tamom o‘lsam! —

deya qalbiga xitob qilgan edi. Shoirning chaqmoqdek yorqin umri va ijodi hali ko‘p asrlar xalqimiz qalbini yoritib turajak.

\* \* \*

Usmon Nosirning quyida berilayotgan ikki she’rini darslikda berilgan she’r namunalariga o‘xshab tahlil etishga harakat qiling. Bu ijodiy mashg‘ulot Sizni shoir badiiy dunyosiga chuqurroq kirib borishingizni ta’minlaydi.

## YOSHLIK

Kunlarimni yoshligimdan ayamadim,  
Menda yoshlik nokaslikni hech ko‘rmadi.  
Qiz sevganda, ho‘ngir-ho‘ngir qon yig‘ladim,  
Go‘yo, qalbim amri — azmimni bir so‘rmadi.

Yoshligimning tarozusi beposangi,  
Bir pallasi bahor toshi bilan og‘ir:  
Sevinchim ko‘p... shodligim zo‘r... tilim biyron,  
Qaysi umr shunday yoshlik ko‘rdi, axir?

Yuragimga achchiq-achchiq botar edi,  
«Bog‘ ko‘chada» sharsharakning mungli kuyi...

Hayron bo'lib, bolalikda o'ylar edim,  
Qaydadir deb bu oftobning yotar uyi?

Bolaligim gul bog'larni ko'rolmagan,  
G'arib bo'lib, mungshib yurgan ko'chalarda.  
Yulduz sanab, yildan uzun kechalarda  
Hisobiga sira, azal yetolmagan.

Ayamadim yoshligimdan kunlarimni,  
Nokaslikni ravo ko'rmay sevintirdim,  
Chunki, unga yuragimda o'lib qolgan  
Bolaligim erkaligin tiriltirdim.

Yoshligimning sarguzashti benihoyat,  
Bisoti ham tasodifga to'lib bitgan...  
Keyin bilsam, tasodiflar zarur ekan,  
Hodisani yetaklarkan sababiyat.

*Toshkent, 1934*

### **GULZOR – CHAMAN...**

Gulzor – chaman. Yur bog'larga  
Eltay yetaklab.  
Binafshalar terib beray  
Senga etaklab...

Chakkangga taq! To'lib tursin  
Oydek yuzlaring.  
Kunday yorug', tunday qora  
Ekan ko'zlarin.

Tingla, erkam, o'rtog'imsan,  
Ko'nglimni ochay,  
Qonim she'r bo'lib oqsin-da,  
Men qayta ichay.

Istaymanki, oqar qonim  
Tamom bo'lmasin,  
Istaymanki, sevar yorim  
Tashlab ketmasin.

Chunki, do'stlik mehri bilan  
Shodligim o'sar.

U har qachon yonboshimda  
Soyamday yurar.

U sen, qo'zim. Yur, bog'larga  
Eltay yetaklab.

Binafshalar terib beray  
Senga etaklab.

Bu shoir, — deb, — bu yengil, — deb  
Asti o'ylama!  
O'pgan o'pichlarim haqqi  
Inontiraman.

Agar, darkor bo'lsa har choq,  
Chorlasa Vatan,  
Qo'lyozmalarimni tashlab,  
Shinel kiyaman.

Uddasidan chiqolmasam  
Ahdimni, unda —  
Brauningni qo'limga ber,  
Qop-qora tunda.

O'z jazomni o'zim beray,  
Azob-la o'lay...  
Yo'q!.. Hamdam bo'l, qo'limdan tut,  
Janglarga kiray!

1934

### Savol va topshiriqlar



1. Usmon Nosir hayoti va ijodi qaysi jihatlari bilan Sizda ko'proq taassurot qoldirdi?
2. Aksariyat shoirlar ijodida tabiatga qayta-qayta murojaat etilishining sababi nimada, deb o'ylaysiz?
3. Biz yashaydigan olamni «ona yer», «ona tabiat» deb atashimizning boisi nimada?

4. Usmon Nosir she'rlarida tabiat qanday ranglarda, obrazli ifodalarda kuylanishini aniq misollarda ko'rsating.
5. Shoirning «Yoshlik» she'ri bilan darslikda tahlili berilgan she'rlar o'rtaida qanday o'xshashlik va farqlar bor?
6. «Kunlarimni yoshligimdan ayamadim» degan misrani tushunish va tushuntirishga harakat qiling.
7. Nega yoshlik tarozusining «bir pallasi bahor toshi bilan og'ir» bo'ladi?
8. Usmon Nosirning «Gulzor – chaman...» deb boshlanuvchi she'rida lirk qahramon kimga murojaat qilyapti? U shoirdan nimalarni kutadi?
9. Bu she'rning lirk qahramoni qaysi hollarda o'zini brauning – to'pponcha bilan otib qurbon bo'lishga tayyor?
10. Sho'ro davri qatag'oni qurboni bo'lgan yana qaysi ijodkorlar to'g'-risida eshitgansiz?
11. Usmon Nosir she'rlaridan ikkitasini yod oling.

### *Nazariy ma'lumot*

#### **SHE'R HAQIDA TUSHUNCHА**

Ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida yaratilgan hissiy nutq **she'r (nazm)** deyiladi. She'r arabcha *shuur* degan so'zdan olingen bo'lib, uning asosida insonning ichki kechinmalari yotadi. Buyuk rus tanqidchisi N. A. Dobrolyubov she'r uchun uch xususiyat – ezgulik, go'zallik, donolik shart bo'lishini ta'kidlagan edi. Nutqning she'r bo'lishi uchun she'riy mazmun va she'riy shakl zarur. She'r tuzilishining asosini ritmik o'lchov – hijo (bo'g'in) tashkil etadi.

Shakliga ko'ra she'rning aruz, barmoq, erkin (sarbast), nasriy she'r kabi ko'plab vaznlari mavjud.

O'zbek mumtoz she'riyatini asosan **aruz** vaznida yozilgan she'rlar tashkil etadi. Aruz vazni hijolarning cho'ziq va qisqaligiga asoslanadi. Misra va baytlarda cho'ziq va qisqa hijolarning o'zaro mutanosib ravishda takrorlanib kelishi o'ziga xos musiqiylikni ta'minlaydi. Shuning uchun ham aruz vaznida yozilgan she'rlar (g'azal, masnaviy, ruboqiy, murabba, muxammas, musaddas va hokazo)da ohangdorlik juda kuchli bo'ladi.

Barmoq vaznidagi she'rlar hijolarning cho'ziq va qisqaligiga emas, balki ularning (bo'g'lnarning) miqdoriga asoslanadi. Shunga ko'ra barmoq vaznida yozilgan she'rning misrasi besh, olti, vetti, sakkiz, to'qqiz.

va undan ortiq bo'g' inlardan tashkil topishi mumkin. Bundan tashqari, she'rda misralarning o'zi ichki bo'linishlar asosida o'ziga xos ohangdorlikni tashkil etadiki. bunga turoq deviladi.

Oq she'rda yazn saqlansa-da, biroq qofiyalar bo'lmaydi, ya'ni uning o'mi «oq» qoladi. Shuning uchun ham bunday she'rlar «oq» she'r deyiladi. Qofiya talab etilmagani uchun ham oq she'rda shoirning imkoniyatlari ancha keng bo'ladi, ya'ni o'z fikrlarini erkin ifodalay oladi. M. Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi. Sofoklning «Shoh Edip», V. Shekspirning «Otello», «Gamlet», «Qirol Lir», «Romeo va Julyetta» kabi asarlarining tarjimalari oq she'rning ajoyib namunalardir.

She'rning erkin (sarbast) she'r degan shakli ham mavjud bo'lib, bunda misralardagi hijolar miqdori, ularning cho'ziq yoki qisqaligi hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Erkin she'r «verlibr» (fransuzcha vers – she'r, libres – erkin so'zlaridan) degan xalqaro atama bilan ham yuritiladi. Bunda misralarning turlicha turoqlanishi, qofiyalanishdagi erkinlik shoirga o'z fikrini izchil ifodalash imkonini beradi. Erkin she'rda ohangdorlik va ifodalilik talabi. she'r g'ovasi va shoir maqsadini ochib beruvchi har bir so'z ijodkor xohlagan tartibda alohida satrlarga chiqarlishi mumkin. Cho'lpom, H. Olimjon, G. Gulom, M. Shayxzoda, Usmon Nosir, Mirtemir kabi shoirlar ijodida erkin she'rning ajoyib namunalari uchraydi.

Nasriy she'rda ham she'rغا, ham nasrga xos xususiyatlar mavjud bo'ladi. Nasriy she'rning asosiy belgilari: a) ma'lum vaznga va izchil qofiyaga ega emasligida; b) ramziy tasvir uslubining ustunligi va fikriy umumlashmaning kuchliligida; d) his-hayajonning balandligi va ritorik qaytariqlarning ko'pligida; e) o'ziga xos ritmik tuzilishi va pauzalarning ko'pligida namoyon bo'ladi. Nasriy she'r nasrdagi nazmlar, mansur she'rler, mansuralar, sochmalar deb ham atalishi mumkin. Nasriy she'rler Fitrat, Oybek, Mirtemir, Omon Muxtor, Omon Matjon, Ibrohim G'afurov kabi shoirlar ijodida ko'plab uchraydi.



## O'tkir HOSHIMOV

(1941-yilda tug'ilgan)



Aziz o'quvchilar! Siz ijodini o'rghanishga kirishayotgan O'tkir Hoshimov katta adib. O'ndan ortiq roman va qissalar, biri-biridan ta'sirchan ko'plab hikoyalari, bir necha hayajonli dramatik asarlar muallifi. Dastlabki qissasi bilan mashhur adib Abdulla Qahhorning nazariga tushgan. O'. Hoshimovning «Cho'l havosi» qissasini o'qigan adib yozuvchiga maktab bitib, asar uni suyuntirib yuborganini aytgan, «sof, samimiyl, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladi»gan asar yozgani bilan tabriklagan edi.

O'tkir Hoshimov 1941-yilda Toshkentning Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan. Yoshligidan ilmga, adabiyotga, san'atga qiziqqan bo'lajak yozuvchi 5-sinfda o'qib yurgan vaqtidayoq, demak, Siz tengi yoshlardida she'r mashq qila boshlagan edi. Dastlabki kitobi esa yozuvchining talabalik yillariga to'g'ri keladi. O'tkir Hoshimov hayot qozonida qaynagan, yozuvchi sifatida hayotdan bir qadam ham ajramay qalam tebratgan ijodkor. U amaliy va ijodiy ishni baqamti olib bordi. Adibning hayot yo'liga diqqat qiladigan bo'lsak, u xat tashuvchi, musahhih, muxbir, gazetada bo'lim mudiri, nashriyotda va jurnalda bosh muharrir kabi bosqichlarni bosib o'tganiga guvoh bo'lamiz. Keyingi yillarda bir necha marta xalq deputatligiga saylangan adib Oliy Majlisda qo'mita raisi sifatida ham faoliyat ko'rsatgan. Biroq bir lahza bo'lsa-da, adabiy ijod bilan aloqani uzgani yo'q. Keyingi 8—10-yilda ham adibning qator sermazmun kitoblari, publitsistik maqolalari chop etildi. Hozirda adibning «Urushning so'nggi qurbanisi», «Muhabbat» kabi ko'plab hikoyalari, «Nur borki, soya bor», «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar» nomli romanlari, «Odamlar nima derkin», «Shamol esaveradi», «Ikki

karra ikki besh», «Bahor qaytmaydi», «Dunyoning ishlari» nomli qissalari respublikamiz va xorijda sevib o'qilmoqda. «Qatag'on», «Inson sadogati», «To'ylar muborak» dramalari mamlakatimiz teatrлarida sah-nalashtirilgan. Respublika radiosida efirga berilayotgan, televideniyasida ko'rsatilayotgan bir qancha radio va telespektakllar ham hassos yozuv-chimiz asarlari asosida yaratilgandir. Bugun xalqimiz O'tkir Hoshimovni ulkan adib, o'tkir nafasl jurnalist, faol siyosatdon arbob sifatida taniydi, hurmat qiladi. Bu hurmatning boisi uning biz yuqorida tilga olgan asarlari, jo'shqin ijtimoiy faoliyatidir.

Bolalar, bugun Siz bilan yozuvchining «Dunyoning ishlari» qissasi haqida gaplashamiz va Sizga bu asarni to'liq o'qib chiqishni maslahat beramiz. Chunki mazkur asar eng ezgu, eng samimiy tuyg'ular haqida, eng e'zozli zot — ona to'g'risida hikoya qiladi. Onaning qanday inson ekanligini yaxshi bilamiz. U insonga hayot beradi, yuvib-taraydi, tarbiyalaydi. Ona uchun eng to'tiyo narsa, o'g'ilmi-qizmi, uning farzandi. Ona o'z farzandi uchun hamma narsaga, hatto jonini qurbon qilishga ham tayyor. Shuning uchun bo'lsa kerak, ona haqida behisob she'rлar to'qilgan, dostonlar, katta-katta asarlar bitilgan. Kichik maqollardan tortib, muborak hadislarimizgacha ona madh etiladi, e'zozlanadi. O'tkir Hoshimovning bu asari har biri o'ziga mustaqil sujetli hikoyalardan tashkil topgan. Undagi «Gilam paypoq», «Oq-oydin kechalar», «Tush», «Alla», «Oltin baldoq», «O'ris bolaning oyisi», «Ittijo» kabi hikoyalar kishini befarq qoldirmaydi, ularda o'g'li uchun har qanday mashaqqatga, jon fido qilishga tayyor, sharqona axloq-odob qoidalarini o'zida mujassam etgan Ona madh etiladi. Barcha hikoyalar mazmuni ona obrazi tufayli yaxlitlik kasb etadi. Asar ortiqcha maishiy tafsilotlar, jimjimadorliklardan xoli. Shu tufayli ham katta qiziqish va hayajon bilan o'qiladi. Bu qissa, oqsoqol adibimiz, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad aytganidek, «...dostondek o'qiladi. Uni o'qib o'z onalarimizni o'ylab ketamiz...»

Shu o'rinda qissadagi «Gilam paypoq» hikoyasiga diqqat qilaylik. Unda ona o'z jigarbandini kasallik xavfidan tezroq xalos qilish uchun har narsaga, hatto jonini ham berishga tayyor. Ona qattiq shamollab qolgan o'g'ilchasini shosha-pisha «Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi!» degan tahlika bilan halloslagancha tabib Hoji buvining uyiga yuguradi. Bola darddan biroz yengil tortgach, o'z sog'lig'ini xavf ostiga qo'yGANI — oyog'ini sovuqqa oldirGANI ma'lum bo'ladi.

Asardagi «Alla» deb nomlangan bob ham nihoyatda ta'sirchanligi bilan kishini rom etadi. Alla inson bolasi hayotda tinglaydigan ilk qo'shiq, u vujudimizga ona suti bilan singgan va umrbod unutilmasdir. Yozuvchi bu ezgu qo'shiqni ilohiy kuchga ega bo'lgan, ko'ngilni eritadigan ohang sifatida ta'riflaydi. Ushbu bobni hayajonsiz, entikmasdan o'qish qiyin.

Qissaning «Iltijo» deb nomlangan bobida insonning ona oldidagi farzandlik burchi hech qachon to'lab bo'lmas qarz ekani nihoyatda ta'sirchan ifodalanadi. Chunki onalarimizning hayotdagি o'mni beqiyosdir. Ular bizni dunyoga keltiradi, oq sut berib boqadi, uzoq tunlar beshigimizni tebratib, atrofimizda parvona bo'ladi, parvarishlab voyaga yetkazadi. Buni teran idrok etgan yozuvchi onani qo'msash, uning beqiyos mehri oldidagi qarzdorlik tuyg'ularini g'oyat samimiyl tasvirlay oladi.

«Qarz» hikoyasida qissaning bosh qahramoni Hakima ayaning yana bir insoniy fazilati qalamga olingan. Hakima aya kamtargina nafaqasini ham qo'shnilarining farzandlari xursandchiliga sarflaydi. O'tgan yili ularga tuqli olib bergen bo'lsa, bu yil uch oyoqli velosiped, ko'ylak sovg'a qiladi. O'g'illariga esa «qarz oluvdim, qarzimni uzyapman» deb bahona qiladi.

Darhaqiqat, «Dunyoning ishlari» qissasini o'qiganda qalbimizni ikki xil iliq his chulg'aydi – u ham bo'lsa o'z onamizga va umuman onalarga bo'lgan mehr hissi. Haqiqatan ham, adibning o'zi e'tirof etganidek, asar uning o'z onasi haqida emas, «...umuman, o'zbek ayoli haqida va umuman onalar to'g'risida». Qissada bir-biridan mazmunli, qiziqarli hikoyalar ko'p. Shu tufayli ham Sizga bu asami topib to'liq o'qib chiqishni maslahat beramiz.

## DUNYONING ISHLARI

(*Qissadan boblar*)

**ALLA**

Qabriston g'ishtin devor bilan o'ralgan. Darvozaning narigi tomonida – go'rkovning hujrasi. Berigi tomonida – tashqarida uning hovlisi.

Darvozaga yaqin kelishim bilan ichkaridan – hujra tomondan tilovat sadosi eshitildi. Xuddi shu payt hovli tomondan alla ovozi yangrab ketdi:

Alla-yo, alla, jonim bolam-a, alla...

Kim bo'ldi bu? Go'rkovning kelinimi? Qizimi?.. U hamon sokin tovushda davom etardi:

Uxla, qo'zim, alla-yo, shirin qizim, alla...

Ertalab yomg'ir yog'gan edi. Darvozaning temir panjaralarida suv tomchilari yaltiraydi. Ko'lmaqda quyosh jilolanadi. Muzdek tutqichdan ushlagancha turib qoldim. Bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla. Ajab, ular bir-biriga xalaqit bermas, bir-birini rad etmas, ikkalasi qo'shilib bahor nafasiga to'lgan osmonda qabriston yelkasidagi kuchala chiqargan teraklar ustida parvoz qilar edi:

«Rabbano-o, rabbano-o-o-o...» «Alla-yo, alla»...

Bir xil bo'lib ketdim. Panjarador darvozaga suyanib uzoq turib qoldim.

Onam beshigim ustida alla aytganini eslay olmayman. Esimni taniganimda beshikda yotmaydigan bo'lgan edim. Biroq oyim ukamga alla aytganini eshitganman. Ko'p eshitganman.

Qish kechalari sandalga suqilib tizilishib yotardik. Uy nim qorong'i. Piligi pastlatib qo'yilgan chiroq xira nur sochadi. Shiftda lampa shisha uchidan chiqqan nur doirasi ko'rinadi. Chiroq doim bir joyda turgani uchun shiftning o'sha yeri sarg'ayib qolgan. Hamma yoq jimjit. Shu qadar jimki, dadamning hujrasidagi soatning chiqillayotgani ham eshitiladi. Tashqarida bo'ron guvillarydi. Quruq qorming derazaga chirsillab urilishi eshitilib turadi. Ukamning beshigi g'ichirlaydi. Onam alla aytadi.

Alla, bolam, uxlay qola-a, alla,  
Quchog'imda orom ol, alla...

Yo'q, bu qo'shiq emas. Oyimning ovozida qandaydir boshqa narsa bor. Mungmi, iltijomi...

Tog'lardagi shunqorim-ey, alla,  
Beshikdagi qo'chqorim-ey, alla...

Ukam ovunib qoladi. Oyimning o'zi ham beshikni quchoqlagancha mudrab ketadi. Bir mahal beshik ustidagi qo'li shilq etib yoniga tushdi. Ukam uyg'onadi, beshik yana g'ichirlaydi. Oyim ham cho'chib ko'zini ochadi. Beshikni ohista tebratadi:

Yigitlarning sardori bo'l, jonim-a,  
Yuragimning madori bo'l, alla...

Yana jimlik cho'kadi. Soat chiqillaydi, qor derazaga chirsillab uriladi. Sekin-sekin ko'zim uyquga ketarkan, qulog'im ostida yana o'sha ma'yus sado eshitiladi.

Oq uy – ola bargaklarda jonio-a,  
Yonib turgan chirog'imsan, alla...

Keyin... katta bo'lganimda ham qayerda alla eshitsam, negadir yuragim shirin orziqish bilan talpinib ketar, nega bunaqa bo'layotganini o'zim bilmas edim. Bir yili uch-to'rt qalamkashlar olis tog' qishlog'iga bordik. Mashina yurmas edi. Ot minib o'rganmaganim uchun charchab qoldim. Manzilga yetmasimizdan qorong'i tushdi. Yaylovdagi qirg'iz o'tovida tunab qolishga to'g'ri keldi. Qimiz ichdik, sovuq suzma yedik. Keyin birimiz namatga, birimiz po'stakka yonboshlagancha uxbab qolibmiz. Bir mahal sovuq qotib uyg'onib ketdim. Atrof jimjit. Faqat olisda it akillaydi. O'tov keragasicidan shom yegan oy mo'ralaydi. Shu payt qo'shni o'tovda chaqaloq yig'isi, ketidan ayol kishining alla aytayotgani eshitildi. Men uning so'zlarini aniq bilmasam ham alla aytayotganini his qilib turardim. Negadir yuragim shirin orziqib ketdi. Ayolning ovozimi, alla ohangimi, xuddi onamga o'xshab ketardi. Negadir shu ohang bilan qalbimga orom kirganday bo'ldi-yu, o'z-o'zidan ko'zlarim yumilib keta boshladi. Go'yo qirg'iz ayol bolasiga emas, menga alla aytayotganday... Yaqin orada bunaqa shirin uxlamagan edim.

Oradan uch-to'rt yil o'tgach, shunaqa holatni yana bir marta boshimdan kechirdim. Kislovodskka dam olishga borgan edik. To'rtta o'zbek yig'ilsa osh qilish harakatiga tushib qoladi. Sanatoriya yaqinidagi xonadondan qozon topdik. Bu yerning aholisi yoz paytida uyiga dam oluvchilarni ijaraga qo'yadi. Bu xonadonda ham sibirlik juvon ijarada o'tirarkan. Sap-sariq sochli, barvasta gavdali, yuzini sepkil bosgan juvon qishloq ayollariga xos soddadillik bilan bizga darrov elakishib ketdi. Kichkintoy o'g'ilchasini ko'tarib goh sabzi archishadi, goh idishlarni yuvadi. O'zbek palovining ta'rifini ko'p eshitsa ham hech yemaganini dilkashlik bilan aytib kuladi.

Birgalashib osh yedik, ko'k choy ichdik. Keyin sibirlik juvon kichkintoyini ko'tarib uyla kirib ketdi. Oradan chorak soatcha o'tgach, ichkaridan uning ovozi keldi:

Ba-yu ba-yushki, bayu, ba-yu-bay...

Qiziq, yuragimda yana o'sha shirin orziqish uyg'ondi. Uning ovozi ham onamnikiga o'xshab ketadi. Do'stlarim gangir-gungur suhbatlashib o'tirishibdi. Men bo'l sam ichkaridan chiqayotgan alla sadosiga qulq solaman. «Ba-yu, bay...»

Bu qanday holat?! Bu qanday sehr? Nima o'zi bu?

Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o'z seviklisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bermalol orom oladi. Nega shunaqa? Nahotki, go'dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Ehtimol, buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol, ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham Ona – tabiatning eng buyuk ixtirosidir.

Bilmadim... Qabriston darvozasi oldida, bir tomonda tilovat, bir tomonda alla yangrayotgan darvoza oldida turib shularni o'yladim-u g'alati bo'lib ketdim.

## HAQQUSH

Do'stlarim «Juda siqilib ketdingiz, aylanib kelamiz», deb tog'ga sudrashdi. Alla-pallagacha o'tgan-ketgandan gaplashib o'tirdik. Qiziq, har gal bosh ustiga bosib tushgudek mag'rur qad kerib turgan tog'larni, ulkan novvot parchasidek qirrador qoyalarni ko'rganda hayot abadiy emasligini o'layman. Qorong'i osmonda yana ham qoraroq soyadek qilt etmay turgan bu qoyalar bizga o'xshaganlarning necha-nechasini ko'rdi ekan?.. Faqat ularning tili yo'q...

Kechasi tunagan joyimiz sovuq edi. Anchagacha uxlay olmadim. Tashqarida teraklar shitirlaydi. Qayerdadir, yaqin joyda daryo shovullaydi. Bir mahal qulog'imga dilni orziqtiruvchi mungli tovush chalindi: «Haq-qu, haq-qu...» Bir zum sukunat tushdi-da, ancha olisdan yana o'sha tovush takrorlandi: «Haq-qu, haq-qu...»

Bola edim, go'dak edim. Onam aka-ukalar haqida g'alati bir cho'pchak aytib bergen edi. Emishki, bir zamonlar ikki aka-uka yashagan ekan.

Birining oti Ilhaq, ikkinchisiniki Is'hoq ekan. Ikkalasi bir-birini ko'rarga ko'zi yo'q, juda noahil ekan. Ularning ko'nglini olaman, deb ikki o'ttada onalari adoyi tamom bo'pti. Shunda qodir tabiatning qahri kelibdi-yu, ikkovining ham ko'zini ko'r qilib, qushga aylantirib qo'yibdi. Shunda-gina aka-uka bir-birini ko'rmasa turolmasligini, bir-biriga kerak ekanligini tushunibdi. O'shandan beri ikkalasi kechalari bo'zlab bir-birini chaqirib chiqarmish-u, topolmas emish...

Tashqarida hamon terak barglari shitirlaydi. Daryo shovullaydi. Mana shu shovullagan sukunat ichida dilni titratadigan iztirobli nido yangraydi: «Ilhaq! Is'hoq!..»

Bechora onam! O'sha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan mo'ralagan qaldirg'och bolasidek ko'rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo'lishini shunchalik xohlaganmiding!

... Onalar farzandlari hamisha birga bo'lishini istaydilar. Qismat esa ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaqal shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi.

## QARZ

Bir kuni gapdan gap chiqib, aka-ukalar oyimga hazillashdik:

— Har oy pensiya olasiz. Shuncha pulni qayoqqa qo'yayapsiz? Sandiqqa bosyapsizmi?

— Sandiq qatta, bolam? — deb kului onam. — Qarzlarim bor. O'shangan beraman-da.

Akamning qovog'i osildi.

— Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?

— E, sanga nima, bolam! Mening ishimga aralashib nima qilasan?

Keyin gap boshqa yoqqa aylanib ketdi. Bu suhbatni butunlay unutib yuborgan edim. Qaysi kuni ertalab hovlida aylanib yursam, qo'shnimizning yetti yashar qizchasi Nilufar chiqib qoldi. Oppoq bantik taqib, atlas ko'ylak kiyib olibdi.

— Ha, Nilu, yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? — dedim erkabalab.

— Bugun man tug'ildim, — dedi u qop-qora ko'zlarini pirpiratib jilmayarkan.

— Iya, yubilyar ekansan-da, shoshmay tur-chi, hozir.

Uydan bir hovuch konfet olib chiqdim.

— Mana, o'rtoqlaring bilan ye.

Nilufar kattalardek jiddiy bosh chayqadi:

— Men shokolad yemayman. Tishim tushgan. — Keyin yana o'sha jiddiy ohangda qo'shib qo'ysi: — Bultur poshsha buvim menga tuqli olib beruvdilar. Tug'ilganimda, — qizcha o'ylanib qoldi. — Keyin-chi, Bahoga uch oyoqli velosiped, Baxtiga ko'ylak...

Qo'lidan konfet tushib ketdi.

### GILAM PAYPOQ

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo'lqandek, uzundan uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o'g'li borligini ayтиб qo'shnilariga maqtanadi. Uning oyog'i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og'riydi.

Qo'ni-qo'shnilar ahvol so'rasha, ularniyam, o'ziniyam yupatadi.

— Ha, endi keksachilik-da, o'rgilay.

Lekin onamning oyoq og'rig'i faqat keksalikda emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman.

Bolaligimda ko'p kasal bo'lardim: qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak... Shuning uchun oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixorozgacha ilig'liq turardi... Ayniqsa, tomoq og'rig'i yomon qiyaydi. Oyog'im zaxga tegishi bilan tomosh'imi og'rishga tushadi. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman.

O'shanda necha yoshdaligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitma ko'tarildi. Quv-quv yo'talaman. Oyim tomosh'imi achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'ljadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo'ljadi... Oxiri tomosh'imi xippa bo'g'ib qo'ysi. Og'riqni sezmayman-u, nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi:

— Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi!

Keyin meni shosha-pisha ko'rpa chaga o'rasi. Bir mahal onamning qo'lida ketayotganim esimda bor. Gupullatib qor yog'ayotganini his etib

turardim-u, biroq yuzimga qor tushmas edi. Onamning issiq nafasi urilib turar, u sirg'anib-sirg'anib borar, og'ir hansirar edi.

Xira chiroq miltirab turgan allaqanday uyga kirdik. Ko'z o'ngim yana qorong'ilashib ketdi. Oyim hamon chirqillaydi:

— O'lib qoladi! Bolaginam o'lib qoladi!

— Vahima qilmang, poshsha, dardni bergan xudo, davosiniyam beradi.

Bu Hoji buvining ovozi ekanini g'ira-shira idrok etdim.

Hoji buvi boshimni tizzasiga qo'yib chalqancha qilib yotqizdi. Doka o'ralgan barmog'ini og'zimga tiqdi. Ko'nglim ag'darilib, tipirchilagancha yig'lar, ammo Hoji buvining qo'lidan chiqib ketolmasdim. U tomog'imga nimadir qildi. Dod solib qo'lini tishlab oldim. Qiziq, birpasdan keyin ahvolim yengillashdi. Ko'zimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.

— Nega tishlaysan, kuchukvoy? — dedi boshimni silab.

Keyin tepamga oyim engashdi. U hamon hansirar, sochlari to'zg'ib ketgan, yuzi jiqla ho'l edi.

Birpasdan keyin qaddimni rostlab, tanchaga oyog'imni tiqib o'tirdim. Hoji buvi allaqanday taxir suyuqlik ichirdi. Keyin oyimga qaradi-yu bir xitob qildi:

— Voy, poshsha-a-a! Nima qilib qo'ydingiz, tamom bo'psiz-ku!

Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi.

— Oyog'ingizdan ayrilibsiz-ku! — dedi Hoji buvi boshini chayqab. — Shu ahvolda qandoq keldingiz?

Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi ko'rdim. Kalishning ichi qorga to'la edi.

— Sarpochan kelaverdingizmi?! — dedi Hoji buvi hamon o'sha vahimali ohangda. — Endi nima qilasiz? Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz, cho'loq bo'lib qolasiz.

Oyim tanchadan oyog'ini chiqardi. Ikkala oyog'i qip-qizil go'sht bo'lib ketgan edi.

— Sovuq yegani yo'q, — dedi sekin. — Qaytaga isib ketdi. Qorda o'zi isib ketarkan.

Hoji buvi uning oyog'ini uqalab ko'rdi.

— Sezyapsizmi?

— Nimani? — dedi oyim oyog'iga emas, menga qarab.

— Qo'limni sezyapsizmi?

Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqillab yig'lab yubordi.

... Ertasiga u yotib qoldi. Uzoq yotib qoldi. Dadam bir joydan qarg'a otib keldi. Hoji buvi qo'lidan kelgancha dori-darmon qildi... Keyin oyim tuzaldi. Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib, azob beradigan bo'lib qoldi...

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim. U xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, ketimdan uzoq duo qiladi, birpasda hamma qo'shnilara ko'z-ko'z qilib chiqadi, shundoq «meh-ribon» o'g'li borligini aytib maqtanadi. Shunda qor gupullab yog'ib turgan mudhish kecha, onamning qip-qizil go'shtga aylanib ketgan oyoqlari ko'z o'ngimga keladi-yu, indamay chiqib ketaman.

## ILTIZO

Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim...

Qarang, oyi, tag'in ko'klam kirdi. Esingizdamni, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, ko'm-ko'k maysalarni ko'rib quvonardingiz. Esingizdamni, nevarangiz terib kelgan boychechaklarni ko'zingizga surtib, «omonliq-somonliq» qilardingiz...

Bugun... o'zingizning ustingizdan boychechak o'sib chiqibdi... Yo'q, yo'q, oyijon... Yig'layotganim yo'q. Bilaman, men yig'lasam, siz bezovta bo'lasiz. Hozir... hozir o'tib ketadi. Mana, bo'ldi...

Ertalab-chi, oyi, yomg'ir yog'di. Qattiq yomg'ir yog'di. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi... Esingizdamni, siz menga oftob to'g'risida cho'pchak aytib bergen edingiz. O'sha oftob charaqlab yotibdi... Ko'ryapsizmi...

Esingizdamni, oyi, ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo'lib uqlab qolardim. O'sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qo'ysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana... Yo'q, yo'q, yig'layotganim yo'q. Hozir, hozir o'tib ketadi.

Esingizdamni, oyi siz bir marta, atigi bir marta, o'shandayam hazillashib: «Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim» degandingiz. Men: «Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?» degan edim. Xafa bo'lmang, men ham hazillashgan edim. Mana o'sha kitob. Yo'q, uni

men yozganim yo'q. Uni siz yozdingiz. Men uni qog'ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo'lsayam, ularning hammasi Sizga o'xshashini xohlayman...

### *Savol va topshiriqlar*



1. O'tkir Hoshimov haqida nimalar bilasiz? Gapirib bering.
2. «Dunyoning ishlari» qissasining umumiyligi mazmuni haqida so'zlab bering.
3. Asarda tasvirlangan ona obrazi bilan barchamizning onalarimiz o'rtasida qanday o'xshashliklar ko'ramiz.
4. «Alla» bobidagi ona allasining barcha uchun tushunarli, ya'ni, umumbashariy hodisa ekanligi haqidagi gaplarni sharhlashga harakat qiling.
5. Qissaning «Iltijo» bobidagi «Esingizdam, oyi...» deb boshlanuvchi so'nggi abzasini yod oling.
6. «Qarz» bobi so'ngida qo'shnining qizchasi Nilufar bilan suhbat chog'ida nega adibning qo'lidan konfetlar tushib ketdi? Hikoyani o'qib ma'nosini tushuntirib bering.
7. «Haqqush» hikoyasida noahil aka-ukalar qanday jazoga tortildi?
8. «Gilam paypoq» hikoyasida onaning bolasiga fidoyiligi nimalarda ko'rindi?



# MIRTEMIR

(1910–1978)



Ko'l-u tog'lik,  
Bog'-u rog'lik o'zbek elim.  
Momo yurti,  
Bobo yurti, chambilbelim.  
Zar-u gavhar — yaltiroq tosh,  
nedir olmos,  
Sen biz uchun ham non, ham osh,  
mangu meros.

O'quvchining xotirasiga bir o'qishdayoq mixlanib qoladigan bu quyma satrlar O'zbekiston xalq shoiri Mirtemir qalamiga mansubdir.

Mirtemir Tursunov 1910-yilda, o'zi yozganidek, Qoratog' etaklarida — Turkiston shahrining Iqon qishlog'ida tug'ilgan. Avval bobosi qo'lida va eski mакtabda tahsil olgan. So'ng Toshkentga kelib, «Almai» nomidagi bolalar namuna ish maktabida tarbiya ko'radi. Samarcanddagi O'zbekiston Davlat pedagogika akademiyasida o'qyidi. O'qishni bitirib maktablarda muallimlik qiladi, nashriyotlarda, Yozuvchilar uyushmasida ishlaydi.

Shoirning birinchi she'ri «Tanburim ovozi» 1926-yili, 16 yoshida e'lon qilinadi. 1928-yili uning «Shu'lalar qo'ynida» nomli ilk she'riy to'plami nashr etiladi. Keyin «Zafar», «Qaynashlar», «Tong» to'plamlari dunyo yuzini ko'radi.

30-yillarda u juda ko'p vaqtini tarjimalarga bag'ishlaydi. A. S. Pushkin, M. Y. Lermontov, N. A. Nekrasov, T. G. Shevchenko she'rlarini, dostonlarini o'zbekchaga o'giradi. Umuman tarjima sohasida Mirtemir

nihoyatda barakali ijod qilgan. Antik dunyo shoiri Homer, shuningdek, Shota Rustaveli, Henrix Heyne, Tagor, Maxtumquli, Berdaq, Nozim Hikmat she'riy asarlari, «Manas» qirg'iz xalq eposi, «Qirq qiz» qoraqalpoq xalq dostoni Mirtemir domla zahmatlari tufayli o'zbek o'quvchisiga yetib kelgan.

Shoir umri davomida o'nlab she'rlar va dostonlar to'plamlarini chop ettirdi. «Bong», «Poytaxt», «O'ch», «Surat», «Qoraqalpoq daftari», «Tingla, hayot!», «Izlaganim», «Tog'day tayanchim», «Yodgorlik» kabilar ularning ichida eng mashhurlaridir. Bu to'plamlarning mundarijasiga qarasangiz, inson hayotining barcha pallalaridagi kechmishtilar, tuyg'ular, taassurot va xotiralar jamuljam bo'lganini ko'rasiz. Chunki Mirtemir xoh yirik doston yozsin, xoh sahna asarlari yoki katta-katta asarlarni tarjima qilsin, qat'i nazar, biron kun ham she'r yozishni tark etmagan. Ko'nglidan kechgan barcha tuyg'ulari she'rga ko'chgan. U gohida O'zbekistonimizning paxtazor dalalarini kezib, mehnatkash dehqonlar bilan tanishib, barchaning bunyodkorlik bilan yashayotganidan ta'sirlanib, zavqqa to'lib shunday satrlar bitadi:

Shavkatim, faxrim mening,  
Dengiz-u nahrim mening,  
Yuragim, bag'rim mening –  
Paxtakor Respublikam.

Shoirni to'lqinlantirgan tuyg'ular mo'l. U goh tarix sahifalarini varaqlab, ota-bobolarining ulug'vor ishlaridan hayratga tushadi. Gohi bu hayratlari o'z zamonasining mard, tanti insonlari bilan muloqlardan she'rlarga ko'chadi.

Shoirning ijodidagi bosh mavzu nima deb so'ralsa, yurtga, tabiatga oshiqlik, bolalik xotiralariga sadoqat, o'z xalqidan faxlanish, uni chin dildan sevish va ardoqlash deb aytish mumkin. Mirtemir she'rlarida bu mavzular ko'pincha birikib, omuxtalashib keladi. Bir she'rning o'zida ham tabiat go'zalligi, ham xotiralar, ham iftixor tuyg'usi va yana hayotga muhabbat kabi tushunchalarning ifodalanishini ko'rish mumkin.

Shoir umrining oxirida «Yodgorlik» deb nomlangan she'riy to'plam tayyorladi. Va unga so'nggi yillardagi eng sara she'rlarini jamlab, o'zidan keyingi avlodlariga ma'naviy tuhfa qilib qoldirdi.

Mirtemir 1978-yil 24-yanvarida 68 yoshida vafot etdi.

Shoirming avlodlarga qoldirgan ijodiy merosi ardoqlanib, to'rt jildlik «Asarlar»i nashr etildi.

Mustaqillik yillari Mirtemir domlaning xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishdagi ulkan xizmatlari taqdirlanib, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berildi.

### *Mirtemir she'riyatidan namunalar*

#### BULUT

##### I

Ko'k yuzida pag'a bulut – oq bulut,  
Oq bulutdan sut yog'armi yoki qut?  
Pag'a bulut – yaxshi ko'klam elchisi,  
Havolarda yomg'ir isi, sel isi...

Ko'k yuzida dam qaldiroq, dam sukut,  
Yog'may o'tma, pag'a bulut – oq bulut!  
Yog'ib o'tsang – tizza bo'yi o't bo'lur,  
O't bo'lur, ham sut bo'lur, ham qut bo'lur.

##### II

Ko'k yuzida pag'a bulut – oq bulut...  
Bir qarasang – osmon to'la oqquvlar,  
Bir qarasang – baland qorli cho'qqilar,  
Bir qarasang – ko'z ilg'ammas oq barqut.

Ko'k yuzida – yorug', oydin bir ro'yo...  
Usta rassom chizmish ajib manzara –  
Tepa-tepa paxta – beg'ubor, sara,  
Kuzgi xirmonlarning akslari go'yo...

#### BALIQ OVI

Bizning qishloq tog' bag'rida,  
Tog' bag'rida – bog' bag'rida,  
Etagida chopqillar soy.  
Yozda tiniq,

Kuzda tiniq,  
Suvda quyosh yuz bir siniq,  
Ko'klam chog'i soy butun loy.  
Qirg'og'ida jambil, yalpiz,  
Quchog'ida balig'i mo'l.  
O'l tiraman ba'zan yolg'iz,  
Suvga tushmay usti-bosh ho'l:  
Qarmog'imga ilinmaydi,  
Suzmoqdam yo chopmoqda,  
Suv tagidan ne topmoqda?  
Yuz tikilsang bilinmaydi...

Tashlay qolsam non ushog'in,  
Yugurishib kelar talay,  
Ulgurishib kelar talay.  
Ilinsaydi ulkanrog'i,  
Eltar edim jon buvimga.  
— Hay, rostanmi, hay, baliqmi,  
Tangalikmi, chaqalikmi?  
  
Balli, derdi, uquvimga...  
Ilinmaydi lekin hozir.  
Bundan keyin to'r tashlayman,  
Tashlasam ham zo'r tashlayman,  
Qo'lga tushar bari oxir.

### TO'RG'AY

Yoz boshi, dalalar soz,  
O'z ko'rkin yoymish yoz,  
Chechaklarda hali noz,  
Ko'llar to'la suqsur, g'oz,  
Oq bulutlar cho'g'lanib,  
Tong otar yallig'lanib,  
Ko'l osmoni bug'lanib,  
Ko'rinar go'yo sayoz.  
Shu vaqt allaqaylardan,  
Qaydam, qanday joylardan,

Dashtdanmi yo soylardan  
Yangrab ketar sho'x ovoz,  
Hech o'xhashi yo'q ovoz.  
Tut bargi kesganlardan,  
Suvga chim bosganlardan  
Un chiqmas, tinglashar jim.  
Kim u o'zi, qani kim?  
Qushlar ham qilmas parvoz.  
Jonvorlar ham tinglardi.  
Bog'bon ham, paxtakor ham,

Sholikor, chorvador ham,  
 Butun odam tinglardi,  
 Go'yo olam tinglardi,  
 Qandoq tinmagur ovoz!..  
 Men chopib cho'lga chiqdim,  
 Hech kim ko'rinas edi.  
 Kattakon yo'lga chiqdim,  
 Hech kim ko'rinas edi.  
 Keyin boqdim osmonga:  
 Kuy taratib jahonga,  
 Ko'k osmon cho'qqisida,  
 Moviy rang ko'zgusida,  
 Bir nuqtada pirillab,  
 Bir nuqtada chirillab,  
 Nuqtaday bir qush uchar,  
 Go'yoki behush uchar...  
 — Hoy, — dedim, — o'zing kimsan,  
 Bunchalar betinimsan,  
 Javroqisan bunchalar,

O'ynoqisan bunchalar,  
 Tinmay tushib o'yinga,  
 Lol etasan kuyingga?  
 — Men-ku, men to'rg'ay, — dedi. —  
 Ko'k yuzi soz joy, — dedi,  
 Dema, chala ko'rinar,  
 Butun dala ko'rinar.  
 Ko'k yuzida chirillab,  
 Yuz bir qo'shiq to'qisam,  
 Bir nuqtada pirillab,  
 Keng vodiyga o'qisam —  
 Yomonmi, hoy, sho'x o'g'lon?  
 Hayotni maqtaganim,  
 Tongni ardoqlaganim —  
 Yomonmi, hoy, sho'x o'g'lon?  
 — Ha, tongni ardoqlagin,  
 Hayotni ham maqtagin,  
 Uchib-o'ynayver, — dedim, —  
 Kuylab quvnayver, — dedim.

## SHUDRING

Tong belgi bergandanoq  
     O'tib osma ko'prikan,  
 Jar ketiga chopardim —  
     Jar keti o'zga olam.  
 To'ldirib chanoq-chanoq  
     Go'yo sutdek ko'pikdan,  
 Tutgandek g'oyib qo'llar —  
     Jilvagar ko'zga olam.  
 G'o'za yaproqlarida,  
     Ko'katlarning bargida,  
 Chechaklarning bag'rida  
     Yaltirar lak-lak inju.  
 Sho'x soy qirg'oqlarida,  
     Nihollar kurtagida,

Sal epkinda simobday  
     Qaltirar lak-lak inju.  
 Yaltirar suyri tepe,  
     Yaltirar qir uzunchoq,  
 Kelinlar taqinchog'i,  
     Uzuk ko'zlarimi yo.  
 Chor atrof sabzalarda  
     Jimir-jimir ko'zmunchoq,  
 Bo'y-bo'y dilrabolarning  
     Suzuk ko'zlarimi yo?  
 Yo'q, bu giryon ko'zlarning  
     Yarqiroq zamzamasi.  
 Kechasi onam tag'in  
     Yig'labdi-da chamasi...

## QISHLOG'IM

Qishlog'im, nechog'lik suluvsan bugun,  
Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha.  
Nechog'lik to'kissan, nechog'lik to'kin,  
Meni o'rab oldi xayol, tushuncha:  
  
Qay qo'raga kirsang — eshigi ochiq,  
Bir nima tatiysan, qo'ymas aslo och.  
Qoraqumg'on qaynar, yozilur chochiq,  
Zog'orami, so'kmi, yovg'on yo umoch.  
Borini ayamas, barini qo'yari,  
Yupqami yo go'ja, talqon, qo'g'irmoch.  
Qurutmi yo jiyda — o'rtaga uyar,  
Juda bo'Imaganda qatig'-u ko'moch.  
Agar so'ygan bo'lsa kecha bo'rdoqi,  
Qozonda qovurdoq, o'rtada ko'za.  
Danak, qovunqoqi, suzgun ko'z soqi,  
Yo qimiz suzilur, yo achchiq bo'za.  
Agar so'ygan bo'lsa uloq yo qo'zi,  
O'ho', no'xat sho'rva yoki kulchatoy.  
Juda qashshoq bo'lsa — bor yaxshi so'zi,  
Shundoq yaxshi so'zki, go'yo sarimoy.  
  
... Yoramazon aytar edik ba'zi kez,  
Shom payti, chang-tutun qishloq ko'chasi,  
Pul oshimi, to'qoch — olib chiqar tez,  
Tonggacha jaranglar oydin kechasi.  
Kelin yo'lin to'sib machit oldida,  
Aylanishar edik yoqib alanga.  
Hammasi qolarkan go'dak yodida,  
Boshdan sochilguvchi turshag-u tanga.  
Qish kuni to'y-u bazm yo yayov uloq,  
Yo nargi qishloqdan nogihon qorxat.  
Esimda go'daklik — unutilmas choq,  
O'sha kunlarimdan qalbimda bor xat...  
Qishlog'im, tag'in ham suluvsan bugun,  
Tag'in ham suyuksan, mening ardoqlim.  
Nechog'lik to'kissan, nechog'lik to'kin,  
Dunyo turguncha tur, qo'li qadoqlim.

## MIRTEMIR SHE'RLARI HAQIDA

Mirtemir she'rlari o'zbek she'riyatini har jihatdan boyitgan mazmuan teran va badiiy yuksak namunalardir. Ularda tabiat va inson hayotining xilma-xil ko'rinishlari, taassurot va kechinmalari g'oyat topqirlik va noziklik bilan aks ettiriladi. Shu ma'noda muxlislar Mirtemirni lirik shoir deb biladilar va qadrlaydilar.

Uning tabiat hodisalarini kuzatish orqali teran falsafiy xulosalar, go'zal qiyoslar, betakror obrazlar yaratish mahorati XX asrning 50—60-yillarda yozgan «Bulut» va «Shudring» nomli she'rlarida yaqqol seziladi.

Bulut – bu yomg'ir darakchisi. Osmonda bulut paydo bo'lishi bilan barchaning xayolidan yomg'ir yog'adi degan fikr o'tadi. Shunga yarasha taraddud va ehtiyyot choralar ko'rildi. Albatta, bemavrid yomg'ir yog'sa kayfiyat buziladi, ko'ngil g'ash tortadi. Bu, odatda, qop-qora bulut butun osmonni qoplab, kunni tundek qorong'ilikka chulg'agan damlarda bo'ladi. Ammo shoirning qo'liga qalam tutqizgan bu tabiat hodisasi yorug'lik, to'kinlik belgisi. Pag'a-pag'a oq bulut odatda bahor fasilda yog'adigan yomg'irlarni buvalarimiz «obi rahmat» deydilar. Buning ma'nosi shuki, ko'klam yomg'iri tabiatni yashnatib, dov-daraxtga, o't-o'langa kuch-qudrat, quvvat ato etadi. Ekilgan ekinlarni barq urib yashnashi, daraxtlarning mo'l-ko'l meva berishi uchun qiyg'os gullashiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida xonadonlarga rizq-u nasiba, to'kinlik kirishidan belgi. Shuning uchun ham shoir bu bulutni sutga, oqquvlarga, barqutga o'xshatadi. Uning sharofatidan paydo bo'lajak qut-baraka, tog'-tog' uyulajak oppoq paxtani orzulab, bulutga murojaat etadi. Momaqaldoiroq guldirab, goh to'lib-toshib sel bo'lib kelsa-da, yomg'ir yog'sin, yog'may o'tmasin deydi.

Ko'k yuzida dam qaldiriq, dam sukut,  
Yog'may o'tma, pag'a bulut – oq bulut!  
Yog'ib o'tsang – tizza bo'yi o't bo'lur,  
O't bo'lur, ham sut bo'lur, ham qut bo'lur.

E'tibor bering, qanday quyma satrlar! Shoir «o't», «sut», «qut» so'zlarini marjondek bir qatorga tizib, ham kuchli ma'no, ham yoqimli ohangdoshlikni ta'min etadi. O'quvchi qalbiga tabiatni sevishdan zavq ola bilishdek go'zal tuyg'ularni joylaydi.

Mirtemirning «Shudring» she'ridan ham xuddi shunday zavq tuyadi

kitobxon. E'tiborli tomoni shundaki, sarlavhadan boshqa she'ming biror misrasida shudring so'zini uchratmaymiz. Shoir faqat tasvir, o'xshatish, qiyoslash, jonlangan tasavvurlar orqali tabiatning shudring deb nomlangan yana bir bag'oyat nozik va go'zal hodisasini aks ettiradi. Bu she'r ham bolalik xotiralari bilan hayotiy kuzatishlarning uyg'unligi asosiga qurilgan. Lirk qahramon — yosh, balki siz qatori yigitcha, chor atrofda bahoriy iliqlik kezgan nahor pallasi — erta tongda qishlog'idagi jar ustiga qurilgan osma ko'priklardan o'tib, o't-o'lanlari toptalmagan qirlariga oshiqadi. Undagi ko'katlar bargida, nihollar kurtagida, g'o'za yaproqlarida inju-dur-marvarid misol yaltirab, jilvalanib turgan shudringni kuzatadi. Uning jilvalaridan lol bo'lib, yana boshqa o'xshatishlar topadi. Xususan, kelinlar taqinchog'iga, uzuk ko'zlariga, ko'zmunchoqqa, qizlarning suzilib turgan ko'zlariga qiyoslaydi. Va nihoyat juda o'ziga xos ramzlarga ishora qilib, shunday beqiyos obraz yaratadi.

Yo'q, bu giryon ko'zlarning yarqiroq zamzamasi,  
Kechasi onam tag'in yig'labdi-da chamas...

Shoir fikrni rivojlantirib, shudringni ko'z yoshlarga o'xshatadi. Ko'z yoshlari dona-dona bo'lib to'kilganda, yaltirab ketadi. Odatda kimnidir intiqlik bilan kutayotgan odamning ko'zları to'rt bo'ladi. Kuta-kuta toqati toq bo'lgach, yo sog'inch, yo o'kinishidan ma'yus tortib dona-dona yosh to'kadi. Shudring ana shu ko'z yoshiga o'xshaydi. Shoir nazarida bunday intazorlikdan ko'z yosh to'kuvchi kimsa bu — ona. Onaning munis-mushfiq mehribonligini nazarda tutib tabiatni ham ona deymiz.

Shudring ana shu ma'noda ona, ya'ni tabiatning ko'z yoshi degan nihoyatda nozik bir o'xshatish topadi shoir. Bu juda o'ziga xos, o'ta nafis kuzatish. Go'yoki tabiat ko'z yoshlarini to'kib barcha dov-daraxt, sabzalarning chang-u gardlarini yuvadi, g'uborlaridan forig' etadi.

Odatda xayolot dunyosi keng, butun olamga o'z nigohi bilan qaray oladigan va so'z vositasida uni aks ettira biladigan mahoratli shoirlarni so'z musavvirlari deymiz. Mirtemir domla ana shunday san'atkor shoir, haqiqiy so'z ustasi edi. Uning ijodiy merosida bunday she'rler juda ko'p. «To'rg'ay» nomli mashhur she'r ham fikrimizning yaqqol isbotidir.

Shoir sayroqi to'rg'ay misolida o'z hayoti va ijodining butun mazmunini belgilagan bir haqiqatni ramziy ifodalagandek tuyuladi. Ya'ni tongni sevish — bu yorug'likni sevish, unga intilish demak. Tong hayot

nishonasi, ezgu orzularning amalga oshmog'i uchun umid bag'ishlovchi paytdir. To'rg'ay, ba'zi kishilar nazdida, go'yoki tong-saharlab barcha ning halovatini buzib, betinim sayraydigan, yengiltak javroqi qush. Lekin u keng dalalarning moviy osmonida charx urib, o'ynab sayrar ekan, sholikor-u chorvadorni, bog'bon-u paxtakorni — barcha mehnat ahlini uyg'otadi, mehnatga, yaratuvchilikka chorlaydi. G'aflatda qolmaslikka, yorug' daqiqalarni boy bermay, bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lishga undaydi. Shuning uchun ham uni — tongni ardoqlaguvchi, hayotni maqttaguvchi bir qushni ezzulik darakchisi deb biladi shoir. Bu shunchaki qushni maqtash, uning bir xislatini namoyish etish emas. Balki to'rg'ay misolida shoirning o'ziga va o'z hamkasblariga «haqiqiy shoir o'z xalqining ovozi bo'lishi, uni ezgu ishlarga chorlashi, yorug' tuyg'ularni kuylashi kerak» degan murojaatidek tuyuladi. Mirtemir butun umri davomida ana shu aqidaga amal qilib yashadi. Xalqimizning to'y-tantanalarini, eng yaxshi insoniy xislatlarini kuyladi, kishilarimizni ezgu ishlarga ilhomlantirdi, mardlikni, jasoratni, samimiylilikni ulug'ladi.

Shoir lirik merosida tabiat manzaralari va bolalik xotiralarini bilan bog'liq she'rler salmoqli o'rin egallaydi. Uning o'zi «Baliq ovi» she'rida yozganidek:

Bizning qishloq tog' bag'rida,  
Tog' bag'rida — bog' bag'rida,  
Etagida chopqillar soy,  
Yozda tiniq, kuzda tiniq.

Demak, shoir Turkiston shahrining Iqon qishlog'idagi Qoratog' bo'yida tug'ilib o'sgani, ya'ni tabiatning barcha go'zalliklaridan bahramand bo'lganini yodga olarkan, she'rlerida ana shu mavzularning yetakchilik sababini tushuntirgandek bo'ladi. Bu satrlarni o'qiganda, ko'z o'ngingizda aniq bir manzara namoyon bo'ladi. Tog' bag'ridagi qishloq, atrof daraxtzor, mevali bog'. Uning etagida sharqirab soy oqmoqda. Soy tabiatning ikki faslida tiniq oqadi — yozda va kuzda. Qishda suv kamayadi yo butkul to'xtaydi. Bahorda esa, ayniqsa, erta bahorda soy to'lib, loyqalanib oqadi. Xo'sh, muhtaram she'rxon, buning sababini nimada deb o'ylaysiz? Xuddi kimdir soy boshiga to'g'on qurban-u, uni vaqt-vaqt bilan o'z xohishiga qarab ochadigandek fikr paydo bo'ladi. Aslida tabiatning o'zi eng oliy mo'jizadir. Har bir hodisada bir sabab va

bog'liqlik bor. Qish sovuq kelib, tog'-u toshni qor bosganda, hamma yoq muzlab, soy ham to'xtaydi. Bahor kelib, kunlar iliqlasha borgani sari qorlar erib, soy to'lib oqa boshlaydi. Tog' cho'qqilaridan tushib kelayotgan suv yo'lidagi butun xor-u xaslarni, qum-u tuproqlarni ham qo'shib bo'tana bo'lib, loyqalanib ketadi. Bu holat bahor so'ngiga qadar davom etib, o'zan tozalanib bo'lgach, yoz va kuzda suv tiniqib qoladi. Shoir she'rida aynan shunga ishora qilib, «ko'klam chog'i soy butun loy» deya real manzara chizadi va ayni chog'da shu bo'tana suvlardan oziqlanib, soy qirg'oqlari jambil-u yalpiz kabi turli ko'katlar bilan qoplanishini tasvirlaydi. So'ng shoir bolalik xotiralariga o'tib, o'zining baliq ovlaganini hikoya qiladi. Ko'klam butun borliqni uyg'otganidek, to'lib oqayotgan soyning har yerida bekinib yotgan baliqlarni ham uyg'otadi go'yo. Shoirning lirik qahramoni, ya'ni bolalik paytidagi o'zi, suv bo'yida baliqlarning suzib, o'ynoqlashini tomosha qilib o'tirarkan, biror kattaroq baliqni ushslash ilinjida suvga non ushoqlarini tashlaydi. Buni ko'rib toshlar orasiga bekinib yotgan baliqlar suzib keladi. Bolaning mo'ljali ulkan baliqni tutib buvisiga olib borsa-yu, undan maqtov eshitsa. Biroq qo'liga sira baliq ilinmaydi. Sirg'alib chiqib ketadi-yu, tutqich bermay qochadi. Shunda bola to'r tashlab, bitta emas, barchasini ushlab olishni mo'ljallaydi. Siz ham, aziz o'quvchi, baliq oviga borgan yoki ko'l-u daryo bo'ylarida qarmoq tashlab, jimgina tikilib, xayol surib o'tirgan odamlarni kuzatgan bo'lsangiz kerak. Qarmoqqa baliq ilinishi bilan na kiyim-boshi ho'l bo'lishini va na qoqilib yiqilishi mumkinligini o'ylamay o'ljasiga intilgan ishqibozlarning xatti-harakatlaridan zavqlangan bo'lsangiz kerak. Shoir ham o'z boshidan kechirgan shunday manzarani tasvirlar ekan, she'rdan ibratli xulosalar chiqarishga asos beradigan bir fikrni anglamoqchi bo'ladi. Ya'ni bundan keyin «To'r tashlasam ham, zo'r tashlayman» misrasi bilan o'zini katta orzular va katta ishlarga chog'lanayotganini bildirib o'tadi.

Har bir badiiy asar, jumladan, ko'rib o'tganimiz mazkur she'r ham ma'lum bir maqsad va g'oya tashiydi. Shoir tabiat ko'rinishlari bilan bolalik xotiralarini uyg'unlikda tasvir etar ekan, o'quvchiga yorug' kayfiyat bag'ishlash bilan birga, uni ulug'ver niyatlarga ham chorlaydi. Go'zallikni his etish orqali ma'naviy yuksalishga da'vat etadi.

Mirtemirning yana shunday yorug' she'rlaridan biri «Qishlog'im» deb nomlangan. Buni «Baliq ovi» she'rining mantiqiy davomi deyish

mumkin. Bir qaraganda, bu she'rlarni solishtirib, dabdurustdan baliq ovi haqidagi taassurotlarga har turlik taomlar, mehmondo'stlik tas-virlangan she'rning nima aloqasi bor, degan savol berish mumkindek. To'g'ri, yuzaki qaraganda, bu voqealar o'rtasida hech bir aloqa yo'qdek tuyuladi. Ammo har ikki she'rغا diqqat qilsak, ularni mushtarak etib turgan bir bog'liqlikni, mantiqiy davomiylikni sezamiz. Bu o'sha bolalik taassurotlari, shoirning qalbiga zavq, ko'tarinkilik bag'ishlayotgan xotiralar mushtarakligidir.

«Qishlog'im» she'rida shoir endi kamolotga yetgan, hayotning ulg'aygan pallasida xotiralarga berilgan bir inson sifatida gavdalanadi.

Esimda go'zallik – unutilmas choq,  
O'sha kunlarimdan qalbimda bor xat...

Lirik qahramon oradan bir necha o'n yillar o'tib, qishlog'ini ziyorat qilishga kelganida avvalgiday mehmondo'stlik va bag'rikenglikning guvohi bo'ladi. Va beixtiyor «yoramazon aytar» pallalarini qo'msaydi. Bu tuyg'uni go'yo o'quvchi qalbiga ham singdirmoqchi bo'lib, qishloq hayotining jozibasini anglatuvchi turli tafsilotlarni keltiradi.

O'zbek qishloqlari hamisha to'kinlik va saxovat ramzi bo'lgan. Qishloqqa borgan odam hech qachon e'tiborsiz qolmaydi. Mehmonni otaday ulug'lash, unga bor mehrini berib, ehtirom ko'rsatish qishloqlarimizda azal-azaldan qolgan udum. Har bir xonadon egasi uyiga kirgan qo'noqni tansiq taomlar bilan siylashga harakat qiladi, borini mehmonning oldiga to'kadi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, odatda qishloq uylari quflanmaydi. Doimo eshik ochiq. Uzoqmi, yaqinmi biror qarindosh, do'styor, tanish-bilishlar kelsa, albatta, dasturxon yoziladi. Qishloqda mehmonni siylaganda, qanaqa taomlar tortilsa, she'rda bari sanaladi. Zog'ora-yu so'k oshi, yovg'on-u go'ja, yupqa-yu tolqon, qovurdog'-u kulchatoy. Juda bo'limganda, qatiq, qurt, jiyda, danag-u qovunqoqi qo'yadi. Mabodo bular ham bo'lmay qolsa, sariyog'day yoqadigan yaxshi so'z bilan ko'nglingizni oladi qishloq ahli. Mana shularni aytar ekan, shoir bolalik davrining betashvish, beg'ubor, o'yinqaroq palla-larini yodga oladi.

Ramazon oylari qanday urf-odatlar bo'lishini yaxshi bilsangiz kerak. Hoynahoy o'zingiz ham o'rtoqlaringiz bilan eshikma-eshik yurib, yaxshi niyatlar bildirib, «yoramazon» deb boshlanuvchi qo'shiqlar aytgansiz.

Bolalar tilak bildirgan har bir xonadon biror shirinlikmi, turshag-u mayiz, yo kulchatoy, yo tanga, mayda pul chiqarib beradi. Bolalar shodon o'ynashib, qo'shiqlari, tilaklarini avjantirib ketadilar. Shoир mana shu xotiralarni esga olib, ko'ngli farahga to'ladi. Qishlog'ining yanada obod bo'lganini, bugungi jamolini ko'rib sevinchi toshadi. Qo'li qadoq, demakki, tinimsiz mehnat qilib, to'kinlik yaratayotgan dehqonlarni ulug'laydi. Qalbi mavjlanib, ona yurti sha'niga yana alyorlar aytadi.

Qishlog'im, tag'in ham suluvsan bugun,  
Tag'in ham suyuksan, mening ardoqlim.  
Nechog'lik to'kissan, nechog'lik to'kin,  
Dunyo turguncha tur, qo'li qadoqlim.

Mirtemir ijodida bulardan tashqari yana juda ko'p mavzular qalamga olingan. U hissiyotlar dunyosi juda boy, hassos shoир bo'lgani, xalqimiz turmushi, urf-odatlarini yaxshi bilgani uchun har qanday mavzuda nihoyatda ehtirosli, juda shirali, boy badiiy til bilan mavzuning mohiyatini ochib bera olar edi. Quyma, mag'zi to'q satrlar, bir o'qishdayoq xotirada o'rashib qoladigan qofiyalar, hamohang tovushlar shoир Mirtemirning naqadar katta iste'dod egasi bo'lganidan dalolat beradi.

### *Savol va topshiriqlar*



1. Mirtemir hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
2. Shoirming birinchi she'ri va to'plami qanday nomlanadi, ular qachon e'lon qilingan?
3. «Mirtemir – tarjimon» mavzusida suhbatlashing.
4. Shoир ijodidagi bosh mavzular haqida so'zlang.
5. Mirtemirning tavsiya etilgan she'rlaridan birini yod oling.
6. «Bulut» she'rida badiiylik, jumladan, ohangdoshlik nimalarda ko'rindi?
7. «Shudring» she'rida shoир tabiat hodisasini nimalarga o'xshatadi va uni qanday badiiy izohlaydi?
8. «Baliq ovi» she'rida shoир tug'ilib o'sgan yurt tasviri haqida so'zlang.
9. «Mehmondo'stlik – milliy qadriyat» mavzusida suhbatlashing.
10. Mirtemir she'rlarida bolalik xotiralarining o'rnini qanday izohlaysiz?
11. Nima uchun shoир qishlog'ini «qo'li qadoqlim» deb aytadi?
12. Mirtemir she'riyatining ahamiyati haqida mulohaza yuriting.

# *Maqsud QORIYEV*

*(1926-yilda tug'ilgan)*



Hozirgi zamon o'zbek adabiyotining namoyandalaridan bo'lgan yozuvchi va jurnalist Maqsud Qoriyev 1926-yili Toshkentda tug'ilgan. Uning bolalik va o'smirlik yillari Ikkinci jahon urushi paytiga to'g'ri keldi. Shuning uchun u mehnat faoliyatini juda erta boshlab, Yunusobod mavzeyidagi xo'jaliklarda ishladi. 1947-yili Toshkent yuridik institutini tugalib, shu institutning aspiranturasida o'qishni davom ettiradi. Keyinchalik nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

M. Qoriyevning jurnalistik faoliyati o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Dastavval u «Qizil O'zbekiston» gazetasida, so'ng «Toshkent haqiqati» gazetasida bosh muharrir o'rinnbosari va bosh muharrir lavozimlarida ishladi. 1964—1984-yillarda, ya'ni yigirma yil davomida respublikaning eng asosiy gazetasi (hozirgi «O'zbekiston ovozi»)ga rahbarlik qildi. 1984—1992-yillarda «Mushtum» hajviy jurnali bosh muharriri, undan keyin «Mehrigiyo» gazetasi bosh muharriri bo'lib ishladi.

60-yillarning o'rtalaridan birin-ketin Maqsud Qoriyevning nasriy asarları bosila boshlaydi. «Oydin kechalar» (1968), «Jylda gullaganda» (1970), «Oy tutilgan kecha» (1971), «Qiz uzatib borganda» (1972), «Afrosiyob go'zali» (1974), «Turnalar baland uchadi» (1976), «Oydin» (1979) kabi kitoblari nashr etiladi. Bu asarlarning asosiy mavzulari yoshlar haqida bo'lib, ularning ma'naviy olami, o'z hayot yo'llarini topib olishdagi mashaqqatlari, orzu-intilishlari aks etadi. Ayrim qissa va hikoyalarda yaqin tariximizdagi voqealar, jumladan, fuqarolar urushi, ozodlik harakatlari qalamga olinadi. Ota-bobolarimizning jasorati hikoya qilinadi. Bu asarlar Maqsud Qoriyevni yirik janrdagi nasriy asarlarga

o‘tishi uchun o‘ziga xos bosqich bo‘lib, yozuvchi 80-yillardan qadimgi buyuk ajdodlarimiz hayoti, qahramonona ishlari, uzoq tarix kechmishlari borasida hikoya qiluvchi yirik romanlar yarata boshlaydi. «Spitamen» (1985), «Ibn Sino» (1995), «G‘aznaviyalar» kabi tarixiy romanlar shu siradandir. Bulardan tashqari adib turli mavzu va yo‘nalishdagi «Ibn Sinoning bolaligi», «Yulduzlarda edi xayoli», «Osiyo go‘zali», «Tojma-hal», «Qaytar dunyo», «Temur haqida hikoyalari», «Ezgulikka intilib» kabi o‘ndan ortiq yangi to‘plamlarini ham kitobxonlarga so‘nggi o‘n yil davomida taqdim etdi. Yozuvchining «Qaldirg‘ochlar bahorda keladi» hikoyasi va «Qiz uzatib borganda» qissasi asosida badiiy filmlar suratga olingan. Maqsud Qoriyev «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi», «Shuhrat» medali, «El-yurt hurmati» ordeni va jurnalistika sohasidagi xizmatlari uchun «Oltin qalam» mukofoti bilan taqdirlangan.

## QALDIRG‘OCHLAR BAHORDA KELADI

### *(Hikoya)*

Bu voqeа Toshkentda yer qimirlagan o‘sha dahshatli unutilmas yilda bo‘lib o‘tgandi. Biz, yer qimirlashning qoq markazida, mashhur Qashqar mahallasida istiqomat qilardik. Yuz bergen tabiiy ofat tufayli uyimizning hamma yog‘i buzilib-yorilib ketib, bunday qaraganda xonalar but-butun turgan bo‘lsa-da, lekin yashash uchun mutlaqo yaroqsiz holga kelib qolgandi. Yaxshiyam, baxtimizga o‘sha kezlarini iliq-issiq kunlar boshlanib ketdi, chodir tikib hovliga chiqa qoldik.

Albatta, odattdan tashqari bunday yashash sharoiti romantikaga ishqiboz bolalarga juda qo‘l keldi. Ayniqla, ko‘ch-ko‘ronlarimizni yig‘ib hovliga chiqib olganimiz qizimiz Nodirada alohida qiziqish uyg‘otdi. Lekin qizig‘i shundaki, endigina oltinchi sinfga o‘tgan, har turli sarguzasht hikoyalarga qiziquvchi, biror gap bo‘lsa tagiga yetmasdan tinchimaydigan bu sersavol qiz avvaliga hazil-huzul qilib yurdi-yu, keyin el boshiga chinakamiga katta tashvish tushganligini tushunib, o‘zini xuddi kattalardek jiddiy tutadigan bo‘lib qoldi. Buning boshqa sabablari ham bor ekanki, unisi bizga keyin ma’lum bo‘ldi.

Esimda, uyimizning o‘rtadagi katta xonasining shiftiga qaldirg‘ochlar uya qo‘yishgandi. Bu ajoyib qushchalar har yili bahor faslining ma’lum kunlarida biznikiga uchib kelishar, o‘zlarini qurgan inlarining u yoq-bu

yog‘ini «tuzatib», keyin o‘sha uyada yoz bo‘yi bermalol «istiqomat» qilishardi. Biz butun oilamiz bilan qaldirg‘ochlarga judayam o‘rganib qolgandik, ayniqsa, yakka-yu yagona qizimiz Nodira ularni juda sevar, bahor boshlandi deguncha qaldirg‘ochlar kelishini orziqib kutardi. Ba‘zan qish cho‘zilib ketsa, kechikib qolayotgan vafodor do‘stlarini qo‘msab, havoning tezroq yurishib ketishini o‘zicha iltijo qilardi. Yer qimirlab, hamma narsa hovlida ochiq-sochiq yotgan, oilada besaranjomlik hukm surgan bir sharoitda Nodira o‘z qaldirg‘ochlarining taqdiri haqida o‘layotgan bo‘lsa ham ajab emas.

Mana, hamma narsani qish uyqusidan uyg‘otib, elga olam-olam gul, chechak, go‘zallik hadya etib ko‘klam boshlandi. Bahor uchun turli tabiiy ofatlar, yer qimirlash degan narsalar baribir, aloqasizdek...

Bir kuni tong bilan to‘satdan bahor jarchilari — qaldirg‘ochlar ham paydo bo‘lib qolishdi, go‘yo xonadonimiz to‘lib ketgandek, boshimizdagи tashvish biroz bo‘lsa ham kamaygandek tuyuldi bizga. Nodiraning esa quvonchi cheksiz edi.

Qaldirg‘ochlar kela solib shoshilgancha o‘z xonalariga kirib ketishdi, keyin tezda qaytib chiqib nimalardir deb chug‘urlasha boshladi. Goho eshikdan, goh ochiq derazadan kirib, butun xonada girdikapalak bo‘lib aylanishar, nima uchundir bezovta bo‘lib vijirlashardi. Xullas, o‘zaro «muhibama» bir necha daqiqa davom etdi-da, keyin qaldirg‘ochlar birpasda qayergadir g‘oyib bo‘lishdi, xonadonga jimlik cho‘kib, hamma yoq suv quygandek huvillab qoldi.

Biz, qaldirg‘ochlar tezda qaytib kelar, deb o‘yladik, ammo bir necha daqiqa o‘tgan bo‘lsa-da, ulardan darak bo‘lmadi. Nodiraning ruhi tushib ketdi, quvonchi tugab, ko‘ngli buzildi. Axir, shuncha yillardan beri bir xonadonda turib, bir-birovlariga o‘rganishib qolgan vafodor «do‘stlari» ketib qolgandi-da. Qiz qalbi ezilib, ginaxonlik qilgandek ham bo‘ldi: «Nahotki, boshimizga tashvish tushib, uylarimiz buzilib yotgan sharoitda qaldirg‘ochlar bizni tashlab ketishsa», o‘yladi Nodira. Oshxonada ovqat tayyorlayotgan onasining yoniga borib, arz-dodini ayta ketdi:

— Oyijon, menga qarang, axir endi nima qilamiz-a, qaldirg‘ochlar ketib qolishdi-ku...

— Voy qizim-ey, qayerga ham ketishardi, hozir qaytib kelishadi, — dedi onasi beparvo.

- Yo‘q, kelishmaydi, so‘zlashganlarini o‘zim eshitdim... — qizining gapiga onasi birdan xandon tashlab kulib yubordi:
- Voy qizim tushmagur-ey, gapiga qarang-a, qaldirg‘ochlar so‘zlashgan emish. Xo‘s, ularning gaplarini qanday tushunding?
- Tushundim-da, o‘zim bilaman, ilgarigi yillardagidan ancha boshqacharoq chug‘urlashdi. Bilasizmi, oyijon, ular juda bezovta bo‘lishdi, ha, ishonavering...
- Uylarimiz ahvolini ko‘rib achinishgandir, qushlar juda ham sezgir bo‘lishadi.
- Balki shundaydir...

Shu vaqt qaldirg‘ochlar qaytib kelib qolishdi. Endi ular uyga kirmay, ayvonda aylana boshlashdi. Keyin bilsak, ular o‘z rejalarini o‘zgartirib, uy masalasini boshqacharoq hal etishgan ekan. Katta tashlab, birdaniga ayvonning shiftiga in qurishga kirishib ketishgandi. Qarabsizki, «qurilish» ishlari tez sur’atlar bilan boshlanib ketdi, mohir «quruvchilar» charchash nimaligini bilmay, tong sahardan to kech qorong‘isi-gacha tinimsiz ishlashardi, arxitektor ham, quruvchi ham, shuvoqchi ham o‘zları... Qaldirg‘ochlarning shunchalik jafokash, mehnatkashligiga tahsinlar o‘qiysan, kishi. Xullas, jafokash qushlarning igna bilan quduq qazigandek, o‘z uylari poydevorini asta-sekin qurayotganliklarini doimiy kuzatib borayotgan Nodira tabiiy ofatdan chetda qolma-gan qushlarga rahmi kelar, «imorat»ning tezroq bita qolishini orziqib kutardi.

Shu orada shahar markazida moskvaliklar barpo etgan ko‘p qavatlari yangi uy binosi bitdi-yu, bizga undan uch xonali kvartira berishdi. Nima ham qillardik, bir necha yillardan beri yashagan, yoshlik yillarimiz o‘tgan qadrdon xonadonimizni tashlab ketishga to‘g‘ri keldi. Yangi uyga ko‘chib ketayotgan bo‘lsak ham, harholda, yuragimiz uyushdi, ayniqsa, Nodira judayam bo‘shashib qoldi. Hamma-hamma bilan-ku, qiz tushmagur: «Qaldirg‘ochlar nima bo‘ladi», — deb turib oldi.

— Jon adajon, qaldirg‘ochlarni yangi uyga olib ketaylik, — deb ko‘ziga yosh oldi.

— O‘zing ko‘rib turibsan. Ular uy qurishyapti, shu yerda yashashlari kerak, — dedim uni yupatib.

— Axir biz ketsak, quruvchilar uyni buzishadi-yu, unda sho‘rliklar nima qilishadi?

Nodiraning savollariga javob bera olmaymiz, keyin yana uni yupatishga harakat qilamiz:

- Uy hali-beri buzilmaydi, ungacha qaldirg'ochlar bemalol bola ochib, ularni katta qilib olishadi.
- Hammasidan xabarim bor, qo'shnimizning qizi aytdi, bu yerlarga katta imoratlar tusharmish, qishga qadar bitar emish!..
- Unday emas, harholda, kuzga qadar buzilmaydi.
- Mayli, kuzgacha buzilmasin deylik, xo'sh, yanagi yil bahorda qaldirg'ochlar qayerga kelishadi?
- Ko'rib turibsanki, qaldirg'ochlar judayam aqli qushlar, mana ular o'zaro maslahatlashib, nurab turgan uygaga kirmay bizni hovlida yashayotganimizni ko'rib o'z inlarini ayvonga qurishdi, bas, shunday bo'lgach, yanagi yil bahorda yana qaytib kelishsa, albatta, o'zlariga yarasha joy topib olishadi.
- Qayerdan topisharkin-a? — taajjublandi Nodira.
- Balki bizning ko'p qavatli uylarimizga borishar.
- Rostdanmi-a, adajon, qani endi shunday bo'lsaydi... — sevinib dedi Nodira.

Shunday qilib, oradan bir hafta o'tgach, ko'chlarimizni ortib yangi uygaga ko'chib ketdik. Eson-omon yangi uygaga joylashib oldik. Keng, shinam qilib qurilgan, barcha sharoitlari, qulayliklari bo'lgan qutlug' xonadonimiz hammamizga judayam yoqib tushdi. Hayotimiz o'z iziga tushib ketdi.

Kunlardan bir kuni Nodira bilan birligida ba'zi bir zarur mayda-chuydalarni olib kelish uchun Qashqar mahallasidagi eski uyimizga yo'l oldik. Hovliga kirishimiz bilan men ham, Nodira ham avvondagi qaldirg'ochlar qurayotgan uyaga qaradik. Qaldirg'ochlar yo'q edi, biz avvaliga hovli o'rtaida turgancha, qaldirg'ochlar «qurilish materiallari» tashiyotgan bo'lsa kerak, hozir kelib qolishar, deb biroz kutdik. Lekin qushlardan darak bo'lmasdi, aftidan, ular «yangi uy» qurilishini chala qoldirib, allaqachon uchib ketishgandi...

Nodiraga qaradim, ko'zlarini yerga tikkancha sukul saqlab turardi. Nodira ham qarab turganimni bildi-yu, ko'zlaridagi namni bildirmaslik uchun yuzini chetga burdi. Ota-bola indamasdan huvillab yotgan bo'sh hovlidan tezda orqamizga qaytib chiqib ketdik. Nima uchundir yuragim uzilib ketgandek tuyuldi, ko'chib ketayotganda ham bunchalik xafa bo'lmasan edim...

## \*QALDIRG‘OCHLAR BAHORDA KELADI\*

### HIKOYASI HAQIDA

O‘zbekiston poytaxti bo‘lgan Toshkent shahrining bir necha ming yillik tarixi haqida ko‘p eshitgansiz. Uning hozirgi hayoti, shahar nihoyatda ko‘rkam qiyofa kasb etganini ham yaxshi bilasiz. Toshkent bugun dunyoning eng go‘zal shaharlari qatoridan joy olgan muazzam poytaxtdir. Bu yerga har kuni qanchadan qancha mehmon-u sayyoohlar kelib ketadi. Ne-ne anjumanlar, xalqaro tadbirlar bo‘lib o‘tadi. Ana shu ulug‘vor shahrimizning yaqin tarixida, bundan qirq yillar muqaddam shunday bir qayg‘uli kunlar bo‘ldiki, buni ota-onalaringiz, buvi-buvilaringiz yaxshi eslashadi.

1966-yil 26-aprel tongotarida Toshkentda juda kuchli yer qimirlashi sodir bo‘lib, minglab xonadonlar vayronalikka uchradi, yuzlab kishilar talafot ko‘rdi, mayib-majruh bo‘ldi, qancha odamlar vayronalar ostida qolib, bevaqt hayotdan ko‘z yumdi. Bu mash‘um voqeа Toshkentning yangi tarixidagi eng tahlikali, qo‘rqinchli kunlardir. Ayni chog‘da xalqimizning, xususan poytaxt xalqining sinovlardan o‘tgan, jipslik, ahillik, matonat ko‘rsata olgan shonli tarixi hamdir bu kunlar. Xalqlar, millatlar do‘stligi ham katta imtihondan o‘tgan, mehr va qadr kabi yuksak ma‘naviy fazilatlar namoyon bo‘lgan damlar edi u damlar. Toshkent juda tez fursatlarda qayta tiklandi, go‘yoki yangitdan barpo etildi. O‘sha kunlarda tug‘ilgan o‘g‘il-qizlar bugun o‘zlari ota, ona va hatto ayrimlari nabira ko‘rgan buvi-buvalardir. O‘sha kunlarning xavotirli va ma‘yus damlari endilikda xotira va tarix bo‘lib qoldi.

Yozuvchi Maqsud Qoriyev ana shu zilzila davri bilan bog‘liq hayotiy voqeani qalamga oladi. Hozirgi «Olimpia shon-shuhrati muzeyi» joylashgan bino atroflari o‘sha kezlar mashhur Qashqar mahallasi deb yuritilardi. Toshkentning markaziy mavzelaridan edi. Ana shu joy zilzilaning ham asosiy markazi bo‘lib, tabiiy ofatdan eng ko‘p zarar ko‘rgandi. Shu yerdagi xonadonlardan birida yashovchi Nodira Sizning tengquringiz, juda ta’sirchan, romantik tabiatli, har turli sarguzashtlarga qiziquivchan qiz. Tabiatan quvnoq, sersavol qiz zilzila tufayli barchaning chuqur tashvishida, hovli-ko‘chalarga chodir tikib yashayotganini ko‘rib, jiddiy tortib qoladi. Buning sabablaridan yana biri «qaldirg‘ochlar tashvishi» edi.

Siz uylarning shiftlarida bejirimgina qurilgan qaldirg'och uyalarini ko'rgan bo'lsangiz kerak-a? Bahor darakchilar bo'lgan bu qushlar ko'klam kelishi bilan paydo bo'lib, o'zlariga yashash uchun qulay joy izlaydilar. Chunki tuxum qo'yib, bola ochishlari uchun sharoit yaratishlari kerak. Odatda qaldirg'ochlar har yili kuzda tark etgan uylariga bahorda kelib yana joylashadilar. Albatta avval uyaning u yoq-bu yog'iga qarab, «ta'mirlab» so'ng joylashadilar. Yoki yangi joylarga, ya'ni uy bo'g'otlariga in quradilar. Ular shu qadar mehnatkash va saranjomki, e'tibor qilsangiz, erta-yu kech tinimsiz ishlaydilar. Musichalarga o'xshab duch kelgan joyga, nomigagina in qurib, shunda ham xas-xashakdan omonat qilib yasamaydilar. Aksincha, shiftlarning balandligi, bexavotirligini e'tiborga olib, mustahkam va ishonchli qilib uya quradilar.

Bu uylar qurilayotganda hech bir xonadon egasi monelik qilmaydi. Aksincha, qaldirg'och uya qurayotgan joyga qut-baraka kiradi, to'kinlik, yaxshilik keladi, deb xursand bo'ladilar. Xalqimizning qaldirg'och in-songa yaxshilik qilguvchi, sodiq do'st ekanligiga oid qanchadan qancha rivoyat va ertaklari bor.

Darhaqiqat, qaldirg'ochning zahmatkashligi va sarishtaligini, bolalari uchun naqadar jonkuyarligini ko'rib, ularga havasingiz keladi. Xullas, hikoya qahramoni Nodira uylariga in qurgan qaldirg'ochlarga mehr qo'ygandi, ularning har yili ko'klamda qaytib kelishini orziqib kutardi. Bu safar ham do'stlashib qolgan qushlarini sog'inch bilan kutib, zilzila tufayli yaroqsiz holga kelgan uylarimizga qaytisharmikan, degan tashvishda. Bahor tonglarining birida tuyqus qaldirg'ochlar paydo bo'lib, Nodiraning shodligi olamni tutadi. U intizor kutgan qushlar kelgan edi. Biroq qaldirg'ochlar shunchalar fahmli qushlarki, xonalar shiftidagi eski uyalariga kirish xavfli ekanini sezadilar-da, qaytib ketadilar. Bundan qiz ko'ngliga ma'yuslik cho'kadi. O'zi shunchalar suygan qushlar, nahotki boshimizga tashvish tushganda, bizni tashlab ketadilar, deb o'ksinadi. Lekin qushlar o'z sadoqatlarini bildirib, yana qaytib keladilar. Faqat endi uyning ichiga kirmay, ochiq ayvon shiftiga yangi uya qura boshlaydilar. Yozuvchi ana shu voqeani tasvirlar ekan, bu bilan do'st har qanday mushkulliklar ro'y berganda ham sadoqatini saqlamog'i lozimligini shu kichkinagina qushlar misolida ko'rsatmoqchi bo'ladi. Qaldirg'ochlarning qaytishi Nodiraning ularga ishonchini, mehrini oshirishi bilan birga, shunday tabiiy ofat yuz bergen sharoitda umidini, zavq-shavqini

so'ndirmaslikka sababchi bo'lardi. Nodira yashayotgan xonadonning yaxshiligini, oila a'zolarining mehribonligini, ahil-inoq va qalbi pok insonlar ekanligini ham anglatadi. Chunki rivoyatlardan ma'lumki, qaldirg'och har qanday xonadonga uya qurib yoki avvalgi qurgan uyiga yana qaytib kelavermaydi. Xonadon egalarining yaxshi inson ekanliklarini, mehr-muruvvatli ekanini sezsagina qaytadi. Yozuvchi qaldirg'ochlar xatti-harakati tasviri orqali tushkunlikka tushgan oila vaqtincha qiyinchiliklarga duch kelganini, hademay yana quvonchli damlar boshlanib, xonadon obod bo'lishidan darak berayotganini anglatmoqchi bo'ladi. Shu bilan birga Nodira obrazi orqali tabiatga, uning turfa ko'rinishlariga, hayvonot olamiga mehr qo'yishini, bu g'oya orqali esa insonlarni ham bir-birlariga oqibatli bo'lishlarini ta'kidlamoqchi bo'ladi. Darhaqiqat, Nodira juda oqibatli qiz edi. Yangi uylarga ko'chish xabarini eshitishi bilan uni dastlab xavotirga solgan fikr qaldirg'ochlarning taqdiri bo'ladi. Otasining eski uylar kuzgacha, ya'ni qaldirg'ochlar bola ochib, ularni uchirma qilib, issiq o'lkalarga ketgunlariga qadar buzilmaydi, degan so'zlaridan taskin topadi. Biroq uni keyingi yillar tashvishi, yangi uylarga qanotli do'stlari kelisharmikan, degan savol qiynar edi. Ular yangi uylarimizni qayerdan topisharkin degan muloha-zaga ham boradi. Yangi uylarga ko'chib, eski uydan ba'zi zarur mayda-chuyda narsalarni olib ketishga kelganlarida, ayvon shiftidagi uyalarning oxirigacha qurilmay, chala qoldirib tashlab ketilganini ko'rib, Nodiraning ko'zlariga yosh keladi. U qaldirg'ochlarni tashlab ketgani uchun o'zidan ham xafa bo'layotgan edi. Chunki qaldirg'ochlar kimsasiz uylarga in qurib, vayronalarda odamlarga qo'rquv solib o'tiradigan boyqushlar emas. Hikoya muallifi, odamlar ko'chib ketgan uydan qaldirg'ochlar ham chiqib ketishini ko'rsatar ekan, yana bir karra oqibatli bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. Qushlar Nodiralar uyining ahvoli yomonligini ko'rsalar ham shu xonadonga qaytib kelgan edilar. Chunki ular shu uydagi insonlardan mehr, xayrixohlik ko'rgandilar. Ammo insonlar o'sha sadoqatga yarasha javob qilolmadilar. Nodiraning ko'zlarini nam qilgan tuyg'u ana shu edi. Hikoyadan kelib chiqadigan asosiy xulosa insonda mehr, oqibat, do'stlik, sadoqat degan tuyg'ularni tarbiyalash, ularni asrab-avaylash g'oyasidir. Yozuvchi qaldirg'ochlar ibrati orqali, Nodiraning xatti-harakati orqali o'z o'quvchilarini juda muhim ma'naviy masalalar haqida ko'proq o'ylashga da'vat qiladi.



## Savol va topshiriqlar

1. Yozuvchi va jurnalist Maqsud Qoriyevning hayot yo‘li va ijodi ha-qida so‘zlab bering.
2. Adibning dastlabki hikoya va qissalar to‘plamlaridan qaysilarini bilasiz?
3. «Qaldirg‘ochlar bahorda keladi» hikoyasida qayerda va qachon bo‘lib o’tgan voqeа qalamga olingan?
4. Toshkent zilzilasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Nodira qanday tabiatli qiz?
6. Qaldirg‘ochlarga odamlar nima uchun mehr ko‘rsatadilar?
7. Qaldirg‘ochlarning boshqa qushlardan farqi nimada?
8. Nodiraning tashvish chekishiga sabab bo‘lgan hodisa haqida so‘zlang.
9. «Oqibat» tushunchasini Siz qanday izohlaysiz?
10. Hikoyadan anglashiladigan asosiy g‘oya va ibratlari xulosalar haqida suhbatlashing.





## *Antuan DE SENT-EKZYUPERI (1900 – 1944)*



XX asrdagi nafaqat fransuz, balki jahon adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri hisoblanmish Antuan de Sent-Ekzyuperi 1900-yil 29-iyunda Fransyaning yirik shaharlaridan biri Lionda kambag'allahsgan zodagonlar oilasida dunyoga keldi. Otasidan erta yetim qolgan Antuanning bolaligi Lion yaqinidagi buvisiga qarashli Sen-Moris maskanida o'tdi. Antuan juda sho'x, quvnoq va ziyrak bola edi.

1909-yildan 1914-yilgacha Antuan va uning akasi Fransua Man shahridagi kollejda ta'lif olishdi. Birinchi jahon urushi boshlangach, ularning onasi o'g'illarini Shveysariyadagi xususiy kollejlardan biriga o'qishga yuboradi. 1917-yili akasi Fransua bevaqt olamdan o'tgach, Antuanning qalbida chuqur o'zgarish ro'y beradi va ilk bora yashashdan maqsad nima, degan savolga javob axtara boshlaydi.

Yosh Antuan Nafis san'at akademiyasining arxitektura fakultetiga o'qishga kiradi, biroq insonning hayotdagagi o'rni haqidagi fikrlar uni aslo tark etmaydi, zero Antuan o'z hayotini aniq bir sohaga bag'ish-lamoqchi, insoniyatga chinakam naf keltiradigan ishga qo'l urmoqchi edi. 1921-yili u arxitektura fakultetini tark etadi va Fransiya harbiy havo kuchlari safiga xizmatga kiradi.

1926-yil Sent-Ekzyuperi uchun hal qiluvchi yil bo'ldi. Shu yili u «Latiko-Eyr» havo kompaniyasiga ishga kirib o'zi sevgan mashg'ulot bilan shug'ullana boshlaydi va o'zining «Uchuvchi» nomli birinchi hikoyasini e'lon qiladi. Shu kundan boshlab to umrining oxirigacha Sent-Ekzyuperi uchuvchi bo'lib qoladi. Sent-Ekzyuperi Yevropaning,

Afrika va Lotin Amerikasining turli burchaklariga uchar, yuk va yo'lovchilarni tashir edi. Keyinchalik u G'arbiy Saxara (hozirgi Mavritaniya)ning Kap-Jubi shahri aeroportining boshlig'i, so'ngra bir fransuz aviakompaniyasining Argentinadagi bo'limi boshlig'i lavozimlarida ishladi.

Sent-Ekzyuperi o'zining bo'sh vaqtlarini adabiyotga, musiqaga va ixtirochilikka bag'ishladi. 1929-yili u o'zining ilk yirik asari «Janub chopari» va 1931-yili «Tungi parvoz» romanlarini e'lon qildi. Bu asarlar chop etilgan kunlaridan boshlaboq keng kitobxonlar va adabiyotchilar diqqatini o'ziga jalb qildi va yuksak baholandi. Jumladan, «Tungi parvoz» romani 1931-yili nufuzli «Femina» mukofotiga sazovor bo'ldi.

Sent-Ekzyuperi o'zining eng mukammal asari — «Erkaklar zamini» (1939) romanida zamon va insonlar haqidagi o'ylari hamda chuqur fikrlarini bayon qilgan va bu asar Fransiya Akademiyasi tomonidan eng yaxshi roman uchun Gran Pri mukofotiga sazovor bo'lgan.

Fashistlar Germaniyasi Fransiyaga hujum qilgan birinchi kundanoq Sent-Ekzyuperi harbiy havo kuchlariga xizmatga qaytgan va urush frontlarida razvedka uchishlari bilan shug'ullangan. Fransiya urushda mag'lubiyatga uchragach, u Amerika Qo'shma Shtatlaridan boshpana topadi va 1942-yili «Harbiy uchuvchi» novellasini, 1943-yili esa «Kichkina shahzoda» falsafiy ertagini yaratadi.

1943-yil Antuan de Sent-Ekzyuperi yana jangovar safga qaytadi. Fransyaning Shimoliy Afrikadagi mustamlaka o'lkalarida fashistlarga qarshi kurashadi. 1944-yil 31-iyulda u so'nggi parvozga chiqadi — Antuan de Sent-Ekzyuperining samolyotini fashist qiruvchisi uralib tushiradi. Bu mudhish voqeа uning jonajon vatani Fransiya ozodlikka erishishiga atigi uch hafta qolganda yuz berdi.

Antuan de Sent-Ekzyuperi kitobxonlar uchun haligacha mashhur adib bo'lib qolyapti. Xo'sh, uning mashhurligi sababi nimada? Hamma gap shundaki, ijoddagi samimiyat, insonga mehr, nozik did hech kimni befarq qoldirmaydi. Bo'lmasa urush tufayli hayotdan bevaqt ko'z yumgan adib va shoirlar kam deysizmi. Shunday ekan, nega Antuan de Sent-Ekzyuperi mashhur, uning «Kichkina shahzoda» ertak-qissasi bu qadar sevimli asar? Sababi yuqorida biz ta'kidlagan o'lmas qadriyatlarda! «Kichkina shahzoda»ning kuchi ham ayni shunda.

«Kichkina shahzoda» ertagi Antuan de Sent-Ekzyuperining eng

kichik asarlaridan biri bo‘lsa ham, unda adibning inson hayotining ma’nosni va mazmuni haqidagi dardlari va falsafiy mushohadalari, insonlar o‘rtasidagi do’stlik, birodarlik, hamdardlik va o‘zaro hurmat munosabatlari, Yovuzlik va Yomonlikka qarshi kurash g‘oyalari aks ettirilgan.

Asar to‘g‘risidagi mulohazalarni yozuvchining ushbu muhim gapini eslash bilan boshlasak: «Men kitobimning shunchaki ermak uchungina o‘qilishini aslo istamayman».

Aziz o‘quvchi, demak, Siz bilan biz bu asarga juda jiddiy e’tibor qaratishimiz kerak ekan-da.

Xo‘s, yuzaki qaraganda ertaknamo tuyuladigan bu qissada qanday sir-u sinoat yashiringan ekan? Sizda asar to‘g‘risida tasavvur hosil bo‘lishi uchun avval uning asosiy voqealarini eshiting.

Adibning kasbi uchuvchilik ekanini bilasiz. Asarda tasvirlanishicha, navbatdagi parvozlarning birida uning samolyoti buzilib, kimsasiz Sahroyi Kabirga (Afrikadagi ulkan cho‘lga!) qo‘nishga majbur bo‘ladi. Huvullab yotgan sahroda, tong saharda uning tepasida bir g‘aroyib bola paydo bo‘ladi. Keyinroq ma’lum bo‘lishicha, bu tillarang sochli, qo‘ng‘iroq tovushli bolajon mittigina olis sayyorada bir o‘zi yashar, bir yil muqaddam sayyoralararo sayohatga chiqib, nihoyat Yer planetasiga kelib qolgan ekan. U uchuvchi amakiga bir-biridan qiziq savollar berishdan, xuddi katta odamlardek u bilan tortishishdan charchamasdi (o‘zbek kinorejissori Zulfiqor Musoqovning «Abdul-lajon» filmini ko‘rgan bo‘lsangiz kerak!).

Muallif «Kichkina shahzoda» deb nom qo‘ygan bu bolaning aytishicha, uning sayyorasida baobab deb nomlanadigan xavfli bir daraxt urug‘i nihoyatda ko‘p ekan. Shahzoda har tongni endigina urug‘dan chiqqan baobab ko‘chatlarini yulib, o‘z sayyorasini tozalash bilan boshlarkan. U to Yerga kelgunga qadar bir necha sayyoralarini o‘rganibdi. Ularning birida yakka-yolg‘iz qiro, boshqasida shuhratparast bir kimsa, keyingi sayyoralarda esa piyonista, korchalon, xonadan chiqmay yostiqday-yostiqday kitoblar yozadigan chol va tinimsiz fonus chiroq yoqish bilan band charoqbonni uchratibdi. Kichkina shahzoda Yerda ham talay mavjudot bilan muloqotda bo‘ladi. Ilon, tulki, gul, bekat nazoratchisi, savdogar shular jumlasidandir...

Nihoyat, uchuvchining samolyoti tuzaladi, Kichkina shahzodaning

ham o‘z sayyorasiga qaytish vaqt keladi. Hikoyachi o‘zining yosh do‘stlariga asar oxirida shunday xitob qiladi:

«Agar qachonlardir Afrikaga, sahroga borib qolsangiz, bu joyni tanishingiz oson bo‘ladi. Mabodo shu yerdan o‘tar bo‘lsangiz, o‘tinib so‘rayman, mana shu yulduz ostida bir nafas to‘xtang! Bordi-yu shu payt tillarang sochli bir bola yoningizga kelib, qo‘ng‘iroqdek tovush bilan kula boshlasa, birorta savolningizga javob bermasa, o‘ylaymanki, kimga duch kelganingizni albatta sezsangiz kerak. O‘shanda, sizdan o‘tinib so‘rayman, dardli dilimga yupanch berish esingizdan chiqmasin: uning qaytib kelganini menga zudlik bilan xabar qiling».

Xo‘sh, Kichkina shahzodada yozuvchining «dardli diliga yupanch beradigan» qanday mo‘jiza bor ediki, u bu qadar intiq kutmoqda?

Keling, Sizni ham ortiq diqqat qilmay, «sir»ni ocha qolaylik. Gap shundaki, bu asarning uchuvchidan boshqa deyarli barcha qahramonlari (ular esa goh inson, goh hayvon, goh o‘simlik shaklida ishtirot etadilar) ramziy xarakterga ega. Adabiy asarlarda odamlarga hayotning o‘zgarmas qonunlariga xos bo‘lgan azaliy sifatlarni o‘zida umum-lashtiradigan ramziy obrazlar yaratish an’anasi mavjuddir. Endi ana shu nuqtayi nazardan «Kichkina shahzoda» asariga qayta nazar tashlaylik. Axir o‘ylab ko‘ring: bitta sayyorada birgina Kichkina shahzoda, birgina shuhratparast yoki piyonistagina yashashi mumkinmi? Demak, yozuvchi alohida nom qo‘ymay, 325, 326, 327 va boshqa raqamlar bilan belgilagan bu asteroidlar aslida odamlarga xos bo‘lgan fazilat va nuqsonlar ekan-da! Mana, piyonista yashaydigan sayyorada (demak, shu xavfli kasallikka mubtalo bo‘lgan insonlar qalbida!) kechgan suhbatga quloq tuting:

- « — Nima qilyapsan? — deb so‘radi Kichkina shahzoda.
- Ichyapman, — dedi piyonista xo‘mrayib.
- Nega?
- Unutmoqchiman.
- Nimani? — deb so‘radi Kichkina shahzoda piyonistaga rahmi kelib.
- Shu ishimning uyatligini, — dedi piyonista tan olib va boshini quyi soldi.
- Qaysi ishing? — deb so‘radi Kichkina shahzoda, boyoqishga yordam berishni jon-dilidan istab.
- Ichishim uyat! — dedi piyonista va qaytib og‘iz ochmadi.

Anchadan so'ng Kichkina shahzoda lol-u hayron bo'lib, tag'in yo'lga tushdi.

«Ha, shubhasiz, kattalar juda-juda g'alati xalq», deb xayolidan kechirdi yo'lida davom etarkan».

Kichkina shahzoda xuddi shu tarzda qiroq, shuhratparast, korchalon (byurokrat), hech kimga nafi tegmaydigan kitoblar yozib o'zini ovutadigan chol va boshqalar bilan suhbat quradi. Bu insoniy ojizliklar uning yuragini g'ash torttiradi.

Xo'sh, unda Kichkina shahzoda qiyofasida asarda qanday kuch namoyon bo'ldi, deb so'rarsiz?

Biz uni EZGULIK deb nomladik! Negaki, ezgulikkina yovuz boababning g'ovlab ketishiga — olamni yomonlik egallab olishiga qarshi har kuni kurashga chiqadi. Qalbida ezgulik yashaydigan insongina o'zi suygan feruza guli — sevgi-muhabbatini himoya qila oladi...

Ezgulikning «Ko'ngil ko'zi ochiq» bo'ladi!

Afsuski, shaytoniy vasvasalarga uchgan odamzod hayotida Ezgulikning yashashi oson kechmaydi. Xuddi shu tufayli ham Kichkina shahzoda yetti sayyorani ham, hatto Yer yuzini ham tezda tashlab ketadi. Xuddi shu ayrılıq yozuvchi Antuan de Sent-Ekzyuperi dilini dardli, ko'zini yoshli qiladi. Xuddi shu abadiy og'riq va dard kuylangani tufayli ham adib qalamidan to'kilgan «Kichkina shahzoda» asarini butun insoniyat izlab topib o'qiydi, yuragining to'rida saqlaydi.

Va nihoyat, shunday o'lmas asarni yaratgani uchun ham yozuvchi vatani — Fransiyada, Antuan de Sent-Ekzyuperi tug'ilgan yurt — Lion shahri markazida unga ajoyib bir haykal o'matilgan. Ko'kka bo'y cho'zgan baland oq marmar ustun ustida adib o'tiribdi, uning yelkasiga qo'lini qo'ygancha Kichkina shahzoda turibdi. Ular bu yuksaklik uzra hamon suhbat qurayotgandek tuyuladi kishiga. Darhaqiqat, Fransiyada va undan tashqarida adib ijodiga qiziqish va hurmat katta. Haykal ham shu katta hurmatning ifodasidir.

Bolalar, mazkur darslikda e'tiboringizga dunyodagi juda ko'p tillarga tarjima qilingan, barcha baravariga sevib o'qiyotgan «Kichkina shahzoda» asaridan ayrim boblar havola qilinyapti. Qissani o'qigach, uning nima uchun sevimli asar ekanini yanada yaxshiroq bilib olasiz.

## KICHKINA SHAHZODA

(*Asardan boblar*)

Leon Vertga

*Bu kitobchani katta yoshdagi odamga bag'ishlaganim uchun bolalardan kechirim so 'rayman. O'zimni oqlash uchun shuni aytishim mumkinki, bu katta yoshdagi odam mening eng yaxshi do'stim bo'ladi. Buning ustiga, u dunyodagi hamma narsani, hatto bolalarga atab chiqarilgan kitobchalarni ham tushunadi. Va, nihoyat, u Fransiyada yashaydi, u yerda hozir hamma yoq sovuq, ocharchilik, do'stim esa taskin-tasalliga benihoya muhtoj. Agar bularning barchasi ham meni oqlayolmasa, u holda kitobchamni bir paytlar mana shu katta yoshdagi do'stimming o'rnila bo'lgan kichkina bolakayga bag'ishlayman. Axir kattalarning hammasi ham avval-boshda yosh bola bo'lganlar, faqat buni ularning ozginasigina biladi, xolos. Shunday qilib, mana, men bag'ishlovga tuzatish kiritaman:*

*Leon VERTga – bir paytlar yosh bola bo'lgan do'stimga bag'ishlanadi.*

*Rasmalarni muallif chizgan*

### I

Olti yashar paytimda, osuda o'rmonlar haqida hikoya qiluvchi «Bo'lgan voqealar» degan kitobda g'alati bir suratga ko'zim tushib qoldi. Suratda bahaybat bo'g'ma ilonning bir yirtqich hayvonni tiriklay yutayotgani aks ettirilgan edi. Mana o'sha surat:

Surat tagiga shunday deb yozilgan edi: «Ilon o'ljasini chaynab o'tirmay but-butunisicha yutib yuboradi. Shundan keyin u joyidan qimirlayolmay qoladi va to o'ljasini hazm qilib bo'lgunicha surunkasiga yarim yil dong qotib uxlayıd».

Men junglidagi sarguzashtlarga to'la hayot haqida uzoq xayol surdim, so'ng rangli qalam bilan umrimda birinchi marta rasm chizdim. Bu mening l-raqamli rasmim edi. Mana, men chizgan narsa:

Ijodim namunasini kattalarga ko'rsatib, qo'rqinchli emasmi, deb so'radim.

— Shlapaning nimasi qo'rqinchli ekan? — deb e'tiroz bildirishdi menga.

Ammo rasmdagi narsa sirayam shlapa emas edi. Bu — filni tiriklay yutib yuborgan bo'g'ma ilon edi. O'shanda, kattalarga tushunarli bo'lsin,

deb ilonning ichki ko‘rinishini ham chizdim. Axir, kattalarga hamma narsani doim tushuntirib borish kerak-da. Bu mening 2-raqamli rasmim edi.

Kattalar menga ilonlarning ichki-yu tashqi ko‘rinishini chizish o‘rniga jug‘rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni ko‘proq o‘rganishni maslahat berishdi. Ana shundan keyin, olti yashar paytimda rassomlikning porloq istiqbolidan voz kechishga majbur bo‘ldim. 1- va 2-raqamli rasmlarim muvaffaqiyatsizlikka uchragach, o‘zimga nisbatan ishonchimni yo‘qotdim. Kattalar hech qachon o‘zlaricha biron narsani tushuna olmaydilar, ularga hadeb hijjalab tushuntirib beraverish esa oxir-oqibat bolalarning ham joniga tegib ketadi.

Shunday qilib, boshqa kasb tanlashimga to‘g‘ri keldi-yu, uchuvchilikni o‘rganib oldim. Osmoni falak bo‘ylab qariyb butun dunyoni kezib chiqdim. Ochig‘ini aytish kerak, jug‘rofiya menga juda qo‘l keldi. Bir qarashdayoq Xitoyni Arizona viloyatidan ajrata oladigan bo‘ldim. Kechasi samoda adashib ketsang, bu benihoya asqatadi-da.

Umrim davomida turli-tuman jiddiy odamlarni uchrattdim. Kattalar orasida uzoq vaqt yashadim. Ularni yaqindan ko‘rdim, bildim. Va bundan, tan olishim kerakki, ular haqidagi fikrim yaxshi tomonga o‘zgarmadi.

Kattalar orasida boshqalardan ko‘ra aqlii va farosatliroq biror kishini uchratganimda unga 1-raqamli rasmimni ko‘rsatardim – men uni asrab qo‘yan edim, doim yonimda olib yurardim. Bu odam chindan ham biror nimani tushunadimi-yo‘qmi, sinab ko‘rmoqchi bo‘lardim. Ular ning barchasi rasmga qarab turib: «Shlapa-ku, bu», derdi. Shundan keyin men ularga na bo‘g‘ma ilonlar, na junglilar, na yulduzlar haqida og‘iz ochardim. Ularning tushunchalariga moslashardim-da, brij va golf o‘yinlari haqida, siyosat va bo‘yinbog‘lar haqida gap boshlardim. Shunda kattalar menday bama’ni odam bilan tanishganlaridan behad mamnun bo‘lar edilar.

## II

Men shu tariqa yolg‘izlikda yashardim, dilimni anglaydigan biror hamdardim yo‘q edi... Olti yil muqaddam samolyotimning motori buzilib, Sahroyi Kabirga qo‘nishga majbur bo‘ldim. Yonimda na mexanik, na bironta hamroh bor edi. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, samolyotni

amallab bir o'zim tuzatishga ahd qildim. Yo motorni tuzataman, yo halok bo'laman. Bir haftaga bazo'r yetadigan suv qolgan.

Shunday qilib, birinchi kechani huvullab yotgan sahroda, qum ustiga uzala tushib o'tkazdim. Minglab chaqirim narida ham tirik jon asari sezilmasdi. Kemasi halokatga uchrab, bepoyon okeanda sol uzra suzib borayotgan odam ham menchalik yolg'iz bo'limgandir. Shu bois tong-saharda meni kimningdir ingichka ovozi uyg'otib yuborganda naqadar hayratga tushganimni tasavvur ham qilolmasangiz kerak.

— Iltimos... menga qo'zichoq chizib ber! — degan qo'ng'iroqdek tovush yangradi yonginamda.

— A?..

— Menga qo'zichoq chizib ber...

Tepamdan go'yo yashin urgandek, sapchib o'rnimdan turdim. Apiltapil ko'zlarimni ishqalab, atrofga alangladim. Qarasam — ro'paramda allaqanday g'aroyib bir bolakay menga jiddiy tikilib turibdi. Mana, uning eng yaxshi surati, men uni keyin chizishga muvaffaq bo'ldim.

Albatta, bu rasmda u aslidagidek yaxshi chiqmagan. Nachora, bunga men aybdor emasman. Olti yashar paytimda kattalar, sendan rassom chiqmaydi, deb rosa miyamga quyishgani uchun men bo'g'ma ilonlarning ichki va tashqi ko'rinishidan boshqa narsani chizishni o'rgana olmadim.

Shunday qilib desangiz, ko'zlarimni katta-katta ochgancha bu g'aroyib bolakayga qarab turardim. Odamzod makonidan minglab chaqirim olisdag'i yaydoq biyobonda ekanim yodingizdan chiqmagandir. Shunisi g'alatiki, bu bolaning aft-angoriga qarab, adashib qolgan yoki nihoyatda horib-charchagan, qo'rquvdan yuragi yorilib, ochlik va tashnalikdan o'lar holga yetgan, deb bo'lmasdi. Kimsasiz sahroda, inson qadami tegmagan cho'l-u biyobonda daf'atan paydo bo'lib qolgan bu bolaning ko'rinishidan bunday fikrlarni xayolga ham keltirish mumkin emasdi. Nihoyat, menga yana til ato bo'lib, asta so'radim:

— Lekin... sen bu yerda nima qilib yuribsan?

U tag'in ohistalik bilan va g'oyat jiddiy ohangda:

— Iltimos... qo'zichoq chizib ber... — dedi.

Bularning barchasi shu qadar sirli, anglab bo'lmas bir tarzda ro'y berayotgan ediki, rad qilishga jur'atim yetmadi. Jazirama sahro qo'ynida, hayotim qil ustida turgan bir pallada qanchalik bema'ni ko'rinmasin,

cho'ntagimdan qog'oz-qalam oldim-u, lekin shu zahoti o'zimning asosan jug'rofiya, tarix, arifmetika va husnixatni o'rganganim lop etib esimga tushdi-da, bolakayga qarab (hatto biroz achchiqlanib) rasm chizishni bilmasligimni aytdim. Bu gapimga u:

— Baribir qo'zichoq chizib ber, — deb javob qildi.

Men umrimda qo'zichoq rasmini chizib ko'rmaganim uchun, o'zim bilgan o'sha eski ikkita suratdan birini — bo'g'ma ilonning tashqi ko'rinishini chizib ko'rsatdim.

Ammo bolakay rasmni ko'rib:

— Yo'q, yo'q! Menga ilon ham, fil ham kerak emas! Ilon haddan tashqari xavfli, fil esa haddan tashqari katta. Mening uyimdag'i narsalarning hammasi kichkina. Menga qo'zichoq kerak, qo'zichoq chizib ber, — deb xitob qilganida nihoyatda hayron qoldim-da, shu rasmni chizib berdim.

U rasmni sinchiklab ko'zdan kechirgach:

— Yo'q, bu qo'zichoq judayam oriq-ku, — dedi. — Boshqasini chizib ber.

Men boshqa qo'zichoq rasmini chizdim.

Yangi do'stim xushfe'llik bilan muloyim jilmayib qo'ydi.

— Bu qo'zichoq emas-ku, — dedi u. — O'zing ham ko'rib turibsan-a, qo'chqor-ku bu. Ana, shoxiyam bor...

Men qo'zichoqni tag'in boshqatdan chizdim. Biroq bu rasm ham unga ma'qul bo'lindi:

— E, bu o'lguday qari-ku. Menga uzoq yashaydigan qo'zichoq kerak.

Endi sabr-toqatim tugadi. Axir, tezroq motorni tuzatish kerak edi-da! Shuning uchun apil-tapil mana shu narsani chizib tashladim.

Keyin bolaga qarab:

— Mana senga quticha. Qo'zichog'ing shuning ichida yotibdi, — dedim.

Shunda meni butkul lol qoldirib, bu talabchan hakam gul-gul yashnab ketdi:

— Menga xuddi shunaqasi kerak edi-da! U ko'p o't yermikan, nima deysan-a?

— Nima edi?

— Axir mening uyimda unchalik serobgarchilik emas-da.

— Unga ko'p narsa kerak emas. Men senga judayam kichkina bir qo'zichoq beraman.

— U judayam kichkina emas... — dedi u boshini egib, rasmga termilarkan. — Qara! U uxlab qoldi...

Men Kichkina shahzoda bilan shu tariqa tanishdim.

### III

Uning qayerdan paydo bo'lganini hadeganda bilib ololmadim. Kichkina shahzoda meni savollarga ko'mib tashlar, ammo o'zidan biror nimani so'rasam, eshitmaganga olar edi. Faqat, anchadan keyin, gap orasida tasodifan aytib qolgan ba'zi so'zlaridan uning sirli tashrifi birmuncha oydinlashdi. Masalan, samolyotimni birinchi marta ko'rganida (samolyot rasmini chizib o'tirmayman, negaki, buni baribir eplayolmayman), u shunday deb so'radi:

— Bu qanaqa narsa?

— Bu narsa emas, samolyot. Mening samolyotim, u uchadi.

Keyin unga osmoni falakda uchish qo'limdan kelishini faxrlanib aytdim. Shunda u:

— E, shoshma! Sen hali osmondan qulab tushdingmi? — deya xitob qilib qoldi.

— Ha, — dedim kamtarlik bilan.

— Ana xolos! Qiziq-ku!..

Kichkina shahzoda shunday deb qo'ng'iroqdek tovush bilan kulib yubordi. Buni ko'rib picha achchig'im chiqdi: axir men, boshimga kulfat tushganda, odamlar bunga jiddiy munosabatda bo'lishlarini yoqtiraman-da. Birozdan keyin u:

— Demak, sen ham osmondan tushib kelibsanda, — dedi. — Xo'sh, qaysi sayyoradan kelding?

«E, bu kimsasiz sahroda to'satdan qayerdan paydo bo'lib qoldi, desam, gap bu yoqda ekan-da!», — deb o'yladim o'zimcha va dabdurustdan:

— Bundan chiqdiki, sen bu yerga boshqa sayyoradan tushib kelibsanda? — deb so'radi.

Biroq u savolimga javob bermadi. Samolyotimni ko'zdan kechirarkan, asta bosh chayqadi:

— He, buning bilan uzoqdan uchib kelolmaysan, ko'rinish turibdi...

So'ng nima haqqadir xiyla o'ylanib qoldi. Keyin cho'ntagidan men chizib bergen boyagi qo'zichoqni olib, uni go'yo qimmatbaho xazinadek tomosha qilishga kirishdi.

«Boshqa sayyoralar» xususidagi bu chala-yarim e'tirofdan so'ng ko'nglimdagi qiziqish hissi naqadar alanga olib ketganini tasavvur qila olsangiz kerak. Iloji boricha ko'proq narsa bilib olish niyatida ustma-ust savol yog'dira ketdim:

— Sen qayoqdan uchib kelding, bolakay? Uying qayerda o'zi?  
Qo'zichog'imni qayoqqa olib ketmoqchisan?

U o'yga cho'mgancha jimib qoldi-da, keyin:

— Menga quticha bergenning juda soz bo'ldi-da, qo'zichoq kechasi uning ichida uxlaydi, — dedi.

— Albatta. Agar aqli bola bo'lsang, senga arqon ham hadya qilaman — qo'zichoqni kunduzlari bog'lab qo'yasan. Qoziq ham beraman.

Kichkina shahzodaning qoshlari chimirildi:

— Bog'lab qo'yasan? Nima keragi bor buning?

— Chunki, bog'lab qo'ymasang, u biron yoqqa ketib adashib qoladi.

Buni eshitib do'stim xandon otib kulib yubordi:

— E, qayoqqayam ketardi u?

— Bilib bo'lmaydi-da. Boshi oqqan tomonga ketaveradi, ketaveradi.

Shunda Kichkina shahzoda jiddiy tortib:

— Mayli, hechqisi yo'q, — dedi. — Axir, men yashaydigan joy nihoyatda kichkina... — Birozdan so'ng anduh bilan qo'shib qo'ydi: — Boshing oqqan tomonga ketaverganing bilan uzoqqa ketolmaysan...

### VIII

Hademay bu gulni yaxshilab bilib oldim. Kichkina shahzodaning sayyorasida hammavaqt oddiygina, behasham gullar o'sardi. Ular kambarg, beozorgina bo'lib, nihoyatda kam joyni egallar, ertalab ochilib, oqshom chog'i so'lib qolar edi. Bu gul esa, kunlarning birida shamolda qaydandir uchib kelib sayyora tuprog'iga tushib qolgan urug'dan unib chiqqan edi. Kichkina shahzoda boshqa o't-o'lan, gulchechaklarga aslo o'xshamagan bu mo'jaz niholdan ko'zini uzolmasdi. Bordi-yu u baobabning biror yangi xili bo'lsa-chi? Ammo nihol tez orada yuqoriga qarab bo'y cho'zishdan to'xtadi-da, g'uncha tugdi. Kichkina shahzoda umri bino bo'lib bunday katta g'unchalarni ko'rmagan edi, g'aroyib mo'jiza ro'y berajagini ko'ngli sezib, betoqat kuta boshladи. Notanish, noma'lum g'uncha esa hamon yuz ochishni xayoliga keltirmas, yashil gumbaz ichra pinhon o'trgancha hanuz o'ziga oro berar edi. U qunt

bilan rang tanlar, gulbarg liboslarni nozik badaniga bir-bir o'lchab ko'rardi — yorug' olamga allaqanday lolaqizg'aldoqqa o'xshab, hurpaygan-to'zg'igan ho'da diyord ko'rsatishni sira-sira istamasdi-da. U husni jamolini bor latofati-yu butun jozibasi bilan namoyon etmoqni orzu qilardi. Ha, ana shunday o'ziga bino qo'ygan go'zal edi u!

Sirli tayyorgarlik shu yo'sin uzoq davom etdi. Va, nihoyat, bir sahar chog'i, quyoshning ilk nurlari ko'rinishi bilanoq gulbarglar ohista ochildi, bu lahzaga shu qadar uzoq taraddud qilgan go'zal esa shirin esnab:

— Eh, esizgina, barvaqt uyg'onib ketibman-ku... Afv eting meni... — dedi. — Hamma yog'im to'zg'ib yotuvdi-ya...

Kichkina shahzoda hayrat va zavqini yashirolmadi:

— Naqadar chiroylisiz-a!

— Yo'g'-e, rostdanmi? — dedi gulg'uncha bunga javoban astagina. — Ha, balki sezgandirsiz, men quyosh bilan birga tug'ilganman-da.

Kichkina shahzoda bu g'unchaning kamtarlik bobida namuna bo'lolmasligini payqadi, biroq u shunchalar dilbar va latif ediki, odamni beixtiyor dovdiratib qo'yardi!

— Nonushta vaqtiyam bo'lib qoldimi deyman, — dedi u saldan keyin. — Baraka topkur, menga yordam qilarsiz-a?

Kichkina shahzoda behad xijolat bo'ldi, ko'zachada muzdek buloq suvidan keltirib uni sug'ordi.

Ko'p o'tmay go'zal gulg'unchaning xiyla mag'rur va arazchiligi ham ma'lum bo'lib qoldi-yu, Kichkina shahzoda u bilan til topishaman deb rosa qiyaldidi. Bir kuni gul poyasidagi to'rtta tikanni ko'rsatib:

— Qani, yo'lbars zo'r bo'lsa, bu yoqqa kelsin, men uning o'zidan ham, o'tkir tirnog'idan ham qo'rqmayman! — dedi.

— Mening sayyoramda yo'lbars yashamaydi, — deb e'tiroz bildirdi Kichkina shahzoda. — Keyin, yo'lbarslar o't yemaydi.

— Men o't emasman-ku, — dedi gulg'uncha ranjib.

— Kechiring meni...

— Yo'q, men yo'lbarsdan sirayam qo'rqmayman, ammo yelvizak degan narsadan yuragim chiqib ketadi. Sizda parda yo'qmi, meni shamoldan to'sib qo'ysangiz?

«G'alati-ya, o'simlik bo'laturib yelvizakdan qo'rqadi... — deb o'yladi Kichkina shahzoda. — Judayam ko'nglini topish qiyin ekan bu gulning...»

— Bu yer rosa sovuq ekan. Kechqurun meni shisha qalpoq bilan

o'rab qo'ying, xo'pmi? Sayyorangiz haddan tashqari befayz ekan. Men kelgan joyda-chi...

Gulg'uncha gapini tugatmay jimib qoldi. Chunki bu yoqqa u hali urug' chog'ida uchib kelgan edi-da. O'zga olamlar haqida shu bois hech narsa bilmasligi tabiiy edi. Osongina fosh bo'lishing muqarrar vaziyatda esa yolg'on gapirmoq — borib turgan ahmoqlikdir! Gulg'uncha xijolat tortdi, so'ng go'yo Kichkina shahzoda, o'zini uning oldida qanchalar gunohkor ekanini sezsin, degan ma'noda ustma-ust yo'taldi:

— Qani parda, bormi?

— Men boyta borib olib kelmoqchi edim, lekin gapingizni bo'lishga...

Shunda gulg'uncha yana qattiqroq yo'tala boshladi: mayli, uning vijdoni battar qiyalsin!

Kichkina shahzoda, garchi bu feruza gulni yaxshi ko'rib qolgan, unga xizmat qilishdan baxtiyor bo'lsa-da, ko'p o'tmay ko'nglida shubha uyg'ondi. U shunchaki aytilgan havoyi gaplarni yuragiga yaqin olar, shu sabab o'zini benihoya baxtsiz sezar edi.

— Bekor uning gapiga qulq solgan ekanman, — deb qoldi u bir kuni menga. — Hech qachon gullarning aytganiga qulq solmaslik kerak ekan, ularga termilib, hidlaridan bahramand bo'lish lozim ekan, xolos. Mening gulim butun sayyorani xush bo'y larga burkagan edi, men esa bundan faqat quvonish zarurligini bilmasdum. Yo'l bars haqidagi, tirnoq haqidagi anavi gaplarga kelsak... ulardan odamning ko'ngli zavq-shavqqa to'lishi kerak edi, men bo'lsam achchiqlanib o'tiribman-a... — Bir muddat sukul saqlab, anduh bilan e'tirof etdi:  
— O'shanda hech ni'mani tushunmagan ekanman! Og'izdag'i so'zga emas, amaldagi ishga qarab baho berish kerak edi. U menga o'zining muattar bo'ylarini armug'on etdi, hayotimni nurga chulg'adi. Men undan qochmasligim kerak edi! O'sha qovushmagan hiyla-nayranglar zamirida nozik bir latofat mujassam ekanini payqashim kerak edi. Axir, gullar shunchalik beqarorki!.. Ammo men nihoyatda yosh edim, muhabbat sir-asrоридан bexabar edim.

*O'zining mitti sayyorasidan zerikkan Kichkina shahzoda qushlar bilan koinot bo'y lab sayr etishga qaror qiladi. Uning sayyorasi yaqinida bir necha asteroid bor edi. Uning birida qirol, ikkinchisida shuhratparast, uchinchisida piyonista, to'rtinchisida korchalon, beshinchisida charog'bon, oltinchisida esa jug'rofiy olim yashar edi. Kichkina shahzoda bu*

*asteroidlarning har birida bo'lib, ularda yashovchi kimsalar bilan suhbatlashadi. Biroq bu suhbatlarning hech biridan uning ko'ngli taskin topmaydi va u o'z sayohatini davom ettiradi.*

## XVI

Shunday qilib, u qadamranjida qilgan yettinchi sayyora Yer edi.

Yer — oddiy sayyoralardan emas! Bunda bir yuz yigirmata qiroq (negr qirollari ham shunga kiradi, albatta), yetti ming geograf, to'qqiz yuz ming korchalon, yetti yarim million piyonista, uch yuz o'n bir million shuhratparast, xullas, jami ikki milliardga yaqin katta odam mavjud.

Yerning naqadar kattaligi haqida sizga birmuncha tasavvur bermoq uchun shuni aytish bilangina kifoyalanaman: elektr kashf etilguniga qadar olti qit'ada charog'bonlarning to'rt yuz oltmisik ikki ming besh yuz o'n bir kishidan iborat ulkan lashkari tutib turilardi.

Agar chetdan razm solinsa, bu qoyilmaqom bir tomosha bo'lardi. Bu ulkan lashkarning xatti-harakatlari go'yo baletdagidek aniq bir qoidaga bo'ysunardi. «Sahna»ga birinchi bo'lib Yangi Zelandiya va Avstraliyadagi charog'bonlar chiqishardi. Ular chiroqlarini yoqib, uxlagini ketishardi. Keyin xitoy charog'bonlarining navbati kelardi. O'z «raqsi»ni ado etib, ular ham parda ortiga g'oyib bo'lishardi. Ulardan so'ng Rossiya va Hindiston charog'bonlariga gal tegardi. Keyin esa Afrika va Yevropa, undan so'ng Janubiy Amerika va nihoyat, Shimoliy Amerikadagi charog'bonlarning navbati yetardi. Shu tariqa hech kim hech qachon adashib ketmas, hamma «sahna»ga o'z vaqtida chiqardi. Ha, bu chindan ham qoyilmaqom tomosha edi!

Faqat, shimoliy qutbdagi yagona fonusni yoqishi lozim bo'lgan charog'bon bilan uning janubiy qutbdagi hamkasbiga hammadan ham maza edi, ikkalasi ham ortiqcha tashvish-taraddudsiz yashardi: ular o'z hunarini yilda ikki martagina ko'rsatardi, xolos.

## XVII

Ba'zan haddan tashqari suxandonlik qilging kelib qolganda ozmi-ko'pmi mubolag'a qilasan kishi. Mana, men ham charog'bonlar haqida so'zlay turib, haqiqatga birmuncha xilof ish tutdim. Ishqilib, sayyoramizni yaxshi bilmaydiganlarda u haqda noto'g'ri tushurcha paydo bo'limasa bas! Aslida odamlar Yer yuzida unchalik ko'p joyni egallamaydi. Agar

unda istiqomat qiladigan ikki milliard odam to'planib, xuddi miting-dagidek yelkama-yelka tursa, ular ortiqcha qiynalib-netmay, uzunasi va kengligi yigirma mil keladigan maydonga bermalol joylashgan bo'lur edi. Butun insoniyatni Tinch okeandagi tangadekkina orolchaga ham sig'dirib yuborish mumkin.

Kattalar, albatta, bu gapingizga ishonmaydilar. Ular o'zlarini juda ko'p joyni egallaydigan chog'laydilar, o'zlarini xuddi baobablardek bahaybat va ulug'vor hisoblaydilar. Siz shunda ularga aniq hisob-kitob qilib chiqishni taklif eting. Bu gap ularga ma'qul bo'ladi, axir ular raqam desa o'lib qolishadi-ku. Siz esa bu bo'limg'ur arifmetika bilan boshingizni qotirib yotmang. Uning sariq chaqalik ham foydasi yo'q. Bilaman, siz shundoq ham menga ishonasiz.

Alqissa, Kichkina shahzoda Yerga tushgach, atrof-javonibda biror tirik jонни ko'rmay, behad hayron bo'ldi. Hatto, adashib boshqa sayyoraga kelib qoldimmikan, degan xayolga ham bordi. Biroq shu payt oyog'i ostida qum uzra kulcha bo'lib yotgan allaqanday kulrang narsa qo'zg'alib qo'ydi.

- Salom, — dedi Kichkina shahzoda har ehtimolga qarshi.
- Salom, — deb javob berdi ilon.
- Men qanday sayyoraga kelib qoldim?
- Yerga, — dedi ilon. — Afrikada turibsan hozir.
- Shunaqami? Nima, Yerda odam yashamaydimi?
- Bu joy — sahro. Sahroda hech kim yashamaydi. Ammo Yer katta. Kichkina shahzoda tosh ustiga o'tirib, osmonga tikildi.
- Qani endi, yulduzlarning nega charaqlashini bilsam, — dedi u o'ychan ohangda. — Chamasi, ular, ertami-kechmi har kim o'z yulduzini topib olishi uchun charaqlab tursa kerak. Ko'ryapsanmi, huv ana mening sayyoram — shundoqqina tepamizda... Ammo u qanchalar uzoqda, eh-he!
- Chiroyli sayyora ekan, — dedi ilon. — Yerga nega kelding, nima qilasan bu yerda?
- Men feruza gulim bilan urishib qoldim, — deya iqror bo'ldi Kichkina shahzoda.

— E, shunday degin...

Ikkovi ham jim qoldi.

— Odamlar qayoqda, odamlar? — deb tag'in so'radi nihoyat Kichkina shahzoda. — Sahroda, har qalay, o'zingni yolg'iz sezarkansan kishi...

— Odamlar orasida ham o'zingni yolg'iz sezaverasan, — deb qo'ydi ilon.

Kichkina shahzoda unga sinchiklab tikildi.

— G'alati jonivor ekansan, — dedi u. — Yo'g'onliging barmoqdek kelmaydi-yu...

— Ammo men qirolning barmog'idan ko'ra ko'proq qudratga ega-man, — deb e'tiroz bildirdi ilon.

Kichkina shahzoda kulimsiradi:

— Nahotki sen shu qadar qudratli bo'lsang? Loaqal panjang ham yo'q-ku. Sen hatto sayohat qilishga ham yaramaysan...

— Men seni birorta kema eltolmaydigan olis manzillarga olib ketishim mumkin, — dedi ilon, so'ng Kichkina shahzodaning boldiriga halqa bo'lib chirmashdi.

— Kimgaki tegsam, uni asliga — tuproqqa aylantiraman, — dedi u. — Ammo sen yulduzzan tushib kelgansan, yulduzdek poksan...

Kichkina shahzoda indamay turaverdi.

— Senga rahmim keladi, — deya davom etdi ilon. — Tosh-metin bu zaminda sen shu qadar zaif, ojizsan-ki... Yodingda bo'lsin, qachonki olisda qolgan sayyorangni eslab yuraging g'ussaga to'lsa, men senga yordam qilishim mumkin. Men...

— Gapingni juda yaxshi tushundim, — dedi Kichkina shahzoda. — Ammo nega doim jumboq bilan so'zlaysan?

— Men hamma jumboqlarni hal etaman, — dedi ilon.

Ikkalasi tag'in jimib qoldi.

*Kichkina shahzoda Yerda ancha kezib yuradi; tog' cho'qqilariga chiqadi, qum barxanlari, muzliklardan, chamanzorlardan o'tadi, bir tulki bilan tanishadi, bekat nazoratchisi bilan suhbatlashadi. Nihoyat, qissa boshida aytiganidek, samolyoti buzilib sahroga qo'nishga majbur bo'lgan uchuvchiga duch kelib qoladi.*

## XXIV

Falokatga uchraganimga rosa bir hafta bo'lgan edi, g'aroyib ichimlik sotadigan savdogar haqida eshitgach, so'nggi qultum suvimni ichib tugatdim.

— Ha-a, — dedim Kichkina shahzodaga qarab, — bu aytgan gaplarining hammasi qiziq, ammo men hali samolyotimni tuzatolganim yo'q.

mana, ko'rding, oxirgi tomchi suvni ham quritdim, agar to'ppa-to'g'ri buлоq boshiga borib qolsam, men ham o'zimni behad baxtiyor hisoblardim.

— Men do'st bo'lgan Tulki aytardiki...

— Azizim, hozir tulki-pulking qulog'imga kirmaydi!

— Nega?

— Chunki tashnalikdan o'lib ketishimga ko'zim yetib turibdi...

U gap nimadaligini baribir tushunmadi-da, yana e'tiroz bildirdi:

— Do'sting bo'lsa yaxshi-da, qo'rqlmay o'limga ham boraversang bo'ladi. Mana men Tulki bilan do'st bo'lganimdan shunday xursand-manki...

«Qanday dahshatli balo xavf solib turganini u sezmaydiyam, bilmaydiyam. Umrida hech qachon na ochlikni, na tashnalikni ko'rgan. Unga quyosh nurining o'zi kifoya...»

Men buni tovush chiqarib aytmadim, o'zimcha o'yladim, xolos. Biroq, Kichkina shahzoda menga qaradi-da, to'satdan:

— Men ham chanqadim... yur, quduq qidirib ko'ramiz, — dedi.

Men horg'in qo'l siltadim: bu poyonsiz sahroda tusmollab quduq izlashdan nima ma'no bor? Ammo baribir yo'lga tushdik.

Uzoq vaqt bir-birimizga churq etmay bordik; nihoyat, qorong'i tushib, osmonda birin-ketin yulduzlar charaqlay boshladi. Tashnalikning zo'ridan meni biroz bezgak ham tutmoqda edi, shu bois yulduzlarni tushdagidek elas-elas ko'rardim. Kichkina shahzodaning gapi yodimga tushib, so'radim:

— Demak, tashnalik nimaligini sen ham bilar ekansan-da?

Biroq u indamadi, faqat shunchaki so'zlagandek:

— Suv ba'zan yurakka ham kerak bo'ladi... — deb qo'ydi.

Uning nima demoqchiligini tushunmadim-u, so'rab o'tirmadim — uni so'roq qilishning behuda ekanini yaxshi bilardim.

U nihoyat holdan toyib, qumga muk cho'kdi. Men ham yoniga ohista cho'zildim. Allamahalgacha hech birimiz churq etmadik. Bir payt u sekingga:

— Yulduzlar judayam chiroyli, chunki qayeridadir guli bor, faqat ko'rilmaydi, xolos, — deb qoldi.

— Ha, albatta, — dedim men, oy yog'dusida tovlanib yotgan qum to'lqinlariga tikilgancha.

— Sahro ham chiroyli... — deb qo'shib qo'ydi Kichkina shahzoda.

Bu gap chindan ham to'g'ri edi. Sahro menga hamisha yoqadi. Qum barxaniga chiqib o'tirasan, hech narsa ko'rinnmaydi, hech narsa eshitilmaydi, ammo baribir sahro qo'ynida nimadir bilinar-bilinmas yaltiraydi...

— Bilasanmi, sahro nima uchun yaxshi? — dedi u. — Chunki uning bag'rida, ko'z ilg'amas allaqayerlarda buloqlar yashiringan bo'ladi...

Hayratdan qotib qoldim. Birdaniga qumlardan taralib yotadigan sirli yog'duning nima ekanini angladim. Bir paytlar, yosh bola chog'imda ko'hna bir uyda yashardim. Naql qilishlaricha, bu uyg'a katta bir xazina ko'milgan ekan. Ravshanki, uni biror kimsa hech qachon topib ololmadi, kim bilsin, balki biror kimsa hech qachon qidirib ham ko'rmagandir. Ammo o'sha mish-mish tufayli uy go'yo tilsim qilingandek sehrli ko'rinnardi — uning bag'rida sir pinhon edi...

— Ha-a, — dedim ohista. — Yulduzmi, uymi, sahromi, nimaiki bo'lmasin, undagi eng go'zal narsa — ko'zga ko'rinnmaydigan narsadir.

— Do'stim Tulki bilan hamfikr ekansan, judayam xursand bo'l-dim, — dedi Kichkina shahzoda quvonib.

Saldan keyin u uxbab qoldi. Men uni qo'limda ko'targancha yo'lda davom etdim. O'z-o'zimdan hayajonlanib ketgan edim. Nazarimda, qo'limda nafis bir xazinani ko'tarib borayotgandek edim. Nazarimda, Yer yuzida bundan ko'ra nozik va nafisroq hech narsa yo'qdek tuyulardi. Oy yog'dusida uning bo'zdek oqargan manglayiga, yumuq mijjalariga, shamolda to'zg'ib yotgan tillarang kokillariga termilib borarkanman, o'zimga o'zim, bularning barchasi — shunchaki qobiq, der edim. Eng asosiy narsani ko'z ilg'amaydi, u siyratda, botinda pinhon...

Uning xiyol ochiq lablarida tabassum o'ynardi, ularga tikilib turib o'zimcha yana shunday deb o'yladim: mana, Kichkina shahzoda, beozorgina uxbab yotibdi, feruza guliga shunchalar sadoqatlici, odamning beixtiyor ko'ngli erib ketadi, gulining yodi-xayoli, sham shu'lasining sharpasidek, uni biron zum, hatto uyqusida ham tark etmaydi... Va shunda men uning aslidagidan ham ko'ra nozikroq ekanini angladim. Axir, sham shu'lasini ehtiyyot qilish kerak — quturgan shamol uni o'chirib qo'yishi mumkin.

Alqissa, shu tariqa yo'l yurdim-u mo'l yurdim va tong chog'i bir quduq boshiga yetib bordim.

— Odamlar jon-jahdi bilan tezyurar poyezdlarga oshiqib nima izlayotganini o'zları ham bilmaydi, — dedi Kichkina shahzoda. — Shuning uchun ham orom neligini bilmay goh bir tomonga, goh ikkinchi to-monga zir yugurardilar... — Xiyol o'tgach, shunday deb qo'shib qo'ydi: — Lekin bari behuda...

Biz topgan bu quduq Sahroyi Kabirdagi boshqa quduqlarga o'x-shamasdi. Odatda, bu yerdagi quduq qumni nari-beri o'yib yasalgan chuqurchadan iborat bo'lardi. Bu esa qishloqlarda uchraydigan haqiqiy quduq edi. Ammo atrof-javonibda qishloqning asari ham yo'qligi uchun men buni tushga yo'yib qo'ya qoldim.

— G'alati-ya, — dedim Kichkina shahzodaga, — hammasi tayyor — chambarak ham, chelak ham, arqon ham....

U kulimsirab qo'ydi-da, arqonni tortib, chambarakni buradi. Chambarak xuddi shalog'i chiqqan charxpalakdek g'ichirlab aylana boshladi.

— Eshityapsanmi? — deb so'radi Kichkina shahzoda. — Quduqni uyg'otib yubordik, ana, endi xirgoyi qilishga tushdi...

Men, u charehab qoladi, deb xavotirda edim.

— Suvni o'zim tortaman, — dedim shosha-pisha, — sening kuching yetmaydi.

Suv to'la chelakni sekin tortib chiqardim-da, quduqning tosh qirg'og'iga avaylab qo'ydim. Qulog'imda hamon chambarakning g'ichirlab aylanishi aks sado berar, chelakdagi suv ohista chayqalar, mayjlarida quyosh shu'lesi o'ynar edi.

— Shu suvdan ichgim kelyapti, — deya menga javdirab boqdi Kichkina shahzoda. — Bir qultum ber...

Shunda men uning nima izlab yurganini tuyqusdan angladim!

Chelakni ko'tarib, asta labiga tutdim. U ko'zlarini yumib olgan, huzur qilib obi hayot simirar edi. Bu chinakam bir shodiyona edi. Chunki bu oddiy suv emasdi. U sahroda, yulduzlar ostidagi uzoq sargardonlikdan so'ng, chambarakning g'ichirlab aylanishidan so'ng, qo'llarimning harakatidan so'ng bizga muyassar bo'lgan noyob, ilohiy bir ne'mat edi. Go'yo yurakka tengsiz malham edi u...

— Sening sayyorangda, — dedi Kichkina shahzoda, — odamlar bir chamanzorda besh mingta gul o'stirar ekan-u, izlaganini topolmas ekan...

- Topolmaydi, — deb ma'qulladim men.
  - Holbuki, ular izlagan narsani bir dona guldan, bir qultum suvdan ham topish mumkin.
  - To'g'ri aytasan, — deb tasdiqladim yana.
- Kichkina shahzoda tag'in o'yga cho'mdi:
- Afsuski, ko'zlar basir. Ko'ngil ko'zi bilan izlash lozim.
- Suvdan miriqib ichdim. Nafas olishim yengillashdi. Sahar chog'i qum xuddi asaldek tillarang tovlanadi, unga tikilgan sari o'zimni baxtiyor sezardim. Chindan ham, nega, nedan qayg'u chekay?..
- Sen va'dangning ustidan chiqishing kerak, — dedi Kichkina shahzoda muloyimlik bilan, tag'in yonimga kelib o'tirarkan.
  - Qanaqa va'da?
  - Esingdami, qo'zichog'ingga no'xta... beraman, degan eding?.. Axir, men o'sha gulga javobgarman-ku...

Cho'ntagimdan chizgan rasmlarimni oldim. Kichkina shahzoda ularni ko'zdan kechirarkan, kulimsiradi:

- Baobablar ingga xuddi karamga o'xshaydi-ya...
- Men bo'lsam, baobabni boplab chizganman, deb gerdayib yurib-man-a!
- Tulkning qulog'i bo'lsa... shoxning o'zi! Uzunligini qara-yu! — U yana kulib yubordi.
  - Bu gaping insofdan emas, og'ayni. Axir, men umrimda bo'g'ma ilonning ichki-yu tashqi ko'rinishidan boshqa narsa chizgan emasman-da.
  - Mayli, hechqisi yo'q, — dedi u meni yupatib. — Bolalar shundoq ham tushunib olishadi.

Keyin men uning qo'zichog'iga no'xta chizib berdim. Suvratni Kichkina shahzodaga berdim-u negadir yuragim zirqirab ketdi.

- Nimanidir o'ylab qo'ygansan-u, menga aytmayapsan...
- Biroq u indamadi.
- Bilasanmi, — dedi nihoyat, — ertaga sizlarning huzuringizga — Yerga kelganimga bir yil to'ladi... — U tag'in jimib qoldi, bir zum o'tgach: — Men mana shu atrofga tushgan edim... — dedi. Shunday dedi-yu duv qizarib ketdi.

Negaligini xudo biladi-yu dilimni yana qo'rg'oshindek g'ashlik qopladi. Lekin baribir yurak yutib so'radim:

- Bundan chiqdiki, bir hafta avval, ikkalamiz tanishgan tongda,

odamzod makonidan ming-ming chaqirim uzoq bu ovloq yerlarda sen yolg'iz o'zing bejiz kezib yurmagan ekansan-da? Osmondan tushgan joyingga qaytib kelayotganmiding?

Kichkina shahzoda battarraq qizarib ketdi.

Men endi hadiksirab so'radim:

— Balki, bir yil to'lgani uchun shunday qilmoqchimisan?

U yana loladek qizardi. U birorta savolimga javob bermadi, ammo qip-qizarib ketgani — «ha» degani emasmi?

— Qo'rqib ketyapman... — deya so'z boshladim xo'rsinib.

Ammo u gapimni kesdi:

— Ishga kirishadigan vaqting bo'ldi. Tura qol, mashinangning yoniga bor. Men seni shu yerda kutaman. Ertaga kechqurun qaytib kelgin...

Ammo baribir ko'nglim tinchimadi. Beixtiyor Tulkini esladim. Qo'lga o'rganib qolganingdan keyin ba'zan ko'z yosh to'kishga ham to'g'ri keladi.

## XXVI

Quduqdan sal narida ko'hna tosh qo'rg'onning vayronalari saqlanib qolgan edi. Ertasi oqshom ishni tugatib qaytarkanman, uzoqdan Kichkina shahzodaning choldevor ustida oyog'ini osiltirib o'tirganini ko'rdim. Yaqinlashgach, ovozini ham eshitdim.

— Esingdan chiqdimi? — derdi u. — Bu gap xuddi shu yerda bo'Imagan edi-yu, lekin...

Chamasi, kimdir unga javob qaytarmoqda edi, chunki shunday deb e'tiroz bildirdi:

— To'g'ri, bu gap bundan roppa-rosa bir yil avval bo'lgan edi, lekin boshqa joyda...

Qadamimni tezlatdim. Ammo devorning tagida zog' ham ko'rmasdi. Biroq Kichkina shahzoda hamon kim bilandir gaplashib o'tirardi:

— Albatta-da. Mening izimni qumdan osongina topasan. Keyin kutib turgin, bugun kechasi men o'sha yerga kelaman.

Devorning oldigacha yigirma qadamlar chamasi qoldi, lekin men hanuz hech narsani ko'rmadim.

Biroz jimlikdan so'ng Kichkina shahzoda:

— Zaharing o'tkirmi o'zi? Ishqilib, meni ko'p qiynamaysanmi? — deb so'radi.

Turgan joyimda qotib qoldim, yuragim orqamga tortib ketdi, biroq hamon biror nimani tushunmas edim.

— Keta qol endi, — dedi Kichkina shahzoda. — Men pastga sakramoqchiman.

Shunda oyoq ostiga qaradim-u, ikki gaz nariga sapchib tushdim! Devorning shundoqqina tagida, odamni chaqsa, yarim minutda til tortmay o'ldiradigan bir ilon bo'ynini gajak qilgancha Kichkina shahzodaga tikilib turardi. Cho'ntagimdag'i to'pponchani paypaslagancha unga qarab yugurdim, ammo ilon sharpamni sezib, qurib borayotgan jilg'a-dek, qum uzra asta sirg'algancha, bilinar-bilinmas ohanrabo sas chiqarib toshlararo g'oyib bo'ldi.

Rosa vaqtida yetib kelgan ekanman, boyoqish Kichkina shahzodamni dast ko'tarib oldim. Rangi qordek oqarib ketgan edi.

— Nima qilganing bu, bolakay! — dedim nafasim tiqilib. — Nega ilon bilan suhbat qurib o'tiribsan?

Shunday deb, uning doimiy yo'ldoshi — tillarang sharfini bo'yniga taqib qo'ydim, yuz-ko'zini yuvib, majburan suv ichirdim. Ammo boshqa biror narsani so'rashga yuragim dov bermadi. U menga sinchiklab tikilda, bo'ynimdan mahkam quchdi. Yuragining yarador qushdek betoqat tipirchilayotganini yaqqol eshitib turardim.

— Nihoyat mashinangni tuzatib olisan, judayam xursand bo'l-dim, — dedi u. — Endi bemalol uyingga qaytishing mumkin...

— Shoshma, sen buni qayoqdan bilding?!

Chunki, barcha balolarni dog'da qoldirib, samolyotimni tuzatishga muvaffaq bo'lganimni aytmoq uchun endigina og'iz juftlagan edim-da!

U savolimni odatdagidek javobsiz qoldirib, shunday dedi:

— Men ham bugun uyimga qaytaman.

Keyin g'amgin ohangda qo'shib qo'ydi:

— Lekin mening safarim senikidan uzoqroq... senikidan qiyintroq...

Xuddi go'dak boladek mahkam bag'rimga bosib turardim-u, lekin, nazarimda, u go'yo og'ushimdan sirg'alib chiqqancha bo'shliqqa singib ketayotgandek tuyulardi, uni tutib qolishga o'zimni ortiq qodir emasdek his qillardim...

U olis-olislarga horg'in, o'ychan termilarkan:

— Menda sening qo'zichog'ing qoladi. Qutichayam. No'xta ham... — dedi, dedi-yu g'amgin kulimsirab qo'ydi.

Men uzoq kutdim. U go'yo asta-sekin o'ziga kelayotgandek edi.

— Biror narsadan qo'rqqanga o'xshaysan, bolakay...

Qo'rqmay ham bo'ladi! Ammo u ohistagina kulimsiradi:

— Bugun kechqurun bundan battar qo'rqsam kerak...

Muqarrar falokat tuyg'usi tag'in vujud-vujudimni muzlatib, karaxt qilib tashladi. Nahot, nahotki, uning jarangdor kulgisini qayta eshitmasam? Axir, bu kulgi men uchun sahrodagi pokiza buloq bilan barobar-ku!

— Bolakay, kulgingni sog'indim, bir kulgin...

Ammo u bunga javoban:

— Bugun bir yil to'ladi, — dedi. — Yulduzim bir yil avval men qulab tushgan joyga rosa ro'baro' keladi...

— Menga qara, bolakay, axir, bularning barchasi — ilon ham, yulduz bilan uchrashuv ham ahmoqona b.r tush-ku, to'g'rimi?

Biroq u gapimga indamadi.

— Eng asosiy narsa — ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan narsa... — dedi u.

— Ha, albatta.

— Bu ham xuddi gulga o'xshaydi. Agar olis yulduzlardan birida o'sadigan gulni yaxshi ko'rsang, kechasi osmonga boqib huzur qilasan. Ko'z o'ngingdan yulduzlarning jami guldek ochilib yotadi...

— Albatta...

— Kechasi yulduzlarga termilasan. Mening yulduzim benihoya kichkina, uni senga ko'rsatolmayman. Shunday bo'lgani tuzuk. U sen uchun osmon to'la yulduzning biri bo'lib qolgani ma'qul. Shunda sen osmonga boqishni yaxshi ko'rib qolasan... Jamiki yulduz senga oshno bo'lib qoladi. Keyin, men senga nimadir sovg'a ham qilmoqchiman... — U shunday deb kulib yubordi.

— Eh, bolakay, bolakay, kulgilaringni qanchalar yaxshi ko'rishimni bilsang edi!

— Senga bermoqchi bo'lgan sovg'am ham mana shu-da...

— Yo'g'-e?

— Har kimning o'z yulduzi bor. Ba'zilarga, aytaylik, sarbon-u say-yohlarga — ular yo'l ko'rsatuvchi, ba'zilarga esa shunchaki mitti shu'la, xolos, olimlarga — yechish lozim bo'lgan masala, men ko'rgan korchalonga esa — oltin bo'lib ko'rindi ular. Ammo bu odamlarning barchasi uchun yulduzlar bezabon. Sening yulduzlarining esa butunlay o'zgacha bo'ladi...

— O'zgacha deysanmi?

— Kechalari osmonga boqasan-u men yashaydigan, mening kulgim yangrayotgan yulduzlarning barchasi jilmayib kulayotgandek tuyuladi. Ha, sening kula biladigan yulduzlarining bo‘ladi!

U shunday dedi-yu, kulib yubordi.

— Yupanganingdan keyin esa (oxir-oqibat doim yupanasan baribir) qachondir men bilan oshno bo‘lganiningni eslab, yuraging quvonchga to‘ladi. Sen hamisha mening do‘stim bo‘lib qolasan, hamisha menga qo‘silib kulishni istab yurasan. Ba’zan derazangni mana shunday lang ochib yuborasan-u, shodumon bo‘lib ketasan... Shunda do‘stlaring, nega u osmonga boqib bunchalar xursand bo‘layotgan ekan, deb qattiq hayron bo‘ladilar. Sen bo‘lsa ularga: «Ha, ha, men doimo yulduzlarga boqib xushxandon kulaman!» deysan. Ular esa seni, aqldan ozib qoldimikan, deb gumon qilishadi... ko‘rdingmi, qanday chatoq hazil boshladim sen bilan...

U yana qo‘ng‘iroqdek tovush bilan kulib yubordi.

— Go‘yo yulduzning o‘rniga senga bir shoda jarangdor qo‘ng‘iroq sovg‘a qilgandek bo‘ldim...

Yana xandon tashlab kului, so‘ng tag‘in jiddiy tortdi:

— Bilasanmi... bugun kechasi... yo‘q, yaxshisi kelmay qo‘ya qol.

— Men seni yolg‘iz qoldirmayman.

— Senga, biror joyim og‘riyotgandek... hatto jon berayotgandek bo‘lib tuyulishim ham mumkin. Shunaqa bo‘ladi o‘zi. Kelmay qo‘ya qol, kerakmas.

— Men seni yolg‘iz qoldirmayman...

U nimadandir qattiq tashvishmand ko‘rinardi.

— Bilasanmi... haligi... ilonni o‘ylayapman. Tag‘in u seni chaqib olsaya? Axir u yovuz hayvon-ku. Birovni chaqsa, huzur qiladi.

— Men seni yolg‘iz qoldirmayman.

U birdan xotirjam tortdi:

— Ha, aytmoqchi, uning zahri ikki kishiga yetmaydi...

Kechasi uning qanday turib ketganini sezmay qolibman. U sassiz-sharpasiz sirg‘alib ketib qolgan edi. Nihoyat, uni quvib yetganimda, u jadal, dadil odim otib borardi. Meni ko‘rib:

— Ha, senmisan... — dedi, xolos.

So‘ngra asta qo‘limdan tutdi-yu, allanimadan cho‘chigandek darrov tortib oldi:

— Bekor kelyapsan men bilan. Ahvolimni ko‘rib qiynalasan. Nazaringda o‘layotgandek ko‘rinaman, lekin bu yolg‘on bo‘ladi...

**Men indamay boraverdim.**

— Bilasanmi... yo'lim nihoyatda olis, jismim esa nihoyatda og'ir. Men uni olib ketolmayman.

**Men indamay boraverdim.**

— Bu xuddi eski qobiqni tashlagandek bir gap. Hech bir qayg'uradigan joyi yo'q buning.

**Men indamay boraverdim.**

Uning biroz ruhi tushdi, ammo baribir zo'r berdi:

— Mana ko'rasan, juda soz bo'ladi hali. Men ham yulduzlarga termilaman. Shunda jamiki yulduz g'ichirlab aylanadigan chambarakli ko'hna quduq bo'lib ko'rindi. Va ularning har biri menga ichgani suv beradi...

**Men indamay boraverdim.**

— Bir o'y lab ko'rgin-a, qanchalik soz bo'ladi o'shanda! Senda besh million qo'ng'iroy bo'ladi, menda esa — besh million buloq...

U birdan jimb qoldi — bo'g'ziga yig'i tiqilib keldi.

— Mana, yetib ham keldik. Qo'y endi meni, bu yog'iga o'zim boray.

Shunday deb qum uzra bemajol cho'kdi — yuragini qo'rquv chulg'adi.

Xiyol o'tgach, sekingina shivirladi:

— Bilasanmi... gulim... men gulimga javobgarman. Chunki u shunchalar zaif, nochorki! Soddaligini aytmaysanmi? O'zini himoya qilmoqqa to'rttagina arzimas tikanidan boshqa narsasi yo'q...

Men ham qumga muk tushdim, oyoqlarimdan mador qochib, chalishib ketmoqda edim.

— Mana... tamom endi... — dedi u.

Bir lahma tek qoldi-yu, so'ng o'rnidan turdi. Bir qadam ilgari bosdi...

Men esa hamon joyimdan qo'zg'alolmas edim.

Oyoqlari ostida go'yo sariq yashin chaqnagandek bo'ldi, bir daqqa qotib qoldi. Yig'ilamadi, bo'zlamadi. So'ng xuddi bolta urilgan daraxtdek ohista quladi: na bir sharpa, na bir sas... Illo, qum zarralari tiq etgan tovushni ham yutib yuboradi-da.

## XXVII

Mana, o'shandan buyon olti yil o'tdi... Hanuzgacha bu haqda biror kimsaga churq etib og'iz ochganim yo'q. Qaytib kelganimda, do'stlarim meni tag'in eson-omon ko'rib sevindilar, biroq ko'nglim benihoya g'ash edi, so'ragan odamga:

— Charchabman shekilli... — deb qo‘ya qolardim.

Lekin, asta-sekin baribir yupana boshladim. Batamom emas, albatta. Biroq shu narsani yaxshi bilamanki, u o‘z sayyorasiga qaytib ketgan, chunki tong yorishgach, qum ustida jasadini ko‘rmadim. Uning jismi unchalik og‘ir ham emasdi-da.

Kechalari yulduzlarga quloq tutib o‘tirishni yaxshi ko‘raman. Go‘yo besh million qo‘ng‘iroq shodumon jiringlayotgandek...

Lekin, buni qarangki, qo‘zichoqqa no‘xta chizib berayotganimda, tasmachasini unutgan ekanman. Endi Kichkina shahzoda uni qo‘zichoqqa taqa olmaydi. Shu bois goh-goh o‘zimdan so‘rayman: u yoqda, do‘stming sayyorasida ahvol qalay ekan? Tag‘in qo‘zichoq gulni yeb qo‘ygan bo‘lsa-ya?

Ba‘zan esa o‘zimga o‘zim: «Yo‘g‘-e, unday emasdир! Kichkina shahzoda kechasilari feruza gulni shisha qalpoq bilan yopib qo‘yardi, qo‘zichoqqa ham ko‘z-quloq bo‘lib tursa kerak», deb taskin beraman-u, birdan quvonib ketaman. Shunda yulduzlar ham ohista jilmayib kulayotgandek tuyuladi.

Gohida esa: «Ba‘zan nimadir xotirdan faromush bo‘ladi-ku, axir... Unda, har balo ham bo‘lishi mumkin! Bordi-yu, Kichkina shahzoda bir kuni shisha qalpoqni esidan chiqarib qo‘ysa yo qo‘zichoq kechasi sez-dirmay qutichasidan chiqib ketib qolsa-ya...» deb o‘ylayman vahimaga tushib. Shunda osmondagи qo‘ng‘iroqlарим ham unsizgina yig‘layotgandek tuyuladi...

Bularning barchasi allanechuk aql bovar etmaydigan sirli hodisalaridir. Aminmanki, sizga ham, Kichkina shahzodani yaxshi ko‘rib qolgan boshqa har qanday odamga ham, xuddi men kabi, koinotning allaqaysi burchagida biz hech qachon ko‘rmagan bir qo‘zichoq bizga notanish bir gulni yeb qo‘ygan-qo‘ymagani aslo bari bir bo‘lmasa kerak; dunyoning ko‘zimizga qanday ko‘rinishi ana shunga juda-juda bog‘liq...

Boshingizni ko‘tarib, bepoyon osmonga boqing. So‘ngra o‘zingizdan: «O‘sha feruza gul omon bormikan? Bordi-yu qo‘zichoq uni yeb qo‘ygan bo‘lsa-ya?», deb so‘rang. Ana shunda ko‘rasiz — olam ko‘z o‘ngingizda butkul boshqacha jilvalana boshlaydi...

Va birorta katta odam buning qanchalar muhim ekanini hech qachon tushuna olmaydi!

*Bu yer, meningcha, dunyodagi eng go'zal va eng hasratli makon bo 'Isa kerak. Sahroning bu kimsasiz parchasi sal yuqorida ham tasvirlangan edi, ammo uni yaxshiroq ko'rib olishingiz uchun yana qaytadan chizmoqchiman. Xuddi shu joyda Kichkina shahzoda Yer yuzida birinchi bor paydo bo'lgan, keyin xuddi shu joyda g'oyib bo'lgan edi. Diqqat bilan qarab eslab qoling, agar qachonlardir Afrikaga, sahroga borib qolsangiz, bu joyni tanishingiz oson bo'ladi. Mabodo shu yerdan o'tar bo'lsangiz, o'tinib so'rayman, mana shu yulduz ostida bir nafas to'xtang! Bordi-yu shu payt tillarang sochli bir bola yoningizga kelib, qo'ng'iroqdek tovush bilan kula boshlasa, birorta savolningizga javob bermasa, o'ylaymanki, kimga duch kelganingizni albatta sezsangiz kerak. O'shanda, sizdan o'tinib so'rayman, dardli dilimga yupanch berish esingizdan chiqmasin: uning qaytib kelganini menga zudlik bilan xabar qiling.*

### **Savol va topshiriqlar**

- 
1. Antuan de Sent-Ekzyuperi haqida nimalar bilasiz? Gapirib bering. Uning asl kasbi nima edi?
  2. Adib «Kichkina shahzoda» qissasidan boshqa yana qanday asarlar yaratgan?
  3. Uchuvchi Kichkina shahzoda bilan qay holatda tanishdi?
  4. Kichkina shahzoda undan qanday qo'zichoq chizib berishni iltimos qildi?
  5. Qissada Kichkina shahzoda tilidan «ko'ngil ko'zi» degan ibora ishlatalig'an. Uni izohlashga harakat qiling-chi.
  6. Uchuvchi Kichkina shahzodadan ayrilganidan nega bunchalar o'kinadi, deb o'ylaysiz?
  7. Kichkina shahzoda bilan ilon o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatni o'qtuvchingiz yordamida muhokama qiling.
  8. «Kichkina shahzoda» qissasini to'liq o'qib chiqing. So'ng qissaning badiiy jihatlari va g'oyaviy mazmuni to'g'risida sinfdoshlarining bilan suhbat uyuشتiring.

## Alisher NAVOIY (1441 – 1501)



Har yili 9-fevral kuni butun O‘zbekistonda buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiyning tug‘ilgan kuni nishonlanadi. Barcha maktab va oliy o‘quv yurtlarida, kollej hamda litseylarda va boshqa muassasalarda bu sana bayram qilinadi. Bu she’riyat bayrami, adabiyot bayramidir.

Xo‘s, nima uchun shoir bobomizga bunday ehtirom va e’zoz bildiramiz? Buning asosiy sababi shundaki, Alisher Navoiy bizning Vatanimiz tarixidagi eng ulug‘ siy molardan biridir. Bu zot millatimizni dunyodagi eng madaniyatli va ma’rifatli xalqlar qatoriga olib chiqqan, jahon adabiyotining ulkan namoyandalari qatorida turadigan zotdir.

Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida tug‘ildi. Bu shahar hozirda Afg‘onistonning markaziy shaharlaridan. Alisherning otasining oti G‘iyosiddin Muhammad edi. Uni «Kichkina bahodir» ham der ekanlar. Onasining ismi ma’lum emas.

Alisher juda kichik yoshlaridan she’r va musiqaga havas qo‘yadi, olim-u shoirlar davrasida ulg‘ayadi. Uning otasi temuriylar xonardoniga yaqin odamlardan edi. Ularnikiga zamonasining mashhur kishilari tez-tez kelib turar edilar.

Yosh Alisher uch-to‘rt yoshlarida she’r yod olib, ko‘plarni hayratga soldi. Besh yoshida maktabga bordi. Bo‘lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o‘qidi.

1447-yilda mamlakat podshohi Shohruhmirzo vafot etib, yurda notinchlik boshlandi. Alisherlar oilasi Iroqqa ko‘chadi. Olti yoshlik Alisher yo‘lda bir tasodif bilan zamonasining mashhur tarixchisi Sharafiddin

Ali Yazdiyga duch keladi. Odob va muomala bilan buyuk tarixchi mehrini ozonib, duosini oladi.

Alisher xonadoni Hirotga 1451-yilda qaytadi. Yo'lda yana qiziq voqeа yuz beradi. Ilgari shahardan shaharga karvonlar qatnar, bordi-keldilar shular yordamida bo'lar va ular ko'pincha tunda yurib, kunduzlari dam olar edilar. Xullas, tunda ot ustida mudrab borayotgan o'n yoshdagi Alisher egardan yiqilib tushadi, uyqu zo'ridan uyg'onmay, karvondan ajralib qoladi.

Ertalab uyg'onsa, cho'li biyobon. Nariroqda oti o'tlab turibdi. Odam zoti yo'q. Quyosh ko'tarilib kelmoqda. Bir lahza uni qo'rquv va vahima bosadi, biroq o'zini tezda qo'lga olib, yo'lga tushadi. Ko'p o'tmay, uni izlab kelayotgan o'z kishilariga duch keladi va eson-omon ota-onasi bag'riga boradi.

1452-yilda taxtga Abulqosim Boburmirzo chiqadi va Alisherning otasi Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. Alisher Sabzavorda o'qishni davom ettiradi.

1452—57-yillarda u dastlab Sabzavorda, so'ng Mashhadda yashadi. She'rga, musiqaga mehri oshib bordi. Farididdin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Shayx Sa'diy, Xusrav Dehlaviy asarlarini sevib o'qidi. Ayniqsa, Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qush nutqi») kitobi yosh Alisherning xayolini tamom egallab oldi. Ota-onas tashvishga tushdilar. Kitobni bekitdilar. Lekin kitob tamom yod bo'lgan edi.

Bular beiz ketmadi. Bo'lajak shoir yetti-sakkiz yoshlaridan she'r mashq qila boshladи. Ikki tilda she'r yozdi, o'zbekchalariga «Navoiy», forschalariga «Foniy» taxallusini qo'ydi. «Navoiy» «navo» — «kuy» so'zidan olingan, «Foniy» esa forschcha «vaqtincha» ma'nolarini berar edi.

Shunday qilib, Navoiy 12 yoshlarida o'z she'rlari bilan zamonasining eng mashhur shoirlarini hayratga soldi. Masalan, to'qson yoshlik Mavlono Lutfiy uning:

Orazin yopg'och ko'zumdin sochilur har lahza yosh,  
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh, —

satrлari bilan boshlanadigan bir she'rini tinglab, qoyil qolgandi.

She'r chindan ham go'zal edi. Undagi xayol mislsiz edi. «Yor yuzini yopgach, ko'zimdan har lahza yosh sochiladi. Bu go'yo quyosh botganida yulduzlar paydo bo'lgani kabidir», — deb yozgan edi yoshgina shoir.

1457-yilda Abusaidmirzo taxtga chiqdi. Alisherning mактабdosh do'sti Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga tushib ketdi. Alisher Mashhad madrasalarida o'qishni davom ettirdi.

U Hirota 1464-yilda keladi, lekin ko'p o'tmay, Samarcandga ketishga majbur bo'ladi. Samarcandda u 1469-yilga qadar yashadi. Temuriylarning bosh shahri buyuk shoir hayotida o'chmas iz qoldirdi. Bu haqda u ko'p yozgan.

Nihoyat Alisherning mактабdosh do'sti Husayn Boyqaro taxtga chiqishi bilan uni Hirota chaqirib oladi va muhror qilib tayinlaydi. 1472-yildan vazirlik martabasiga ko'tariladi, 1487–88-yillarda Astrobodda hokim bo'lib ishlaydi. Umrining oxiriga qadar shohning eng yaqin kishisi bo'lib qoladi. Shu yillari mamlakat osoyishtaligi, yurt obodligi yo'lida ulkan ishlar qiladi.

Alisher Navoiy umr bo'yi badiiy ijod bilan ham shug'ullandi. Yettita she'riy devon tuzdi. Nizomiy Ganjaviyning besh dostonidan tarkib topgan «Panj ganj» («Besh xazina»)iga javob sifatida o'zining mashhur «Xamsa»sini yozdi. O'ndan ortiq nasriy asar yaratdi. Bu asarlar, mana besh asrdan oshibdiki, mumtoz adabiyotimizning cho'qqisi bo'lib turibdi.

Buyuk shoir 1501-yilning 3-yanvarida Hirota vafot etdi.

## «HAYRAT UL-ABROR» DOSTONIDAN

### O'NINCHI MAQOLAT

Har kishikim, tuzluk erur peshasi,  
Kajrav esa charx ne andeshasi.

O'qli, tuz o'ldi tayaroni aning,  
Bo'lsa yer egri, ne ziyoni aning?

Yo'l necha tuz, yo'lchig'a maqsad qarib,  
Xamlig'idin tushsa yiroq yo'q ajib.

Nay tuz uchun istar ani ahli hol,  
Chun tuz emas, egri ko'rар go'shmol.

Nayza bo'lib tuzlugidin sarbaland,  
Chirmosh uchun bandg'a qolib kamand.

Sham' bo'yi tuz kelib ayvon aro,  
Shohidi bazm o'ldi shabiston aro.

Egri uchush birla chu ko'p aylanib,  
Qaydaki parvona borib o'rtanib.

Sarvkim, ul to'g'ri chekib qomatin,  
Ko'rmayin osobi xazon ofatin.

Chirmashibon sunbuli tar bog' aro,  
Egrilik oning yuzin aylab qaro.

Tuz durur egri qili to soz erur,  
Egri bo'lur emdiki, nosoz erur.

Bo'ldi chu mistar xatig'a tuz qaram,  
Boshini olmas raqamidin qalam.

Bir xati gar egri tushar bir nuqat,  
Nusxada har safhadadur egri xat.

Rostqalam xalq erurlar salim,  
Egri durur xatki, emas mustaqim.

Rostdur ulkim, nazari to'g'ridur,  
Kim iligi egridur, ul o'g'ridur.

Bo'lsa ilik egrilik ichra samar,  
El ani kesmak-la tuz etgay magar.

Ko'zki erur egri aning xilqati,  
Birni iki ko'rmak erur san'ati.

Har kishikim, istasa tuzlukka g'avr,  
Anglagil onikim, erur ikki tavr:

Bir buki, yolg'ong'a taassuf bila,  
To'g'ri degay so'zni takalluf bila.

Yaxshidur avvalg'isi xud begumon,  
Lek ikkinchisi ham ermas yomon.

Har kishi yolg'onne desa, lek kam,  
Bo'lg'ay edi kosh bu davronda ham.

Lek bu chinlikki, Haq et mish ato,  
Ko'rgi ulus olnida uldur xato.

Ulki xato so'ziga oyin erur,  
Zu'mida ulkim, bu xato chin erur.

Kimki bu davronda qilur rostliq,  
Yo'qtur ishi g'ayri kam-u ko'stliq.

Davr chu kajlikka qilur iqtizo,  
Sen tilasang rost, emastur rizo.

Egri-yu tuz vasfi muhaqqaq durur,  
Boutil erur egri-yu tuz haq durur.

Sham'ki, tuzluk bila masrur o'lur,  
Garchi kuyar boshtin-ayoq nur o'lur.

Barqki, egrilik o'lubtur xo'yi,  
Garchi yorur, lek borur yer quyi.

To reja chekmas yeriga bog'bon,  
Bog' hamon zebda jangal hamon.

Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,  
Suvni teng ichmas necha yakson sochar.

Necha musattah esa ko'zgu yuzi,  
Tuz ko'rur shohidi mahro' yuzi.

Xud yuzi garchi musayqal durur,  
Girdi uzor anda mutavval durur.

Tuz ko'rur mehr chu turg'on suda,  
Egri bo'lur ishtarak urg'on suda.

Sahv ila yolg'on demak ermas hisob,  
Bilgach ani chunki qilur ijtinob.

Ulki shior ayladi yolg'on demak,  
Bo'lmas ani er-u musulmon demak.

Nechaki jahd aylasa kozib kishi,  
Bir-iki dast ilgari borg'ay ishi.

G'ofil esa xalq bu ahvoldin,  
Voqif erur tengri xud ul holdin.

Elga necha maxfi esa bu sifat,  
Zohir etar yolg'on o'zin oqibat.

Kizb qilur burnog'i subh oshkor,  
Nurini ko'rkim, nechadur poydor...

Har kishi ont ichti sharorat bila,  
Kizb esa daf' o'ldi kaforat bila.

Kimki o'zi ayladi yolg'on so'zin,  
Kizb, der el, chin desa, yolg'on so'zin.

Ranjga solg'on bu xasorat oni,  
Aylamas ozod kaforat oni.

Kimsaga yolg'onchi debon qolsa ot,  
Bu ot ila chorlasalar o'z-u yot.

Sidq xitobi yana yonmas anga,  
Chin desa ham, xalq inonmas anga.

Kimki chini el aro yolg'on durur,  
Yolg'oni chinlikka ne imkon durur?

Necha zarurat aro qolg'on chog'i,  
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i.

### SHER BILAN DURROJ

Bor edi bir beshada bir tund sher,  
Vahshat aro ko'k asadidek daler.

Chun bo'lur erdi bolalab zavqnok,  
Mo'r bolasin qilur erdi halok.

Tishlabon ul moyai payvandini,  
Og'zida asrar edi farzandini.

Bor edi duroje o'shul beshada,  
Sheri jayon vahmidin andeshada.

Sherki tishlab bolasin dam-badam,  
Beshada har yon qo'yar erdi qadam.

Yetgach aning boshi uza nogahon,  
Fir eta uchsa edi ul notavon.

Vahm ila seskanmak o'lub sher ishi,  
O'lturur erdi bolasig'a tishi.

Tish bila aylab bolasi yorasin,  
Yora etib o'z jigari porasin.

Doyim anga bu g'am aro g'am edi,  
Ham neki, motam uza motam edi.

Ko'ngli bu ishdin bo'lub ozorliq,  
Boshladi durroj bila yorliq.

Dediki: mendin sanga yo'q qasd-u kiyn,  
Emin o'l-u bil meni dog'i amin.

Vahmni qo'y, hamdam-u hamrozim o'l,  
Aysh-u tarab vaqtı navosozim o'l.

Men dog'i lahning eshitib shod o'lay,  
Nag'mang ila qayg'udin ozod o'lay.

Shart bukim, yetsa gazande sanga,  
Solsa falak hiylasi bande sanga.

Lutf qo'lin holinga hamdast etay,  
Xasmni bir panja bila past etay.

Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,  
Seni aduv domidin aylay xalos.

Sher ko'p afsun bila chun qildi jahd,  
Sidq ila durroj dog'i qildi ahd.

Andoq aro yerda ayon bo'ldi mehr,  
Kim hasad eltur edi andin sipehr.

Qaydaki orom tutub sharza sher,  
Girdida durroj uchubon daler,

Boshig'a parvoz ila gardishnamoy,  
O'ylaki sulton boshi uzra humoy.

Sher eshitib aning ilhonini,  
Fahm qilib savtida yolg'onini,

Der edi, yolg'on demakim shum erur,  
Kizb tuz el ollida mazmum erur.

Pand eshitmas edi durroji mast,  
Kizbdin etmas edi afg'ONNI past.

Bir kun aning qasdig'a bir saydgar,  
Hodisa domin yoyib erdi magar.

Dona bila suv sari qilg'och xirom,  
Tortti sayyod aning ustiga dom.

Qichqiribon dom aro ul mubtalo,  
Necha dedi, tot, meni tuttilo.

Sher qulog'ig'a yetib ul maqol,  
Savtini doyimg'idek etti xayol.

Ko'p eshitib erdi bu yolg'onini,  
O'yla gumon etti chin afg'onini.

Har nechakim rost fig'on ayladi,  
Sidqini ham kizb gumon ayladi.

Maxlasiga aylamadi iltifot,  
Toki anga munqati' o'ldi hayot.

Har kishikim rostni bexost der,  
Aytsa yolg'on dog'i el rost der.

So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,  
Rost navo nag'mag'a tahsin degil.

## O'NINCHI MAQOLAT

### (*Nasriy bayoni*)

Har kim o'ziga to'g'rilikni odat qilgandan keyin charxning teskari aylangani bilan uning nima ishi bor?! O'qning<sup>1</sup> uchishi to'g'ri bo'lgandan so'ng yerning egriligining unga nima ziyoni bor?!

Yo'l qancha to'g'ri bo'lsa, maqsad shuncha yaqin, yo'l egri bo'lsa maqsad uzoqlashganiga ajablanish o'rinsiz. Nay to'g'ri bo'lgani uchun so'fiylar uni yaxshi ko'rishadi; to'g'ri bo'lmasdan egri bo'lsa, tanbeh uchun qulog'i buraladi. Nayza to'g'ri bo'lganidan doim boshi yuqori; arqon esa chirmash bo'lgani uchun bog'lashga ishlatiladi.

Ayvonda yonayotgan shamning bo'yи to'g'ri bo'lgani sababli u kechasi qorong'ida bazmning shohidiga aylandi. Egri uchish qilib parvona ko'p aylangani uchun oxiri sham o'tiga urilib yonib ketdi. Sarvning qomati to'g'ri bo'lgani uchun xazon kulfatidan ofat ko'rmay, doim ko'm-ko'k. Bog'dagi toza sunbul har narsaga chirmashib o'sgani uchun egrilik uning yuzini qora qildi. Sozlangan torning qili to'g'ri bo'ladi; egri bo'ldimi, sozlanmagani.

Mistarning<sup>2</sup> chizig'iga yozuv to'g'ri kela bergach, qalam boshini ko'tarmasdan yozgani-yozgan. Uning bitta chizig'i egri bo'lsa, xatga bitta dog' tushadi; ko'chirilayotgan nusxada esa har sahifada qiyshiq xat bo'ladi.

Xatni to'g'ri yozadigan kishilar haqiqiy sog'lom kishilardir; xat agar egri yozilgan bo'lsa, demak, yozgan odam ham to'g'ri emas. Kimning qarashi to'g'ri bo'lsa, o'sha haq. Kimning qo'li egri bo'lsa, o'zi ham o'g'ri bo'ladi. Kimki qo'li egrilik bilan foyda topgan bo'lsa, xalq uning qo'lini kesib to'g'ri qiladi.

Ko'z tug'ilishidan egri bo'lsa, uning odati bittani ikkita qilib ko'rsatishdir.

Kimki to'g'rilik yo'lini bilmoqchi bo'lsa, bilsinki, bu ikki xil bo'ladi. Biri shuki, kishining so'zi to'g'ri bo'lsa, uning so'zi bilan birga o'zi ham to'g'ri bo'lishi kerak. Yana biri shuki, yolg'on gapni ba'zilar taassuf bilan, uyalganidan «To'g'ri!» deydi. Oldingisi, hech shubhasiz, yaxshi, lekin ikkinchisi ham yomon emas. Kishi yolg'онни gapirsa ham kam gapirsa! Qani endi shunday odam bizning zamonda ham topilsa.

<sup>1</sup> Yoyning o'qi ko'zda tutilgan.

<sup>2</sup> Mistar — chizg'ich, lineyka.

Lekin odamlarga Xudoning o'zi ato qilgan bu to'g'rilik, qara, ularning oldida xato bo'lib ko'rindi. So'zlashda xato gapirishga o'rgangan odam noto'g'ri fikrni to'g'ri deb gumon qiladi. Kimki bu davrda to'g'ri gapirishga odatlangan bo'lsa, u kambag'allik, yetishmovchilikdan boshqa narsani bilmaydi. Bu davr istagi egrilik bo'lgani uchun sen haqiqatni talab qilsang, unga yoqmaysan.

Egrilikning ham, to'g'rilikning ham o'z haqiqiy ta'rifi bor: yolg'on egrilikdan, to'g'rilik haqiqatdan iboratdir. Sham o'z to'g'riliqi bilan xursand; boshdan oyoq kuysa ham, u nurga aylanadi. Yashin egrilikni odat qilgan bo'lib, hamma yoqni yoritsa-da, yerning ostiga kiradi. Bog'bon o'z yeriga reja tortmas ekan, bog'ning ko'rinishi changalzoring ko'rinishiga o'xshab qoladi. Dehqon agar mola bosmasdan urug' sochsa, qancha bir xil sochmasin, ekini, bari bir, suvni tekis ichmaydi. Oynaning yuzi qancha tekis bo'lsa, oy yuzlining yuzi ham shuncha to'g'ri ko'rindi. Temir qalpoqning yuzi qancha sayqallangan bo'lmasin, yuzning tasviri unda cho'zilgan holda aks etadi. Sokin turgan suvda quyo'h to'g'ri aks etadi: chayqalgan suvda esa egri ko'rindi. Xato bilan yolg'on gapirish hisobga kirmaydi; chunki uning yolg'onligi bilingach, undan qochiladi.

Kimki yolg'on gaprishni odat qilgan bo'lsa, uni er kishi-yu musulmon deb bo'lmaydi. Yolg'onchi o'z gapini o'tkazish uchun qancha urinmasin, u o'z gapini bir-ikki marta o'tkaza oladi, xolos. Uning bu ishidan xalq g'ofil bo'lsa ham, lekin tangri o'zi bu holdan voqif. Bu xususiyat elga qancha maxfiy bo'lmasin, yolg'on bari bir o'zini oxirida ma'lum qiladi. Yolg'on tong o'zini qancha oshkor qilsa ham, uning nurlari, kuzat, baribir uzoq turmaydi... Kimki qizishib turib ont ichgan bo'lsa, onti yolg'on bo'lsa, aybi yuvilib ketadi. Kimki o'zini yolg'onchi sifatida tanitgan bo'lsa, rost gapirsa ham, xalq uning hamma gapini yolg'on hisoblaydi. Bu xususiyat uni doim qynoqda saqlaydi. Hech narsa bilan u bu qynoqdan qutula olmaydi. Kimki yolg'onchi deb nom chiqargan bo'lsa, o'zinikilar ham, begonalar ham uni shu ot bilan chaqirar ekanlar, to'g'rilik nomi unga hech qaytib kelmaydi. Rost gapirsa ham xalq unga inonmaydi. Kimning chin gapi el orasida yolg'on deb topilar ekan, yolg'oni chinga aylantirish imkonini bormi?!

Qanday bir majburiy sharoitda qolganingda ham, chinni gapirishning iloji bo'lmasa, yolg'oni ham gapirma.

## SHER BILAN DURROJ

(*Nasriy bayoni*)

To'qayda bir yirtqich sher bor edi. Vahshatda osmon sheridek qo'rqmas edi. U har safar bolalaganda zavqqa to'lar, biroq chumolilar uning bolasini talab o'ldirishardi. Shuning uchun u o'zining ajralmas bu boyligi – farzandini og'zida tishlab asrar edi.

O'sha to'qayda bir durroj<sup>1</sup> ham bo'lib, bu yirtqich sherning vahmidan doim qo'rquvda edi. Sher bo'lsa bolasini og'zida tishlab, dam-badam to'qayning goh u yog'iga borardi, goh bu yog'iga. Sher durroj pusib yotgan joyga borib qolsa, bu notavon pirr etib uchar, sher qo'rqqanidan seskanib ketar, bolasiga ham tishi botib ketardi. Tishi bilan o'z bolasini, o'z jigarporasini yarador qilardi.

Doim unga shu g'am ichida g'am, g'am emas, motam ustiga motam edi. Bu tashvishdan ko'ngli ozor topib, u durroj bilan o'rtoq bo'la boshladi. U dedi:

— Mening senga hech qasdim, dushmanligim yo'q. Xotirjam bo'lib, meni o'zingga ishonchli do'st deb bil. Qo'rqishni yig'ishtir, hamdamim, sirdoshim bo'l; aysh va xursandlik vaqtida birga kuylashadiganim bo'l. Men ham sening kuylaringni eshitib, shod bo'lay; nag'malaring bilan qayg'udan ozod bo'lay. Shart shuki, senga bir ziyon yetsa, falak seni hiyla bilan bandga solsa, marhamat qo'lini senga yordam uchun cho'zay, bitta panjam bilan dushmanni yerga barobar qilay. Sadoqat masalasida o'zimni ko'rsatib, seni dushman tuzog'idan xalos aylay.

Sher ko'p sehr bilan (o'z fikrini tushuntirishga) tirishdi, ham sadoqatli bo'lishga ahd qildi. Oralarida bir-birlariga shunday muhabbat paydo bo'ldiki, bunga osmonning o'zi ham hasad qilardi. Qayerda yirtqich sher dam olib yotsa, atrofida durroj bemalol uchib yurardi. Sultonning tepasida humo qushi aylanganday, sher boshida durroj aylanib parvoz qilardi. Sher uning sayrashini eshitib, kuyida yolg'on borligini fahm qilib, der edi:

— Yolg'on gapirma, yomon bo'ladi. To'g'rilar oldida yolg'on qoralanadi.

Durroj pandni eshitmas, o'zi bilan o'zi mast, ataylab fig'onini hech pasaytirmas edi.

<sup>1</sup> Durroj — kaptarning bir turi, qirg'ovul.

Bir kun bir ovchi uni tutish uchun o'z tuzog'ini yoygan edi, u don bilan suvni ko'rib, uning oldiga borgach, ovchi uning ustiga tuzoqni tortdi. Tuzoqda u baxtsiz qichqirib, bir necha bor: «Dod, meni tutdilar!» – dedi.

Bu so'z sher qulog'iga eshitildi, lekin uning bu ashulasini har galgidek yolg'on deb o'yadi. Bunaqa yolg'onlarini ko'p eshitgani uchun chin afg'onini ham yolg'on deb gumon qildi. Qancha u rostakamiga qichqirmsin, rostini ham yolg'on deb hisobladi. Uni qutqarish uchun iltifot ko'rsatmadи; natijada uning hayoti qirqildi. Kimki xohlamasa ham rost gapirsa, yolg'on gapirganida ham xalq uni rost deydi.

So'zda, Navoiy, nima desang ham rostni gapir; rostni kuylagan ohanglarga tahsin ayt.

### **«HAYRAT UL-ABROR» DOSTONIDA TO'G'RILIK VA EGRILIK TO'G'RISIDA**

Alisher Navoiyning «Xamsa» asariga kirgan birinchi doston «Hayrat ul-abror», ya'ni «Yaxshi kishilarning hayratlanishi» deb nomlanadi. Mazkur doston 63 bob, 20 ta maqolatdan tashkil topgan. Har bir maqolat bir mavzuga bag'ishlangan bo'lib, shoir, avvalo, o'quvchini bu mavzu bilan tanishtiradi. So'ngra o'sha mavzuga munosabat bildirib, uni har jihatdan tasvirlaydi. O'quvchining tasavvurlari aniq bo'lishi uchun juda ko'p qiyoslar, obrazli o'xshatmalar keltiradi va eng so'ngida mavzuga mutanosib ibratli hikoyat bayon qiladi.

Biz ko'rib o'tmoqchi bo'lgan o'ninchи maqolat ham xuddi shunday qurilishga ega. Dostonning bu maqolati rostlik, to'g'rilik tushunchalariga bag'ishlangan.

Bobomiz har bir inson o'ziga to'g'rilikni odat qilmog'i haqida so'z yuritarkan, turli narsa va hodisalarning, kundalik turmushda ishlatiladigan juda ko'p buyum va jihozlarning to'g'ri va egri xususiyatlarini solishtiradi. Masalan, biron manzilga bormoqchi bo'lsangiz, o'sha yerga eltuvchi to'g'ri yo'l bo'lsa-yu, Siz aylanma yo'ldan yursangiz, albatta manzilga kechroq yetasiz. Sham o'zi to'g'ri bo'lgani holda, uni tikka qo'yib yondirasiz. Atrofga shu'la sochib, kishilarga uzoq vaqt yorug'lik beradi. Shuning uchun ham u kerakli narsa sifatida e'zozlanadi, ehtiyyot qilinadi. Shu'laga intilgan parvona – maydagina kapalak uning atrofida aylanib, egri harakatlar qilgani uchun o'sha shu'laga urilib

yonib ketadi. Yoki rubob, dutor, tor kabi cholg'ularga e'tibor qilsangiz, cholg'uchilar ulardan yoqimli kuylar chiqarish uchun sozlab olishadi. Ya'ni torni tarang tortishadi. Tor egri holatda tursa, cholg'u sozlanmagan bo'ladi, demak unda kuyni yaxshi ijro etib bo'lmaydi. Shoir bu qiyos orqali odamlar to'g'ri yurib, to'g'ri ish tutsalar, o'zga-larga ham, o'zlariga ham foyda keltiradilar; ulardan manfaat ko'rgan kishilarning hurmatini qozonadilar; qayerda bo'lmasin, izzat ko'radilar, deydi. Aksincha, to'g'ri ish yuritmay, biror yomon g'araz bilan har xil aylanma, egri harakatlar qilsalar, ularning holi voy, xuddi par-vonadek kuyib-yonib qoladilar. Egrilik borib-borib har xil yomon illatlarga yetaklaydi. Fikri egri bo'lgan, Xudodan, qonundan qo'r-qaydigan odam hamma ishni o'zim xohlaganimcha qilaverishim mum-kin, deb hisoblaydi. Birovlarning narsasiga, mol-mulkiga ko'z tikadi, o'g'rilikdan hayiqmaydi.

Islom dini aqidalari bilan yashagan davlatlarda qadim zamonlar-danoq qo'li egri, o'g'ri odamlarni qo'lini kesib, jazolashgan. Navoiy bobomiz yashagan davrda ham shunday tartib hukmron bo'lgan. Shoir dostonda ana shu jazo usulini nazarda tutib, qo'li egri odamlarni xalq qo'lini kesib «to'g'rileydi», deydi. Kimki to'g'rilik yo'li qanday ekan-ligini bilmogchi bo'lsa, bu yo'l ikki xil bo'ladi, deb aytadi. Birinchisi, to'g'ri so'z odam. Agar u to'g'ri so'zli bo'lsa, uning ishi, o'zi ham to'g'ri bo'lishi kerak. Ikkinci toifa kishilar andisha bilan, betgachoparlik qila olmay, «to'g'ri» deguvchilardir. Navoiy birinchi toifani to'liq ma'qullagan holda, ikkinchisi ham «yomon emas» deya inkor qilmaydi. Chunki bunday kishilar asli egri maqsadlilar emas. Ular yaxshilik ko'zlab, murosa-madora ma'nosida, azbaroyi ezgu niyatda yolg'oni «to'g'ri» deydiilar. Albatta, iloji boricha yolg'oni gapirmagan ma'qul. Ammo sharoit majbur etsa, toza ko'ngilda ish bitmog'i uchun yolg'oni tasdiqlash ayb emas. Shu o'rinda shoir o'z zamonasidan biroz noliydi. Odamlar rostgo'ylikdan chekinayotgani, yolg'on-yashiq kuchayib ketayotganidan xavfsiraydi. Xudoning buyurgan amallari, to'g'ri deb bandalariga ko'rsatgan yo'riqlarini noto'g'ri tushunuvchilar bor. Xato gapirishga o'rgangan odam noto'g'ri fikrni to'g'ri deb qabul qiladi. Shundanmi, shoir o'z atrofini qamragan odamlardan to'g'ri, rost gapirgani qashshoqlik, yetishmovchilikdan boshqa narsani bilmaydi, deydi. Barcha jamoa istagi egrilik bo'lsa, sen o'z haqligingni isbotlashga

har qancha urinma, baribir hech narsa qilolmaysan hamda ularga yoqmaysan. Zero, egrilikning ham, to‘g‘rilikning ham o‘z ta‘rifi bor. Egrilik yolg‘ondan paydo bo‘ladi, to‘g‘rilik haqiqatdan. Demak, muallif, yolg‘on so‘zlash, yolg‘on harakat qilish egrilikka olib keladi, deb hisoblaydi. So‘zining isboti uchun bog‘bon va dehqonning ishini misol keltiradi. Bog‘bon yaratajak bog‘ini reja bo‘yicha, ya‘ni daraxtlarni bir tartibda ekib, parvarish qilmasa, har yerda tarvaqaylab, qiyshiq-qing‘ir o‘sgan daraxtlar bog‘ni changalzorga aylantiradi. Dehqon esa urug‘ sochadigan yerini shudgor qilib, so‘ng mola bosmasa, ya‘ni tekis qilib olmasa, sochgan urug‘i bir xilda unib chiqmaydi. Chunki notejis yerda ekinlar bir xil sug‘orilmaydi. Ba‘zi joylarga suv ko‘proq tushadi, ba‘zi joylarga esa kamroq. Xuddi quyosh ham sokin turgan suvda to‘g‘ri va to‘la aks etsa, chayqalgan suvda nurlar sinib egri ko‘ringandek. Demak, hamma tirik jonzot batartiblikdan, reja va to‘g‘ri parvarishdan quvvat olsa, nega insonlar shulardan o‘rnak olmaydi?! Yolg‘on gapiradi va egri yuradi. Agar bilmagan holda yolg‘on so‘zlansa, so‘ng bilgach, undan qochilsa, buni ayb deb bo‘lmaydi. Chunki o‘scha odam baribir to‘g‘ri yo‘lga tushib oladi-da. Bu bilan hazrat Navoiy inson hayotda adashishi, chalg‘ib qolishi mumkin; lekin vaqt bilan o‘z xatosini anglasa va bundan afsuslanib, uni tuzatishga urinsa, u holat kechiriladi, deb tushuntiradi.

Ammo yolg‘on gapirish odatga aylangan bo‘lsa, mana bu yomon, kechirilmaydigan gunoh. Musulmon odam, mard kishi hech qachon yolg‘on so‘zlamaydi. Yolg‘on so‘zlaydigan odamni musulmon demaydilar. Yolg‘onchining gapi hech qachon e’tibor topmaydi. Agar u xalqni yolg‘on gaplari bilan aldab yurgan bo‘lsa ham, Xudoni aladolmaydi-ku! Navoiy bunda «Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi» degan xalq maqoliga monand fikr aytadi. Ya‘ni yolg‘onni xaloyiq ko‘zidan qancha yashirmsinlar, maxfiy saqlashga urinmasinlar, bari bir oxirida yolg‘on o‘zini ma‘lum qiladi. To‘g‘ri, kishi qattiq qizishib ketib, aql chekinib, ehtiros holatida qasam ichsa, uning onti yuvilishi mumkin. Ammo ongli holatda qasam ichib, u bajarilmasa unday odam «qasamxo‘r» deyiladi va bu oxiratda katta gunoh sanaladi. Unday odam endi qancha rost gapirsa ham xalq uning gapini jiddiy qabul qilmaydi. Bundan u kimsa iztirob chekishi mumkin. Ammo uni hech kim bu iztirobdan, ma‘naviy azobdan qutqara olmaydi. Ulug‘ mutafakkir bobomiz shu so‘zlarini yozarkan,

yolg'on gapirib el nazaridan qolgan odamlar bir yuzi qaro bo'lganlar, deb hisoblaydi. Agar majbur bo'lib qolganingda ham rost gapni aytish iloji bo'lmasa, yolg'onni ham gapirma, deydi. Shu tariqa yolg'onnинг kishilar tabiatidagi yaramas va badbin illatligini, uning oqibatlarini qator qiyos-u o'xshatishlar bilan qoralab kelib, muallif, asar badiiy qurilmasisiga ko'ra bu o'rinda ham majoziy bir hikoyatga murojaat qiladi. Ya'ni «Sher bilan durroj» haqidagi ramziy rivoyatni keltirib, o'z fikrlarini yanada ta'sirliroq bo'lishiga erishadi.

### *Savol va topshiriqlar*



1. Alisher Navoiy siymosining milliy-ma'naviy hayotimizda tutgan o'rni haqida so'zlab bering.
2. Alisherning bolalik yillari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Yosh Alisher o'qigan dastlabki kitoblar va ularning mualliflari haqida qanday tushunchaga egasiz?
4. «Alisher Navoiy va temuriy shahzodalar» mavzusida suhbat o'tkazing.
5. Alisher Navoiyning o'rta yoshlik yillari hayoti va ijodi haqida so'zlang.
6. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro do'stligi haqida nimalarni bilasiz?
7. Navoiy she'riyati qanday to'plamlarda jamlangan?
8. Xamsachilik an'analari haqida nimalarni bilasiz? Jahon adabiyotida qaysi shoirlar «Xamsa» yaratganlar?
9. Alisher Navoiyning keksalik yillari va asarlari haqida so'zlang.
10. «Hayrat ul-abror» hozirgi tilimizda qanday tarjima qilinadi va bu asarning asosiy xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
11. Dostonning kompozitsion tuzilishi qanday?
12. O'ninchi maqolatdagи «Rost so'z ta'rifida» shoir qanday fikrlarni ilgari suradi?
13. Shoир o'z fikri isboti uchun qo'llagan qiyoslar, o'xshatishlarni gapirib bering.
14. Sham bilan parvona, sozlangan va sozlanmagan cholg'uning rostlik va egrilikka qanday aloqasi bor?
15. Qo'li egri odamni qayerda, qachon va qanday jazolaganlar?
16. Bog'bonchilik va dehqonchilikda rejaliilikning qanday ahamiyati bor?
17. Adashib yoki qizishib yolg'on gapirgan yoki ont ichgan odamga qanday munosabatda bo'lish lozim?
18. «Sher bilan durroj» hikoyatining g'oyaviy mazmuni haqida so'zlang.
19. Shoир nega aynan shu hikoyani o'ninchi maqolatga kiritgan?

20. Sher majoziy obrazida qanday insonlarga xos jihatlar mujas-samlashgan? Durrojda-chi?
21. Ahil yashash, qo'shnichilik munosabatlari haqida o'z tushun-chalaringizni so'zlang.
22. Qanday illatlar durrojni fojiaga olib keldi va nima uchun do'sti yordamga kelmadи?
23. Do'stlik, xayrixohlik, loqayd bo'lmaslik kabi tushunchalarni hikoyat hamda hayotiy misollar asosida izohlang.
24. Rostlik, to'g'rilik fazilatlarining insonlar uchun ahamiyatini qanday tushunasiz?
25. Rost so'z, to'g'ri yashash haqidagi g'oyalar ilgari surilgan yana qanday asarlarni bilasiz?
26. Insoniy fazilatlar va yomon xulqlar borasida sinfdoshlaringiz bilan suhbat o'tkazing.



# Zahiriddin Muhammad BOBUR

(1483 — 1530)



Bobur ham shoh, ham shoirdir. «Bobur» arab tilida sher degani. Chindan ham u bu nomga munosib shaxsiyat edi. U tariximizning murakkab bir davrida yashadi. Qudratli temuriylar sultanati yemirilib, o'rniga shayboniyilar kelayotgan davr edi. Yurt jang-u jadallar ichida qolgandi. Shunday bir paytda o'z yurtiga sig'magan temuriyzoda Bobur Hindistonga bosh olib ketdi. U yerda buyuk sultanat o'rnatdi. O'z jasorati va adolati bilan olis hind xalqi qalbidan joy oldi, uning mehrini qozondi. Boburning avlodlari hind diyorida uch yuz yildan ortiqroq hukmronlik qildilar.

Bobur didi va zavqi baland shoir edi. U go'zal g'azallar yozdi. Ruboinya tengsiz namunalarini yaratdi. Ko'rgan-kechirgan voqealari haqida «Boburnoma» asarini yozib qoldirdi. Uning qalbi musiqaga oshno edi. U sozni go'zal chalgan, ajoyib kuylar yaratgan, musiqa haqida ilmiy kitob yozgan shohlardan edi.

Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug'ildi. Otasi temuriyzoda Umarshayx Farg'ona viloyati hukmdori edi. Onasi Qutlug' Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi.

Bo'lajak shoir 12 yoshida ekan, otasi bevaqt halok bo'lib, Farg'ona hokimligi uning zimmasiga tushadi. 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabit etadi. 16 yoshida bu azim shaharni tashlab chiqishga majbur bo'ladi. Keyin ham ikki marotaba bu shaharni egallahsga muvaffaq bo'ldi. Lekin saqlab qolish nasib etmadidi. Samarqandni ham, Andijonni ham qo'ldan berib, tog'-u toshlarda besh-o'n yigit bilan goh otliq, goh yayov yurgan paytlari ham bo'ldi. Nihoyat, 1503-yilda Jayhun (Amu)ni kechib, Xurosonga o'tdi. Kobul va G'aznani qo'lga kiritdi. So'ng 1526-yilda esa Hindistonni zabit etib, katta sultanat o'rnatdi.

U 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etdi. Keyinroq uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko'chiriladi.

Bobur ikki she'riy to'plam — devon tuzgan. Shulardan bittasi yetib kelgan. Ikkinchisining taqdiri noma'lum. Hozirda bizning qo'limizda uning to'rt yuzdan ortiq she'ri bor. Shundan ikki yuzdan ortig'i ruboiyidir.

Ruboiy sharq she'riyatida keng tarqalgan she'r turlaridan, to'rtlik. Aruzning ma'lum vaznidagina yozilgan. Bobur ruboiylari har jihatdan to'kis, mukammal she'riy asarlardir. Ularda Bobur hayotining manzalarini aks etadi. Shoир o'z umrining achchiq-chuchuk kunlaridan so'z ochadi.

Mana, ayrim namunalar:

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi  
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.  
Bu ikki ish tuyassar bo'lmasa olamda,  
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Endi Boburning ushbu ruboiyini yozgan holatini ko'z oldimizga keltiraylik. U 19—20 yoshlarda, g'ayrati dunyoga sig'magan paytlari. Lekin Samarqandni ikki marta olib, ikki marta ham tashlab chiqishga majbur bo'ldi. Andijon xiyonatchilar qo'liga o'tgan. Ikki-uch yil tog'-u toshlarda sarson-sargardon yurdi. Nihoyat, hammasi joniga tegdi. Va yuqoridagi satrlar qog'ozga tushdi.

Mana yana bir holati: nihoyat u bir qarorga keldi. Amudaryodan o'tdi-yu bir hamla bilan Kobul va G'azna shaharlarini jangsiz egallab oldi. Lekin butun ko'ngli Amudaryoning bu tomonida, ona Vatanida. U tirik yursa qaytadi. Shu umid bilan yashaydi. U yozadi:

Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,  
Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.  
Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,  
Andoq demangizlarkim, muqim ermasmen.

Qayd — kishan. Beqayd — kishansiz, erkin. Siym — oltin, kumush. Laim — gado. Demak, garchi erkin bo'lsam-da, oltin-kumush ilinjida yurgan pastkashlardan emasman. Uyma-uy mol yig'ishtirib yuradigan gadolardan ham emasman. Bobur endi Kobulda qolib ketdi dersiz, yo'q, unday demang, men uzoq qolmayman, albatta ona yurtimga qaytaman, demoqchi bo'ladi shoир.

Mana, yana bir ruboiysi. Bu ham Bobur fojialaridan so‘z ochadi. Ya’ni: u yurtiga qaytishga qanchalik urinmasin, unga erisha olmaydi. Minglab odamlarning behuda nobud bo‘lishini istamaydi. Ko‘nglida ming bir andisha bilan Hindistonga to‘g‘ri bo‘ladi. O‘zini dunyoda eng baxtsiz odam hisoblaydi. Chunki u ona yurtini tashlab chiqdi. Endi begona ellarda yurt so‘ramoqchi, podshohlik qilmoqchi. Bularning hammasi, uningcha — «xatolik» — xato ishlar edi:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,  
Har ishnikи ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.  
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Ruboiyning tili sodda, tushunarli. Endi siz fikrga va uning ifodalanishiga e’tibor qiling.

1-satr: Baxtim yo‘qligi jonimga balo bo‘ldi.

O‘ylab ko‘ramiz: nega joniga balo? Shuning uchunki, baxtsizlik uni vatanidan ayirdi. Demak, uning baxti — vatanda bo‘lishidir.

2-satr: Nima ishki qilgan bo‘lsam, xato bo‘ldi. Ular qaysi ishlar va nega xato? Vatanini tashlab chiqishi — xato. Uning uchun jonini bermagani — xato. Boshqa ellarga bosh olib ketishi — xato.

3-satr: O‘z yerni qo‘yib, Hindiston tomonga to‘g‘ri bo‘ldi.

4-satr: Ey Xudo, nima qilay, qanchalar yuzim qaro bo‘ldi.

Qattiq gunoh qilib qo‘yan, elning ishonchini oqlamagan kishini «yuzi qaro» deydilar. Demak u Hindistonga otlanishini o‘zi uchun gunohi azim hisoblamoqda. Endi bu fikrning ifodasiga, qanday aytiganiga diqqat qilaylik.

Uchinchi satrdagi «yuzlandim» («yuzimni burdim») so‘zida «yuz» ishlatalmoqda. U to‘rtinchi satrdagi «yuz qarolig‘»ni kuchaytiradi, ya’ni o‘sha yuzim qora bo‘ldi. «Hind» so‘zida ikki ma’nо: 1. Hindiston. 2. Qora. Bu so‘z ham «yuz qarolig‘»ni kuchaytirishga yordam beradi. Ya’ni: yuzim, uni qoraga burganim uchun, qora bo‘ldi.

Shoir ruboiylarida Vatan sog‘inchi, ona diyorni qo‘msash keng o‘rin egallaydi. Uning uchun Vatan — sevimli yordir. Vasl — Vatanga yetishmoqdir. Hajr — Vatandan uzoqda bo‘lmoqdir.

Hajringda bu tun ko‘ngulda qayg‘u erdi,  
Vaslingg‘a yetishmadim, jihat bu erdi:

Ohim tutuni birla ko'zumning yoshidin  
Yo'l balchiq edi, kecha qorong'u erdi.

Shoir fikriga va uning ifodasiga e'tibor qiling:

Bu kecha juda xafa edim – ko'nglim qayg'uli edi. Nega? Javobi – o'zida. Senga yetisha olmadim. Xafaligim, ko'nglimdagi qayg'u shundan. Nega yetisha olmadi? Keyingi ikki satrda shoir hazil-mutoyibaga o'tadi. Fojia hazil bilan beriladi. Ya'ni: uning yor – Vatan vasliga yetolmagani sababi shuki – kecha qorong'u, yo'l balchiq edi. Shuning uchun yeta olmadi. O'z navbatida «yo'l»ning «balchiq»ligi, «kecha»ning «qorong'u»ligi ham izohlangan. Yo'lning balchiqligi shoirning «ko'z yoshi»dan, kechaning qorong'uligi «ohi» «tutuni»dan edi. U shu qadar ko'p ko'z yosh to'kkanki, hamma yoq ivib, balchiq bo'lib ketgan. U shu qadar ko'p oh tortganki, og'zidan chiqqan tutun hamma yoqni qorong'i qilib yuborgan edi.

Shoirning quyidagi ruboisiysida yaxshilikning sharofati, yomonlikning kasofati, vafoga vafoning, jafoga jafoning qaytajagi haqida so'z ketadi.

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur,  
Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidur.  
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,  
Har kimki, yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

Chindan ham, bu uning hayotdagi shiori edi. Zamon haqsizliklari ichida yurgan shoir o'z hukmdorligi davrida yaxshiga – yaxshi, yomonga – yomon bo'lishga harakat qildi. Vafoga vafo, jafoga jafo qaytardi.

Bobur bugun xalqimizning sevimli farzandlaridan bo'lib turibdi. U haqda dostonlar, romanlar yozilgan, kinofilmlar ishlangan. Andijonda va Toshkentda ulkan bog'i barpo etilib, haykali o'rnatilgan.

Quyida Bobur ruboiylaridan namunalar bilan tanishasiz:

### RUBOIYLAR

Yod etmas emish kishini g'urbatda<sup>1</sup> kishi,  
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda<sup>2</sup> kishi.  
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,  
G'urbatda sevinmas emish albatta kishi.

<sup>1</sup> G'urbat – g'ariblik, vatandan uzoqda bo'lish.

<sup>2</sup> Mehnat – azob, mashaqqat.

\*\*\*

Ko'pdin berikim yor-u diyorim yo'qtur,  
Bir lahza-u bir nafas qarorim yo'qtur.  
Keldim bu sori<sup>1</sup> o'z ixtiyorim birla,  
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

\*\*\*

Hijron<sup>2</sup> qafasida jon qushi<sup>3</sup> dam qiladur<sup>4</sup>,  
G'urbat bu aziz umrni kam qiladur.  
Ne nav bitay firoq-u g'urbat sharhin,  
Kim ko'z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

\*\*\*

Xush ulki, ko'zum tushti sening ko'zungga,  
Bevosita holimni desam o'zungga,  
Bermay so'zuma javob achig'lanasen,  
Qilding meni muhtoj chuchuk so'zungga.

\* \* \*

Dushmanniki, bu dahr<sup>5</sup> zabardast qilur,  
Naxvat mayidin bir necha kun mast qilur.  
G'am yemaki, yetkursa boshini ko'kka,  
Oxir yana yer kibi oni past qilur.

\* \* \*

Ishlar bori ko'nguldagidek bo'lg'usidur!  
In'om-u vazifa — bori buyrulg'usidur!  
Ul g'alla-yu mahmilki<sup>6</sup>, deb erding, bildim,  
Mahmilg'a bo'yu g'alladin uy to'lg'usidur!

\* \* \*

Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur,  
Ko'zdin uchadur uyqu chu oqshom bo'ladur.

<sup>1</sup> Sori — sari, tomon.

<sup>2</sup> Hijron — ayrılıq. Hijron qafası — tana, gavda ko'zda tutiladi.

<sup>3</sup> Jon qushi — ko'ngil.

<sup>4</sup> Dam qilmoq — diqqat qilmoq, bo'g'ilmoq.

<sup>5</sup> Dahr — dunyo, olam, zamon, davr.

<sup>6</sup> Mahmil — 1. Tuya va boshqa ulov ustiga o'rnatilgan, odam o'tiradigan, usti yopiq kajava.

2. Kajavadagi yuk.

Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,  
Borg'on sori bu ortadur, ul kam bo'ladur.

\* \* \*

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!  
Sarrishtai ayshdin<sup>1</sup> ko'ngulni zinhor  
Uz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!

\* \* \*

Ey bodi sabo<sup>2</sup>, ayla Xurosong'a guzar<sup>3</sup>,  
Medin degil ul yori parishong'a xabar.  
Necha safar o'z ko'nglung uchun qilg'aysen,  
Emdi bizing uchun ayla bu yong'a safar.

\* \* \*

Ahbob<sup>4</sup>, yig'ilmoqni farog'at tutungiz!  
Jam'iyatingiz borini davlat tutungiz!  
Chun gardishi charx bu durur, Tangri uchun,  
Bir-biri necha kun g'animat tutungiz!

\* \* \*

Bu xasta ko'ngul erdi visoling bila xush,  
Jonom ham erur sening jamoling bila xush.  
Hijron g'ami garchi asru noxushtur, lek,  
Fikring bila shodmen, xayoling bila — xush.

\* \* \*

Kim bor anga ilm tolibi — ilm kerak.  
O'rgangani ilm tolibi ilm kerak!  
Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo'q,  
Men bormen ilm tolibi — ilm kerak.

<sup>1</sup> Sarrishtai aysh — maishat.

<sup>2</sup> Bodи sabo — tong shamoli, mayin shabada.

<sup>3</sup> Guzar — o'tish, kechish.

<sup>4</sup> Ahbob — do'stlar, yorlar.

\* \* \*

Boburni burun mahrami asror<sup>1</sup> etting,  
Vaslingga berib yo'l, o'zungga yor etting.  
Oxir bording, dog'i oni zor etting,  
Hijron alami birla giriftor etting.

\* \* \*

Har yerda gul bo'lsa — tikon bo'lsa, ne tong?!  
Har qandaki may durdidan bo'lsa, ne tong?!  
She'rimda agar hazl, agar jid, kechurung,  
Yaxshi borida agar yomon bo'lsa, ne tong?!

\* \* \*

Yo qahr-u g'azab birla meni tufroq qil!  
Yo bahri inoyatingda mustag'roq<sup>2</sup> qil!!  
Yo rab, sengadur yuzum qaro gar oq qil,  
Har nav' sening rizong erur andoq qil!

\* \* \*

Ey yel, borib ahbobqa nomimni degil!  
Har kim meni bilsa bu payomimni<sup>3</sup> degil!  
Mendin demagil gar unutulg'on bo'lsam,  
Har kimki, meni so'rsa, salomimni degil!

\* \* \*

Ey yor, sening vaslingga yetmak mushkil,  
Farxunda<sup>4</sup> hadisingni eshitmak mushkil.  
Ishqingni dog'i bir taraf etmak mushkil,  
Boshni olibon bir sari ketmak mushkil.

\* \* \*

Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen,  
Sen shu'lasen, ul shu'lag'a men kuldurmen.

<sup>1</sup> **Mahrami asror** — sirdosh, ulfat, hamdam.

<sup>2</sup> **Mustag'roq** — g'arq bo'lgan, cho'mgan.

<sup>3</sup> **Payom** — xabar, darak.

<sup>4</sup> **Farxunda** — qutlug', saodatli, baxtli, quvonchli.

Nisbat yo'qdur, deb ijtinob<sup>1</sup> aylamakim,  
Shahmen elga, vale senga quldurmen!

\* \* \*

Jonimda mening hayoti jonim sensen,  
Jismimda mening ruh-u ravonim sensen.  
Boburni seningdek o'zga yo'q yori azizi,  
Alqissaki, umri jovidonim<sup>2</sup> sensen.

\* \* \*

Davron meni o'tkardi sar-u somondin,  
Oyirdi meni bir yo'li xonumondin.  
Gah boshima toj, gah baloyi ta'na,  
Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin.

\* \* \*

Ey, oy yuzung olida quyosh sharmanda,  
Shirin so'z-u yaxshi xulqungga men banda,  
Hijronda necha noma bila so'zlashaling,  
Yo sen beri kel, yo men borayin anda.

\* \* \*

Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi,  
Vaslingg'a yetishmadim jihat bu erdi:  
Ohim tutuni birla ko'zumning yoshidin,  
Yo'l balchiq edi, kecha qorong'u erdi.

### *Nazariy ma'lumot*

#### RUBOIY HAQIDA TUSHUNCHА

Ruboiy arabcha so'z bo'lib, to'rtlik degani. Sharqda keng tarqalgan she'r turi, lirik janr. To'rt satrdan iborat bo'ladi. Ko'pincha birinchi, ikkinchi, to'rtinchi satrlari qofiyalanib keladi. Harflar bilan ko'rsatganda a-a-b-a shaklida bo'ladi. Ba'zan har to'rt satri o'zaro qofiyalanishi (a-a-a-a) mumkin. **Qofiya** misra oxiridagi ohangdosh so'zdir. **Radif** misra oxiridagi takrorlanuvchi so'zdir. Masalan:

<sup>1</sup> Ijtinob — uzoqlanish, saqlanish, tortinish, chekinish.

<sup>2</sup> Umri jovidon — abadiy yashash, boqiy umr.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,  
Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidur.  
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,  
Har kimki, yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

*Qofiyadosh so'zlar:* vafo—jafo—jazo: 1, 2, 4-satrlar o'zaro qofiyalanyapti.

Demak, qofiyalanish tizimi a-a-b-a.

*Radif* — topqusidur.

Ruboiyda fikr tugallangan bo'lishi kerak. Yana muhim xususiyatlaridan biri shuki, ruboiy aruz vazni hazaj bahrining axram va axrab degan shakllaridagina yozilgan. Lekin keyingi yuz yilda bunga juda kam rioya qiladilar.

Fors-tojik adabiyotida ruboiy janrida Umar Xayyom, Mirzo Abdulqodir Bedil shuhurat qozonganlar. O'zbek she'riyatida esa Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ruboilyari juda mashhur bo'ldi. Bugun ham ruboilyar ko'plab yozilmoqda.

### *Savol va topshiriqlar*

- 1. Bobur kim? Uning ota-bobolari, avlodlari haqida nimalar bilasiz? Uning tariximiz, madaniyatimizdagi xizmatlari haqida-chi?
- 2. Boburning tarjimayi holi haqida so'zlab bering.
- 3. Ruboiy haqida ma'lumot bering. Bobur ruboilyari haqida nimalar deya olasiz?
- 4. «Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen» ruboysiida qanday fikr ilgari surilmoqda? Shoир nima demoqchi?
- 5. «Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi» ruboysiida nega shoир o'zini «tole'siz» (baxtsiz) hisoblaydi? Uning nazaridagi baxtli odam kim?
- 6. «Hajringda bu tun ko'ngulda qayg'u erdi» ruboysiidiagi qayg'uli holning tasviri-yu uning hazil-mutoyibali ifodasini ko'rsatib, tushuntirib bera olasizmi?
- 7. «Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur» ruboysi mazmunidan kelib chiqib, shoирningadolat haqidagi qarashlari to'g'risida nima deya olasiz?
- 8. «Bobur — shoh va shoир» mavzusida yozma ish tayyorlang.



# *Muhammad Aminxo'ja* **MUQIMIY**

(1850 — 1903)



O'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmi va yigirmanchi asrning boshlarida, ya'ni ilk mustamlakachilik davrida ravnaq topgan milliy uyg'onish adabiyotining zabardast vakillaridan biri Muhammad Aminxo'ja Muqimiydir.

Shoir ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idanoq boshlangan. Shoir hayotligi davrida uning ijodiga bildirilgan turli-tuman munosabatlar, bahslar, maqolalar bunga guvohlik beradi. Muqimiy vafotidan keyin shoirning devoni ilk bor «Devoni Muqimiy» (1907-yil) nomi bilan nashr etildi. Unda she'riy namunalar qatori hassos shoirming qisqacha tarjimayı holi va ijodi haqida ma'lumot ham beriladi. 1910-yilda Portsev litografiyasida shoirning hajviy she'rlari «Muqimiy maa hajviyat» nomi bilan nashr etildi, 1912-yilda esa Muqimiyning yana bir she'riy to'plami chop qilindi.

Shoir ijodini jiddiy va samarali o'rganish o'tgan asrning 30-yillarda boshlandi. Bu davrda Muqimiy asarlarini to'plash, o'rganish, nashr etish qizg'in va samarali olib borildi. Gazeta va jurnallarda qator maqolalar e'lon qilindi. Bu xayrli ishning boshida otaxon shoirimiz G'affur G'ulom turdi. 1938-yilda G'.G'ulom tomonidan tuzilib «Muqimiy bayozi» deb nomlangan to'plam katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1950-yilda Muqimiyning «Лирика и сатира» nomli ikkinchi to'plami Moskvada rus tilida nashr etildi.

1953-yil Muqimiy ijodini o'rganish tarixida yangi davr bo'ldi. Shu yili shoir vafotining 50 yilligi munosabati bilan Muqimiy hayoti va ijodiga oid maxsus kitoblar chiqarildi, shoirming «Tanlangan asarlar»i o'zbek va rus tillarida nashr etildi, Muqimiy hayoti va ijodi tadqiqiga bag'ishlangan bir qancha nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi. Shu tariqa adabiyotshunosligimizda muqimiyyshunoslik degan yangi ilmiy yo'nalish vujudga keldi.

Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy 1850-yilda Qo'qon shahrida Bekvachcha mahallasida, novvoy oilasida tug'ildi.

Muqimiy dastlab o'z mahallasidagi mulla Abduxalil maktabida tahsil oladi. Shoiring ilm o'rghanishi va badiiy ijodga erta qiziqishida uning validasi, qobiliyatli ayol Oyshabibi aytib bergen ko'plab ertak va qo'shiqlarning ta'siri kuchli bo'ldi.

Muqimiy dastlab Qo'qondagi «Hokim oyim» madrasasida ta'lim oladi. 1872—73-yillarda Buxoroga borib, u yerdagi «Mehtar anbar» madrasasida o'qishni davom ettiradi. 1876-yilda o'qishni tamomlab Qo'qonga qaytadi. Uylanadi. Shoir dastlab yer qurilishi mahkamasida mirzalik, so'ngra Sirdaryo yoqasida joylashgan Oqjardagi paromda pattachilik qiladi.

Moddiy muhtojlik Muqimiy oilasining buzilishiga olib keladi. Xotini o'g'lini onasiga tashlab, boshqa kishiga tur mushga chiqadi. Shoir o'z ota hovlisini tark etib, shu mahallada joylashgan Hazrat madrasasidan bir hujra oladi. Shu «hujrai tang va torlikda bekaslik va g'ariblik chirog'ini yoqib» muhtojlikda umr o'tkazadi.

Muqimiy hayotini mutolaa va ijod qilishga bag'ishlaydi. Zamonasining yetuk xattotlaridan bo'lgan Muhammad Yusuf Xattotdan ta'lim olib, xushxat kotib bo'lib yetishgan Muqimiya xattotlik asosiy kasb va tirikchilik manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Bu davrga kelib Muqimiy o'zining jo'shqin lirikasi va davrning hukmron ijtimoiy guruhlarini achchiq tanqid ostiga oluvchi hajviy asarlari, yumorlari bilan shuhrat qozonadi. O'z davri adabiy harakatining yetakchilaridan biriga aylanadi. Muqimiy Qo'qonda Furqat, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir, G'aribiy, Nasimi, Mavlaviy va boshqa shoirlardan tashkil topgan yirik adabiy guruhgaga boshchilik qiladi.

1885—86-yillarda shoiring otasi Mirzaxo'ja vafot etadi. Oilani boqish shoir zimmasiga tushadi. Muqimiyning ahvoli yanada mushkullashadi. Shoir bu ahvoldan qutulish yo'llarini izlaydi. Shu sababdan bo'lsa kerak, 1887—88-yillarda Qo'qonni tark etib Toshkentga boradi. 1892-yilning boshlarida shoir ikkinchi marta Toshkentga boradi. Muqimiy Toshkent safari vaqtida qarindosh-urug'larini topadi, do'stlar orttiradi.

Muqimiy Farg'ona vodiysining shahar va qishloqlariga ham bir necha marta sayohatga chiqadi.

Muttasil davom etgan moddiy muhtojlik, kamsitish va ta'qiblar shoir sog'lig'iga ta'sir qilgan edi. 1898—99-yillarga kelib Muqimiy tez-

tez kasalga chalinib, 4–5 oy lab yotib qoladi va xastalik tufayli 1903-yilda, 53 yoshida, ayni ijodiy kamolotga yetgan paytda vafot etadi.

Muqimiydan boy ijodiy meros qolgan. U, asosan, she'riy janrlarda ijod etgan bo'lsa-da, uning asarlari o'zining tematikasi va badiiy-g'oyaviy xususiyatlari jihatidan rang-barangdir. Ular adabiyotimizning eng yaxshi an'analarini o'zida to'liq aks ettiribgina qolmay, uni yangi mazmun bilan boyitdi, yuqori bosqichga ko'tardi. Muqimiy o'zbek mumtoz she'riyatining zabardast vakillaridan biri bo'libgina qolmay, adabiyotimizda hajviyotni yangi bosqichga ko'targan va satira maktabini yaratgan ijodkor ham edi. Adabiyotimizda she'riy usulda yozilgan ajoyib sayohatnomalar Muqimiy ijodi tufayli maydonga keldi. Muqimiy adabiy maktub shaklidagi epistolyar adabiyotning ham chiroyli namunalarini yaratdi.

Afsuski, Muqimiy yaratgan shunday boy ijodiy meros «Devon», «Majmua» yoki «Bayoz» holida bizgacha to'liq yetib kelgan emas. Muqimiy hayot vaqtida o'z qo'li bilan asarlarini bir muqova ostiga to'plagan. Uning mazmundor va boy asarlari turli manbalarda uchraydi.

Shoir asarlarini davlat fondlaridagi qo'lyozma manbalarda, ayrim adabiyot havaskorlari to'plagan kolleksiyalarda, Turkistonda litografiya va tipografiya yo'li bilan nashr qilingan materiallar (gazeta, jurnal, to'plam va kitoblar)da va nihoyat og'zaki manbalarda uchratish mumkin.

Muqimiydan bizgacha yetib kelgan merosning umumiy hajmi, hozircha, taxminan 10 ming misradan iboratdir.

Muqimiy lirikaning g'azal, muxammas, murabba', masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard kabi janrlarida barakali ijod qildi. Bu adabiy shakllarning takomiliga ham jiddiy hissa qo'shdi.

O'z davri adabiyotida sayohatnama janrining shakllanishi va takomilga erishuvida hassos shoirimiz Muqimiyning xizmati, ayniqsa, kattadir. Ma'lumki, sayohatdan olingan xotiralarni lirik-epik planda she'riy tarzda ifoda etuvchi sayohatnama janri adabiyotimizda o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega. Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Maxmur, Zavqiy, Furqat kabi alloma shoirlarimiz yo'l xotiralarini u yoki bu tarzda aks ettirganlar. Muqimiy yashagan davrga kelib, ushbu janr muayyan tizimga, qat'iy qoidalarga ega bo'lgan adabiy shaklga aylandi va bunda, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, shoirning hissasi katta bo'ldi.

Muqimiy do'stlari taklifi bilan Farg'ona vodiysi bo'ylab tez-tez sayohatga chiqar, ko'rgan-kechirganlarini barchaga tushunarli, ravon

shaklda qog‘ozga tushirardi. Bizgacha uning Qo‘qondan Shohimardonga; Qo‘qondan Farg‘onaga; Qo‘qondan Isfaraga yo‘nalishlari bo‘yicha qilgan sayohatlari taassurotlari yetib kelgan. Ular shunchaki yo‘l taassurotlarining yozma hisoboti emas, albatta.

Avvalo, shoир sayohatnomalari muallifning zamondan, turmushdan shikoyat satrlari bilan boshlanadi. Muqimiy bu o‘rinda o‘zining sayohatga chiqish sababini bayon etadi. Bu bayon turmush muammolaridan charchagan va birpas bo‘lsa ham horigan ko‘ngilga taskin berishni orzu qilgan majruh qalbning nola-yu faryodidan iboratdir. E’tibor qilaylik:

Faryodkim, garduni dun  
Aylar yurak-bag‘rimni xun,  
Ko‘rdiki, bir ahli funun –  
Charx anga kajraftor ekan.

Qolmay shaharda toqatim,  
Qishloq chiqardim odatim.  
Xohi yayov, bo‘lsun otim,  
Goh sayr ham darkor ekan.

Aflok kajraftor uchun,  
Har dam ko‘ngil afgor uchun,  
Ho‘qand tang-u tor uchun,  
Sahro chiqish darkor ekan.

Muqimiy ko‘rgan-kechirganlarini ochiq-oydin, o‘quvchi oson tasavvur qila oladigan tarzda tasvirlaydi. Shu ma’noda sayohatnomalardagi joylar, shaxslar tasviri rang-barang, jonli chiqqan:

«Do‘rmancha»ga ketdim o‘tub,	Unda bo‘lus G‘ozi dedi,
Yoqamni har soat tutub.	Ham mufti, ham qozi dedi.
Yotdum ul oqshom g‘am yutub,	Yurt barcha norozi dedi,
Dashti qaroqchizor ekan.	Qilg‘on ishi ozor ekan.

Shoir o‘zi ranjigan joy va odamlarni qanday achchiq til bilan tanqid qilgan bo‘lsa, Farg‘onaning go‘zal tabiatni, ko‘m-ko‘k bog‘lari, o‘ynab oqib yotgan zilol suvlarini ko‘rib, ularni zavq-shavq bilan tasvirlaydi:

Vodil maqomi dilmizo,  
Ko‘chalaridur dilkusho,

Anhorida obi safo,  
Sebarga obishor ekan.

Yoki mana bu tasvirga e'tibor bering:

Anhor-u soy-u cho'llari,  
O'ynab kelodur suvlari,  
Shirinki zardolulari,  
Qand-u asal bekor ekan.

«Sayohatnama»larning o'qishliliginin ta'minlagan yana bir narsa – ularning kichik to'rtlik shaklida, ravon qofiya sistemasiga ega bo'lgani hamdir. Ularni o'qigan odam zerikmaydi, yo'l manzaralari aks etgan shirali, o'ynoqi satrlarni beixtiyor yodlab oladi. Ana shu ma'noda hassos shoirimiz Muqimiyni o'zbek adabiyotida mukammal ko'rinish olgan, adabiy an'anaga aylangan «Sayohatnama» janrining asoschisi deya olamiz.

### «SAYOHATNOMA» DAN QO'QONDAN SHOHIMARDONGA

Faryodkim, garduni dun<sup>1</sup>  
Aylar yurak-bag'rimni xun<sup>2</sup>,  
Ko'rdiki, bir ahli funun<sup>3</sup> –  
Charx anga kajraftor<sup>4</sup> ekan.

Qolmay shaharda toqatim,  
Qishloq chiqardim odatim.  
Xohi yayov, bo'lsun otim,  
Goh sayr ham darkor ekan.  
  
«O'Itarma»ga qildim yurush,  
Yo'ldosh edi bir chitfurush,

Yetdim jadallab vaqt tush,  
Bir dam qiziq bozor ekan.  
  
Bir ma'raka ko'rdim butun,  
Jami yopingan boshga to'n,  
Boqsamki, besh yuzcha xotun  
Voiz<sup>5</sup> so'zin tinglor ekan.  
  
Mingboshilik kimning ishi,  
Desam, dedi bedonishi,  
Bir «qo'shtegirmonlik» kishi,  
Xo'ja Iso badkor<sup>6</sup> ekan.

<sup>1</sup> **Garduni dun** – bu yerda teskari falak ma'nosida.

<sup>2</sup> **Xun** – qon.

<sup>3</sup> **Ahli funun** – hunar ahllari, bilimdonlar.

<sup>4</sup> **Kajraftor** – teskari aylanuvchi.

<sup>5</sup> **Voiz** – va'z o'quvchi.

<sup>6</sup> **Badkor** – yomonlik qiluvchi.

Mag'rur, xasis-u besh-u kam,  
Har gapda yuz ichgay qasam,  
Takjoy olur moxovdan ham,  
Hoji o'zi murdor ekan.

«Do'rmancha»ga ketdim o'tub,  
Yoqamni har soat tutub,  
Yotdum ul oqshom g'am yutub,  
Dashti qaroqchizor ekan.

Unda bo'lus G'ozi dedi,  
Ham mufti, ham qozi dedi.  
Yurt barcha norozi dedi,  
Qilg'on ishi ozor ekan.

Boz izdihomni voizi,  
Badkayf-u ochilmas ko'zi,  
Yuqori boshidin tizi,  
Ermaklari ko'knor ekan.

So'rsam dedilar «Bo'rbaliq»,  
Birmuncha echkilar ariq,  
Kelsa kishi yeyar tariq,  
Shom-u sahar tayyor ekan.

«Oq yer»din o'tdim, boylari –  
Oliy imorat joylari,  
Mehmonsiz o'tkay oylari,  
Kelsa birov nochor ekan.

Ammo nazarda «Roshidon»  
Firdavs bog'idin<sup>1</sup> nishon,  
O'ynab oqar obi ravon,  
Sahni gul-u gulzor ekan.

Ma'yus bordim «Zohidon»,  
Bir ko'cha ketguncha do'kon,  
Sho'x odami, ichmay piyon,  
Mast, otasi bezor ekan.

Suvlar sepilgan so'rilar,  
Bo'rlangan o'choq-mo'rilar,  
Tab'ing mabodo choy tilar,  
Damlashlari ishqor ekan.

«Oltiariq» qursin o'shal,  
Sellarda qoldim bir mahal,  
Bo'ldim ivib yomg'urda shal,  
To'n shilta, ho'l ezor ekan.

Mingboshisi so'finamo,  
Tasbeh-u bo'ynida rido<sup>2</sup>,  
Cho'qub qochar zog'i alo,  
Bir dog'uli ayyor ekan.

Xayr-u saxo<sup>3</sup> vajhiga kar,  
Bir pulni yuz yerdin tugtar,  
Kelsa gadoy nogah agar,  
Bir non chiqish dushvor ekan.

Ko'rdim chuqur «Chimyon» erur,  
Yer ostida zindon erur,  
Dushmanlari mehmon erur,  
Bog'i uning tutzor ekan.

«Vodil» maqomi dilfizo<sup>4</sup>,  
Ko'chalaridur dilkusho<sup>5</sup>,  
Anhorida obi safo,  
Sebarga, obishor ekan.

<sup>1</sup> Firdavs bog'i – jannat bog'i.

<sup>2</sup> Rido – ruhoniylar bo'yniga solib yuradigan oq ro'mol.

<sup>3</sup> Xayri saxo – xayr-saxovat.

<sup>4</sup> Dilfizo – ko'ngilni quvontiruvchi.

<sup>5</sup> Dilkusho – ko'ngil ochuvchi.

## QO'QONDAN FARG'ONAGA

Chun shahrdin chiqdim «Qudash»,  
Ko'ngul bo'lub mahzun-u g'ash,  
Majnunsifat, devonavash,  
Serchashma-yu kam chang ekan.

«Yayfan» agarchi xush havo,  
Odamlari yengilnamo,  
Bir-birlari-la doimo  
Bo'lar-bo'lmasga jang ekan.

«Nursux» kabi bir joy kam,  
Tushmay o'tib qildi alam,  
Olma, anor o'rniiga ham  
Bog'ida tok-u zang ekan.

Ko'p odamidin «Beshariq»,  
Bog'larda ekmishlar tariq.  
Yetim haqi — go'shti baliq,  
Qilmishlari nayrang ekan.

Charchashni bilmas yursalar,  
Purzo'r ketmon ursalar,  
Vaqt namozga kelsalar,  
Masjid soriga lang ekan.

«Rafqon» ajoyib joy ekan,  
Bir ko'cha ketgan soy ekan,  
Salqin supa hoy-hoy ekan,  
Kim ko'rsa hang-u mang ekan.

Ozodadin to'pori ko'p,  
Dukchisidin attori ko'p,  
Choyxo'ridin ko'knori ko'p,  
Bir rasta nos-u bang ekan.

Ayvonchalar misli katak,  
Bir yo'iki, odam siqqudak,  
Chit birla bir yerda alak,  
Bozori tor-u tang ekan.

Xuftonda kirdim bir do'kon,  
Qildi ashula bir juvon,  
Eshak demang, undin yamon,  
Hangrarda yaxshi hang ekan.

Qiyg'ir ko'targon uch yigit,  
Uxlatmadilar bir minit,  
Ham boshda tong otquncha it  
G'ingshib chiqib, vang-vang ekan.

Aylay sayohat endi bas,  
«Konibodom» qilmay havas,  
Har yerda yotgan xor-u xas,  
Ko'zga tikan yakrang ekan.

## QO'QONDAN ISFARAGA

Aflok kajraftor uchun,  
Har dam ko'ngul afgor uchun,  
Ho'qand tang-u tor uchun,  
Sahro chiqish darkor ekan.

Bordim shahardin «Yakkatut»,  
Baqqoli duzdi badburut<sup>1</sup>,  
Bir tanga sotkay bir qurut,  
Insofi yo'q, terror ekan.

<sup>1</sup> Baqqoli duzdi badburut — baqqoli shop mo'ylovli o'g'ri kishi ekan, demoqchi.

Qishloq juvoni yig'lishib,  
Issig'da o'ynashgay pishib,  
O'tgan tamoshobin tushib,  
Seshanba kun bozor ekan...

Mingboshi Eshdavlat akam,  
Ammo quruq savlat akam,  
Qilsa chiqim gar bir diram,  
Uyqu qochib, bedor ekan.

«Yayfan» kabi tolzor kam,  
Yo'q soyasida zarra g'am,  
Zebo sanam, qoshi qalam  
Jononlari bisyor<sup>1</sup> ekan.

Do'g'malari<sup>2</sup> ham xo'b bajo,  
Volosnoyi uhdaburo,  
Yurt ishlarini doimo  
Xayriyatim ko'zlor ekan.

«Nursux» kabi ham yurt yo'q,  
Bog'dor-u dehqon qorni to'q,  
Masjidlari ham ko'p uluq,  
Turfa farah osor ekan.

«Rafqon»ni bozor joyi tang,  
Mullolari chaqqon, garang,  
Omilari ham mullarang,  
Ko'ylak kiyib, dastor ekan.

Gar mevasi bir tup sotar,  
Bir pulni yuz yerdin tugar,  
Bersa gadoga non agar,  
Ming yilda ham dushvor ekan.

Ammo «Raboti» bachchag'ar,  
Yo'q hech odamdin asar,  
Bir podajoyi gov-u xar,  
Chun og'uli tayyor ekan.

Du bora yurdim dashtlab,  
Bodom koniga qarab,  
Mirza Umarni so'rag'lab,  
Havlisida najjor<sup>3</sup> ekan.

Bo'lg'ay o'shal Burhon omon,  
Yaxshi yigitdur begumon,  
Xursand qildi nogahon,  
Mingboshi Xol sarkor ekan.

Armonki, ko'prak yurmadim,  
Bir-ikki hafta turmadim,  
«Tikka Rabot»ni ko'rmadim,  
Purfayz buzrukvor ekan.

Ma'yus chiqdim «Isfara»,  
Dil xasta, majruh-u yara,  
Issiqlqa kuygan qop-qora,  
Olti jihat ko'hsor ekan.

Anhor-u soy-u cho'llari,  
O'ynab kelodur suvlar,  
Shirinki zardolulari,  
Qand-u asal bekor ekan.

Shersiz emasdur beshalar,  
Bordur saxovatpeshalar,  
Qilmang yomon andeshalar,  
Yaxshilari ham bor ekan.

<sup>1</sup> Bisyor — ko'p.

<sup>2</sup> Do'g'malari — amaldorlari.

<sup>3</sup> Najjor — duradgor.

Hoji Zuhur ham o'rdada,  
Sarhavzalar, oliv sada,  
Borsa agar bir g'amzada,  
Jonig'acha esor ekan.

Boywachchasadur badburush,  
To'g'ri so'zi achchig'-turush,  
Sil, eski bachcha, choyfurush,  
Hofiz Umar, Qahhor ekan.

Bo'lma halovatga kasal,  
Olamda yo'q benish asal,  
Beshak mukofoti amal,  
Dunyo qurulg'on dor ekan.

Alhamdulillo, bexatar,  
Keldim, Muqim, aylab safar,  
Muztar qolib, ko'rmay zarar,  
Haq bandasiga yor ekan.

### *Nazariy ma'lumot*

#### «SAYOHATNOMA» HAQIDA TUSHUNCHА

«Sayohatnoma» adabiy janr sifatida barcha xalqlar adabiyotida mavjud. O'zida sayohat xotiralari va ular bilan bog'liq tafsilotlarni aks ettirgan nasriy va she'riy asarni **sayohatnoma** deb ataymiz.

«Sayohatnoma» janri sharq adabiyotida, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Ushbu janrning dastlabki namunalarini ulug' mutafakkir shoirlarimiz Alisher Navoiy va Mirzo Bobur ijodida uchratamiz. XVIII asrning oxiri – XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoir Maxmurning ham sayohatnoma yozganligi ma'lum.

O'zbek adabiyotida alohida poetik shaklda tartib topgan, keyinchalik adabiy an'ana tusiga kirgan bu janrning asoschisi Muhammad Aminxo'ja o'g'li Muqimiyyidir. Darhaqiqat, Muqimiyy «Sayohatnoma»lari maydonga kelib, xalq orasida mashhur bo'lganidan keyin, xuddi shu uslubda Zavqiy, Furqat, Tajalliy va shoirga zamondosh boshqa ijodkorlarning «Sayohatnoma»lari yaratildi. E'tibor beradigan bo'lsak, bu davrdagi «Sayohatnoma»lar ko'pincha she'riy shaklda yaratilgan. Ularning ichki tuzilishi quyidagicha:

1. Kirish, ya'ni sayohatga chiqish ehtiyoji, sabablari aytiladi.
2. Yo'l xotiralari bat afsil bayon etiladi.
3. Sayohatlardan muayyan xulosalar chiqariladi.

Hozirgi davrimizda zamonaviy «Sayohatnoma»lar ham yaratilyapti. Ular ko'proq adib, shoirlarimiz, jurnalistlarimizning turli mamlatlarga, shuningdek, yurtimizdagи shahar va qishloqlarga qilgan safarlarini

asosida bitilyapti. Shu o'rinda Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O'tkir Hoshimov va boshqa adiblarimizning yo'l xotiralari adabiyotimizda sayohatnama janrining boyishiga xizmat qilmoqda.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Muqimiy hayoti va faoliyati haqida gapirib bering.
2. Muqimiy adabiy merosi qancha misrani tashkil etadi?
3. Shoirning ilk she'rlari qachon va qayerda nashr etilgan?
4. Sayohatnama janrida ko'proq nimalar haqida hikoya qilinadi?
5. Muqimiy «Sayohatnama»lardan tanqidiy fikrlar joy olgan holatlarga misollar keltiring.
6. Ushbu bandni sharhlang:

Faryodkim, garduni dun  
Aylar yurak bag'rimni xun.  
Ko'rdiki, bir ahli funun —  
Charx anga kajraftor ekan.

7. O'zbek adabiyotida «Sayohatnama» janrida qalam tebratgan yana qaysi shoirlarni bilasiz?
8. «Sayohatnama»lardan olgan taassurotlaringizni yozma bayon qiling.



# Sa'diy SHEROZIY

(1189 – 1292)



U kishining ismi sharifi Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziyidir. «Shayx» deb ko'proq so'fiylar boshlig'iga, din arboblariga nisbatan aytilgan. Taxallusidan ma'lum bo'lganidek, sherozlik. Sheroz Eronning mashhur shaharlaridan.

Sa'diy nomini dunyoning juda ko'p mamlakatlarida biladilar. Sharqda u qanchalar hurmat bilan tilga olinsa, G'arbda ham bu shoirning e'tibori shuncha balanddir.

Sababi nimada? Sababi shundaki, u ajoyib g'azallar yozdi. Bu g'azallar hikmatli fikrlarga boy edi. Go'zal o'xhatishlarga, ta'sirli manzaralarga to'la edi. Masalan:

«Ey sorbon, ohista ron oromi jonam meravad», –  
deb boshlanar edi bir g'azali.

Tuya yetaklovchini, karvonboshini «sorbon» deydilar. Oshiq shoir unga qarata iltijo etmoqda:

Ey sorbon, ohista yur, oromijon ketmoqdadur...

Ko'z oldingizga keltiring. Bepoyon sahro, karvon ohista yo'lga tushmoqda. Illojsiz oshiq uning atrofida parvonadek aylanadi, karvonni qo'yib yuborgisi kelmaydi. Chunki bu karvonda uning joni, jahoni ketib bormoqda. Forschadagi «sorbon – ohista ron, oromi jon» so'zlaridagi ohangdoshlik – ichki qofiya shu bir satrning o'zidayoq nolakor musiqa yaratadi. Ayni paytda, qalqib-qalqib borayotgan tuyalar qatori, ular o'rkachi ustida bir maromda tebranayotgan mahofalar

(odam o'tirib ketishga qilingan, kabinani esga tushiruvchi moslama uychalar). Bir satrda shuncha ma'no, shuncha ohang, shuncha dard bor edi. Shuning uchun ham uni Eronda qanchalar sevsalar, Turkistonda ham shuncha sevardilar. Eron-u Turkistonni qo'ying, fransuz Volter, nemis Gyote o'z asarlarida uning she'rlariga murojaat qiladilar.

Ayniqsa, shoirning «Guliston» va «Bo'ston» nomli ikki asari uning nomini butun dunyoga tanitdi. Bu asarlar haqida gapirishdan oldin ikki og'iz uning hayoti haqida ma'lumot beraylik. Chunki bu ikki asar uning o'z ko'rghan-kechirgan, eshitgan-bilgan voqealari asosida maydonga kelgan.

U Sherozda o'ziga to'q va ma'rifatli bir xonadonda o'sib ulg'aygan. Uzoq umr ko'rghan. Tug'ilgan yilini har xil (1184, 1189, 1203, 1210) ko'rsatadilar. 1292-yilda vafot etgan. Umrining 20 yilidan ko'prog'i sayohatda o'tgan. Afrikadan Xitoygacha, Hindistondan Farangiston gacha kezib chiqqan. Musofirlikning, hatto asirlikning azoblarini ko'rghan. Va bu sayohatlari davomida ko'rghan-bilganlarini umumlashtirib, sayqallab «Bo'ston» (1257-yilda yozilgan) hamda «Guliston» (1258) asarlariga ixcham hikoyalar qilib kiritgan. «Bo'ston»da shunday bir hikoyat keltiriladi: Shahar qozisi bir guruuh olim-u fozillarni suhbatga chaqiradi. Qimmatbaho liboslarga burkangan kazo-kazolar, «o'tsinlar-o'tsinlar» bilan to'rdan joy oladilar. Poygakda eski to'n kiygan bir darvesh qisinibgina o'tirardi. Suhbat boshlanadi. Shariat va tariqatdan fiqh-u hadislarga o'tadilar. Bahs, muhokama, munozara avj oladi. Bir masala ustida qattiq talashib qoladilar. O'tirganlar baqir-chaqir qilishar, lekin hech biri ishonchli bir dalil bilan isbotlab bera olmasdi. Shunda o'sha eski to'n kiygan darvesh so'z olib, masalani burro til, oydin dalil bilan isbot qilib beradi. Hamma hang-u mang bo'lib qoladi. Qozi o'rnidan turib salsa-to'nini darveshga in'om etib, to'rga taklif qiladi. Darvesh to'nni ham, to'rni ham rad etadi. Gap insonning salsa-to'nida emas, ilm-u donishda, agar kiyimda bo'lsa edi, salsa ilingan qoziq yoki to'qim urilgan eshak eng e'tiborli bo'lardi, deb qozi uyini tark etadi. «O'sha darvesh men o'zim edim» deb tugatadi Sa'diy hikoyasini.

«Guliston» asarida esa biz shoir boshiga tushgan ajab savdolarga duch kelamiz.

«GULISTON»dan  
*Hunar o‘rganmoq haqida*

Bir hakim<sup>1</sup> o‘g‘ullariga mundoq pand<sup>2</sup> berur edikim: «Ey jon farzandlarim, hunar o‘ganininglar, negakim, mulk va molg‘a e‘timod<sup>3</sup> yo‘qdurur. Siym<sup>4</sup> va zar<sup>5</sup> xatar mahallidadur — yo o‘g‘ri barchasini birdan olur va yo hakim oz-oz olib yo‘q etar. Ammo hunar chashmayi ravon<sup>6</sup> va davlati bepoyondurkim, agar hunarmand odam davlatdin tushsa, hech g‘am va alami yo‘qdur. Nedinkim, hunar aning zotida ulug‘ davlatdur va har yergakim borsa, sohibi qadr bo‘lur va majlisning yuqorisida o‘lturur va hunarsiz kishi gadoylik qilur va har joygakim borsa, beqadr va bee‘tibor bo‘lur».

Bayt:

Ota merosini gar istasang, o‘rgan ota ilmin,  
Ki qolgan mol otadin sahl<sup>7</sup> muddatda tamom o‘lg‘ay.

**DARYO KO‘RMAGAN QUL HIKOYATI**

Bir podshoh bir ajamiy<sup>8</sup> g‘ulom<sup>9</sup> bila kemaga mindi. G‘ulom hargiz daryoni ko‘rmamish erdi va kemaning haybat va mehnat<sup>10</sup>in bilmamish erdi. Vahm<sup>11</sup> bila ko‘p yig‘lab, zorlig‘ qilib, a’zo va andom<sup>12</sup>ig‘a larza va beqarorlig‘ yetishti. Har nechakim mulotafat<sup>13</sup> ko‘rguzub, tadorik<sup>14</sup>in qilur erdilar, aslo orom topmas erdi. Bu jihatdin, podshohning ayshi tiyra<sup>15</sup> bo‘lur erdi. Hech chorasin topmas erdilar, ammo hamul kecha ichida bir hakim bor erdi. Podshohga dedi: «Agar ruxsat bersangiz,

<sup>1</sup> **Hakim** — donishmand.

<sup>2</sup> **Pand** — nasihat.

<sup>3</sup> **E‘timod** — ishonch.

<sup>4</sup> **Siym** — kumush.

<sup>5</sup> **Zar** — oltin.

<sup>6</sup> **Chashmayi ravon** — oqar chashma.

<sup>7</sup> **Sahl** — oz.

<sup>8</sup> **Ajamiy** — eronli.

<sup>9</sup> **G‘ulom** — qul.

<sup>10</sup> **Mehnat** — azob.

<sup>11</sup> **Vahm** — qo‘rquv.

<sup>12</sup> **Andom** — tana, gavda.

<sup>13</sup> **Mulotafat** — iltifot.

<sup>14</sup> **Tadorik** — iloj.

<sup>15</sup> **Ayshi tiyra bo‘lmoq** — kayfiyatni buzilmoq.

man bir ish etib, ani xomush qilurman». Podshoh dedi: «Agar mundoq qilsang, bizning haqimizda nihoyatsiz karam qilmish<sup>1</sup> bo‘lg‘aysan». Ondin so‘ng hakim buyurdi, to g‘ulomni sochidan tutub, daryog‘a tashladilar. Uch navbat cho‘mg‘ondin so‘ng tortib, kemaning oldig‘a yovuq<sup>2</sup> kelturdilar. G‘ulom jon havl<sup>3</sup>idin ikki qo‘li bilan kemadagi kishi-larning qo‘lig‘a yopushib, zo‘r bila o‘zini kema ichiga olib, bir go‘sha<sup>4</sup>da o‘iturub, orom tutdi. Podshohg‘a bu hol taajjub ko‘runub, so‘rdikim: «Munda ne hikmat bor erdi?» Hakim dedi: «G‘ulom burundin g‘arq bo‘lmoq mehnatin ko‘rmamish erdi, lojaram<sup>5</sup>, kema ichining salomatligi qadrin bilmas erdi, emdi bildi, andoqkim, ofiyat<sup>6</sup> qadrin bir musibatg‘a girifstor bo‘lg‘on kishi bilg‘usidur».

Qit‘a:

Qorning to‘q esa, arpa noni yaxshi ko‘runmas,  
Gar och ersang, oy qursi<sup>7</sup> kabi xo‘b erur va sof.  
A‘rof<sup>8</sup> behisht o‘lg‘usidur do‘zax eliga,  
Jannat eliga bo‘lg‘usi do‘zax vale<sup>9</sup> a‘rof.

### DARVESH HIKOYATI

Bir darveshni ko‘rdumkim, butun umri davomida bitta ham farzand ko‘rmagan edi. So‘ngroq ko‘pdan ko‘p duo va zorliqlar qilg‘onidan so‘ng xotini homilador bo‘ldi.

Darvesh dedi:

— Agar Olloh taolo menga bir o‘g‘il bersa, egnimdag‘i xirqa<sup>10</sup>dan boshqa barcha molimni darveshlarga nisor qilurman.

Ittifoqo, xotini o‘g‘il tug‘di. Va‘daga muvofiq darveshlar oldiga dasturxon yozib, taom berib, bor-u yo‘g‘ini sarf etdi.

Faqir<sup>11</sup> shu paytlar Shom safariga ketdim. Bir necha yildan so‘ngra

<sup>1</sup> Karam qilmoq — marhamat ko‘rsatmoq.

<sup>2</sup> Yovuq — yaqin.

<sup>3</sup> Havl — qo‘rquv.

<sup>4</sup> Go‘sha — burchak, chekka.

<sup>5</sup> Lojaram — noiloj.

<sup>6</sup> Ofiyat — sog‘liq.

<sup>7</sup> Oy qursi — to‘lin oy.

<sup>8</sup> A‘rof — jannat va do‘zax o‘rtasi.

<sup>9</sup> Vale — va lekining qisqa shakli.

<sup>10</sup> Xirqa — darveshlar kiyimi, janda.

<sup>11</sup> Faqir — o‘zini kamtarlik bilan aytish.

qaytib kelib, ul darveshnинг mahallasiga bordim va oni axtardim. Topmay, ul yerdagi hozir bor kishilardin so'radim. Alar dedilar:

— Ul darvesh zindondadur.

Faqir oning zindong'a tushganining sababini so'radim.

Alar dedilar:

— O'g'li araq ichib, mast holida bir kishini o'ldirib qochdi. Emdu oning uchun otasin tutub, zindonga solub, oyog'in zanjir bilan band etmishlar.

Men dedim:

— Bu bolani Xudodan o'zi tilagan edi.

Qit'a<sup>1</sup>:

Bo'g'oz xotun, ayo<sup>2</sup>, donoyi hushyor,  
Tug'ar vaqtida garchi mor<sup>3</sup> tug'g'oy.  
Base yaxshidur ul farzanddinkim,  
Ani nodon va nohamvor<sup>4</sup> tug'g'oy.

### HIKOYAT

Damashq (Shom)lik do'stlar suhbatidan faqirga malolat yetib, Quddus sahrosiga yuz burdim va hayvonot bilan do'st tutinib, ular bilan qo'shilib yurdim. To vaqtikim, farang xalqiga asir bo'ldim va meni juhudlar bilan Taroblis qal'asining xandaqini qazmoq ishiga soldilar. Halab ulug'laridan birikim, burundin mening bila oshnolig'i bor edi, ustumdin yo'li tushub, kelib meni tanidi va dedi: «Bu na holdur?» Men dedim: «Xaloyiqdin qochib tog', dashtda manzil tutub, hayvonotg'a qo'shuldim. Tangri taqdiri bila emdi kofirlarning jafosi qaydiga giriftor bo'ldum».

Do'stlar oldida poband o'lsam erdi jovidon,  
Yaxshi erdi ajnabiy birla kezardim bo'ston.

Mening bu holimga aning rahmi kelib, o'n tilla berib, farang ulusining jafosi bandidan ozod qildi va o'ziga hamroh qilib Halabga olib bordi va

<sup>1</sup> Qit'a — she'rning bir turi.

<sup>2</sup> Ayo — ey.

<sup>3</sup> Mor — ilon.

<sup>4</sup> Nohamvor — tentak deyilmoqchi.

bir xunuk, badfe'l qizi bor erdi, oni nikoh qilib menga berdi, yuz tillo mahriga soldi va biroz muddat o'tgandan so'ng, qiz badfe'lligi va adabsizligini boshlab, holimni xarobga, jonomni azobga yetkazdi. Ya'nik: yaxshi odamning uyida yomon xotin davosiz dard, hayosiz dushman kabidir. Bunday xotin bilan yashamoqdan Yaratganning do'zaxi olovida yonmoqni afzal bilaman.

Axiyri ta'naga ko'chdi: «Seni otam o'n tillo berib farang asirligidan qutqazib olmaganmidi?!» Men dedim: «Ha, men o'sha otang o'n tillo berib, farang asirligidan qutqarib olgan, lekin yuz tillo bilan sening qo'lingga tutqazib, jabr-u sitam zanjirini bo'ynimga solgan kishiman!»

Masnaviy:

Bir kishi bir qo'y ustiga yetti  
Ki, bo'ri ilikidin xalos etti.  
Kecha so'ymoqqa qo'yni bo'ldi ravon,  
Qo'y ko'rib oni ayladi afg'on:  
«Ki bo'rini tutar edim dushman,  
Emdi bildim, bo'ri sen erkansan».

«Guliston», «Bo'ston» asarlarini Alisher Navoiy sevib o'qigan. U o'zining «Lison ut-tayr» («Qush nutqi») asarida buni alohida ta'kidlab aytadi. Haqiqatan ham, bu asarlar o't mishda sho'rolar tuzumi o'rnatilgunga qadar ham eski maktablarda darslik sifatida o'qitilar edi. XX asr boshida yetishib chiqqan jadid ma'rifatchilarimiz bu kitoblardan ilhom olib yangi darsliklar yaratdilar. Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari shundaylardan edi.

«Guliston» asari so'nggi 6–7 asr davomida o'zbek tiliga bir necha bor tarjima qilingan. «Bo'ston» 1960-yilda o'zbekchaga o'girildi.

Quyida ulardan ayrim namunalar o'qiysiz.

### «BO'STON»dan

#### *Ayb qidirmaslik haqida*

Birov ilmdon-u bo'lsa tadbirdor,  
Nogoh toyib ketsa oyog'i yakbor.  
Kichik bir xatoga gapirma qo'pol,  
Ulug'lar demishlar: «Yaxshilikni ol!»

Birga o'sadi-ku tikan birla gul,  
Ey odil, tikanmas, gulni dasta qil.  
Tab'i aybjo'ylik bo'lsa agar bas,  
Tovus oyog'idan boshqasin ko'rmas.  
Tozalik axtargil, ey o'zi xira,  
Ne ko'rsatar ko'zgu gar yuzi xira!  
Barcha aybin yuzga solma, ey g'addor,  
Sening ham aybingni ko'rsatuvchi bor.  
Gunohkorga darra, cho'p buyurgani  
O'zini gunohsiz bilurmi, qani?  
Yomonlik yoqmasa, o'zing qilmagil,  
Keyin boshqalarga «qilmagil», degil.  
Yaxshi-yu yomoni o'zining moli,  
Har kim o'z foyda-yu ziyon hammoli.  
Sa'diy she'rin ko'rib ichi qoralar,  
Nafrat bilan so'kib, uni qoralar.  
Yuzlab nuktasiga solishmas quloq,  
Bir aybni topsalar, ta'na besanoq.  
Bir illati bordir xudpisand so'zin,  
Hasad ko'r qilgandir haqiqat ko'zin.  
Har ko'z-u qosh yaxshi, demagil, do'stim,  
Pista mag'zini ye, tashlagil po'stin.

### *Hayit kuni adashib qolganim va otamning sabog'i*

Yoshlik davronimdan esimda qolgan:  
Hayitda chiqardim men otam bilan.  
O'yinga berilib yugurdim, shoshdim,  
Otamdan olomon ichra adashdim.  
Baqirdim, ovozim har yoqni buzdi,  
Otam yetib kelib, qulog'im cho'zdi.  
Ey ko'zi o'ynoqi, sho'xi beqaror,  
Barimni mahkam tut, dedim necha bor.  
Bilmaysan yosh bola bo'lgandan keyin –  
Tango yo'l yurmoqlik dunyoda qiyin.  
Sa'diydek dunyoni kezib ter boshoq,  
Ma'rifat xirmonin yig'arsan shu choq.

Dehqon hayajonda: o'sarmi nihol,  
Ko'chatidan meva berarmi iqbol?  
Ba'zi xomtamalar sochmay urug', don,  
Ko'tarmoqchi bo'lar dehqonday xirmon.

### *Hikoyat*

Eshitdimadolatli bir podsho,  
Kiyarkan astar-u avra bo'z qabo.

Biri debdi: «Shohim, to'ning juda jo'n,  
Xitoyi shohidan tiktir yaxshi to'n!»

Debdi: «Bul kiyimda tanga osoyish,  
Bundan ortig'idir zeb-u oroyish...»

Mening boshimda ham yuz-yuzlab havas,  
Lekin g'azna tanho meniki emas.

Qo'shunlar haqidir boylig-u gavhar,  
Shoh ziynati uchun emas siym-u zar.

Gar askar bo'lmasa shohidan rizo,  
Vatan chegarasi qolur xavf aro.

Dehqon eshagini talab ketsa yov,  
Nechuk soliq olar Sulton beayov.

G'animlar talasa, shohi olsa boj,  
Ne iqbol ko'radi unday taxt-u toj.

Yiqilganga zo'rlik muruvvat emas,  
A'lo qush chumoli donini yemas...

Kishvar olish mumkin soz xulqing bilan,  
Qon to'kma jang qilib o'z xalqing bilan.

Qasam mardlik haqqi butun keng jahon,  
Sira arzimaydi yerga tomsa qon.

Eshitdim baxtiyor Jamshid podisho,  
Buloq boshga yozmish shunday bir ma'no:

«Ko'plar ham bu chashma boshiga yetdi,  
Suv ichdi, dunyodan ko'z yumib ketdi.

Qanchasi zulm ila olamni oldi,  
Go'rga o'zi ketdi, olgani qoldi».

### *Hikoyat*

Bir itga duch keldi birov sahroda,  
Tashnalikdan yotar jonsiz aftoda.

Dastorin arqondek quduqqa soldi,  
Uchiga qalpog'in boylab suv oldi.

Xizmatga belini mahkam bog'lab u,  
Majolsiz kuchukka qo'ldan berdi suv.

Uning bu ishidan topibon xabar,  
Qozidan gunohin so'rар payg'ambar.

Hushyor bo'l, zulmdan qilgil andisha,  
Vafo-yu karamni qilmag'il pesha.

Yaxshilik mukofot topdi itdan ham,  
Gar odamga qilsang bo'lmas undan kam.

Qo'lingdan kelgancha karam qil, karam,  
Karamli bo'limgay hech kimsadan kam.

Biyobonda quduq qazolmasang, boq,  
Qabristonga kirib bitta chiroq yoq.

### **«MUFRADOT»dan**

Arablarda bir so'z bordir yaxshi boq,  
Odobsiz boladan yo'g'i yaxshiroq.

Yaxshilik yordamin yaxshilarga qil,  
Yaxshiga yaxshilik yaxshi — buni bil.

Niholin o'sdirar daraxt ko'p zamon,  
Bir zumda qo'porib tashlaydi bo'ron.

Davlating borida ishing sol yo'lga,  
O'tib ketajakdir u qo'ldan qo'lga.

## HIKMATLAR

Chumoli yoz bo'yi yig'ar yemak — don,  
Toki qishda uyi bo'lsin farovon.

Erta kun arpaga zor bo'lmay desang,  
Bukun ek, shoyadki, bug'doy non yesang.

Ustiga kitob ortilgan eshak,  
Na olim va na donodir beshak.

Fildek zo'r bo'lsang-u sherdek urishqoq,  
Nazdimda, jangdan sulk ming bor afzalroq.

Boshqalar moliga ko'ngil qo'ymagil,  
So'ngra ko'ngil uzmoq juda ham mushkul.

### Savol va topshiriqlar

1. Sa'diy Sheroyi kim? Qayerda yashab ijod etgan? Qanday asarlarini bilasiz?
2. «Guliston» va «Bo'ston» asarlari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
3. Sa'diy hayotidagi voqealar aks etgan qaysi hikoyalarni bilasiz? Aytib bera olasizmi?
4. «Ayb qidirmaslik haqida»gi she'riy hikoyatda shoir o'quvchining qanday inson bo'lishini xohlaydi?
5. «Tab'i aybjo'ylik bo'lsa agar bas,  
Tovus oyog'idan boshqasin ko'rmas»  
satrlari ma'nosini tushuntirib bering.
6. «Hayit kuni adashib qolganim va otamning sabog'i» hikoyatini so'zlab bering. Ushbu she'riy hikoyatdan qanday fikrlar topdingiz?
7. «Hunar o'rganmoq haqida» hikoyatida hunarli va hunarsiz qanday taqqoslab ko'rsatiladi?
8. Sa'diy asarlarini o'zbek o'quvchilari qayoqdan biladilar? Shoir ijodining o'zbek adapiyotiga ta'siri haqida nima deya olasiz?



## *Hamza Hakimzoda NIYOZIY* (1889–1929)



Adabiyot darsligimizning «Vatanni sevmoq iymondandir» deb nomlangan bo‘limi Hamza Hakimzoda Niyoziy mavzusi bilan boshlangani bejiz emas. Chunki bu ijodkorning butun hayoti, mehnat faoliyati, ijodi ona Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, qo‘lidan kelgancha uning dardlarini yengillatish bilan kechgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilning 6-mart kuni Farg‘ona vodiysining yirik madaniy o‘choqlaridan bo‘lmish qadimgi Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Ibn Yamin mashhur tabib bo‘lgan. Shu sabab shoir o‘z taxallusiga Hakimzoda nomini qo‘shtigan. Onasining ismi Jahonbibi edi.

Hamza dastlabki ta’limni shahardagi eski maktab va madrasalarda oldi, o‘sha paytda urf bo‘la boshlagan rus-tuzem mакtabida rus tilini o‘rganishga harakat qildi.

Badiiy ijod sohasida uning dastlabki ustozlaridan biri tatar maorifchisi Abdulla To‘qmullin bo‘lgandi. Bu haqda keyinchalik adib shunday xotirlagan:

«Ul menim qo‘limda o‘z qalamim bilan yuz sahifadan ortig‘roq eski usuldagagi yozishmalarimi ko‘rib, tarbiyag‘a kirishdi».

1909-yilda Hamza arab tilini o‘rganish uchun Buxoroga boradi. Biroq shahardagi diniy guruhlar o‘rtasidagi mojarolar tufayli Kogon shahriga chetlanib, u yerdagи matbaa korxonasida ishlaydi.

1910-yilda Toshkentga kelgan Hamza ma‘rifatchilik faoliyatini boshlaydi. Bu yerda Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li boshchiligidagi

jadidlar – yangilik tarafdorlari safiga qo'shiladi. Shaharning Qashqar mahallasida usuli jadid (yangi usulda o'qitadigan) maktabini tashkil qiladi.

Xuddi shunday maktabni 1911-yilda Qo'qonda ochganida, hukmron chor ma'murlari tomonidan yopiladi. O'sha yili Hamza haj safari davomida Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Arabiston o'lkalarda bo'ladi. Yurtiga qaytib ma'rifatparvarlik ishini davom ettiradi, zamonasining dolzarb muammolari aks etgan badiiy asarlar yozishni kuchaytiradi. Uning Marg'ilon va Qo'qon shaharlarida ochgan maktablari yana tazyiqqa uchraydi:

«1914-yilning oxirlarida Marg'ilonda maktab ochdim. Sakkizinch oygacha bormay, Andreyev ismindag'i Skobel (*Farg'ona shahri nomini chor hukumati shunday deb o'zgartirgan edi – tahr.*) maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi... Undan yana Xo'qand kelib, yo'qsil bolalar uchun pulsiz o'qish maktabi ochdim... o'zim 4 oyga davom ettirgandan keyin uyezd nachayligi Medinskiy tomonidan tintuv bo'lib yopildi. Lekin hech bir qanday qog'ozlarim qo'liga tushmagani uchun qamalmay qutuldim».

Hamza o'zi ochgan maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayoni tajribalari dan kelib chiqib, bu o'quv dargohlarida qo'llash uchun darsliklar yozishga ham jiddiy e'tibor beradi. Uning «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» singari o'quv qo'llanmalari Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqorining «Adibi avval», «Adibi soniy», Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat singari ma'rifatparvarlar kitoblari qatorida millat bolalarini savodli qilish ishiga munosib hissa qo'shdi.

Hamza dastlab «Nihoniy» («yashirin», «maxfiy» ma'nosida) taxallusi bilan mumtoz adabiyotimiz janrlarida ijod qildi. Qariyb o'n yil davomida yaratgan she'riy asarlarini to'plab, 1914-yilda ilk qo'lyozma devonini «Devoni Nihoniy» nomi ostida jamladi.

1915–1919-yillarda yozgan she'rlarini esa yettila to'plam qiladi va ularga «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi» deb umumiyl nom beradi. Bu majmuaga «Atir gul», «Oq gul», «Qizil gul», «Pushti gul», «Sariq gul», «Yashil gul», «Safsar gul» to'plamlari kirgandi.

Majmuaning nomiga e'tibor berish kerak: «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi». Gap shundaki, hamma davrda bo'lgani singari

XX asr boshlarida yashagan aholi o'rtasida ham ko'plab xalq ashulalari urf bo'lgandi. Ularning hammasini ham so'zi mukammal ashulalar deb bo'lmasdi, albatta. Odamlar, savodli yoki omi ekanidan qat'i nazar, bu ashulalarni har joyda xirgoyi qilib yurar, shu bilan ham o'zini ovutardi. Hamza mana shu jihatga jiddiy qarab, xalq qo'shiqlari ohangiga mos yangi matnlar yaratadi. Eng muhimmi bu she'riy matnlarning aksariyatida Turkiston o'lkasi boshiga tushgan og'ir kunlar tasvirlanib, mavjud ahvoldan qutulishga da'vat yangrardi.

Masalan, «Oq gul» to'plamidan joy olgan quyidagi xalq ashulasi matniga va uning kuyiga Hamza tomonidan yozilgan yangi she'r mazmuniga e'tibor beraylik:

«Bizni hovli yo'lingiz, o'rtog'-ey,  
Chinni baxmal to'ningiz-ey,  
Aytinglar, aytaylik, o'rtoq...»

O'zgalarning tilagi maktablar ochmoq,  
Bizda maktabdan qochmog'-ey,  
Yig'langlar, yig'laylik, Turon!..

Bormi hech millat bizdek qarolik bosgon,  
Ipsiz o'z-o'zin osgan-ey,  
Sezinglar, sezaylik, Turon!

Barcha yetdi tilakg'a hikmat o'qushub,  
Biz yuramiz cho'qushub-ey,  
O'qinglar, o'qiylilik, Turon!

Ko'ryapmizki, Hamza, ashula ohangidan foydalangan holda, xalq ongiga mutlaqo yangi, foydali, millat taqdiriga daxldor fikrlarni singdirishga harakat qiladi.

Hamza yangi o'zbek nasrining oyoqqa turishiga ham munosib ulush qo'shgan adibdir. U 1914–1915-yillarda «Yangi saodat», «Uchrashuv» nomli «milliy romanlar» yaratib, bu boradagi ilk tajribalarni boshlab bergen edi. Albatta, bu asarlarni to'laqonli roman janri namunasi, deb bo'lmaydi. Ularning g'oyaviy va badiiy qamrovi anchagina cheklangan, qahramonlar xarakteri ishlovida biryoqlamaliklar ko'zga tashlanadi. Shunga qaramay, romandek murakkab janrga dadil qo'l urish, davrining

muhim ijtimoiy muammolarini ko'tarib chiqish Hamza ijodida novatorlik, yangilikka intilish naqadar kuchli bo'lganidan dalolat beradi.

Hamza ijodiy faoliyatni nihoyatda rang-barangligi bilan ham ajralib turadi. Bu, adibning adabiyot va san'at, ijtimoiy sohaning deyarli barcha yo'nalishlarida faol ishtirok etishga, shu orqali xalqi oldida turgan dolzARB masalalar yechimiga hissa qo'shishga intilishi bilan izohlanadi.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi aholisining katta qismi savodsizlikdan aziyat chekayotgani, ma'rifat ishlaridan chetda qolgani zamondosh adiblar singari Hamzani ham turli janrlarda asarlar yozishga undaydi. U 1914–1916-yillar oralig'ida «O'ch», «Zaharli hayot yoxud Ishq qurbanlari», «Ilm hidoyati», «Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi», «Ochlik qurbanlari» singari kichik dramatik asarlar yaratdi.

Uning o'zbek milliy dramaturgiyasini rivojiga juda kuchli turtki bergen «Muxtoriyat yoki avtonomiya» (1917), «Kim to'g'ri», «Tuhmatchilar jazosi», «Boy ila xizmatchi» (1918), «Loshmon fojiasi» (uch bo'limli, 1916–1918), «Farg'ona fojiasi» (to'rt bo'limli, 1919–1920) singari sahna asarlarida yakka inson va xalq taqdiri bilan bog'liq muhim muammolar aks ettirildi. Adibning «Maysaraning ishi» komediysi, «Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi» dramasi (1926) nafaqat Hamza ijodiy merosi, balki o'zbek dramaturgiyasining ham eng noyob namunalari hisoblanadi.

Afsuski, milliy ziyolilarning har bir qadami, o'y-fikrlarini nazorat qilmoqqa uringan sho'rolar hukumati ko'plab adiblarimiz qatori Hamza umrining ham xazon bo'lishiga sababchi bo'ldi. Hamza bilan Shohimardondagi bir to'da diniy aqidaparastlar o'rtasida janjal chiqishi va ular tomonidan 1929-yilning 18-avgustida shoirning toshbo'ron qilib o'ldirilishida shu hukumat malaylarining bevosita qo'li bordir.

\* \* \*

### JONLARNI JONONI VATAN

(«Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ning  
uchinchi – «Qizil gul» bo'limidan)

**Qamchinbeklar osilgach Xo'qandda marsiya edarak aytilmish  
ashulaning ohangida milliy she'rlardir. Teatrлarda xo'r qilinsa-da  
muvofiqdir.**

*Qamchin begin uv dedi, yo bir piyola suv dedi-yo,  
Dor tagiga olib borganda ichmay turib huv dedi-yo.*

Ikki misraini bir kishi, ikki misraini ko'p kishi tarafindan aytilsa,  
ta'sirsiz qolmasa kerakdur.

\* \* \*

Vatan, vatan der edilar, na der erdim bilmay ani,  
Endi bilsam Vatan erkon bu tanlar(n)ing shirin joni,  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,  
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Sensan ekan bizlara chin tug'mish bir munglig' ano,  
Boqg'ung tirik bo'lsak, agar o'lsok quchog'ingda yano.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,  
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Ko'zlarimi ko'r bo'lgan uchun hech tanimas bo'lduk sani,  
Og'rindi ko'nglung, yuzaga og'lo siring chiqsin qani!  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,  
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Essiz, essiz tug'gonlaring, ko'z yumub o'q otub sani,  
Bog'lab qo'ling boyonlara ne oldilar sotub sani,  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,  
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

San onai zor ekanda, achingoning bor ekanda,  
O'lmay laxta qonlar to'kub xor bo'lub yurar ekanda.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,  
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Biluvchilar qo'l tutmadi, bizga sani tonutmadi,  
Bilmam nelarga aldanub tangri buyruqin tutmadi.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,  
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Bilimsizlar anglashmadi, oh-u voying tinglashmadi,  
Bilguvchilar burchi ekan o'ng'aylamoq, o'nglashmadi.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,  
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Nihon yig'lab qon yutunur, kechmog'lig'ingni o'tunur,  
Mundin buyon o'g'lonlaring chandon tonurga tutunur,  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,  
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

She'rning tahliliga kirishishdan oldin Sizning e'tiboringizni bir muhim masalaga qaratmoqchimiz. Hamzaning bundan roppa-rosa to'qson yil ilgari bitgan bu asarida ilgari surilgan g'oyalar bugun ham o'z ohorini, dolzarbligini yo'qotmagan. Shunday emasmi?

To'g'ri, bugun biz o'zgalarga mutelikning har qanday ko'rinishidan xalos bo'lганмиз. Xalqимиз milliy mustaqillikni qo'lga kiritib, o'z taqdirini o'zi hal etish imkoniyatiga ega bo'lган. Biroq hali-hamon Vatan degan muqaddas tushunchaning mohiyatini to'la anglamaydigan, uning muammolari ustida jon kuydirishdan ko'ra, shaxsiy manfaati va rohat-farog'ati to'g'risida ko'proq o'ylaydigan kishilar ozmi-ko'pmi topilib turadi. Hamza she'rining shu va boshqa jihatlarini inobatga oladigan bo'l-sak, shoir ijodining ijtimoiy ahamiyati qanchalar sobit – eskirmasligiga amin bo'lамиз.

Mazkur she'rning lirik qahramoni to'liq holda shoir shaxsini ifoda etadi, desak xato qilmagan bo'lамиз. Chunki, bu she'rlar yaratilgan davrdagi Hamzaning ijtimoiy faoliyati, publitsistik maqolalari, boshqa adabiy janrlarda yozgan asarlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ayni g'oyalar, tuyg'u va hislar ularda ham bo'rtib turganiga guvoh bo'lамиз. Ya'ni she'r satrlari aro yangrayotgan ovoz aynan shoirning ovozi ekani shubhasiz.

Asarning dastlabki bandlarida muallif juda samimiy tarzda hozirga qadar «Vatan» degan muqaddas so'zni ko'p bor eshitib, shunchaki tilga olib yurganini, uning chin mazmun-mohiyatini esa endigina kashf qilganini e'tirof etadi. Vatan o'z farzandlariga hech qanday shartsiz, tamasiz ona bo'lshligini shoir teran anglaydi: «*Boqq'ung tirik bo'lsak, agar o'lsok quchog'ingda yano*».

Vatan qadrini bilmaslikning eng asosiy sababi uni idrok etadigan ko'ngil ko'zining «ko'rлиgi»dandir. Siz «ko'ngil ko'zi» degan iborani avvalgi darslarning birida – fransuz adibi Antuan de Sent-Ekzyuperining

«Kichkina shahzoda» qissasida ham eshitgan edingiz. Balki bu iborani tushunishga hozircha qiynalarsiz ham. Uni anglashingizga yordam bo‘lishi uchun quyidagilarni aytamiz.

Adabiy asarni, jumladan, she’rni tushunish, his qilish uchun odam bolasida faqat jismoniy ko‘z emas, balki qalb, ko‘ngil ko‘zi ham ravshan bo‘lishi talab etiladi. Buni soddarоq tarzda, bir misol bilan tushunishga harakat qilaylik. Masalan, Siz ota-onangizni, birov aytmasa ham, hech kim o‘rgatmasa ham, doimo sog‘inib, ularga talpinib turasiz. Onangiz ikki soatgagina ko‘rinmay qolsa, darrov uni izlashga, tezroq diydoriga to‘yishga harakat qilib qolasiz, to‘g‘rimi?

Siz uchun onangiz hammaning onasidan chiroqli, mehribon, yaxshi inson bo‘lib ko‘rinadi. Sizning mana shu nigohingiz «ko‘ngil ko‘zi» bilan qarash, ko‘rish deganiga to‘g‘ri keladi. Hamza talqinicha, Vatanni ham aynan onadek ko‘rmoq, uni tanimoq muhimdir. Vatani taqdiriga kuyingan shoir:

Essiz, essiz tug‘gonlaring, ko‘z yumub o‘q otub sani,  
Bog‘lab qo‘ling boyonlara ne oldilar sotub sani, —

deydi. Afsuski, hamma zamonlarda ham yurt boyligini so‘rib, uning bag‘rida yayrab-yashnab, «evaziga» Vatanni «ulgurji sotishga» — uning yuziga oyoq qo‘yishga rozi turadigan kimsalar uchraydi. Bunday kishilar nuqul «Vatan menga nima berdi?» degan noshukur savol bilan tiriklik o‘tkazadilar. Ular shu Vatan taqdiri uchun To‘maris, Shiroq, Amir Temur singari ajdodlarimiz ne-ne qayg‘ularni boshdan o‘tkazganlarini bir zum tanasiga o‘ylab ko‘rmaydilar. Holbuki, yurtning chinakam farzandlari «Men Vatanimga nima berdim, uning obodligi, tinchligi, farovonligi uchun nima qila oldim?!» degan o‘y bilan harakat qiladilar.

Mustaqilligimizni ko‘ra olmagan, O‘zbekistonni yana qaram qilishni istagan zamonamiz «boyonlari» bergen pullarga uchib, Vatan bag‘riga tig‘ sanchmoqchi bo‘lgan turli yurtfurush kimsalar, onda-sonda bo‘lsada, hali ham uchrab turadi. Terroristik guruhlarga qo‘shilib, turli hududlarda it singari sang‘ib yurgan bunday kimsalar Vatan «qo‘llarini bog‘lab», o‘zgalarga sotishdan toymaydigan nokaslardir...

Hamza Vatanni, demakki, o‘zlikni anglash borasida o‘zi singari ziyoli, xalqning ma‘naviy yetakchisi bo‘lmog‘i talab etiladigan kishilar qilmishidan ham rozi emas:

Biluvchilar qo'l tutmadi, bizga sani tonutmadi,  
Bilmam nelarga aldanub tangri buyruqin tutmadi.

Darhaqiqat, olim-u ulamolar, ma'rifat kishilari ommaga Vatan qadrini, uning o'tmishi, bugungi kuni va ertangi kelajagini ta'sirli misollar orqali tanitishlari kerakmi-yo'qmi? Axir farzandlar tug'ilib oq yurt mohiyatini, Vatan qadrini anglab qolmaydilar-ku! Shu munosabat bilan Hamza o'z davri «biluvchilari»ni «tangri buyruqin tutmadi» deya ayblaydi. Endi mavzu boshida aytgan so'zlarimizni eslang — Payg'ambarimizning «Vatanni sevmoq iymondandir» degan hadislarini yodga oling. Demak, Vatan sevgisi har bir insofli inson uchun ham farz, ham qarz ekan-da! Bunga amal qilmaslik og'ir gunoh sanalarkan-da!

Hamza nazarida, Vatan mavqeyini, uning shon-u shavkatini yuksaltirmoq vazifasi zimmasiga tushgan kishi bu ishdan bo'yin tovlasa, Vatan oldida yuzi shuvut bo'lib, qasamidan tongan kimsa holiga tushishi aniq! Shoiring mardligi, jasorati shundaki, bu tavbani u, avvalo, o'zidan boshlaydi, Vatanidan bilib-bilmay qilgan gunohlarini kechmoqligini o'tinadi!

\* \* \*

### DARDIGA DARMON ISTAMAS

(«Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ning  
ikkinchi — «Oq gul» bo'limidan)

**Do'st Mavlon-ey kuyida**

(namuna)

*Men bu yonga kelmas erdim,  
Yora kelturding maniyo!  
O'tga solsa kuymas erdim,  
Yora kuydirding maniyo!  
Do'st Mavlon-ey, ko'nglim olloh sandadur.*

\* \* \*

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,  
Zulmat ichra kechsa umri mohi tobon istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

Ko'nglidur oshuftai lahv-u tarab, nafs-u havo,  
Tilsa zillat xanjari bag'rini Luqmon istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

Qo'lida domi tama', ko'zidadur kayf-u xumor,  
Soch oqorub qaddi xam bo'lsa pushaymon istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

Ilmsizlikdan hama kelgon baloni anglayur,  
Ittifoq-u g'ayrat aylab lek irfon istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

Keldi davri, dushdi osmondan Masihoyi ilm,  
Bu nechuk badmurdalik, jismiga bir jon istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

O'zga millat uchsalar hikmat topub suyi samo,  
Bizni ellar loaqal yet uzra davron istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

O'zgalar etmakda har kun bing sanoi' ixtiro,  
Biz aholi topmoqa beranj bir non istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

Bu na vahshat, na jaholat er, qiz-u pir-u javon,  
Domi g'aflatdin xalos o'lmoqqa imkon istamas,  
Ey Nihon, bing hayf et insoniyat, islomiyat,  
Millati xor o'limg'in hech nomusulmon istamas,  
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.

Hamzaning mazkur she'rige «ochqich» sifatida har bir band oxirida  
naqarot bo'lib qaytarilayotgan mana bu satrga e'tibor bermoq lozim:  
«Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida!»

Turkistonda XX asr boshlarida hukm surgan jaholat, iqtisodiy, siyosiy  
hamda madaniy tanazzul to'g'risida gapirganimiz yodingizdadir. Siz «bu  
gaplar bilan Hamzaning o'z davrini «taraqqiyot asri» deb nomlashi  
o'rtasida nomutanosiblik, ziddiyat bor-ku!» deb e'tiroz bildirishingiz  
mumkin. Aslida shoirni muvozanatdan chiqargan, uni shunday she'rlar  
bilan hayqirishga majbur etgan narsa ham xuddi shunda! Ya'ni aksariyat

Yevropa xalqlari, hatto Turkiya, Hindiston, Yaponiya singari mamlakatlar ham yangi taraqqiyot yo'liga o'tib olgan bir paytda o'z yurtining bunday abgor holda qolayotgani uni mutlaqo qanoatlantirmaydi. Qozonda, Samarqandda, Toshkentda bosib tarqatilayotgan gazetalarni muntazam kuzatib borgan Hamza xorijiy ellarda fan-texnika sohasida erishilayotgan yutuqlardan xabardor edi. Bu yutuqlar o'sha mamlakatlar aholisi turmush darajasini shubhasiz oshirishini, madaniyatini yuksaltirishini ham bilardi. Bugina emas, G'arb davlatlari ayni kashfiyotlar tufayli harbiy jihatdan ham kuchayib borayotgani, bu esa ularning dunyoni qaytadan bo'lib olishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirishiga ham shoirning fahmi yetardi...

Mana shu sharoitda o'z xalqi ahvol-ruhiyasida hukm surayotgan mudroqlik uni sergaklantiradi. She'rda Turkiston elining umumiyligi qiyofasi, portreti shunday chiziladi: «*Qo'lida domi tama*», ko'zidadur *kayf-u xumor*. *Soch ogorub qaddi xam*». Ya'ni odamlar o'rtasidagi barcha munosabatlarga tama aralashgan, biror ish porasiz, to'g'rilikcha hal bo'lmaydi. Kishilar bir-birini aldash, talash, shu yo'l bilan boyib olishni o'zining bosh maqsadiga aylantirib olganlar. Tama domi — qarmog'i bilan ilintirgan «rizq-u nasibasini» tasarruf etib, umrni kayf-u safoda kechirishdan boshqa narsani o'ylamaydi ular. Bu «*kayf-u xumor*»dan xiralashgan, yog' qoplagan ko'zlar nafaqat uzoq manzillarda bo'layotgan ishlarni, balki naqd burnining ostidagi ahvolni ko'rishga-da ojiz...

Ko'p ko'rgiliklar ilmsizlik, ma'rifatsizlik natijasi ekanini biladilar. Bu gapni ko'p-ko'p takrorlaydilar. Turli davralarda, choyxona-yu gapgashtaklarda hamma o'zinikini ma'qullab, boshqalarning og'ziga urishga usta. Shu o'rinda yuqori sinflarda bafurja o'qib-o'rganadigan bir asar, beixtiyor, yodga tushadi. Ko'pchililingiz bu asar asosida tayyorlangan badiiy filmni ko'rganining aniq. Bu — G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi!

Tinib-tinchimas Shum bola aylanib-o'rgilib bir gala bangi-nashavandlar davrasiga tushib qolgani esingizdadir. «Hoji bobo»ning takayxonasida kechgan gap-so'zlarni bir yodga oling-a.

Yevropa kengliklarida bir emas, bir necha yillardan buyon jahon urushi kechmoqda. Butun dunyo shu urush tashvishi, uning voqealari muhokamasi bilan band. Urush keltiradigan zararlar, natijalar, uning kelajakda u yoki bu mamlakat taqdiriga ko'rsatadigan ta'siri o'rganilyapti. Hatto bu urushda o'lgan askarlarning eski etiklari Toshkent bozorlarigacha yetib kelgan...

Takyaxonada, Turkistonning eng yirik shaharlaridan bo'lmish Toshkentda esa «Girmon degan bir pahlavon chiqibdi ermish...» degan cho'pchakvozlik!

Bugun Siz bilan bizga biroz kulgili tuyuladigan bu ahvolni Hamza har kuni, har qadamda ko'rishga majbur edi. Va bu ko'rgan-bilganlari, yuragiga og'riq beruvchi sezgilar uni yana oyoqqa turg'izardi:

Keldi davri, dushdi osmondan Masihoyi ilm,  
Bu nechuk badmurdalik, jismiga bir jon istamas.

«Iso masih» degan iborani eshitgansiz. Olloh Iso payg'ambarga o'likka jon kirgizishdek mo'jizani bergani tufayli ham uni shunday ataydilar. Iso payg'ambar bir odamni qo'li bilan silab uni tiriltirgan.

Hamza nazarida ilm-ma'rifat ham chalajon millatni tiriltiruvchi, qayta oyoqqa qo'yuvechi darmondir. Millat faqat ilm-ma'rifat orqaligina tirik xalqlar qatoriga qo'shilishi mumkin. Afsuski, shoир tur mushda mutlaqo boshqa manzaraning guvohi bo'ladi, bundan fig'oni ko'kka o'rlaydi: «Bu nechuk badmurdalik» deydi u hayqirib. Ya'ni uning qarshisidagi murda oddiy murda emas, balki badmurda — eng yomon, ayniyotgan, jon istamoqqa ojiz holga kelgan narsa...

Boshqa xalqlar samolyotlar ixtiro etib osmonlarda uchayotgan, suvusti va suvosti kemalari yasab okeanlarga egalik qilayotgan bir paytda «Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas».

She'r so'ngida Hamza o'z xalqi, millatdoshlari yuziga achchiq malomatlar aytishdan cho'chib o'tirmaydi. Bu malomatlar ularning so'nik ruhiyatiga ta'sir qilsa, ozgina nafsoniyatini qo'zg'asa qani! Axir o'z millati, xalqi xor bo'l shini musulmonlargina emas, musulmon bo'l imagan kishilar ham hech bir zamonda istamaydi:

Ey Nihon, bing hayf et insoniyat, islomiyat,  
Millati xor o'limg'in hech nomusulmon istamas...

Guvohi bo'layotganingizdek, Hamza butun ongli hayotini, ijodini to'laligicha ona xalqining baxt-saodati, uning barcha jabhalarda ro'yobga chiqishi, dunyo xalqlari orasida hech kimdan kam bo'lmay mag'rur bosh ko'tarib yurishi yo'lida fido etdi. Bunday farzandlarni shu ona xalq hech qachon unutmagay!

## *Savol va topshiriqlar*



1. Hamza Hakimzoda Niyoziy hayotidagi eng muhim voqealar to'g'risida so'zlab bering.
2. Hamza she'rlari bilan aytildigan qanday qo'shiqlarni bilasiz?
3. Hamzaning ma'rifarparvar bo'lib shakllanishiga nimalar sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?
4. Uning qaysi dramatik asarini to'liq tomosha qilgansiz? Taassurotingizni sinfdoshlariningizga gapirib bering.
5. «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi» yaratilishining sababini tushundingizmi? Izohlab bering-chi.
6. Shoirning «Jonlarni jononi Vatan» she'ridagi

*San onai zor ekanda, achingoning hor ekanda,  
O'lmay laxta qonlar to'kub xor bo'lib yurar ekanda, —*

misralarida ifoda etilgan mazmun to'g'risida, bu mazmunni kuchaytirish uchun qo'llangan badiiy usullar haqida gapiring.

7. O'qituvchingiz yordamida sinfdoshlariningiz bilan «Dardiga darmon istamas» she'ridagi mana bu satrlarni keng muhokama qiling:

*Bu na vahshat, na jaholat er, qiz-u pir-u javon,  
Domi g'aflatdin xalos o'lmoqqa imkon istamas.*

8. Hamza she'rlaridan birini yod oling.



## *Erkin VOHIDOV*

*(1936-yilda tug'ilgan)*

Hozirgi zamон milliy adabiyotimizning yirik namoyandasи, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov 1936-yilning 28-dekabridа Farg'onа viloyatining Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tavallud topган. Vohidovlar oilasi 1945-yilda poytaxt Toshkentga ko'chib keldi. Erkinjon avval o'rta mакtabda, so'ng hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetida ta'lim oladi. 1960-yilda o'qishni bitirgach, nashriyotlarda muharrir, bosh muharrir, direktor lavozimlarida ishlaydi, yangi tashkil qilingan «Yoshlik» jurnalining oyoqqa turishiga rahbarlik qiladi.

Erkin Vohidov dastlabki she'rлarini maktabda o'qib yurgan paytdayoq e'lon qila boshlagan, birinchi she'riy to'plami esa «Tong nafasi» nomi bilan 1961-yilda chop etilgandi. Shundan buyon ijodkorning qirqdan ziyod kitobi o'quvchilarga tortiq etildi. Uning she'rлaridan tash-qari «Palatkada yozilgan doston», «Ruhlar isyonи», «Istanbul fojiasi» singari dostonlari, «Donishqishloq latifalari» nomli hajviy turkumi, «Oltin devor» komediyasi, «Shoir-u she'r-u shuur» deb atalgan adabiy-falsafiy to'plami XX asr o'zbek adabiyoti rivojiga katta hissa bo'lib qo'shilgan. Erkin Vohidov dunyo she'riyatining yorqin vakillari S. Yesenin, A. Blok, L. Ukrainka, R. Hamzatov singari shoirlarning ko'plab asarlarini ona tilimizga tarjima qilgan. Ijodkor tomonidan ulug' nemis mutafakkiri Gyotening «Faust» asari o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan o'girilishi esa (1974-yilda) nafaqat adabiyotimiz, balki madaniyatimiz tarixida ham muhim voqeа bo'lib qoldi.

Erkin Vohidov she'riyatning ham barmoq, ham aruz, ham sarbast vaznlarida birdek yuksak saviyada ijod qiladi. Sho'ro adabiyotshunos-

ligida aruz vazni «eskirgan, zamonga javob bera olmay qolgan vazn», deya inkor qilina boshlagan bir paytda Erkin Vohidov «Yoshlik devoni» (1969) kitobini yozgan, undan joy olgan o'nlab go'zal g'azallari bilan bunday da'volarning puch ekanini isbotlagandi. U «O'zbekiston xalq shoiri» degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan ijodkordir.

Darhaqiqat, Erkin Vohidov o'zining butun faoliyati va ijodini xalqimiz orzu-o'ylarini badiiy ifodalash, millatimiz taqdiriga daxldor muammolarni dadil ko'tarib chiqish, kishilarimiz madaniy-estetik saviyasini yuksaltirishdek ezgu maqsadlarga yo'naltirgandir. Bu jihatdan shoirning 1968-yilda yozilgan «O'zbegim» qasidasini alohida e'tiborga molik.

### «O'ZBEGIM» QASIDASI HAQIDA

Sharq mumtoz she'riyatida qasidalar asosan podshohlar, amir-uxonlar sha'niga, ular tomonidan qilingan xayrli ishlarni olqishlash maqsadida bitilardi. Erkin Vohidov esa ona xalqi – O'zbegimga qasida bag'ishlaydi! Bu ijodiy jasorat yana shunisi bilan muhimki, u yozilgan paytlari sobiq sho'ro mamlakatidagi barcha millatlar «soviet xalqi» degan umumiy, sun'iy nom bilan atalar, odamlarning muayyan millat vakili ekani bilan faxrlanishiga mutlaqo yo'l qo'yilmasdi.

Qasida xalqimizning shavkatli tarixiga sayohatdan boshlanadi:

Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o'zbegim,  
Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon, o'zbegim.

So'ylasin Afrosiyob-u so'ylasin O'rxun xati,  
Ko'hna tarix shodasida bitta marjon, o'zbegim.

Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Forob avlodidan,  
Asli nasli balki O'zluq, balki Tarxon, o'zbegim.

Ta'kidlanganidek, bu asar yozilgan paytlarda xalqimiz tarixini to'la va atroflichcha o'rganish, ayniqsa, o'tmishda o'tgan sarkardalar, amirlar va xonlar faoliyatiga xolis baho berish nihoyatda mushkul, xatarli ish edi. Ma'lumki, o'z o'tmishini, ota-bobolari merosini bilish millatga g'urur-iftixor bag'ishlaydi, uni o'zligini tanish, haq-huquqini anglash darajasiga olib chiqadi. Bundan esa sho'ro rahbariyati nihoyatda cho'chir, xalqlar tarixi, jumladan, o'zbek millati o'tmishi faqat qora bo'yoqlarda

aks ettirilardi. O'tmishtga nisbatan «chirkin», «zulmatli», «nursiz», «zararli» singari sifatlar ishlatilar, millatlarni o'z tarixidan bezdirishga harakat qilinardi.

Shu sharoitda Erkin Vohidov o'zbekning «ming asrlar ichra pinhon» tarixini ko'hna Samarqandda saqlanib qolgan Afrosiyob yodgorligidan, Mo'g'uliston va Sibirdagi O'rxun va Enasoy (Yenisey) daryolari qirg'oqlaridan topilgan qadimgi turkiy toshbitiklardan izlash lozimligini aytadi. O'zluq, Tarxon singari to'qson ikki urug'ni o'zida jamlagan o'zbekning Beruniydek, Xorazmiydek, Forobiydek ahli donishlari bu xalqning naqadar ulug'verligidan so'zsiz shahodat ekanini ta'kidlaydi.

Ikki daryo oralig'idagi go'zal ona yurtimiz hamisha bosqinchilarning ko'zini o'ynatgan, uning boyliklariga egalik qilishga da'vogarlar har doim ham topilgan. Yevropadan Sharqqa qonli yurishlar uyushtirgan Rim imperatorlari, yurtimizdagи yuksak madaniyatni vahshiylarcha toptashga uringan Chingizxon va Botuxon bosqinlari bu o'lka boshiga ne-ne ko'rguliklarni solmadi:

Qaysari Rum nayzasidan bag'rida dog' uzra dog',  
Chingiz-u Botu tig'iga ko'ksi qalqon, o'zbegin.

Yog'di to'rt yondin asrlar boshinga tiyri kamon,  
Umri qurban, mulki taroj, yurti vayron, o'zbegin.

Ozodlik va hurlikni har narsadan ustun qo'yadigan, bu yo'lida kurashdan toliqmaydigan xalqimizning yengilmas ruhi uni jamiki talotumlardan omon saqlab keldi. To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur singari mard farzandlar Vatanimiz tuprog'ini yovlardan asrash yo'lida mislsiz qahramonlik ko'rsatdilar. Shoир ko'ngli millatimizning bu tarixiy jasoratidan haqli ravishda g'urur tuyadi:

Davr zulmiga va lekin bir umr bosh egmading,  
Sen — Muqanna, sarbador — sen, erksevar qon, o'zbegin.

O'zbek xalqi dunyo fani, madaniyati, adabiyoti rivojiga beqiyos hissa qo'shgan mutafakkir farzandlari bilan ham dovruq qozongan. 2006-yilda xalqaro miqyosda keng nishonlangan Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yillik yubileyi ham bu fikrning yorqin dalilidir. Shoир Abdulla Oripov, Siz keyingi darslarda o'rganadigan «O'zbekiston»

she'rida, «Dengiz ortin yoritdi ilk bor Beruniyning aql mash'ali» degandi. Chunki ispaniyalik sayyoh Xristofor Kolumb tug'ilishidan bir necha asr ilgari bizning donishmand bobomiz Abu Rayhon Beruniy Yer sharining narigi tomonida katta bir qit'a mayjudligini ilmiy asoslab bergandi. Boshqacha qilib aytganda, Amerikani nazariy jihatdan kashf etgan ham, koinot xaritasini tuzgan ham, insoniyat she'riy tafakkurini eng yuqori bosqichlarga ko'targan ham bizning buyuk ajdodlarimiz hisoblanadi:

Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy jadvalin,  
Sirli osmon toqiga ilk qo'ydi narvon o'zbegin.

Mir Alisher na'rasiga aks sado berdi jahon,  
She'riyat mulkida bo'ldi shoh-u sulton o'zbegin.

Qasida davomida o'tmishimizning yana boshqa ko'plab ibratlari sahifalari varaqlanar ekan, shoir ona xalq tarixini mukammal talqin etmoqqa ojiz ekaniga kamtarlik ila ishora qiladi:

Tarixing bitmakka, xalqim, mingta Firdavsiy kerak,  
Chunki bir bor chekkan ohing mingta doston, o'zbegin.

Shundan so'ng asarda zamonaviy O'zbekiston vasfi boshlanadi. Bilasizki, har yili kuz faslida saxiy yerimiz yil — o'n ikki oy mehnat qilgan dehqonni o'zining ne'matlari ila siylaydi. Bizning yurtimiz paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rnlarda turadi. Agar kuz faslida safarga chiqsangiz ko'rasizki, mamlakatimizdag'i yuzlab paxta tayyorlash punktlarida momiq oq oltindan oppoq tog'lar uyuladi. Shoir bu manzarani quydagicha obrazli ifodalaydi:

Faxr etarman, ona xalqim, ko'kragimni tog' qilib,  
Ko'kragida tog' ko'targan tanti dehqon o'zbegin.

O'zbegin deb keng jahonga ne uchun madh etmayin!  
O'zligim bilmoqqa davrim berdi imkon, o'zbegin.

Yugorida aytganimizdek, sho'ro mafkurasi barchani «ulug' sovet xalqi» ro'yxatiga tirkagan, ijodkorlardan ham asosan mana shu tushuncha to'g'risida hamd-u sanolar bitishni talab etardi. Shoir mana shu qaltis siyosatdan cho'chimay, avvalo o'z xalqiga sodiq farzand bo'lmoqlikni

maqsad qiladi. Rus xalqining Pushkindek, inglizlarning Bayrondek ulug' shoirlarini ham o'ziga muallim deb bilgan ijodkor, Navoiydek mutafakkirga merosxo'r ekanligidan faxr etadi:

Men buyuk yurt o'g'lidurman, men bashar farzandiman,  
Lekin avval senga bo'lsam sodiq o'g'lon, o'zbegim.

Menga Pushkin bir jahon-u, menga Bayron bir jahon,  
Lek Navoiydek bobom bor, ko'ksim osmon, o'zbegim.

Har birimiz shu Vatanda dunyoga ko'z ochgan ekanmiz, ona xalqimiz bizga bergen oq sut va tuzni oqlamog'imiz, uning ravnaqi yo'lida butun kuch-g'ayratimizni sarf etmog'imiz lozim. Vatandan esa shunchaki faxrlanishning, iftixor etmoqning o'zi yetarli emas. Inson shunday yashamog'i kerakki, xalqi undan iftixor etsin, uni tarbiyalab voyaga yetkazganiga rozi bo'lsin. Faqat shundagina inson hayotini, ijodkor umrini mazmunli o'tdi, deb aytish mumkin bo'ladi:

Bu qasidam senga, xalqim, oq sut-u tuz hurmati,  
Erkin o'g'lingman, qabul et, o'zbegim, jon o'zbegim.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Sinfdoshlaringiz bilan Erkin Vohidov hayoti va ijodi to'g'risida savol-javob uyshtiring.
2. Ota-onangiz yordamida Erkin Vohidov she'rlari bilan aytildigani qo'shiqlar ro'yxatini tuzing.
3. «O'zbegim» qasidasida xalqimiz tarixining qaysi sahifalari tilga olinadi?
4. Qasidadagi:

*Sen na zardusht, sen na buddiy, senga na otash, sanam,  
Odamiylik dini birla toza iymon, o'zbegim, —*

satrularini o'qituvchingiz bilan tahlil qilishga harakat qiling.

5. «O'zbegim» qasidasini o'qir ekansiz, undan qanday ma'rifiy oziq olganingizni aytib bering.
6. To'liq qasidani yoki uning biror parchasini yoddan ifodali o'qing.

## QASIDA HAQIDA TUSHUNCHA

**Qasida** – mashhur tarixiy shaxslar va voqealarni madh etuvchi tantanavor uslubdagi she'r. Qasida xuddi g'azaldek qofiyalanadi. O'zbek mumtoz she'riyatida turli hukmdorlar, yirik tarixiy voqealar, tabiat go'zalliklari, hatto ijodkorning o'zi to'g'risidagi qasidalar bitilgan. XV asrda yashab ijod etgan mashhur shoir Sakkokiy ulug' munajjim va temuriy hukmdor Mirzo Ulug'bekni sharaflab to'rtta qasida bitgan.

Alisher Navoiy tomonidan o'zining bolalikdagi do'sti, keyinchalik esa Xuroson sultanati sohibi bo'lgan Husayn Boyqaro sharafiga yozilgan «Hiloliya» qasidasi, shuningdek, «Tuhfatul afkor» («Fikrlar sovg'asi») nomli falsafiy qasidasi adabiyotimiz tarixida mashhurdir. Zamonaviy adabiyotimizda Maqsud Shayxzodaning «Toshkentnomá», Erkin Vohidovning «O'zbegim», Abdulla Oripovning «O'zbekiston» kabi asarlarining yaratilishi qasidachilik o'z doirasiga tobora kengroq mavzularni qamrab olayotganidan dalolat beradi. Erkin Vohidovning «O'zbegim» qasidasini xalqimiz sha'ni va shavkatiga badiiy so'zdan tiklangan muhtasham obida deb baholasak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.





## *Abdulla ORIPOV*

*(1941-yilda tug'ilgan)*

Davlatimiz madhiyasini bilasiz, albatta. Tantanali marosimlarda aytilganini ko'p ko'rgansiz. O'zingiz ham yod olgansiz. Xalqaro mubaqaqlarda sportchimiz g'olib kelib, bayrog'imiz ko'tarilganida, madhiyamiz yangraganini g'urur va iftixor bilan kuzatgansiz. Faqat tantanalarda emas, u bizga doim hamroh. Radio va televide niye har bir kunini mana shu madhiyamiz bilan boshlaydi va u bilan tugatadi. Chunki u – bizning davlatimiz ramzi, mustaqilligimiz ramzidir. U – dunyodagi qanchadan qancha mamlakatlar orasida tengma-teng yashab kela-yotganimiz ramzidir. Mana shu madhiyaning so'zlari muallifini bila-sizmi? Uni yozgan Abdulla Oribov bo'ladi.

Abdulla Oribov – bugungi o'zbek adabiyotining zabardast vakillari dan. Mashhur shoir, tarjimon, jamoat arbobi, O'zbekiston Qahramoni.

Shoir 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyati Koson tumanining Neko'z qishlog'iда tug'ilgan. Otasi Orif bobo ko'pnı ko'rgan, donishmand kishilardan edi. Elda e'tiborli, ko'p yillar rahbar bo'lib kelgan, so'zni topib so'zlaydiganlardan edi. Mustaqillik kunlariga yetishib, o'g'lining shon-shuhratini ko'rib vafot etdi. Onasi Turdi Karvon qizi shoortabiat, xalq adabiyotini nozik his qiluvchi fozila ayollardan edi. Erta vafot etdi. Lekin suyukli o'g'lining birinchi kitobini ko'rib ketdi. Ehtimolki, Abdullaning kelajagini bashorat qilib ketdi. Bu tuyg'ular uning «Onajon» she'ridda juda samimiyl ifodalangan. So'ngroq u shu nomda butun bir kitob ham yozadi.

Bo'lajak shoir Neko'zdagi o'rtta maktabda o'qidi. Ta'lim-tarbiyasida oila muhitining ta'siri katta bo'ldi. To'rt aka-ukaning hammasi adabiyot muxlisi edilar. Kattasi institutni bitirib, maktabda dars berar, ikkitasi oliy

o'quv yurtlarida o'qishar, uyida yaxshi kitoblar ko'p bo'lar edi. She'rga, kitobga mehr Abdullada maktab yoshida paydo bo'ldi. Dastlabki she'rlari o'quvchiligidagi bosildi. Birinchi maslahatchilar akalari va muallimlari bo'ldilar.

Abdulla Oripov 1958-yilda o'rta maktabni oltin medal bilan bitirib, Toshkentga keladi va SAGU (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. 1963-yilda ushbu fakultetning jurnalistika bo'limini tamomlaydi va nashriyotlarda ishlaydi. Birinchi kitobi 1965-yilda «Mitti yulduz» nomi bilan bosilib chiqadi. Bu mitti kitobcha adabiyotimizga katta iste'dod kirib kelayotganini ma'lum qiladi. Yosh shoir she'rlaridagi hech kimnikiga o'xshamagan dard va ohanglar, kutilmagan o'xshatish – manzaralar, dadil xulosalar birdan hammaning diqqatini o'ziga qaratib oladi. Unga o'z davrining eng mashhur adiblari, masalan, Abdulla Qahhor e'tibor bilan qaragan va salohiyatiga yuksak baho bergen edi.

So'ng o'nlab kitoblari bosildi. Buyuk italyan shoiri Dantening «Illohiy komediya» asarini juda katta mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qildi. Amir Temur haqida «Sohibqiron» nomli drama yozdi. O'z asarlari bilan xalqimizning atoqli va ardoqli shoiriga aylandi. Ayni paytda, qanchadan qancha she'rlari xorijiy tillarga tarjima qilindi. Yurtimizdagina emas, chet mamlakatlarda ham dovrug qozondi. Uni XX asr jahon adabiyotining ko'pgina vakillari tan oldilar.

Bugun Abdulla Oripov davrimizning eng mashhur ijodkorlaridan: «O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi» matni muallifi, O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, Oliy Majlis deputati. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat Mukofoti laureati. 1998-yilda shoir va yozuvchilarimiz orasida birinchi bo'lib «O'zbekiston Qahramoni» faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

## O'ZBEKISTON

(*Qasida*)

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,  
Qiyosingni topmadim aslo.  
Shoirlar bor, o'z yurtin butun —  
Olam aro atagan tanho.  
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,  
Qanotida kumush diyori.  
Bir o'lka bor dunyoda biroq,

Bitilmagan dostondir bori:  
Faqat ojiz qalamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Yurmasman hech behishtni izlab,  
Topolmasam chekmasman alam.  
O'tirmasman ertaklar so'zlab,  
Musallo deb yo nmasman qalam.  
Ko'klamingdan olib sururni,  
Dovrug' soldi ustoz Olimjon,  
G'afur G'ulom tuygan g'urumi  
Qilmoq mumkin dunyoga doston.  
Olis tarix qadamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kechmishing bor chindan ham uzoq,  
Ilg'ay olmas barchasin ko'zim.  
Maqtamasman moziyni biroq,  
O'tmishingni o'ylayman bir zum.  
Zabtga olib keng Osiyoni,  
Bir zot chiqdi mag'rur, davongir,  
Ikki asr yarim dunyoni  
Zir qaqshatdi ulug' jahongir.  
Deyman bu kun, u manim, manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'z ketsa zinhor,  
Bir kalom bor gap avvalida.  
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor  
Ko'ragoniy jadvallarida.  
Qotil qo'li qilich soldi mast,  
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.  
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,  
U Ulug'bek ko'zidagi yosh.  
Yerda qolgan, o, tanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'z oldimdan kechar asrlar,  
Ko'z-ko'z etib nuqs-u chiroyin.

Sarson o'tgan necha nasllar  
Topolmasdan tug'ilgan joyin.  
Amerika – sehrli diyor,  
Uxlar edi Kolumb ham hali,  
Dengiz ortin yoritdi ilk bor  
Beruniyning aql mash'ali.  
Kolumbdan bor alamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,  
Hammasiga guvoh – yer osti.  
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro  
Jahongiri kam bo'lar, rosti.  
Besh askrim, nazmiy saroyni  
Titratadi zanjirband bir sher,  
Temur tig'i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher.  
Dunyo bo'ldi chamanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'zladim, ammo  
Bir zot borkim, baridan suyuk:  
Buyuklarga baxsh etgan daho,  
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.  
Sen o'zingsan eng so'nggi nonin  
O'zi yemay o'g'liga tutgan.  
Sen o'zingsan farzandlar shonin  
Asrlardan opichlab o'tgan.  
Ona xalqim, jon-tanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bosh ustingdan o'tdi ko'p zamon,  
O'tdi budda, o'tdi zardushti.  
Har uchragan nokas-u nodon,  
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.  
Seni Chingiz g'azabga to'lib,  
Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.  
Jaloliddin samani bo'lib

Sakrab o'tding Amudaryodan.  
Sensan o'shal samanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Toleyingda bor ekan yashash,  
Goh qon ichding, gohida sharob.  
Bo'lmay turib, yurtim, xomtalash,  
Bosh ustingga keldi inqilob.  
Chora istab jang maydonidan  
Samolarga uchdi unlaring.  
Shahidlarning qirmiz qonidan  
Alvon bo'ldi qora tunlaring.  
Qonga to'ldi kafanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Tinch turarmi bu ko'hna olam,  
Tinch turarmi dog'uli zamon.  
Oromingni buzdi sening ham  
Fashist degan vahshiy olomon.  
Qonim oqdi Dansigda manim,  
Sobir Rahim yiqilgan chog'da.  
Lekin, yurtim, kezolmas g'anim  
O'zbekiston atalgan bog'da.  
Sen-ku nomus va sha'nim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kech kuz edi, men seni ko'rdim,  
Derazamdan boqardi birov.  
U sen eding, o, dehqon yurtim,  
Turar eding yalangto'sh, yayov.  
— Tashqarida izillar yomg'ir,  
Kir, bobojon, yayragil biroz.  
Deding: — Paxtam qoldi-ku axir,  
Yig'ishtiray kelmasdan ayoz.  
Ketding, umri mahzanim manim...  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Sen ketarsan balki yiroqqa,  
Farg'onada balki balqarsan.

Balki chiqib oqargan toqqa,  
Cho'pon bo'lib gulxan yoqarsan.  
Balki ustoz Oybekdek to'lib  
Yozajaksan yangi bir doston.  
Balki Habib Abdulla bo'lib,  
Sahrolarda ochajaksan kon.  
Tuprog'i zar, ma'danim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,  
Fazolarga qo'ysang ham qadam,  
O'zligingni unutma aslo,  
Unutma hech, onajon o'lkam.  
Bir o'g'lingdek men ham shu zamon  
Kechmishingni qildim tomosha.  
Iqbolingni ko'roldim ayon  
Yillar osha, kengliklar osha.  
Iqboli hur, sho'x-sha'nim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,  
Zavol bilmas shu yoshing bilan.  
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam  
Do'st-u yoring, qardoshing bilan.  
Asrlarning silsilasida  
Boqiy turgay koshonang sening,  
Hur xalqlarning oilasida  
Mangu yorug' peshonang sening.  
Mangu yorug' maskanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

### «O'ZBEKISTON» QASIDASI HAQIDA

Qasida hajman salmoqli, har biri 10 satrlik 14 banddan iborat. Jami – 140 satr. Banddag'i toq va juft satrlar o'zaro qofiyalanib keladi. Har bandning so'nggi bayti bir-biri bilan qofiyalanadi. She'r g'oyat muhim mavzuga – ona Vatanimiz sha'niga bag'ishlangan. Xo'sh, shoir Vatandek muqaddas mavzuni qanday yoritadi? Uning bu haqda aytadigan yangi gapi bormi?

Birgalikda ko'raylik.

Mana, shoir yurti haqida she'r bitmoqchi. Uni dunyoning eng go'zal maskanlariga qiyoslab ko'rsatmoqchi. Yo'q, unday joy yo'q ekan. Hatto behishtni ham unga o'xshatib bo'lmaydi. Bu yurt — beqiyos. U — bitilmagan doston. Uni ta'rif qilmoqqa qalam ojizlik qiladi. Har bir band «O'zbekiston, Vatanim manim!» degan g'ururbaxsh satr bilan yakunlanadi. Shuni aytish kerakki, bu fikrlar 1968-yilda aytilgan edi. U paytlari «SSSR — bizning Vatanimiz!» degan soxta shior million-million insonlar ongiga singdirilgan edi. Abdulla Oripov shunday bir sharoitda «O'zbekiston — Vatanim manim!» deb chiqdi. Bu jasorat edi.

She'mi ko'rishda davom etamiz. Ha, bu yurtning o'xhashi yo'q. Ustoz Hamid Olimjon bu yurtning ko'klamini qalamga olgan edi — dovrug'i olamga yoyildi. Uning yurti shunchalar go'zal, shunchalar sehrli.

Tarixi-chi?! Tarixi ham sharaflarga burkangan tarixdir. Shoir yurtining kechmishiga nazar tashlaydi. Olis tarix qa'ridagi buyuk ajdodlarni ko'radi. Ana, yarim dunyoni zabit etib, ulug' saltanat o'rnatgan sohibqiron. Beriroqda, 1018 yulduzni aniqlab bergen, «osmon ilmi»ni yaratib ketgan nabirasi — Ulug'bek.

Shoir xayolidan asrlar «nuqs-u chiroyini ko'z-ko'z etib» o'tadilar. Ana, muallif bir zot ustida to'xtab qoldi. U — Beruniy! Ming yil oldingi kashfiyotlari bilan hali-hanuz dunyoni hayratga solib keladigan buyuk ajdodimiz. U Xristofor Kolumbdan salkam besh yuz yil oldin Amerika qit'asini bashorat qilgan edi. Hind okeani sohillarida uzoq tekshirishlar olib borib, bu suvlarning olis bir materikdan qaytishini taxmin etgan edi. Va bu Amerika bo'lib chiqdi. Uning kashf etilishi shuhrati esa, Kolumbga o'tib ketdi. Shoirning Kolumbdha alami borligi shundan.

Vatan tarixida yana bir porloq siymo borki, uni chetlab o'tib bo'lmaydi. Bu — Navoiy. Bu ko'hna dunyo juda ko'p jahongirlarni ko'rdi. Lekin so'z mulkinining jahongirlari kam keldilar. Alisher Navoiy dunyoni o'z qalami bilan zabit etgan va dunyoni chamanzorga aylantirgan siymo edi. Bular bilan faxrlanmaslik mumkinmi?!

Bu buyuk shaxsiyatlarning yaratuvchisi «baridan buyuk», «baridan suyuk» xalqdir. Shoir keyingi bandlarda mana shu buyuk va suyuk ona xalqining timsolini yaratadi. Bunday buyuk farzandlarni jahonga yetkazib bergen, ularning shon-sharafini asrlardan asrlarga olib o'tgan mana shu xalqdir. Uning birinchi fazilati farzandlariga bo'lgan cheksiz mehridir. O'Imas-yitmasligidir. Shoir xalq tarixiga shu jihatdan bir nazar tashlaydi. Ko'z oldimizda xalqimizning o'tda kuymas, suvda cho'kmas timsoli paydo bo'ladi.

Kimlar uning tepasiga ot o'ynatib kelmadilar. Dovrug'ingga hasad qilib Chingiz keldi. Seni dunyodan yo'qotmoq qasdi bilan keldi. Jaloliddin samani bo'lib, daryodan sakrab o'tding, omon qolding. So'ng inqilob keldi. U ham ofat edi. Chora istab faryod qilding. Shahidlarning qirmiz qonidan qora tunlaring alvon bo'lди. So'ng fashist keldi. Yana qonlaring ogди. Lekin sen o'lmading, o'chmading. Seni hech qanday dushman yo'qota olmadи. Yondirib kultepaga aylantirilgan Vatan xarobalari ostidan har gal afsonaviy samandardek chiqib kelaverding. Shu tariqa Vatan va Millat tushunchasi biri-biriga o'tib, biri-birini to'ldirib boraveradi. Darhaqiqat, o'zbek degani bu O'zbekistondir, O'zbekiston deganda esa o'zbek ko'z oldimizga keladi.

Bu yurtning mehnatkashligi-chi?

Shoir bir farzand sifatida unga iqbol, porloq istiqbol tilaydi. Birgina o'tinchi bor, o'zligini unutmasa – bo'lgani.

Qasida ona yurtni baland pardalarda madh etuvchi satrlar bilan yakun topadi.

Bu she'r yana bir mashhur shoirimiz Erkin Vohidovning o'tgan darslarda o'rganganimiz «O'zbegim» qasidasini bilan deyarli bir vaqtda yozildi va ikkala asar xalqimizning o'zligini anglashida sezilarli rol o'yadi.

### *Savol va topshiriqlar*

1. Abdulla Oripovning hayot yo'li haqida so'zlab bering.
2. Shoirning qanday asarlarini bilasiz?
3. O'zbekiston Davlat madhiyasi so'zlarini yoddan aytib, tushuntirib bera olasizmi?
4. «O'zbekiston» qasidasida nima haqda gap ketadi? Sizda u qanday taassurot qoldirdi?
5. «O'zbekiston, Vatanim manim!» satrining asar yozilgan davr uchun bo'lgan ahamiyatini qanday tushunasiz?
6. Shoir ona Vatan tarixi haqida so'z yuritganida qaysi siymolar haqida to'xtab o'tishni lozim ko'radi va nima uchun?
7. Qasidadagi Ulug'bek bandini qanday sharhlaysiz?
8. Beruniy bandida shoir nimalarga diqqatimizni qaratadi?
9. Qasidada xalq va Vatan tarixi bir-birini qay darajada to'ldirib boradi, bu haqda nimalar deya olasiz?
10. XX asrning 60-yillarda o'zbek adabiyotida mazkur qasidani esga soladigan yana qanday asarni bilasiz? Ularning o'xshash va farqli tomonlari haqida nimalar deya olasiz?
11. Qasidaning o'zingizga yoqqan bandlarini yod oling va «O'zbekiston, Vatanim manim!» mavzusida uy inshosi tayyorlang.



## O'Imas UMARBEKOV

(1934 – 1994)

O'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri O'Imas Umarbekov 1934-yil 25-yanvarda Toshkent shahrida tug'ilgan. Mirobod mavzeyidagi buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy asos solgan 40-maktabda o'qigan. Maktabni a'lo baholarga, oltin medal bilan bitirib, O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakultetiga o'qishga kirgan. 1956-yili oliy tahsilni tugatmasidanoq respublika radiosiga ishga kirib, bu yerda avval muharrir, so'ng bosh muharrir lavozimida o'n besh yil ishlagan. So'ng turli rahbarlik lavozimlarida, jumladan, «O'zbekfilm» kinostudiyasida, Madaniyat vazirligida, Vazirlar Mahkamasida xizmat qilgan.

O'. Umarbekovning hikoyalardan iborat ilk to'plami 1958-yili nashr etilgan. Shundan so'ng o'tgan 35 yillik ijodi davomida «Xatingni kutaman», «Yurak so'zları», «Boboyong'oq», «Menga ishonmaysanmi?», «Yulduzlar», «Hayot abadiy», «Charos», «Ko'prik», «Bolgar qo'shiqlari», «Oltin yaproqlar», «Qiyomat qarz», «Yer yonganda» kabi o'nlab hikoyalar va qissalar to'plamlari e'lon qilindi. Yozuvchining 1963-yili chop etilgan «Sevgim, sevgilim» nomli qissasi buyuk adib Abdulla Qahhor tomonidan yuksak baholanib, yosh ijodkorning keyingi faoliyati uchun katta ruhiy madad beradi. U birin-ketin «Kimning tashvishi yo'q», «Urush farzandi», «Yoz yomg'iri», «Jo'ra qishloq», «Oq qaldirg'och», «Damir Usmonovning ikki bahori» kabi qissalarini yozib chop ettiradi. Badiiy adabiyotning murakkab janrlaridan bo'lgan romanavislikka qo'l urib, 1970-yili «Odam bo'lish qiyin» romanini e'lon qiladi. Bu roman o'z vaqtida yoshlар o'rtasida nihoyatda sevib o'qilgan, qizg'in bahs-u

munozaralarga sabab bo'lgan edi. Shundan so'ng O'. Umarbekov nasriy asarlar yozish bilan birga sahna va kino uchun pyesalar hamda kinossenariylar yaratish sohasida ham o'z iqtidorini sinab ko'ra boshlaydi. 70–80-yillar uning teatr va kino uchun asarlar yozish borasidagi izlanishlarida eng barakali davr bo'ldi. Dastlabki «Oqar suvlar» pyesasi hozirgi Abror Hidoyatov nomidagi Yoshlar drama teatrida va turli viloyat teatrlarida sahnalaشتiriladi. Shundan so'ng uning «Sud», «Yoshlik dengizi», «Komissiya», «Qiyomat qarz», «Kuzning birinchi kuni», «Shoshma, quyosh», «O'z arizasiga ko'ra», «Kurort», «Yer yonganda» pyesalari dunyo yuzini ko'radi. Bularning aksariyati Hamza nomidagi (hozirgi Milliy) akademik drama teatrda qo'yiladi va uzoq vaqt sahnadan tushmay, tomoshabinlar mehrini qozonadi. Bu pyesalar asosidagi spektakllarda o'zbek teatr san'atining ulkan namoyandalari Shukur Burhonov, Sora Eshonto'rayeva, Nabi Rahimov hamda Zikir Muhammadjonov, To'ychi Oripov, Turg'un Azizov, Rixsi Ibrohimova kabi san'atkorlar yetakchi rollarni ijro etadilar.

O'Imas Umarbekovning kino sohasidagi ijodiy ishlari ham e'tiborga loyiq. Uning kinossenariylari asosida «Yigit va qiz», «Asosiy kun», «Ikki soldat haqida qissa», «O'zgalarni deb», «Qalin qorlar bag'ridagi uchrashtuv», «Changalzordagi ov» kabi qator badiiy filmlar suratga olingan.

Yozuvchining adabiyot va san'at sohasidagi sermahsul ijodi e'tiborga olinib, u turli davrlarda Yoshlar mukofotiga, Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. 1994-yili 50 yillik tavallud sanasi munosabati bilan «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi» unvoni, 1992-yili «O'zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

O'. Umarbekov 90-yillarning boshlarida og'ir xastalikka duchor bo'ldi. Biroq shunga qaramay, ijod bilan shug'ullanishga o'zida kuch-g'ayrat va ishtiyoq topa bildi. Uning «Oqsoqol» pyesasi, «Fotima va Zuhra» romanı, «Qizimga maktublar» asari, yana qator hikoyalari ana shu kasallik davrida yaratilgan asarlardir.

O'Imas Umarbekov 1994-yil 10-noyabrda uzoq davom etgan kasallikdan so'ng 60 yoshida vafot etdi.

### QIZIMGA MAKTUBLAR

#### Mangu dunyo bo'sag'asida

*Bu dunyoga kelganlarning, albatta, ketmog'i bor. Kimdir bir kun oldin, kimdir bir kun keyin... Ketadi-yu, qaytmaydi. Mangu dunyo abadiy uni o'z quchog'iga oladi.*

*Ketmog'i yaqin qolganini kishi sezganda cho'chimaydi, ammo turli o'ylar qurshoviga tushadi, kechgan, kechirganlarini eslaydi, olis, yaqin odamlar ko'z oldidan o'tadi.*

*Men bilan ham shunday bo'ldi. Kasalxonada yotarkanman, vaqtim, irodam yetganicha, ko'nglim ko'targanicha o'ylarga, xotiralarga berilib ketib, shularni yozdim.*

Umida! Qizim...

28-oktabr, 1993-yil. O'n kun davom etgan tekshirish, o'rganish-lardan so'ng qandaydir aniqlik paydo bo'ldi. Davolovchi vrach Tatyana Dmitriyevna kelib, qo'limni siqdi.

— Kasalingiz biz xavotir olganchalik ildiz otmagan ekan. Nafas atrofidan boshqa hamma a'zolaringiz sog'. Kasal nafas yo'llariga o'tmagan. Bir-ikki kun ichida konsilium qilamiz. Radiologlar, bosh xirurg, direktor bilan maslahatlashamiz. Menimcha, sizni avval davolashimiz, keyin operatsiya qilib, kasallikni olib tashlashimiz kerak.

Istarasi issiq, nigohi samimi shifokorning bu so'zlaridan quvonib ketdim. Vujudim ilib, kayfiyatim ko'tarildi. Minnatdorchilik bildirib, telefonga yugurdim. Tekshirish natijalaridan Zuhra qisman xabardor bo'lsa ham o'zimning og'zimdan xushxabarni eshitgani ma'qul edi.

Qiynalib gapirsam ham Zuhra meni angladi, shu zahoti, xuddi men kabi u ham o'zgarib ketdi. Yozning boshlaridan beri birinchi marta uning ovozida sevinch ohanglari paydo bo'lganini sezdim. Telefonni yorib yuborguday bo'lib, hozir yetib boraman, dedi. Boshim osmonda edi. Xudoga shukur. Demak, bir qancha vaqt tomog'imni radiatsiya nur-lari bilan davolashadi. Toshkentda o'n marta nurlanganimda shu ishlar birmuncha kamaygan edi. Kasalim tarixida yozilgan. Kim biladi, balki bu yerda shuni e'tiborga olishdimikan? Konsiliumda ham shunday qarorga kelishsa, o'zimni baxtli hisoblardim. Taxminan bir oy, bir yarim oydan so'ng uyga qaytishim mumkin. Qizim, seni ko'raman, ukalarim, do'st-birodarlarimni ko'raman. Umida, seni juda sog'indim. Deyarli har kecha qo'ng'iroqdek ovozingni eshitgandek bo'laman. Ko'z oldimda o'zing paydo bo'lib, ko'zlarining yonib: «Ada! Keldim!» — deysan-da, yonimga kelib, yuzimdan o'pgandek bo'lsan. Ko'p emas, atigi ikki haftadan beri Moskvada bo'lsam ham, har kuni sening o'qishdan qaytayotgan payting, o'z kaliting bilan darvoza-eshikni sharaqlatib ochishing, shaxdam qadamlar bilan taq-tuq, taq-tuq qilib ayvonga ko'tarilishing

ko'z oldimdan o'tadi. «Ada! Men keldim!...» Qizim, jonim, seni yana ko'radigan bo'ldim. Orzum eson-omon uya qaytmoq edi, niyatimga yetadiganga o'xshayman. Xudo xohlasa, marhamat qilsa, bir oy, bir yarim oylardan so'ng tuzalib qaytaman...

\* \* \*

Mening bir hikoyalari va qissalar kitobim bor. Unga «Oq qaldirg'och» deb nom qo'yganman. Oltmishinchi yillarning oxirlarida Bulg'oriyada bo'lganimda bulg'or adabiyotining mashhur, el orasida katta obro'ga ega klassik yozuvchisi Emin Pelikning shu nomdagi hikoyasini o'qigan edim. Hikoya katta emas. Masmuni shunday. Bir dehqon bug'doy pishig'i mahali dalaga, o'rimga ketayotganida bo'yiga yetgan qizi ham unga ergashadi. Hamma o'rtoqlarim ketishyapti, meni ham olib boring, deb otasidan iltimos qiladi. Ota rozi bo'ladi. Yoz. Kun issiq. Qiz dalada bir daraxtning ostida o'rimdan charchab dam olgani yotadi va uxbab qoladi. Uyqusida ko'kragi muz bo'lib ketayotganini sezadi. Cho'chib uyg'onib qarasa, ko'krak ustida kulcha bo'lib, ilon yotgan emish. Dod solib, qiz uni uloqtiradi. Hamma uning ovozini eshitib, yugurib keladi. Qiz bo'lgan voqeani aytib beradi. Shu kundan boshlab u kasalga chalinib qoladi: ovqatlanmaydi, uxlamaydi, ko'ngli ag'dariladigan bo'lib qoladi.

Ota-oni hamma yaqin oradagi shifokorlarga, tabiblarga ko'rsatishadi. Ammo qiz tuzalmaydi. Kimdir ularga qizingiz oq qaldirg'ochni ko'rishi kerak, shunda tuzaladi, deb maslahat beradi. Erxotin aravaga qizlarini yotqizib, oq qaldirg'och qidirib ketishadi. Ular telegraf ustunlariga tortilgan simyog'ochlar ostida qishloqma-qishloq, shaharma-shahar uzoq kezishadi, oq qaldirg'ochni topishga qizlarini ishontirishadi. Qiz shu ishonch bilan yashaydi. Umid bilan simyog'ochlarga, osmonga tikiladi.

Tatyana Dmitriyevna o'z hamkasbleri bilan menga shunday ishonch berishdi. Nurlanish, komyoviy terapiya bundan bu yog'iga mening oq qaldirg'ochim. Men uni topaman, uni ko'raman. Zora bu go'zal, beozor qush menga ham Xudoning shifosini olib kelsa?!

Ikkinci qaldirg'ochim – jonioidan ham aziz qizim Umida. Uning uchun yashashga intildim, hamma xayolim, quvvatimni jamlab, sihatimni yaxshilashda shifokorlarga yordam berishim kerak.

Moskvaga jo'nayotgan kunimiz Umida bilan xayrlashuvim ko'z oldimdan ketmaydi. Erta turib kiyinayotganimda u oldimga keldi. Bo'ynimdan

quchoqlab yuzini yuzimga qo'ydi. Sezib turibman, maktabga borgisi yo'q. Ikki-uch kundan beri u litseyga o'tgan edi, o'qishdan qolishi kerak emas. Shuning uchun qattiq bag'rimga bosdim, o'qishdan qolishiga, samolyotgacha meni ukam, singlim bilan birga kuzatib qo'yishiga zarurat yo'q. Keyin u ham eziladi, men ham. Oddiygina xayrashgan ma'qul.

— Nima olib kelay Moskvadan? — so'radim uni qo'yib yuborib. Shu bilan shunday xayrashganim kifoya, degandek bo'ldim. U aqli qiz — tushundi. Jilmayib:

- Hech narsa. Tuzalib qaytsangiz bo'ldi, ada, — dedi.
- Albatta qaytaman.

Shunday deb yelkasiga bir-ikki qoqib qo'ydim. U ohista yurib, o'z xonasiga o'tdi. Portfelini olib, ayvondan tushayotganda, orqasiga qaytdi:

— Xayr, ada! Mendan xavotir olmang! Sog'ayib keling! Men qo'limni silkitdim.

Oxirgi ko'rishganimiz shu. Oxirgi deyapman-u, uni yana ko'rishimga, hali ko'p u bilan birga bo'lishimga ishonaman. O'z oyog'im bilan uyga kirib boraman, bag'rimga bosib, issiq peshanasidan o'paman. Zuhra telefonda u bilan gaplashib turibdi. Har gal gaplashib kelganida undan salom aytadi. O'qishlari yaxshi emish. Ingliz tilidan, matematika, fizikadan besh baho olayotgan emish.

Umida, jonio qizim! Yaxshiyam Xudo bizga seni berdi.

Opang<sup>1</sup> kabi men uchun ham eng aziz, eng qimmatli, eng shirin va shakar odamsan. Sening baxtli bo'lishingni qanchalik istashimni bilsang edi! Omon bo'l, qizim. Barcha orzularingga yet. Men har kuni Xudodan opang bilan sening baxtingni so'rayman. Uzoq umr ko'rishingni, niyatlaringga yetishingni so'rayman. Har qanday balo-qazolardan seni asrashini, sendan, opang, ammalaring, Akmal akangdan marhamatini ayamasligini so'rayman. Arzandam, yolg'izim, agar ba'zida seni urishgan bo'lsam, kechir. Faqat yaxshi niyatda shunday qilganman. Seni yaxshi ko'rishimni, hech kimga ishonmastligimni yaxshi bilasan. Qizim, agar taqdir taqozosi bilan endi ko'rishmay qolsak, opangni ehtiyyot qil. Bechora opang men bilan ko'p azob chekdi. Sen uni hurmat qil. Yolg'izlatib qo'yma. Qattiq gapirma, yaxshi gapingni ayama. Iloji bo'lsa doim birga tur. Qizim, hayotingga gard yuqmasin, baxtli bo'l. Omon bo'l, farishtam, arzandam!..

<sup>1</sup> Toshkent shevasida onani «opa» ham deyishadi.

\* \* \*

O'zbekistonim, sevikli yurtim! Ne-ne jafolar sening boshingga, farzandlaring boshiga tushmadi?! Shaharlaring, qishloqlaring dushmanlar oyog'i ostida necha bor toptaldi, yondi, farzandlaring qirildi, qul qilib sotildi. Sen baribir qad ko'tarding, kul bo'lgan shahar, qishloqlaring qaytadan bunyod bo'ldi, husniga husn qo'shildi. Elimiz, yerimiz dong'ini jahonga taratgan yigit-qizlaring seni kaftilariga ko'tardilar. Kimni aytay? Bobolarimiz Temur, Ulug'bek, Bobur Mirzolarnimi? Momolarimiz Zebunniso, Nodira, Uvaysiyarlarnimi? Ahmad Yassaviy, Beruniy, Xorazmiylarnimi? Cho'lpon, Botu, Avloniy, Qodiriyarlarnimi? Usmon Nosir, Oybek, G'afur G'ulomlarnimi? Sen yana yashnab ketasan, seni bo'stonga aylantirayotgan xalqing hech kam bo'lmaydi. Sen davr suradigan zamon keldi. Shu zamonni, mustaqil hayot zaminini ko'rayotganlarga men chin yurakdan zafar, omad tilayman. Nasib etsa oz bo'lsa ham ularga qo'limdan kelganicha yordam beraman.

Yurtim, O'zbekistonim, qadrdon, tug'ishgan elim! Cho'chima! Sen tarix ko'rgansan, ba'zilar chipta kovush kiyib yurganlarida, sen charm etik, zar to'nda yurgansan, shaharlar ko'rgansan. Muhimi, yo'q bo'lib ketganining yo'q — borsan, hayotsan! Davlat ko'rgan xalq xor bo'lmaydi. O'z yo'llini topadi. Avlod-avlod bolalaring rohatini ko'rasan. Yillar keladi, hozir senga shart qo'yayotganlar o'z shartlaridan qaytib, senga do'stlik taklif qiladilar, hech qanday shartsiz, g'urur va kiborsiz. Xudo o'zi yor bo'lsin senga!

\* \* \*

Qog'ozlarni oldimga qo'yib, qo'limga qalam oldim. Fikrlarim ravshan, ko'nglim tinch. Shundan bo'lsa kerak, eng avvalo qizimni o'ylab ketdim. Kecha tug'ilgan kuniga birinchi marta hech narsa sovg'a qilmadim. Opasi Moskvadan jo'natgan narsalar o'z yo'liga. Men o'z qo'lim bilan unga biron narsa olib berishim kerak edi. Darvoqe, esimga tushdi. Moskvaga jo'-nayotganimda unga yangi avtomat ruchka va shunday avtomat qalam berdim. Mabodo tug'ilgan kuninggacha qaytmasam, dedim. Og'zi qulog'iga yetib jilmaydi. O'zingiz ishlating, dedi. Men javob bermay, boshidan o'pdim.

Shularni o'ylab ketib, uning bolaligida bergen bir savoli esimga tushdi. Ada, buvam, buvimlar haqida, o'zingizning bolalicingiz, opamlar haqida gapirib bering, hech narsa bilmayman, deb so'ragan edi u. O'shanda xo'p, deb kulib qo'ya qolgan edim. Shunchalik uyda kam

bo'lardim, o'tmishni eslashga vaqt bormidi u paytlari? Mana endi nazarimda shunday vaqt keldi. Albatta, qizimni yonimga o'tqazib, gapirib berish imkoniyatidan hech xayolga kelmagan kasallik oqibatida mahrumman – ovozim yo'q. Davolanishdan bo'sh vaqtlarim faqat yozishim mumkin. Ammo kimyoviy dori, nurlanish boshni aylantirib, ko'ngilni ag'darar ekan, lohas qilib, anchagina bo'shashtirib qo'yar ekan. O'zimga kelgan daqiqalarda, davolanish bo'limgan kunlari o'tmishdan esimga tushganlarni, mayli, yozay. Shu mendan qizimga esdalik bo'lsin. Bobosi, buvisining hayotlari bilan, opasi va mening yoshligim bilan oz bo'lsa ham tanishsin. Bafurja yozishga ko'zim yetmayapti. Sezishimcha, vaqtim kam, keyin uzoq yillarni qayta eslashga sharoit yo'q. Ammo qo'limdan kelganicha urinib ko'raman. Ammo yozganlarimni hozir jo'nataman. Tuzalib ketsam, o'zim olib borib qo'liga beraman. Tuzalmasam... opasi – Zuhra olib ketadi...

Umida, qizim, Seni o'ylab yozayapman. O'qi, ota-bobolaring kimligi bilan tanish.

Men asli toshkentlikman. Hovlimiz Toshkentning hozirgi «Rossiya» mehmonxonasi bilan vokzalga boradigan tramvay yo'li o'rtaida bo'lgan. Men shu yerda tug'ilganman. Hovlimiz katta, yigirma sotixcha kelardi, bundan tashqari olti sotix atrofida boloxonali molxonamiz ham bor edi. Molxonaga alohida eshikdan kirilardi, ko'zga uncha tashlanmasdi.

O'sha paytlari bizning hovlimizdan Mirobod mahallasining shimal tomoni boshlangan.

\* \* \*

Shimoldan pastga qarab ketgan, ketma-ket tushgan uylarda asosan qarindoshlarimiz yashashardi. Ulardan keyin rus qo'ralari boshlanardi.

Bobong – mening otam Rahimbek akaning uch akasi va bir opasi borligini bilaman. Dadamning eng katta akalari Karimbek polvonni ko'rmaganman. Aytishlariga qaraganda baland bo'yli, yelkador, juda kelishmagan odam bo'lgan. U kishining o'g'li Turg'unbek akani ko'p ko'rganman, ko'p u bilan birga bo'lganman. Baland bo'yli, mo'ylovdor, ovozi uyni titratadigan odam edi. Unga qiyos qilsa, albatta otasi, Karimbek polvon ham shunday odam bo'lgan.

Dadamning undan keyingi akasi Bobobek polvon edi. Esingdami, opang juda ko'p marta Chilonzorda yashaydigan Rahima ammangga telefon qilardi, unga zarur dorilar topib berib turardi. Bobobek polvon ana shu Rahima ammangning adasi, men uni es-es bilaman. Urushdan

oldin qazo qilib ketgan. Uni ko'mish marosimi ham esimda. Odam juda ko'p bo'lgan, Toshkentdag'i polvonlar, aytishlaricha, Farg'ona vodiysisidagi polvonlar ham u bilan vidolashgani kelishgan.

Hakim polvon dadamning eng kichik akasi edi. Dadam, Bobobek amakimdan u keskin farq qilardi. Ko'kko'z edi. Bundan tashqari dadam katta amakimlardek to'la emas, baland bo'yli, qotma edi. Lekin undan ham toshkentlik ko'p polvonlar yiqilishgan, deb aytishardi. Amakilarim, dadamning biron marta ham kurash tushganini ko'rmangan. Lekin aytishlaricha, Parkent, Piskent, Bo'ka, Toshkentning o'zida anchagina obro'ga ega bo'lgan polvonlardan ekan. iiklarini ko'p eshitganman. Uyda moddiy taqchillik yuz berib qolsa, ular juma kunlari kurashga borib, etak-etak pul ishlab kelishar ekan.

Zulfiya ammam Bobobek amakimdan kichik. Hakim amakim va dadamlardan katta edi. U kishi ham xuddi aka-ukalari singari baland bo'yli, qirra burun, baquvvat, polvonsifat ayol edi. Ko'zlar ham bo'ybastiga yarasha yirik edi. Biz bolalar nojo'ya ish qilib qo'ysak, u bir olayib qarasa, tiraqaylab har chekkaga qochib ketardik. Ammam bir qarashda dag'al, qo'pol ko'rinsalar ham, dillari bo'sh, salga ko'zlar namlanadigan, ammo tez o'zlarini tutib oladigan ayol edilar. Katta va kenja o'g'llari bilan qo'sh hovlili uch hovli uyda turardilar. O'rtancha o'g'llari Mirobid aka o'qituvchi, hozirgi «Paxtakor» stadioni tushgan Egarchi mahallada yashardi. Mirobod bozorda qarichilik sababli sabzavot sotib kun o'tkazadigan Yakkasaroy mahallasining obro'li keksalaridan, qarindoshimiz To'laganbek amakimning qizlariga uylangan edi. Dadam qarindoshlari Egarchi, O'qli va Mirobod mahallalarida, oyimning avlodlari esa Tezikov bozorining orqasi Yakkasaroya tutash Damariq, Qushbegi, Qumariq mahallalarida uzoq-uzoq davrlardan beri hovli-joy qilib kelishardi.

Katta amakim bilan ammamning nima ish bilan shug'ullanishgani, tirikchiliklari qanday o'tganini yaxshi bilmayman. Ammo Hakimbek amakim mol-mulki ajratib olinib, qulq qilingani, Ukrainianing Nikolayev shahrida o'n yilcha bo'lganini bilaman. Amakimning o'zlarini aytib berardilar. Bitta ko'rpa, ikkita yostiq, tunuka choynak bilan to'rtta piyolani qo'llariga tutqazib, vokzalga haydashgan. Xotinlari, katta o'g'llari Yusufbek, ikkita qizlari bilan qizil yuk vagonda Ukrainianaga jo'nab ketganlar.

Amakim ruscha, ukraincha yaxshi gapirardi. Surgunda albatta ancha qiynalgan. Lekin uning baxtiga Nikolayev shahrining ob-havosi

Toshkentnikiga o'xshar ekan. Tezda ko'nikib, avval bitta chayla, keyin bir xonali lo'mboz uy qurib olgan. U ukrainlarni juda hurmat qilardi. Uni yolg'izlatib qo'yishmaganini, kechalari sut, yog', non olib kelib, undan xabar olib turishganini ko'p gapirardi.

Amakim o'zi yaxshigina dehqon edi. U yerda yeryong'oq, qovun, tarvuz, jo'xori ekib, ikki-uch yil ichida ancha o'zini eplab olibdi. O'ttiz to'qqizinchi yili uni yurtiga qaytishiga ruxsat berishibdi. Qizim, Muzrob akang shu Hakimbek amakimning o'g'li. Biz u bilan tengdoshmiz. Ikki yoshgina mendan katta bo'lsa kerak.

Ona yurtlariga qaytib kelib, amakim turli joylarda eng oddiy ishlarda ishlaganlar, aravakashlik, qorovullik qilganlar. U kishi dunyodagi siyosiy ahvol, davlat arboblarining qilayotgan ishlari haqida gapirishni yaxshi ko'rardilar. Ammo faqat dadam, oyimgilar bilan gaplashardilar. Boshqalar bilan gaplashish kutilmaganda yana qanday fojialar olib kelishini bilardilar.

Dadamni ham qulq qilib yuborishlariga oz qolgan ekan. Amakilaramni, shu jumladan, dadamning ham Novkatda yerlari bo'lgan. Dadam o'z yerlarida imorat qurmoqchi bo'libdilar. Tomini yopishayotganda kimdir hukumat qarori chiqqan gazetani ko'tarib kelib qolibdi. Dadam o'qib qarasalar, qaror oshiqcha yer, oshiqcha imoratlarni tortib olish haqida ekan. Shunday tomdan tushibdilar-u, ustalarga javob berib yuboribdilar. Qorong'i tushganda aravani qo'shib, bor yukni ortib, ustiga bizni o'tqazibdilar-da, Toshkentga yo'l olibdilar. Ertasiga yolg'iz o'zlari qishloq sovetiga horib, imoratni ham, yerni ham hukumatga topshirish haqida ariza berib kelibdilar.

Shunday qilib qulq bo'lish xavfidan qutulib qolgan ekanlar.

\* \* \*

Umida, qizim, sening buvang, mening dadam Rahimbek Umarbekov 1956-yili 22-dekabrda, payshanba kuni kechqurun olamdan o'tdi.

Oyim, singillarim, amakivachcham Muzrob ayvonimizdag'i tancha atrofida o'tirardik. Ketma-ket katta xonaga kirib, betob dadamlardan xabar olardik. Men kirganimda dadam ko'zlari ochiq, anchagina yengil nafas olib, shiftga qarab yotardilar. Meni ko'rdilar, nazarimda ko'zlari bilan jilmaygan bo'ldilar. Ikki kuncha burun xuddi shu joyda, shu qora temir karavot yoniga meni chaqirib, vasiyat qilgan edilar. Yo'q, vidolashmadilar, o'layapman, sen endi oilaning kattasisan, demadilar. Xotirjamlik bilan yonlariga o'tkazib, qo'limni qo'lllariga oldilar:

— O'g'lim, bir-ikkita odamga beradiganim bor. Imkoniyatingiz paydo bo'lganda berib qo'ysangiz. Xo'pmi?

— Albatta, dada, — dedim men yuragim orqamga tortib. Gaplari vasiyat ekanini, o'limga tayyorgarlik ko'rayotganlarini darhol fahmlagan edim.

— Dada! O'zingiz hali o'sha odamlarni ko'rasiz. Turib ketasiz yaqinda! — dedim yupatishga intilib. O'shanda ularning qazo qilishlarini tasavvur ham qilolmagan, shunday kun yaqinligiga ishonmagan, ishongim kelmagan edi.

Dadam gapimni eshitib, ohista qo'limni qisib qo'ydilar, qo'llari har doimgidek yumshoq, issiq edi.

— Bittasi Yunusbek tunukachi. Oying uyini biladi. Rakatda. Ikkinchisi To'laganbek oppoqdadang. Bu odamga beradiganimiz ko'p emas. Lekin baribir qarz bo'ynimda ketmasin.

— Xo'p bo'ladi, dada. Xavotir olmang. Hamma qarzlaringizni uzaman.

— Rahmat, o'g'lim. Boring endi. O'z ishlaringizni qiling. Men birpas ugrayman.

Dadamlarning shu gaplari, ovozları hozir ham qulog'im ostida, dilimda.

O'sha kuni xotirjam yotganlarini ko'rib, oyoq uchida sekin chiqdim. Hamma menga qaradi.

— Uxlayaptilarmi? — so'radilar oyim.

— Uyg'oqlar. Lekin tinch yotibdilar, — dedim men. Yarim soatlardan so'ng Muzrob xabar olgani kirdi va birdan ko'zları olayib qo'rqib chiqdi:

— Muzdaylar! Javob bermayaptilar!

Hammamiz o'nimizdan turib, katta xonaga otilib kirdik.

Dadam uxlamoqchi bo'lib yotganlaricha olamdan o'tgan edilar... Ertasiga juma kuni Minorga, o'zimizning xilxonaga qo'yib keldik.

Opang ikkalamiz dadamning vafotlaridan keyin ko'p vaqt o'tmay qarzlarini topshirdik. To'laganbek amakim olmadilar. Ammo bizni farzandlik burchimizni ado etayotganimizdan xursand bo'lib duo qildilar, omad, baxt tiladilar.

Dadamlarni ko'pchilik «Mulla Rahimbek», «Rahimbek oqsoqol», «Rahimbek polvon», deb atardi. Shu murojaatlarning hammasida u kishiga nisbatan chuqur hurmat, e'tibor borligi ko'rinish turibdi.

Ko'cha-ko'yda ketayotganimizda hamma, katta-kichik u kishi bilan so'rashardi, birinchi bo'lib salom berardi. Buning albatta sabablari ko'p. Dadam ochiq ko'ngil, bag'rikeng, saxiy, xalqimiz urf-odatlarining hammasini chuqur hurmat qiladigan odam edi.

Urush yillari, ayniqsa, dadamning qanday odam ekanliklarini men – anchagina esi kirib qolgan bola, tushundim. Hozir ham u kishining o'sha paytlari qilgan ishlariga, odamlarga ko'rsatgan yaxshiliklariga qoyil qolaman, tahsin o'qiyman. Meni u kishining o'g'li ekanimni bilib qolgan keksalar darhol qo'llarini fotihaga yozadilar, u kishini maqtaydilar. Xudodan joylari jannatda bo'lishini tilaydilar.

Xolamga, oyimning opasiga qiynalib qolishganini ko'rib, sigirlarimizning bittasini berib yuborganlari esimda qolgan. O'zim haydab olib borib bergenman.

\* \* \*

Qarindosh-urug', mahalladagi bironta ma'raka dadamning ishtirokisiz, yordamlarisiz o'tmasdi. Shuning uchun uyimiz har kuni kechqurun gavjum bo'lardi. Kimgadir ular pul berardilar, kimgadir bir qop-yarim qop guruch, yo sabzavot olib borib berishni va'da qilardilar. U kishining ikki g'ildirakli «duvukolka» deyiladigan ikki kishilik izvoshlari bor edi. Ishga har kuni shu izvoshda borib kelardilar. Ko'pincha otni izvoshga men qo'shardim. Dadam tekshirib, u yoq-bu yog'ini qattiqroq tortib qo'yardilar. Ottlar ichida esimda qolgani to'q qizil rangdagi to'riq ot. U juda chopqir va yo'rg'a edi. Menga ham yaxshi qulqoq solardi. Uning esimda qolgani shuki, bir yili Qo'yliqda bo'lgan uloqda dadamning o'rtoqlaridan biri shu otni so'rab kelgani bo'lди. Uloqni oldi. Ammo tashlayotganda ot nimadandir hurkib, uni yiqitib qochdi. Bir haftadan so'ng Samarqand darvoza tomondagi ekinzor ichidan topib keldik.

Shuning uchun dadam farzandlari urushga ketgan keksalarga bozordan u-bu olib berib turardilar. Men yonlarida yordamlashardim.

Biz urush boshlanganini o'sha tarixiy 1941-yilning 22-iyuni, yashanba kuni kunduzi eshitib qoldik.

\* \* \*

Nemislar bosib olgan shaharlardan qochib kelganlar Toshkentda asosan shu tomonlarda joylasha boshlagandilar. Buning uchta sababi bor edi. Birinchidan, temiryo'l vokzali shu tomonda edi, ikki chaqirimcha undan berida xristian cherkovi qad ko'targan, ro'parasida O'rta Osiyodagi eng katta harbiy gospital joylashgan edi. Yana bir chaqirimcha berida, maktabimizning yaqinida Mirobod bozori, Tezikov bozori ham uncha uzoq emasdi.

Menimcha, turli shaharlardan har kuni eshelon-eshelon kelayotgan-larning ko'proq shu tomonlardan turar joy so'roqlashlariga sabab shular edi. Ko'cha-ko'yda, bozorda tilanchilar, cho'ntakkesarlar, och-gadolar ko'payib ketdi. Hokimiyat tekin oshxonalar ohib qo'ygan bo'lsa ham, ko'chib kelayotganlarning hammasini turar joy bilan ta'minlasa ham bozor ichi to'polon, tinch o'tish qiyin bo'lib qoldi. Lekin bu biz bolalarni tashvishga solgani yo'q. To'polon, urush-janjal, qiy-chuvni qaysi bola chetlab o'tgisi keladi?

Ikkita katta hovli atrofi imoratlar — sinflardan iborat maktabimizning yarmini Ukraina, Belorussiyadan ko'chib kelganlar egallashdi. O'qish ikki smenada o'tadigan bo'ldi. Pastki sinflarni avval birinchi smenada qoldirishdi. Ammo bir soat oldinga ko'chirishdi. Birinchi, ikkinchi sinf bolalarining ko'pi o'qishga kechikadigan bo'lib qoldi. Shundan keyin yuqori sinflarni birinchi smenaga ko'chirishdi. Biz o'shanda rosa quvondik. Erta turishimiz zarurligini, bozor-o'charga chiqishimiz, juda bo'limganda non, paxta yog'iga navbat olib qo'yishimizni esimizdan chiqargan edik.

Men opam bilan non, yog'ga navbat olish uchun chiqardim. Keyingi ishim uyda molga qarash, tonggi sog'ilgan sutni mijozlarimizga tarqatish, ortib qolganini baland ovoz bilan qichqirib ko'cha-ko'yda sotib kelish edi. Bu ishni men bir o'zim emas, oyimlar bilan birga qilardim. Ertalabki sut o'n litrli bidonlarda uch bidon chiqardi. Ikki bidon bilan oyim ketardilar. Bir bidon bilan yarim litrli shisha bankani ko'tarib, uyqu bosgan ko'zlarimni ishqalab-ishqalab men ketardim.

\* \* \*

Qish kunlarining birida dadam uyga rus chol-kampir bilan o'rta yoshli bir ayolni boshlab keldilar.

— Bugun vokzalda edim, kelganlarning hammasi har qayoqqa ketishyapti. Bular turishibdi. Qayoqqa borishlarini bilishmaydi. Yuklari yo'q. Leningraddan kelishibdi. Boshlab kelaverdim. Bitta xonani beramiz. Bitta oila ekan.

Dadam shunday deb, bizni ularga tanishtirdilar.

Katta xonamizni, ikki eshikli, oynavonli ayvonimizning bir eshigi yoni dan faner bilan to'stirib, ularga ajratib berdik. Uyda uchta to't simli temir karavot bor edi. Shularni ham ularga berib, o'zimiz yerda yotadigan bo'ldik.

— Bular yerda yotishga o'rganmagan. Keyin uchalovi ham ziyo li odamlar ekan. Xotini o'qituvchi, o'zi, qizi doktor ekan, — dedilar bizni o'zlaricha ovutgan bo'lib dadam.

Leningradlik mehmonlar to'rt yildan ziyod, 1946-yilning yozigacha biznikida turishdi. Bag'rikenglik qilinsa, kichkina joyga ham sig'ib ketaverilar ekan. Ular uch kishi bir uy, ayvonning choragida; oyim, opam, dadam, yana to'rtta bola bir uy, ayvonning qolgan qismida hech qanday xunob-garchiliksiz shuncha yilni o'tkazdik. Ular bilan bir oiladek bo'lib ketdik.

\* \* \*

Stalingraddagi jangdan keyin o'zbek xonadonlarida yig'i-sig'i ko'payib ketdi. Pochtalyon har kuni qoraxat ko'tarib keladigan, xonadonlarda ketma-ket janoza o'qiladigan bo'lib qoldi.

\* \* \*

«Qoraxat» degan balo bizning qarindoshlarimiznikiga ham keladigan bo'lib qoldi. Birinchi bo'lib bu kulfatni ammam eshitdilar. Katta o'g'illari Ahmad akadan qoraxat keldi. Stalingrad ostonasida bo'lган jangda qahramonlarcha halok bo'lганlarini urushdan keyin bildik. Ularni deyarli tayyorgarchiliksiz, juda oz o'qitib, urushga solishgan. Ba'zilar miltiqni qanday o'qlashni bilmay o'lib ketishgan.

O'sha kuni ammamning uylari birpasda odamga to'ldi. Hamma qarindoshlar yig'ilishdi. Ammo ammam, Nazira kelinoyim janoza ochir-madilar. Qoraxat kelib, orqasidan o'zi kirib kelgan odamlar yo'q emasdi.

— Kutaman, — dedi Nazira kelinoyim. — Balki omondirlar?

Hech kim e'tiroz bildirmadi.

Nazira kelinoyim uch bolasi bilan Ahmad akani olamdan o'tguniga qadar kutdi. Adashmasam 1988—1989-yillarda u qazo qildi. Men u xotinning eriga bo'lган sadoqati, bolalariga mehri va matonatiga tahsin o'qiyan. Ahmadjon akadan qoraxat kelgan kundan keyin ko'p o'tmay, katta qizlari Hakima tutqanoq kasaliga chalinib qoldi. Singlisi Sharifa bilan men birinchi sinfga borganimizda u uchinchi sinfni bitirgan edi. O'z yoshiga nisbatan gavdasi katta, to'ladan kelgan, quvnoq, sho'x qiz edi u. O'qishi ham yaxshi, hamma fanlardan a'loga o'qirdi. Kasali zo'rayib, u esini ham yo'qotdi. Dadam, oyisi, boshqa qarindoshlarimizning uni ko'rsatmagan shifokorlari qolmadidi. Ammo Hakima tuzalmadi. Ancha yillar o'tib, qazo qilib ketdi.

\* \* \*

Ikkinchi jahon urushi tugaganiga yaqinda yarim asr bo'ladi. Bu urush yer yuzidagi deyarli barcha xalqlar tarixida mudhish, fojiali hodisa bo'ldi.

Uyimiz ro‘parasidagi harbiy kazarmani men ana shu urushning tugashiga munosib hissa qo‘sghan katta bir karvonsaroya o‘xshataman. Shu yerdan xalq belini tugib, dushman qarshisiga otlandi, o‘lim bilan yuzma-yuz keldi. Vatan, do‘stlik, birodarlik qasamiga o‘zini safarbar qildi. Dahshatli urush o‘zbek xalqining bir so‘zli xalq ekanini, mard, do‘stlariga sodiq ekanini, sabr-toqatli, zahmatkash xalq ekanini ko‘rsatdi. Shu bilan birga bu urush qancha odamlarning yostig‘ini quritdi.

Qizim, Umida, men senga atab, murakkab, katta urushning bir kichkina bo‘lagini qisqacha qog‘ozga tushirdim. Lekin shu qisqacha hikoyadan ham o‘z xalqingning qanday ekanini ko‘rib turibsan. U bilan faxrlan. Men — dadang kabi shu xalqni sev, unga sodiq bo‘l, uning xizmatini qil. Bilaman, ishonaman, sen o‘z xalqingning obro‘siga obro‘ qo‘shadigan, uning duosini oladigan ishlar qilasan. Qodirsan shunga, niyattinga yet, omad, baxt hamisha senga yor bo‘lsin!

\* \* \*

Oyimlar ham asli toshkentliklar. Tug‘ilgan joylari ma’lum — Yakkasaroy, Gubrbog‘ mahallalarining pastida, Damariq mahallasi bo‘lgan. Mahallaning chor atrofi kolxozi yerlariga tutashganligi hal-hali esimda. Damariqning boshida uzun boloxonali qo‘rg‘on bo‘lardi. To‘rtala tomoni boloxona, pasti turar joy, oshxona, molxona, hisobsiz hujralar. Shu qo‘rg‘onni Do‘simboy degan odam qurgan. Aytishlaricha, u katta yilqichi savdogarlardan ekan. Qo‘rg‘onga yaqin joyda paxta zavodi ham bo‘lgan ekan. Oyim, ya’ni buving shu odamning nevarasi. Sen oyimlarning oyilarini, mening buvimni o‘qishga bo‘lgan havasing bilan eslatasan. Ko‘pchilik orasida Hojar otin deb nom olgan oyimlarning oyilari o‘z davrining ancha o‘qimishli ayollaridan edi. Ko‘p marta men buning guvohi bo‘lganman. Juda yaxshi Qur‘on o‘qirdilar, uning suralarini sodda qilib tushuntirib berardilar. Bundan tashqari juda ko‘p tarixiy, badiiy kitoblarni o‘qib tushirganlarini gap orasida anglab olish qiyin emas edi. Ammo o‘zlaricha hech mahal o‘qimishli ekanliklarini ko‘z-ko‘z qilishga, boshqalardan o‘zlarini baland tutishga intilmasdilar. Mashhur Hotamtoy, Xorun ar-Rashid, Layli va Majnun haqidagi arab afsonalarini va yana allaqancha «Ming bir kecha»dek davom etadigan ertaklarni men u kishidan eshitganman. Kim biladi, balki badiiy adabiyotga qiziqishni menga u kishi o‘rgatgandir!

\* \* \*

Men buvimlarni tez-tez ko'rishni, biznikiga kelishlarini, yo ularnikiga borishni yaxshi ko'rardim. Ko'proq biznikiga kelishlari ma'qul edi. Biznikiga kelsalar, besh-olti kun turardilar. Har kecha to'yib-to'yib cho'pchak eshitardik.

Buvimning yoshliklarini eslatuvchi birorta rasm, surat bo'lmasa ham ularning chiroyli, kelishgan ayol bo'lganlari shunday bilinib turardi. O'cta bo'yli, qirra burun, qizil mag'iz, qomatlari tik, qo'llari tekis, panjalari uzun, yumshoq. Men uchun buvim maqtasa, g'ururlansa arziyidigan o'zbek ayollarining yorqin timsoli edilar.

Endi-endi tushunyapman, u kishi otalari Do'simboy buvamizni juda yaxshi ko'rganlar. Chunki atroflarida qachon bolalar to'planmasin, biz, bolalar esa, ko'pchilik edik, ular ko'pincha otalari haqida, u kishining ot minishi, uloq tushishi, bolalarni yaxshi ko'rgani haqida gapirardilar.

— U kishidan po'lat sandiq qolgan, — derdilar. — Qulfi, zulfi po'latdan. O'zi tutdan. Bu sandiqni hech qurt yemaydi. Doim ichi toza turadi. Qulfiga shunday kalit solinishi bilan jarang-jurung qilib ochiladi. Otam rahmatli shu sandiqda pul, shirinlik, quruq meva saqlardilar. Sandiq uch bo'limgan iborat. Bittasida tanga pul turardi, bittasida quruq meva, bittasida chaqmoq qand. Har kuni otam shu sandiqni olib, hamma bolalarni chaqirardilar. Avval ularga pul tashlardilar. Muhtojlik boshla-ringga tushmasin, deb duo qilardilar. Keyin quruq meva tashlardilar. Ko'ryapsizlarmi, turshak, jiyda, mayiz, yong'oq — hammasi birga turibdi. Sizlar ham shunday birga, ahil bo'lib, bir-birlaringga hurmat bilan qarab yashanglar, derdilar. Oxiri chaqmoq qandni bolalar ustiga tashlardilar. «Har biringizning hayotingiz shu qanddek shirin bo'lsin», deb yana duo qilardilar. O'sha sandiq ana, taxmonda turibdi. Bittalaringga uni, albatta, qoldirib ketaman. Yaxshi kunlarga xizmat qilsin.

Umida, buvim olamdan o'tganlaridan keyin o'sha sandiqni biznikiga olib kelishdi. Buvim menga qoldirib ketdilar. Oshxonamizning oldida turgan qizil taxta sandiq Do'simboy buvamiz bola larga atab bitta bo'lagida chaqmoq qand, bitta bo'lagida tanga pul, bitta bo'lagida quruq meva saqlagan o'sha sandiq bo'ladi. Turaversin, u buvilarimiz, bobolarimizning o'z davrida ancha to'q, ahil, totuv, bir-birlarini hurmat qilib yashaganlaridan nishona.

Buvimning katta qizlari Savri xolam ham xuddi buvimlardek chiroyli, kelishgan ayol edilar. Men u kishining biron joyda ishlaganlarini bilmayman.

Lekin ishlari ko'p edi. Buvimdan chevarlik, moshinachilik, xullas, turli tikuv hunarları u kishiga ham o'tgan edi. Xoh o'z uyularida bo'lsin, xoh bizniki yoki buvimlarnikida bo'lsin, biron narsa tikib, qavib o'tirardilar. Eski uyimizdag'i ko'pgina ko'rpa, ko'rpachalarni xolam qaviganlar. Qo'li gul ayol, deyishardi u kishini qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlar.

\* \* \*

Uyda bir kichkina surat bor. Oyim bilan mening suratim. Kuz bo'lsa kerak, men paltodaman. Oyim makentoshdalar. Boshlariga ro'mol o'rab olganlar. Bir siqim qora sochlari ro'mol tagidan peshanalari ustida chiqib turibdi. Suratkash ikkalamizni fotoapparatga qarab turishimizni talab qilgan bo'lsa kerak, men ko'zlarimni katta ochib, tikilib turibman. Oyimlarning ham nigohlari shu tomonda. Lekin menga qaramayotgan bo'lsalar ham mehr to'la ko'zları, butun vujudlari, dillari menda ekanı sezilib turibdi.

Odam qariganida, bolali, nevarali bo'lganida ham ota-oná mehriǵa zor bo'lar ekan. Qani endi hozir oyim tirik bo'lsalar, yurtimdan olis bir joyda Xudodan shifo tilab shiftga qarab yotgan paytimda yonimga kelsalar, g'adir-budur, ammo issiq qo'llarini peshanamga qo'yib, meni yupatsalar. Qani endi ularning tiniq, shirali ovozlarini eshitsam? Albatta, ular meni yupatadigan, ko'nglimni ko'taradigan gaplar topardilar. Yo'q, menga hozir ularning gaplari ham kerak emas, o'zlarini ko'rsam kifoya edi. Kim biladi, balki men hozir ularni eslab, o'zimning manfaatimni o'ylab shunday deyayotgandirman? Balki, mening hozirgi ahvolimni ko'rmaganlari ma'quldir. Ko'rsalar ezilib ketarmidilar? Ammo bilaman, og'irimni yengil qilish uchun o'zlarini o'tga, suvga urib, Xudodan menga shifo tilardilar.

Dadamlar-chi? U kishi ham shunday. Sira esimdan chiqmaydi. Uchinchimi, to'rtinchi sifda o'qiymen. Qishda birdan jag' tishim og'rib qoldi. Kechasi bilan uxlamay, dumalab chiqdim. Ahvolimni ko'rib, oyim ham, dadam ham uxlashgani yo'q. Namakob qilib, g'arg'ara qildirib ko'rishdi. Margansovka bilan ham chaydirishdi. Issiq guvalaga yuzimni qo'yib yotqizishdi. Qani endi og'riq bosilsa?! Ertalabga borib, yana zo'rayib ketdi. Dod, deb yig'lab yubordim. Dadamning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Izvosh qo'shishni kutmay, tezda meni kiyintirib tramvayda Eski Jo'vega olib bordilar. Shu yerda bir tanish tish do'xtiri bor ekan. Doktor ko'rib, birpasda og'riq tishni sug'urib oldi. Hatto sezmay ham

qoldim. Ancha yiring chiqdi. Keyin birdan og'riq qoldi. Dadam meni quchoqlab, bag'rilariga boshdilar.

U kishi hozir mening ahvolimni ko'rsalar, es-hushlarini yo'qotib qo'yishlariga aminman. Yo'q, yaxshisi ular hozirgi holatimni ko'rma-ganlari ma'qul. Balki, ko'rib turishgandir? Balki, Yaratganning o'zidan menga shifo tilashayotgandir? Ularning iltijolari bilan, qizim, sening, opangning iltijolari bilan Xudo menga shifo berayotgandir? Ajab emas shunday bo'lsa!

Dada, oyi! Joylaringiz jannatda bo'lsin. Har kuni Xudodan men shuni so'rayman. Qanday farzand edim sizlarga, farzandlik burchimni qanday ado etdim? Buni sizlar, o'zingiz bilasizlar. Xudo biladi. Ammo men sizlardek otam, onam bo'lganidan faxrlanaman.

Umida, qizim, sen buvangni bilmaysan. Lekin oz bo'lsa ham buvingni ko'rgansan. Unutma ularni. Ular yaxshi odamlar edi. Halol mehnat bilan yashashdi, birovning haqiga xiyonat qilishgani yo'q, qo'llaridan kelganicha odamlarga yaxshilik qilishdi. Bizni, ya'ni men — dadangni, amaking, ammalarining o'qitishdi, pokiza, halol yashashga o'rgatishdi.

\* \* \*

Men oyimni savodsizlikni tugatish kursiga qatnay boshlagan paytlaridan boshlab eslayman. O'shanda demak, uch-to'rt yoshli bola edim. Kurs ko'chamizning oxiridagi klubda joylashgan edi. Oyim meni ham olib borardilar. U yerda besh-o'nta qizga eski o'zbek tilidan o'rgatardilar, o'zлari esa boshqa kursga kirib, lotin alifbosini o'rganardilar. Shu klubdan bir muyulish narida Mirobod bozorining darvozasidan beriroqda Abdulla Avloniylar uyi joylashgan edi. Men ko'p vaqt oyim bilan, ba'zan dadam bilan shu uyga kelib turardik. Oyimlarning aytishlaricha, Abdulla Avloniy ularga shaxmatni o'rgatgan, yozuv-o'quvlaridan ham xabardor bo'lib turgan. Ammo men Abdulla Avloniyni ko'rmanganman. Dadam tomonidan bu buyuk ma'rifatchi olim, shoirning qandaydir qarindoshligi bor, deyishadi. Lekin gap bunda emas. Abdulla Avloniy butun o'zbek xalqining qarindoshi, faxri va unutilmas farzandidir.

\* \* \*

Abdulla Avloniynikida ulug' odamlarning yig'ilib turishlari qarindoshurug', tanish-bilishlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Masalan,

dadam adabiyotdan chetda bo'lishlariga qaramay, adabiyot, san'atga mehr qo'yanlar, san'atkorlar, yozuvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lganlar. Yunus Rajabiy, Ortiqxo'ja Imomxo'jayev, G'afur G'ulom, Karim Mo'minov va boshqa bir qancha adib, san'atkorlar biznikida tez-tez bo'lib turishardi.

\* \* \*

Bir kuni maktabdan kelsam, oyim kitob o'qib o'tirib, yig'layaptilar. Dadamlardan xavotir olib, cho'chidim, oldilariga yugurib bordim.

— Oyi! Tinchlikmi?

— E, bolam, tinchlik qayoqda? — dedilar oyim kitobdan boshlarini ko'tarmay. — Yer yutkur Zaynab Kumushni zaharlab qo'ydi!..

Ancha yengil tortdim. Gap shundaki, A. Qodiriyning «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlarini men o'qimagan bo'lsam ham mazmunlari bilan tanish edim. Dadam, oyim biz bolalarga aytib berishgan edi.

Arab alifbosida chop etilgan eski kitob yana oyimlarning qo'llilariga tushib qolibdi. Oshxonani supurayotib, ko'mir yashiklar orqasidan topib olibdilar. Qiziqib ketib, yana o'qishga tushibdilar. Kitobning yarmi yo'q edi. Yoshlarini artar ekanlar, meni ogohlantirdilar.

— Maktabda tag'in shu kitobni o'qiyotganimni aytib o'tirma. Qodiriyni xalq dushmani qilib yuborishgan.

Va'da berdim. Ammo ovoz chiqarib o'qishlarini iltimos qildim. To'rt kechami, besh kechami oz-ozginadan o'qidilar. Butun oila bo'lib eshitdik. Davomi yo'q edi.

Shunda dadam kimlarda borligini aytdilar. Bir tanishimiznikiga opam, ikkinchisini kiga men bordim. Ismi sharifini aytmayman, men borgan odam, dadamning yaqin o'rtoqlaridan biri, maktabimiz o'qituvchisi edi.

Iltimosimni eshitib, u kishi uzoq boshini egib o'tirdi.

— Vaqti kelib bu kitobni o'qiysan, — dedi axiyri. — Lekin hozir hech kimdan surishtirma. Menda ham yo'q.

Unda borligini fahmladim, lekin javobi menga kifoya edi. Opam ham kitobni topolmadilar.

Oradan ikki-uch oy o'tgach, oyimning o'zлari qayerdandir shu kitobni topib keldilar. Boshidan oxirigacha o'qib berdilar. Kitobni o'qiyotgandagi hayajondan dam titragan, dam yig'i aralashgan ovozlari hamon qulog'im ostida.

«O'tkan kunlar» – ulug' kitob. Faqat o'zbek adabiyotining emas, butun musulmon xalqlari madaniyatining faxri.

Abdulla Avloniyning: «Millat bari arbokash-u hammoldir, afti-angori qaro, kiygani juldur-juldur» satrlarini o'sha yillari dadamdan eshitganman.

\* \* \*

Oyim shovqin-suronsiz, shikoyatsiz, sokin, tinch umr kechirdilar. Shunday sokin, tinch, shikoyatsiz olamdan o'tdilar.

Shifokorlar imkonlari boricha, u kishining og'riqsiz, uzoq umr ko'rishlariga harakat qilishdi. Ammo hammaning peshanasiga yozilgani bo'ladi. Sakson ikki yil yashab, oyimning birovga og'irliliklari tushganini, birovdan o'pkalanganlarini bilmayman. Oyim chinakam o'zbek ayoli edilar.

\* \* \*

Nazarimda Moskvada meni davolay boshlaganlardan beri, anchagina dilim tinchib, qo'limga qalam oladigan holatga kelganimdan beri senga atab yozmoqchi bo'lganlarim nihoyasiga yetib qoldi. Hozircha kifoya. Xudo xohlasa, uya qaytsam, esimga tushgan voqealarni yozib berarman. Xatlarimning so'ngida ustoz Abdulla Qahhorga o'xshab, senga, qizim, beradigan ikkita maslahatim bor. Birinchisi:

— Bu dunyoda opangchalik senga mehribon, yaqin, aziz, sendan jonini ham ayamaydigan odam yo'q. Birga bo'l. Yolg'izlatib qo'yma. Asra.

Ikkinchi maslahatim:

— Davr o'zgarib ketdi, qadriyatlar o'zgardi. Lekin hamma davrda halol mehnat, poklik, odamiylik qadrlangan. Shu yodingda bo'lsin.

Yolg'izim, suyukligim, xayr, omon bo'l, baxtli bo'l.

1994-yil

#### «QIZIMGA MAKUBLAR» ASARI HAQIDA

Yozuvchi O'Imas Umarbekovning tarjimayi holi bilan tanishtirganda, 90-yillar boshlarida uning og'ir xastalikka uchraganini, biroq shunga qaramay so'nggi kunlariga qadar ijodiy faoliyatdan to'xtamaganini aytib o'tgan edik. Ana shu bir necha yil davom etgan xastalik davrida adib yirik roman, hikoyalar va pyesalar bilan bir qatorda «Qizimga maktublar» deb nomlangan hajman salmoqli publisistik xotira-qissa ham yaratdi. Bu asarning janroviy mansubligini dabdurustdan aniqlab, farqlab berish biroz mushkul ish. Chunki unda bir qahramon nigohi bilan kuzatilib,

bir ijodiy maqsadga yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi hikoyalardan iborat qissa xususiyatlarini ham, yoki bo'lib o'tgan voqealarga, real xotiralarga asoslangan esdaliklar desa bo'ladijan jihatlarni ham ko'rishi-miz mumkin. Eng muhimi, bu bitiklarni loqayd, hayajonsiz o'qib bo'lmaydi.

Asarda qalamga olingen voqealarni tarixan ikki davrga, ikki qismga bo'lish mumkin. Birinchisi, qahramon, ya'ni yozuvchi O'lmas Umarbekovning kasallik tarixi, aniqrog'i, muolaja qilish, davolash uchun bo'lgan harakatlarining tafsilotlaridan iborat bo'lsa, ikkinchisi uning yaqinlari, qarindosh-urug'lari haqidagi, Ikkinchisi jahon urushi va undan keyingi yillardagi bolalik, o'smirlilik va balog'at pallalari xotiralaridir.

Muallif kasalxonadagi tafsilotlarni bayon qilarkan, kitobxon uning naqadar hayotga chanqoqligini, azbaroyi farzandiga bo'lgan mehrmuhabbat tufayli yashashga intilganini, qizining kamolini, orzu-havaslarini ko'rish ishtiyoqi qanchalar kuchli ekanligini anglaydi. Oylab, yillab o'z dardlariga davo istagan adib har qancha azob-u qiyinchiliklarga qaramay, tuzalishiga ishonch bilan yashaydi. Shifokorlarning har bir so'zini o'z kasaliga shifo bo'ladijan, qalbida umid uyg'otadigan biron yaxshi xabar bo'larmikan, deya ilhaq kutadi. Operatsiya qilib, jarrohlik yo'li bilan kasallikni bartaraf etish haqidagi gumanli takliflar bilan uzoq vaqt bo'lsa ham nurlanish orqali davolanib borish haqidagi fikrlar orasida qanchadan qancha ruhiy qiyonoqlarni, shubha va ikkilanishlarini bayon etadi. O'quvchi xuddi muallifning o'ziga o'xshab, qaniydi mo'jiza ro'y bersa-yu u batamom tuzalib, barcha dardlaridan forig'lanib, begona yurtlardan qanot chiqarib o'z yurtiga uchib kelsa, o'z kaliti bilan uyi darvozasini ohib, yakka-yu yagona qizi – Umidasini bag'riga bossa, peshanasidan o'pib, yuragidagi sog'inch va armonlaridan xalos bo'lsa, deb orzu qiladi. Gohi vrachlar operatsiya qilish zarur deb, uni omon qolish-qolmasligiga aniq ishonch bildirmay, ko'nglini cho'ktirib yuborganlarida, Xudoga – Yaratganga nolalar qiladi. Uning qudratiga imon keltirib, takror-takror Allohdan madad tilaydi. Darhaqiqat, inson bu hayotga sinov uchun keladi. Bu sinovlarga dosh berib, qalbida odamlarga yaxshilik, ezzulik tuyg'ularni saqlab qololgan odamlar jannat saodatiga erishadi. O'zidan keyingi avlodlarning xotirasida barhayot bo'lib qoladi. Sinovlarga bardosh berolmay, yovuzlik, qabohat ko'chalariga kirib ketganlar sira yashashga haqli emas. Ular tirik bo'lsalar ham o'zgalar uchun o'likday. Chunki ulardan hech kimga naf yo'q. Aksincha, zarar,

dilozorlik bor. Undaylardan insonlar qochib yuradi, ko'rsa ko'rmaganga olib, o'zini panaga yashiradi. Asar qahramoni ana shunday sinovlarda toblanib, umr bo'yi yaxshilik qilishga intilgan, pokiza hayoti, halol mehnati bilan jamiyatga ham, do'st-u qadrdonlari, yaqinlariga ham foyda yetkazgan inson. Tushkun xayollarga berilganida, Allohdan umr tilarkan, faqat ezgu maqsadlarni o'ylaydi, oqibatni, mehrni ko'zlaydi. Ana shu mehr jo'sh urib, ham jismoniy, ham ruhiy qiyonoqlariga qaramay, qiziga, qizi orqali avlodlarga bolalik o'tmishidan, dunyodan o'tib ketgan yaqinlarining ibratli hayotidan o'gitlar beradi. Bular shunday o'gitlarki, sira malollik sezmaysiz, quruq pand-u nasihat qilib, noxushlik uyg'otadigan safsatabozlikdan mutlaqo yiroq, tafakkurga oziq, ko'ngilga yoqimli tuyg'ular beradigan, qiziqish va e'tiboringizni oshiradigan hayotiy lavhalar asosidagi ibratlar hikoya qilinadi. Asarning mazmunan anglashiladigan ikkinchi qismi ana shu hayotiy hikoyalar, umri, kechmishlari ibrat bo'ladigan insonlarga bag'ishlanadi.

O'zbeklarda «yetti pushtini bilih» degan bir hikmat bor. Siz, aziz o'quvchi, bu hikmatni muallimlaringiz, buva-buvilaringizdan ko'p bor eshitgan bo'lsangiz kerak. «Yetti pushtini bilmaydigan, ajdod-avlodini tanimaydigan kimsalarni marqut derlar» degan edi buyuk ma'rifatchi bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy. «Marqut» yoki «manqurt» degani onidan ajralgan, ota-onasini tanimay, hatto o'ldirishdan ham toymaydigan, xotirasiz, zoti betayin odam demakdir. Bunday odam maxluq, hayvon bilan teng. Kimki ota-bobolarini bilib, ularning yaxshi ishlarini davom ettirsa, o'zi ham keyin farzandlariga shunday tarbiya bersa, mana bu odamni ma'naviyati yuksak inson deymiz. «Qizimga maktublar» asaridagi yozuvchi yodiga olgan odamlar, ayniqsa, uning otasi, onasi, buvi va xolasi, kichik tog'asi haqidagi hikoyalar ana shunday ibratli fazilatlarga ega bo'lgan insonlar haqidagi nurli hikoyalardir.

Muallif otasi tomonidan qarindoshlarini aytib berar ekan, amakilarining ancha taniqli polvon bo'lgani, halol mehrnat bilan boyib, yer-suv, mol-hol qilib, o'ziga to'q yashaganini va sho'ro zamonida ozgina molmulk, yer egasi bo'lgani uchun qulq qilinib, begona yurtlarga badarg'a etilganlarini bayon qiladi. Bu bilan, avvalo, ota avlodlarining jo'mard, obro'li, jamiyatda mavqeyi bor insonlar bo'lgani hamda har qanday adolatsiz, qiyin zamonda ham egilmay-bukilmay, o'z kuchi-quvvati bilan oyoqqa turganini, to'g'ri, pokiza yashab o'tganini anglatmoqchi

bo'ladi. Hakimbek amakining mol-mulki tortib olinib, o'n yilga Ukrainaga surgun qilinganida, o'sha yerlarda yeryong'oq, qovun, tarvuz, jo'xori ekip, dehqonchilik bilan o'zini, oilasi ro'zg'orini eplab ketganini yozar ekan, bu bilan o'zbeklarning halol mehnat bilan hech qachon va hech qayerda xor bo'limganini, mashaqqatlardan qo'rqlaydi, qiyinchiliklar bilan kurashib, yengib yashagan xalq ekanini ko'rsatib beradi. Polvon akalari kabi muallifning otasi Rahimbek aka ham ko'rinishi, bo'y-basti polvonsifat inson bo'lgan. Umrining so'ngigacha o'zgalarga yaxshilik qilib, mehr-oqibat ko'rsatgan. Ayniqsa, urushga ketgan oilalarga yordam ko'rsatgani, o'zлari yetti jon bo'lishlariga qaramay, joylari torligini o'ylamay, Rossiyaning urush bo'layotgan yerlaridan ko'chirib keltirilgan oilani bag'riga olishi va ular to'rt yil bir oiladek bo'lib yashagani Rahimbek akaning naqadar bag'rikeng, insonparvar bo'lganini bildiradigan voqealardir. Rahimbek akaning ancha ziyoli inson bo'lganiga doir ham dalillar keltiradi muallif. Jumladan, uning farzandini hamisha «siz»lab gapirishi, o'z zamonasining mashhur shoir-u san'atkorlari bilan yaqin aloqadaligi, bordi-keldi munosabatlari, hatto Abdulla Avloniy bilan mahalladosh, hamsuhbat bo'lgani kabilar uning oilasidan ma'rifatli insonlar yetishib chiqqaniga sababdir. Asardagi bir voqeа yuqoridagi fikrning to'g'riligini yana bir karra isbot etadi. Urushdan keyingi yillar, hali qatag'onlar zamoni o'tmagan, vijdonli odamlar qo'rquv va xavotirda yashayotgan kunlarda maktabdan qaytgan O'Imas onasining kitob o'qib, yig'lab o'tirganini ko'radi. Ma'lum bo'lishicha, onasi Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanini yashirinchha o'qiyotgan ekan.

Qadrli o'quvchilar, qatag'on davri haqida, jumladan, Abdulla Qodiriyning haqqoniy asarlari, millatsevarligi uchun sho'ro zamonasida turli tazyqlarga uchrab qamalgani va otib o'ldirilgani haqida Sizlar avvalgi darslarda ma'lumotga ega bo'lgansizlar. «Qizimga maktublar» asaridagi kitob o'qish bilan bog'liq lavhalar ana shu qatag'on va taqiqqlar zamoni davom etayotgan bir paytda ro'y bergen edi. Yosh O'Imas va boshqa farzandlarining ra'yini qaytarmay, otasi «O'tkan kunlar» romanini farzandlariga o'qittirmoqchi bo'ladi. O'zini xavf ostiga qo'yib bo'lsa-da, o'sha taqiqlangan kitobni qidirtiradi. Bu ham Rahimbek akaning ziyoli inson ekanini ko'rsatadigan dalillar.

Xuddi shunday fikrlarni yozuvchining onasi va boshqa personajlar haqida ham aytish mumkin. Ayniqsa, ona tomonidan buvisi va xolasining tafsilotlari o'quvchini juda qiziqtiradi.

Do'simboy ismli chorvador boyning farzandlaridan bo'lgan buvisi aqlli, zukko, uzoqni ko'ra biluvchi, harakatchan ayollardan edi. Katta qo'rg'onne, butun xo'jalikni boshqarib, oilasini tinch, farovonlikda yashashini ta'minlovchi, mehnatkash, muruvvatli ayol bo'lgani uchun ham hurmat-e'tibori baland edi. Otasining xo'jalik yuritish udumlarini davom ettirar, birovning dilini og'ritmas, qo'lidan kelgan yaxshiligini ayamas edi. Ana shu buvining ta'limini olgan xolasiga ham chevar, pazanda, mirishkor ayol edi.

Muallif ayollarimizning go'zal xislatlarini ko'rsatar ekan, ularni oilaga, eri va farzandlariga naqadar sadoqatli, jonkuyar, fidoyi ekanliklariga doir o'nlab misollar – esdaliklar keltiradi. Ayniqsa, o'g'illari, erlari urushga ketib, qaytib kelmagan oilalardagi ayollarni bir umr sadoqat-matonat ko'rsatib yashaganini hayotiy voqealarda tasvirlar ekan, yozuvchi o'z hayrat va hurmatini yashira olmay, ularning sha'niga ko'tarinki sifatlarni keltirib, ulug'laydi. Farzandiga ham shunday sabr-u bardosh, sadoqat-vafo tilaydi.

Adibning o'zbek ayollari haqidagi to'lqinlanib yozgan sahifalari orasida onasi va vafodor rafiqasi haqidagi xotiralari alohida e'tiborni tortadi. Ayniqsa, onasining urush yillari, undan keyingi pallalardagi tortgan mashaqqatlari, oilasining farovonligi, farzandlarining bekam-u ko'st bo'lishi uchun o'z halovatidan, o'z sog'lig'idan kechib, fidoyilik qilishlari har qancha ulug'lashga arziydi.

Hali tong otmasidan turib, sut sog'ishi, non yopishi, bularni ortmoqlab ko'chama-ko'cha sut, bozorda non sotib, topgan puliga bolalarga biron yegulik topib kelishi, kasalmand bo'lib qolgan erini parvarishlashi, qarindosh-urug'larga saxiy-mehribonligi – barchasi onaning matonati va buyuk qalbiga bitilgan qasidadek tuyuladi. Muallif onasi haqidagi xotiralarini hikoya qilar ekan, o'quvchi ko'z o'ngida tom ma'nodagi o'zbek ayoli, o'zbek onalarining timsoli jonlanadi. Eng og'ir, eng qiyin damlarda hamisha jonga orom bo'lguvchi onaning bir og'iz shirin so'zi, issiq, g'adir-budir kaftlarining tafti, tansiq, shirin taomlarining mazasini sog'inib, muallif o'rni-o'rni bilan ona ruhiga murojaat qiladi, uning arvochlari shod bo'lsin deya, o'z kasal tanasiga ona xotirasidan malham istaydi. Inson eng zaif daqiqalarida, ojiz holatlarida hamisha Yaratgandan va ona ruhidan madad tilaydi. Muallif ham kasalidan qattiq azoblanib, toliqqanidan shunday tuyg'uni boshidan kechiradi – onasiga xayolan murojaat qiladi. Yaxshiki, yonida yana bir mehribon ayol – rafiqasi bor. Uning ham fidoyi jonkuyarligi

tufayli balki umri uzayayotganidan so'zlaydi yozuvchi. Ayol, ona so'zlarining mohiyatidagi beqiyos mazmunni o'z esdaliklari va kechmishlari misolida yorqin tasvirlab, ko'rsatib beradi.

O'lmas Umarbekov mazkur asari qog'ozga tushganidan so'ng yana bir yilga yaqin umr kechirdi. Bu bir yil ham muolaja, ruhiy va jismoniy azoblarga to'la oylar bo'ldi. U sevimli, yolg'iz qizining to'yini, orzu-havaslarini ko'ra olmadidi. Biroq qiziga maktublari orqali insoniy mehr, sadoqat, onaga, Vatanga, yaqinlariga oqibat, muhabbat ko'rsata olish fazilatlaridan o'gitlar qoldirib ketdi. Bu uning farzandi orqali o'zi sevgan o'zbek xalqiga, avlodlariga ham ma'naviy vasiyati bo'ldi. Inson bo'lib kelgan odam dunyoda insonday yashashi kerakligidan hayotiy saboqlar berib ketdi.

Yozuvchi asarining sarlavhasi tagiga yana bir sarlavha qo'yib, «Mangu dunyo bo'sag'asida» deya kichik epigraf yozib qoldirgan. Unda mangu dunyo, ya'ni vafoti oldidan yaqin va uzoq xotiralarini eslab, go'yoki har bir insonni mazmunli umr kechirishga, o'z hayoti uchun uyatli bo'lmaslikka, odamlar qalbida yaxshi iz qoldirishga da'vat etgan. O'lmas Umarbekovning «Qizimga maktublar» asari mana shu yuksak insoniy g'oyalarni tarannum etgani uchun ham zamonaviy o'zbek adabiyotining sara asarlaridan biri bo'lib qoldi.

### *Savol va topshiriqlar*



1. O'lmas Umarbekovning tarjimayi holi haqida so'zlang.
2. Yozuvchining qaysi hikoyalar to'plamini bilasiz?
3. O'lmas Umarbekovning qanday qissalari bor?
4. «O'lmas Umarbekov va teatr» mavzusida suhbatlashing.
5. Adibning o'zbek kinosi rivoji uchun qilgan xizmatlari haqida so'zlang.
6. «Qizimga maktublar» asari qanday sharoitda va nima maqsadda yaratilgan?
7. Asar asosida yozuvchining bolalik davri haqida suhbatlashing.
8. Rahimbek oqsoqol tabiatidagi insonparvarlik, oqibat va ziyolilik xususiyatlari qanday voqealarda aks etadi?
9. Asardagi ayollar obrazlari haqida so'zlab bering.
10. Yozuvchining onasi haqida so'zlang.
11. O'zbek ayolining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rindi?
12. Nima uchun yozuvchi asarga «Mangu dunyo bo'sag'asida» deb ikkinchi sarlavhani qo'yan? Bu so'zlardan ko'zlangan ma'no nima?
13. «Qizimga maktublar» asarining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati haqida gapirib bering.



## Nodar DUMBADZE

(1923 — 1984)



Qardosh gruzin xalqining ardoqli adibi Nodar Dumbadze asarlarida ifoda etilgan ezgulik, insonparvarlik, adolatsevarlik, xalqqa muhabbat tuyg'ulari uni boshqa xalqlar o'quvchilari uchun ham suyukli yozuvchiga aylantirgan. Jumladan, Nodar Dumbadzening qator hikoyalari, «Kukaracha» qissasi, «Oq bayroqlar», «Abadiyat qonuni» singari romanlari mohir tarjimon Nizom Komil tomonidan ona tilimizga o'girilgan. «Abadiyat qonuni» asari asosida o'zbek san'atkorlari tomonidan yaratilgan ko'p qismli videofilm namoyish etilgach esa, adib ijodiga qiziqish bizning yurtimizda yanada kuchaygan.

Gruzin xalqi, jumladan, Nodar Dumbadze asarlaridagi g'oya va ma'nolar bizning ko'nglimizdan joy olishining qator sabablari bor, albatta. Avvalo, gurjilar ham xuddi o'zbek xalqidek o'z ona diyorlarini behad sevadilar. Qadim an'analarga sodiqlik, har qanday qiyin ahvolda ham Vatanni tashlab ketmaslik, yoshi ulug'larni e'zozlash singari insoniy ko'nigmalar har ikki xalqqa birdek xosdir. Agar gruzin kino ijodkorlari filmlarini ko'rgan bo'lsangiz, bilasizki, hatto ularning beshiklari ham biznikiga juda o'xshash.

Agar Chingiz Aytmatovning «Qiyomat» nomli romanini, bu asardan joy olgan «oltovlon va yettinchi» taqdiri to'g'risidagi mungli hikoyani o'qisangiz, gruzin xalqi o'z kindik qoni to'kilgan tuproqqa naqadar qattiq bog'langaniga guvoh bo'lasiz. Nodar Dumbadzening «Hellados» nomli hikoyasida bu abadiy mavzu yangi bir nuqtayi nazardan ochib beriladi.

Avval mazkur hikoyani biroz qisqartirilgan holda o'qib chiqaylik.

•HELLADOS•

(*Hikoya*)

Yanguli — suxumilik grek Xrista Aleksandridining o'g'li. Cho'pday ozg'in, yelkalari turtib chiqqan, qirraburun, ko'zlar charosdek qop-qora, qo'llari uzunligidan tizzasiga tushib turadigan o'n to'rt yoshli bu bola yon-atrofdagi tengqurlari uchun naqd azroilning o'zi edi.

Yanguli otasi bilan Venetsian ko'chasida, Chalbash daryosining bo'yida yashardi. Onasini eslolmaydi — chaqaloqligidayoq yetim qolgan. Ota-bolaning bor-yo'q davlati bir parcha tomorqa, bittagina sigir va eshakdan iborat. Oshko'k, sut-qatiq sotib kun ko'rishadi.

Yanguli hech qayerda o'qimasdi. Otasining yumushlariga qarashar, ahyon-ahyon eshakda qo'shnilara sut-qatiq tarqatar edi...

O'n to'rt yoshli bu zolim Venetsian ko'chasida istiqomat qiluvchi barcha ustidan, jumladan, xolavachcham Koka ustidan ham tanho hukmronlik qilardi.

... Bizning tanishuvimiz o'ttiz sakkizinchı yılning kuzlarida boshlangan ...

... Temiryo'l kesib o'tiladigan joyda, odatdagidek, Yangulining to'dasi uymalanardi. Beixtiyor boshim o'sha tomon og'di — hozir uyg'a borishdan nima foyda! Bolalarga yaqin qolganda qadamimni sekinlatdim-da, atayin engashib, botinkamning iplarini titkilay boshladim.

— He-ey, skripka!

Yangulining ovozini darrov tanidim.

— Nima deysan?

— Bu yoqqa kel!

— Ishing bo'lsa — o'zing kel!

Yanguli o'zidan ham battar taajjublangan o'rtoqlariga bir qarab qo'ydi-da, asta men tomonga yura boshladi.

— Kimligimni bilmaysanmi hali? — deb so'radi u kishining g'ashiga tegadigan bir ohangda.

— Bilaman, — dedim ko'zlariga tik qarab.

— Bo'lmasa, nega chaqirganda kelmaysan?

— Kim bo'psan meni chaqiradigan? — dedim yana bepisandlik bilan, ammo har ehtimolga qarshi, skripka solingan g'ilofni yerga qo'ydim.

Yanguli o'yinni ham unutib, bizni qurshab olgan bolalarga bir-bir qarab chiqdi.

- Yanguli, kimligingni bir ko'rsatib qo'y! — dedi bolalardan biri.
- Sol, Yanguli! — deya qo'shimcha qildi ikkinchisi.
- Bir shapaloqqina! — deb maslahat berdi uchinchi bola.
- Oldin zo'rligini bir ko'raylik-chi! — Yanguli shunday deb, yuzimni bir siypalab qo'ydi.
- Qo'lingni tort! — baqirdim unga.
- Ol-la! — deya hayron bo'ldi Yanguli.
- Uni qaranglar-a!
- Papirotni chiqaz! — dedi Yanguli birdan qo'lini cho'zib.
- Chekmayman!
- Pulni ol!
- Pulim yo'q.
- Cho'ntaklaringni ag'dar!
- O'zing ag'dar!

Bolalar pichirlasha boshlashdi. Yanguli dovdirab qoldi, ammo darrov o'zini bosib, skripkaga qo'l cho'zdi.

- Tort panshaxangni! — deb baqirdim skripka ustiga engashib. Lekin Yanguli o'zg'irlik qildi — g'ilofni ochib, asbobni menga uzatdi.
- Qani, birorta kuy chalib bolalarmi xursand qilgin-chi!
- Chalmayman!
- Nega bo'lmasa bu dahmazani ko'tarib yuribsan? Esi yo'q eshakmisan?
- Ber skripkani!

Yanguli asbobni orqasiga yashirib, bir qadam tisarildi.

- Petya, Fema, Kurlik, Pancho, Tena! Umrlaringizda skripka ovozini eshitganmisizlar? — dedi u bolalarga murojaat qilib. Ular baravariga chuldirashdi.

— Radiodan eshitganman! — dedi Petya.

— Bo'laqol, Yanguli, bir ko'rsatib qo'y!

Skripkamning ovozini hammadan oldin o'zim eshitdim: Yanguli qulochkashlab turib skripka bilan boshimga tushirdi.

«Zi-i-ng... qars...» etgan tovushdan so'ng asbob ikkiga bo'lindi. Uning qorni, xuddi shartta chopib tashlangan qo'lday, nozik simlarga osilgancha lapanglab turardi.

Bolalar xaxolab yerga dumalashdi.

Yuragim go'yo to'xtab qolganday bo'ldi, miyamga qon urildi, quloglarim bitib qoldi. Men hech narsani eshitmas, sezmas edim, faqat

qornini changallab kulayotgan bolalarni, pachoq bo'lgan skripkani va Yangulining turtib chiqqan ozg'in iyagini ilg'ardim, xolos. Birdan bor kuchim bilan ana shu iyak ostiga musht soldim.

Es-hushimni yig'ib olganimda Yanguli ko'prik ustida o'tirar, menga hayratomuz tikilgancha o'ng qo'li bilan iyagini ishqalar edi. Bolalar churq etishmasdi.

Shartta burilib, uyg'a jo'nadim.

O'sha kuni kechqurunoq qo'shnimiz va Yangulining o'ng qo'li hisoblanmish Petya majaqlangan skripka bilan g'ilofni uyimizga olib kelib, ostonaga tashladi-da, quyonni survordi.

Fig'oni falakka chiqqan xolam avval Petyani, so'ng Yanguli Aleksandridini, oxirida o'zimni bisotida bor yomon so'zlar bilan qarg'ashga tushdi:

— Ha-a, yer yutsin seni, Petya kasofat!.. Iloyim, bo'yginang go'rda chirisin!.. Sen ham bir, ko'katfurush otang ham bir! Senlar skripkani qadriga yetasanlarmi? Paganinimi, Stradivarimi, arrakashmi — senlarga baribir!.. Eng avval sening go'shtingni qiymalash kerak edi, Yanguli Aleksandridi! Hayf senga musiqa! Eshakning hangrashini eshitib katta bo'lgan bola musiqani tushunarmidi! Hammasiga uyimdag'i yangi bezori aybdor! Mana shuni oyog'idan osish kerak! O, opajonim Aniko! O'zimning tashvishim yetmayotuvmidiki, yana manovi g'urbatni boshimga balo qilib tashlab ketding-a! Nima gunoh qildim, ey Parvardigor!..

O'sha kuni musiqa olamidagi sarguzashtlarimga nuqta qo'yildi. Hayotimda yangi davr — yashash uchun kurash davri boshlandi...

Ertasi kuni Yanguli bilan Petya bizni maktab darvozasi oldida qarshi olishdi...

Yanguli qora satin ko'ylagini yechdi. Keng, tarang ko'kragini ko'rib, seskanib ketdim. Bu ham mayli, chap to'shining ustiga ko'kish rangda naqshlangan lotin harflaridagi yozuv meni negadir butkul dovdiratib qo'ydi: «Hellados».

Yanguli Petyaga grekchalab bir nimalar dedi. Petya miq etmadı.

Yanguli yana takrorladi. Petya istamaygina ikkala cho'ntagidan ikkita kattakon toshni chiqarib, bir chetga uloqtirdi. Yanguli Kokaga qaradi. Koka shosha-pisha qoq-quruq cho'ntaklarini ag'darib ko'rsatdi.

— Boshladik! — dedi Yanguli.

— Boshladik! — dedim men ham.

Olishuv ikki-uch minutgina davom etdi.

Men mushtlarimni tugib, Yanguli esa besh panjasi bilan urardi. Men urganda ovoz chiqmas, ammo Yanguli har tushirganda atrofdan qarsillagan aks sado kelardi. Petya Yanguliga grekchalab dalda berar, Koka esa menga gruzinchalab bidirlar edi:

— Kalla qil, Jamol, kalla qil!

Mushtlashganda kalla qilish nimaligini o'zim ham bilaman, biroq Yanguliga yaqinlashib bo'lmayotgan edi: uning chayir, terlagan gavdasi har gal sirg'alib qo'limdan chiqib ketaverardi.

Yana bir qarsillagan tovush eshitildi-yu burnimdan tizillab qon otildi. Qonni artgunimcha Yanguli tag'in bir marta tushirdi; natijasi shu bo'ldiki, kecha xuddi Yanguli ag'darilganday gup etib yerga quladim, faqat bitta farqi bor: hozir men turadigan holdaman, ammo Yanguli kecha o'rnidan turolmagan edi.

Nima bo'lganda ham bugungi olishuvning yakuni ma'lum: men yutqazdim. Yanguli biroz kutib turdi, mushtlashishni davom ettirish niyatim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, shoshmasdan ko'ylagini kiya boshladi. Nigohim yana ko'ksidagi g'alati so'zga tushdi: «Hellados»...

Ertasiga maktabga bormadim — yuzimdag'i shish va mo'mataloqlarni davoladim. Uchinchi kuni temir yo'l kesib o'tiladigan joyda Yangulidan boshqa deyarli butun mahallaning bolalari to'planib turganini ko'r-dik. Ular bizni hushtak va tahqirlar bilan kutib olishdi.

Yanguli amirona ishora bilan hammaning ovozini o'chirdi, so'ng bami-soli qabila oqsoqliday o'z qavmiga yuzlanib, tarixiy nutq irod etdi:

— Bolalar! Men, Yanguli Aleksandridi, sizlar saylagan sardor, sizlarga, Venetsian ko'chasining hur farzandlariga murojaat qilaman! Ro'parangizda tbilisilik rangpar laqma bilan uning jiyanı — vatan va qabila xoini, mishiqi Koka turibdi. Mana bu rangpar kelgindi bizning mehmondo'stligimiz va muruvvatimizdan bahramand bo'lish o'rniga — Xudo siylagan yerimizni, dengizimizni, jamiki daryolarimiz, oltin va kumushlarimiz, o'tloqlarimizni o'ziniki qilib olmoqchi...

— Bas qil maynavozchilikni! — dedim uning gapini bo'lib. — Mushtlashamiz!..

... Bugungi olishuvimizga faqat eshak shohid bo'ldi. Mushtlashish uzoq davom etdi. Har qancha urinmayin, Yanguli o'zg'irlik qildi —

birinchi zARBANI u berdi. Men yiqilmadim, faqat chayqaldim, xolos. Ikkinci marta hamla qilganida chaqqonlik bilan gavdamni orqaga tashladim, qo'li burnim yonidan shuvillab o'tib ketdi. Ammo u shu qadar shiddat bilan quloch otgan ediki, muvozanatini yo'qotib, munkaygancha bir qadam oldinga tashladi. Shunda... Ho' o'sha birinchi bor mushtlashganimizda bo'lganiday, ozg'in iyagi o'ngimga kelib qoldi. Men ham o'sha iyak ostiga qattiq musht soldim. Yanguli yiqildi, bir muddat qimir etmadi.

Biz bir-birimizga uzoq tikilib qoldik. Pishillab nafas olayotganimizni har ikkalamiz ham eshitib turardik. Men Yangulining yana hamla qilishini kutardim, ammo, taajjubki, mushtlashishga menda na xohish, na kayfiyat qolgan edi. Biroq endi hech qachon Yanguli menga zo'ravonlik qilolmasligini ham bilib turardim.

— Bas! — dedi Yanguli kutilmaganda.

— Bo'pti! — Men ham rozi bo'ldim. — Lekin ertaga bolalarning oldida mushtlashamiz! — deya qo'shib qo'ydim har ehtimolga qarshi.

— Keragi yo'q. Zo'r bola ekaningni bolalarga o'zim aytaman. Lekin, bilib qo'y, birinchilikni senga bermayman!

— Keragi ham yo'q!

— Xohlasang, ikkinchi bo'la qol.

— Menga hech narsa kerak emas! Sening yo'ling boshqa, mening yo'llim boshqa! — Men ketishga chog'landim.

— To'xta! Bunaqasi ketmaydi. Har kuni mushtlashavermaymiz-ku, axir. Ke, kelishvolaylik: ertadan boshlab faqat so'kishamiz. Kim qoyilatsa — o'sha g'olib!

— Mayli, roziman.

Mana, yana bolalar qurshovidamiz. Bu gal o'rtamizda dahanaki jang avjga chiqqan.

— Jamol — eshakmiya!

— Yanguli — ko'katfurush grek!

— Tbilisilik mishiqi!

— Eshakboqar!

— To'ng'iz!

— Chirigan bodring!

— Toshbaqa!

— Itbaliq!

— Meduza!

— Ovsar!

— Paganini!

Bisotimdagи haqoratbop so'zlar tugadi. Yanguli kutib turardi — navbat meniki edi.

— Bo'la qol, yutqazasan! — deb turtkiladi Koka.

— Menda boshqa yo'q!

— Onasiga o't!

— Yo'q, onani aralashadirib bo'lmaydi!

— Sheni deda vatire, degin! Uyat joyi yo'q buni!

— O'rischasinga nima degani?

— Sen gruzinchasinga aytaver! U baribir tushunmaydi! — Koka hol-jonimga qo'ymasdi.

Yanguli, sheni deda vatire! — gruzinchalab shunday dedim-u javobini jon hovuchlab kutib turardim.

— Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!

Sezdimki, Yanguli ham onamga til tekkizdi, ammo bu so'zlar shu qadar xushohang, shu qadar yoqimli eshitildiki, go'yo u go'zal bir qo'shiqni boshlaganday bo'ldi nazarimda.

Men yana takrorladim:

— Sheni deda vatire, Yanguli!

— Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!

Bu hol yarim yilcha davom etdi. So'ng ehtiroslarimiz asta-sekin so'ndi. Ikkalamizning ham haqorat repertuarimizda bitta-yu bitta jumla qoldi, har uchrashganimizda men: «Sheni deda vatire, Yangul!» derdim, u bo'lsha: «Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!» derdi.

\* \* \*

... O'sha kuni Yanguli sut opkeldi. Hovlida unga ko'zim tushdi-yu... taniyolmay qoldim. Basharasi mo'mataloq bo'lib ketgan edi.

— Nima bo'ldi? — deb so'radim ajablanib.

Aql bovar qilmasdi — bu atrofda Yanguliga kim qo'l ko'tarishi mumkin?! Yoki birorta kattaroq yoshdagi odamning ishimikan bu?

— Hech narsa! — dedi u chetga qarab.

— Aftingni bir qaragin...

— Hechqisi yo'q! — deya jilmaydi u.

- Kim ekan u mushtumzo'r?!
- Otam!
- Otang?
- Otam.
- Nima gunoh qiluvding? — deya uning shishib ketgan chakkasiga avaylab qo'limni tekkazdim.
- Sababi bor-da...
- Nima ish qilib qo'yding?
- Uch kundan keyin Suxumiga Gretsiyadan paroxod keladi. Bu yerlik greklar Elladaga qaytishyapti. Otam ham...
- Xo'sh, nima qipti?
- Ketmoqchi emasman... Otamning gapiga qaraganda, bizning vatanimiz, ona tuprog'imiz o'sha yerda... Bizni ajdodlar ruhi chaqirayotgan mish, bu nidoga quloq solish shart emish...
- Nega birga ketmoqchimassan? — deb so'radim astoydil taajjublanib. Yangulidan ancha vaqtgacha sado chiqmadi.

— Qandoq tushuntirsamikin... — deya gap boshladi u nihoyat. — Onam yo'q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko'chada, Venetsian ko'chasida katta bo'ldim... Mening vatanim, mening Elladam bu — Suxumi, ko'cha, Chalbash; bu — Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko'pri... — U bir yutinib olib, davom etdi: — Bu — Mida... qolaversa, sen...

Midaning ismini mening oldimda Yanguli birinchi marta tilga olayotgan edi. Ammo men Mida — bir abxaz kishiga tur mushga chiqqan grek ayolining qizi ekanini, Suxumida undan go'zal qiz yo'qligini, Yanguli uni yaxshi ko'rishini bilardim.

- Tushundingmi endi?
- A'zoyi badanim jimirlashib ketdi. Bunaqa so'zlarni umrimda birinchi marta eshitayotgan edim.
- Bu nima bo'limasa? — Men Yangulining ko'kragini ochib, baland ovozda o'qidim: — Hellados.
- Bu — naqsh, Jamol. Vatan — ichkariroqda, naqd yurakning o'zida! — Yanguli qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

O'pkam to'lib, tomog'imga achchiq bir narsa qadaldi, unga yana bir nimalar demoqchi edim-u, ammo Yanguli eshagini no'xtasidan yetaklab, hovlidan chiqib ketdi...

Suxumiliklar o‘zлari bilan et-tirnoq bo‘lib ketgan qadrdonlari – greklar bilan xayrлаshishardi. Greklar allaqachon nuqraday oppoq «Poseydon» kemasiga chiqib olishgan, o‘sha yerdan turib qo‘l silkishar, grekcha, ruscha, gruzincha, armancha lafzda bir nimalar deb qichqirishar edi.

Men bolalarga qo‘shilib, sohildagi panjara devorga qapishgancha, nigohim bilan Yangulini izlay boshladim. Va uni topdim. Egnida o‘sha o‘zi yoqtiradigan oldi ochiq qora satin ko‘ylak.

— Yanguli, Yanguli! — deya qichqirishga tushdim qo‘l silkitib. Yanguli kuzatuvchilarga uzoq, juda uzoq razm soldi va birdan meni ko‘rib qoldi. Ikkala qo‘lini baland ko‘tarib, nido berdi:

— Jamol, ego agapo imana su! Jamol, oyingni yaxshi ko‘raman!

U grekcha nimadir deb baqirdi-yu, ammo menga qo‘shiq aytganday tuyuldi. Tag‘in shu narsani sezdimki, nazarimda, kemadan qochib ketmasin debmi otasi uni bilagidan mahkam ushlab turardi. Yana uning qo‘shig‘ini eshitishga, yana unga mo‘ltirab turishga bardoshim yetmadni. Kemaga ters o‘girildim-da, yig‘lagancha uyga jo‘nadim.

Oradan bir kun o‘tib, Kelasuri daryosining quyilish joyida dengiz to‘l-qinlari bir bolaning jasadini sohilga chiqarib tashlabdi. To‘g‘rirog‘i, uni keksa baliqchilar suvdan tortib olib, qumga yotqizishibdi. So‘ng murdaning kimligini aniqlash uchun shu atrofda o‘ynab yurgan bolalarmi chaqirishibdi.

Marhumning basharasi shu qadar dabdala bo‘lib ketgan ekanki, uni hech kim tanimabdi.

Uni men tanidim. Chap to‘shining ustidagi «Hellados» degan sehrli yozuvni ko‘rgandan keyin tanidim.

Nafasimni ichimga yutgancha sohildan, so‘ng temiryo‘l bo‘ylab, keyin Venetsian ko‘chasidan to‘xtovsiz yugurib, telbalarcha uyg‘a otilib kirdim.

— Ha, nima bo‘ldi?!! — Xolamning kapalagi uchib ketdi.

— Nina xola... Yanguli qaytib keldi...

So‘ng xolamning oldida cho‘kkalab, oyoqlarini quchoqlagancha ho‘ngrab yig‘lab yubordim...

## «HELLADOS» HIKOYASI HAQIDA

Mana, aziz o‘quvchi, Nodar Dumbadze tomonidan yaratilgan bu nodir hikoyaning naqadar ta’sirli ekaniga o‘zingiz amin bo‘ldingiz. Siz-u biz har kuni ishlata digan oddiy so‘zlar iste’dod kuchi bilan qanchalar jon kashf etishi, rang va hatto tarovat taratishi chindan ham mo‘jiza

emasmi?! Bu hikoyani o'qiguningizga qadar dunyoda Yanguli degan bola, uning o'ziga xos hayoti va qismati borligi to'g'risida mutlaqo bilmas edingiz. Endi esa bilasiz. Bilasizgina emas, balki bu bolani xuddi o'zingizning akangizdek yaxshi ko'rib ham qoldingiz. Uning o'limi Sizni qanchalar achintirdi.

E'tibor bering — Yanguli hech qayerda o'qimagan, onasidan go'dakligidayoq yetim qolgan, otasi bo'lsa uzzukun tirikchilik tashvishlari bilan band. Bir qaraganda u — ko'cha bolasi. «O'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olish» uning kasbiga aylanib qolgandek. Biroq Siz turli joylarda o'qiganingiz bir hikmatni yaxshi eslaysiz: «Kimki olmasa hayotdin ta'llim, unga o'rgatolmas hech bir muallim». Mavlono Rudakiyning bu bashoratida ma'no juda ko'p. Yanguli, garchi, maktab — ustoz ko'rmagan, ota-onas mehridan to'la bahramand bo'lomagan esa-da, uning tabiatan nozik ko'ngli, mushohadaga moyil aql-u farosati bor!

Qarang: Jamol Yangulining onasi yo'qligini bilardi, biroq Kokanining qistovi bilan (qolaversa, bolaligiga borib) uni onasini qo'shib so'kishdan o'zini tutib turolmadi. Yanguli esa Jamolning onasi o'lganini eshitiboq, o'z raqibini quchoqlab, undan uzr so'rashga chog'lanadi. Bugina emas, Yanguli otasining zo'rligi bilan Vatanini tark etyapti-yu, shu og'ir holatda ham Jamolning ko'nglini ko'tarishni o'ylaydi: «Jamol, ego agapo imana su! Jamol, oyingni yaxshi ko'raman!»

Jamol nazarida, Yangulining o'z to'dasi oldida so'zlagan «tarixiy nutqi» maynavozchilikdan boshqa narsa emas. Darhaqiqat, hikoya hodisalari yuz berayotgan 1938-yillarda bunday balandparvoz gaplarni turli idoralar rahbarlari bot-bot takrorlayverib, bu ishni maynavozchilikka aylantirib yuborishgani ham rost. Lekin Yangulining birorta gapi yo'liga aytilgan emas. U chindan-da o'zi va to'dasidagi bolalarmi vatanning «hur farzandlari» deb biladi. U rostdan ham Gruziya yerini, dengizini, jamiki daryolarini, oltin-kumushlari-yu o'tloqlarini o'ziniki deb hisoblaydi!

Demak, inson qalbida unga o'zligini tanitgan makon, sadoqatli do'stlar orttirgan go'sha, har qarichi ko'zga to'tiyo zamin, eng pokiza hislari tug'ilgan onlar Vatan degan tuyg'uni paydo qilar ekan-da. Demak, chin vatanparvar bo'lmoqlik uchun muayyan millat vakili bo'lishning o'zi yetarli emas ekan-da.

Yanguli fojiasida uning otasini ayblashga ham shoshilmaslik kerak. Otani ham tushunish lozim. U ham o'z Vatanini Yangulidan kam

sevmaydi. Faqat uning vatani boshqa – Gretsya – Ellada! Uni chindan ham o'zi voyaga yetgan yurtda ajdodlar ruhi chaqirmoqda. U ham bolalikdagi do'stalariga, xotiralariga, ilk muhabbatiga guvoh bo'lган go'shalarga talpinadi. Uning ham bu sog'inch-u talpinishlarga haqqi bor!

Hikoyachi Jamol ham, garchi hali yosh, o'yinqaroq bolaligi o'tib ketmagan bo'lsa-da, o'ziga xos xarakterga ega obrazdir. Yanguli bergen laqablarga qaraganda rangpar, shaharda o'sib noziklashib qolganiga qaramasdan Jamol o'zini va sha'nini himoya qila oladigan bolalar xildandir. Uning o'mida boshqa bola bo'lganida, balki Yangulidan ikki marta kaltak yeganidan keyin bu to'daga bo'ysunib ketardi. Axir uning ortida keksa Nina xola-yu, qo'lidan ish kelmaydigan Kokadan boshqa yonini oladigan yana kimi bor? Qolaversa, u Suxumiga, Venetsian ko'chasiga «kelgindi» bo'lsa!

Shundayligiga qaramay, Jamol bu «to'da»ga bo'sh kelishni xohlamadi. Uning shu qat'iyligi, jasurligi, o'zini xor qildirib qo'ymasligi, oxir-oqibatda, «dushmanlari»ning do'st bo'lishiga, Yangulidek «zo'ravon» e'tirofini qozonishga olib keladi. Jamolning hozirga qadar o'tkazgan hayotidagi eng fojiali kun – qadrdoni Yangulining o'limiga shohid bo'lgan kun bo'lsa, ajab emas. Hikoyaning so'nggi epizodi bu fikrimizni to'liq tasdiqlaydi...

Asarda Jamolni asrab olgan Nina xola unchilik ko'p ishtirok etmaydi. Biroq bu zahmatkash ayoilning kuyinib gapirishlari, asabliancha tarang tortib qolganidan sezamizki, uning boshidan ham anchagina issiqsovruqlar o'tgan. Jamolning do'sti Koka, Yanguli to'dasining bir qancha a'zolari obrazi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Bularning bari «Hellados» hikoyasida qator betakror inson xarakterlari yaratilganidan yaqqol darak beradi.

Xarakter – yunoncha so'z bo'lib, «xususiyat», «belgi» ma'nolarini anglatadi. Badiiy asar qahramonlari o'zining tasvir va talqin darajasi, voqealardagi ishtiroki, asarda ko'taradigan «yuki»ga ko'ra **personaj, obraz, xarakter, tip** degan darajalarga ega bo'ladi.

Dunyoda yuzi bir-biriga o'xshash odamlar ko'p topiladi. Lekin ularning xarakteri bir-biridan keskin farq qilishi aniq. Adabiy qahramonni xarakter darajasiga olib chiqish yozuvchidan katta mahoratni talab etadi.

Siz o'rgangan Navoiy, Bobur, Muqimiy she'rlarida mualliflar xarakteri, ularning dunyoqarashi, didi, orzu-armonlari manaman deb

aks etib turibdi. Yoki Oybekning Fanorchi otasi bilan G‘afur G‘ulomning «o‘g‘rigina bola»sini, Nodar Dumbadzening Yangulisi bilan Jamolini bir-biriga hech o‘xshatib bo‘lmaydi.

Demak, badiiy xarakterda ham insonning muhim tug‘ma xususiyatlari, boshqalarnikiga o‘xshamagan irodasi, tashqi ta’sirlar bilan o‘zgarishi qiyin bo‘lgan tabiatni namoyon bo‘lar ekan.

Taniqli o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor bunday qahramonlarning yaratilishini «Adabiyot uy daftarida bir odamning paydo bo‘lishi» deb baholagan edi. Bilasizki, uy daftariga faqat tirik tug‘ilgan odamnigina qayd etishadi. Adabiyot, san’at esa abadiy tirik insonlar, ularning tirik tuyg‘ularini kuylaydi.

Aslida gruzin adibi Nodar Dumbadze asarining kuchi ham shunda. Bu asarda osongina hal bo‘ladigan muammolar emas, balki nihoyatda murakkab, yechimi insongagina bog‘liq bo‘limgan abadiy muammolar qalamga olinganida.

Nodar Dumbadzening «Hellados» asarini sinchiklab o‘qib, undan yana talay ma’nolar topishingiz, ruhingiz va dunyoqarashingizni boyitishingiz mumkin. Ishonamizki, Siz faqat bu asar yoki faqat qo‘lingizdagi «Adabiyot» darsligiga kirgan asarlar mutolaasi bilan cheklanib qolmay, mustaqil o‘qishga zo‘r berasiz, yangi-yangi kitoblardan olam-olam taassurotlar olasiz. Bu maroqli mashg‘ulot Sizning kelajakda chin Inson bo‘lib yetishuvningiz, o‘zingizdek inson bolasini tushunishingiz va go‘zal hayot kechirishingizda, albatta, asqatadi!

### *Savol va topshiriqlar*



1. Sizning ko‘proq kimga o‘xshagingiz keladi — Yanguligami, Jamol-gami, Petyagami yoki Kokaga?
2. Gruzin va o‘zbek xalqlarining mushtarak jihatlarini misollar bilan aytib bering.
3. Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida Nodar Dumbadze tashabbusi bilan «Mziuri» — «Quyoshjon» nomli bolalar bog‘i barpo etilgan. Bu fakt nimadan dalolat beradi?
4. Gretsiyaga yo‘l olgan «Poseydon» kemasida nima voqeal ro‘y bergen bo‘lishi mumkin?

## MUNDARIJA

Adabiyot – so‘z san’ati .....	3
-------------------------------	---

### HIKMAT DURDONALARI

<b>Maqollar</b> .....	10
Maqollardan namunalar.....	12
<i>Nazariy ma ’lumot.</i> Xalq og’zaki ijodi tushunchasi .....	15
<b>Topishmoqlar</b> .....	16
Topishmoqlardan namunalar .....	18
<i>Nazariy ma ’lumot.</i> Maqol va topishmoq tushunchalari .....	22
<b>Imom al-Buxoriy</b> .....	24
Hadislar («Al – jome’ as-sahih»dan) .....	27
<i>Nazariy ma ’lumot.</i> Hadis haqida tushuncha .....	34
<b>Ezop</b> .....	36
Ezop masallari va ularning ibrachtari haqida .....	39
<i>Nazariy ma ’lumot.</i> Masal haqida tushuncha .....	44

### RIVOYAT VA ERTAKLAR OLAMIDA

«To’maris» rivoyatı .....	47
«To’maris» hikoyasidan .....	49
«To’maris» hikoyasi haqida .....	51
«Shiroq» rivoyatı .....	53
«Shiroq» hikoyasi haqida .....	59
<i>Nazariy ma ’lumot.</i> Rivoyat va afsona tushunchalari .....	61
«Uch og’a-ini botirlar» ertagi haqida .....	62
«Uch og’a-ini botirlar» ( <i>ertak</i> ) .....	64
«Susambil» ertagi haqida .....	71
«Susambil» ( <i>ertak</i> ) .....	73
<i>Nazariy ma ’lumot.</i> Ertak haqida tushuncha .....	84
<b>Hamid Olimjon</b> .....	87
«Oygul bilan Baxtiyor» ( <i>ertak-doston</i> ) .....	89
<i>Nazariy ma ’lumot.</i> Ertak-doston haqida tushuncha .....	98
<b>Maqsud Shayxzoda</b> .....	100
«Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostoni haqida .....	102

<i>Shukrullo</i>	105
«Umr haqida ertak» she'ri	105
<i>Hans Kristian Andersen</i>	110
«Bulbul» (ertak)	117
 BOLALIKNING BEG'UBOR OLAMI	
<i>Abdulla Qodiriy</i>	129
«Uloqda» (hikoya)	131
«Uloqda» hikoyasi haqida	137
<i>Nazariy ma 'lumot. Hikoya haqida tushuncha</i>	140
<i>Oybek</i>	142
«Fanorchi ota» (hikoya)	143
«Bolaning ko'ngli podsho» («Bolalik» qissasidan)	149
<i>G'afur G'ulom</i>	155
«Mening o'g'rigma bolam» (voqeiy hikoya)	157
«Mening o'g'rigma bolam» hikoyasi haqida	163
<i>Usmon Nosir</i>	170
«Bolaligimga»	171
«Yurganmisiz birga oy bilan»	172
«Yur, tog'larga chiqaylik...»	174
«Yo'lchi»	175
«Yoshlik»	177
«Gulzor — chaman...»	178
<i>Nazariy ma 'lumot. She'r haqida tushuncha</i>	180
<i>O'tkir Hoshimov</i>	182
«Dunyoning ishlari» (qissadan boblar)	184
<i>Mirtemir</i>	193
«Bulut»	195
«Baliq ovi»	195
«To'rg'ay»	196
«Shudring»	197
«Qishlog'im»	198
Mirtemir she'rlari haqida	199
<i>Maqsud Qoriyev</i>	205
«Qaldirg'ochlar bahorda keladi» (hikoya)	206
«Qalding'ochlar bahorda keladi» hikoyasi haqida	210
<i>Antuan de Sent-Ekzyuperi</i>	214
«Kichkina shahzoda» (asardan boblar)	219
 MUMTOZ ADABIYOT BO'STONI	
<i>Alisher Navoiy</i>	241
«Hayrat ul-abror» dostonidan. O'ninchi maqolat	243
O'ninchi maqolat (nasriy bayoni)	249

«Sher bilan durroj» ( <i>nasriy bayoni</i> ) .....	251
«Hayrat ul-abror» dostonida to'g'rilik va egrilik to'g'risida .....	252
<b>Zahiriddin Muhammad Bobur</b> .....	257
Ruboiylar .....	260
<i>Nazariy ma'lumot.</i> Ruboiy haqida tushuncha .....	264
<b>Muhammad Aminxo'ja Muqimiy</b> .....	266
«Sayohatnorma»dan .....	270
<i>Nazariy ma'lumot.</i> «Sayohatnorma» haqida tushuncha .....	274
<b>Sa'diy Sheroziy</b> .....	276
«Guliston»dan .....	278
«Bo'ston»dan .....	281

#### VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR

<b>Hamza Hakimzoda Niyoziy</b> .....	286
«Jonlarni jononi vatan» .....	289
«Dardiga darmon istamas» .....	293
<b>Erkin Vohidov</b> .....	298
«O'zbekim» qasidasi haqida .....	299
<i>Nazariy ma'lumot.</i> Qasida haqida tushuncha .....	303
<b>Abdulla Oripov</b> .....	304
«O'zbekiston» ( <i>qasida</i> ) .....	305
«O'zbekiston» qasidasi haqida .....	309
<b>O'lmas Umarbekov</b> .....	312
«Qizimga maktublar» .....	313
«Qizimga maktublar» asari haqida .....	330
<b>Nodar Dumbadze</b> .....	336
«Hellados» ( <i>hikoya</i> ) .....	337
«Hellados» hikoyasi haqida .....	344

SUNNAT AHMEDOV, [BEGALI QOSIMOV],  
RAHMON QO'CHQOROV, SHUHRAT RIZAYEV

## ADABIYOT

**Umumiy o'rta ta'llim mакtabalarining  
5-sinfi uchun darslik**

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent — 2007

Muharrirlar: *U. Qo'chqorov, A. Bahromov*  
Badiiy muharrir *T. Qanoatov*  
Texn. muharrirlar: *T. Zolotilova, D. Gabdraxmanova*  
Musahhihlar: *O. Bozorova, Sh. Xurramova*  
Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Bosishga 12.07.2007-y.da ruxsat etildi. Bichimi 70×90<sup>1/16</sup>. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 25,74. Nashr tabog'i 24,5. Adadi 536812 nusxa. Buyurtma № 3740.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasi, 100083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41-uy.**

## Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandi holati	Sinf rahbarining imzosi
1	Yangi	2002 2003	Yangi	Yangi		
2						
3						
4						
5						

**Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.